**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI**

# RENESSANS KONTEKSTIDA MARKAZIY OSIYONING ILMIY-MA’NAVIY MEROSI


**Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari**

# НАУЧНО-ДУХОВНОЕ НАСЛЕДИЕ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В КОНТЕКСТЕ РЕНЕССАНСА

**Материалы международной научной конференции**

# SCIENTIFIC AND SPIRITUAL HERITAGE OF CENTRAL ASIA IN THE CONTEXT OF THE RENAISSANCE

**Of the international scientific conference**





**10.04.2025,**
**Navoiy shahri**

Mazkur to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-dekabrdagi №490-sonli buyrug‘i asosida sonli farmoyishi asosida tasdiqlangan “**Renessans kontekstida markaziy osiyoning ilmiy-ma’naviy merosi**” mavzusidagi Xalqaro ilmiy konferensiya materiallaridan iborat.

To‘plamda Markaziy Osiyoda Uyg‘onish davrida Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan buyuk mutafakkirlarning falsafiy, tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-xuquqiy va ma’naviy-diniy qarash va g‘oyalarining sivilizatsion ahamiyati va insoniyat tarixidagi substonsional mohiyati ochib berilgan, turli fan sohasi vakillarining tahliliy materiallari jamlangan.

Xalqaro ilmiy konferensiya maqolalar to‘plamini tayyorlash uchun mas’ullar

**Mas’ul muharrir:** Nigora Safarova, falsafa fanlari doktori,
professor NavDU Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri

**Taqrizchilar:** Elyor Karimov, tarix fanlari doktori, professor. Nyu York Xofstra universiteti professori (AQSH) YUNESKOning Butunjahon yodgorliklari hujjatli merosini himoya qilish qo‘mitasi a’zosi

Shahnoza Madayeva, falsafa fanlari doktori, professor
O‘zbekiston Milliy universiteti falsafa va mantiq kafedrasi mudiri

**Muharrirlar:** Nigina Shamsutdinova DSc,
NavDU Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti
Mirzohid Norqobilov PhD,
NavDU O‘zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti

Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardirlar.

© Navoiy Davlat universiteti, 2025

## SO‘ZBOSHI

XXI asrga kelib jahonda ilm-fan jadal sur’atlar bilan rivojlanib, uning so‘nggi natijalari esa tezlikda bevosita ishlab chiqarish jarayoniga joriy etilmoqda. Bunday holatning vujudga kelishi ilm-fan bilan ishlab chiqarish jarayoni o‘rtasidagi dialektik munosabatlarni falsafiy jihatdan to‘g‘ri va teran anglab olishni taqozo etmoqda. Bu esa o‘z navbatida ilm-fanni taraqqiy ettirish va ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislarning yangi avlodini yetishtirish vazifasini kun tartibiga qo‘ymoqda. Bu vazifani esa tabiat, jamiyat, inson tafakkuri haqida haqiqatligi hayotda tasdiqlangan aniq, ishonchli dalillardan tashkil topgan, metodologik ahamiyatga molik bo‘lgan bilimlarni o‘zida aks ettirgan fundamental falsafiy nazariya zaminiga qurilgan ta’lim tizimigina amalga oshirishi mumkin.

Globallashuv sharoitida ta’lim jarayonining shiddatli kechishi, uni Uchinchi Renessans yo‘lda xizmat qildirish esa falsafiy jihatdan to‘g‘ri anglab yetishga, ya’ni falsafiy bilimlarga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib boradi. SHu sababli ta’lim falsafasiga bo‘lgan ehtiyoj o‘z vaqtida qondirilmas ekan, u holda mavjud ta’lim Uchinchi Renessansga bo‘lgan intilish uzluksiz tarzda rivojlanish imkoniyatlaridan mahrum bo‘lib, hayotdan orqada qolib ketadi va oxir-oqibatda jamiyatning izchil rivojlanishiga to‘sqinlik qilib qoladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev aytganidek: «Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma’naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha yonimizda bo‘lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta’lim tizimini ana shunday ruh bilan sug‘orishimiz kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma’naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari zarur. Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo‘yib, uni milliy g‘oya darajasiga ko‘tarmoqdamiz. Biz maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo‘lg‘usi Renessansning to‘rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg‘onish davrining to‘rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz. Men ishonaman – hurmatli ota-onalar bu tashabbusni albatta qo‘llab-quvvatlab, yangi Renessansning beshinchi halqasi, beshinchi ustuni bo‘ladilar. Va bu ma’naviy-ma’rifiy hayotimizdagi eng mustahkam ustun bo‘ladi, desam, o‘ylaymanki, sizlar to‘la qo‘llab-quvvatlaysizlar»[1]. SHu sababdan *“***Renessans kontekstida Markaziy Osiyoning ilmiy – ma’naviy me’rosi”**ini bugungi taraqqiyot uchun amaliy ahamiyatidan kelib chiqib o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad etib belgilandi. SHuning uchun, avvalo, Renessansning tarixiy ildizlari va asoslarini, Uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz chuqur anglab olishimiz zarur. So‘nggi davrda Markaziy Osiyo va qo‘shni hududlarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar mazkur mintaqada qadimgi SHarq sivilizatsiyasining shakllanishi va rivojlanishida o‘ziga xos o‘rin tutganligini anglab yetish mumkin.

**Navoiy davlat universiteti rektori**
**professor B.M.Kalonov**

[1] [1] Мирзиёев Ш.М. Ўқитувчи ва мураббийлар – янги Ўзбекистонни барпо этишда катта куч, таянч ва суянчимиздир// https://president.uz/uz/lists/view/3864

## ДЖАЛАЛ АД-ДИН РУМИ: САМЫЙ ПРОДАВАЕМЫЙ ПОЭТ В США!

**Каримов Элёр Эрикович,**
доктор исторических наук, профессор. Hofstra University (США). Член комитета ЮНЕСКО по защите всемирного документального наследия Память мира (Memory of the World**),** США

Самый читаемый поэт в США — не Билли Коллинз (Billy Collins), чье поэтическое творчество принесло ему два срока в качестве поэта-лауреата США (Поэт-лауреат США — официальный поэт Библиотеки Конгресса США), не Роберт Фрост (Robert Frost), четырехкратный лауреат Пулитцеровской премии, и даже не Эдгар Аллан По (Edgar Allan Poe), чьё стихотворение «Ворон» (The Raven) называют «самой известной поэмой в Западном полушарии».

Самый читаемый поэт в США — это Джалал ад-Дин Мухаммад Руми, великий теолог, поэт и суфий XIII века. Благодаря американским поклонникам Руми, на рынке Соединенных Штатах существует целый культ Руми - календари с изображением Руми, компакт-диски Руми, постеры Руми, футболки Руми и даже кофейные кружки с образами Руми. Но, наибольшей популярностью пользуется творчество Руми - за последние годы его стихи были проданы миллионными тиражами, что сделало его самым популярным и продаваемым поэтом в США!

Среди почитателей Руми много знаменитых людей, таких как Мадонна, Деми Мур, Голди Хоун, Мартин Шин, Дебра Уингер, Роза Паркс и другие. Для них вдохновляющие слова поэзии и философии Руми – это напоминание того, как поэзия может быть неотъемлемой частью повседневной жизни.

Руми стал одним из самых продаваемых поэтов в США благодаря своим понятным темам всеобщей любви, выраженным с помощью доступных метафор и образов, которые нашли широкий отклик у западной аудитории.

Поэзия Руми, в значительной степени, сосредоточена на божественной любви, что делает его творчество понятным для представителей разных культур и религий. Немногие религиозные деятели в истории человеческой цивилизации так успешно пересекли границы веры, языка и географии, как это удалось сделать нашему земляку Джалал ад-Дину Руми.

## ЭТНОКУЛЬТУРНЫЙ КОМПОНЕНТ В СОДЕРЖАНИИ ПОДГОТОВКИ ПЕДАГОГОВ
## (из опыта работы УО МГПУ им. И.П.Шамякина)

**Навныко Валерий Николаевич,**
кандидат физико-математических наук, доцент, ректор Мозырского государственного педагогического университета имени И.П.Шамякина, Беларусь

На всех этапах развития системы образования Республики Беларусь одной из острых проблем выступает поиск эффективных направлений и средств ее совершенствования и развития.

Одной их важных задач системы образования, обозначенной в Государственной программе «Образование и молодежная политика» на 2021–2025 годы, является создание условий для эффективной самореализации молодежи, формирования у молодежи через систему героико-патриотического и духовно-нравственного воспитания активной гражданской

позиции, любви к Родине, гордости за ее прошлое и настоящее, ответственности за судьбу Беларуси.

Потому что, как отмечал Президент Республики Беларусь Александр Григорьевич Лукашенко в Послании белорусскому народу и Национальному собранию: «Мир на земле немыслим без исторической памяти, а созидание – это преемственность исторического пути, это шаг в будущее».

Образовательная среда современной школы не создается искусственно, не существует обособленно от общественной жизни – она вольно или невольно отражает проблемы общества и коммуникации между людьми и обучает эти проблемы преодолевать, а содержательные идеи и ценности, которые закладываются в образовательные стандарты, служат тем стержнем, вокруг которого аккумулируется система развития общественного самосознания.

Решение обозначенной выше задачи формирования любви к Родине, гордости за ее прошлое и ответственности за настоящее возможно при условии сформированности у молодежи чувства национальной самоидентичности, что, в свою очередь, может быть осуществлено в опоре на знания этнокультурных особенностей страны, историко-культурной обоснованности ценностей и традиций, а также убежденности в их уникальности и значимости.

Вот почему назревает актуальность и значимость введения в нормативно-методические документы этнокультурного компонента – как базиса развития образования на основе ценностей, максимально отвечающих ментальности нашего народа. Именно поэтому анализ этнокультурных аспектов совершенствования отечественной системы образования не должен оставаться вне сферы внимания ученых и педагогической общественности. Система образования должна использовать уникальную возможность для более целесообразного выстраивания жизненных ориентиров человека.

В настоящее время этнокультурный компонент стал актуальной темой в образовании. Обладание этнокультурной компетентностью и проблемы ее формирования имеют особую значимость для педагогов, так как своей профессиональной деятельностью они осуществляют процесс трансляции культуры в обществе. Возрождение духовной культуры народа, активизация интереса к своей истории, воспитание бережного отношения к национальным традициям весьма актуально. Без знаний прошлого, без уважения к нему, без бережного сохранения великого наследия наших предков педагог не может быть духовно богатым сам и воспитывать духовно наполненное молодое поколение.

Под этнокультурным компонентом содержания образования на всех его уровнях и на уровне высшего педагогического образования, в том числе, мы понимаем все то, что дает более полное представление о богатстве национальной культуры, особенностях жизненного уклада, духовных ценностях и смыслах, что способствует развитию высоконравственной гармоничной личности будущего специалиста, патриота своей Родины, толерантного к представителям других культур и ценностей. Он обеспечивает связь социокультурной интеграции личности обучающегося с его потребностями в осознании культурных корней, психологически прочных родственных связей.

При обосновании значения этнокультурного компонента в развитии системы образования можно опираться на взгляды сторонника концепции этнообразования Г.Н. Волкова, по мнению которого, подготовка профессионала невозможна без упора на национальное сознание и этнокультуру: «Без памяти исторической – нет традиций, без традиций – нет культуры, без культуры – нет воспитания, без воспитания – нет духовности, без духовности – нет личности, без личности – нет народа как исторической личности» [Волков, Г. Н. Этнопедагогическая пансофия: монография / Г.Н.Волков.– Элиста: КалмГУ, 2009. – с. 557].

Для реализации этнокультурного компонента в содержании образования необходимы подготовленные кадры, что стимулирует нас проектировать новые средства обучения и

воспитания в обозначенном аспекте на основе широких научных исследований и обоснованных подходов.

В процессе проектирования подходов к решению обозначенной проблемы в качестве целевого ориентира мы опираемся на признаки этнокультурного развития личности:

- наличие совокупности представлений об этнических особенностях истории, жизнедеятельности и культуры нации, о типичных чертах своей общности, ее свойствах как целого;
- осознание личностью своей тождественности представителям определенного этноса, национальная идентификация;
- сформированность системы этнически обусловленных социально-нравственных показателей оценивания окружающей социальной среды, поступков других людей и др.;
- осознание своего активного деятельного начала, направленного на поддержание этнической целостности и приумножение благ своего народа.

Основными направления реализации потенциала этнокультурного компонента в совершенствовании системы образования в УО МГПУ им. И.П.Шамякина выступают:

- проведение научных исследований с целью создания научно-методической основы внедрения этнокультурного компонента в образовательный процесс университета;
- введение сведений этнокультурной направленности в содержание обучения по дисциплинам учебных планов различных специальностей;
- организация научно-исследовательской работы студентов по различным аспектам проблемы сохранения и развития этнокультурных традиций Беларуси;
- проектирование и организация воспитательной работы с обучающимися с использованием потенциала этнокультурных ценностей и традиций белорусского народа, ориентированной на творческое, гражданско-патриотическое, духовно-нравственное и художественно-эстетическое развитие.

Основу работы университета в направлении использования этнокультурного наследия как основы совершенствования содержания и структуры образовательного процесса закладывают фундаментальные исследования, проводимые ведущими учеными нашего учебного заведения.

В рамках Государственной программы научных исследований «Общество и гуманитарная безопасность белорусского государства» под научным руководством профессора Болбаса Валерия Сергеевича проводятся исследования по теме НИР «Разработка научно-методических основ подготовки учителей к организации этнокультурного обучения и воспитания в системе непрерывного педагогического образования Республики Беларусь». Научным коллективом разработаны методологические основания подготовки учителей к организации этнокультурного образования, определены основные направления подготовки учителей к осуществлению этнокультурного обучения и воспитания в рамках учебно-научно-инновационного кластера непрерывного педагогического образования, построена модель подготовки учителей к осуществлению этнокультурного образования и определены важнейшие этнокультурные технологии (обучающие, воспитательные, поисково-исследовательские) по организации работы с разными возрастными категориями обучающихся в современном образовательном пространстве. На настоящем этапе коллектив апробирует разработанное методическое обеспечение, проводит корректировку теоретических исследований.

По заданию Белорусского республиканского фонда фундаментальных исследований научным коллективом «Этнокультура» под руководством Палиевой Т.В. выполняется задание «Формирование этнокультурной выразительности Беларуси в общественно-политической мысли и образовательной практике конца XVIII – начала XX века». Научным коллективом предложена целостная концепция формирования этнокультурной выразительности Беларуси в общественно-политической мысли и образовательной практике конца XVIII – начала XX века;

установлены закономерности и особенности формирования этнокультурной выразительности Беларуси в условиях полиэтничности и поликонфессиональности; разработана новая модель повышения компетенции будущих педагогов в области гражданского, патриотического и поликультурного воспитания подрастающего поколения с учетом созданная на основе обогащения содержания их профессиональной подготовки полученными результатами исследования. Разработаны учебная программа и электронный учебно-методический комплекс по дисциплине «Этнокультурная выразительность Беларуси» (введена впервые) для подготовки педагогических кадров по специальности 1-02 01 01 «История и обществоведческие дисциплины».

Ввиду общественно-воспитательной значимости феномена малой родины как социо- и этнокультурной ценности и составляющей когнитивной базы представителей белорусского лингвокультурного сообщества Сливец О.Г. проводится лингвистическое исследование, направленное на выявление способов и приёмов создания образа малой родины в современной белорусской поэзии средствами ономастической лексики.

Научными коллективами и отдельными исследователями рассматриваются различные аспекты проблемы этнокультурного воспитания: «Генезіс і пераемнасць развіцця этыка-педагагічнай думкі Беларусі X–XVII стст.» и «Принцип природосообразности воспитания в историко-педагогическом наследии Беларуси XVI–XVII вв.» (профессор Болбас В.С.), “Историческое знание и историческая память белорусов в XV–XIX веках” (доцент Барсук Е.Е.), “Лінгвакультурныя ідэнтыфікатары ў розных камунікатыўных практыках” (коллектив авторов в составе Кураша С.Б., Бурковой А.В., Струкова В.В.).

Ведущие идеи и ценности этнокультуры белорусов, выявленные в ходе исследований факты, закономерности, условия находят свое отражение в содержании учебных программ по различным дисциплинам и специальностям, выступая как в качестве содержания обучения, так и средств обучения и воспитания.

Изучение дисциплин с этнокультурным компонентом в их содержании стимулирует активную научно-исследовательскую деятельность студентов. Авторский коллектив студентов физико-инженерного факультета получил и реализовал грант Министерства образования Республики Беларусь на выполнение проекта «Разработка учебно-методических материалов по изучению объектно-событийного программирования на уроках информатики». Коллективом разработаны ЭУМК (для учащихся) и технологическая карта (для учителей) по самостоятельному и углубленному изучению объектно-событийного программирования в среде PascalABC.NET, включающие демонстрационные примеры с этнокультурным содержанием. Результаты внедрены в образовательный процесс УО МГПУ им. И.П.Шамякина по дисциплинам «Методы алгоритмизации и программирование» и «Традиционные и инновационные методики обучения информатике».

На технолого-биологическом факультете Шиманской И.М. выполняется исследование на тему «Формирование идей этноэкологического воспитания в народной педагогике белорусов: системно-структурный аспект», в ходе которого уточнена сущность этноэкологического воспитания и впервые в педагогической науке определено структурно-смысловое содержание понятия «идея этноэкологического воспитания», обоснован системообразующий характер формирования идей этноэкологического воспитания в народной педагогике белорусов, выявлен и теоретически обоснован этноэкологический потенциал народной педагогики белорусов как фактор совершенствования современного экологического образования. Непосредственно на материалах исследования разработана факультативная дисциплина «Этноэкологическое воспитание белорусов», которая с 2020 года включена в учебный план высшего образования УО МГПУ им. И.П. Шамякина.

В учебный план специальности «Технологическое образование (обслуживающий труд и изобразительное искусство)» включены дисциплины компонента УВО этнокультурной направленности «Народная кухня», «Народный костюм», содействующие глубокому изучению студентами важнейших компонентов народной прикладной культуры, расширению профессионального кругозора в этнокультурном аспекте.

На технолого-биологическом факультете выполняются курсовые и дипломные исследования, отражающие различные аспекты исследования традиций народной прикладной культуры Беларуси: «Разработка коллекции сувениров, выполненных в технике вязания крючком, с использованием народных мотивов» (Заяц А.В., 2022), «Реализация образов героев батлейки с использованием различных видов декоративно-прикладного искусства» (Жинко И.О., 2023), «Разработка и реализация технологии изготовления кукол в белорусских народных костюмах в технике вязания крючком» (Грень Е.Д, 2024).

На филологическом факультете этнокультурный компонент включен в содержание образования по специальности «История и обществоведческие дисциплины», в частности, при изучении учебных дисциплин «Краеведение Беларуси», «Этнология Беларуси», «История Беларуси», «Культура и межкультурное взаимодействие в современном мире». Кроме того, студентам 4 курса данной специальности преподается спецкурс «Этнокультурная выразительность белорусов», разработанный по результатам выполнения НИР “Формирование этнокультурной выразительности Беларуси в общественно-политической мысли и образовательной практике конца XVIII – начала XX века”.

Вопросы сохранения национально-культурной идентичности, этнокультурной составляющей образования нашли свое отражение и в выполнении НИР «Этнокультурные процессы на белорусско-польско-украинском пограничье в 2010–2020 гг.» (рег. № НИОКТР 20211180) в рамках подпрограммы № 12.2 «Культура и искусство» Государственной программы научных исследований «Общество и гуманитарная безопасность белорусского государства» на 2021–2025 гг., а также в работе Инновационно-методического центра духовно-нравственного и гражданско-патриотического воспитания на православных традициях белорусского народа. На базе Центра проводятся исследования по истории православия на Беларуси, по актуализации духовных традиций белорусского народа в содержание воспитания.

Особое внимание в университете уделяется этнокультурному воспитанию и творческому развитию будущих педагогов средствами народного декоративно-прикладного искусства.

Декоративно-прикладное искусство – одно из ярчайших проявлений национальных и региональных особенностей культуры любого народа. Оно составляет наиболее обширную область творческой деятельности человека, поскольку неразрывно связано с формированием среды его обитания. Изучение декоративно-прикладного искусства в региональном аспекте при приоритетности общечеловеческих духовно-нравственных ценностей может эффективно содействовать формированию этнического самосознания, которое в свою очередь выступает как один из факторов воспитания свободной самостоятельной личности с развитым чувством собственного достоинства.

Воспитательное значение национальных видов декоративно-прикладного искусства проявляется в том, что материальные объекты выражают общечеловеческие идеи высокой нравственности, утверждают идеалы добра, гуманности, трудолюбия, уважения к старшим. Жизнь человека происходит в разных сферах общественной жизнедеятельности.

Приобщение студентов к нравственным ценностям национальной культуры, ознакомление их с историей, традициями, основами декоративно-прикладного искусства, изучение особенностей художественной и декоративной обработки сырья и изготовления изделий народного творчества – одна из приоритетных задач этнокультурного воспитания подрастающего поколения.

Примером успешной работы в данном направлении можно считать реализацию на технолого-биологическом факультете долгосрочного междисциплинарного проекта «Роднае – народнае». Проект подразумевает вовлечение студентов в художественно-исследовательскую деятельность по изучению народных традиций в области декоративно прикладного искусства и ручных ремесел как в аспекте художественного образного решения, так и в части технологических приемов формообразования и декора, выведение компетенций студентов с уровня практического освоения материала на уровень его исторического и теоретического обобщения. Реализация данного междисциплинарного проекта включает как учебную деятельность студентов на занятиях объединений по интересам, так и самостоятельную творческую деятельность в рамках работы инициативных групп. В ходе исследований студенты осваивают традиционные приемы художественной обработки различных материалов, что позволяет им в самостоятельно проектируемых изделиях воспроизводить аутентичные приемы тех или иных видов ремесел или интерпретировать их по-новому с использованием современных материалов, оборудования, технических средств. Результаты проекта неоднократно демонстрировались на выставках различного уровня, принимали участие в международных и республиканских конкурсах, становились лауреатами и победителями.

Таким образом, на современную систему образования ложится ответственность в воспитании морально и идеологически устойчивого общества, которое будет ценить и хранить свои этнокультурные традиции и общественные устои. Включение этнокультурного компонента в образовательный процесс помогает сохранить и передать подрастающему поколению наследие своего народа: историю, духовные ценности, традиции, а также помогает заинтересовать учащихся, знакомит их с достопримечательностями, памятниками культуры и природы своего региона, содействует формированию экологической культуры.

## ИМОМ БУХОРИЙ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ МАРКАЗИДА “ЖАҲОЛАТГА ҚАРШИ МАЪРИФАТ” ТУРКУМИДА НАШР ЭТИЛГАН КИТОБЛАР

**Шовосил Зиёдов-**
Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази директори,
тарих фанлари доктори, профессор

**Resume:** Маълумки, 2016 йилдан ҳозирги кунга қадар мамлакатимизда диний-маърифий соҳани ривожлантириш бўйича кенг кўламли ишлар амалга оширилди. Мазкур йўналишда Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот марказида ҳам бир талай ишлар бажарилди. Хусусан, “Жаҳолатга қарши – маърифат” туркумида китоб ва рисолалар тайёрланди, араб тилидаги соҳага оид манба ва адабиётлар таржима қилинди. Бу эса, ўз навбатида, Марказ фаолияти самарадорлигига ўзининг ижобий таъсирини кўрсатди. Ушбу мақолада Марказда “Жаҳолатга қарши – маърифат” туркумида нашр этилган айрим китоб ва рисолалар ҳақида сўз юритилган.

**Resume:** As is known, from 2016 to the present day, large-scale work has been carried out in our country to develop the religious and educational sphere. In this direction, a lot of work was done at the Imam Bukhari International Scientific Research Center. In particular, books and pamphlets were prepared in the “Against Ignorance – Enlightenment” series, and sources and literature on the subject in Arabic were translated. This, in turn, had a positive effect on the effectiveness of the Center’s activities. This article discusses some of the books and pamphlets published by the Center in the “Against Ignorance – Enlightenment” series.

Ҳозирги кунда жаҳонда турли экстремистик ташкилотлар фаолият олиб бормоқда. Афсуски, уларнинг аксарият қисми муқаддас ислом дини ниқоби остида иш юритмоқда. Улар ўз ғоясини турли ижтимоий платформалар орқали тарғиб қилмоқда. Диний илми етарли бўлмаган кўплаб ёшлар бундай тоифаларнинг тузоғига илинмоқда. Бу эса дунёда ислом динига нисбатан нотўғри тушунча шаклланишига олиб келмоқда. Бундай салбий ҳолатларнинг олдини олишда муқаддас динимиз моҳиятини тўғри тушунтириш, бу ҳақда етарлича маълумот бериш муҳим аҳамият касб этади. Шу сабабдан, жаҳолатга қарши маърифат билан курашиш, динимизнинг асл инсонпарварлик моҳиятини ёшларга тўғри тушунтириш бугунги кундаги долзарб масалалардан бирига айланмоқда.

Мамлакатимизда сўнгги йилларда ушбу йўналишда кенг кўламли ишлар амалга оширилди. Бу борада мамлакатимизда янгидан ташкил этилган алломалар илмий меросни ўрганишга ихтисослашган илмий-тадқиқотлар фаолияти муҳим аҳамиятга эга бўлди. Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази мана шундай муассасалардан бири бўлиб, у ерда мазкур йўналишда кенг кўламли ишлар амалга оширилди. Хусусан, марказ ташкил этилган 2017 йилдан бошлаб, муассаса илмий жамоаси томонидан жаҳолатга қарши маърифат туркумидан турли мавзуларга бағишланган китоблар нашр этилди. Қуйида уларнинг айримлари ҳақида маълумот берамиз.

Юқорида айтилганидек, ҳозирги кунда дунёда мавжуд аксарият террорчи ташкилотларнинг ислом дини ниқоби остида фаолият юритиши динимизга нисбатан салбий фикрларнинг келиб чиқишига олиб келмоқда. Бу эса, турли мамлакатларда исломофобиянинг авж олдирмоқда. Бундай салбий ҳолатларнинг олдини олиш мақсадида Марказ илмий ходимлари томонидан 2020 йилда “Исломофобияни бартараф этиш омиллари” номли рисола нашр этилди. Ушбу рисолада тинчлик, хотиржамлик ва соф инсоний қадриятларни тарғиб қилиш каби исломий вазифаларни адо этишга тўсқинлик қилаётган исломофобиянинг асл моҳияти ёритилди. Мазкур тушунчанинг пайдо бўлиш омиллари, унинг мусулмонлар ва бошқа дин вакиллари онгига ўтказаётган таъсири баён қилинди. Шунингдек, аҳолисининг асосий қисмини мусулмонлар ташкил қилмайдиган мамлакатлар, хусусан, Европа давлатлари, АҚШ, Австралияда кузатилаётган исломофобия ҳолатлари, олиб борилган тадқиқот натижалари таҳлил қилинди. Бундан ташқари, Ватанни асраш, тинчлик ва барқарорлигини ҳимоя қилиш, салоҳиятини юксалтириш ва дахлдорлик ҳисси билан яшаш ҳақида сўз юритилди [5].

Мазкур рисоланинг нашр этилиши амалий аҳамиятга эга бўлди. Жумладан, рисоладан Марказ томонидан ташкил этилган кўплаб диний-маърифий тадбирларда фойдаланиш йўлга қўйилди, шунингдек, раддия кўринишидаги айрим мақолаларнинг тайёрланишида фойдаланилди. Бу эса, ўз навбатида, Марказда амалга оширилган ишлар самарадорлигига ижобий таъсир кўрсатди.

Тинчлик – буюк неъмат. Эзгу мақсадга эга инсон орзуларининг амалга ошишида энг катта таянч тинчлик ва осойишталикдир. Эл-юртда тинчлик ва осойишталик ҳукм сурса, мамлакат тараққий этади, юрт аҳли фаровон ҳаёт кечиради. Аксинча, уруш бўлган жойда меҳр-оқибат, инсонийлик унутилади, ҳар қандай эзгу амал, улуғ мақсадлар поёнига етмайди. Шу сабабдан ҳам муқаддас динимиз дастури бўлмиш Қуръони карим оятларида тинчлик-осойишталикка катта эътибор қаратилади. Аллоҳ таоло: “**Қачон** (Биз) **инсонга** (тинчлик, саломатлик, фаровонликни) **инъом этсак, у** (шукр қилишдан) **юз ўгириб, ўз ҳолича кетур. Қачон унга** (хасталик, камбағаллик каби) **бирор ёмонлик етса, ноумид бўлур**” (Исро сураси, 83-оят) деб, тинчлик-осойишталик тўғрисида марҳамат қилади. Аммо ҳозирги кунда бундай улуғ неъматнинг қадрига етмайдиган, ўзининг тор манфаатлари йўлида ҳаракат қилувчи адашган тоифалар тинчликка рахна солмоқда. Шу сабабдан, ислом дини тинчлик ва омонлик дини эканини ёшлар онгига сингдириш, уларнинг бу борадаги саводхонлигини ошириш долзарб масалалардан бирига айланди. Марказ илмий жамоаси томонидан 2023 йилда нашрга

тайёрланган “Ислом динида тинчлик” рисоласи [1] бу борада муҳим аҳамиятга эга бўлди. Мазкур рисолада Аҳли сунна вал жамоа уламоларининг Қуръон оятлари ва ҳадиси шарифлар асосида ислом динида тинчлик ва бағрикенглик тушунчаси, тинчликка тарғиб, мусулмонлар ва бошқа дин вакиллари орасидаги муносабатлар каби ижтимоий масалалар ҳақидаги қарашлари жамланди.

Маълумки, адашган тоифалар мусулмонлар орасида фитна чиқаришнинг турли усулларини қўллаб келмоқда ва ҳозирги кунда ҳам улар орасида уламоларга турли фитна чиқарувчи саволлар бериш ҳоллари мавжуд. “Аллоҳ қаерда?” мана шундай саволлардан биридир. Ушбу саволни берувчи кимсаларнинг иддао қилишича, инсоннинг мусулмон ёки мусулмон эмаслиги ушбу саволга жавоб беришига боғлиқ [7]. Бу савол фитна чиқарувчи бўлиб, уни берган кимсаларнинг асл мақсади мусулмонлар эътиқодини заифлаштириш ва уламоларга нисбатан ишончсизлик уйғотишдир. Марказ илмий ходими Алоуддин Нематов томонидан нашрга тайёрланган “Аллоҳ қаерда” рисоласи айни шу масалага бағишланди. Ушбу рисолада Қуръон оятлари, ҳадислар, мусулмонлар ижмоси, тўрт фиқҳий мазҳабнинг машҳур уламоларига тегишли қатъий ва ўта аниқ далиллар воситасида аҳли сунна вал жамоа ақидасига кўра Аллоҳ таоло ҳақида қандай эътиқодда бўлиш лозимлиги баён қилинди. Ушбу рисоланинг нашр қилиниши фитна қўзғатувчи бундай саволни берувчи кимсаларга раддия беришда муҳим аҳамиятга эга бўлди.

Дунёда ҳозирги кунда ҳам турли ижтимоий иллатлар бўй кўрсатмоқда. Ақидапарастлик, мутаассиблик, лоқайдлик, жаҳолатга рози бўлиш ва бошқалар шулар жумласидандир. Бундай иллатларнинг авж олиши ҳар бир мамлакат тараққиётига салбий таъсир кўрсатиши табиий. Шу сабабдан юқорида номи келтирилган иллатларнинг олдини олиш долзарб масалалардан биридир. Марказ илмий ходимлари У.Муҳаммадиев ва Ш.Умаров томонидан нашрга тайёрланган “Исломда ижтимоий иллатлар муолажаси” номли рисола [4] айни шу масалага бағишланди. Мазкур рисолада тинчликка салбий таъсир этаётган ижтимоий иллатлар, жумладан, ақидапарастлик, мутаассиблик, лоқайдлик, жаҳолатга рози бўлиш сингари салбий ҳолатлар ҳақида сўз юритилди. Миллатлар орасига рахна солаётган, халқлар бирлигини бузаётган, обод юртларни харобага айлантираётган муаммолар ва уларнинг ечими ҳақида маълумот берилди. Шунингдек, ватанпарварлик, инсонни қадрлаш, фитнадан йироқ бўлиш, бирдамлик, ўзаро ҳамкорлик ва бошқа шу каби масалаларга эътибор қаратилди. Мазкур рисоланинг нашр этилиши кенг жамоатчиликка ижтимоий иллатлар ва уларнинг хатарлари ҳақида янада кўпроқ маълумот олиш имконини берди.

Маълумки, бир масалага ҳаддан зиёд даражада берилиб, чуқур кириб кетиш араб тилида “ғулув” деб аталади. Ҳар қандай масалада ғулувга кетишнинг оқибати яхшилик билан тугамайди. Жамият ва ислом дини учун зарарли бўлган ақидапарастликнинг келиб чиқишининг асосий сабабларидан бири ҳам динда ғулувга кетишдир. Диндаги ғулув ва мутаассибликнинг пайдо бўлишининг асосий сабабларидан бири – Қуръон, ҳадис ва шариатнинг асл моҳиятини англаб етмасликдир [6]. Бу эса нафақат инсон, балки жамият учун хатарли оқибатларга олиб келиши мумкин. Шу сабабдан, мазкур иллатнинг олдини олиш ва бу борада кенг жамоатчиликка янада тўлиқ маълумот етказиш мақсадида Марказ илмий ходимлари томонидан “Ғулувнинг хатарлари” номли китоб нашр қилинди [3].

Мазкур рисолада ғулув ҳақида Қуръони карим ва ҳадисларда келган маълумотлар, унинг хатарлари ҳақида сўз юритилди, динда чуқур кетишнинг оқибатлари баён этилди. Хусусан, динда чуқур кетиш кишини диндан чиқишига, ибодатда мақсад қилинган ижтиҳоднинг зиддига, динда чуқур кетган инсоннинг ёмон сифатлар билан сифатланишига, Набий соллаллоҳу алайҳи васаллам шафоатларидан маҳрум бўлишига, исломда ҳаром қилинмаган нарсаларни ҳаром дейишга олиб бориши ва бошқа шу каби жиҳатлар ҳақида сўз юритилди

[3:78-86]. Бу ҳақда ҳадислардан намуналар келтирилди. Бу эса, ўз навбатида, китобнинг қизиқарли ва ўқувчилар учун манфаатли бўлишида катта аҳамиятга эга бўлди.

Хулоса қилганда марказ ташкил этилгандан ҳозирги кунга қадар Имом Бухорий ва алломалар илмий мероси ҳамда жаҳолатга қарши – маърифат туркумида 84 номдаги китоб ва рисолалар нашр этилди. Жаҳолатга қарши – маърифат туркумидаги асарлар нашр қилинган китоб ва рисолаларнинг салмоқли қисмини ташкил этди. Бундай китоб ва рисолалар нафақат шу соҳага қизиқувчи ва тадқиқотчиларга етказилди, балки улардан марказ томонидан режа асосида ташкил этиладиган диний-маърифий тадбирларни ўтказишда ҳам фойдаланиш йўлга қўйилди. Хусусан, ўтган давр мобайнида “Жаҳолатга қарши – маърифат” шиори остида 1008 та маънавий-маърифий тадбир, ўқув семинар, учрашув ва давра суҳбати ташкил этилган бўлса [2], уларнинг катта қисмида юқорида номи келтирилган китоб ва рисолалардан фойдаланилди. Бу эса, ўз навбатида, ўтказилаётган тадбирлар самарадорлигини янада ошириш имконини берди.

**ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:**


1. Алоуддин Ҳофий. Аллоҳ қаерда? Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2023. – 320 бет
2. Имом Бухорий халқаро илмий тадқиқот марказининг жорий архиви: “Имом Бухорий халқаро илмий тадқиқот марказининг 2017-2024 йиллардаги фаолиятига доир маълумотнома”.
3. Қобилов Н., Эвадуллаев Т. Ғулувнинг хатарлари. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2023. – 112 бет.
4. Муҳаммадиев У., Умаров Ш. Исломда ижтимоий иллатлар муолажаси. – Т.: Республика маънавият ва маърифат маркази, 2020. – 38 бет.
5. Неъматов О., Муҳиддинов Ҳ. Исломофобияни бартараф этиш омиллари. – Т.: Республика маънавият ва маърифат маркази, 2020. – 56 бет.
6. https://www.bukhari.uz/?p=29897
7. https://www.naqshband.uz/makolalar/Alloh-qayerda


## ШАРИАТ ВА ТАРИҚАТНИНГ ЎЗАРО БОҒЛИҚЛИГИ
## (тавба мезони талқинида)


**Ражабова М.А.**
Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси, ю.ф.д., профессор,
жиноят ҳуқуқи кафедраси профессори



Resume. This article is dedicated to the interconnection between Sharia and Tariqah. In particular, Sharia serves as the foundation for the formation of Tariqah. The article explores the essence of the concept of Tawba (repentance).

Through Tawba, a person draws closer to Allah and attains positive behavior. They refrain from committing crimes.



Keywords: Sharia, Tariqah, Tawba, Fiqh, secularism, Islamic teachings, radicalism.


“Ислом ҳуқуқи” ёки “фиқҳ” “билиш”, “тушуниш”, деган маънони англатади. Фиқҳ ислом таълимотида мусулмонларга умумий тарзда хос бўлган хулқ-атвор билан боғлиқ ижтимоий нормалардир.

Шариат ислом ҳуқуқи асосида қурилган қонун-қоидалар ва одатлар тизимидир.Унутмаслик лозимки, шариат мусулмонлар учун муқаддас манба ҳисобланган Қурьони Каримга асосан, шунингдек пайғамбаримиз (с.а.в.) томонидан тушунтирилган ва у

кишининг ҳаётлик пайтларида тўпланган суннат ва ҳадислар мажмуаси ҳисобланади. Мазкур ҳуқуқнинг биринчи асосий манбаи Қурьон бўлиб, у нозил бўлган даврда фақат пайғамбаримиз Муҳаммад (с.а.в.)га Жаброил фариштa орқали сўзма-сўз, кетма-кетликда, яъни, тизимли тарзда келган ва тартибга солинган, саҳиҳ (хатосиз, ҳақиқий) ҳадислар ёрдамида ижтимоий ҳаётда жорий этилган суннатлар эса иккинчи асосий манбадир.

Муҳими, ислом ҳуқуқига ислом дини пайдо бўлганидан бошлаб асос солинган бўлиб, кейинчалик яхлит ички бирликка эга таьлимот яратилган (салкам уч аср). Асосий эътибор бирламчи манба - Қурьондаги сура ва оятлар мазмуни бузилмаслиги шарт эканинига эътибор берилгани боис (унгача илоҳий манбалар бузиб юборилган) ҳозирга қадар Қурьон ўзига хос ўзгармас ва ўзгартирилмас моҳиятини сақлаб қолаётир.

Шу ўринда ислом таълимотини икки хил маънода (кенг ва тор) тушунтиришга уриниб кўрмоқчимиз. Кенг маънода ислом таълимотида диний, ахлоқий, ҳуқуқий ва мусулмон аҳолининг жамиятда барқарор, узлуксиз ва доимий ҳаёт кечириши учун муҳим аҳамият касб этувчи барча ижтимоий муносабатлар ечимини топган.

Торроқ ифодалаганда, мазкур таълимот давлатчилик тарихи билан боғлиқ бўлганлиги боис, ундаги ҳуқуқий (фиқҳий) қарашлар, ғоялар, илмий-назарий хулосалар ислом ҳуқуқи ёрдамида тушуниш осон бўлиши учун тармоқларга ажратилган ҳолда тушунтирилади. Яъни шариат билан тартибланган. Эсдан чиқармаслик керакки, ислом таълимоти яхлитлик хусусиятига эга ва мажмуа (комплекс) тарзида ўрганилади. Мазкур таълимотда инсон ҳаёти диний ва дунёвийга ажратилмаган. Ҳаммасининг жамламаси айнан Қурьонда акс этган, деб қаралади. Аммо, тарихийлик нуқтаи назардан ҳамда цивилизациялар тўқнашуви ва ривожига кўра дунёдаги ҳозирги жараёнлар инсоният жамияти давлатчилик орқали иккига бўлиниб (дунёвий ва диний) бошқаришни тақозо этмоқда.

Тарихдан маълумки, дунёвийлик тушунчаси ўн еттинчи асрда Европада муомалага киритилган бўлиб, унга ўша даврдаги дин роҳиблари томонидан жамиятни бадном қилиш учун қўлланган қийноқлар, жабр-зулм сабаб бўлган. Ўшанда ҳам Ислом таълимотида бундай ёндошувлар эътиборга олинмаган. Ўтган асрнинг биринчи чорагида Россияда рўй берган инқилоб таъсирида Туркистонда ҳам дунёвийликка ўтилган. Ҳозирда ҳам давлатчилигимизда дин давлатдан ажратилган деган тамойил сақланиб қолинмоқда. Аммо, ислом динига эътиқод қилувчи аҳоли кўп яшайдиган маконларда (Марказий Осиёда) давлатининг дин билан бўлган мулоқати ажратилган бўлса-да диний амалларни руёбга чиқариш ҳар кимнинг ихтиёрига ташлаб қўйилгани бот-бот такрорланади. Қуръоннинг ўзида динда мажбурлаш йўқ деган ҳукм мавжуд. Унинг моҳиятидан айнан танлаш ихтиёри инсонга боғлиқлигини тушуниш қийин эмас. Яна бир жиҳат шундаки, ислом таълимотига биноан инсон онадан туғилган пайтида ислом фитрати билан (Аллоҳ яратгани боис) дунё келса-да, кейинчалик у яшаган муҳит ёки ота-онаси уни эътиқодини шаклланишига таъсир кўрсатгани боис одам у ёки бу динни танлайди ёки умуман бирон-бир динга эътиқод қилмасдан, динсизлик йўлидан (атеист) ҳам бориши мумкин (Аллоҳ динсизликдан асрасин).

Ислом дини ўзининг ўн тўрт асрлик тараққиёти даврида турли замон ва маконларда давлатчиликка таъсир ўтказиб, из қолдирганини ҳеч ким инкор этолмайди. Лекин, ислом таълимоти айрим даврда кучайган бўлса, баъзан сусайгани ҳам рост гап. Узоққа бормайлик, “Дин халқ учун афюндир”, деган Иттифоқ даври бунга мисол бўла олади. Таъкидлаш жоизки, айнан Ўзбекистонда, умуман олганда, Марказий Осиёда ислом ҳуқуқи давлатчилигимизнинг ўзагини ташкил қилган. Нима бўлганда ҳам ўтмиш, бугун ҳамда келажак учун ҳам диний қарашларни янада теран англашга ҳақлимиз.

Ислом ҳуқуқида шариат асосий ўринни эгаллайди. Шу билан бир қаторда ўтмишда шариат асосида тариқатга асос солинганидан ҳам кўз юммаслигимиз керак. Фалсафанинг тасаввуф йўналишида изланишлар, тадқиқотлар амалга оширилган ва оширилмоқда.

“Тасаввуф” “сўфийлик”, деган маънони англатади. Ўзбекистонлик олимлар мустақиллик йилларида “тасаввуф”, “тариқат”, “сўфийлик”, “пирлик” каби атамалар маънодош, яъни, бир хил ёки турдош тушунчалар, деган хулосаларни билдириб келмоқда. Хўш, бу тушунчалар моҳиятида нима назарда тутилган?

Тасаввуфнинг моҳияттида “исломда инсоннинг руҳий дунёси тўғрисидаги, унинг руҳий-ахлоқий жиҳатдан комиллик сари етакловчи таълимот; диний эътиқод, сўфийлик оқими”[2] мужассам. Мазкур тушунчадаги “комиллик” атамасига алоҳида урғу бериш жоиз. Тасаввуф комиллик демакдир, дейишга ҳам ҳақлимиз. Зотан, “комил инсон”, деган жумла маъваниятимизнинг асоси бўлиши ҳақида кўп гапирилади.

Манбаларда қайд этилишича, тасаввуф таълимоти билан боғлиқ мазкур жумла “инсоннинг маънавий, ахлоқий, интеллектуал ва жисмоний нуқтаи назардан етуклик даражасига кўтарилишини кўзда тутади”.[3]

Шу ўринда шариат ва тариқатни узвий боғлиқ эканини эслаш жоиз. Мазкур узвий боғлик тушунчалар тасаввуф ҳақида тўлиқ тўхтамга келишга кўмаклашади. Ислом ҳуқуқида тариқат тўғрисида батафсил фикр юритилмаса-да, тариқат айнан шариат асосида шаклланиши манбалардан маълум. Кези келгани боис, тариқатдаги таркидунё қилиш шариатга мос эмас деган ғоя мавжуд. Тариқат йўлига кирган инсон аввало, шариатдан тўлиқ хабардор бўлиши талаб этилади. Ислом таълимоти қонун-қоидалари ва талаблари ёрдамида комил инсонни тарбиялаш тариқатнинг бирдан-бир мақсади ҳисобланади. Бунда асосий ўринни юқорида айтилганидек, маънавий жиҳатидан бекаму-кўст инсонни тарбиялаш ётади. Тариқатдаги тарбиядан кўзланган асосий маъно ҳақ (яратган) билан яқинлашишдир. Яқинлашиш учун Аллоҳнинг барча ҳукм, топшириқлари ва кўрсатмаларига сўзсиз итоатда бўлиш шарт. Бугунги давр тили билан ифодалаганда, комил инсоннинг онгу шуурида диний ва дунёвий қадриятлар шундай синдирилиши лозимки, у ўтмишдан сабоқ олиб, ижобий хулоса чиқариш асносида бугунги кунда тинч-хавфсиз, фаровон яшаш йўлини танлаган бўлиши, шу билан бирга келажакда юксалиш борасида мукаммал дунёқараш ҳамда таффакурга эга бўлган шахсга айлансин!

Ҳозирги давр ёшлари глобал жараёнлар ва зиддиятли, таҳликали воқеа ва ҳодисаларга нисбатан ўз нуқтаи-назарини шакллантириш баробарида унинг салбий жиҳатдан холи, радикал қарашлардан узоқ бўлишини англаб улгуриши лозим. Тариқат асосчилари таъкидлаганидек, ўзини ҳар қандай жиноят (гуноҳ)дан тийишга қодир комил инсонни тарбиялаш бугунги кунда ҳам аҳамиятини йўқотмаган деган фикрдамиз. Тариқат ҳам бир неча йўналишларга бўлиниб, макон ва замонда ривож топган. Минтиқамиз учун улардан машҳурлари яссавия, кубровия ва нақшбандия ҳисобланади. Баҳоуддин Нақшбанд ҳазратларининг “Қўлинг меҳнатда, қалбинг Аллоҳ билан бўлсин”, деган ҳикматли сўзларини ортиқча шарҳлаш, тушунтиришга ҳожат бўлмаса керак.

Тариқат асосчилари инсоннинг комиллик сари етакловчи куч бу Аллоҳга яқинлашуви (қурбат) деб биладилар. Аллоҳга яқинлашишда яхшилик ва ёмонлик, ҳаром ва халолни, эзгулик ва ёвузликни ҳис қилиб, амал ва эътиқодда бардавом бўлиш зарур. Бунинг учун албатта, соф ниятни назарда тутмоқ керак. Амалларнинг натижаси ниятга боғлиқ деб ҳисоблайди тариқат пирлари. Айниқса, нафсни жиловлай билиш, ундан тийилиш муҳим. Унга эришиш комилликдан нишондир. Ўзгаларнинг ёки бутун бошли жамоанинг ҳақидан ҳазар қилиш инсонга руҳий озуқа бериш баробарида жамиятда тенглик ва адолат тамойилининг барқарорлигини таъминлайди, деган қарашлар ҳам тариқатнинг муҳим жиҳатларидан биридир. Хуллас, тариқатдаги ғояларни батартиб ва батафсил ўрганиш эртанги тараққиётга ижобий таъсир этади десак адашмаймиз.

---

[2] Маънавият асосий тушунчалар,изоҳли луғати. Т. 2009, 540 б.

[3] Ўша мапнба 250 б.

Шариат ва тариқат учун муҳим ўлчов мезон (категория) ҳисобланган “тавба” ёки замонавий Ўзбекистон жиноят ҳуқуқида ҳам мавжуд айбни бўйнига олиш тўғрисида арз қилиш, чин кўнгилдан пушаймон бўлишни (жазони енгиллаштирувчи ҳолатлар) қиёсий таҳлил қилиш ўринлидир.

Мазкур икки хил талқин мазмун-моҳияти жиҳатдан бир-бирига жуда ўхшаш, бир хил маънони англатади, аммо уларнинг ифодаланиши турлича. Ўзбекистоннинг жиноят қонунлари ва жиноят процессал қонунчилигида тавба атамаси учрамайди. Улар шакл жиҳатдан турлича ( биринчисида тавба , иккинчисига айбни бўйнига олиш ёки чин кўнгилдан пушайман бўлиш) бўлса-да, мазмунан бир маънони билдиради. Мазкур юридик атама юзасидан фикримизни батафсил баён этиш учун аввалombор Қурьони Каримга мурожаат қилишга тўғри келади.

Қурьони Каримдаги жами 34 суранинг 81 оятида “тавба” калимаси мавжуд. Улар турли туман ҳолатлар билан боғлиқ бўлиб, барчаси бандани катта-кичиклигидан қатьий назар гуноҳини кечирилиши учун тавба қилиб, Аллоҳдан мағфират сўраб юришга буйруқ қилинганидан далолат беради.

Дастлаб Бақара сурасидаги 37-оятда “Бас, Одам Раббидан (тавбага доир)калималарни қабул қилганидан сўнг (Аллоҳ) унинг тавбасини ижобат этди. Албатта, У тавбаларни қабул этувчи, раҳмли зотдир” дейилган.[4] Мазкур суранинг 160-оятида очиқ-ойдин ва тиниқ тарзда “Илло, қайсилари тавба қилиб, хатоларини тузатиб, (ҳақиқатни) баён қилсалар, уларнинг тавбаларини қабул этурман. Мен тавбаларни қабул этувчи, раҳмли зотдирман,[5] дейилади.

Тавба қилишга шошилиш барча бандага қаратилган Аллоҳнинг чақириғи бўлиб, тавба калимаси уни тил билан ифодалаш баробарида биринчидан, хатоларини тузатиш, (содир этган гуноҳ ёки жиноятга бошқа қўл урмаслик), иккинчидан, ҳақиқатни баён қилиш шарти эканини англатади. Шу ўринда “тавба” атамасининг ўзбек тили билан боғлиқ этимологик мазмунига эътибор қаратмоқчимиз. “Тавба” юридик атамаси тилимизга араб тилидан кириб келган бўлиб “ айбга иқрор бўлиш; гуноҳлар учун кечирим сўраб ёлвориш” маънони англатади. Ўзбек тилининг изоҳли луғатига кўра, “тавба” атамаси тилимизда турли маънода ишлатилади. Улардан бири тасаввуф билан (диний ибора) боғлиқ бўлиб “соликнинг тариқат сари қадам қўйишидан олдин қилган барча гуноҳлардан тавба қилиб, келажакда бирор гуноҳ ишни қасддан қилмасликка азму-қарор қилиши”дир.[6] Қасд деганда жиноятчининг мақсади назарда тутилади.

Тасаввуфда тавба қилиш қатьий қарор ҳисобланиб, унга риоя қилиш шарт деб изоҳланади, бироқ, шариатда сал бошқачароқ, яъни кенгроқ талқин қилинади. Жиноят содир этган одам, хоҳ қозининг ҳузурида бўлсин, хоҳ ўзи якка ҳолда бўлишидан қатьий назар, биринчи навбатда Аллоҳдан тавба-тазарру қилиб, кечирим сўраши зарур, агар у ўзини жиноятчи (гуноҳкор) ҳисобласа. Кўпчилик оятларда тавба қилиш намоз, рўза, закот ва ҳаж амалларини бажариш билан бевосита боғлиқ экани оятлар мазмунидан кўринади. Тавбага шошилиш керак деган уломаларнинг асосли фикри ҳам манбаларда акс эттирилган.

Ислом ҳуқуқидаги тавбанинг моҳияти кенг маънони англатади. Таълимотга кўра, банда умри давомида катта-кичик жиноятларни содир этади. Шу сабабли ҳар бир мусулмонга (ижтимоий келиб чиқиши ва эгаллаган мавқеидан қатьий назар) Аллоҳ ҳузурида тавба эшиги доимо очиқ деб тушунилади. Беайб парвардигор дейилишининг сабаби ҳам шунда. Дунёвий давлатнинг жиноят кодексида айбни бўйнига олиш тўғрисидаги арз қилиш, чин кўнгилдан пушаймон бўлиш жазони енгиллаштирувчи ҳолатлардан бири ҳисобланади. Шариатда таъзир туридаги жиноятлардан айримларига тавба қилиш жазодан озод қилиш учун асос бўлиб хизмат қилади.

[4] Қурьони Карим маъноларининг таржимаси. Таржимон Абдулазиз Мансур. Т.: 2001, 6 б.
[5] Қурьони Карим маъноларининг таржимаси. Таржимон Абдулазиз Манзур. Т.: 2001. 14 б.
[6] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев таҳрири остида,Т. 2007, 631 .

Тариқат билан боғлиқ тавба қилиш тор маънони англатади. Нима бўлганда ҳам, тавба қилиш ислом ҳуқуқида жавобгарликка тортишда асосий мезон ҳисобланади. Шу ўринда тасаввуф таълимотида ҳам тавбанинг банданинг руҳияти билан бевосита боғлиқ эканига оид Абу Ҳомид Ғаззолийнинг “Дин илмларини жонлантириш” (Иҳйоу улумид-дин) китобидаги тавба бобдаги масалага оид таҳлиллар мазмунига қисқача тўхталиш мақсадга мувофиқ. Зеро, ислом таълимотини яхлит ва мукаммал тушуниш учун таълимотни ривожига ҳисса қўшган улуғ уламоларнинг китобларидаги тушунтириш, тафсир, шарҳларини ўрганишга тўғри келади. Қолаверса, Қурьони Каримда нақл билан бирга ақлни ишлатиб таффакур, тадорик (тўғрилаш, тузатиш, тўғри йўлга қўйиш, чора) қилиш зарур эканини эътибордан четда қолдирмаслик лозим. Қизиғи шундатки, китобдаги мазкур бобда тавбанинг моҳияти; катта кичик гуноҳлардан тавба қилиш; тавбанинг мукаммал бўлиш шартлари ва унинг умр охиригача давом этиши; тавбанинг шифобахшлиги ва гуноҳдан тийилмаслик дардининг муолажа йўли масалалари батафсил ёритилган.[7]

Таъкидлаш ўринлики, мазкур манба асосида алоҳида тадқиқот амалга оширилиши мақсадга мувофиқ. Китобдаги тавбанинг моҳиятига келсак, илмий жиҳатдан тавба калимаси бир-бири билан узвий ва мустаҳкам боғлиқ учта унсурдан иборат деб тушунтирилган. Биринчидан, одам жиноят содир этиш натижасида етказилган ёки етказилиши лозим бўлган зарарни англаши (илм), яъни оқибатга кўзи етиши зарур. Иккинчидан, зарарни англаган кишининг қалбида алам-оғриқ пайдо бўлиши (унинг ҳоли) аниқ. Учинчидан эса унинг қалбда афсусланиш (феъл) пайдо бўлади. “Қалбнинг бу оғриғи – надомат дейилади.”[8] “Надомат - афсусланиш, ўкиниш, пушаймон ейишдир”[9]. Ёки қилган ишига ич-ичидан афсусланиб пушаймон бўлиш ҳисобланади. Инсоннинг бу ҳолати унинг қасддан бирон-бир қилмишга кўл урганидан сўнг ундан фориғ бўлиш учун руҳиятида (фикр-у хаёли, онггида) пушаймонлик ҳисси пайдо бўлади. Ундаги бу руҳий ўзгариш ижобий маъно касб этган ҳолда жиноятчига ўзининг ҳатти-ҳаракатларидан салбий жиҳатларини тасаввур қилиб ўзини тузатишга мойиллик пайдо бўлади. Ўшанда у афсусланиб ўзида Аллоҳ буюрганидек ундан кечирим сўрашга (тавба) киришади. Буни у қалбидан (кўнгил) ўтказиб сезади. Қалб эса инсоннинг ҳиссиётида тўғён ўйғотади, пушаймон бўлишга ундайди.

Имом Абу Ҳомид Ғаззолий санаб ўтилганларни англаб етмоқ, тушунишни илм деб, вақт эътибори билан одамнинг жиноятга ( гуноҳга) қўл урган онлардаги ёки айнан гуноҳ содир этган пайтдаги жисму-танасидаги ҳолатини унинг ҳоли деб; қалбида пайдо бўлган ирода ва қасдни, яъни гуноҳни (жиноят) тарк этишни мақсад қилиши, шу мақсад томон қадам ташлашини феъли деб тушунтиради. Қайд этиш жоизки, Имом Ғазззолийнинг юқоридаги тушунтириши моҳиятида ҳам Ўзбекистоннинг ҳозирги даврдаги жиноят ҳуқуқидаги каби айнан айбнинг (жиноят таркибининг субъектив томони) моҳиятига ўхшаш илмий фикр-мулоҳаза мужассам. Яъни, жиноятчининг содир этган жиноятга нисбатан руҳий кечинмалари унинг айбини юзага чиқаради деган жиноят-ҳуқуқи назариясидаги қарашлар билан ҳамоҳанг. Муаллифнинг таърифига кўра, “тавба жафо либосининг ечилиши, вафо гиламининг тўшалишидир” (мажозий маънода).[10] Мазкур асардаги эътиборимизни жалб этган иккинчи масала, кичик ва катта жиноятлардан (гуноҳлардан) тавба қилишга оид назарий фикрлар. Муаллиф ўзидан олдинги ислом ҳуқуқига (фиқҳ) оид кўплаб манбаларни бирма-бир ўрганиб катта ва кичик жиноятларни (гуноҳларни) таснифлашга (классификация) уринган. Аммо, аниқ тўхтамга келаолмасдан, улар юзасидан олимларнинг турли-туман хулосаларини жамлаб ( лол қолиб - таъкид бизники) катта

[7] Абу Ҳомид Ғаззолий. Таржимон Рашид Зоҳид, Тавба китоби (Иҳйоу улумид-дин),Шарқ нашриёти,Т.: 2018, 238 Б.

[8] Ўша китоб 16 б.

[9] Ўзбек тилининг изоҳли луғати, Т.:,2007, 8 б.

[10] Ўша китоб 18 б.

ва кичик жиноятларни (гуноҳларни) тоифалаш қийин деган тўхтамга келган. Аслини олганда, шариатда жиноятлар туркумланган бўлиб, уч тоифага бўлиб таҳлил қилинган.

Биринчи тоифага ҳад (ҳудуд), Аллоҳ томонидан аниқ жазо (Қурьон Каримда) белгиланган саноқли (зино, ўғрилик, зинокорликда айблаш, босқинчилик каби) ёки Аллоҳнинг чегараси, унга тегишли жазо ҳам дейилади. Иккинчиси - қасддан одам ўлдириш ва тан жароҳати етказиш (хун,товон ёки ўлим жазоси каби) ёки қасос туркумидаги ҳаёт ва соғлиққа қарши жиноятлар. Учинчиси эса қолган барча таъқиқлар, яъни жиноятчини аҳлоқан тузатиш мақсадида таъзирини (таъзир турдаги) бериш, соддароқ қилиб айтганда, жиноятнинг хусусияти ва оғирлик даражаси ҳамда жиноятчининг шахсини ҳисобга олиб жазо тайинлаш қозининг (судьяни) ихтиёрига қолдирилган барча енгилроқ жиноятлар (маъмурий ҳуқуқбузарлик каби) назарда тутилган кўринади. Фикримизга кўра, шариатнинг инсонпарварлик, либерал жиҳати, фарқлаб жавобгарликка тортиб жазо белгилаш зарурлигига оид тамойиллари айнан учинчи тоифадаги сон-саноқсиз жиноятларга (гуноҳларга) енгил жазо тайинлаш хусусиятига эга эканлигини кўрсатади. Масалан коррупция, шаън-қадр қиммат (туҳмат ва ҳақорат), мулкка қарши жиноятларга, фикримизча, айнан ўтмишдаги ота-боболаримизга ўхшаб жазо тайинлаш амалиёти ҳозирги қонунчилигимизда ҳам мавжуд.

Шу боис ҳеч иккиланмасдан айтиш ўринлики, Ғарбнинг дунёвий давлатлари шариатда енгил жазо мавжудлигига таяниб ( жамоат иззаси,ярашув, жавобгарликдан озод қилиш, жарима ва бошқа) қонунларида енгил жазоларни кўпроқ назарда тутганига шубҳа қилмаса ҳам бўлади. Зеро,тарихий-ҳуқуқий жиҳатдан шариат бир неча аср илгари шаклланган.Европаликлар ундан ибрат олиб қонунчилигини шакллантиргани аниқ ва исбот талаб этмайди. Минг афсуски, охирги ўттиз беш йил давомида Ўзбекистонлик олимлар ҳуқуқ тарихимизда ўчмас из қолдирган шариатдаги таьзир туркумидаги жиноятларни илмий мушоҳада қилишга киришаолмади. Ёпиқ қозон ёпиқлигича қолаётгани афсусланарлидир. Манбалар жуда кўп. Уни таҳлил қилувчи юридик соҳа олимлари ( тарихчи олимлар мустасно) жуда саноқли.

Тариқатдаги тавбага хос хусусиятлар Аллоҳнинг ҳузурида бандаси энг кичик гуноҳдан ҳам тавба қилиши назарда тутилган. Бу ибодатларни амалга ошириш билан боғлиқ бўлиб, кечиктирмасдан тезда тавба қилишга ўтиш шарт. Охиратда ҳар бир мўмин содир этган гуноҳига қараб жазоланади. Аллоҳ уларни гуноҳидан кечиши мумкин.

Айнан ҳозирги даврда тариқатга озуқа берган ислом ҳуқуқи ўзбек жамиятида маънавиятнинг бир бўлаги ҳисобланади, унинг диний қадрият сифатидаги ўрни ва аҳамияти бардавом. Мазкур ҳуқуқ оиласи юзасидан шарқ-у ғарб тадқиқотчилари икки гуруҳга бўлиниб баҳс-мунозарани давом эттирмоқдалар.

Биринчи гуруҳ уламолари ислом ҳуқуқининг асосий манбалари тўртта, яъни Қурьони Карим, пайғамбаримиз (с.а.в.) суннатлари, ижмоъ (олимларнинг якдил фикрлари), қиёс деб ҳисоблайди. Тадқиқотларда шу тўрт манба асосида фикр-мулоҳазалар баён этилади.

Иккинчи гуруҳдагилар асосий манба Қуръони Карим холос, дейдилар. Қолган манбалар эътиборга лойиқ эмас, ҳаттоки, эътиқодимиздан жой олган фиқҳий мазҳаблар кейинчалик шаклланган деган асоссиз, ўта саёз қарашни илгари сурмоқдалар. Бу эса ислом таълимотида бўлиниш, радикаллашув, баъзан эса экстремистик оқимларнинг озиқланишига сабаб бўлмоқда. Аҳли сунна, яъни суннат аҳли биринчи йўлдан боради. Иккинчи гуруҳ уламоларининг фикрини рад этган ҳолда айтишимиз мумкинки, ҳа, ислом ҳуқуқининг тамал тоши пайғамбаримиз (с.а.в.) томонларидан қўйилган. У даврнинг ўзига хослиги фақат Аллоҳнинг каломи нозил қилинган давр бўлган. Пайғамбаримизнинг (с.а.в.) жидду-жаҳдлари илоҳий манбани хатосиз қабул қилиб етказиш бўлган. Етказиш жараёни ҳам оғзаки ҳамда ёзма шаклда амалга оширилган, ёзмаси бироз қийин кечган, бўлак-бўлак тарзда ёздирилган.

Манбаларда Пайғамбар (с.а.в.) ваҳийни қабул қилиш борабарида котибларига (бир нечта саҳобаларга) ўша пайтнинг ўзида тизимга солиб ёздириш баробарида ўқитиб текширганлар.

Яқинда ижтимоий тармоқда уламолардан бири йигирма уч йил ичида ваҳий тушган, Жаброил алайҳиссалом 24 000 маротабадан ортиқ тушиб, Қуръон оятларини етказганлар, деб тушунтирди. Тасаввур қилинг: 23 йилда 24 минг маротаба оятларни ёдлатиш. Ҳа, пайғамбаримиз (с.а.в.) оятларни ёдлаб олардилар. Оятларнинг кўпчилиги ижтимоий ҳаётда рўй берган ёки рўй бериши лозим бўлган у ёки бу воқеликлар билан боғлиқ. Фикримизча, ўшандай мураккаб бир шароитда пайғамбаримизнинг (с.а.в.) асосий вазифалари Аллоҳнинг оятларини нуқсонсиз қабул қилиш эмасми? Уларининг суннатларга эътибор вафотларидан кейингина Қуръонни амалда тадбиқ этишни енгиллаштириш учун иккинчи манба сифатида яратилган. Тўғри йўлдан борган биринчи тўрт халифалар (хулифа-ю рошиддинлар) даврида ижмоъ ва қиёс ислом ҳуқуқи манбаига айланган. Улардан кейинги даврда тўртта манба ислом таълимотини ривожига фундамент ( асос) бўлиб хизмат қилган.

Қурьон ва суннат, кейинги давр ижтимоий муносабатларини тартибга солишда етарли эмаслиги уламолар томонидан тан олинган. Шу аснода ислом таълимотида, яъни, кейинги асрларда яратилган ғоялар, қарашлар, фикр-хулосаларни замонга мослаб тушунтиришга ўз-ўзидан эҳтиёж пайдо бўлган. Буни ҳеч ким ўзича ярата олмайди. Айниқса, ислом дини маконлараро тарқалгани боис, Аллоҳнинг изни билан уларга амал қилиш заруратга айланган. Орадан қариб икки аср ўтиб, аста-секинлик билан тўртта ҳуқуқ йўналиши (мазҳаблар) бирин кетин гоҳ у ҳудудда (Ироқ, Шом орқали Марказий Осиёга), гоҳида Макка, Мадинада, Мисрда ва бошқа мамлакатларда илдиз отиб, ўз йўлини топган.

Ислом дин ўлароқ ижтимоий ҳаётни камраб олган. Бу таълимот аста-секинлик билан тармоқларга ажратилиб ўрганилган. Ўн тўрт аср давомида такомиллашиб ҳозирги ҳолатни эгаллаган. Ҳозирги даврда ислом дини инсоннинг энг ишончли эътиқодига айланган, динда эркинлик берилган. Мажбурлаш йўқлигини Қуръони Каримнинг ўзбек тилидаги таржимасини диққат билан ўқиб тушуниш мумкин. Диндаги амалларни рўёбга чиқаришда инсон ақлини ишлатиб, фарқлаши муҳим. Дунёвий икир-чикирлар ислом ҳуқуқи орқали тартибга солинади. Буни англаш учун узоққа бормасдан, “Ҳидоя” асарига кўз юритиш кифоя.

Ўз навбатида, ислом ҳуқуқига оид манбалар бисёр. мазҳабларни инкор қилиш ноўриндир. Мазҳаб таълимотлари икки аср давомида шаклланган. Замон ва маконда ижтимоий муносабатлар ўзгариб ахборот асрига етиб келдик. Ислом ҳуқуқини тушуниш эса ўша-ўша. Мазҳаблар жойлардаги одат ҳуқуқини ҳисобга олиб фикр юритган. Мазҳаббошиларнинг фикрлари қонун эмас, фақат бирон-бир ижтимоий муносабатни таҳлил қилиб, ўзининг нуқтаи-назарини билдиришдир.

Ижтимоий ҳаёт ўзгарувчандир. Айнан бугунги кунда Саудия Арабистони подшоҳи Муҳаммад ибн Салмон уч йил давомида тугамаётган Россия – Украина урушини тўхтатиш илинжида иш бошлаган АҚШ Президенти Трамп билан Россия Президенти Путин учрашувида ўртакашлик қилаётгани ислом тинчлик, хотиржамликлик, тенглик, диний бағрикенглик (бошқа диндагилар билан муросаю-мадора қилиб яшаш) дини эканлигини англатмайдими?! Эй аҳли илмлар, таффакур қилинг бу ҳақида!

Бугунги дунё динлараро бағрикенглик принципида яшаётганини ҳис қиляпмизми? Бўлар-бўлмасга ислом таълимотига тош отишдан нарига ўтилмаяпти. Умра сафарига бориб, барча мусулмонларнинг бир сафда олдинма-кейин тизилиб намоз ўқиши, бошқа амалларни бажаришини кузатганмисиз? Аллоҳ барча бандаларини бир хил ҳуқуқ ва мажбуриятларни адо этишда тенглигини эътироф этгани етарлидир, вассалом.

Хулоса ўрнида айтиш жоизки, ислом дини билан боғлиқ улкан таълимот бор, шариат ва тариқатга хос тартиб-таомиллар моҳиятида ягона Аллоҳга эътиқодни маҳкам тутиб, ижтимоий муносабатларда унинг буюрганидек, фақат ва фақат яхшилик ҳамда эзгуликка интилиб яшаш ётади. Улар туриш-турмушимиз, маънавиятимизнинг ўқ илдизларидан ҳисобланади. Яна бир муҳим жиҳат шуки, радикал қарашларни рад этишга одатланишимиз ўта аҳамиятлидир.

# PLACE OF SUFISM AND HANAFI SCHOOLS IN THE HISTORY OF UZBEK IDENTITY

**Madaeva Sh. A. -**
**Professor of National University of Uzbekistan**

**Annotatsiya.** Ijtimoiy identiklikning zamonaviy masalalari bugungi kunda juda murakkab va ko‘p qatlamli. Shu vaqtgacha identiklikni shakllantirish tarixiy, ijtimoiy, madaniy, diniy, gender va boshqa muammolar bilan uyg‘un holda mavjud edi, lekin uchinchi ming yillikning global texnologiyalari o‘zlikni shakllantirishning tabiiy omillariga yangi usullarni olib keldi. Tom ma'noda uchinchi ming yillik inson ongini sanoatlashtirish davri bo‘lib, ong orqali turli qatlamlar, guruhlar, shaxslar yaratildi. Virtual, elektron, onlayn mavjudlik orqali uzoq ta'sirlar uchinchi ming yillikda inson mavjudligining ijtimoiy haqiqatini o‘zgartirdi.

**Annotation.** Contemporary issues of social identity today are very complex and multi-layered. Until this time, identity formation existed harmoniously with historical, social, cultural, religious, gender and other issues, but the global technologies of the third millennium brought new methods to the natural factors of identity formation. Literally the third millennium was the era of industrialization of human consciousness, and through consciousness various layers, groups, and personalities were created. Distant influences through virtual, electronic, online existence have changed the social reality of human existence in the third millennium..

**Аннотация.** Современные проблемы социальной идентичности сегодня очень сложны и многослойны. До этого времени формирование идентичности существовало в гармонии с историческими, социальными, культурными, религиозными, гендерными и другими проблемами, но глобальные технологии третьего тысячелетия привнесли новые методы в естественные факторы формирования идентичности. Буквально третье тысячелетие было эпохой индустриализации человеческого сознания, и через сознание были созданы различные слои, группы и личности. Отдаленные влияния через виртуальное, электронное, онлайн-существование изменили социальную реальность человеческого существования в третьем тысячелетии.

Among modern influence technologies, the most “effective” method is the manipulation of religion as a tool, and this method is widely used among the Islamic population in the 21st century. In particular, in the period after Uzbekistan gained independence, the traditions of the Hanafi mazhab, formed according to a special law of thinking over thousands of years, were changed, serious mental segments appeared that changed traditions, customs and rituals way of life and mental identity of the Uzbek people[1].

The purpose of this article is to study the traditions of the Hanafi mathhab, which have gained great importance in statehood, sociocultural, political, legal and economic history of the Uzbek people, and its connection with Sufism, as well as the mechanisms of introduction. These characteristics systematized the principles of religious, legal, cultural and political life on the historical territory of Uzbekistan for almost a thousand years.

The fact is that the history of the introduction and spread of Hanafism in Central Asia is difficult to prove with one work and scientific views alone. Despite the fact that this topic is very important for the development of Central Asia, which is developing under the influence of religion, it began to be studied seriously only in the last decade.

The reason for the delay in research is not inattention or indifference to this topic, but the networks underlying it related topics go back to the controversial and complex aspects of Islam, the issue of organizing a comprehensive study, and the dispersion of sources.

Another reason that creates difficulty in studying the history of Hanafia in Central Asia is that it is interconnected with the history of the fundamental pillars of Islam, such as Sharia, Sufism, jurisprudence, theology, as well as with their natural roots and their complex relationships.

The history of the creation of works related to Hanafia in Central Asia was studied in the source studies of A.Muminov[2], X.Aminov[3], and S.Primov. In recent years, scholar's and researchers of the International Islamic Academy of Uzbekistan have defended several dissertations on Hanafi source studies.

These scientific works have a historical, source-based nature, and the necessary questions of what role these two schools played in the development of the Uzbek people, and what they created, should pave the way for philosophical research. In addition, because the analysis of Islamic source studies is subject to a certain pattern, there are many situations where it is not possible to comment on the aspects of social importance for the modern period that can be concluded from the research.

But in the part of Uzbekistan, which is strongly connected with the Islamic factor of Central Asia, Hanafi is not a phenomenon that can be understood in the sense of a simple sect. Hanafia acted as a mechanism that effectively synthesized culture, law, science, and economic relations in the development of society. Sufism as its spiritual basis, jurisprudence as a legal regulator, and intellectual aspects were a unique construction developed on the basis of theology. It is also clear that this construction is becoming dysfunctional in modern life.

Hanafiyyah and Sufism are the roots of the historical connection, a harmonious, mutually reinforcing system. Although at the beginning of Sufism there were several Sufis in Kufa, Basra, Baghdad and Syria as the main spiritual support of Islam as Hasan Al-Basri and his followers[4], but the narratives connecting Sufism and Hanafia are related to the name of Tustari.

At the heart of these two teachings are narratives about the creation of Muhammad's soul by Allah and the related concept of Muhammad's seal. The source of this narrative is associated with the name of Abu Muhammad Sahl Bin Abdullah Tustari, an important figure in the history of Islam and Sufism[5].

However, it is interesting that despite the fact that Hanafiyya and Sufism are one whole mechanism shaping the history of Central Asia, other than this narrative there is no solid fact hinting at their common role in this region. As Ashurbek Muminov noted, such a feature of Islam as the lack of division between scholastic theology itself (kalam) and religious rights (fiqh) is not taken into account. For this reason, the theological views of many traditionalists (muhaddisun), Muslim jurists (fuqaho), ascetics (zukhhod) set out in numerous collections of hadith, works on fiqh, remain unexplored[6].

Melcherd, summing up the results of the past stage of research into the theological and legal school of Abu Hanifa, noted that despite the presence of a large amount of biographical material, it is still difficult to trace the history of regional schools, especially in Khorosan in Central Asia. The reason for the remaining ambiguities lies, in his opinion, in the fact that the Hanafis themselves paid less attention to recording their history than the Shafi'is and Malokits, or Jabarites[7].

If we pay attention to the history of the Hanafi mathhab and its path, then the mathhab, in understanding social problems based on the norms of Islam, followed the path of the rai method. This method is due to the fact that "in the first centuries of Islam, when Muslim dogma and law were at the stage of their development, Hanafia, unlike the other three madhhabs, occupied a more advanced position, since its teachers, following the example of Abu Hanifa, observed as much as the letter of the Koran and the Sunnah, as they sought to correspond to their spirit.

This spirit was defined by such concepts as "hukm" (paradise) and "qiyas", therefore the Hanafis were also called "ashab ar-rai" or "ahl al-qiyas", that is, supporters of independent opinion or comparison.

Rai - ashobul rai - independent opinions were expressed, and in their discussions the comparative-logical method of thinking prevailed. In the Hanafi mathhab, these methods demonstrate the degree of accurate and objective observance of hadith in the sahih part. In Central Asia, Hanafia and its rational school emerge in methodological unity with the Maturidi direction, which leads to the emergence in this territory of a scientific, systematic institutional approach to the sources of the religion of Islam. Scientific research notes that the relationship between the traditions of the Hanafi school and maturidia is determined by its further transition to Central Asia.

Here, the special attentions is to be given to utilization of the logical rational method of the Ashab-ul-Rai school for analysis of the Islam Shari'a bases of Sufism and Hanafi. Rai – Ashab-ul-Rai – were adepts of independent thinking, the logical comparative thinking method was the lead in their discourse. Mastering of the methods secured the high clarity, impartiality, and deep observational approach in the sahih (authentic) parts of Hadiths. In the Central Asia, the methodological unity of Hanafi and its rational school Maturidia shaped the scientific, systemic institute in approaching the sources of Islam religion in this region. In the Hanafi mathhab, the logical methods are present allowing to prevent turning the bases of religion towards fanaticism and radicalism under human inflience, that secured progressive features of the religion of Islam in such areas as knowledge, economy, and gender relations.

Another important point in Hanafia is that, complementing the fundamental foundations of Islam with Istikhson and Urf, Hanafia strictly applied all the positive foundations of local customs in Sharia.

Academician Bartold also noted the existence in Central Asia - in the region of complete predominance of the Hanawi madhhab - of stable traditions in the religious sciences: "if representatives of the exact sciences were invited from Persia, then the Muslim Theological School was entirely based on local traditions in which, in addition to features characteristic of the entire Muslim world, they presented and local features[8].

In the $12^{th}$ -$13^{th}$centuries, the activities of Central Asian faqehs contributed to the deeper penetration of Islam into the national culture and mentality, turning it into their religion. In turn, the scientific work of representatives of the Central Asian school became a qualitatively new stage in the further detailing and codification of the main provisions of the Hanafi mathhab.

One of the main traditions in Hanafia is "moderate Islam". This principle was formed in order to ensure the practicality of Islam. It is in the modern period, when the true rules of Hanafi Islam in Uzbekistan are little traced, that one can trace today that the population is completely falling into Islam, the radically fundamental attitude has also increased significantly accordingly. It was moderate Islam that was the key to preventing radical fanaticism in Central Asia.

Hanafism, as a teaching, finally took shape in the works of four students of the great Imam Abu Hanifa - Abu Yusuf, Abdullah Bin Mubarak Al-Marwaz, Muhammad al-Shaybani and Abu Mansur Maturidi. Each of these students contributed to the development of ideas that substantiate the political behavior of the Hanafis: "Muhammad al-Shaybani, given the importance of recognizing the freedom of choice of a person not only to take an active life position and take responsibility for his actions, but also in the spread of Islam , reveals in detail the social nature of the individual. Another student, Abu-Mansur Maturidi, using an innumerable number of facts and sources, makes it an important requirement that in ideological matters a person, not limiting himself to divine revelations, must rely on his own experience and reason. In a word, in the works of Abu Hanif's students, his ideas were further developed, setting a person up only for faith and blocking various doctrinal attitudes aimed at manipulating his consciousness"[9].

Also, with the harmonization of the social life of Hanafia with the sources of the dogma of Islam, the introduction of such methods as adat and istikhsan made it possible to connect national traditions with religion in those countries where Islam came.

At the same time, methods were mobilized that preempted the intervention of the human factor.

Despite Uzbekistan being a secular state, the influence of the religion of Islam was strong in the development of the national identity, economic and cultural development. At present, the mental sterotypes in the social, cultural, and everyday life and behavior are seen boldly. 2) The nation-building and economic roots are associated with the Islamic fiqh, the regulations of the Hanafi madhhab that are its basis. Besides, Sufi tariqas supported Hanafism as the core of the Sharia and enriched its spiritual and supersubstantial aspects. Sufism came into being separately from Hanafi, it was a mystic practices legitimized in Islam. But in the course of historical development, it accepted the principles of Hanafi madhhab that can be seen through examples of Kubrawiya, Qadiriyya, Khwajagan Naqshbandiya in the Central Asia. In particular, we see Sufism and Hanafi madhhab as two main forces in the state governance at the times of the Amir Temur empire. Central Asia's nation- and indemnity-building in the economic, political, and spiritual life is rooted in Islamic fiqh, Sufism, rational theology schools regularities based on Hanafi.

After the 20th century, the Uzbekistan's policy associated with the Islamic factor started to bring the Islamic trends aimed at other objectives and politically oriented Islam as compared to the traditional Islamic values such as Sufism and Hanafism. The values of these two systems were as follows: based on the principles of "moderate Islam", in worldview issues, not limited only to divine revelations, one should rely on one's own experience and reason. Hanafi mathhab and Sufism recognized the freedom of human will, the requirement to be tolerant of other points of view and religions, and when interpreting the Qur'an, proceed from the universal technologies developed in theology and philosophy contained in such prerequisites as qiyas, ijma, Urf and Istikhsan.

This resulted in slow changes in the culture of society, the religious world outlook, and finally, in the principles of nation-building during the short period of the Uzbekistan's independence. The reason for this is that the historical lessons show us that religion does not change, but the principles influencing its cultural elements are prone to change. In the Central Asis, in Uzbekistan in particular that are engaged in the history of Islam, its traditions shaped by the Hanafi madhhab, the plane believers note as well that, although the Islam is intact here, but its traditions and cultural principles are fully transformed. In Uzbekistan, the factor of the modern Islam changes the life style of population, dress culture, national religious ways and habits, mechanisms influencing the state governance and even the thinking style of population. Exactly therefore, the topic of Hanafi is not so much religious or historical one, but up-to-date one.

**Litereture:**


1. Мадаева Ш.О. Идентиклик антропологияси. -Тошкент: Ношир, 2015
2. Муминов А. Ханафитский мазхаб в истории Центральной Азии. -Алматы: Қазақ энциклопедияси, 2015.
3. Аминов Х, Примов С. Ханафий фиқҳи тарихи, манбалари, истилоҳлари. -Тошкент: Мовараунnаҳр, 2017.
4. Кныш.А.Д. Мусулмон тасаввуфи. -Тошкент: Фан зиёси, 2022.
5. Кныш А.Д. Тустари.239 стр. Ислам: энциклопедический словарь / Отв. ред. С. М. Прозоров. — М. : Наука, ГРВЛ, 1991. — 315 с. — 50 000 экз. — ISBN 5-02-016941-2.
6. Муминов А. Ханафитский мазхаб в истории Центральной Азии. -Алматы: Қазақ энциклопедияси, 2015.9-С.
7. Christopher Melchert, The Formation of the Sunni Schools of Law: 9th-10th Centuries C.E., pg. 182. Leiden: Brill Publishers, 1997. 132-136 pg.
8. Бартольд. В.В. История культурной жизни Туркестана . Сочинение Том II, часть 1. -М:1963, Стр.224.
9. Асанбеков М. Ханафизм как мировоззренческая основа умеренного ислама.// http://mnenie.akipress.org/unews/un_post:10740

# КРОССКУЛЬТУРНОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ В ДОИСЛАМСКОЙ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

**Шомахмадов Сафарали Хайбуллоевич-**
К.и.н., ст.н.с. Института восточных рукописей Российская академия наук

***Аннотация***: Доклад посвящен анализу фактов интенсивного взаимодействия различных культур древности и раннего средневековья – античной, индийской, древнеиранской, китайской и др. – в оазисах Шелкового пути, начало функционирования которого относится к периоду китайской династии Хань (II в. до н.э. – II в. н.э.). Выводы, представленные в докладе, базируются на анализе примеров графики, пластики, письменной культуры.

***Ключевые слова***: Великий шелковый путь, культурное взаимодействие, Гандхара, греко-буддийское искусство, Кушанское царство, Серындия.

## CROSS-CULTURAL INTERACTION IN PRE-ISLAMIC CENTRAL ASIA

***Abstract***: The report comprises an analysis of facts of intensive interaction of various cultures of antiquity and the early Middle Ages – classical, Indian, ancient Iranian, Chinese, etc. – in the oases of the Silk Road, the beginning of the functioning of which dates back to the period of the Chinese Han Dynasty (2nd century BC – 2nd century AD). The conclusions presented in the report are based on the analysis of examples of graphics, plastic arts, and written culture.

***Key words***: Great Silk Road, cultural interaction, Gandhara, Greco-Buddhist Art, Kushan Empire, Serindia.

Первым регионом за пределами Индостана, воспринявшим индийскую культуру, соединив ее с античным наследием империи Александра Великого, а также с местными культами, стала Кушанская империя (I–III вв.). Ее история – одна из самых ярких страниц в культуре Востока. Государство, созданное выходцами из Центральной Азии, простиралось от Аральского моря до Индийского океана и Серындии[11] и была сравнима по обширности территории с Римом, Парфией, Ханьским Китаем. Полиэтничность Кушанской империи обусловила синтез разных культур. Дошедшие до наших дней артефакты свидетельствуют о сложении на территории Кушан высокоразвитых школ изобразительного искусства – гандхарской, матхурской, бактрийской, – которые вобрали в себя высокие образцы античной культуры, а также самобытность локальных художественных традиций[12].

Именно здесь появляются антропоморфные изображения Будды с отчетливым отпечатком античной культуры («греко-буддийское» искусство Гандхары). Изучение данных археологии древних Кушан позволяют предполагать, помимо античного и индийского влияния, древнеиранскую (зороастрийскую) составляющую в культуре Кушанской империи[13]. Бесспорно, в кушанский период буддийская культура переживала свой расцвет, а само учение пользовалось покровительством верховных правителей империи. Так, среди образцов

[11] Серындия – (досл.) «Китае-Индия»; историко-культурный регион, включающий в себя оазисы бассейна р. Тарим, в российско-советской историографии XIX–XX вв. обозначаемый как «Восточный Туркестан». В оазисах Серындии в к. XIX – н. XX вв. исследователями Великобритании, Франции, Германии, России, Японии были обнаружены уникальные памятники письменной и материальной культуры, раскрывающие особенности историко-культурного развития региона в древности и раннем средневековье.

[12] Воробьева-Десятовская М.И. Памятники письмом кхароштхи и брахми из советской Средней Азии // История и культура Центральной Азии. М.: Наука, ГРВЛ, 1983. С. 22–96.

[13] Ставиский Б.Я. Судьбы буддизма в Средней Азии (по данным археологии). М.: Издатеьская фирма «Восточная литература» РАН, 1998. С. 156–167.

кушанской нумизматики встречаются монеты с изображением Будды и соответствующими надписями на греческом языке – «Боддо» (Будда), «Сакамано Боддо» (Шакьямуни Будда) и «Баго[14] Боддо» (бог Будда). Так, К.В. Тревер, опираясь на результаты исследования монет из Британского музея, первой в советской науке поставила вопрос о синтезе эллинистической и индийской культур на территории Центральной Азии[15]. Тем не менее, не смотря на активное распространение буддизма в Центральной Азии, вряд ли стоит говорить о государственном статусе первой мировой религии в Кушанской империи.

Преодолев Балхский перевал, с караванами, двигавшимися по Шелковому пути, культура Кушан проникает в Сериндию (совр. СУАР КНР). Необходимо отметить, что, отдаляясь от «исторического центра» – Гандхары, – античная составляющая буддийской культуры Сериндии обретает черты «провинциальной традиции», характеризующейся формализацией изобразительных приемов, свойственных «высокому искусству» Гандхары. Все более отчетливо начинает проявляться влияние китайской культуры.

Фрагменты живописи и скульптуры, найденные в руинах многих исчезнувших цивилизаций от Каспия до Китая имеют огромное значение для понимания культуры оазисов Великого шелкового пути. Эти артефакты дополняют лингвистические и этнологические данные о народах и культурах, некогда процветавших в данном регионе.

## МАРКАЗИЙ ОСИЁ ИЛМИЙ МЕРОСИНИНГ МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ

**Сафарова Нигора Олимовна**-
Фалсафа фанлари доктори, профессор.
Навоий давлат университети
Ижтимоий фанлар кафедраси мудири, Ўзбекистон

**Annotatsiya.** Инсон тафаккури воқеаликни идрок этиш мобайнида турли фикрлар, қарашлар, ғоя ва таълимотларни яратади. Мазмуни ва намоён бўлиш шаклларига қараб ғояларни бир қанча турларга ажратиш мумкин: илмий ғоялар, фалсафий ғоялар, диний ғоялар, бадиий ғоялар, ижтимоий-сиёсий ғоялар, миллий ғоялар, умуминсоний ғоялар ва ҳоказо. Ғоялар инсоният тарихида катта аҳамиятга эга. Буни тарих, илм-фан тараққиёти, айниқса ҳозирги замон ғоявий курашларида кузатишимиз мумкин.

**Annotation.** Human thought creates various thoughts, views, ideas, and doctrines in the process of perceiving reality. Depending on their content and forms of manifestation, ideas can be divided into several types: scientific ideas, philosophical ideas, religious ideas, artistic ideas, socio-political ideas, national ideas, universal ideas, and so on. Ideas have played a great role in the history of mankind. We can observe this in history, the development of science, and especially in the ideological struggle of the present time.

**Аннотация.** Человеческое мышление в процессе восприятия событий создает различные мысли, взгляды, идеи и доктрины. В зависимости от содержания и форм проявления идеи можно разделить на несколько типов: научные идеи, философские идеи, религиозные идеи, художественные идеи, социально-политические идеи, национальные идеи, общечеловеческие идеи и т. д. Идеи сыграли большую роль в истории человечества. Мы можем наблюдать это в истории, в развитии науки и особенно в идеологической борьбе нашего времени.

[14] Баго – (бактр.) «бог, божество».
[15] Тревер К.В. Памятники греко-бактрийского искусства. М.; Л.: Издательство Академии Наук СССР, 1940. С. 24.

Жаҳон фанининг энг йирик вакиллари қаторидан ўрин олган, унинг ривожига улкан ҳисса қўшган буюк ватандошларимиз Муҳаммад Хоразмий ва Аҳмад Фарғонийнинг илмий мероси бир неча асрлардан бери ўзига нисбатан катта қизиқиш уйғотиб келмоқда ва ҳозирги замон илм-фани ва маданий тараққиётида ҳам муҳим аҳамият касб этмоқда. Уларнинг илмий ютуқлари Ўрта Осиё, жумладан Ўзбекистон халқларининг қадимдан ривожланиб келган бой ва кўп қиррали илмий-маданий анъаналарини, ўз даврида бошқа халқлар эришган муҳим илмий натижаларни умумлаштириш билан бирга жаҳон фанига улкан кашфиётлар бўлиб кирган ва унинг алоҳида муҳим ривожланиш босқичини белгилади. Шу даврда қатор омиллар таъсирида Мусулмон Шарқида ижтимоий-маънавий юксалиш, илмий тараққиёт, шаҳарлар, шаҳар маадниятининг ривож топиши ва бошқа тараққий этишнинг аломатлари кузатилади.

Қомусий тафаккур эгалари ҳисобланган Марказий Осиё мутафаккирлари илмнинг барча соҳаларида олиб борган тақиқот натижаларидан ҳозирги замон фани ва техникаси кенг суръатларда фойдаланиб келмоқда.

Табиий ва ижтимоий фанларнинг ривожида муҳим концептуал, инновацион характерга эга бўлган, ҳозирги замонда айниқса, улкан аҳамият касб этган қатор буюк кашфиётларни амалга оширган олимларидан аввало Муҳаммад Хоразмийни кўрсатиш керак[16]. Буюк математик, астроном ва географ бўлган алломанинг асарлари ва ишлари умумилмий аҳамиятга эга бўлиб, ўша даврдаги олам манзарасини яратишда катта рол ўйнади, илк Марказий Осиё илм-фанининг асосчиларидан биридир.

Марказий Осиёда IX-XII асрларда ўзига ҳос Уйғониш даври мавжуд бўлганлиги илмий-тарихий манбаларда келтирилади. Бу даврда Марказий Осиёда Ал-Хоразмий, Ал-Фарғоний, Абу Райхон Беруний, Абу Али Ибн Сино ва Абу Наср Форобий ва бошқа шу каби кенг қамровли тафаккур ва қомусий билим эгалари илмнинг турли соҳаларида ижод қилишлари натижасида ривожланиш ва тараққиёт учун белгиловчи аҳамиятга эга бўлган турли фалсафий, табиий-илмий, ижтимоий-иқтисодий, сиёсий-хуқуқий ва маънавий-диний ғояларни илгари суришган.

Биз ҳозирги кунда тилга олаётган постиндустриал жамиятда кечаётган инсон ҳаёти билан боғлиқ бўлган жараёнлар юртдошимиз қомусий олим Ал-Хоразмийнинг ғояси билан боғликдир. Ал-Хоразмий ўзининг алгоритм ғоясини ижтимоий ҳаётнинг ҳодисаларини миқдорий ўрганишга қўллади. У кишилар орасидаги муносабатларни тўрт соҳасини танлади: битим, гаров, мерос ва савдо[17]. Айтиш мумкинки, алгоритм ҳозирги даврга келиб жамиятнинг деярли барча соҳаларида, илм-фаннинг тармоқларида кенг равишда қўлланилмоқда.

Хоразмий махсус фалсафий асар ёзмаган бўлсада, лекин унинг математика, геометрия, география, астрономия, тарих каби илмларга оид барча асарларида илмий исботланган фалсафий фикр-мулохаза, ғоя, назария ва таълимотлар ўз аксини топган.

Яна бир мутафаккир Ахмад Ал-Фарғонийнинг ижодида ҳам илғор ғояларни илгари сурилганини кузатишимиз мумкин. Ал-Фарғонийнинг илмий асарларини жаҳон ва тарих тан олган. Улар кўплаб тилларга таржима қилиниб, асрлар оша турли мамлакатларда нашр этилган, бинообарин, улардан олимлар оммаси бахраманд бўлган. Фалсафада энг муҳим масалалардан бири – олам манзарасини ҳам Ал-Фарғоний ўзига хос тарзда фикран кўра олган. Ал-Фарғоний илм-фан тарихида сфераларнинг радиусларини аниқлаб берди. Бу эса олам тузилишини илмий тасаввур этишнинг муҳим воситасидир.

Аллома томонидан илм-фан соҳасига киритилган жаҳоншумул янгиликлари ниҳоятда кўпдир, хусусан, илмий тадқиқот жараёнида назарий ва амалий ёндашувларнинг бирлигидан

[16] Ўзбекистон ижтимоий – фалсафий фикри тарихида илмий – маърифий ғоялар // Илмий мақолалар тўплами. - Т: Фалсафа ва хуқуқ институти, 2011. – Б.5.

[17] Қаранг: Кобулов В. К. Ал-Хорезми, алгоритм и алгоритмизация / В.К. Кобулов, А.Ф. Файзуллаев, Ш.А. Назиров. – Ташкент: Фан, 2006. – С. 94.

келиб чиқиш, йирик-концептуал назарий томонларига алоҳида аҳамият бериш, тажрибавий усулни кенг қўллаш уларнинг энг муҳимларини ташкил этади.

Марказий Осиёлик буюк файласуф Абу Наср Форобий фалсафанинг турли соҳалари бўйича асарлар ёзган. Айниқса, илм-фан ва унинг турлари, фанлар таснифи, илмларнинг келиб чиқиши ва уларнинг жамият тараққиётидаги ўрни тўғрисидаги фикрлари эътиборга сазовордир. Файласуф "Илмларнинг келиб чиқиши" номли рисоласида турли илмларни вужудга келиши тўғрисида фикр юритади. Ушбу рисолада сонлар тўғрисидаги илм, юлдузлар ҳақидаги илм, мусиқа илми, табиатшунослик илмлари тўғрисида фикр юритилади.

Мутафаккир мусиқа илмини келтириб чиқарган сабабларга тўхталиб, овозларнинг уч турга бўлинишини, яъни баланд, паст ва ўртача овозлардан иборат эканлиги, мана шу овозларни билишга қаратилган илмни мусиқа илми деб аталишини айтади. Улуғ мутафаккир мусиқанинг тарбиявий аҳамияти, уни кишиларнинг ахлоқий камолотга етказиш ва уларга эстетик завқ бериш кучига алоҳида урғу беради[18].

Абу Наср Форобийнинг билиш назариясида илгари сурган ғоялари ҳам муҳим аҳамиятга эгадир. Форобий шуни очиқ баён этадики, ҳақиқатни билиш учун руҳиятни қуллик занжиридан халос этишга ёрдам берадиган маънавий камолот усуллари (риёзатдан) фойдаланиш зарур[19]. Шунингдек, Абу Наср Форобийнинг фозил шаҳар ва унда яшовчи кишиларнинг ҳаёти ва яшаш тарзи ҳақиди илгари сурган ижтимоий-сиёсий ғоялари бугунги давр цивилизацион жамиятларини барпо этишда ўзига ҳос пойдевор вазифасини ўтамоқда.

Абу Наср Форобийнинг ижодида нафақат ижтимоий-сиёсий, балки, табиий-илмий ғояларнинг илгари сурилганлигини ҳам таъкидлаб ўтиш лозим. Форобий табиат ва унда юз бераётган ҳодиса ва жараёнлар, мавжуд предмет ва объектларни ўрганар экан, улардаги оддийлик ва мураккаблик жиҳатларига эътиборни қаратди. Унинг асарларида оддийлик ва мураккаблик муаммоси ўрганилган. У шундай деб ёзади: "Табиий жисмлар оддий ва мураккаб бўлади. Оддий жисмлар бошқа бир жисмлар воситасисиз мавжуд бўлса, мураккаб жисмларнинг мавжудлиги ўзга жисмлар билан боғланган, масалан, ҳайвонлар ва ўсимликлар". Унинг асарида баён этилган ҳолат "физик гармония" деб номланади[20].

Форобий томонидан илгари сурилган табиатда мураккаб ва оддий жисмларни мавжудлиги ғояси бугунги кунда синергетика таълимоти томонидан ўрганилмоқда.

Марказий Осиёда табиий-илмий ва ижтимоий ғояларни илгари сурилишида Абу Райҳон Берунийнинг ижодида ҳам кузатилади. Дарҳақиқат, Беруний ижодига назар ташлаганимизда борлиқни ўрганишда кенг қамровли тафаккурнинг мавжудлигини учратишимиз мумкин. Беруний илмнинг турли соҳаларида ижод қилар экан, у ўзининг илғор ғоялари билан замонасидан анча илгарилаб кетган эди. Унинг табиий-илмий ғоялари бир қанча асрлардан кейин ўз тасдиғини топди ва унинг қарашлари замонавий фаннинг пойдеворини ташкил этиб турган эди.

Беруний минерология, геодезия, фалакиёт ва бошқа кўплаб соҳаларда илмий ғояларни илгари сурган. Масалан, Беруний Ер шарининг доимий ва муттасил ўзгариб боришини кўрсатган ҳолда, инсон фақат қадимги геологик жараёнларнинг натижасини кузатиши мумкинлигини таъкилайди. Унинг фикрига кўра, Ер шарининг шаклланиши улкан геологик муддатларни қамраб олади. Бироқ Беруний бу фикрдан ҳам юксакроқ ғояни илгари суриб, бу

[18] Ўзбекистон ижтимоий – фалсафий фикри тарихида илмий – маърифий ғоялар // Илмий мақолалар тўплами. - Т: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2011. - Б.26.

[19] Саййид Муҳаммад Хотамий. Ислом тафаккури тарихидан. - Т: Минҳож нашриёти, 2003. – Б.79.

[20] Классическая наука Средней Азии и современная мировая цивилизация / Под. ред. П.К.Хабибуллаева и А.Ф.Файзуллаева. - Т: Фан, 2000. – С.307.

ғоя унинг замондошлари учун ҳам ва ундан кейин анча даврларгача сирлилигича қолди. Бу Ер шарининг геотектоник ўзгариши ҳақидаги ғоя эди[21].

Берунийнинг бу ғояси ҳозирги замон фанида кенг равишда ўрганилиб, геотектоник жараёнлар Ер литосфераси қатламлари ва қобиқларининг ўзаро таъсирлашуви, уларнинг сейсмиклиги кабилар билан боғлиқ ҳолда ўрганилмоқда. Шунингдек, Қуёш ва унинг атрофида ҳаракатланаётган планеталарнинг ҳаракатланишида нотекислик ғояси ва бу борадаги дастлабки тадқиқотлар Берунийга тегишлидир.

Самонинг тасвири ва Ер шарининг яссилиги ғояси инсониятга олдиндан маълум бўлиб, антик давр олимлари ва файласуфларидан Фалес, Аппалоний, Гиппарх ва Птоломейлар проекциялар ҳақидаги қарашларни илгари суришган. Картографик проекцияларни тузиш ва улардан фойдаланиш Птоломейнинг ижодида яққол намоён бўлган.

Беруний Гиппарх ва Птоломейларнинг қарашларини ўрганиб, уларнинг ғояларини ривожлантирган ҳолда ўзининг картографик проекцияларини яратди. Беруний яратган картографик проекциялар математиканинг умумий масалалари билан боғланган бўлиб, бу эса Ер шарининг проекцияларини тузишда ва географик хариталарни яратишда муҳим аҳамиятга эга эди[22].

Демак, Марказий Осиё мутафаккирлари томонидан илгари сурилган ғоялар бутун жаҳон фани ва фалсафаси, умуман Ер юзидаги цивилизацион ривожланишга туртки бериб келган бўлиб, ҳозирги замон фанида қўлга киритилаётган ютуқларда бевосита ёки билвосита ўз ўрнига эгадир. Шунинг учун ҳам Марказий Осиё мутафаккирлари томонидан илгари сурилган табиий-илмий ва ижтимоий сиёсий ғоялар ўз моҳиятига кўра ҳозирги давр жамиятини ривожлантириш ва илм-фанни янада юксалтиришда муҳим аҳамиятга эга этиб, бу ғоялардан инсоният бевосита ёки билвосита фойдаланиб келмоқда.

Инсоният тарихида илм-фан, ижтимоий ривожланиш муайян даврда барқарор ривожланишини кузатишимиз мумкин. Лекин, бу ҳолатни изидан чиқарувчи ғоя пайдо бўлиши ривожланишни янги йўналишга бурилишига олиб келади. Жамиятнинг ривожланиши учун янги имкониятлар очилади. Ғоя асосида янгича таълимотлар, концепциялар, нуқтаи назарлар шаклланади. Янги ғоялар доим пайдо бўлади. Улар туфайли жамиятда содир бўлаётган ўзгаришлар, инновацион ва янги технологиялар жорий этилади.

## JOMIY VA NAVOIY – XALQLARARO DO‘STONA MUNOSABAT VA ADABIY ALOQALARNI MUSTAHKAMLANISHIGA HISSA QO‘SHGAN BUYUK IKKI SIYMO

**Tavakkal Choriyev-**
**Navoiy davalat universiteti professori,**
**filologiya fanlari nomzodi**

Milliy mustaqillik jamiyatda ro‘y berayotgan turli ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, tarixiy voqealarga, hodisalarga, taraqqiyotga, ma’naviy-madaniy merosimizga tubdan yangi sabotlarni shakllantiridi. Shu paytgacha buzib ko‘rsatib kelingan tariximizni tiklash, asrlar mobaynida yaratilgan ma’naviy-ma’rifiy merosimizni, milliy qadriyatlarimizni yangi zamon ruhida o‘rganish va yosh avlodga o‘rgatish ustuvor madaniy-ma’rifiy vazifaga aylanadi.

Sharq sivilizatsiyasi – taraqqiyotning ma’naviy asoslaridan biri – insonni ulug‘lash, uning kamolotini ichki va tashqi dunyosini uyg‘unlishda qarashdan iboratdir.

[21] Классическая наука Средней Азии и современная мировая цивилизация / Под. ред. П.К.Хабибуллаева и А.Ф.Файзуллаева. - Т: Фан, 2000. – С.321.
[22] Нарходжаев К.Н. Геодезические работы Беруни. - Т: Узбекистан, 1977. – С.101.

Markaziy Osiyo xalqlari sivilizatsiyasi va ilmiy-adabiy tafakkuri tarixida Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning turli sohalarni qamrab olgan bebaho asarlari muhim o‘rin egallaydi. Garchi bu asarlar milodiy XV asrga oid bo‘lsa-da, aslida ular asrlar davomida shakllangan Markaziy Osiyo xalqlarining sivilizatsiyasi va ilmiy-adabiy tafakkurining eng yaxshi yutuqlarini ijodiy tarzda o‘zida mujassam etgan holda, bu merosni dunyoqarash va adabiy mahorat asosida davom ettirib, rivojlantirgan.

Shu bois, Jomiy va Navoiy asarlari oftob nurlarini o‘zida aks ettirib, yana o‘ziga xos rang-barang shu’lalarni taratadilgan oynaga o‘xshaydi. Har bir mashhur adibning asarlari Markaziy Osiyo xalqlarining keyingi asrlardagi ilm-fani va adabiyotida aynan shunday o‘ringa ega. Shu sababli, Jomiy va Navoiy asarlarining rangin shu’lasi nafaqat Movarounnahr, Afg‘oniston, Eron, Pokiston va Hindistonning forsiyzabon adabiyotida, balki Ozarbayjon, Turkiya va Markaziy Osiyoning turkiyzabon adabiyotida ham mashhur bo‘lib ketgan.

Jomiyning XV asr o‘zbek adabiyotidagi o‘rni va uning yetuk namoyandalari orasidagi mavqei juda yuksak bo‘lgan. O‘z navbatida, Jomiyning bu adabiyot va uning vakillariga bo‘lgan munosabati nihoyatda samimiy va yuksak darajada bo‘lgan. U faqatgina turkiyzabon adiblar bilan yaqin aloqada bo‘lib qolmagan. Jomiy – o‘zbek adabiyoti tarixida Navoiy “Xamsa”sining beqiyos ahamiyatini birinchi bo‘lib ta’kidlagan tanqidchi va adabiyotshunos bo‘lgan. U bu asar yakunlangan yili, ya’ni 1485-yilda quyidagilarni yozgan edi:

Ba turkizabon naqshe omad ajab,
Ki jodudamonro buvad muhri lab.
Zi charx ofarinho bar on kilk bod,
Ki in naqshi matbo‘ az on kilk zod...
Suxanro, ki az ravnaq aftoda bud,
Ba kunji havoi raxt binhoda bud,
Tu dodi digar bora in obro‘
Kashidi ba javlangahi guftugo‘.
Safoyob az nuri roi tu shud,
Navoiy zi lutfi navoi tu shud.

Jomiy asarlarining martabasi XVI – XX asrlarda ham o‘zbek xalqi uchun yuksak bo‘lib qolgan, uning shirinkalom shoirlari tomonidan e’tibor bilan qaralgan. O‘zbek shoirlari, ularning aksariyati ikki tilli (zullisonayn) bo‘lgan, oldingi davr adabiyotini o‘rganar ekanlar, Nizomiy, Sa’diy, Hofiz, Navoiy, Fuzuliy, Bedil qatorida Jomiyning asarlarini ham havas bilan o‘rganganlar. Jomiy asarlari muxlislari uning she’rlarini turli bayozlarga kiritgan, asarlarini ko‘chirishgan, shuningdek, ularni boshqa tillarga tarjima ham qilganlar.

Jomiyning ma’no duru gavharlari bilan to‘lib-toshgan ijod xazinasi bizga nechog‘lik qadrli bo‘lsa, uning Navoiy bilan do‘stligi, ustoz-shogirdligi shu darajada e’tiborli va ehtiromlidir. Bu – xalqlar, adabiyotlar, ilm-fan, madaniyatlar tarixida nihoyatda siyrak uchraydigan hodisa. Jomiy va Navoiyga o‘xshab dunyoqarashi – dunyoqarashiga, shaxsiyati – shaxsiyatiga, maslagi – maslagiga bog‘lanib, ijodiyoti va mahorati o‘zaro uyg‘unlik kasb etgan ikki millat, ikki adabiyot vakilini tasavvurga keltirish qiyin. Asarlarida Navoiy Jomiy ta’rifida, Jomiy Navoiy madhida so‘z yuritar ekan, ularning har ikkalasi ham go‘yo bir tafakkur iqlimida nafas olib, bir dard va shodlik gulshanida kezib ulug‘ iste’dod, mislsiz badiiy ixtirolarni yaratgan.

Alisher Navoiy Sharq mutafakkirlarining buyuk namoyondalaridan biri bo‘lib, u o‘zining o‘lmas asarlarida yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatib bergan.

Navoiyning asarlari o‘z davrining yirik ma’naviy sarchashmalaridan biridir. Shoirning o‘zi bevosita maktabdor yoki muddaris bo‘lib xizmat qilmagan bo‘lsa-da, podsholar va butun xalqning ta’lim-tarbiyasi, ma’naviy dunyosining shakllanishi uchun xizmati beqiyosdir. Uning asarlaridagi dono so‘zlar, o‘gitlar, maqolatlar, rivoyatlarning asosiy mazmuni mehnatsevarlik, odoblilik,

go‘zallikni sevish, zehnlik, ilm olish, hayotga va kishilarga, Vatanga muhabbat kabi buyuk fazilatlarni ulug‘lashdir. Yaxshi fazilatlar mujassamlashgan inson chinakam insondir.

Ma’lumki, hozirgi mustaqillik sharoitida yurtimizni rivojlangan davlatlar darajasiga ko‘tarilishi uchun jaxolat, zulm, adolatsizlik, boqimandalik, loqaydlik kabi xulq atvordagi illatlardan qutilish yo‘llari, shakl va uslublarni izlab topishda Alisher Navoyining asarlaridagi ma’naviy–axloqiy tarbiyaga oid fikrlari g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Shoir asarlarining boy g‘oyaviy mazmuni, yuqori badiiy mahorati, tarbiyaviy ta’sirnini kuchliligi-bularning hammasi yoshlarning ma’naviy axloqiy tarbiya va dunyoqarashini kengaytirishining ajoyib vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Navoiyning fikricha, olamning yaratilishidan maqsad-insondir. Inson butun borliqning ko‘rki va sharafidir. Insonnning baxt-saodati, kamoloti, umuminsoniy xislatlarni shakllashtirish uchun kurash “Xamsa”ning asosiy g‘oyasidir.

Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonida insonning tug‘ilgan joyi obod, fayzli bo‘lsa, ota onalari ulug‘ odamlar bo‘lsa, bunday kishilardan insonparvar, dunyoqarashi boy, o‘tkir aqlli insonlar dunyoga keladi. Shoir insonni, uning fazilatlarini ulug‘lar ekan, uning boshqa mavjudotlardan farqi so‘zida ekanligini ta’kidlaydi.

Tangriki, insonni qilib ganji roz,
So‘z bila hayvondin angachanga imtiyoz.

Navoiy insonning ulug‘ligini, fazilatlarini uning so‘zni o‘z o‘rnida ishlata bilishi bilan belgilaydi. U o‘z asarlarida inson uchun zarur bo‘lgan xislatlar kamtarlik, sahovat, oliyximmatlik, do‘stlik, to‘g‘ri so‘zlik kabi fazilatlarni madh etadi va bir qancha salbiy sifatlarni qoralaydi. Shoir asarlaridagi ko‘pgina baytlar hikmatli so‘zlar darajasiga ko‘tarilgan. Mutafakkirning hikmatli so‘zlari xalq maqollariga aylanib ketgan. Masalan:

Kimki ulug‘roq anga xizmat kerak,
Ulki kichikroq anga shavqat kerak.
Kattaga hurmatda, kichikka izzatta bo‘l.
Arzi hunar bo‘lsa yigitlar ishi,
Qilsa ayon o‘z hunarin har kishi.
Yigit kishiga qirq hunar oz.

Navoiy insonning ichki dunyosi, tuyg‘ulari, tafakkuri, odob-axloq kamolotini olamdagi ma’naviy borliqning quyosh yulduzi oyi, mevali daraxtlari, chiroyli gullariga taqqoslaydi. Inson hulqining go‘zalligini faoliyatinning ko‘rinishlariga, tabiat saxovatlariga, hodisalariga va boshqalariga taqqoslab, inson tabiatidagi o‘zgarishlarni agar u salbiy bo‘lsa, tabiatning kulfat keltiruvchi kuchlariga, ijobiy bo‘lsa, tabiat go‘zalliklariga qiyoslaydi.

Navoiy ijtimoiy masalalarni insonparvarlik va umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan hal qilishga intildi. Uning o‘zidan oldingi mutafakkirlarning ma’naviy va umuminsoniy qadriyatlarini ijodiy rivojlantirishi nafaqat XV asr davri uchun, balki, hozirgi zamon davri uchun ham madaniy va umuminsoniy qadriyatlarimizni anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Aristotel, Farobiy, Imom Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Ulug‘bek, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Jomiy va boshqa mutafakkirlarning diniy, ijtimoiy-falsafiy ta’limoti Navoiy dunyoqarashida umuminsoniy qadriyatlar namoyoni va rivoji uchun ilmiy-nazariy asos bo‘ldi. Navoiy ijodidagi umuminsoniy qadriyatlarning yana bir muhim manbai bu diniy va so‘fiy adabiyotlardir. Navoiyning so‘fiy adabiyotga munosabati uning Farididdin Attor, Bahovuddin Naqshbandiy, Abdulla Ansoriy, Sayyid Hasan Ardasher va boshqalar bilan yaqinligini o‘rganish misolida ma’lum darajada tadqiq etilmoqda. Navoiyning “Xamsa” dostonlaridagi insoniy ulug‘lash bilan bog‘liq ko‘p fikrlari, avvalo, “Qur’on”dan olingan.

Navoiyning ijodiy va ma’naviy faoliyatida milliy va umuminsoniy qadriyatlar andozasida bayon etilgan e’tiqodini asoslab berish bugungi kun talab va ehtiyoji hisoblanadi. Zero, Navoiy faoliyatining asosiy muammosi – Vatan, millat, din, ilm-fan, ma’rifatni rivojlantirish edi. Bularning barchasi

mutafakkir ijodi va faoliyatida umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan bayon etilgan asarlarida o‘z ifodasini topgan.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tmoq lozimki, “Xamsa”da Navoiy inson hayotining asosiy mazmuni, insonni kundalik turmushida paydo bo‘ladigan muammolar, yurish turish qoidalaridan tortib davlatni boshqarish tamoyillarigacha e’tibor beradi va insoniy sifatlarini tinmay o‘rgatadi. Chunki Navoiy o‘z avlodlarini komil inson sifatida bo‘lishini orzu qiladi. Navoiy ushbu asarlarida yuksak odob nizomini yaratishga harakat qiladi. Bu asarlar haqiqiy insoniy fazilatlar nimadan iboratligini anglatuvchi qisqa va mazmundor baytlardan iborat.

## MAKTABGACHA TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT: IMKONIYATMI YOKI XAVF?

**Davlatova Ra’no-**
Filologiya fanlari doktori, DSc.
Navoiy davlat Universiteti Maktabgacha ta’lim kafedrasi mudiri

**Annotatsiya.** Mazkr maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga bugungi kunda ta’limda, ijtimoiy hayotda keng qo‘llanilayotgan zamonaviy texnologiyalar, jumladan, sun’iy intellektning ijobiy va salbiy ta’siri xususida fikr-mulohazalar keltirilgan, ayrim tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Annotation.** This article presents reflections on the positive and negative impacts of modern technologies, particularly artificial intelligence, which are widely used in education and social life today for preschool children. It also provides some recommendations.

**Аннотация.** В данной статье приведены рассуждения о положительном и отрицательном влиянии современных технологий, включая искусственный интеллект, которые в настоящее время широко используются в образовании и социальной жизни дошкольников. Также даны некоторые рекомендации.

Zamonaviy dunyo texnologiyalar bilan nafas olyapti. Sun’iy intellekt tushunchasi deyarli har bir sohaga kirib bordi. Ammo bir soha borki, bu texnologik inqilob unga qadam bosishda ham hayrat, ham ehtiyotkorlikni uyg‘otadi. Bu – **maktabgacha ta’lim tizimi**. Endigina “Assalom-u alaykum” deyishni o‘rganayotgan bolaga sun’iy intellekt qanday yordam beradi? Yoki aksincha – unga xalal beradimi? Bu savollar bugun nafaqat pedagoglar, balki ota-onalar, hatto siyosatchilarni ham o‘ylantirayotgan murakkab, ammo muhim mavzuga aylanmoqda. Chunki gap — inson hayotidagi eng nozik, eng muhim poydevor: bolalik haqida ketmoqda.

Texnologiya va bola: bu juftlikka qanday qarash kerak? Yaqin yillargacha bolalar bog‘chasidagi o‘quv jarayoni asosan kitoblar, turli o‘yinchoqlar, rangli qog‘ozlar orqali tashkil qilinar edi. Endi esa turli interaktiv doskalar, AI asosidagi multfilmlar, hatto bola ovozini tahlil qilib, unga mos topshiriqlar taklif etuvchi dasturlar paydo bo‘lmoqda. Bunday vositalar bolaning qiziqishini uyg‘otib, individual rivojlanishiga sharoit yaratadi. Misol uchun, bola to‘g‘ri talaffuz qilmayotgan bo‘lsa, AI dastur buni aniqlab, unga maxsus mashqlarni taklif etadi. Yoki, bolaning rasmga bo‘lgan qiziqishi aniqlansa, AI bu yo‘nalishda uni rag‘batlantiruvchi tavsiyalar beradi.

Albatta, sun’iy intellekt maktabgacha ta’limda yangicha yondashuvga zamin yaratadi va keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Ayniqsa, bu texnologiya bola shaxsiga yo‘naltirilgan, interaktiv va o‘zgaruvchan ta’lim muhitini yaratishga xizmat qilishi tahsinga sazovor. Jumladan, sun’iy intellekt har bir bolaning yosh xususiyatlari, qobiliyati, qiziqishi va rivojlanish tezligini inobatga olgan holda, **shaxsiylashtirilgan ta’lim kontentini** taklif eta oladi. Tarbiyachi har kuni o‘nlab bolalar bilan ishlaydi va ularning rivojlanishini individual tarzda kuzatish oson emas. AI esa bolalarning: faol qatnashuvi, reaktsiyalari, xatolar soni, muvaffaqiyatli bajargan topshiriqlarini avtomatik tarzda qayd etadi. Bu esa

har bir bola uchun **rivojlanish profili**ni yaratish va pedagogik qarorlar qabul qilishda katta yordam beradi. Shuningdek, nafaqat bolalarning, balki kattalarning ham diqqati va qiziqishini sabab bo‘layotgan AI asosidagi interaktiv o‘yinlar va dasturlar bolalarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Pandemiya davrida boshlangan masofaviy ta’lim tajribasi shuni ko‘rsatdiki, texnologiyalar orqali uy sharoitida ham ta’lim jarayoni davom ettirilishi mumkin. Ayniqsa, chekka hududlarda yashovchi bolalar yoki nogironligi bo‘lganlar uchun bu imkoniyatlar tenglashtiruvchi omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Nogironligi bo‘lgan bolalar uchun maxsus ehtiyojlariga moslashtirilgan o‘yinlar, interaktiv darslar, ovozli buyruqlar, moslashtirilgan kontent yaratish — bularning bari sun’iy intellekt orqali osonlashdi. Masalan, ko‘zi ojiz bolalar uchun audio darslar, eshitishida muammosi borlar uchun piktogrammalar asosida mashqlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilmoqda. Sun’iy intellektning yana bir imkoniyati u ta’lim tashkiloti va bugungi kunda o‘z farzandlariga juda kam vaqt ajratayotgan (ehtimol shunga majbur bo‘layotgan) ota-onalar bilan uzviy aloqaning qayta tiklanishiga vositachi bo‘la olishi. Ota-onalar platformalar orqali: farzandining kundalik faolligi, qiyinchiliklarga duch kelayotgan sohalari, qiziqishlari haqida aniq ma’lumotga ega bo‘lishadi. Bu esa ta’lim jarayoniga ota-onani ham faol ishtirokchi sifatida jalb qilish imkonini beradi.

Tabiiyki, kishilik jamiyati oldida bu texnologik yangilik imkoniyat bilan birgalikda bir xavfni ham paydo etdi: insoniylik yo‘qolmayaptimi? Sun’iy intellekt (SI) maktabgacha ta’limga kirib kelayotgan bir paytda, bu yutuqni ortiqcha ideallashtirmasdan, u bilan bog‘liq pedagogik, psixologik va axloqiy tahdidlar haqida ham chuqur o‘ylash lozim. Maktabgacha yosh — bu bolaning mehr, e’tibor, hissiy aloqa orqali o‘suvchi, tarbiyalanuvchi davridir. Tarbiyachi va bolalar o‘rtasidagi: ko‘z qarashlar, qo‘l ushlash, kulgi, mehri – bolaning ruhiy salomatligi va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim omillardir. Sun’iy intellekt bu hissiy fazilatlarning birortasini to‘laqonli bera olmaydi. Masalan, bola xafa bo‘lsa, uni taskin berish, bag‘riga bosish SI imkoniyatida yo‘q. Tarbiyachining ko‘ngilni topa olish mahorati, his qilish qobiliyati texnologiyada mavjud emas. Shuning uchun unutmaslik kerakki, SI hech qachon insoniylik o‘rnini bosa olmaydi, faqat yordamchi bo‘la oladi. Amerika Pediatriya Akademiyasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2–5 yoshli bolalarga ekran bilan kuniga 1 soatdan oshiq vaqt sarflash salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa diqqat susayishi, so‘z boyligi kamayishi, jismoniy faollikning pasayishi, ko‘z muammolari kabi oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ko‘plab AI dasturlari esa mobil ilovalar yoki planshetlar orqali beriladi. Agar bu nazorat qilinmasa, bola o‘yin yoki o‘qishdan ko‘ra ekran bilan “suhbatlashishga” o‘rganib qoladi. Bu esa ijtimoiy izolyatsiyaga, hayotiy ko‘nikmalarning shakllanmasligiga sabab bo‘ladi.

Sun’iy intellekt bolaning kayfiyatidagi o‘zgarishni, qalbi, jismoniy holatini, ehtiyojlarini chin insoniy sezgi bilan ilg‘amaydi. Masalan, bolaning rangi oqarib, horg‘in ko‘rinayotganini tarbiyachi darhol sezadi, lekin AI bu holatni faqat raqamlar bilan talqin qiladi – bu esa ko‘pincha noto‘g‘ri qarorlarga olib keladi. Texnologiyaga haddan tashqari ishonish, sun’iy intellektni asosiy ta’lim beruvchi sifatida ko‘rish holatlari ayrim rivojlangan mamlakatlarda allaqachon muhokama qilinmoqda. Bu esa tarbiyachining shaxsiy ijodkorligi, metodik erkinligi, qobiliyatlarini baholash imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Shuningdek, "sun’iy intellekt baribir ko‘proq biladi" degan noto‘g‘ri tasavvur tarbiyachi obro‘sini zaiflashtiradi.

Shuni ta’kidlash lozimki, bolalarning yuz ifodasi, ovozi, harakati, rivojlanish darajasi kabi shaxsiy ma’lumotlar SI tizimlarida saqlanadi. Agar bu ma’lumotlar noto‘g‘ri qo‘llanilsa, tarqalsa — bu bolaning huquqini buzish, axborot xavfsizligiga tahdid hisoblanadi. Shuning uchun har qanday AI dasturi sertifikatlangan, xavfsiz platformalarda, milliy qonunchilikka muvofiq tarzda foydalanilishi shart.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt — aql emas, vosita. Inson ongi bilan yaratilgan ta’limni texnologiya hech qachon to‘liq almashtira olmaydi. Bu vosita insoniy yondashuv bilan uyg‘unlashgandagina samara beradi. Shu bois, biz texnologiyani “tarbiyachining o‘rnini bosuvchi emas, balki uni kuchaytiruvchi vosita” sifatida ko‘rishni tanlasak, insoniylik yo‘qolmaydi – aksincha,

texnologiya unga xizmat qiladi. Shuning uchun, texnologiyalarni joriy etishda me’yor, muvozanat muhim: "Avval inson – keyin raqamlar".

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Utepbayeva, A. (2024). Artificial Intelligence Applications in the Psycholinguistic Development of Preschool Children. *International Journal of Information and Education Technology*. https://consensus.app/papers/artificial-intelligence-applications-fluency-sis-utepbayeva/406729ee48f7525aafaa0183c1612f9d/?utm_source
2. Yim, H. (2024). Model of AI Literacy in Early Childhood Education.
3. Su, C., & Yang, H. (2022). Effectiveness of AI-powered speech learning apps in preschool.
4. Wang, L., et al. (2024). STEAM-integrated AI instruction and its cognitive effects.


## СУФИЙСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ АБУ АЛИ ИБН СИНЫ О НЕОБХОДИМО СУЩЕМ (ВОЖИБ-УЛ-ВУЖУД)


**Шамсутдинова Нигина Каримовна-**
Доктор философских наук, доцент кафедры Общественных наук
Навоийского государственного университета, Узбекистан.



**Annotatsiya.** Tasavvuf islom tafakkurining eng nozik, qalb falsafasi sifatida shakllangan, falsafiy mulohazalar va tasavvufiy tajribaning o‘ziga xos uyg‘unligini ifodalaydi. Bu Xudoni to‘g‘ridan-to‘g‘ri bilish va borliqning mohiyatini tushunish istagiga asoslanadi. So‘fiylik an’anasi doirasida shakllangan asosiy tushunchalardan biri o‘rta asrlar islom olamining buyuk mutafakkiri Abu Ali Ibn Sino tomonidan batafsil ishlab chiqilgan vojib-ul-vujud yoki “Zarur borliq” tushunchasidir. Bu tushuncha islomning falsafiy an’analarini boyitibgina qolmay, balki so‘fiylik tafakkurining rivojlanishiga, umuman falsafa va ilohiyotga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

**Annotation.** Sufism, as one of the most profound trends of Islamic thought, is a unique combination of religious practice, philosophical reflection and mystical experience. It is based on the desire for direct knowledge of God and understanding of the essence of being. One of the key concepts developed within the Sufi tradition is the concept of wojib-ul-wujud, or "Necessary Being", which was worked out in detail by the outstanding thinker of the medieval Islamic world - Abu Ali Ibn Sina. This concept not only enriched the philosophical tradition of Islam, but also had a significant influence on the development of Sufi thought, as well as on philosophy and theology in general.

**Аннотация.** Суфизм, как одно из наиболее глубоких направлений исламской мысли, представляет собой уникальное сочетание религиозной практики, философской рефлексии и мистического опыта. В его основе лежит стремление к непосредственному познанию Бога и пониманию сущности бытия. Одной из ключевых концепций, развивавшихся в рамках суфийской традиции, является концепция вожиб-ул-вужуд, или "Необходимое сущее", которая была детально проработана выдающимся мыслителем средневекового исламского мира – Абу Али Ибн Синой. Эта концепция не только обогатила философскую традицию ислама, но и оказала значительное влияние на развитие суфийской мысли, а также на философию и теологию в целом.


Основой суфийских возрений Ибн Сины является его учение об атрибутах творца, которые есть не что иное, как его качественная определенность, без которой мы не можем говорить о боге как об абсолютном бытии. Бога Ибн Сина называет необходимо сущим (вожиб-ул-вужуд) и одной из главных его характеристик является его воля. В своей философии он стремился объединить греческую философскую традицию, особенно идеи Аристотеля и

Платона, с исламской теологией и суфийскими учениями. Вожиб-ул-вужуд, как концепция, описывает сущность, которая является источником всего существующего, и играет ключевую роль в понимании природы бытия и его отношений с Богом. Ибн Сина рассматривает Необходимое сущее как первопричину всего, что существует, и утверждает, что все остальные сущности зависят от него, что создает уникальную онтологическую и метафизическую структуру. Например, он пишет: «Подобно тому, как в нас познание силою разума является непосредственной причиной движения силы желания... Таким же образом обстоит дело с существованием всех вещей вытекающих из необходимо сущего»[23]. Пример обратного суждения - от бога к человеку: «Теперь понятно, какова воля необходимо осущего... понятно также, что и мы обладаем волей, описанной выше»[24]. Свойства и качества, которыми Ибн Сина наделяет необходимо сущее таковы: необходимо сущее обладает волей, могуществом, мудростью, милосердием. История развития суфийской концепции вожиб-ул-вужуд представляет собой сложный и многогранный процесс, в ходе которого различные мыслители и школы обогащали и переосмысляли эту идею. Важным этапом в этом развитии стало взаимодействие суфизма с философией, что привело к возникновению новых интерпретаций и подходов к пониманию сущности и природы Бога. Суфийские мастера, такие как Джалал ад-Дин Руми и Ибн Араби, вносили свои идеи в контекст вожиб-ул-вужуд, подчеркивая личный опыт и мистическое познание, что создавало богатую палитру взглядов на эту концепцию.

Основные аспекты суфийской концепции вожиб-ул-вужуд можно выделить в нескольких ключевых моментах. Во-первых, это идея зависимости всех сущностей от Необходимого сущего, что подчеркивает единство бытия и его божественное происхождение. Во-вторых, важным аспектом является понимание отношений между Необходимым сущим и возможным бытием, которое включает в себя все существующие вещи. Эта диалектика между необходимостью и возможностью пронизывает всю философскую систему Ибн Сины и его учеников, создавая сложную картину мироздания.

Сравнение суфийской концепции вожиб-ул-вужуд с другими философскими учениями, такими как неоплатонизм или христианская метафизика, позволяет выявить как общие черты, так и отличия в подходах к пониманию божественного и сущности. В то время как неоплатонизм акцентирует внимание на единстве и иерархии бытия, суфизм подчеркивает личный опыт и непосредственное взаимодействие с Божественным. Это различие в подходах создает обширное поле для философского и теологического диалога, что может быть полезно для дальнейшего изучения и понимания различных традиций.

Критика суфийской концепции вожиб-ул-вужуд также занимает важное место в исследовании. На протяжении веков различные мыслители высказывали сомнения и возражения против этой концепции, указывая на ее сложность и потенциальные противоречия. Критики, как со стороны ортодоксальных теологов, так и со стороны философов, пытались оспорить идеи Ибн Сины, подчеркивая необходимость четкого разграничения между божественным и человеческим, а также между необходимым и возможным бытием. Эти критические взгляды открывают новые горизонты для анализа и понимания концепции вожиб-ул-вужуд, а также для ее практического применения в жизни верующих. Как это происходит, Ибн Сина прекрасно иллюстрирует в своем «Трактате о любви». Он пишет: «Совершенства, свойственные человеческим и ангельским душам, обусловлены созерцанием умопостигаемых предметов как таковых, согласно способности каждой из них уподобляться сущности абсолютного Блага и благодаря проистеканию из них действий, которые для них и по отношению к ним являются справедливыми, как, например, обстоит дело с человеческими добродетелями... Эти подражания происходят только для того, чтобы сделать возможной

[23] Ибн Сина. Избранные произведения, т. I, с. 141.
[24] Ибн Сина. Избранные произведения, т. I, с. 141.

близость к абсолютному Благу, и чтобы из приближения к нему приобретались добродетель и совершенство»[25].

Ибн Сина такие характеристики, как воля, могущество, мудрость сводит к одному основанию - знанию и познанию. Он пишет: «его воля исходит из знания»; «воля необходимо сущего является познанием истины»; «могущество его тождественно с его познанием вещей»; «мудрость его равна знанию». Таким образом, множество характеристик бога сводится к единому качеству - мудрости, или знанию, которые выражаются в разумном действии - познании. Здесь существует одно логическое противоречие, которое лишний раз показывает: что бог Ибн Сины имеет человеческое содержание и иного содержания, кроме земного, у него нет. Практическое применение суфийской концепции вожиб-ул-вужуд находит свое выражение в различных аспектах суфийской практики, включая медитацию, молитву и другие формы духовной практики. Суфийские практики направлены на достижение единства с Божественным, что позволяет верующим углубить свое понимание и переживание концепции Необходимого сущего. Это взаимодействие между философией и практикой создает уникальную динамику, которая способствует духовному развитию и личностному росту.

В условиях современного мира, где вопросы бытия, существования и духовности становятся все более значимыми, анализ исторического развития и основных аспектов суфийской концепции вожиб-ул-вужуд позволяет глубже понять философские корни и культурные контексты, в которых она формировалась. Сравнительный анализ с другими философскими учениями и критика концепции открывают новые горизонты для дискуссий и интерпретаций, в то время как практическое применение данной концепции в современности может предложить ценные идеи для личностного роста и духовного развития. Таким образом, данное исследование не только углубляет знания о суфизме и исламской философии, но и способствует диалогу между различными культурными и философскими традициями.

Необходимо сущее – это свое иное, которое получает отдельное и независимое от своего оригинала - человека - существование и становится предметом обожествления и поклонения. Ирфан Ибн Сины, образ необходимо сущего — это квинтэссенция его философии, воззрений, итог, логическое завершение, не всегда им осознаваемое. Поэтому ошибку совершали те исследователи, которые стремились игнорировать суфийсские взгляды Ибн Сины, пытаясь представить его мыслителем безотносительно к главному содержанию его философии. Человек в боге и через него ищет только самого себя, разумеется, человек прежде всего стремится к богу, но сам бог стремится исключительно к нравственному и вечному спасению человека и, таким образом, целью человека является он сам. Божественная деятельность не отличается от деятельности человеческой. Необходимо сущее - существо бестелесное, чистый разум. Образ необходимо сущего, как такового нельзя себе представить. И нельзя его представить потому, что невозможно представить себе образ разума. Какой у него вид? Разве можно представить себе его деятельность? Бога нельзя себе представить, как невозможно представить образ разума.

История развития суфийской концепции вожиб-ул-вужуд представляет собой сложный и многогранный процесс, в котором переплетаются элементы исламской философии, метафизики, а также предшествующих философских традиций. Вожиб-ул-вужуд, что переводится как «необходимое сущее», занимает центральное место в учениях таких мыслителей, как Абу Али Ибн Сина, и стал основой для многих суфийских концепций. Чтобы понять, как именно эта концепция развивалась, необходимо обратиться к философским традициям, которые предшествовали суфизму, а также к тем мыслителям, которые способствовали ее формированию.

---

[25] Абуали *Ибн Сина*. *Трактат о любви* // Серебряков С.Б. Трактат Ибн Сины (Авиценны) о любви. Тбилиси: Мецниереба, 1976.- С. 62-63.

Абу Али Ибн Сина, один из самых влиятельных философов и ученых своего времени, развил идеи своих предшественников и создал систему, в которой вожиб-ул-вужуд занимает центральное место. В своих работах, таких как «Книга исцеления» и «Книга о душах», Ибн Сина исследует природу существования и сущности, утверждая, что вожиб-ул-вужуд является единственным истинным существом, в то время как все остальные существа существуют лишь потенциально. Его философия подчеркивает важность разума и логики в понимании божественного, что, в свою очередь, оказало влияние на суфийскую мысль.

Суфийские мыслители, такие как Ибн Араби, заимствовали идеи Ибн Сины и адаптировали их к своей мистической практике. Ибн Араби, в частности, развивал концепцию «вожиб-ул-вужуд» в контексте своей теории единства бытия, утверждая, что все существующее является проявлением единого божественного существа. Его учение о «вожиб-ул-вужуд» подчеркивает, что все, что существует, является проявлением божественного, и что человек может достичь понимания этого через мистический опыт.

В конечном итоге, развитие суфийской концепции вожиб-ул-вужуд представляет собой синтез различных философских традиций и учений, которые были адаптированы к контексту исламской мистики. Эта концепция стала основой для понимания божественного и сущности в суфизме, а также для мистического опыта, который стремится к единству с божественным. Суфийские мыслители, опираясь на работы предшествующих философов, разработали свою уникальную интерпретацию вожиб-ул-вужуд, которая продолжает оказывать влияние на исламскую философию и мистику до сих пор.

Таким образом, история развития суфийской концепции вожиб-ул-вужуд является отражением глубоких философских размышлений и метафизических исканий, которые продолжают вдохновлять и привлекать внимание исследователей и практиков суфизма. Эта концепция не только служит основой для понимания сущности и существования, но и открывает путь к глубокому духовному опыту, который остается актуальным и в современном мире.

Во всех энциклопедических трудах Ибн Сины: «Дониш-наме», «Ан-Наджат», «Аш-Шифо», на первом месте по сущности стоит «Теология», но исследователи предпочитали ей заглавие «Илохийят», дословно означающее «Теология», переводится как «Метафизика», и при этом утверждается, что воззрения Ибн Сины подрывают основы религии, наносят «серьезные удары по теологии». Конечно, в этих условиях никто из исследователей не мог и мысли допустить, что почетное имя Ибн Сины «Шайх-ур-Раис» (которое обычно переводится «Глава ученых», «Князь ученых») может означать «Глава богословов».

У Ибн Сины существует несколько учений о творце:

1) необходимо сущее (вочиб-ул-вучуд);

2) суфийское понимание творца (близкое к пантеизму);

3) Его способность интегрировать суфийские идеи в свою философскую систему делает его одним из самых ярких представителей исламской мысли. Исследование его суфийских взглядов открывает новые горизонты для понимания не только его наследия, но и более широких процессов, происходивших в исламском мире в средние века. Это положение приводит к интереснейшим следствиям локального и исторического характера: а) двойственности истины; б) двойственности этики; в) расхождению с догматами ислама и религиозной обрядностью; г) различию ценностной ориентации верующего и мыслителя. Здесь же встает вопрос о моральной ответственности мыслителя за учение, расчитанное на избранных и на массу народа. Суфийские учения Ибн Сины, как было показано в работе, представляют собой синтез различных традиций и учений, что подчеркивает его стремление к единству знаний. Он не только интегрировал элементы суфизма в свою философскую систему, но и развивал их, придавая им новую глубину и значение. Суфизм для Ибн Сины стал не просто

религиозной практикой, а целостной философской системой, которая позволяла ему исследовать природу человеческого существования, Бога и места человека в этом мире. Его учение о познании и любви к Богу, о внутреннем очищении и духовном развитии отражает стремление к высшей истине и единству с Божественным.

## ABU RAYHON BERUNIY ILMIY-MA'NVIY MEROSINING YOSHLAR TARBIYASIDA TUTGAN O'RNI

**Djurakulov Xusan Anvarovich-**
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Malaka oshirish markazining Samarqand viloyati mintaqaviy filiali, falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Bugungi globallashuv jarayonlari shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi davrda buyuk alloma va mutafakkirlarimiz qoldirgan boy ilmiy-ma'naviy merosidan jamiyat taraqqiyoti yo'lida, ayniqsa yoshlar ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda va ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonlarida samarali foydalanish zaruriyati asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Zero, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Qadimiy va betakror diyorimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma, adib va mutafakkirlarimizning yuksak gumanistik g'oyalarga asoslangan boy ma'naviy merosi umumbashariy sivilizatsiya va madaniyat, dunyoviy va diniy ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa bo'lib qo'shilgani dunyo jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda e'tirof etiladi"[26]. Shu nuqtai nazardan ham mamlakatimizda bugungi kunda buyuk mutafakkirlarning ilmiy-ma'naviy merosini har tamonlama chuqur o'rganish va ularni keng doirada targ'ib etish bo'yicha islohotlar izchil davom ettirilmoqda.

Shu ma'noda dunyo tamadduniga ulkan hissa qo'shgan buyuk qomusiy allomalarimizning, ayniqsa Abu Rayhon Beruniyning boy ilmiy-ma'naviy merosini tadqiq qilish va u ilgari surgan ijtimoiy-falsafiy, ma'naviy-axloqiy qarashlarni yoshlar ongiga singdirib borish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mashhur amerikalik olim Stiven Frederik Starrning buyuk ajdodimiz Abu Rayxon Beruniyga: "Beruniy ko'plab olamshumul kashfiyotlari uchun insoniyatning cheksiz mehr-muhabbati va olqishiga loyiqdir. U Xristofor Kolumb Amerikani kashf etishidan 500 yil oldin, dengiz safariga chiqmasdan turib, Shimoliy va Janubiy Amerika materiklarining mavjudligini aniqlab bergan" [27], -deb e'tirof etishi bejiz emas, albatta.

Buyuk ajdodimiz, qomusiy olim, mutafakkir Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Al-Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Mas'ud qonuni", "Mineralogiya", "Saydana", "Geodeziya" va boshqa ko'plab yirik asarlari bir necha tilga tarjima qilinib, ularda ilgari surilgan tabiat, jamiyat, inson, ilm, ma'naviyat, axloq, olam, borliq, materiya, fazo, vaqt, qonuniyat, zaruriyat va tasodif, harakat va rivojlanish, ziddiyat kabi masalalarni o'rganishda bugungi kunda ilmiy jamoatchilik uchun asosiy manba sifatida xizmat qilmoqda.

Xususan, buyuk mutafakkir o'zining "Geodeziya" asarida ilmga e'tibor qaratib, "Ilm o'z zoti bilan matlubdir, haqiqatan ham u barcha narsalardan lazzatli. Ilmdan boshqa qanday narsada manfaat zohirroq va qandayida foyda ko'proq bo'ladi, faqat ilm bilangina ham din, ham dunyo uchun xayrli ishlarni qilish va ularga zarar keltirishdan saqlanish mumkin. Agar ilm bo'lmaganida biz jalb qilayotgan narsa yomonlik emasligiga va chetlanayotgan narsa yaxshilik emasligiga ishonch bo'lmas

[26] Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори "Буюк алломалар, адиб ва мутафаккирларимиз ижодий меросини кенг ўрганиш ва тарғиб қилиш мақсадида ёшлар ўртасида китобхонлик танловларини ташкил этиш тўғрисида" // Халқ сўзи. 15.05.2018. №98 (7056 ). -Б. 3.

[27] Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. - Тошкент: "Ўзбекистон" НМИУ, 2018. – Б. 401-402.

edi”[28], - deb ta’kidlaydi. Albatta, ushbu ma’noli so‘zlar bizga Imom Buxoriyning “Ilmdan boshqa najot yo‘qdir” nomli mashhur hadisini eslatadi. Ya’ni, Beruniy o‘z mulohazalarida ilmning yaratilishi misolida, ular insonning manfaat va ehtiyojlarini ko‘zlab yaratilganligini ko‘rsatishga harakat qiladi.

Beruniy o‘z mulohazalarini davom ettirib, “...insonda ilmga intilish xususiyati bo‘lganidan, u o‘zidan g‘oyib narsalarni bilishga qattiq tirishdi. U kelajakda har xil ofatlardan ehtiyot bo‘lish va ularning daf qilish uchun xushyorlikda bo‘lish maqsadida o‘zining kelgusidagi ahvolini bilishga intildi. Uning tepasida esa Quyoshning havoga ta’siri tufayli yil fasllarida yuz beradigan holatlar va Oyning dengizlar va namliklarga ta’siridan oy choraklarida hamda kecha va kunduzda yuz beradigan holatlar ketma-ket almashinib turardi. Bularni kuzatish natijasida uning tajribasi oshib, bu inson ikki yoritgichdan boshqa yoritgichlarni qiyoslashga o‘tdi. Natijada unda ahkomi nujum san’ati hosil bo‘ldiki, bu san’at o‘ziga xos yo‘l bilan o‘zida bo‘lmagan narsalar bilan adovatsiz va noqulayliksiz boradi”[29], - deb ta’kidlaydi. Darhaqiqat, bugun inson ilm sari intilishi najasida, o‘z tasavvuriga sig‘magan xodisalar, zamonaviy texnik-texnologik jarayonlarga guvoh bo‘lmoqda.

Abu Rayhon Beruniyning fikricha, “Agar inson izlovchan va aniqlikni talab qiluvchi bo‘lsa, ilm tarmoqlaridan biror tarmoqning to‘la ma’nosi haqida so‘zlay olishi mumkin. Buning uchun u albatta faylasuf bo‘lishi, hamma bilimlarning asoslarini egallagan bo‘lishi lozim”[30]. Shundagina inson yuksak darajaga erishishi mumkin. Shuningdek, Abu Rayhon Beruniy “Mineralogiya” asarining muqaddimasida inson, burch, oliyjanoblik, axloq va odob masalalari haqida qimmatli fikr-mulohazalarni keltirib o‘tadi. Ya’ni, u inson fe’l-atvori haqida gapirib, uni inson tabiatida mavjud qarama-qarshilik bilan tushuntirmoqchi bo‘ladi va insonga biologik-fiziologik nuqtai-nazardan yondashadi hamda uning ijtimoiy holatini tasvirlaydi.

Beruniy yuksak insoniy fazilatlar haqida to‘htalar ekan, inson fe’l-atvori, yurish-turishi, tarbiyasi bilan bog‘liq tozalik, pokizalik, ozodalik va halollik inson hayotiy faoliyatining har bir ishida bo‘lishi kerakligini hamda yaxshilik va oliyjanoblik kabi xislatlarni esdan chiqarmaslikni ta’kidlaydi. Shu bilan birga insonning ma’lum bir kasb hunar egasi bo‘lishi, halol mehnat qilishi kabi masalalarga ham e’tibor qaratadi. Bugungi kunning ham asosiy talabi shu bo‘lmoqda. Shu ma’noda yoshlarimizni har tamonlama barkamol qilib tarbiyalashda Beruniyning ilmiy-ijodiy, tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlaridan samarali foydalanish bugungi kunning muhim konstruktiv masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, buyuk mutafakkirlarimizning boy ilmiy-ma’naviy merosidan samarali foydalanish, xususan Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “Mas’ud qonuni”, “Mineralogiya”, “Saydana”, “Geodeziya” va boshqa ko‘plab yirik asarlarida ilgari surilgan konstruktiv g‘oyalardan bugungi zamonaviy ta’lim tizimida oqilona foydalanish orqali yoshlarning ilmga bo‘lgan ishtiyoqini yanada oshirishga va ta’lim-tarbiya jarayonlarini kuchaytirishga erishish mumkin, deb hisoblaymiz.

[28] Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар. Том III. Геодезия. Муқаддима, таржима ва изоҳлар муаллифи А.Аҳмедов. – Т.: Фан, 1982. –Б.61-62.
[29] Ўша асар. –Б.64.
[30] Ўша асар. –Б.203.

# BERUNIYNING TA’LIMIY VA AXLOQIY QARASHLARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

**R.M.Qarshiyev-**
Navoiy davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Annotatsiya: ushbu maqolada Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo‘llari, usullari, bilim olishni axloqiy tarbiya bilan bog‘lash, insonda komillikning muhim mezoni yuksak axloqlilik ekanligi haqidagi fikrlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: axloqiy tarbiya, to‘g‘rilik, odillik, o‘zini vazmin tutish, insof, kamtarlik, lutf, sobitqadamlik, ehtiyotkorlik, saxiylik, shirinsuxanlik, rahbarlikda adolatlilik, tadbirkorlik xislatlari

Аннотация: в статье анализируются взгляды Беруния на пути, методы получения научных знаний, связь получения знаний с нравственным воспитанием, то, что важным критерием совершенства в человеке является высокая нравственность.

Ключевые слова: нравственное воспитание, корректность, справедливость, сдержанность, нечестность, смирение, благородство, стойкость, рассудительность, щедрость, сочность, справедливость в руководстве, предпринимательские качества

Annotation: this article analyzes Berunius ' views on ways, methods of acquiring scientific knowledge, the connection of knowledge acquisition with moral education, the fact that an important criterion of perfection in a person is high morality.

Keywords: moral education, correctness, Justice, self-restraint, dishonesty, humility, grace, steadfastness, prudence, generosity, juiciness, fairness in leadership, entrepreneurial qualities

Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimiz o‘z yurtining tili, madaniyati, qadriyatlari va tarixini bilishga, o‘zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini nasl-nasabi, o‘zi tug‘ilib voyaga yetgan makoni, Vatanining tarixini bilishni istaydi. Bugungi kunda O‘zbekiston nafaqat sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganini dunyo tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar fozilu - fuzalolar, olimu - ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Ana shunday allomalardan biri buyuk vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniydir.

Beruniyni yer yuzidagi barcha mamlakatlar buyuk ensiklopedist olim sifatida yaxshi bilishadi. Abu Rayhon Beruniy boshlang‘ich ta’limni olgach, o‘sha davrda fan – madaniyat taraqqiy etgan Xorazmning peshqadam olimlaridan saboq oladi. Beruniy Xorazm tili bilan birga sug‘diy, forsiy, suryoniy, Yunon, qadimgi yahudiy tillarini, hatto qadimgi hind tili sanskritni ham o‘rgangan. U Yunon klassik ilmi, astronomiya, geografiya, botanika, matematika, geologiya, tarix, etnografiya, falsafa va filologiyadan ham chuqur bilim oladi. Beruniy yirik olim Abu Nasr Ibn Iroqdan Yevklid geometriyasi, Ptolemeyning astronomik ta’limotlaridan dars olgan. Beruniy hali juda yosh olim bo‘lishiga qaramay, Kot shahrida 994-995 yillarda astronomik kuzatishlar o‘tkazgan. Bu kuzatishlar uchun o‘zi astronomik asboblar ixtiro etgan. Bundan ming yillar avval yaratilgan ushbu fan sohalariga oid asarlar hali-hanuz o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. U qomusiy olim sifatida tarix, falsafa, astronomiya, geografiya, tibbiyot, matematika, fizika, adabiyot kabi fanlarni mukammal o‘rgandi va ilmiy izlanishlar olib bordi.

Beruniyning falsafiy qarashlari hozirgi zamon fani uchun ham katta qiziqish uyg‘otadi. Ana shu nuqtai nazardan Beruniyning merosini tadqiq qiluvchi ko‘pgina olimlarning e’tiroficha, u o‘z davrining ajoyib qomusiy olimi bo‘lgan. Beruniyning turli fanlar sohalari bo‘yicha qo‘llagan tajribaviy uslubi naqadar foydali ekanligini “Minerologiya” asarida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Beruniy bir necha yil kamyob metallar va qimmatbaho toshlar ustida kuzatishlar va tajribalar olib boradi va keyinchalik ana shu tadqiqotlari asosida “Mineralogiya” asarini yaratadi.

Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo‘llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham

dolzarbdir. Beruniy o‘z merosidan o‘quvchiga ta’lim berishda:

- o‘quvchini zeriktirmaslik, uzviylik, izchillik, tahlil qilish va taqqoslash, ma‘lumdan noma’lumga, yaqindan uzoqqa, soddadan qiyinga qarab borish, takrorlash, yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko‘rgazmali bayonga e’tibor berish kerakligi uqtiriladi.
- har bir xalqning o‘ziga xos ta’lim usullari, yo‘llari, shakllari borligini ta’kidlash bilan birga har bir xalqning ham o‘qitish tizimi alifbodan boshlanishini ko‘rsatadi. Grammatika, matematika fanlarini o‘qitishga oid qimmatli fikrlar bayon etadi.

Beruniy til va adabiyot, tarix, geografiya, geodeziya, biologiya, mineralogiya fanlari, tibbiyot va dorishunoslik, fizika, falakkiyot ilmiga oid tadqiqotlarini o‘zi targ‘ib etgan nazariya hamda kuzatishlar natijasida amaliyotda sinab ko‘rib, fanda haqiqat ustuvor turishini ta’kidladi. U barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikda deb biladi. Ilmlarni egallashda esa shaxsda intilish va qiziqish zarurligini alohida ta’kidlaydi. Jamiyatning ravnaqi, “ Ma’rifatning rivojiga bog‘liq” degan g‘oyani ilgari suradi.

Beruniy bilim olishni axloqiy tarbiya bilan bog‘laydi. Zero, insonda komillikning muhim mezoni yuksak axloqlilikdir. Beruniyning inson kamolotida axloqiy tarbiyaning muhim o‘rnini “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “Mineralogiya”, “Kitob as – Saidona”, “Al – Qonuni al – Mas’udiy”, “Giodeziya” va boshqa asarlarida ko‘ramiz. Beruniy fikricha, axloqiylik insonning eng asosiy sifati bo‘lishi kerak. Bu xislat birdaniga tarkib topmaydi. U kishilarning o‘zaro muloqoti, ijtimoiy muhit – jamiyat taraqqiyoti jarayonida tarkib topadi. Beruniy axloqiy tarbiyaga musulmon dini talablaridan kelib chiqqan holda ta’rif beradi. Axloqiylik yaxshilik bilan yomonlik o‘rtasidagi kurash natijasida namoyon bo‘ladi va tarkib topadi deydi, u. Yaxshilik va yomonlik insonning xulq-atvorini belgilaydigan mezon sifatida qo‘llaniladi. U yaxshi xislatlarga to‘g‘rilik, odillik, o‘zini vazmin tutish, insof, kamtarlik, lutf, sobitqadamlik, ehtiyotkorlik, saxiylik, shirinsuxanlik, rahbarlikda adolatlilik, tadbirkorlik kabilarni kiritadi.

Yomon illatlarga esa hasadgo‘ylik, baxillik, nosog‘lom raqobat, o‘z manfaatini ko‘zlash, mansabparastlik va hokazolarni kiritadi.

Beruniy faxrlanishni yaxshi xulq ma’nosida ishlatib, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida shunday deydi: “Faxrlanish - haqiqatda yaxshi xulqlar va oliy fe’llarda oldin ketish, ilm-u hikmatni egallash va imkoniyat boricha mavjud nopokliklardan tozalanishdir. Kimda shunday sifatlar topilsa, hukm uning foydasiga va kimda bular yetishmasa, hukm uning zarariga bo‘ladi”.

Abu Rayhon Beruniy ezgu tilakka yetishga to‘sqinlik qiluvchi ziqnalik, yolg‘onchilik, munofiqlik, manmanlik, takabburlik kabi nuqsonlarni qoralaydi, boylikka ruju qo‘yish va ta’magirlik, g‘azab va johillik inson uchun eng ashaddiy dushman deb qaraydi. Beruniy insonni kamolotga yetaklovchi xislatlardan yana biri oliyjanoblik deb ko‘rsatadi. Ayniqsa ilm ahli – olimlarni unga alohida e’tibor berish, hayrixoh bo‘lishga chaqiradi, ularni ma’rifat tarqatuvchilar, jamiyat ravnaqiga hissa qo‘shuvchilar deb, biladi. Ayniqsa, podshoxlar bunday mehnat ahliga g‘amxo‘r bo‘lishi kerakligini alohida eslatadi. Chunki, ana shu mehnat ahli ular hukmronligining tayanchi, deb ta’kidlaydi.

Beruniy ilmiy bilishga oid, ta’lim metodlari haqidagi qarashlari bilan ta’lim nazariyasida o‘ziga xos maktab yaratdi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, Beruniyning komil insonni shakllantirishga oid bu fikrlari faqat o‘z zamonasi uchun emas, hozirgi davr ta’lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishda ham katta ahamiyatga ega.

Zero, uning o‘zi ham haqiqiy komil insonga xos xislatlarga ega ekanligini, hayoti va ijodiy faoliyati, yozgan asarlari bilan isbotlab, kelajak avlodlarga katta ma’naviy me’ros qoldirdi.

Mashhur Amerikalik tarixchi olim Sarton jahon fani tarixida XI asrning birinchi yarmini Beruniy davri deb atadi. Shuningdek, uni o‘z davrining jahondagi birinchi donishmandi deb baholaydi.

Beruniyning ham tabiiy, ham ijtimoiy fanlarni qamrab olgan 150 dan ortiq yirik ilmiy asarlar yaratganligi ham bu fikrning o‘rinli ekanligini tasdiqlaydi.

**Foydalaniladigan adabiyotlar**

1. Prezident Islom Karimovning “O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi (16- May 2014)
2. Ma’naviyat yulduzlari. - T.: “Abdulla Qodiriy nomidagi nashriyot”, 1999.
3. Buyuk siymolar, allomalar (uch kitob ). –T.: Meros, 1995. 1996. 1998
4.www.ziyonet.uz

## ЎЗБЕКИСТОНЛИК “МЕҲНАТ АРМИЯЧИЛАРИ”НИНГ МАЪРИФИЙ-ТАРҒИБОТЧИЛИК ФАОЛИЯТИ

**Курбанов Хуршид Раупович-**
Навоий давлат университети доценти, тарих фанлари номзоди

**Annotation.**The article analyzes on a scientific basis the propaganda work carried out among military personnel who worked in construction and industrial enterpr ises of the Urals during the Great Patriotic War, to develop their diligence and patriotism, the use of the domestic press, and interest in reading.

**Keywords.** Labor soldiers, conditions, propaganda, teahouses, construction, industrial enterprises, hard work, press, reading, World War II, contribution to victory.

Иттифоқ Мудофаа Қўмитасининг 1942 йил 14 октябрдаги №2414-сонли “ўта маҳфий” қарори билан Ўзбекистондан 150 минг киши Урал ҳудудларидаги ишлаб чиқариш ва саноат корхоналарига ишлаш учун сафарбар этилди. Улар 110 дан ортиқ ишлаб чиқариш, қурилиш ва саноат объектларида оғир меҳнат қилдилар. [1]

Сафарбар этилганлар орасида оммавий-маданий тадбирлар, айниқса тарғибот-ташвиқот тадбирлари ўтказиш ҳам йўлга қўйилган. Бу тадбирларга ВКП(б) партия қўмиталарининг йўриқчилари ва тарғибот-ташвиқот бўлимлари бошлиқлари масъул бўлиб, бюро ва пленумларга ҳисобот бериб борилган. Табдирларда ўз уйидан узоқда бўлган ишчиларга меҳнат самарадорлиги ва мажбурияти, жаҳон урушида ғалаба қилиш учун меҳнат қилиш лозимлиги тушунтирилиб, миллатларнинг анъана, одатлари, яшаш тарзи, уларнинг маълумот даражаси, тилни билиши ва бошқа қадриятлари бирмунча инобатга олинган. Бу каби тадбирлар асосан, 1943 йилнинг баҳоридан ҳар бир ётоқхона ёки қўрғон ҳудудида ташкил қилинадиган миллий чойхоналарда ўтказилган. Учрашув ва суҳбатлар самовар, кўк чой устида, шарқ анъаналарига биноан ташкил қилиниб, ишчилардан тузилган миллий ҳаваскорлик жамоаларининг чиқишлари ҳам бўлиб турган. Бу вақтда кўплаб қурилиш заводларида маҳаллий чойхоналар тикланган. Масалан, Челябинсметаллсаноати қурилиш бошқармаси №5-қурилиш отрядида ишлаган меҳнат армиячилари учун “Қизил чойхона”лар очилган [2].

Чойхоналар нафақат дам олиш жойи балки, мамлакат ҳаётида рўй бераётган воқеа ва янгиликлардан хабардор бўладиган, ҳатто бадиий адабиётларни мутолаа қиладиган доимий жойга айланган. Меҳнат армиячиларининг бораётган ҳарбий-сиёсий жараёнларни миллий тилларида эшитиш ва ўқишлари учун Челябинск вилояти корхоналари номига Ўзбекистондан ҳар ойда газеталар юборилган.

Газеталардан ташқари Жанубий Уралнинг 17 та корхонасининг 55 та кутубхонасида Ўзбекистонда Икинчи жаҳон уруши йилларида нашр қилинган даврий адабиётлардан мавжуд бўлган. 1943 йилнинг май ойидан бошлаб ўзбекистонлик меҳнат армиячилари ишлайдиган Иттифоқнинг қолган вилоятларига жами 7460 нусхада ўзбекча “Қизил Ўзбекистон”, ҳамда 1500 нусхада рус тилидаги “Правда востока” газетаси юборилган [3].

Бу даврда ҳудудда маҳаллий даврий нашрлар ҳам чоп этилиб, “Челябинский рабочий”, “Магнитогорский рабочий”, “Электросплав”, “За сталинский металл”, “Орский рабочий”, “Гвардеец труда” каби газеталар, бундан ташқари, “Челяблаг” лагери аҳолиси учун “Маданий-тарбиявий бўлим бюллетени” нашр қилинган. Шунингдек, меҳнат армиячилари турадиган ётоқхоналарда миллий тилларда деворий газеталар чиқариш ҳам урф бўлган.

Даврий матбуотдан ташқари ўзбек, тожик ва туркман тилларида граммафон пластинкаларини эшитиш ҳам мумкин эди [4].

Оммавий-тарғиботларни жонлантириш ва таъсирчанлигини ошириш мақсадида “рус тилини биладиган ўзбек, қозоқ, тожик ва бошқа миллатлар орасидан тарғиботчилар ва оммавий тадбирларни олиб борувчилар шакллантирилган”. Улар учун ташкил қилинган икки ҳафталик ўқув курсларида “Ўзбекистон меҳнаткашларининг жаҳон урушида иштироки ҳақида”, “Иттифоқ халқлари дўстлиги”, “Сталин Урали - Қизил Армиянинг қудратли арсенали” каби мавзуларда маърузалар асосида корхоналарда ўзбек ва қозоқ тарғиботчилари учун қисқа муддатли семинарлар ўтказилган. Меҳнат армиячилари орасидан тарғиботчилар ва оммавий ишларни олиб борувчиларни тайёрлаш учун ВКП(б) Челябинск вилояти партия қўмитасининг тарғибот ва ташвиқот бўлими 54 соатлик дастур ишлаб чиқиб, унинг 40 соати маъруза ва 14 соати суҳбат учун ажратилган.

Оммавий-сиёсий тарғиботларни самарали бажариш мақсадида тайёрланган айрим маърузачилар ҳатто асосий иш жойларидан ҳоли қилиниб, ишлаб чиқариш ишларидан озод қилинган. 1944 йилнинг мартига келиб Челябинск вилоятининг 19 та корхонасида 23 та ишдан озод қилинган тарғиботчи фаолият юритган. Чкалов вилояти Новотроицк саноат майдонидаги меҳнат жамоаларида қозоқ ва ўзбек миллатига мансуб бўлган 44 нафар тарғиботчи ишлаганлиги, шулар жумласидан.

ВКП(б) МҚ кўрсатмаси бўйича Жанубий Уралдаги тарғибот ишларида Ўрта Осиё компартиялари вакиллари ҳам жалб қилинган. ВКП(б) МҚ котибиятининг 1943 йил 10 майдаги қарорига мувофиқ, Ўзбекистондан 29 нафар партия ходимлари танлаб олиниб, улар билан махсус семинар ўтказилиб, асли ўзбекистонлик бўлган меҳнат армиячилари билан сиёсий-тарбиявий ишларни олиб бориш учун Свердловск, Челябинск ва Чкалов вилоятларига жўнатилганлар [5].

1944 йилнинг биринчи чорагида Челябинск вилояти корхоналарида Қозоғистон, Туркманистон ва Ўзбекистон компартияси МКнинг учтадан вакили ва Қирғизистон компартияси МК нинг 5 нафар вакили ушбу ишларда банд бўлган. Сафарбар этилган ўрта осиёлик ишчилар билан жойларда иш олиб боришда Ўрта Осиё республикаларининг машҳур бўлиб улгурган ва ўқувларида 1000 нафаргача ишчилар бўлган Фахриддинов каби воизлар номлари машҳур бўлган. Улар орасида, қирғиз Фотима Мамиралиева, туркман Д.Хусимавоиз, ўзбек Юсупов, ўзбек ва қозоқ тилларини биладиган Селимонов кабиларни санаш мумкин [6].

Шунга қарамасдан барча корхоналарда ҳам бу каби тадбирлар, китоб мутолааси ва матбуотчи билимдонлар ўқувлари ташкил қилинмаган. Жумладан, “Магнитстрой” трестида меҳнат армиячиларининг ётоқхоналари ва чойхонада доимий бириктирилган тарғиботчилар бўлмаганлиги сабабли меҳнаткашлар орасида тарғибот ишлари олиб борилмаган. Шунингдек, Медногорск шаҳрида сульфат кислота заводида ҳам меҳнат армиячиларининг ётоқхоналарида сиёсий-тарбиявий ишлар олиб борилмаслиги ва газеталар ўқилмаслиги аниқланган. Чкалов паровоз таъмирлаш заводида сиёсий-тарғибот ишларига Қизил армия ҳарбий хизматчилари жалб этилган. Улар 1943 йилнинг апрел-август ойларида ишчилари билан йигирма олти марта “уруш кунларида Иттифоқ халқларининг дўстлиги - ғалабамиз гарови”, “жорий ҳолат тўғрисида” каби мавзуларида суҳбатлашилган. Ҳар бир чиқишларда ўртача 200 нафар Ўзбекистон ва Қозоғистон ишчилари иштирок этганликлари манбаларда қайд этилган. [7].

Бу каби ҳолатлар “Южуралтяжстрой” трестининг №516-завод қурилишида ишлаётган ўзбек ва қозоқлар орасида ҳам ташкил қилинмаган, миллий тиллардаги газеталар етиб бормаган, совет-герман фронтидаги ҳарбий ҳаракатлар тўғрисида суҳбатлар ўтказилмаган.

Маданий-оқартув ишла орасида қурилиш отрядлари клубларида миллий театр-мусиқа тўгараклари фаолияти ҳам йўлга қўйилганлигини алоҳида таъкидлаш лозим. Меҳнат армиячилари зич яшайдиган жойларда ўз миллий мусиқа асбобларига, чиқишларига эга бўлган ҳаваскорлик жамоалари тузилган. Бунга Челябинск қурилиш бошқармасининг №5-қурилиш отрядини мисол қилиш мумкин.

Ўрта Осиё меҳнат армиячиларидан ташкил топган миллий ҳаваскорлик ижодий жамоалари қурилиш ва саноат корхоналаридаги миллатдошлари маданий чиқишлар қилганлар. “Магнитстрой” трестида Раимбеков раҳбарлигида меҳнат армиячиларидан иборат қозоқ-ўзбек ансамбли тузилган. Ижодий жамоа 1945 йил 23-24 март кунлари Челябинск вилояти саноат корхоналарининг ҳаваскорлик хорлари ва вокалчилари танловида иштирок этган ва ҳакамлар томонидан “...миллий қўшиқларнинг энг яхши ижроси ва ҳақиқий бадиий безак” номинациясида эътироф қилинган. 1943 йилнинг баҳорида Чкалов вилоятидаги ишчилар учун Тошкент республика филармонияси артистларининг концерт дастурлари намойиши ташкил қилинган.

Бундан ташқари Челябинск, Копейск, Златоуст ва Магнитогорскда меҳнат қиладиган ишчилар учун “Азамат”, “Насриддин Бухорода” филмлари намойиши ҳам ташкил қилинган.

1944 йилда Челябинскдаги ишчилар учун завод Маданият саройида ўзбек санъаткори Тамарахоним иштирокида концерт-учрашуви ҳам ташкил қилинган.

Хулоса сифатида таъкидлаш мумкинки, 1941-1945 йиллар давомида Ўзбекистонлик “меҳнат армиячилари” ўртасида олиб борилган тарғибот-ташвиқот ишлари Иккинчи жаҳон уруши даврида Иттифоқининг барча аҳоли қатламлари орасида ташкил қилинган кенг миқёсдаги тадбирларнинг кичик бир қисми бўлган эди.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. ГАРФ (Россия Федерациясининг Давлат архиви). Фонд - 9517, рўйхат -1, иш-26, 28-31-варақлар.

2. ОГАЧО (Челябинск вилояти бирлашган давлат архиви). П-288-фонд, 8-рўйхат, 261-йиғма жилд, 56-варақ.

3. РГАСПИ (Россия ижтимоий-сиёсий тарихи давлат архиви). 17-фонд, 122-рўйхат, 50-йиғма жилд, 14-варақ.

4. РГАСПИ. 17-фонд, 122-рўйхат, 50-йиғма жилд, 38, 44-варақлар.

5. РГАСПИ. 17-фонд, 122-рўйхат, 50-йиғма жилд, 14-варақ.

6. ЦДНИОО (Оренбург вилояти Марказий хужжатлар давлат архиви). 371-фонд, 7-рўйхат, 25-йиғма жилд, 33-варақнинг орқа томони.

7. ЦДНИОО. 371-фонд, 8-рўйхат, 50-йиғма жилд, 61-варақ.

# TEXNOGEN SIVILIZATSIYA RIVOJLANISHIDA MUHAMMAD AL-XORAZMIYNING O‘RNI

**Ochilov Jamshid Abdurashidovich-**
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Malaka oshirish markazining Samarqand viloyati mintaqaviy filiali direktori, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yurtimizda yashab o‘tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati, bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlari bugungi kunda ham dunyo ahlini hayratga solayotganini g‘urur bilan ta’kidlash lozim. Zero, “Biz boshqalarni kamsitish niyatidan yiroqmiz. Ammo bugungi ayrim saltanatlar ahli qabila-qabila bo‘lib yashagan zamonlarda bizning muborak zaminimizda ilmu-fan barq urib yashnagani, tabiiy ilmlar, xususan, tibbiyot, matematika, astronomiya kabi fanlar madrasalarda o‘qitilgani, ilmiy akademiyalar tashkil etilib, Mag‘ribu Mashriqqa nom taratganini eslasak va bundan har qancha g‘ururlansak arziydi”[31]. Albatta, bunda sharqona texnogen sivilizatsiya ahamiyatini ko‘ramiz.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq mamlakatimizda xalqimizga milliy o‘zligini anglatib, ruhiy-ma’naviy yuksaltirish uchun tarixiy merosimizni tiklash va ijodiy rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Darhaqiqat, “Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar davomida yaratib kelingan g‘oyat ulkan, bebaho ma’naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo‘lib qoldi”[32]. Xalqimiz tarixiy merosining, umuman jamiyat ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotida, xususan milliy madaniy merosimizning umuminsoniy qadriyatlar bilan integratsiyalashish xususiyatlarini o‘rganishda, madaniy merosni, olis o‘tmishni chuqur o‘rganmasdan turib istiqbolni belgilab bo‘lmaydi. Kelajakka intilish uchun o‘tmishni o‘rganish, tajribalarni o‘zlashtirish zarur.

Ma’lumki Markaziy Osiyo hududi Sharq Renessansining yirik markazlaridan biri sifatida butun dunyoda ma’lum va mashhur bo‘lgan. Bu haqda gapirganda, avvalo, ulug‘ vatandoshimiz – algoritm asoschisi Al-Xorazmiyni tilga olamiz. Ayniqsa, “Muhammad Muso Xorazmiyning o‘nlik sanoq sistemasini, algoritm va algebra tushunchalarini dunyoda birinchi bo‘lib ilm-fan sohasiga joriy etgani va shu asosda aniq fanlar rivoji uchun o‘z vaqtida mustahkam asos yaratgani umuminsoniy taraqqiyot rivojida qanday katta ahamiyatga ega bo‘lganini barchamiz yaxshi bilamiz. Bugungi kunda odamzotning ilm-fan va zamonaviy texnologiyalar borasida erishayotgan ulkan yutuqlarini ko‘z oldimizga keltirar ekanmiz, beixtiyor ana shu buyuk bobomiz misolida bunday yuksak marralarga erishishda o‘zbek xalqining ham munosib hissasi borligidan qalbimiz iftixorga to‘ladi”[33]. Shu ma’noda, VIII asrning oxiri va IX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan buyuk mutafakkir olim Muhammad al-Xorazmiy jahon texnogen sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo‘shgan buyuk hissasi hozirgi kunda butun dunyoga ma’lum. O‘nlik sanoq sistemasini, algoritm va algebra tushunchalarini dunyoda birinchi bo‘lib ilm-fan sohasiga joriy etishi orqali axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini rivojlanishiga asos soldi. Buning natijasida insonlar yuksak texnologiyalar orqali yer yuzida xattoki koinotda ham tadqiqotlar olib borib ulkan muvaffaqiyatlarga erishmoqda.

Texnogen sivilizatsiya davrida davlat va jamiyat boshqaruvi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlarini joriy etish, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarni samarali amalga oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanib borishi mazkur sohada xizmat qilishga qodir kadrlarni tayyorlash masalasini o‘ta dolzarb vazifaga aylangan. Xususan, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2017 yil Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan Islom hamkorlik tashkilotining fan va texnologiyalar bo‘yicha birinchi

[31] Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. -T.: O’zbekiston, 1996. 219-220 betlar.
[32] Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo’lidan. T.6. -T.:o’zbekiston, 1998. 125 bet.
[33] Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.:Ma’naviyat, 2008. 26 bet.

sammitida: “Doimiy qo‘mita homiyligida O‘zbekistonda Al-Xorazmiy xotirasiga bag‘ishlab, yosh matematiklar o‘rtasida Xalqaro olimpiadani tashkil etish”ni taklif qilgan edi. Bu tashshabus qo‘llab-quvvatlanib, 2018-yilda ilk marotaba Urganch shahrida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi xalqaro olimpiada o‘tkazildi.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-avgustda “Oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida matematika fanidan Muxammad al-Xorazmiy nomidagi Xalqaro olimpiadani o‘tkazish to‘g‘risida”gi 686-son Qarori bilan har ikki yilda bir marta talabalar o‘rtasida matematika bo‘yicha Muhammad Xorazmiy nomidagi xalqaro olimpiada tashkil etilish belgilandi. Xalqaro olimpiadani tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad buyuk allomaning jahon ilm-fani va sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan ulkan hissasini xalqaro miqyosda targ‘ib etish, qolaversa, iqtidorli talabalarni qo‘llab-quvvatlash, ularni fundamental va aniq fanlar bilan shug‘ullanishga keng jalb etish hamda ilm-fan yo‘lida xalqaro hamkorlikni kengaytirishdan iborat.

Ulug‘ alloma Muhammad al-Xorazmiyning buyuk va bebaho merosini qadrlash, uni yosh avlod ongiga chuqur singdirish, o‘quvchilarning aniq fanlarning yuksak marralarini zabt etishiga ko‘maklashish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi iqtidorlarini aniqlash hamda qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida “Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo‘nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktab tashkil etildi. Maktab yoshidagi iqtidorli o‘quvchilarga matematika, fizika, informatika fanlarini integratsiyalashgan holda qamrab olgan ko‘rik-tanlovlar o‘tkazish, ularning natijalariga ko‘ra beriladigan «Muhammad al-Xorazmiy izdoshlari» nomli mukofot ham ta’sis etildi[34] .

Mamlakatimizda istiqbolli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning iqtidorini ro‘yobga chiqarish, ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodni ilmga keng jalb qilish va intellektual salohiyatini oshirish, shuningdek, xalqaro maydonda mamlakatimizning nufuzini yanada yuksaltirish uchun iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 19 martda “Al-Xorazmiy nomidagi Xalqaro fizika va matematika maktab-internatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 171-son Qarori qabul qilindi.

Yurtimizda mutafakkir olim Muhammad al-Xorazmiy asos solgan sohani jumladan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jamiyatning barcha sohalariga keng joriy etish bo‘yicha yirik islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining 9-maqsadida: «Elektron hukumat» tizimini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarining ulushini 100 foizga yetkazish hamda byurokratiyani bartaraf etish[35] belgilab olingan bo‘lib, bu borada tizimli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Xulosa qilib aytganda buyuk mutafakkir olim al-Xorazmiy o‘zining ilmiy qarashlari asosida jahon ilm-faniga, texnogen sivilizatsiyaga qo‘shgan o‘lkan xissasi, bugungi kunning yuksak texnologiyalarini yaratilishiga sabab bo‘ldi. Bu bilan har bir yurtdoshimiz, shu yurtda yashayotganidan g‘ururlanishi, hamda buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning boy ilmiy merosini o‘rganib, ularga munosib avlod bo‘lib, jamiyatimizga halol-pok, el-yurt manfaatini o‘ylab mehnat qiladigan, intelektual salohiyatli kadrlar bo‘lib yurishlari kerak.

[34] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 sentyabrda “Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo’nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o’qitishga ixtisoslashtirilgan maktabni tashkil etish to’g’risida”gi PQ-3274-son Qarori

[35] https://lex.uz/docs/5841063

# MARKAZIY OSIYO ILMIY, MADANIY MEROSINI O‘RGANISHDA DISSIMMETRIK YONDASHUVNING O‘RNI

**Bekpo‘latov Ulug‘bek Rahmatulla o‘g‘li**
Navoiy davlat universiteti doktoranti, f.f.f.d. (PhD), dotsent.

***Annotatsiya:*** *Maqolada Markaziy Osiyo ilmiy va madaniy merosini o‘rganishda dissimmetrik yondashuvning ontologik va gnoseologik asoslari tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv tarixiy va madaniy jarayonlardagi nomuvozanatlik, strukturali uzilish va marginal guruhlar rolini ochib berishga xizmat qiladi. An’anaviy simmetrik yondashuvlardan farqli ravishda, dissimmetrik qarash haqiqatni ko‘p qirrali, ziddiyatli va murakkab tizim sifatida tushunishga imkon beradi. Muallif dissimetriyani faqatgina metod emas, balki mavjudlikni anglashning konseptual asosi sifatida talqin etadi.*

***Annotation:*** *The article analyzes the ontological and gnoseological foundations of the dissymmetric approach in studying the scientific and cultural heritage of Central Asia. This approach helps reveal imbalance in historical and cultural processes, structural ruptures and the role of marginal groups. Unlike traditional symmetric approaches, the dissymmetric perspective allows for understanding truth as a multidimensional, contradictory, and complex system. The author interprets dissymmetry not merely as a method, but as a conceptual basis for comprehending existence.*

Markaziy Osiyo tarixiy sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan bo‘lib, u o‘zining boy ilmiy, madaniy, falsafiy va dini merosi bilan butun insoniyat taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan. Biroq, ushbu sivilizatsiyaning o‘tmishdagi merosini o‘rganishda, ko‘pincha simmetrik ya’ni muvozanatli, chiziqli tarixiy yondashuvlar ustuvor bo‘lib kelgan. Bu esa tarixiy haqiqatning ko‘p qirralarini, ichki qarama-qarshiliklarini, muvozanatsizliklarini, strukturaviy tafovutlarini e’tibordan chetda qoldirishga olib kelgan. Shu bois, bugungi ilmiy tafakkur tarzi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bu ilmiy-madaniy merosga dissimetriya tamoyiliga asoslangan holda, ya’ni nomutanosibliklar, asimmetriyalar, strukturaviy uzilishlar, ijtimoiy va madaniy tafovutlar orqali yondashish zaruriyatidir[1].

Dissimetriya nafaqat metodologik yondashuv, balki chuqur ontologik va gnoseologik tamoyil sifatida qaralishi mumkin. Bu yondashuv insoniyatning tarixiy rivojlanishini, madaniy tafakkurini va ijtimoiy shakllanishini faqat uyg‘unlik orqali emas, balki nomuvozanat, asimmetrik kuchlar o‘zaro ta’sirida shakllangan murakkab dinamik jarayon sifatida tahlil etishga chorlaydi.

“Dissimetriya” tushunchasi dastlab tabiiy fanlarda, xususan fizika va biologiyada qo‘llanila boshlangan bo‘lib, tizimlardagi nomuvozanat, noaniqlik, asimmetrik energiyalar oqimi orqali yangicha shakllanish va tartibning yuzaga kelishi holatlarini ifodalaydi[2]. Masalan, I. Prigojin o‘zining entropiyaga oid ishlanmalarida aynan tartibsizlikdan tartib paydo bo‘lishini isbotlagan[3]. Bu g‘oya keyinchalik ijtimoiy-falsafiy tafakkurga chuqur kirib keladi. Ushbu konsepsiyani ma’lum ma’noda dissimmetrik yondashuvning bir qismi sifatida tushunish mumkin.

Dissimetriya ijtimoiy falsafada jamiyatdagi faqat barqarorliknigina emas, balki uning muvozanatdan chiqib ketgan, parchalanayotgan, ziddiyatli shakllarini ham o‘rganishga undaydi. Bu esa jamiyatni va tarixni postnoklasik dialektik tafakkur asosida, ya’ni ziddiyatlar orqali shakllanuvchi tizim sifatida talqin qilishga olib keladi. Ontologik nuqtai nazardan dissimetriya — mavjudlikning asosiy sifatlaridan biri. Har qanday mavjudlik, shuningdek, ijtimoiy mavjudlik, o‘z tabiati bilan asimmetrikdir. Gnoseologik jihatdan esa dissimetriya haqiqatni bilishda simmetrik yondashuvlar bilan cheklanmaslik, balki ko‘rinmas, inkor etilgan, chetlab o‘tilgan qirralarni ham aniqlashni taqozo etadi. Demak, dissimmetrik yondashuv faqat tarixiy tafakkurda emas, balki bilish jarayonining o‘zida ham chuqur ishtirok etadi[5].

Markaziy Osiyo madaniy merosi hech qachon simmetrik, bir yoqlama, izchil tarzda shakllanmagan. Aksincha, bu mintaqa turli sivilizatsiyalar, tillar, dinlar, ijtimoiy qatlamlar, siyosiy

markazlar o‘rtasidagi murakkab va nomutanosib aloqalar, “markaz” va “periferiya” o‘rtasidagi asimmetrik dinamikalarning kesishgan nuqtasidir.

Masalan, IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo ilm-fani eng yuqori cho‘qqisiga chiqdi. Buxoro, Xiva, Samarqand, Urganch kabi shaharlar nafaqat diniy, balki dunyoviy fanlarning markaziga aylangan edi. Biroq, bu taraqqiyot keyinchalik parchalanish, tanazzul, siyosiy beqarorlik va tashqi bosqinchiliklar natijasida sekinlashdi. Bu ilmiy rivojlanishdagi dissimmetriklik tarixiy tafakkurda chuqur o‘rganilmagan. Klassik tarixiy yondashuvlar bu o‘zgarishlarni bevosita zamon va makon mezonlarida tushuntiradi, lekin strukturaviy uzilishlar, bilish paradigmasidagi keskin o‘zgarishlar, ijtimoiy ongdagi tafovutlarni chuqur anglamaydi.Shuningdek, madaniyatda ham dissimmetrik shakllar aniq ko‘rinadi. Ko‘chmanchi va o‘troq madaniyatlarning o‘zaro ta’siri ko‘pincha kuchlar tengligiga emas, balki asimmetrik gibridlikka asoslangan. Yoki turli diniy oqimlarning (masalan, rasmiy sunniylik va tasavvuf) o‘zaro pozitsiyasi Markaziy Osiyo ruhiy dunyosini murakkablashtirgan.

An’anaviy tarixiy tafakkur markazlashgan, ya’ni elita, hukmdorlar, sultonu amirlar, yirik olimlar doirasida shakllangan. Dissimmetrik yondashuv esa tarixni quyi qatlamlar, marginal guruhlar, ayollar, etnik ozchiliklar, ijtimoiy periferiya orqali o‘qishga undaydi.

Masalan, o‘rta asr Markaziy Osiyo madaniyatida ayol siymosi rasmiy tarixda deyarli yo‘q. Biroq tasavvufiy she’riyatda, xalq og‘zaki ijodida, xalq tabobatida ayollar faolligi aniq seziladi. Bu esa ayollar merosining asimmetrik ifodalanishidir. Shu kabi, mahalliy hunarmandlar, ko‘chmanchi xalqlarning madaniy hissasi rasmiy tarixda inkor etilgan, ammo ularni chuqur o‘rganish tarixga nisbatan dissimmetrik yondashuvni talab etadi.Bugungi globallashuv, axborot asimmetriyasi, global ijtimoiy-siyosiy noturg‘unlik sharoitida tarixni va madaniyatni qayta o‘rnganish zarurati yuzaga chiqmoqda. Bunda dissimmetrik yondashuv insoniyatning umumiy rivojlanishidagi nomuvofiqliklar, kuchlar tengsizligi, imkoniyatlar farqi, madaniy tafovutlarni tahlil qilishda eng samarali vositadir[4].

Raqamli texnologiyalar, arxivlarni raqamlashtirish yordamida tarixiy dinamikalarni yangicha nigoh bilan ko‘rish imkoniyati paydo bo‘lmoqda. Masalan, xaritalarda bir davrda markaz bo‘lgan shaharlarning keyingi davrda periferiyaga aylanishi, ilm-fan rivoji bo‘yicha hududlar o‘rtasidagi tafovutlar, madaniy almashinuvdagi asimmetriya bu yondashuvning dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi davr ilm-fani oldida turgan muhim vazifalardan biri tarix va madaniyatga dissimmetrik yondashuvni metodologik asos sifatida joriy etish, uni jamiyatni bilish va tahlil qilishda fundamental tamoyil sifatida shakllantirishdan iboratdir. Dissimmetrik yondashuv bu tarix, madaniyat va jamiyatni faqat “ideal” emas, balki real, nomutanosib, murakkab holida tushunish imkonini beruvchi **fundamental metodologik vositadir.** U zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurning chuqurlashuviga, inklyuziv tafsirlar paydo bo‘lishiga va yangi ilmiy paradigmalar shakllanishiga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. U.R. Bekpo‘latov. Ijtimoiy borliq tuzilishining dissimmetrik paradigmasi. Markaziy Osiyo rennesansi jurnali, 2024 yil, 5-son.

2. U.R. Bekpo‘latov. Jamiyat taraqqiyotida simmetriya va asimmetriya birligini ta’minlashning dialektik tahlili//Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari jurnali № 12 (4) – 2024.

3. И.Пригожин, И.Стенгерс. Порядок из хаоса. Новый диалог человека с природой. М.: Прогресс, 1986. — 432 с.

4. U.R. Bekpo‘latov. Simmetriya, dissimmetriya, asimmetriya: ilmiy-nazariy va falsafiy jihatlari. Monografiya– Navoiy: “NAVOIY” nashriyoti, 2024. – 280 b.

5. Голубева Н.А. Диссимметрическая концепция трансформации: онтологическое содержание: Дисс. д-ра филос.наук. – Волгоград, 2014. 322с.

# СИНТЕЗ ТРАДИЦИЙ ВОСТОЧНОЙ ФИЛОСОФИИ НАУКИ И СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИИ НАУЧНОГО ПОЗНАНИЯ

**Филиппов Ольгерд Александрович-**
Доктор философии по философским наукам (PhD),
Навоийский филиал НУВО “PROFI UNIVERSITY”,

**Аннотация:** В статье исследуется потенциал синтеза восточной философской традиции и современных технологий искусственного интеллекта в контексте развития научного познания XXI века. Особое внимание уделяется анализу методологического наследия мыслителей Центральной Азии - аль-Фараби, Ибн Сины, Беруни, аль-Хорезми - и возможностям его применения в развитии современных систем искусственного интеллекта. Рассматривается значение суфийской философской традиции для формирования этически ответственных подходов к развитию ИИ-технологий. На основе комплексного философско-методологического анализа показано, как интеграция восточной эпистемологии и этики с современными технологическими решениями может способствовать созданию более совершенных интеллектуальных систем. Обосновывается необходимость междисциплинарного диалога между традиционной философской мыслью и современной наукой для гармоничного развития технологий искусственного интеллекта.

**Ключевые слова**: искусственный интеллект, восточная философия, эпистемология, суфизм, этика ИИ, научное познание, философия науки.

**Annotatsiya:** Maqolada Sharq falsafiy an’analari va zamonaviy sun’iy intellekt texnologiyalarining XXI asr ilmiy bilish rivojlanishi kontekstidagi sintezi potensiali o‘rganiladi. Alohida e’tibor O‘rta asr Markaziy Osiyo mutafakkirlari - al-Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, al-Xorazmiy - metodologik merosini tahlil qilish va uni zamonaviy sun’iy intellekt tizimlarini rivojlantirishda qo‘llash imkoniyatlariga qaratilgan. Tasavvuf falsafiy an’anasining sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga axloqiy mas’uliyatli yondashuvlarni shakllantirishdagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Kompleks falsafiy-metodologik tahlil asosida Sharq epistemologiyasi va axloqini zamonaviy texnologik yechimlar bilan integratsiyalash yanada mukammal intellektual tizimlarni yaratishga qanday hissa qo‘shishi ko‘rsatilgan. Sun’iy intellekt texnologiyalarining uyg‘un rivojlanishi uchun an’anaviy falsafiy tafakkur va zamonaviy fan o‘rtasidagi fanlararo muloqotning zarurligi asoslanadi.

**Kalit so‘zlar:** sun’iy intellekt, Sharq falsafasi, epistemologiya, tasavvuf, sun’iy intellekt etikasi, ilmiy bilish, fan falsafasi.

**Abstract:** The article explores the potential synthesis of Eastern philosophical tradition and modern artificial intelligence technologies in the context of 21st-century scientific cognition development. Special attention is paid to analyzing the methodological heritage of medieval Central Asian thinkers - al-Farabi, Ibn Sina, Beruni, al-Khwarizmi - and its potential applications in developing modern artificial intelligence systems. The significance of Sufi philosophical tradition is examined in relation to forming ethically responsible approaches to AI technology development. Through comprehensive philosophical and methodological analysis, the study demonstrates how integrating Eastern epistemology and ethics with modern technological solutions can contribute to creating more sophisticated intelligent systems. The necessity of interdisciplinary dialogue between traditional philosophical thought and modern science for the harmonious development of artificial intelligence technologies is substantiated.

**Keywords:** artificial intelligence, Eastern philosophy, epistemology, Sufism, AI ethics, scientific cognition, philosophy of science.

В эпоху стремительного развития искусственного интеллекта (ИИ) мы сталкиваемся с необходимостью глубокого переосмысления философских оснований научного познания. Особый интерес представляет возможность творческого синтеза между богатейшим наследием восточной философской мысли и современными концепциями развития ИИ. Ведущие исследователи подчеркивают, что технологии искусственного интеллекта требуют не только технического совершенствования, но и глубокого философского осмысления в контексте различных культурных традиций [1, 32].

Анализ современной научной литературы свидетельствует о растущем интересе академического сообщества к интеграции восточных философских традиций в современный научный дискурс. Отечественные ученые внесли существенный вклад в исследование философских аспектов цифровизации через призму культурного наследия Востока [2, 425]. Особенно глубоко этические аспекты развития ИИ в контексте восточной философской традиции проанализированы в фундаментальных работах Д.И. Дубровского [3. 208]. В современных условиях особую актуальность приобретают исследования в области цифровой этики и возможностей органичного включения традиционных этических систем в архитектуру современных технологических решений.

Данное исследование направлено на философско-методологический анализ потенциала синтеза восточной философской традиции и современных технологий искусственного интеллекта в контексте развития научного познания XXI века. Методологический фундамент работы составляет органичное сочетание системного, компаративного и герменевтического подходов. Как справедливо отмечает М.М. Парпиева [4, 211], современное исследование технологических феноменов требует глубокой интеграции различных философских традиций и методологических подходов.

Предлагаемый взгляд открывает новые перспективы в понимании возможностей синтеза восточной философской мысли и современных подходов к развитию искусственного интеллекта. Особое внимание уделяется системному анализу потенциала интеграции эпистемологических принципов восточной философии науки в методологию развития современных ИИ-технологий. Такой подход позволяет не только обогатить теоретический фундамент исследований в области искусственного интеллекта, но и открыть новые горизонты практического применения древней мудрости в решении современных технологических задач.

Восточная философская традиция подарила миру уникальный взгляд на природу познания, который приобретает особую актуальность в эпоху развития искусственного интеллекта. В основе этого подхода лежит глубокое понимание целостности мира и взаимосвязи всех явлений. М.Т. Степанянц отмечает, что восточная эпистемология предлагает принципиально иное видение реальности, где познающий и познаваемое не противостоят друг другу, а образуют неразрывное единство [5, 152].

Особого внимания заслуживает наследие великого мыслителя аль-Фараби, чья концепция иерархической организации знания удивительным образом перекликается с архитектурой современных нейронных сетей. Б.М. Кедров [6, 245] в своих исследованиях убедительно показывает, как методологические принципы восточной науки, в частности системность и иерархичность познания, могут служить теоретическим фундаментом для развития современных интеллектуальных систем.

В контексте стремительного развития технологий машинного обучения особую ценность представляют работы Е.В. Масланова, раскрывающие необходимость творческого синтеза различных эпистемологических традиций [7, 184]. Современные системы искусственного

интеллекта все явственнее демонстрируют потребность в интеграции разнообразных подходов к организации познавательного процесса, включая богатейшее методологическое наследие восточной философской мысли.

Философское наследие мыслителей Центральной Азии эпохи Восточного Ренессанса открывает новые горизонты для развития методологии искусственного интеллекта. Труды аль-Фараби, особенно его концепция "Добродетельного города", предлагают глубокое понимание принципов системной организации знаний и механизмов принятия решений. Ф.А. Мухиддинова справедливо указывает на потенциал использования разработанной аль-Фараби иерархической модели познания в создании современных многоуровневых систем искусственного интеллекта [8, 72].

Особую глубину и актуальность сохраняет эпистемологическая концепция Ибн Сины, органично соединяющая рациональное и эмпирическое познание. Его теория интеллекта, различающая потенциальный и актуальный разум, открывает новые перспективы для развития современных подходов к машинному обучению, предлагая более глубокое понимание природы интеллектуальной деятельности.

Научное наследие Беруни, выдающегося энциклопедиста Востока, обретает новую жизнь в эпоху больших данных. Его методологические принципы, основанные на скрупулезном наблюдении и системной классификации знаний, удивительным образом соответствуют потребностям современных систем машинного обучения. Современные исследователи находят в трудах Беруни методологический фундамент для развития технологий обработки и анализа информации [9, 211].

Глубокое этическое учение аль-Фергани о гармоничном единстве человека и природы приобретает особую актуальность в контексте разработки этически ответственных систем искусственного интеллекта. В эпоху, когда человечество стоит перед вызовами технологической революции, его идеи о необходимости сохранения баланса между прогрессом и природной гармонией звучат особенно своевременно.

Математическое наследие аль-Хорезми, заложившего основы алгоритмического мышления, продолжает оказывать влияние на развитие современного программирования. Его революционные для своего времени принципы систематизации математических операций находят неожиданное применение в разработке алгоритмов машинного обучения, демонстрируя удивительную жизнеспособность классических математических идей [10, 180].

Особое место в контексте развития искусственного интеллекта занимает суфийская философская традиция с её глубоким пониманием природы познания и сознания. Суфийская гносеология, предлагающая многоуровневое понимание реальности, открывает новые горизонты для разработки систем искусственного интеллекта. Концепция "марифат", разработанная в трудах аль-Газали и Ходжи Ахмада Яссави, предлагает уникальный подход к интеграции рационального и интуитивного познания, что может обогатить развитие гибридных систем ИИ. Не менее важна суфийская концепция "адаб", предлагающая глубокое понимание этической ответственности и взаимосвязи всех явлений, что особенно актуально для формирования этических принципов развития искусственного интеллекта [11, 30].

Таким образом, творческий синтез богатейшего наследия мыслителей Центральной Азии и суфийской традиции с современными технологиями искусственного интеллекта открывает перед нами новые горизонты научного познания, позволяя создавать более совершенные и этически ответственные технологические решения.

Данное исследование открывает перед нами захватывающие перспективы развития научного познания на основе творческого синтеза восточной мудрости и современных технологий. Особенно плодотворным представляется развитие гибридных систем искусственного интеллекта, интегрирующих суфийскую концепцию "марифат" в архитектуру

систем глубокого обучения. Методологическое наследие аль-Фараби может послужить основой для создания многоуровневых систем ИИ, а математические прозрения аль-Хорезми способны обогатить современные алгоритмы машинного обучения. Этические принципы суфийской традиции, в частности концепция "адаб", открывают новые горизонты в разработке этически ответственных систем принятия решений.

Глубокий анализ возможностей синтеза восточной философской традиции и современных технологий искусственного интеллекта позволяет сделать ряд важных выводов. Прежде всего, становится очевидным огромный потенциал методологического синтеза восточной мудрости и современных подходов к развитию ИИ для научного познания XXI века. Суфийская традиция, с её глубоким пониманием природы сознания и познания, предлагает уникальные концептуальные инструменты для обогащения современных технологий искусственного интеллекта. Практическое применение такого синтетического подхода открывает новые перспективы в различных направлениях технологического развития.

Творческий диалог между восточными философскими традициями и современными подходами к развитию искусственного интеллекта представляется не просто перспективным направлением исследований, но необходимым условием гармоничного развития научного познания. Этот синтез способен обогатить как теоретический фундамент, так и практические методы создания интеллектуальных систем. Дальнейшие исследования в этой области могут привести к качественному прорыву в развитии технологий ИИ и более глубокому пониманию фундаментальных основ познания и природы сознания.

**Список литературы.**

1. Яковлева Е. В., Исакова Н. В. ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК СОВРЕМЕННАЯ ФИЛОСОФСКАЯ ПРОБЛЕМА: АНАЛИТИЧЕСКИЙ ОБЗОР // Гуманитарные и социальные науки. 2021. №6. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/iskusstvennyy-intellekt-kak-sovremennaya-filosofskaya-problema-analiticheskiy-obzor.

2. Metinova, M. X. O‘ZBEKISTONDA TA’LIM TIZIMI MODERNIZATSIYASINING IJTIMOIY FALSAFIY TAHLILI. Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences, 4(26), 2024. 424–427. https://doi.org/10.5281/zenodo.14544779

3. Дубровский Д.И. Проблема "сознание и мозг": Теоретическое решение. М.: Канон+, 2019. С. 208 https://iphras.ru/dubrpublish.htm

4. Parpieva M. M. OLIY TA’LIMNING RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH // Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). 2023. №4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/oliy-ta-limning-raqamlashtirish-sharoitida-innovatsion-texnologiyalardan-foydalanish.

5. Степанянц М.Т. Восточная философия: Вводный курс. Избранные тексты. М.: Восточная литература, 2001. С. 152 https://platona.net/load/knigi_po_filosofii/istorija_vostochnaja/stepanyants-vostochnaya-filosofiya-vvodnyj-kurs-izbrannye-teksty

6. Кедров Б.М. Классификация наук. М.: Мысль, 2017. С. 245 https://platona.net/load/knigi_po_filosofii/filosofija_nauki_tekhniki/kedrov_b_m_klassifikacija_nauk_v_3_knigakh/30-1-0-3684

7. Эпистемология сегодня. Идеи, проблемы, дискуссии: монография / Под ред. чл.-корр. РАН И.Т. Касавина и Н.Н. Ворониной. – Н. Новгород: Изд-во Нижегородского госуниверситета им. Н.И. Лобачевского, 2018. – 413 с. ISBN 978-5-91326-439-8

8. Мухитдинова Ф. А. ИЗУЧЕНИЕ НАСЛЕДИЕ АБУ НАСРА ФАРАБИ И АКТУАЛЬНОСТЬ ДЛЯ РАЗВИТИЯ НАУКИ НАРОДОВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ // Мировая

наука. 2021. №7 (52). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/izuchenie-nasledie-abu-nasra-farabi-i-aktualnost-dlya-razvitiya-nauki-narodov-tsentralnoy-azii.

9. Ходжамбердиев, Х., Обокулов, Н.АБУ РАЙХАН БЕРУНИ И ЕГО НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ. Академические исследования в современной науке, 3(23), 2024. С. 209–213. извлечено от https://econferences.ru/index.php/arims/article/view/17124

10. Мамедов Ф. З. НАУЧНЫЕ ЗАСЛУГИ МАХАММАДА ИБН МУСА АЛЬ ХОРЕЗМИ КАК ВКЛАД В ПЕДАГОГИЧЕСКУЮ НАУКУ // БГЖ. 2021. №3 (36). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/nauchnye-zaslugi-mahammada-ibn-musa-al-horezmi-kak-vklad-v-pedagogicheskuyu-nauku.

11. Акаев В. Х., Солтамурадов М. Д., Газиев В. З. Суфизм в современном мире: интерпретации, теория и практика // Научная мысль Кавказа. 2017. №1 (89). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/sufizm-v-sovremennom-mire-interpretatsii-teoriya-i-praktika.

## МАРКАЗИЙ ОСИЁ МУТАССАВУФЛАРИ ИЖОДИДА ИНСОН МОҲИЯТИ ТАЛҚИНИ

**Бозоров Мустафо Жабборович-**
Самарқанд давлат чет тиллар интитути “Гуманитар фанлар ва ахборот технологиялари” кафедраси профессори, фалсафа фанлари номзоди

***Annotation.*** At the fundamental basis of Sufi philosophy are the most important problems related to man. The idea of Sufism is based on a spiritual understanding of God and boundless love for Him. The doctrine of Sufism is based on the spiritual and moral purification of a person and self-control. One of the thinkers, Ahmad Yassavi, condemns negative traits in human nature. The essence of Abduhalik Gijduvani’s concept is the question of human happiness. In the teachings of Naqshbandi, the upbringing of the soul was of great importance.

**Keywords:** Sufism, human, love, moral purification, reason, moral law, seeker, humanism, ego, honest labor, virtue, mortal, eternal.

Тасаввуф фалсафасининг фундаментал асосида инсон, унинг моҳияти, ҳаёти, маънавий дунёси ва бу ижтимоий ҳодисалар билан боғлиқ барча масалалар туради. Тасаввуфнинг асосий оқимлари назарияси ва амалиётининг йўналиши инсон руҳини Худога муҳаббат туйғулари орқали маънавий камол топтиришдан иборатдир. Шунинг учун тасаввуф мусулмон фалсафасининг муҳим компоненти ҳисобланади. Тасаввуф ижтимоий ва маданий - маънавий ҳаётга чуқур сингиб, фан, маданият ва адабиётнинг ривожига салмоқли ҳисса қўшди. Тасаввуф концепциясига биноан инсон ахлоқий покланиши, ўз-ўзини назорат қилиши орқали олий ҳақиқатга қараб боради. Тасаввуфнинг инсонпарварлик концепциясининг туб моҳияти инсон бахт-саодати масаласидир. Бу таълимотнинг асосий мақсади инсон бахти учун ҳақиқий хизмат қилишдир. Инсоннинг узлатга кетиб, таркидунё қилиши ва аксинга дунё айшу-ишратларига ружу қўйиши тасаввуф талабларига тўғри келмайди.

Тасаввуф концепциясига кўра, инсон ахлоқий покланиш, ўз-ўзини назорат қилиш орқали олий воқеликка қараб боради. Инсон бир неча босқичларни босиб ўтиб, бунга эришади ва илоҳий зотга айланади. Бунинг учун инсонга ақл берилган. Ақлли инсон ҳақиқатга эришиши учун оғир ва машаққатли йўлни танлайди.

Яссавий(1103-1167й.й.) Аллоҳнинг табиат ва оламни яратишдан асл мақсади инсондир, деб эътироф этади. Аллоҳни таниш инсон учун ҳақиқий ҳаётнинг бошланишидир. Яссавий ҳикматларидаги асосий ўринни панд-насиҳат эгаллайди. Ҳикматларнинг барчасида сўфийлик тариқатининг асослари - ҳақиқатни билиш, Ҳақни севиш, нафсу дунёдан чекинишга даъват

этувчи ғоялар ўз аксини топган. Инсон руҳи ва онгини ҳар қандай иллат, қабоҳатдан озод этиш керак, ана шундагина инсон ахлоқида кўзга ташланувчи айрим нуқсонлар юзага келмайди, деган фикрлар комил инсонни шакллантиришнинг асосий йўлларидан бири сифатида таъкидланади. Зеро, тасаввуф нафс лаззатларидан воз кечиш демакдир. Нафс очкўзлик, ўғрилик, жаҳолат ва худбинликни келтириб чиқаради. Шунинг учун Аҳмад Яссавийнинг ҳаётий шиори қаноат саналади. Инсон Ҳақни "кўриш"га етишиш учун борига қаноат қилиши, шукроналик билдириши, ҳалол луқма ейиши лозим. Мутафаккир йўқсиллар, бечора етим-есирлар қалбидан қувонч топиш, камбағалларга хайр-эҳсон қилиш инсонпарварликнинг муҳим белгиси эканлигини таъкидлайди.[36]

Аҳмад Яссавий инсонни шаҳватга етакловчи офатга нафрат билан қарайди. Шунинг учун жоҳилга уч марта такроран шаҳватингни ҳайда, деб насиҳат қилади. Унинг фикрича инсон Аллоҳнинг муҳаббатига сазовор бўлишга интилиши керак..

Абдухолиқ Ғиждувоний (1103-1179 й.й.) ўз издошлари (солик(шогирд, муршид) учун ахлоқий қонун-қоидаларни ("Рашаҳот")ни ишлаб чиқди. Абдухолиқ Ғиждувонийнинг бу рашҳа ("оби ҳаёт томчилари") ларида ахлоқий қонун-қоидалар мужассам бўлган. Мутафаккир томонидан ишлаб чиқилган "Рашаҳот" китоби инсон учун мўлжалланган бўлиб, унинг асосида Худони маънавий тушуниш ва яратувчига нисбатан чексиз муҳаббат ғояси ётади. Бу "Рашаҳот" ўн битта қоидани ўз ичига олади. Улар Абдухолиқ Ғиждувоний, кейинчалик эса "Нақшбандия" тариқати учун ахлоқий қонун-қоидалар эди.

Мутафаккир Абдухолиқ Ғиждувоний ўз асарларидаги маънавий - ахлоқий ва инсонпарварлик концепциясининг туб моҳияти инсон бахт-саодати масаласидир. Бу концепцияга биноан инсоннинг узлатга кетиб, таркидунё қилиши ёки аксинча дунё айшу-ишратига ружу қўйиши тасаввуф талабларига тўғри келмайди. Халқ, оддий одамларнинг ташвишларига бефарқ қараш, жамоадан ажралиб узлатда яшаш, омма олдида ўзининг тақводорлигини кўз-кўз қилиш Абдухолиқ Ғиждувонийнинг инсонпарвалик тамойилларига тамомила зид эди. Ғиждувоний назарида инсоннинг бу дунёдаги вазифаси охиратда Аллоҳ васлига етишиш учун тайёргарлик кўришдир. Мутафаккирнинг фикрига кўра, "Бунинг учун инсон яхши хислатларни эгаллаши, касб-ҳунар билан машғул бўлиши, бева-бечора ва муҳтожларга ёрдам бериши, заиф ва ногронларга меҳр-шавқатли, саховатли ва қўли очиқ бўлиши зарур".[37]

Нажмиддин Кубро инсон, шунингдек, шахснинг жамиятдаги мавқеи ва маънавий камолоти масалаларига ҳам жиддий эътибор қаратади. Очкўзлик инсонни ёмонликка етаклайди. У инсонга шайтондан ҳам баттар душмандир. Эҳтирос инсонни ортиқча ҳатти-ҳаракатларга ундайди, онгости орзуларни вужудга келтиради. Натижада инсонда кибр пайдо бўлади. Эҳтиросга берилган одам Аллоҳни унутади. Руҳ ва ақл ўртасида зиддият юзага келади. Эҳтирос устунлик қилганда, инсон хоҳиш-истаклар исканжасига тушиб қолади. Эҳтирос туфайли инсон ҳайвондан ҳам баттар бўлиб қолиши ҳам мумкин. Бундай одамларга яхшилик, меҳр-оқибат, бағрикенглик каби ижобий ҳис-туйғулар бегонадир. Шунинг учун ҳам Нажмиддин Кубро бундай тоифадаги кишиларга инсонпарварлик эмас, балки худбинлик хосдир, деган хулосага келади. Айнан эҳтирос балоси жамият аъзолари ўртасидаги ахлоқий муносабатларга путур етказади. Бу ғоявий тарқоқликка олиб келиши мумкин. Нажмиддин Кубро тасаввуф йўлига кирган солик саховатли ва карамли, уйғоқ юрак ва соғлом ақл эгаси бўлиши керак, деган фикрга келади. Шунингдек, у ақлнинг функциясига катта баҳо бериб, уни

[36] Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. Т.: А.Қодирий номидаги нашриёт. 1999.

[37]Аликулов Ҳ. Абдухолиқ Ғиждувонийнинг тасаввуфий таълимотида инсонпарварлик ғояларию// Абдухолиқ Ғиждувоний ва тасаввуф. Илмий конференция маърузалари тезислари.Тошкент.- 2003. 10-бет.

нафсга қарши қўяди. Нажмиддин Кубронинг фикрича, ақл ғалабаси - иймон ғалабаси, нафс ғалабаси - шайтон ғалабаси демакдир. У нафс билан шайтоннинг ўзаро боғлиқлиги ва тақазо қилишини асослайди. Мутафаккирнинг фикрича, Аллоҳ нафсни бор нарсаларнинг энг ёмони қилиб яратди, у шайтоннинг дўсти, барча ёмонликларнинг манбаидир, шариат ва ақлга қарши туриб, ҳою - ҳавас билан келишади.[38]

Нажмиддин Кубро таълимотига биноан инсоннинг бу дунёдаги ҳаёти ўткинчи бўлганлиги учун у боқий дунёга кетишига тайёргарлик кўриши керак. Шу тайёргарлик даврида инсоннинг ердаги лаззатлардан халос бўлиши муҳимдир. Бу усул нафсни поклаш, деб аталади.

Тасаввуф таълимотининг инсонпарварлиги унинг кенг тарқалиши ва оммалашишига сабаб бўлди. Тасаввуф таълимоти бир неча асрлар давомида мусулмон халқларининг ижтимоий-фалсафий тафаккури ва маънавий ҳаётида муҳим ўрин тутиб келди. Шунинг учун тасаввуф инсоннинг покланиши ва камол топиши ҳақидаги таълимотдир.

Нақшбандий таълимотига кўра, инсонлар билан мулоқотда бўлиш, ўзини тута билиш ва тарбия салбий хусусиятлардан халос бўлишга ёрдам беради. Инсонда ижобий фазилатларни шакллантириш нафақат унинг ўзи ва атрофдагилар учун, балки жамият равнақи учун ҳам муҳимдир. Чунки инсон жамият бағрида вояга етади, шахсга айланади, камол топади. Жамият аъзолари хулқ-атворида адолатпарварлик, инсонпарварлик ва шу каби ижобий фазилатлар қанчалик кўп бўлса, жамиятнинг маънавий муҳити шунчалик соғлом бўлади. Демак, мазкур модел инсонпарварлик тамойилига қатъий амал қилишни назарда тутади. Нақшбандий таълимотида инсонпарварлик ғоялари умуминсоний қадриятларга айланди ва муҳим аҳамият касб этди.

Нақшбандий таълимотида нафс тарбияси асосий ўринда туради. Ҳалоллик фақат нафс тарбияси орқали, меҳнат билан амалга оширилиши мумкин. Тасаввуф инсонни поклаш ва камол топтириш илми бўлиб, ундаги барча салбий хислатларни нафс тушунчаси билан боғлайди. Бу таълимотга биноан “Нафс – шайтон қутқуси, нафс тубанликка тортадиган куч, нафс-ҳирсу - ҳавас даракчиси, тамаъ, манманлик, жаҳолат фаҳшни келтириб чиқарадиган қувватдир. Шунинг учун инсоннинг биринчи вазифаси ўз нафсини жиловлаб олиш, уни маҳв этишдир”.[39]

Нақшбандий таълимотига биноан, ҳалолликка фақат истакни тарбиялаш, меҳнат орқали эришиш мумкин. Бу таълимотга кўра, "Нафс" - шайтон қутқуси, нафс - пастга тортувчи куч, нафс - очкўзлик, худбинлик, жаҳолат, разолат ва ёвузликка ундовчи кучдир. Шунинг учун инсоннинг биринчи вазифаси ўз нафсини жиловлаш ва нафсни енгишдир. Бу доимо тасаввуфда муҳим масала ҳисобланган. Инсон Аллоҳ уни ейиш ва ичиш учун яратган, деб ўйлайди. Шунинг учун у нафси амморанинг бандаси, бундай салбий сифатдан халос бўлиш инсон учун осон эмас. Чунки инсон шайтон қутқусига учишга мойилдир. Шайтон инсонни Аллоҳдан узоқлашишга ундайди.

Нақшбандий умр бўйи ҳалол меҳнат билан кун кўриш муҳимлигига алоҳида эътибор қаратган. Нақшбандийликнинг асосий тамойили - ичдан Худо билан, ташқаридан одамлар билан бўлишдир. Демак, бу таълимот ҳаётга яқинлиги, дунёвийликни ўзига сингдирганлиги билан ажралиб туради.

Тасаввуф инсонни барча мавжудликнинг кундалик ҳаёти, шу жумладан, бир-бирига раҳм-шафқат қилиш тартибига киритишга ҳаракат қилади. М.Т. Степаняц “тасаввуф энг

[38]Абдулҳаким Шаръий Жўзжоний. Тасаввуф ва инсон Тошкент. “Адолат” 2001. 77- б.

[39]Иброҳим Ҳаққул. Тариқат ва маърифат дарҳаси.// Абдухолиқ Ғиждувоний ва тасаввуф. Илмий конференция маърузалари тезислари. Тошкент. -2003. 8-бет.

ривожланган элитар онг маҳсули, ўз даврида оммавий халқ дини бўлган”лигини таъкидлайди.[40]

Аллоҳ билан бирлашганини ҳис қилган одам барча дунёвий нарсаларга эҳтиёж сўнганини ва ўзидан воз кечганини сезади. Бунда инсон “мен”ининг Аллоҳга ғарқ бўлганлиги, яъни фано филло намоён бўлади. Буни академик И.П Петрушевский мусулмон нирванаси, деб атайди.[41]

Тасаввуф нуқтаи назаридан қараганда, туғилиш ва яшашнинг ўзи ҳали фонийликдан далолат бермайди. Фано босқичини эгаллаш ҳар кимга ҳам насиб қилмайди. Инсон фоний бўлиши учун тасаввуф йўлига кириши шарт ҳисобланади. Қачонки, инсон ўз фикрини Аллоҳга йўналтирса, унда ҳамма нарсани унутади ва шунда экстаз(завқ-шавқдан қаттиқ ҳаяжонга тушиш), фикру - хаёлларга берилиш ҳолатлари содир бўлади. Фанонинг илк лаҳзасидан бошлаб, инсон руҳи билан оламий руҳнинг бирикиши тўғрисидаги таълимот (“ваҳдад ул-вужуд”) фалсафанинг моҳиятини ташкил этади.[42]

Демак, Марказий Осиё мутассавуфларининг инсон борлиғи, унинг дунёқараши, маънавий-ахлоқий қиёфаси тўғрисидаги таълимотларининг мухтасар таҳлили бу мероснинг умрбоқий эканлигини кўрсатади. Тасаввуфнинг ижтимоий, фалсафий ва ахлоқий мазмуни ҳамда инсонпарварлик ғоялари глобаллашув шароитида маънавий-маърифий аҳамиятга эгадир.

## ЭВОЛЮЦИЯ ОНТОЛОГИЧЕСКИХ И ГНОСЕОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ О ЦИВИЛИЗАЦИИ В КОНТЕКСТЕ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СИСТЕМ ТЮРКСКИХ СТРАН

**Джураев Аваз Ахмеджанович-**
Кандидат философских наук, доцент кафедры «Гуманитарных и социальных наук» Ангренского Университета, Узбекистан
**Джураева Нигора Авазовна-**
факультет Социальных наук, кафедра «Философия»- старший преподаватель, PhD
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, Узбекистан

**Аннотация.** Статья посвящена исследованию эволюции онтологических и гносеологических представлений о цивилизации в контексте цифровой трансформации образовательных систем тюркских стран. В работе рассматривается, как цифровизация изменяет традиционные представления о сущности и развитии цивилизации, а также о способах познания и восприятия знаний в образовательных системах.

**Ключевые слова:** парадигма, цивилизация, Узбекистан, Казахстан, цифровизация, онтология, гносеология.

**Abstract.** The article is dedicated to the study of the evolution of ontological and epistemological concepts of civilization in the context of the digital transformation of educational systems in Turkic countries. The paper examines how digitalization is changing traditional ideas about the essence and development of civilization, as well as the ways of knowledge acquisition and perception in educational systems.

[40]Степанянц М.Т. Философские аспекты суфизма. М.: Наука, 1987.
[41]Петрушевский И.П. Ислам в Иране в УП-ХУ кеуах. ЛГУ. 1966. 326-327.
[42]Шодиев Р.Т. Бахриева Д.Х. Суфизм в духовной жизни народов Мавераннахра (1Х-Х1 вв.) Самарканд. 2018. 80 стр.

**Keywords:** paradigm, civilization, Uzbekistan, Kazakhstan, digitalization, ontology, epistemology.

Цифровая трансформация образовательных систем представляет собой один из ключевых аспектов современного развития общества. В условиях глобализации и стремительного развития информационно-коммуникационных технологий образование становится важнейшим инструментом формирования новых цивилизационных парадигм, которые учитывают как технологические изменения, так и культурные особенности. Важность цифровой трансформации в образовании проявляется в том, что она не только меняет способы доступа к знаниям и методы их усвоения, но и существенно влияет на мировоззрение и подходы к обучению и научной деятельности. В частности, цифровизация открывает новые горизонты для межкультурного обмена, а также создает условия для эффективной интеграции традиционного и инновационного подходов в образовательный процесс. Онтология в данном контексте позволяет рассматривать изменения в представлениях о природе образования и цивилизации. Гносеология помогает анализировать, как цифровизация влияет на способы получения и восприятия знаний. Цивилизация в контексте цифровой эпохи приобретает новое звучание, поскольку она включает в себя не только культурные и социальные, но и технологические компоненты, которые формируют будущее общества. В условиях цифровой трансформации важно понять, как эти изменения влияют на онто-гносеологические аспекты образования, а также на концепцию цивилизации.

Традиционные онтологические представления о парадигме цивилизаций, особенно, в контексте тюркских народов, традиционно связываются с исторической преемственностью, социальными структурами, а также культурными и духовными аксиологическими ориентирами. В мировоззрении тюркских народов цивилизационная парадигма, как правило, рассматривалась как нечто органическое, эволюционирующее в тесной связи с природой, общинными традициями и духовными практиками. Например, культура тюркских народов всегда отличалась своей гармонией с природой, почитанием предков и уважением к знаниям, передававшимся устно. В этом контексте, цивилизационная модель воспринималась как нечто устойчивое, сохраненное через века в форме общинных традиций и духовных практик. Однако в условиях цифровой трансформации эти представления изменяются. Цифровизация ставит под сомнение традиционные взгляды на цивилизацию, вводя концепты виртуальности, глобализации и постоянных технологических изменений. Цивилизационная матрица становится не только историческим, но и технологическим феноменом, где важнейшей составляющей становится способность адаптироваться к цифровым вызовам. Например, внедрение технологий в повседневную жизнь меняет восприятие таких понятий, как «прогресс» и «развитие», предлагая новые формы взаимодействия с обществом и культурой.

В условиях цифровой эпохи происходит трансформация понятий «истины», «ценности» и «развития». С развитием искусственного интеллекта и других цифровых технологий, понятийная структура парадигмы начинает строиться не только на исторической или культурной базе, но и на технологической. Например, понятие «истины» теперь может быть связано с доступом к информации, а не только с традиционными источниками знаний, такими как книги или устные предания. Цифровизация приводит к тому, что истина становится многозначной и контекстуальной, в зависимости от доступных платформ и технологий.

Также цифровизация способствует перераспределению власти и влияния в социуме. Технологии, такие как интернет, социальные сети и ИИ меняют традиционные механизмы контроля и распределения информации. В тюркских странах это проявляется в возникновении новых форм власти, где знание и информация становятся важнейшими ресурсами. Цифровизация власти предполагает новую систему бытийных отношений, где информация и

технология играют центральную роль. Следует отметить и тот факт, что цифровизация изменяет подходы к познанию и усвоению знаний, предлагая новые формы образования и способы восприятия информации. Традиционное образование, где ученики получали знания через лекции и книги, заменяется на более гибкие и динамичные формы обучения с использованием цифровых технологий, открывающие новые возможности для доступа к знаниям, но данное явление также вызывает вопросы о качестве и достоверности получаемой информации. В области исследования проблем цифровой грамотности и социализации молодежи с анализом влияния современных технологий на формирование ценностей и навыков существует множество ученых, которые внесли значительный вклад. В частности, Генри Дженкинс является одним из ведущих исследователей в области медиа и культурных исследований. Он исследует влияние медиа и технологий на молодежь и общество, а также цифровую грамотность[1, 279]. Аннет Маркхэм - антрополог и исследователь социальных медиа, анализирует культурные и социальные аспекты использования цифровых технологий[2]. Более того, цифровая трансформация также ведет к изменению методов познания. Если в традиционном подходе знание было ограничено определенными источниками, такими как учебники, лекции и наставники, то в эпоху цифровых технологий доступ к знаниям стал мгновенным, что требует новых методов критического восприятия и анализа информации. В тюркских странах, например, массовое внедрение онлайн-курсов и образовательных платформ стало важным шагом в обновлении образовательных систем, открывая доступ к качественным ресурсам, независимо от географического положения. Примером этого процесса является использование ИИ и онлайн-платформ в образовании, таких как Hemis, Coursera и отечественные ресурсы, которые стали популярными в странах СНГ, включая Казахстан и Узбекистан. Цифровизация образовательных систем в тюркских странах наблюдается в разных формах. Например, в Казахстане и Узбекистане активно внедряются электронные учебники, онлайн-курсы и дистанционное обучение. В Турции развивается использование ИИ для персонализированного обучения, что позволяет учитывать индивидуальные потребности каждого ученика и создавать персонализированные образовательные траектории. В этих странах цифровые технологии помогают устранить многие барьеры, такие как физическая удаленность, ограниченные ресурсы и нехватка преподавателей, предлагая новые форматы образования, доступные для более широких слоев населения.

С XIX века начался бурный рост научных знаний, что привело к созданию новых дисциплин, таких как психология, социология и биология. Научные открытия, такие как теория эволюции Чарльза Дарвина, изменили представления о человеке и его месте в мире. Эти идеи часто вступали в конфликт с традиционными религиозными учениями, что создавало напряженность в обществе. Однако именно в это время началось осознание необходимости интеграции научных и духовных знаний. Ученые и философы, такие как Альберт Эйнштейн и Карл Юнг, начали исследовать вопросы, касающиеся смысла жизни, духовности и человеческой природы, что способствовало созданию новых подходов к воспитанию молодежи.

XX век стал временем значительных изменений и вызовов. Научные достижения, такие как открытие атомной энергии и развитие информационных технологий, изменили общество и его ценности. В то же время, духовные учения начали переосмысляться в свете новых реалий. Психология и социология стали важными инструментами для понимания молодежи и ее потребностей. Появление новых философских течений, таких как экзистенциализм и

постмодернизм, поставило под сомнение традиционные представления о морали и смысле жизни. Эти изменения привели к необходимости пересмотра подходов к воспитанию молодежи, акцентируя внимание на индивидуальности, свободе выбора и ответственности.

В современном мире научное и духовное наследие продолжает играть важную роль в воспитании молодежи. С одной стороны, научные достижения предоставляют новые возможности и инструменты для познания мира. С другой стороны, духовные учения помогают молодежи осмыслить свое место в этом мире, формируя моральные и этические ценности. В условиях глобализации и быстрого изменения технологий важно находить баланс между этими двумя аспектами, чтобы обеспечить гармоничное развитие личности.

Таким образом, исторический обзор научного и духовного наследия показывает, что эти два аспекта не только развивались параллельно, но и взаимно обогащали друг друга на протяжении веков. Научные достижения становились основой для новых философских идей, а духовные учения помогали осмыслить и применить эти знания в жизни. Воспитание молодежи, основанное на уважении к научным и духовным ценностям, может стать ключом к созданию гармоничного и устойчивого общества в будущем.

Научное наследие, с одной стороны, представляет собой результат многовековых усилий человечества в понимании окружающего мира, его законов и механизмов. Научные достижения, открытия и разработки формируют основу для критического мышления, аналитического подхода и способности к решению сложных задач. Воспитание молодежи на основе научного наследия подразумевает не только передачу знаний, но и развитие умений и навыков, необходимых для успешной адаптации в быстро меняющемся мире. Современные вызовы, такие как глобализация, цифровизация и экологические проблемы, требуют от молодежи не только глубоких знаний, но и умения применять их на практике, что невозможно без опоры на достижения науки.

С другой стороны, духовное наследие, охватывающее философские, религиозные и культурные традиции, играет ключевую роль в формировании моральных и этических ориентиров. Духовные ценности и принципы, передаваемые из поколения в поколение, способствуют развитию чувства ответственности, уважения к окружающим и стремления к самосовершенствованию. Воспитание молодежи на основе духовного наследия помогает формировать целостную личность, способную к сочувствию, пониманию и принятию разнообразия мнений и культур. В условиях современного мира, где часто наблюдается дефицит духовных ориентиров, особенно важно акцентировать внимание на воспитании молодежи в духе гуманизма, толерантности и взаимопомощи.

Одной из главных проблем является утрата интереса к научному и духовному наследию, что может быть связано с влиянием массовой культуры, стремлением к быстрому потреблению информации и поверхностному восприятию знаний. Молодежь все чаще оказывается под воздействием фрагментарной информации, что затрудняет формирование глубокого понимания как научных, так и духовных концепций. В результате, молодые люди могут терять связь с традициями, которые служат основой их культурной идентичности.

Кроме того, в современном мире наблюдается рост индивидуализма, который порой приводит к изоляции и отсутствию чувства общности. В условиях глобальных изменений молодежь может испытывать трудности в осмыслении своего места в обществе и в мире в целом. Это подчеркивает необходимость создания образовательных программ и инициатив, которые будут способствовать интеграции научного и духовного наследия в воспитательный процесс.

Одним из путей решения обозначенных проблем является разработка междисциплинарных подходов к образованию, которые объединяют научные и духовные аспекты. Важно, чтобы образовательные учреждения не только передавали знания, но и

формировали у молодежи способность к критическому мышлению, умение анализировать и синтезировать информацию, а также развивали духовные ценности. Программы, основанные на интеграции различных дисциплин, могут способствовать более глубокому пониманию и восприятию как научного, так и духовного наследия.

Также необходимо активное вовлечение молодежи в проекты, направленные на сохранение и популяризацию культурного и научного наследия. Это может быть реализовано через волонтерские программы, исследовательские проекты, участие в культурных мероприятиях и научных конференциях. Такие инициативы помогут молодежи не только узнать больше о своем наследии, но и почувствовать свою причастность к его сохранению и развитию.

Не менее важным является использование современных технологий в процессе воспитания. Цифровые платформы и ресурсы могут стать эффективным инструментом для распространения знаний о научном и духовном наследии. Создание интерактивных курсов, онлайн-лекций, виртуальных выставок и других форматов позволит привлечь молодежь, сделать процесс обучения более увлекательным и доступным. Важно, чтобы эти технологии использовались не как замена традиционному образованию, а как его дополнение, способствующее более глубокому и осмысленному восприятию материала.

В заключение, роль научного и духовного наследия в воспитании молодежи нельзя переоценить. Эти два аспекта служат основой для формирования целостной личности, способной к критическому мышлению, моральной ответственности и активному участию в жизни общества. В условиях современных вызовов необходимо находить новые подходы и решения, которые позволят интегрировать научное и духовное наследие в образовательные процессы. Только так можно обеспечить не только передачу знаний, но и формирование ценностей, которые будут способствовать гармоничному развитию молодежи и общества в целом. Важно помнить, что именно на молодежь возлагается ответственность за будущее, и именно от их воспитания зависит, каким это будущее будет.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Абдуллаева Ш. А., Сайитов С. С., Халикова Г. И. История педагогики // Т.:«Фан ва ахборот технологиялари. – 2010. – Т. 52.
2. Акимова А. А., Шамхалов Ш. Ш., Казакбиева О. И. Роль исторического образования в духовно-нравственном воспитании современной молодежи // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. Серия: Исторические науки. Культурология. Политические науки. – 2024. – №. 1. – С. 13-17.
3. Афанасьева А. Б. Этнокультурное образование как проблема современной педагогической науки // Известия Российского государственного педагогического университета им. АИ Герцена. – 2008. – №. 68. – С. 100-116.
4. Беспаленко П. Н. Духовная безопасность в системе национальной безопасности современной России: проблемы институционализации и модели решения // Ростов н/Д. – 2009. – Т. 250.
5. Гладких В. В., Панкова Е. И. Интеграция науки и образования как эффективное средство сохранения и укрепления духовно-нравственных ценностей // Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки. – 2023. – Т. 28. – №. 3. – С. 580-591.
6. Закунов Ю. А. Наследование ценностей культуры и цивилизации: о новом содержании НИР в Институте Наследия // Журнал Института Наследия. – 2018. – №. 3 (14). – С. 1-14.
7. Раджапова Н. Б. Эволюция лексических единиц обозначающих мужчин и женщин //Philological research: language, literature, education. – 2024. – Т. 4. – №. 4. – С. 67-69.
8. Манхейм К. Диагноз нашего времени. – Юристъ, 1994. – С. 165.

# ALISHER NAVOIY TASAVVUFIY G‘OYALARINING MA’NAVIY VA INTELLEKTUAL MOHIYATI

**Turobov Bekpulat Nusratullayevich-**
Samarqand davlat chet tillar instituti, Gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, PhD.

**Annotation:** The greatness of Alisher Navoi is determined not only by his unparalleled artistic creativity but also by his exceptional scholarly contributions. The thinker’s works on language, literature, history, and Sufism have not lost their scientific value to this day. The study of Sufism, which influenced the development of social and philosophical thought and left a deep mark on the spiritual life of society, as well as its impact on Navoi’s works and worldview, remains one of the pressing issues not only for literary scholars but also for philosophers.

**Keywords:** Sufism, classical philosophy, intellectual, thinker, Khoja Ahrar Vali, Abdurahman Jami, Husayn Vaiz Kashifi, Mawarannahr, Khorasan, Central Asia.

O‘zbekistonning istiqboli, taraqqiyoti va ravnaqi yoshlarimizning ma’naviy-axloqiy barkamolligi, aqliy salohiyatining yetukligiga ham bevosita bog‘liqdir. Bu Sharq ijtimoiy-falsafiy, ma’naviy-axloqiy tafakkur taraqqiyotiga katta xissa ko‘shgan mutafakkir va allomalar ma’naviy merosini o‘rganish va undagi axloqiy g‘oyalarni yoshlarimiz ongiga singdirish muhimligidan dalolat beradi. Shunday mutafakkirlardan biri Alisher Navoiy bo‘lib, u o‘zbek adabiyoti asoschisi, faylasuf va axloqshunosdir. Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Alisher Navoiy bobomiz xotirasiga ehtirom ko‘rsatish, ul zotning tabarruk merosini o‘rganish, yosh avlodimizga bezavol yetkazish” zarurligini ta’kidlaydi.[58]

Mustaqillik yillarida tasavvuf tariqatlari tarixi, falsafasi va adabiyoti muammolarini ilmiy tadqiqot ob’ekti sifatida o‘rganishga imkoniyat tug‘ildi. Tasavvufni chuqur tadqiq etmasdan mumtoz falsafa va adabiyotni o‘rganish samara bermasligi ham ayon bo‘ldi. Vaholanki, ayrim yuzaki mazmun va shaklga ega bo‘lgan va salmoqli ilmiy tadqiqot mahsuli deb taqdim qilingan ishlarni nazardan soqit qilganda, ulug‘ shoirning ijodiyotini yangicha talqin qilishga qaratilgan ilmiy izlanishlar ham olib borildi. Shu bilan birga, Navoiy she’rlarida tasvirlangan ma’no va timsollarning zohiriy emas, balki botiniy “qatlam”lari to‘g‘risida chuqur mushohada yuritish asosiy maqsadga aylandi. Buning uchun esa tasavvuf to‘g‘risidagi ilmga ega bo‘lish zaruriyati tug‘ildi. Akademik M.M.Xayrullayev E.E.Bertels so‘zlariga asoslanib, Navoiyning naqshbandiylik tariqatiga kirganini hayotdan uzoqlashish emas, balki ramziy hodisa sifatida qarash kerak, deb hisoblaydi. Uningcha, shoirning hayoti va faoliyati naqshbandiylikning ilg‘or g‘oyalarini rivojlantirganidan dalolat beradi.[59]

Alisher Navoiy O‘rta asr Sharq mumtoz adabiyotining boy an’analaridan, falsafiy tafakkur durdonalaridan, islom manbalaridan ilhomlangan mutafakkirdir. Shuningdek, shoir o‘zbek mumtoz adabiyotining XIV-XV asrlardagi namoyondalari kabi, naqshbandiya ta’limotiga e’tiqod qilib, undagi insonparvarlik g‘oyalardan o‘z ijodida samarali foydalandi.[60]

Navoiyning asarlarida tasavvuf, ayniqsa, naqshbandiylik tariqatining ta’siri aniq ko‘rinadi. Shoirning naqshbandiylik tariqatiga kirganligi sabablarini quyidagicha izohlash mumkin: birinchidan, o‘sha zamonda ushbu tariqat Movarounnahr va Xuroson bilan birga Hindiston va O‘rta Sharqnig boshqa mamlakatlarida ham keng tarqalgan edi; ikkinchidan, XV asrning atoqli shoir va tasavvuf vakillari bo‘lgan Hoja Axror Valiy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Voiz Koshifiylar ushbu tariqatning

[58] Мирзиёев Ш.М.Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Тошкент. Ўзбекистон. 2017. Б.113.

[59]Из истории общественно-политической мысли и вольнодумия в Средней Азии.Под редакциев академика Ан РУз М.М. Хайруллаева. Ташкент. Издательство “Фан” Академии наук Республики Узбекистан. 1991.С.82.

[60]Орзибеков Р. Нақшбандия силсиласининг Фарғонадаги ҳалқалари. //Абдухолиқ Ғиждувоний ва тасаввуф. Илмий конференция маърузалари тезислари. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси. Тошкент -2003. Б.30-31.

nazariy va amaliy jihatlarini rivojlantirib, yangi mazmun bilan boyitgan edilar. Alisher Navoiy tasavvufning nazariy tomonlari, vahdat ul-vujud ta'limoti bilan maxsus shug'ullanmagan, balki o'z asarlarida ko'pincha tasavvufning amaliy tomonlar, ya'ni axloq va ta'lim-tarbiyaga oid masalalarni ko'targan. Ammo Alisher Navoiy tasavvuf ta'limotining nazariy manbalari va amaliy tomonlaridan oziqlangan va uning qonun-qoidalariga amal qilgan; uchinchidan, naqshbandiylik tariqatidagi ma'naviy-axloqiy va insonparvarlik, undagi ixtiyoriy faqirlik, halol mehnat bilan yashash, nafsni tiyish, tekinxo'rlik, boylik, ta'magirlik va ochko'zlikni rad etish, beva-bechoralar va muhtojlarga xayr-ehson qilish kabi g'oyalar Navoiyni o'ziga jalb qilganligi tabiiydir.[61]

Sultunmurod Olim, naqshbandiylik tariqati g'oyalari Alisher Navoiy asarlari mag'z-mag'ziga chuqur singib ketganligini yozadi. Bu tariqat to'g'risidagi fikrlarni faqat shoir ochiq-oydin tilga olgan joylardan qidirish kerak emas. Alisher Navoiyning she'riyatida tasavvufning talay jihatlari talqin, targ'ib qilingan, sharhlangan, mazkur falsafaning u yoki bu masalaga bevosita munosabati namoyon bo'lgan.[62] Navoiyning tasavvuf chashmalaridan chuqur bahramand bo'lganligini isbotlash uchun shoir ijodining o'ziga murojaat qilish kifoya. Ulug' shoir va mutafakkir Navoiyning inson hayotiga doir falsafiy-axloqiy mushohadalari naqshbandiylik tariqati talab va ko'rsatmalari bo'yicha yoritilgan.

Naqshbandiylik aslida dunyoviy va zamonaviy xususiyatlarga boy tariqat ekanligi bilan ajralib turadi. Bu tariqatning ilk mohiyati tasavvuf an'analariga asoslangan bo'lishiga qaramasdan, zamonaviy qonun-qoidalarga ham ega edi. Masalan, Navoiyning izohicha, xoja Bahovuddindan sizning tariqatingizda zikri jahr, xilvat va samo' bo'ladimi? deb savol berganlarida, u zot bo'lmaydi, deb javob bergan ekan.[63] Navoiying yozishicha, u kishidan "so'radilarki, sizning tariqatingiz binosi ne ishgadur?" Dedilarki, anjumanda xilvat: zohir yuzidin xalq bila va botin tarafidin haq subhonahu va taolo bila", deb javob bergan.[64] Naqshbandiylik ta'limotining "anjumanda xilvat" deb nomlanadigan zikr tamoyili asosiy qoidaga aylandi.

Naqshband ta'limoti asosida faqirlik (ixtiyoriy qashshoqlik) talabi turadi. Ammo mutasavvifning fikricha, faqirlikni boshqalarning xayr-ehsonlari hisobidan kun ko'rish ma'nosida tushunmaslik kerak. Faqirlikning mezoni faqat kishining o'z mehnati bilan topilgan halol rizq hisoblanadi.[65] Shuning uchun tabiiyki, Naqshbandning darveshlardan uzlatga sekinish va chillada o'tirishni talab qilishi mantiqqa zid bo'lar edi. Hatto Navoiy va uning ustozi Jomiy ham uzlatga chekinish naqshbandiylik tariqati qoidalari doirasidan tashqarida ekanligini teran anglaganlar. Umuman olganda, Navoiy asarlarida tasavvuf falsafasidagi axloqiy qonun-qoidalar, insonparvarlik, nafsni tiyish, adolat, tabiat va insonni sevish, ta'lim tarbiya to'g'risidagi g'oyalar singdirilgan. Yuksak darajada insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan tasavvufning o'zbek mumtoz adabiyotiga ijobiy ta'sirini Navoiy ijodida ko'rish mumkin. Bu Markaziy Osiyo tasavvufining islom olamida egallagan mavqei uning nihoyatda xalqchil va insonparvar ta'limot ekanligidan dalolat beradi. Tasavvuf ta'limoti bir necha asrlar davomida musulmon xalqlari ijtimoiy-falsafiy tafakkuri va ma'naviy hayotida muhim rol o'ynadi.

**Adabiyotlar ro'yhati:**

1. Ш.М.Мирзиёев. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Тошкент. "Ўзбекистон". 2017.

2. Из истории общественно-политической мысли и волнодумия в Средней Азии.Под редакциев академика Ан РУз М.М. Хайруллаева. Ташкент. Издателство "Фан" Академии наук Республики Узбекистан. 1991.С.82.

[61] Пардаева М.Д. Алишер Навоий асарларида комил инсон ғояси. Тошкент. Turon Zamin Ziyo. 2016. Б. 70-71.
[62] Султонмурод Олим. Нақшбанд ва Навоий.-Тошкент. Ўқитувчи. 1996. Б.88.
[63] Алишер Навоий. Асарлар. 15 жилд. Насойим ул-муҳаббат. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти., 1968. Б. 131.
[64] Ўша асар... Б. 132.
[65] Бертельс. Е.Э. Жомий. Рус тилидан Ибодулла Мирзаев таржимаси.-Самарқанд: СамДу нашри, 2010. Б. 10.

3. Орзибеков Р. Нақшбандия силсиласининг Фарғонадаги ҳалқалари. //Абдухолиқ Ғиждувоний ва тасаввуф. Илмий конференция маърузалари тезислари. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси. Тошкент -2003. Б.30-31

4. Пардаева М.Д. Алишер Навоий асарларида комил инсон ғояси. Тошкент. Turon Zamin Ziyo. 2016. Б. 70-71.

5. Султонмурод Олим. Нақшбанд ва Навоий.-Тошкент. Ўқитувчи. 1996. Б.88.

6. Алишер Навоий. Асарлар. 15 жилд. Насойим ул-муҳаббат. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти., 1968. Б. 131-132.

7. Бертелс. Е.Э. Жомий. Рус тилидан Ибодулла Мирзаев таржимаси.-Самарқанд: СамДу нашри, 2010. Б. 10.

## QORAXONIYLAR DAVLATI TARIXINI O‘RGANISHDA MAHMUD KOSHG‘ARIY MA`LUMOTLARINING AHAMIYATI

**Sayfullayev Behruz Dilshod o‘g‘li-**
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiya universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar va tarix” kafedrasi mudiri, tarix fanlari bo‘yicha (PhD)
**Maxmudov Bexzod Xamidovich-**
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiya universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar va tarix” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi

***Abstract.*** *This article discusses Mahmud Kashgari’s work "Devonu Lugatit Turk" and its significance in studying the history of the Karakhanid state. In it, the possibilities of studying the ethnic composition of the Karakhanid state, the state’s administrative system, and the meaning of the titles used in the names of the khagans based on the information provided in the source are described.*

***Keyword:*** *Karakhanids, Mahmud Kashgari, Devonu Lugatit Turk, Turkish khaganate, qarluq, chig‘il, halach, yag‘mo, tokhsi, kay, yamak, yabaqu, qang‘li, az, Khoqaniya Afrosiyob, tegin.*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari va uning Qoraxoniylar davlati tarixini o‘rganishdagi ahamiyati xususida so‘z ketadi. Bunda, Qoraxoniylar davlatining etnik tarkibi, davlatning boshqaruv tizimi, hoqon nomlarida qo‘llangan unvonlarning ma`no-mazmunini manbada keltirilgan ma`lumotlar asosida tadqiq etish imkoniyatlari bayon etilgan.*

**Kalit so‘zlar.** *Qoraxoniylar, Mahmud Koshg‘ariy, Devonu lug‘otit turk, Turk hoqonligi, qarluq, chig‘il, xalach, yag‘mo, to‘xsi, qay, yamak, yabaqu, qang‘li, az, Hoqoniya Afrosiyob, tegin.*

Ma’lumki, IX-XII asrlar Movarounnahr tarixida turkiy xalqlar sulolalarining hukmronlik mavqei mustahkamlanganligi bilan ajralib turadi. Ular o‘z tarixlari davomida bir qancha mustaqil markazlashgan davlatlarni tashkil etishdi. Ana shunday davlatlardan biri Qoraxoniylar davlatidir.

Qoraxoniylar davlati tarixini o‘rganganimizda, albatta, yirik tilshunos olim Mahmud Koshg‘ariy (XI asr)ning “Devonu lug‘otit turk” [1.B.499:427:466:] asarini chetlab o‘tolmaymiz. Mazkur davr tarixini o‘rganuvchi deyarli barcha tadqiqotchilar uning bu asaridan keng foydalanishgan. Mazkur asarda O‘rta Osiyoda yashovchi turkiy qabilalar va ularning til xususiyatlari, dialektlari haqidagi fikr-mulohazalaridan tashqari 78 ta qabila va xalq nomi hamda 82 ta shahar va qishloq nomlari zikr etilgan” [2.B.391-407]. Ularning aksariyati esa Movarounnahr, Xorazm, Yettisuv va Sharqiy Turkiston hududlarida joylashgan. Ma`lumki, Qoraxoniylar davlati juda ko‘plab turkiy qabilalarning o‘zaro uyushuvi-ittifoqi natijasida vujudga kelgan edi. Mazkur davlat tarixini etnik tarkibini chuqur o‘rganishda ham Mahmud Koshg‘ariyning ma`lumotlari juda qimmatlidir. Manbada keltirilgan turkiy qabilalarga oid ma’lumotlar bizga shu qabilalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni va bu qabilalarning

mamlakat hayotidagi o‘rni qay darajada bo‘lganligini o‘rganishimizga yordam beradi. Shuningdek, asarda keltirilgan so‘z, iboralarning sharhi va izohi ko‘magida shu davrning ijimoiy-iqtisodiy hayoti va davlat boshqaruviga doir ko‘pgina ma’lumotlarni aniqlab olishimiz mumkin. Masalan, asarda keltirilgan «tavg‘ach», «tegin», «yug‘rush», «tuzun»[3.B. 196, 300, 391, 397, 423: 47, 329, 424] kabi unvon va mansab nomi bilan bog‘liq atamalarni chuqurroq tahlil etib, ularni boshqa manbalardagi ma’lumotlar bilan solishtirsak, Qoraxoniylar davlat boshqaruviga oid bir qator masalalarga aniqlik kiritish imkoni paydo bo‘ladi. Bu esa mazkur asarni katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, manbada juda ko‘plab turkiy qabilalar xususida ma`lumot berilgan. Mazkur ma`lumotlar orqali Qoraxoniylar davlati tarkibidagi turkiy qabilalarning davlatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy hayotida qay darajada ahamiyatga ega bo‘lganini bilib olishimiz mumkin. Jumladan, manbada qarluq, chig‘il, yag‘mo kabi yirik turkiy qabilalar qatorida to‘xsi qabilasi xususida ham atroflicha ma`lumot berilgan. Manbada keltirilishicha to‘xsi etnik guruhi turkiy qabilalardan biridir. Ular asosan Issiqko‘l janubida Qiyos shahrida yashaganlar»[4.B. 342]. Mahmud Koshg‘ariy ularni yag‘mo, chig‘il qabilalari bilan yaqin va o‘zaro aralash holda yashaganligini qayd etib, ularni til xususiyatlarini izohlaganda ham har vaqt chig‘il, yag‘mo va to‘xsining til xususiyati deyarli bir xil, deb ko‘rsatadi[5.B. 93]. Asarda mazkur qabilalarni kasb-korida ham yaqinlik borligi haqida ma’lumotlar mavjud. Jumladan, Mahmud Koshg‘ariy «bista» so‘ziga izoh berar ekan, shunday deb yozadi: «Bista chetdan kelgan savdogarni uyga qo‘ndiradi, mollarini sotib beradi, sotguncha o‘zini ham, mollarni ham boqadi: Ketar vaqtida mol boshiga ma’lum haq oladi. Men buni chig‘il, yag‘mo, to‘xsilarda o‘zim ko‘zim bilan ko‘rdim»[6.B. 52].

Umuman olganda, manbada Qoraxoniylar davlati tarkibida yuqorida nomi zikr etilgan qabilalardan tashqari jumul, qay, yamak, yabaqu, qang‘li, az, uz kabi ko‘plab boshqa qabilalar haqida ham ma`lumotlar mavjud. Bundan tashqari, biz o‘sha davrda davlatni qanday nom ostida faoliyat yuritganini ham Mahmud Koshg‘ariy ma`lumotlari orqali bilib olishimiz mumkin. Jumladan olim Qoraxoniylar davlati tarkibidagi turkiy qabilalarning umumiy so‘zlashuv tili haqida so‘zlayotib, ko‘pchilikka tushunarli tilni «Hoqoniya» tili, deb yozgan [7.B. 66]. Bu yerda muallif ko‘pchilikka tushunarli til, deb bevosita davlat nomini ya’ni «Hoqoniya» so‘zini ham qayd etmoqda.

Mahmud Koshg‘ariyning bu ma’lumotlariga asoslangan holda fikr yuritadigan bo‘lsak, ma’lumki, IX-XI asrlarda Qoraxoniylar davlati tarkibida juda ko‘p turkiy qabilalar istiqomat qilishgan. Ularning har birida esa o‘z qabilaviy til lahjasi mavjud bo‘lgan. Ammo davlat miqyosida deyarli barchaga tushunarli umumiy dialekt bu qarluq-chig‘il lahjasi asosida vujudga kelgan qarluq-chig‘il shevasi edi. Mahmud Koshg‘ariy huddi shu jarayonni nazarda tutib, hoqonlikdagi asosiy so‘zlashuv tilini aytib o‘tish barobarida davlatning nomini ham «Hoqoniya» o‘lkasi, deb ta’riflab o‘tgan.

Yuqorida qayd etilganidek, Mahmud Koshg‘ariyning ma’lumotlari asosida Qoraxoniylar davlat boshqaruvida qo‘llangan ko‘plab unvonlarning ma`no-mazmuni haqida ham bilib olishimiz mumkun. Jumladan, “tegin” unvoni xususida. Ma`lumki, «tegin» unvoni Turk hoqonligi davridan juda keng qo‘llana boshlandi. Uning asl ma’nosi xususida Mahmud Koshg‘ariy «tegin – aslida bu so‘z qul demakdir», deya izoh beradi[8.B. 391]. U yana fikrini davom ettirib, bunga misollar keltirib o‘tadi. Masalan, alp-tegin – bahodir qul, qutlug‘ tegin – muborak qul[9.B. 391].

«Devon»da keltirilgan bu ma’lumotlar juda qadrli bo‘lib, uni faqat o‘ziga xos tarzda tushunib olishimiz kerak bo‘ladi. Chunki manbada berilgan «tegin» atamasining ma’nosi «qul demakdir», degan axborotni biz o‘z tushunchamizdagi «qul» bilan tenglashtirmasligimiz kerak. Masalaga kengroq nazar tashlaydigan bo‘lsak, Turk hoqonligi davridagi qul va qulchilik bu qadimgi Misr va yunon-rim jamiyatidagi mavjud bo‘lgan tom ma’nodagi qulchilikka umuman mos kelmaydi. To‘g‘ri, Turk hoqonligi davrida hoqonlar asosan harbiy yurishlar va istilolar bilan mashg‘ul bo‘lishgan. Bu siyosat natijasida, g‘olib turklar juda ko‘plab asirlar va o‘ljalarga ega bo‘lishgan. Lekin ular asirlarni o‘z yerlariga haydab kelib, muayyan bir yerga joylashtirganlar va ulardan yangi fuqaro sifatida xiroj yig‘ib olishni yo‘lga qo‘yganlar[10.B. 62-63].

Bundan ko‘rinib turibdiki, shu davrdagi qul tushunchasini fuqaro sifatida tushunishimiz mumkin ekan. Fikrimizni davom ettiradigan bo‘lsak «tegin» atamasi bu shunchaki qul bo‘lmasdan, balki bir mas’uliyatli vazifani sidqidildan bajarib, xizmat qilguvchi kishi mazmunini ham anglatgan. Buni biz yuqorida qayd etilgan «alp-tegin», «qutlug‘-tegin» kabi mazmunli iboralardan tushunishimiz mumkin.

Abatta, davr o‘tishi bilan «tegin» atamasi o‘zining asl ma’nosiga nisbatan mazmun-mohiyatini o‘zgartirib borgan. Fikrimizni quvvatlash uchun yana Mahmud Koshg‘ariy asariga murojaat qilsak, unda «So‘ng bu so‘zni hoqoniya bolalarigagina xoslab atadilar», «bu ism Afrosiyob bolalariga ham qo‘llana boshlandi», degan ma’lumotlar qayd etilgan [11.B. 391]. Haqiqatan, Turk hoqonligi davrida «tegin» unvoniga sulola xonadoniga mansub shahzodalar ega bo‘lib, ayni vaqtda ular taxt vorisi ham hisoblangan [12.B. 61]. Bu unvon egalari keyinchalik taxtga chiqib hoqon bo‘lganda ham o‘z nomlarida «tegin» unvonini saqlab qolishgan. Jumladan, Shili To‘listegin, Qultegin, Yo‘llig‘tegin va boshqa hoqonlar shu sharafli unvon bilan atalgan.

Xulosa, o‘rnida aytish mumkunki, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari Qoraxoniylar davlati davriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tegishli ekanligi va shu davrda yashagan turkiy qabilalarni orasida bevosita yurib, jonli tarzda til lahjalarini tadqiq etganligi, manbani nihoyatda ahamiyatli ekanligini tasdiqlaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI


**1.** Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк / Тарж ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталибов. – Тошкент: Фан, 1960. 1-жилд. – Б. 499; 1961. 2-жилд. – Б. 427; 1963. 3-жилд. – Б. 466;

**2.** Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит-турк / Индекс-луғат. Ғ. Абдурахмонов ва С.М. Муталибов иштироки ва таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 391-407.

**3.** Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит-турк. 1-жилд. – Б. 196, 300, 391, 397, 423; 3-жилд. - Б. 47, 329, 424 ва бошқа бетлар.

**4.** Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит-турк. 1-жилд. – Б 342.

**5.** Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит-турк. 1-жилд. – Б 93.

**6.** Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит-турк. 1-жилд. – Б 52.

**7.** Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит-турк. 1-жилд. – Б 66.

**8.** Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит-турк. 1-жилд. – Б 391.

**9.** Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит-турк. 1-жилд. – Б 391

**10.** Гумилев Л.Н. Қадимги турклар / Таржима, кириш сўз муаллифлари ва нашрга тайёрловчилар. Б. Ўрда- бекли., А. Айритомий. – Тошкент: Фан, 2007. – Б 62-63.

**11.** Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит-турк. 1-жилд. – Б 391

**12.** Гумилев Л.Н. Қадимги турклар / Таржима, кириш сўз муаллифлари ва нашрга тайёрловчилар. Б. Ўрда- бекли., А. Айритомий. – Тошкент: Фан, 2007. – Б 62-63.


## KITOB MUTOALASI OMMAVIY KOMUNIKATSIYA VOSITASI SIFATIDA


**Dulanbayeva Oygul-**

O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Sotsiologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi, sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)



**Annotatsiya:** Mazkur maqolada kitob mutola qilishning ijtimoiy jixatlari xususan uning komunikativ xususiyatlari taxlil etilgan. Ayniqsa, kitobning ommaviy komunikatsiya vositasi sifatidagi funksiyalari, kitob mutola qilish bosqichlari, muayyan kitob auditoriyasining xususiyatlariga aloxida diqqat qaratilgan. Shu bilan birga, mutolaning ijtimoiy hayotdagi o‘rni, ularning shaxs shakilanishidagi axamiyati xam, ilmiy nazariy xulosalar asosida keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** kitob mutolasi, ommaviy komunikatsiya, ijtimoiy funksiya, jamiyat, ijtimoiy hayot, sotsial munosabatlar...

**Abstract:** This article analyzes the social aspects of reading books, in particular its communicative characteristics. In particular, special attention is paid to the functions of books as a means of mass communication, the stages of reading books, and the characteristics of a particular book audience. At the same time, the role of reading in social life and its importance in the formation of a person are presented on the basis of scientific theoretical conclusions.

**Keywords:** public communication, social function, society, social life, social relations.

Odatda kitob tushunchasi tor va keng ma’nolarda qo‘llanilishi mumkin. tor ma’noda kitob-muayyan axborotni o‘zida aks etirgan elektron, qog‘oz yoki boshqa shakildagi ijod namunasini anglatadi. Keng ma’noda esa, kitob faqat jamiyatdagina mavjud bo‘la oladigan ijtimoiy xodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki, Muallif o‘z asarini kimdir o‘qishini ko‘zlab yaratadi. U o‘z asarini boshqa odamlarga yetkazishi lozim, buning uchun esa u va bu odamlar bir-birlarini tushunishlari, ya’ni umumiy tilga hamda umumiy tasavvurlar tizimi va ramziylikka ega bo‘lishlari kerak. Bularning barchasi faqatgina turli odamlar va ijtimoiy institutlarning o‘zaro aloqasi jarayonida shakllanadi, bu esa jamiyatdan tashqarida yuzaga kela olmaydi.

Muallif har qanday yo‘l bilan kitobxonga o‘z asarini yetkazishni xoxlaydi. Ammo muallif ko‘p hollarda butun nashriyot siklini o‘zi amalga oshira olmaydi. Buning uchun unga boshqa mutaxassislar: adabiy muharrir, musahhih, texnik muharrir, badiiy muharrir, matbaachi, kitob tarqatuvchi kerak bo‘ladi. Binobarin, kitobni o‘quvchiga yetkazish jarayonida turli odamlar va turli ijtimoiy institutlar o‘zaro ta’sirga kirishadi.

Tadqiqodchilar kitoblarni yaratilishi bilan bog‘liq quydagi ijtimoiy omillarni ajratib ko‘rsatadilar:

Jamiyatdagi madaniy va ma’rifiy xolatning darajasi;

Tarixiy shart sharoit, jamiyatning ochiqlik darajasi;

Muallif, noshir va kitob savdosi bilan mashg‘ul kishilarning shaxsiyati;

Davlat va jamiyatning siyosiy xolati;

Kitob bozorining to‘yinganlik darajasi;

Kitob bosish texnologiyasining rivojlanganlik darajasi.[66]

Shu bilan birga, kitoblarning ijtimoiy jixati ularning komunikativ mazmuni bilan ham bog‘liq. Zotan u jamiyatning mahsuli va har qanday jamiyatga hamroh hodisadir. Kitob kelib chiqishiga ko‘ra individual, amal qilish doirasiga ko‘ra esa ijtimoiy xodisa sanaladi.

- XX asrning mashxur sotsiologlaridan biri *G.Lassuell kitob o‘qish jarayonini ommaviy komunikatsiya vositasi sifatida quydagi tarkibiy qismlarga ajratadi:* kommunikator - so‘zlovchi (muallif);
- auditoriya - murojaat qilinayotgan kishilar (o‘quvchilar);
- xabar - aynan nima haqida gapirishayotgani (asar);
- kanal - texnik vosita (kitob). [67]
- Bundan tashqari olim ommaviy komunikatsiya vositalarining quydagi funksiyalarini xam, keltirib o‘tadi:
- Tevarak atrof xaqida xabar berish;
- Madaniy merosni yetkazish;

Jamiyatning ijtimoiy tuzilmalari bilan korrelyatsiya (teskari aloqa orqali jamiyatga ta’sir ko‘rsatish).

[66] Книга и чтение в зеркале социологии / Сост. В.Д.Стельмах. — М., 2004.

[67] Миронова М.В. Психология и социология чтения: Учеб. пособие для студ. 3 курса специальности 021500 «Издательское дело и ре- дактирование». — Ульяновск, 2003. — 67 с.

Jamiyat a’zolarini mobilizatsiya qilish, ularning faoliyatini tartibga solish.[68]

Kitob mutolasini ommaviy komunikatsiya vositasi sifatida quydagicha tavsiflash xam mumkin:

ommaviy kommunikatsiyaning yo‘nalishi - ijtimoiy, chunki xabar bir kishiga emas, balki ko‘pchilikka mo‘ljallangan;

ommaviy kommunikatsiya tashkiliy xususiyatga ega bo‘lib, ma’lumotlar tarqatilishi muayyan kanallar orqali, ma’lum bir tilda va shu kabi yo‘llar bilan amalga oshiriladi;

ommaviy kommunikatsiya institutsional xususiyatga ega (uni muayyan guruhlarning manfaatlarini himoya qiluvchi muassasalar tashkil etadi);

ommaviy kommunikatsiyada bevosita teskari aloqa yo‘q: muallif o‘z asariga bo‘lgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri munosabatni ko‘ra olmaydi, u faqat o‘z auditoriyasini xayolan tasavvur qilishga qodir.

Auditoriya tipologiyasi ko‘pincha quyidagi xususiyatlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

- yosh;
- ta’lim darajasi;
- jins;
- kasb;
- milliylik.

Masalan, ayollar mavzulari deb odatda madaniyat, san’at, adabiyot, sog‘liqni saqlash hisoblansa, ular ko‘pincha sevgi va oilaviy romanlar janrida yozadilar. Erkaklar mavzulari esa sanoat, qurilish, transport, fan va siyosat, qisman sport bo‘lib, ular asosan detektiv, triller va tarixiy roman janrlarida ijod qiladilar.

Shuningdek, tadqiqodchilar kitob mutolasining quydagi bosqichlarini xam ajratib ko‘rsatadilar:

1. Mutolaaga rag‘batlantirish, dastlabki ko‘rsatmalar.
2. Mutolaa jarayonining o‘zi, matn bilan muloqot.
3. Erishilgan natijalarni baholash.

Bu ma’noda, mutola jarayoniga quydagilar ta’sir qiladi:

1) o‘quvchining ijtimoiy-demografik xususiyatlari: jinsi, yoshi, millati, ijtimoiy mavqei, shaxsning ijtimoiy pozitsiyalari;

2) ijtimoiy-psixologik xususiyatlar: dunyoqarash, qadriyat yo‘nalishlari, e’tiqodlar, ehtiyojlar, motivlar, qiziqishlar, munosabatlar;

3) tajriba (hayotiy va kitobxonlik), bilim, ko‘nikma, malaka, odatlar;

4) bilish psixik jarayonlari: idrok, tasavvur, antitsipatsiya (oldindan payqash, taxmin qilish), xayol, xotira, tafakkur, diqqat;

5) hissiy-irodaviy xususiyatlar: hissiyotlar, tuyg‘ular, iroda, kayfiyat;

6) shaxsning psixologik xususiyatlari: temperament, xarakter, qobiliyat;

7) sog‘liqning umumiy holati, ko‘rish, o‘zini his qilish;

8) o‘qish uchun vaqtning mavjudligi va miqdori.

Kitobxonlik faoliyatiga (aniqrog‘i, kitob qanday qabul qilinishiga) muallifning xususiyatlari ham ta’sir ko‘rsatadi: muallifning ijtimoiy-demografik ma’lumotlari va maqomi; dunyoqarashi, qadriyat yo‘nalishlari, e’tiqodlari; asarni bilishi, uni bayon qila olishi; matndagi ma’lumot va bilimlar; matnning ko‘rsatkichlari (poligrafik, lingvistik, semantik).[69] Xulosa qilib aytganda, kitob, uni mutola qilish jarayoni ommaviy komunikatsiya xodisasi sanaladi va kitob o‘qish, uni yaratish faqatgina ijtimoiy hayotdagina mavjud bo‘la oladi. Qolaversa, kitoblar xatto zamonaviy jamiyat sharoitida xam, boshqa komunikatsiya vositalari kabi rivojlanib, taraqiy etib boradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Книга и чтение в зеркале сотсиологии / Сост. В.Д.Стелмах. — М., 2004.
2. Миронова М.В. Психология и сотсиология чтения: Учеб. пособие для студ. 3 курса

[68] Основы социологии: Учеб. пособие. — М., 1999.

[69] Семенов В.Е. Социальная психология искусства. — Л.,2011.

спесиалности 021500 «Издателское дело и ре- дактирование». — Уляновск, 2003. — 67 с.
3. Основы сотсиологии: Учеб. пособие. — М., 1999.
4. Семенов В.Е. Сотсиалная психология искусства. — Л.,2011.
5. Проблемы сотсиологии и психологии чтения. — М.,2006.
6. Ядов В.А. Стратегия сотсиологического исследования. — М., 2005.

## СТРУКТУРНАЯ СУЩНОСТЬ И СОЦИАЛЬНЫЕ ФУНКЦИИ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

**Асланов Саид Каримович-**
Сингапурский институт развития менеджмента в Ташкенте

**Annotatsiya.** Boshqaruv faoliyatining mohiyati, har qanday ijtimoiy munosabatlar kabi, uning ahamiyati va yo‘nalishi uni tizimli hodisa sifatida, yaxlit ijtimoiy tizimning ajralmas protsessual qismi sifatida ko‘rib chiqishda to‘liq ochib beriladi. Boshqaruv faoliyatini o‘rganishda qo‘llaniladigan metodologiya ushbu tushunchaga mos kelishi kerak. Va, tabiiyki, bu holatda tizim metodologiyasi mos keladi.

**Annotation.** The essence of management activity, as well as any social relations, its significance and direction are most fully revealed when considering it as a systemic phenomenon, as a component procedural part - an integral social system. The methodology applied to the study of management activity must correspond to this understanding. And, naturally, the systemic methodology turns out to be appropriate in this case.

**Аннотация.** Сущность управленческой деятельности, как и любых общественных отношений, её значимость и направленность с наибольшей полнотой раскрывается при рассмотрении её как системного явления, как составной процессуальной части - целостной общественной системы. Применяемая к исследованию управленческой деятельности методология должна соответствовать такому пониманию. И, естественно, подходящей в данном случае оказывается системная методология.

Первым и важным моментом в системном исследовании является положения о том, что любая составная часть целостной системы имеет свою качественную системную определённость, которая обусловлена эффектом целостности, взаимосвязью её с другими частями. Вне этой целостности часть перестаёт быть тем, что она есть, её системная качественная определённость утрачивается. Поэтому игнорирование, не учёт этого положения обедняет наши представления о характере исследуемых частей, и мы не получаем полной картины происходящих общественных процессов и явлений. В общем - то, системный подход исходит из ряда принципов к исследованию систем, среди которых имеются такие, как выделение элементов и частей в системе в соответствии с их объективной относительной самостоятельностью, и установление её структурных уровней; взаимозависимость и взаимосвязь части и целого[70] . Эти принципы применимы и к исследованию управленческой деятельности.

Являясь составной частью способа координации общества, управленческая деятельность находится под воздействием социальной целостности и выполняет соответствующие системные функции, в том числе и системообразующие, направленные на сохранение

[70] Синельников Б.М.,Горшков В.А., Свечников В.П. Основы общей методологии исследования систем. М., 2002. С. 150. - 380с.

социальной целостности. Обусловленные целостностью системообразующие функции предстают как должное, необходимое по целеполаганию и вплетаются целостностью и её структурными компонентами в управленческие функции субъекта и объекта управления.

В рамках системной обусловленности управленческая деятельность функционирует как определённая система. В этой связи следует отметить, что не редко в теории и на практике понятие "управленческой деятельности" применяется в смысле сферы приложения управленческого труда или осущест¬вления целенаправленных организующих воздействий совокупности руководящих органов и лиц. Это, в определённой мере, ведёт к отождествлению понятий "управленческого труда" и "управленческой деятельности". Если к данным понятиям подойти с позиций логики, то можно заметить, что по объёму и смысловой направленности понятие "управленческий труд" отличается от "управленческой деятельности". В понятии "управленческий труд" акцент сделан в сторону объекта управления, фиксируется в большей степени момент действий субъекта и все параметры, характетерезирующие его профессиональные управленческие способности и функции. Понятие же "управленческая деятельность" является более широким, охватывает весь спектр отношений субъекта и объекта управления; смысловая нагрузка направлена как на субъект, так и на объект управления, а также на способы, приёмы, методы и средства управления.

Таким образом на основе вышеуказанных анализов дано определение управленческой деятельности.

**Управленческая деятельность** по своему существу представляет собой сложную социальную систему, включающую в себя компоненты различных социальных измерений. Субстанциональную основу этой системы составляют такие структурные компоненты, как субъект, объект управления и средства управления.

**Управленческий труд** осуществляется непосредственно субъектом управления, он оказывает целенаправленное организующее воздействие на протекающие в обществе социальные, экономические, политические и другие процессы; на различных уровнях иерархических ступеней эти процессы могут подвергаться прямому или косвенному регулированию.

**Функции управленческой деятельности** могут выполняться отдельными лицами или специальными органами управления, основывающими свою деятельность на разделении и кооперации различных видов работ.

В современных условиях управление осуществляется, как правило, специальным аппаратом, численность и структура которого зависит от объёма работ и специфики управленческой деятельности. Поскольку управление и самоуправление, прямое или косвенное, присутствует во всех структурных образованиях социума, то, фактически, в качестве субъектов управления и самоуправления выступает личность, социальная группа, коллектив, социальные общности и общество в целом. Целостное общество представляется, в большей степени, как субъект самоуправления, а в общем случае, как субъект само координации, если учесть действие составляющих координационных процессов, то есть стихийных или сознательных процессов корреляции, регуляции, саморегуляции, управления, самоуправления. Социальными объектами управления являются "смешанные" системы. Действительное содержание этих систем выразил В.Г. Афанасьев[71]. "Смешанными" они являются потому, что компонентами этих систем - от современного предприятия до производства общества в целом — являются и человеческие и вещественные отношения. Вещи как компоненты социальной системы — это тела, вовлеченные в орбиту общественной жизни. Это, главным образом, предметы "второй природы" - орудия и средства труда, средства

[71] Афанасьев В.Г.Системность и общество М.: Политиздат, 1980.С.48.

потребления. Они созданы людьми и используются ими в производстве, в быту, в повседневной жизни, являются средством удовлетворения людьми своих разнообразных потребностей. Они одухотворены деятельностью человека, и именно через эту деятельность обретают социальную роль.

Средствами управления служат социальные объекты, через которые передается управляющее воздействие от субъекта к объекту и осуществляется обратная связь. Важнейшим компонентом управленческой деятельности, представляющим её самосовершенствующуюся систему, являются теоретико-методологическое сознание, в поле зрения которого выделяются такие аспекты решения различных управленческих задач, как административные, экономические, нравственные, правовые, социально-психологические, экономико-математические, а также связанные с методами, приёмами, способами, стилем управления. Формируются теоретико-методологические подходы к проблеме мотивации и стимулирования деятельности как структуре субъекта, так и объекта управления.

В субстанциональном измерении субъект управления обычно представляет собой управленческий аппарат, состоящий из взаимосвязанных звеньев. Каждое более низкое звено в иерархической цепи представляет себя как частично самоуправляемый объект управления. Структурная организация аппарата управления, как и объекта с частичной самоуправляемостью, несёт отпечаток системной необходимости, поскольку она складывается на основе объективных условий и субъективных факторов. Объективные условия составляют комплекс социальных необходимостей, обусловленных:

- потребностями социальной целостности (социума), сохранением её равновесного динамического состояния;
- потребностями её отдельных структурных преобразований на любом уровне, в соответствующих сферах жизнедеятельности;
- исторической необходимостью, обусловленной стечением определённых обстоятельств.

Весь комплекс социальных необходимостей создаёт предпосылки к выполнению системообразующих функций. В управленческие функции любого аппарата управления, каким бы независимым он не казался, вплетаются системообразующие функции, коррелируемые социумом и его частями. Это выражается через различные рода моральной политико-правовой и административной ответственности, а также проходит через систему нормативных и ненормативных индивидуальных управленческих актов. Сознательная социальная координация осуществляется в виде системы государственного управления политических организаций и объединений, системы управления и регуляции негосударственных общественных организаций, учреждений, системы общественного самоуправления и само регуляции.

## ФАХРИДДИН РОЗИЙ ҲАЁТИ ВА ИЖОДИГА УМУМИЙ БИР НАЗАР

**Эшпулатов Иноят Сапарович-**
Фалсафа доктори (PhD)

***Annotation:*** *This article reveals the life and work of Fakhriddin, the complexity of the time he lived in, the socio-political situation, the reforms in the field of enlightenment and education, the various theological ideological movements that arose due to socio-economic instability, and the impact of the competition and struggle between their views on the worldview of scholars.*

Фахриддин Розий 543-йил 25-рамазонда (1149-йил 6-феврал) Рай шаҳрида туғилган. Шофеъий ва ашъарий манбаларида “имом” унвони билан тилга олинади. Алломанинг отаси

Умар унинг биринчи устози эди. Ўн олти ёшида отасининг вафотидан сўнг Симнан шаҳрига бориб, Камолиддин ас-Симнонийдан ўқишни давом эттирди.

Бироз вақт ўтгач, у Райга қайтиб, нуроний файласуф Суҳравардий ал-Мақтулнинг устозларидан бири бўлган Маждиддин ал-Жилийдан илоҳиёт ва фалсафани ўрганди. У билан бирга борган Мароғадаги Силидан сабоқ олишни давом эттирди. Ўзининг юксак ақл-заковати ва қатъияти туфайли у қисқа вақт ичида ўзини яхшилади. Ибн Рушд ал-Ҳофид, Муҳйиддин Ибн ал-Арабий, Абдулқодир ал-Гайлоний, Иззиддин бин Абдуссалом каби машҳур алломаларнинг замондоши бўлган Фахриддин Розийнинг илмий саёҳатлари унинг шуҳрат қозонишида катта рол ўйнади. Журжон, Тус, Ҳирот, Хоразм, Бухоро, Самарқанд, Хўжанд, Балх, Ғазни ва бошқа Ҳиндистон шаҳарлари у борган йирик фан ва маданият марказларидандир.

Хоразмда бўлган чоғларида мўътазилий уламолар билан бўлган мунозаралари натижасида содир бўлган баъзи воқеалар туфайли у ерни тарк этиб, Райга қайтишга мажбур бўлди. Кейинчалик у Мавароуннаҳр шаҳарларига бориб, мадрасаларида ўзининг “ал-Мабоҳис ал-Машриқийя” ва “Шарҳул-Ишорат” каби асарларидан дарс ўқиди. У дастлаб Сарахс ёнида тўхтаб, машҳур табиб Абдураҳмон ибн Абдулкарим билан танишиб, дўстлашди. У Ибн Синонинг ўзи учун “ал-Қонун” деб номланган асарини шарҳлаган.

Эрон, Туркистон, Афғонистон ва Ҳиндистоннинг баъзи шаҳарларини кезиб, Ҳиротга жойлашди. У умрининг қолган қисмини Ҳиротда ўтказди. У ўз асарларини ёзиш билан бирга 300 дан ортиқ шогирдларни ҳам тарбиялаган. Розий 606-йилнинг 1-шавволида (1210-йил 29-март) Ҳиротда вафот этди. Каррамийлар томонидан заҳарланиб ўлдирилгани ҳам ривоят қилинади.

Ўзининг юксак ақл-заковати, кучли хотираси ва таъсирчан нотиқлиги билан танилган энг буюк мутафаккирларидан бири ҳисобланган Фахриддин Розий ўз даврининг деярли барча илмларини, жумладан, илоҳиёт, фиқҳий усулул-фиқҳ, тафсир, араб тили, фалсафа, мантиқ, астрономия, тиббиёт ва математика каби илмларни ўзлаштирган ва шу соҳаларда асарлар яратган серқирра олимдир. Шунинг учун ҳам у “аллома” номи билан машҳур эди.

Розий асосан диний илмлар соҳасида шуҳрат қозонган. У фиқҳга оид қарашларини Ғаззолийнинг “ал-Вожиз”ига ёзган шарҳида жамлаган бўлса-да, бу асар бизнинг давримизгача етиб келмагани боис, унинг фиқҳий қарашлари қисман унинг “Муназорат” ва “Мафотиҳ ал-ғайб”ларидан ўрганилган. Усул ва Фурудда шофеъий мазҳабини ҳимоя қилган. Унинг “Усул-и фиқҳ”га оид “ал-Маҳсул” номли асари Ғаззолийнинг “ал-Мустасфа”, Жувайнийнинг “ал-Бурхон”, Қоди Абдулжабборнинг “ал-Аҳд” ва Абул Ҳусайн ал-Басрийнинг “ал-Муътамад” асарлари асосидаги қисқартма саналади. У Шофеъий мазҳабига тарафдор бўлса-да, матнларнинг зоҳирий маъносига кўра ҳукм чиқаришга мойил бўлган ва Қуръони Каримни таққослаш билан эмас, балки ягона хабар орқали аниқлаш мумкинлигини таъкидлаган. Унга кўра, ҳаром деб айтилмаган ҳамма нарса жоиз ва Абу Муслим ал-Исфаҳоний қабул қилганидек, Қуръонда насх йўқ.

Розий ўзининг аксарият асарларини илоҳиёт соҳасида яратган. Унинг фикрича, илмлар ичида илоҳиёт энг шарафлисидир. Чунки Қуръони Каримда пайғамбарлар ва кофирлар ўртасидаги иймон курашлари бошидан охиригача баён этилган. Ислом ақидасини қатъий далиллар билан исботлаб, қарама-қарши фикрларни рад этишни пайғамбарлик касби деб билган Розий табиий фанларга оид масалаларда ва фалсафа ва илоҳиёт мавзуларини бирлаштириб, фалсафий илоҳиёт даврини бошлаб берган. У ёшлигидан илоҳиёт ва фалсафа билан шуғулланиб, илм-фан тарихига шу соҳалардаги нуфузли шахслардан бири сифатида кирган бўлса-да, манбаларда қайд этилишича, у умрининг охирларида илоҳиёт ва фалсафа қўллаган усуллар эътиқод масалаларида мутлақ қаноат келтира олмайди, деган хулосага келган ва ҳаммани Қуръон усулига қайтишга чорлаган. Ўлимидан олдин шогирди Иброҳим ибн Абу

Бакр ал-Исфаҳоний ёзган васиятномасида манбаларнинг бу аниқлигини тасдиқловчи маълумотлар мавжуд.

Розий Ибн Синодан таъсирланган бўлса-да, ундан фалсафа ва табиий фанлар соҳасида катта фойда олган бўлса-да, уни баъзи масалаларда, хусусан, атом назарияси, эманация ва иноят назариясида танқид қилган. Ибн Халдуннинг ёзишича, илоҳиёт олимлари орасида мантиқни восита эмас, балки мустақил фан соҳаси сифатида қабул қилган биринчи олим Фахриддин Розийдир. Унинг куч, ҳаракат, ёруғлик ва товуш ҳақидаги қарашлари муҳим ҳисобланиб, математикага оид асарлари билан ўз даври математиклари қаторидан жой олган.

Араб тили ва адабиёти соҳасида Ҳз. Алига нисбат берилган шеърлар ва Абул-Ало ал-Маарриий шеърларидан таъсирланган Розий Шариф ар-Радийнинг "Наҳж ал-Балаға" асарини шарҳлайди, Абдулқоҳир ал-Журжонийнинг "Делаъилуъл-иъжоз" ва "Ал-Балаърўғорий" номли асарларини умумлаштириб, қайта тартибга солади. Ўрта даражада араб ва форс шеърларини ҳам ёзган, грамматика бўйича асарлар яратган.

Хулоса қилиб айтганда, Розийнинг диний тариқатга алоқадорлигини исботловчи маълумотлар етарли бўлмаса-да, у ўз асарларида одамларда муқаддаслик қудрати борлиги, илоҳий сирларнинг борлиги ҳақидаги қарашларни ҳимоя қилганлигини ҳисобга олсак, уни тасаввуфни қабул қилган, ҳеч бўлмаганда сўфийлик тафаккури ва ҳаётини қадрлаган мутафаккир дейиш мумкин.

## ENERGY AND THE STATE SOVEREIGNTY
## HOW DANGEROUS IS IT FOR UZBEKISTAN'S SOVEREIGNTY TO BE TIED TO ONE COUNTRY IN A STRATEGIC ISSUE LIKE ENERGY?

**Akhadov Shokhjakhon -**
Masters student of Politics, Economics, Philosophy program at Higher School of Economics in Moscow

**Abstract.** The article examines how Uzbekistan's energy policy affects its sense of national sovereignty, concentrating on the strategic choice to collaborate with Russia on the building of a small nuclear reactor. It looks at the current state and historical background of the energy cooperation between Russia and Uzbekistan, as well as the hazards associated with geopolitics and the varying opinions of the public. The analysis addresses the growing energy needs of Uzbekistan as a result of urbanization and population expansion, the advantages and disadvantages of using nuclear energy, and the larger problem of energy independence. The main dangers of nuclear power are examined, including the possibility of radiation leaks, the handling of radioactive waste, threats from terrorists, natural calamities, and technological malfunctions. The essay also explores the possible effects on Uzbekistan's foreign relations and energy sovereignty, as well as the political and financial ramifications of depending on Russian financing and expertise. In the end, the paper urges a multifaceted strategy and careful evaluation of alternative energy options to guarantee long-term national sovereignty and sustainable growth.

**Key words:** Nuclear Power Plant, Atomic energy, demand and supply, sovereignty, gas, Russia, Uzbekistan

On May 26, Russian President Vladimir Putin paid an official state visit to Uzbekistan[1]. This is the 10th visit of the current Russian leader to Uzbekistan. Vadimir Putin was personally welcomed by the President of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the airport. The next day, the leaders of the two

countries signed 27 documents on cooperation issues at a ceremony held at the Koksaroy complex, the most noteworthy of which was the agreed construction of a small nuclear reactor in Jizzakh[2].

The public of Uzbekistan reacted differently to this unexpectedly announced decision. In September 2018, Uzbekistan and Russia signed an agreement on nuclear energy cooperation, including the construction of the first nuclear power plant in Central Asia in Uzbekistan. According to it, it was decided that Russia will provide a loan of 11 billion dollars to Uzbekistan for the construction of a nuclear reactor, and the Uzbek side will find a suitable place for the construction of the reactor. At the time, this news was met with deep concern and worry by the public, many of whom did not approve of the initiative due to the dangers and harmful effects of the Atomic power plants on the environment. Six years have passed since the agreement on this paper has not moved, and many people have the impression that this initiative has been forgotten. According to Vesti.uz, the reason why the project did not move forward was the interference of "international partners" and threats of sanctions. Official Tashkent turned towards "green energy" and reached an agreement on the construction of solar and wind power plants in Uzbekistan with the funds of the Persian Gulf countries[3]. However, the news about the construction of a small-scale nuclear reactor (6 330-megawatt units of 55 megawatts each) signed between Russia and Uzbekistan on May 27 revived forgotten concerns. However, this time the emphasis is on the smallness of the reactors, and it is said that they will be built safely and without affecting the nature and human health[4].

**Energy and development**

As a developing country, it is natural for Uzbekistan's demand for electricity to increase. According to the account books of the UzAtom agency, Uzbekistan's energy demand is currently 76.543 billion cubic hours[5]. as the population increases, the country's demand for energy also increases (as in all developing countries), for example, the population of Uzbekistan was 20 million in 1991, and by now this figure has reached 37 million[6]. For thirty-three years, the population of our country has increased by 17 million people, population growth is happening simultaneously with the process of urbanization (expansion of cities, construction of new housing, population migration to cities) and, of course, more More energy is needed for a growing population. According to the information released by the Development Strategy Center, by 2030, the demand for electricity in Uzbekistan will exceed the supply by seven times7. But the outdated energy system and infrastructure in Uzbekistan does not meet the full demand. For its complete renovation, about 30 billion dollars are needed. Countries often turn to internal or external resources to meet these requirements. Wetlands, countries rich in water resources (for example, our neighbor Tajikistan), countries with non-renewable resources such as gas and coal, thermal power plants, hot and sunny countries can solve this problem by building solar or wind power plants (renewable green). while other countries are looking for a solution, taking into account different factors (country area, geographical location, climate and environment), they take alternative ways, such as Nuclear power plants or buying energy from abroad. Stable, continuous electricity plays a big role in the country's achievement of high economic development, entire factories and various enterprises work with electricity. In addition, electricity supply is very important for the life of the country, for the operation of medical institutions, schools, kindergartens, universities, for our daily life, and for the Internet, which is an integral part of it. For the past 7 years, Uzbekistan has been trying to alleviate the country's most acute problem, unemployment, by attracting foreign investors, building large factories and enterprises, but to build large enterprises employing thousands of employees, generating billions of megawatts of electricity, working day and night power plants are necessary. Without it, it is absolutely impossible to make great economic growth and provide employment to millions of people. Depending on the population growth, it is necessary to build two or more power generating stations every 5-10 years. But the problem is how to build these stations.

**Is the atom the solution?**

Atomic energy differs from solar and thermal power plants due to its low cost and the fact that it does not release waste gases (carbon dioxide) into the atmosphere. Although solar power plant is considered green energy, it is expensive in terms of construction, infrastructure maintenance and maintenance, and thermal power plants release tons of toxic gases into the air by burning coal and gas, so it is not considered green energy. But building a nuclear power plant is a very laborious, complicated and very dangerous process. And of course, it entails great risks:

***The first risk is radiation leakage****,* which can occur as a result of natural, technical or human error. Radioactive leakage is extremely dangerous for human life and causes diseases such as cancer and genetic mutation.

***The second danger is nuclear waste*****.** Nuclear power plants generate nuclear waste, which remains highly radioactive for thousands of years. If long-term and guaranteed, safe, special waste storage methods are not used, water, soil and the entire there is no question that the ecosystem will become radioactive.

***The third threat is an attack.*** Terrorist attacks can cause unprecedented disasters, in addition, cyber attacks can disrupt the operation of the station or paralyze the system.

***The fourth risk is natural disasters*****.** Natural disasters such as earthquakes, landslides, floods, and extreme weather can damage nuclear reactors and result in a nuclear disaster.

***The fifth risk is technical failure or defects****,* over time, materials, infrastructure and technical equipment become obsolete, which increases the probability of failure. Poor design and construction flaws (due to corruption) also increase the likelihood of reactor failures.

In addition, the construction of nuclear power plants often takes more time and money than planned, which complicates the process. As mentioned above, a nuclear power plant is very expensive to build and even more expensive to maintain. Moreover, since nuclear energy is a very controversial topic, such projects face criticism and opposition from the population. As the water shortage in Uzbekistan is increasing, it is good to remember the importance of rivers, which are necessary for the construction of a nuclear power plant. Today, Uzbekistan is a developing country, it is important to be very careful and considerate when making such drastic decisions, it is important not to sacrifice the fate of future generations and the prospects of the country for today.

**Energy and state independence**

The independence of Uzbekistan as a country (and other countries on earth in general) depends not only on its national currency, state symbols, territory, national army and economic power, but also on its energy potential and the fact that this potential is in the country's own hands. Let's take Afghanistan for example, as a nation, this country does not have its own national energy system, more than fifty percent of the electricity needed by Afghanistan comes from its neighbors Iran, Tajikistan, Uzbekistan, Turkmenistan. delivered by, these countries can stop the supply to Afghanistan at the time of their need, thereby completely derailing the already difficult life in Afghanistan. It is not surprising that neighbors use this weakness as a political instrument. Therefore, energy independence is a matter of life and death for every country. In order for the country to maintain its energy independence, it should be able to cover at least 70% of its energy needs. The remaining part can then be imported from neighbors taking into account national interests.

The small NPP project, signed between Russia and Uzbekistan on May 27 and said to be built this year based on Russian technology, is certainly not without geopolitical questions and risks. Let's take a look at these:

**First,** what are the sources of funding for the project? According to the 2018 agreement, the Russian side will provide a loan of 11 billion dollars for the project. The agreement signed on May 27

has not yet said anything about it, or the public is not yet aware of it. If the project is built on the basis of Russian loans, what will be the terms of repayment of these loans? Through interest? If so, at what percentage? Deadline and other conditions? Uzbekistan is currently surrounded by a growing debt and budget deficit. According to the data of 2023, the national debt of Uzbekistan amounted to 31.5 billion[8], and as of May 2024, the budget deficit was 25 trillion[9]. million, in such conditions, it is necessary to clearly calculate how accepting a large amount of credit will affect our economic situation.

**Secondly,** to what extent can the construction of the NPP and the involvement of Russia in this process affect Uzbekistan in the international arena? What is the guarantee that Uzbekistan will not become a target of secondary sanctions of Western countries? If so, what restrictions can be applied to Uzbekistan? By which countries? In what form? And how can these sanctions affect which sectors of Uzbekistan's economy? How large or small are the resulting damages or losses? If sanctions are imposed, what can we do to remove them or reduce their impact? I think we must have answers to these questions before we roll up our sleeves and enter this project.

**Thirdly,** to what extent will the construction of the NPP and the implementation of this project by Russia affect Uzbekistan's energy independence? Russian giants already participate in many strategically important energy sectors in Uzbekistan, for example, the Kandim gas processing plant was built with the participation of the Russian company Lukoil[10]. In addition, in 2020, Sibur Holding OJSC, Gazpromneft OJSC and Uzbekneftgaz OJSC will jointly implement projects related to the creation of a gas-chemical complex based on MTT technology and the expansion of the production capacity of Shurtan GKK. an agreement on cooperation was signed[11]. Also, Russia plans to build two hydroelectric power plants (GTES) in the lakes of Uzbekistan.

On May 27, Russian President Vladimir Putin informed about the results of the negotiations with the country's President Shavkat Mirziyoyev. The program is implemented with the participation of the Russian corporation RusHydro[12]. Of course, all this is only the tip of the iceberg. Uzbekistan and Russia have relations of alliance and strategic partnership, naturally, these relations cover the energy sector. But how correct would it be to be completely dependent on one country in an important field for the independence of the state, such as energy? We have all witnessed that Russia uses energy as a weapon for political purposes. Russia is a close partner, and we know that cooperation in these areas will cost us less than the programs we can implement with other countries, but since we also have deep relations, we can take advantage of the opportunities that other countries can offer regarding NPP (another strategic issue). our review would be useful. And of course, national sovereignty is taken into account.

**Fourth**, the NPP to be built will be based on Russian technology and under the guidance of Russian experts. Will the Russian specialists keep control of the NPP even after the construction of the NPP is finished? To what extent do Uzbek specialists participate in the project? Are Uzbek specialists able to solve the supply, repair, maintenance and other important technical and technological problems related to the NPP without the participation of Russian personnel? Will the staff of the IAEA, the UN nuclear organization, be invited to the process for monitoring? In general, to what extent will Uzbek specialists be able to conduct themselves after this project is launched? Or will we always need the support of Russian personnel?

In addition, at the same meeting, Russian President Vladimir Putin said that Moscow intends to increase gas exports to Uzbekistan through the Central Asia-Central gas pipeline. The Central Asia-Central gas pipeline was built in Soviet times to transport Uzbek gas to the Urals. Today, Russia supplies Uzbekistan with gas through this pipeline. This is the core of the contract signed between Gazprom and Uzbekistan on the sale of 9 million cubic meters of gas per day from Russia to

Uzbekistan. Russian Energy Minister Sergey Sivilyov even mentioned that Russia may sell electricity to Uzbekistan in the future.

Of course, we hope that all these questions will be answered clearly and completely in the future. It is important to mention that the purpose of citing the above points is not to question Russia's achievements in the field of nuclear energy, Russia's experience in this field is much greater, in particular, the Akkulu NPP, which is being built in Turkey with the participation of Rosatom and Turkish companies, as well as the El-Daba NPP in Egypt and the Kudankulam NPP in India. example However, since energy is considered a strategic sector, are there any other alternative options available to Uzbekistan in this regard? How correct is it to be completely tied to one country in a field directly related to strategic national independence? Wouldn't this attachment lead us to handcuff ourselves? Perhaps a policy of diversification is necessary in this regard as well? I emphasize once again that we do not intend to undermine Uzbekistan's strategic partnership or alliance-level relations with Russia. Leaving our free, independent and peaceful country to future generations is the biggest task for all of us.

**References**


1. Daryo.uz (2024) Vladimir Putin davlat tashrifi bilan o'zbekistonga keldi, Daryo.uz. Available at: https://daryo.uz/2024/05/26/vladimir-putin-davlat-tashrifi-bilan-ozbekistonga-keldi (Accessed: 31 May 2024).
2. Russia to start building small nuclear power station in Uzbekistan this summer (2024) Газета.uz. Available at: https://www.gazeta.uz/en/2024/05/28/nuclear-station-uzbekistan/ (Accessed: 31 May 2024).
3. Россия-Узбекистан:компромиссы и перспективы (2024) Вести.UZ Новости стран СНГ. Available at: https://vesti.uz/rossija-uzbekistan-kompromissy-i-perspektivy/ (Accessed: 31 May 2024).
4. Asia, P. by T. of C. and Asia, T. of C. (2024) Uzbekistan to build a nuclear power plant, The Times Of Central Asia. Available at: https://timesca.com/uzbekistan-to-build-a-nuclear-power-plant/ (Accessed: 31 May 2024).
5. Yaxshilik Uchun Energiya (no date) UzAtom. Available at: https://uzatom.uz/oz/ (Accessed: 31 May 2024).
6. CPC: Uzbekistan population trend (no date) Caspian Policy Center. Available at: https://www.caspianpolicy.org/research/central-asia/uzbekistan-population-trend (Accessed: 31 May 2024).
7. (No date) Development strategy center ⇒ how does uzbekistan want to fight against the energy shortage? Available at: https://strategy.uz/index.php?news=1644&lang=en (Accessed: 31 May 2024).
8. Sh., N. (2023) O'zbekiston Davlat qarzi 31,5 MLRD Aqsh Dollarga Yetdi, Газета.uz. Available at: https://www.gazeta.uz/oz/2023/11/08/debt/ (Accessed: 31 May 2024).
9. uz, K. (no date) 'Lukoyl' Buxoroda Qandim Gazni Qayta Ishlash zavodini to'liq Ishga Tushirdi, Kun.uz. Available at: https://kun.uz/news/2018/04/19/lukojl-buhoroda-kandim-gazni-kajta-islas-zavodni-tulik-isga-tusirdi (Accessed: 31 May 2024).
10. uz, K. (no date b) Rossiya O'zbekistonda Yangi GAZ-Kimyo Majmuasi Quradi, Kun.uz. Available at: https://kun.uz/96100042?q=%2F96100042 (Accessed: 31 May 2024).

# ALISHER NAVOIYNING IJTIMOIY QARASHLARIDA TAVOZE TALQINI

**Gulova Anorgul Axtamovna-**
Buxoro davlat universiteti “Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiyning ijtimoiy qarashlarida tavoze masalasi tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Muhaddis, ma’naviyat, ma’rifat, tafakkur, jamiyat, ta’lim.

**Annotation:** This article analyzes the issue of modesty in Alisher Navoi’s social views.

**Key words:** Muhaddis, spirituality, enlightenment, thought, society, education.

Mo‘minni komillikka yetaklaydigan fazilatlardan biri – tavoze haqida ham Hazrat Navoiy alohida to‘xtaladi. Lug‘atlarda “kamtar, xokisor, sipo, oddiy, yuvosh, kamsuqum” kabi bir necha so‘zlar bilan izohlangan “tavoze”, asosan, kamtarlikni, kibrning ziddini anglatadi.

Insonning mansabi, ulug‘ligi talab etib turgan holatdan chiqishi va oddiy odamlar maqomiga tushishi, kamtar bo‘lish holati va shu vaziyat istilohda tavoze sifatida qabul qilinadi.

Muhaqqiq olimlar fikricha, kishining o‘z nafsiga qadr-qiymati ham, alohida ajralib turadigan xislati ham yo‘q deb qarashi va o‘z holatini aslida haqli bo‘lganidan ancha yuqori deb bilishi tavoze hisoblanadi.

Takabburlik bu – ortiqchalikka moyil bo‘ladigan xulq bo‘lsa, aksincha, noqislikka moyil bo‘ladigan xulq “pastkashlik va xorlik” deyiladi. “Tavoze” esa ularning o‘rtasidagi fazilat bo‘lib, sevimli va yoqimli xulq sanaladi. Hazrati inson ilmi, odobi, tavozesi bilan yoqimli bo‘lib, mehnati bilan ulug‘lanadi. Go‘zal insoniy fazilatlardan biri bo‘lgan tavoze – kamtarlik islom ta’limotida alohida qadrlanib, musulmonlar shu sifatga ega bo‘lish lozimligi da’vat etiladi.

Qur’oni karimda Alloh taolo shunday marhamat qiladi: “Rahmonning (suyukli) bandalari yerda tavoze bilan (kamtarona) yuradigan, johil kimsalar (bema’ni) so‘z qotganda, “Salomatlik bo‘lsin”, deb javob qiladigan kishilardir”[72].

Payg‘ambarimiz Muhammad sallolohu alayhi vassallam shunday marhamat qiladi: “Alloh taolo menga tavozelikda bo‘linglar, hatto bir kishi boshqasi ustidan fahrga bormasin va bir kishi ikkinchi kishiga zulm qilmasin”, deb vahiy yubordi (Imom Muslim va Imom Abu Dovud rivoyati).

Alloh taolo Qur’oni karimda mutakabirlarni shunday malomat qilib aytdi: **“Mutakabbirlarning joylari naqadar yomon”**[73].

Bu oyatga hamohang tarzda Hadisi sharifda shunday deyiladi: “Qalbida zarracha kibri bor inson jannatga kirmaydi”[74] (Imom Muslim va Imom Abu Dovud rivoyati).

Abu Is’hoq Ibrohim ibn Shayboning so‘zini naql qilgan Risolatul Qushayriya sohibi fikricha, “Sharaf – tavozeda, izzat-ikrom – taqvoda va hurriyat qanoatdadir”.

Shayx Yusuf Husayniy umuminsoniy qadriyat hisoblangan tavozeni ta’riflab, shunday deydi: “Al-Xayru kulluxu fi baytin va miftoxu at-tavoze va ash-sharru kulluxu fi baytin va miftoxu at-takabbur” (“Yaxshilikning jami bir uydadirki, uning kaliti tavozedir va yomonlikning jami bir uydadirki, kaliti takabburlikdir”)[75].

Alisher Navoiy “Hukamo qavlining tarjimasi insoniyat bobida” sarlavhali qit’asida komil insonga xos bo‘lgan uchta xislat: tavoze, kechirimlilik va ato, ya’ni saxovatga urg‘u qaratadi. Demak,

[72] А.Мансур.(тарж. ва изоҳ муаллифи). Қуръони Карим. Фурқон сураси, 63-оят. – Б. 240. www.ziyouz.com.
[73] А.Мансур.(тарж. ва изоҳ муаллифи). Қуръони Карим. Наҳл сураси, 29-оят. – Б. 170. www.ziyouz.com.
[74] https://islom.uz/maqola/8843
[75] Комилов Н. Тасаввуф. –Тошкент: Моваройуннаҳр-Ўзбекистон, 2009, – Б. 448.

Navoiy talqinicha, tavoze, kechirimlilik va ato, ya’ni saxovat komil insonga xos bo‘lgan xislatlardir. Mutafakkir asarlarida manmanlik kamtarlik, tavoze, xokisorlikka qarama-qarshi qo‘yiladi. Shu o‘rinda Navoiy asarlarida alohida ehtirom bilan tilga olingan Boyazid Bistomiy hazratlari nomi tilga olingan hikoyatga e’tiboringizni qaratmoqchimiz:

Sulton Mahmud G‘aznaviy yo‘lda borar ekan, mo‘risidan tutun chiqib turgan bir kulbani ko‘rib ichkariga kirdi. U yerda Abul Hasan Xaraqoniy hazratlari yashardi. U zot o‘z ishlari bilan ovvora bo‘lib, sultonga e’tibor qaratmadi. Bu holdan Sulton Mahmud qattiq xafa bo‘ladi, lekin buni sezdirmay dedi:

– Ustoz!

– Nima gap?!

– Ustozingiz Boyazid Bistomiy hazratlari qanday inson edi?

Abul Hasan Xaraqoniy hazratlari ustozining ismini eshitgach to‘lqinlanib:

–Ustozim shunday odam ediki, musulmon bo‘lmagan insonning yuziga boqsa, uni imon nuri bilan sharaflantirardi.

– Bu qanaqa gap bo‘ldi? Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) ni Abu Jahl va boshqa mushriklar ko‘rdilar. Ular imon keltirishmadi. Sening ustozing payg‘ambardan ham buyukmi?!

Abul Hasan Xaraqoniy shunday javob beradi:

– Abu Jahl va boshqalar Payg‘ambarimiz (alayhissalom)ga Abu Tolibning yetimi deb qarashdi, payg‘ambar sifatida ko‘ra olmadilar. Ustozimning yuziga biror kishi Boyazid Bistomiy deb qarasa, imon bilan sharaflantiradi.

Sulton undan mamnun bo‘lib, kulbadan chiqdi. Abul Hasan hazratlari sultonni tashqarigacha kuzatib qo‘ydi. Mahdum G‘aznaviy bu holdan hayratlanib so‘radi:

– Kelganda yuzimizga ham boqmagan edingiz. Endi nega tashqarigacha kuzatib chiqayapsiz?

– Kelganda kibr bilan ichkariga kirdingiz. Chiqayotganingizda esa tavoze bilan chiqmoqdasiz. Endi yuzingiz go‘zallashdi[76].

Yuqoridagi hikoyatdan xulosa qilish mumkinki, kishi o‘zini qanchalik kamtarin tutsa, shunchalik izzat va sharaflarga muyassar bo‘ladi. Boisi banda uchun belgilangan maqom – xokisorlik, qullikdir. Naqshbandiya tariqati asoschisi Bahouddin Naqshbandga “Nega o‘zingizga xizmatkor saqlamaysiz”, deyilganda, ul zot: “Menga bandalik xos. Zero, Hojalik va qullik bir-biriga mos kelmaydi” – deya javob bergan ekanlar. Bundan ko‘rinadiki, banda xokisorlik maqomi tomon harakat qilar ekan, uning qadamlariga hasanot yozilib, u izzat-ikrom va sharaf sohibiga aylanib boradi.

Navoiy ta’kidicha, odobsiz kishilar hech qachon elda aziz bo‘lmaydi. Hayo va odob iymonning belgisi bo‘lib, insonlarga nisbatan hurmat va tavozeda bo‘lish saodat kaliti sanaladi:

“Bo‘lmas adabsiz kishilar arjumand,

Past etar ul xaylni charxi baland”[77].

“To‘rt narsa bandani oliy darajalarga ko‘taradi, garchi uning amali va ilmi oz bo‘lsa ham: tavozelik, halimlik, saxiylik va chiroyli xulq. Bular esa iymonning mukammalligidir”, – deydi Junayd Bag‘dodiy. Ahli donishlardan biri quyidagi fikrni e’tirof etadi: “Kim o‘z nafsini biror qiymatga ega deb hisoblar ekan, demak, u tavozedan benasibdir. Barchaning tavozeli bo‘lgani yaxshi: agar boy tavozeli bo‘lsa, hammasidan ham yaxshi!”

Adabning eng yaxshi sifati – tavozedadir deya anglagan buyuk ijodkor asarlarida behuda kulguni adabsizlikning nishonasi sifatida talqin qiladi:

“Kulguki o‘z haddidin o‘ldi yiroq,

[76] Сотволдиев Қ. “Ислом нури” газетасининг 2019 йил, 2-сонидан.

[77] Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр. МАТ.20 жилдлик, Ж. 7. –Тошкент: Фан.1991. –Б. 155.

Yig‘lamoq andin ko‘p erur yaxshiroq”[78].

Alisher Navoiy bola tarbiyasiga ham alohida e’tibor qaratib, dastavval, ota-ona mas’uliyati – farzandiga chiroyli ism quyish, yaxshi muallimga berib, ilm o‘rgatish ekanligini uqtiradi. Shu bilan birgalikda, farzandlar ota-onalariga munosib hurmat ko‘rsatib, doimo tavozeda bo‘lishlari zarurligini aytadi:

“Biri erur makrumati volidayn,
Bilki munung qilmog‘idur farzi ayn.
Bu ikining xizmatini bir bil,
Har necha ifrot esa, taqsir bil”[79].

Ota-onangga bir xilda qulluq qil, chunki Alloh taolo: “Ota-onangga yaxshilik qil”[80], – degan. Ularga xizmat qilishni rasmu odat aylab, bu ishni ikki dunyoning saodati deb bil.

“Bo‘l banda ato-anog‘a yakson-
Kim, Haq dedi: “Volidayn ehson”.
Qulluqlarin ayla rasmu odat,
Kavnayn aro bil saodat”[81].

Shirinsuxan, yumshoq fe’lli, og‘ir-bosiq bo‘lish ham tavoze hisoblanadi. Bu kabi insonlar so‘zi, muomalasi bilan kishilarni o‘ziga ohanrabodek tortadi. Qalb qulflarini ochib, ularda ezgulikka ishonch, rag‘bat hosil qiladi.

Vaholanki, “Yaxshi gap bilan ilon inidan, yomon gap bilan pichoq qinidan chiqadi”, tarzidagi purma’no hikmat bejizga aytilmagan. Yaxshi so‘z bemorning dardiga shifo bo‘lishi, yovni birodarga aylantirishi, yo‘lini yo‘qotganni to‘g‘ri yo‘lga solishi mumkin. Mutafakkir Az-Zamaxshariy yaxshi so‘z, pand nasihatni sadaqadan, qo‘ldan berilgan moddiy yordamdan ham yuqori qo‘yadi. Aksincha, o‘ylanmay aytilgan birgina so‘z kishilar orasiga sovuqchilik solishi, yomon vaziyatlarga olib kelishi ham hech kimga sir emas. Hadisi Sharifda aytilganidek “Inson go‘zalligining yarmi – uning tilidadir.” Ma’rifatparvar Abdulla Avloniy ta’biri bilan aytganda “Boshimizga tushadirgan qattiq kulfatlarning ko‘pi yumshoq tilimizdan keladi”. “So‘zlashda taqvo etish luqma va taomdagi taqvodan ortiqdir”, – degan edi donishmandlardan biri.

Darhaqiqat, so‘zi taqvoli odam birovning dilini ranjitadigan gaplardan yiroq bo‘ladi. Noo‘rin vaziyatlarda “dono”lik qilib, insonlarni chalg‘itmaydi.

Айш, Навоий, неча дилкашдурур,
Лек адаб бирла ҳаё хушдурур.
Ҳаёву адаб бирла тузгил маош,
Яна айла таъзиму ҳурматни фош!
Не эл ёри бўлсанг, алар ранги бўл,
Нечук борсанг, тутқил ул сори йўл[82].

[78] Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр. МАТ.20 жилдлик, Ж. 7. –Тошкент: Фан, 1991. – Б. 156.
[79]Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр. МАТ. 20 жилдлик, Ж. 7. –Тошкент: Фан, 1991. – Б. 160.
[80] А.Мансур.(тарж. ва изоҳ муаллифи). Қуръони Карим. “Аҳқоф” сураси, 15-оятлар. – Б. 345. www.ziyouz.com.
[81] Ибратли ҳикоятлар ва хислатли ҳикматлар. Нашрга тайёрловчилар А.Тилавов, И.Сайдуллаев, –Тошкент: Сано-стандарт. 2016, –320-б.
[82] Ибратли ҳикоятлар ва хислатли ҳикматлар. Нашрга тайёрловчилар А.Тилавов, И.Сайдуллаев, –Тошкент: Сано-стандарт. 2016, –77-б

# SAYYID SHARIF JURJONIY ILMIY MEROSINING FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI

**M.Norqobilov-**
Navoiy davlat universiteti Tarix kafedrasi dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

**Annotatsiya**. Mazkur maqolada Ikkinchi Renessans davrining buyuk mutafakkiri Said Sharif Jurjoniyning ilmiy merosi va unda ko‘tarilgan asosiy progressiv g‘oyalari tahlil qilinadi. Jurjoniyning ilmiy faoliyati tufayli mantiq Temuriylar davrida inson bilimlarining barchasiga qo‘llaniladigan qoida va mezon qonuniga aylandi.

**Kalit so‘zlar**. Bilish nazariyasi, Samoviy gumbaz, astronomiya, induksiya, Ulug‘bek akademiyasi.

Sohibqiron Amir Temur tomonidan Samarqandning shon-shuhratini oshirish va uni jahon ilmiy markazlaridan biriga aylantirish niyatida o‘z poytaxtiga to‘plagan olimlaridan biri Mir Sayyid Sharif Jurjoniydir. 1387-yili Sheroz fath etilgandan keyin mashhur kishilar qatorida Jurjoniy ham Samarqandga jo‘natilgan. Temur vafot etgandan keyingina Sherozga qaytib, 1413-yilda olamdan ko‘z yumdi.

Ali ibn Muhammad ibn Ali Husayn Jurjoniy Astrobod yaqinidagi Tog‘u qishlog‘ida 740 hijriy (1339) yilda tug‘ilgan. YOshlik davridan boshlab barcha fanlar qatori falsafa, mantiq va tilga juda ham qiziqqan. 1365 yili Jurjoniy Hirotga mashhur faylasuf Qutbiddin Muhammad ar-Roziy at-Taxtoniydan ta’lim olish uchun boradi. Taxtoniy o‘zining qarib qolganligini aytib, Misrdagi shogirdi Muborakshoh oldiga borishni maslahat bergan. Lekin Jurjoniy 1368-yilgacha Hirotda bo‘lgan. So‘ngra turk faylasufi Muhammad Oqsaroiydan ta’lim olish uchun Qoramon shahriga jo‘nagan. Muhammad Oqsaroiy shuhrati va uning asarlari Jurjoniyning e’tiborini jalb etgan bo‘lib, u mashhur faylasuf va mantiqshunos bo‘lib yetishgan Oqsaroiyning shogirdi Muhammad Mullo Fanoriy bilan uchrashib, do‘st tutindi va birgaliqda 1370 yilda Misrga jo‘nashadi. Jurjoniy Qohirada 4 yil davomida mashhur mantiqshunos Muborakshoh va Akmaliddin al-Bobartiylar ma’ruzalarini tinglab, o‘z saviyasini oshirgach, 1374-yilda Istambulda ilmiy izlanishlarini davom ettirdi. U yerdan Vataniga qaytib, 1387-yilgacha Sheroz madrasalarida dars berdi. So‘ng Samarqandda 20 yildan ortiq vaqt yashadi. Samarqandda yashagan davri Jurjoniy ijodida juda barakali bo‘ldi. Ilmu fanning barcha sohalariga bag‘ishlangan bir qator risolalar, o‘tmish mutafakkirlarining asarlariga sharhlar yozdi.

Jurjoniy umri davomida 50 dan ortiq asar yozib, bu asarlar fanning deyarli barcha sohalarini qamrab olgan. Ammo Ulug‘bekka bevosita ta’sir etgani, shubhasiz uning XII-XIII asrlarda Xorazmda yashab o‘tgan Mahmud al-Chag‘miniyning astronomiyaga oid asariga yozgan «Sharh mulahhas al-haya» («Astronomiyaga oid saylanmaga sharh») va Nasiriddin Tusiy asariga bag‘ishlangan «Sharhe tazkiratul Nasiriyat» («Astronomiya haqida eslatmaga sharh») asarlaridir.

Jurjoniy bilish nazariyasi va mantiqqa doir «At-ta’rifot» («Ta’riflar»), «Usuli mantiqiya» («Mantiq usuli») va ilmiy bahs faniga bag‘ishlangan «Odob ul-munozara» («Munozara olib borishning qoidalari haqida risola») kabi arab tilida yozilgan asarlarning muallifi hamdir. Bundan tashqari Jurjoniyning fors tilida yozilgan mantiqqa oid bir necha asarlari ham bizgacha yetib kelgan. Bulardan «Sug‘ro» («Kichik dalil bo‘la oladigan hukm»), «Kubro» («Katta dalil bo‘la oladigan hukm»), «Avsat dar mantiq» («Mantiqda o‘rta xulosa») va boshqalarni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Uning «SHarhe faroize Sarojiya» («Meros bo‘lish majburiyatlarining Sarojiy ta’rifiga sharh») asari huquqshunoslik masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, faqih Sajovandiy asarlariga javob tariqasida yozilgan.

Jurjoniy XIV asr faylasufi Eziddin Abdurahmon al-Ijiy (1300-1356)ning «Muvoqif fi ilm al-kalom» («Kalom ilmidagi manzillar») asariga yozgan «SHarhe mavoqif fi ilm al-kalom» sharhi uning zamondoshlari va undan keyingi avlod olimlari uchun falsafa va mantiq bo‘yicha o‘ziga xos qomus maqomiga ega bo‘ldi.

Sharhlardan tashqari Jurjoniy juda ko‘p falsafiy asarlarga hoshiyalar yozdi. Uning Abu Ali ibn Sinoning «Ishorat» («Ko‘rsatmalar») asariga yozgan sharhi, Nasiriddin Tusiyning «Tajvid» («Abstraksiya») asariga sharh yozgan shayx Shamsuddin Mahmud Isfahoniy (1294-1349)ga javob tariqasida yozilgan hoshiyasi diqqatga sazovordir.

Jurjoniy dunyoqarashi, undan oldin o‘tgan salaflarinikidek, o‘rta asrlardagi butun falsafiy masalalarni, chunonchi, borliq haqidagi ta’limot, koinot jumboqlari, modda va uning shakllari, jonsiz va jonli dunyoning xususiyatlari, jismoniy va ruhiy munosabatlar, bilish muammolari, mantiqiy fikrlash ta’limoti, til va tafakkur aloqalari va boshqalarni o‘z ichiga oladi. U koinot, inson va aqlni qamrab oluvchi dunyoning umumiy manzarasini yaratishga harakat qildi. Jurjoniy aqidasiga xos bo‘lgan narsa borliq manzarasini bosqimcha-bosqich tartibda tushuntirishdan iborat edi. Besh bobdan iborat bo‘lgan «Dunyoni aks ettiruvchi ko‘zgu» risolasining birinchi bobini vojib ul-vujud va mumkin ul-vujud mavjud ekanligini asoslashga bag‘ishlaydi. Jurjoniy shunday ta’rif beradi: «Yo‘q bo‘lishi mumkin bo‘lmagan, bor bo‘lishi esa zarur bo‘lgan narsa vojib ul-vujud deb ataladi. Masalan, xoliqning o‘zligi kabi tushuncha. Borlig‘i ham, yo‘qligi ham zarur bo‘lmagan narsa esa mumkin ul-vujud deb ataladi»[1]. Jurjoniy fikricha, vojib ul-vujud xudo bo‘lib, mumkin ul-vujud moddiy olamdir. U borliqning birinchi sababi sifatida Vojib ul-vujudni, ya’ni xudoning borligini tan oladi. Uningcha, mumkin ul-vujud o‘zining bor bo‘lishi uchun qandaydir tarzda bo‘lsa ham, biror-bir sababga ehtiyoj sezadi. U biror-bir narsa tufayli, ya’ni birinchi sabab qimmatiga ko‘ra vojib ul-vujud darajasiga ko‘tariladi. Jurjoniy tabiatdagi hech bir hodisa sababsiz kelib chiqmaydi, deb ta’kidlaydi. Hamma mavjud ashyolardagi butun harakat va o‘zgarishlar faqat makon va zamondagina ro‘y beradi. Jurjoniy dunyo-qarashiga xos xususiyat, uning butun borliqni bir-biriga qonuniy ravishda bog‘langan bo‘lakchalardan iborat yagona tana sifatida ta’riflashdir. Uning fikricha, moddiy dunyoni tashkil etgan narsalar asosida to‘rt unsur, ya’ni olov, havo, suv va tuproq yotadi. Uch unsurdan iborat boshqa jismlar, ya’ni metallar, o‘simliklar va hayvonlar esa, yuqorida aytilgan to‘rt unsurning bir-birlari bilan qorishishining hosilasi sifatida kelib chiqqandir. To‘rt unsur doimo harakatda ekanligidan o‘zgaruvchan bo‘lib, biri ikkinchisiga aylanib qolishi mumkin. Havo suvga, suv tuproqqa va hokazo.

Jurjoniy falsafasida moddiylik g‘oyalarigina emas, balki dialektik dunyoqarash mavjud. Uning fikricha, moddiyliqdan xoli bo‘lgan bo‘sh joy yo‘q. Bu haqda u shunday yozadi: «Samoviy gumbaz buyuk doiradir. U barcha jismlarni qamrab olgan bo‘lib, moddiy dunyoni chegaralab turadi. Ammo u bo‘shliq emas, chunki uni moddadan tashqarida bo‘lgan tushuncha yoki biror o‘lchov bilan tushuntirib bo‘lmaydi. Bundan tashqari bir-biri bilan o‘zaro yopishib, ayni vaqtda boshqa jism bilan ham bog‘lanib turgan narsaning o‘zi bo‘lishi mumkin emas. Har bir atrofdagi dunyo, o‘zi turgan narsaga tegib turishi zarur va bir-birining ketidan yuqoridagidek tartibda joylashishi lozim, chunki bo‘shliqning bo‘lishi mumkin emas. Mana shunday jismlar, unsurlar, samoviy doiralar, butun sayyoralar va moddiy bo‘lakchalarning tarkibiy majmuasi olam deb etaladi»[2].

Jurjoniy Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta SHarq mamlakatlari mantiqiy merosining barcha oqimlarini tahlil etib, ularni yanada rivojlantirdi. XV-XVI asrlar davomida mantiq ilmini o‘rganish va o‘qitish ishlari XIII asrda yozilgan darsliklarga XIV asrda yozilgan sharhlar, ayniqsa, mashhur mantiqshunos at-Taxtoniy, uning shogirdi ibn Muborakshoh, Taftazoniy, Jurjoniy tomonidan yozilgan sharh va hoshiyalar asosida olib borildi. Bu davrda arab tiliga nisbatan fors tilida ko‘proq asarlar yozildi. Mantiq ilmining huquq, til va ilohiyot sohasidagi tadqiqotlarda ishlatilish jarayoni ko‘paydi. Jurjoniy o‘z ijodida mantiqni falsafadan ajratmagan holda, uni ko‘proq huquq va til sohalarida qo‘llanilishini ta’minladi. Jurjoniyning ta’kidlashicha, nazariy bilimlar hayotiy tajribada hosil qilingan boshlang‘ich bilimlar va ular to‘g‘risida fikrlash yo‘li bilan kiritiladi. Bunday fikrlash jarayonini u xulosa deb ataydi va uning uch turini ko‘rsatib o‘tadi. Bular: qiyos (sillogizm), esteqro (induksiya — bo‘lakdan butunga tomon hukm yuritish) va hads (analogiya — o‘xshatish). Bulardan qiyos xulosaning bosh turi hisoblanib, nazariy bilimlar hosil qilishning asosiy vositasi bo‘lib maydonga chiqadi.

Jurjoniy to‘la bo‘lmagan induksiya faqat taxminiy mulohazagagina olib keladi, deb o‘ylaydi va uning ko‘rsatishicha, biz olovning ayrim xususiy holatlarini kuzatsak, har qanday olov issiqlik chiqaradi, degan ayrim xususiyatga ega bo‘lgan bilimdan, ya’ni deduktiv (butundan bo‘lakka o‘tadigan) holatga o‘tadigan xulosa kelib chiqishi mumkin[3]. Shu bilan birga uning ta’kidlashicha, induktiv yo‘l bilan hosil qilingan bilimlar hamma vaqt ham haqiqatga to‘g‘ri kelavermaydi. Chunki inson tajribasi hech vaqt to‘la mukammallikni bermaydi. Jurjoniyning induktiv va deduktiv xulosalar haqidagi fikri Arastu va uning Sharqdagi izdoshlari fikrini eslatadi. Ammo bu fikrga noyob xulosalar qo‘shilib, takomillashtirilgan. Jurjoniyning ilmiy faoliyati tufayli mantiq Temuriylar davrida inson bilimlarining barchasiga qo‘llaniladigan qoida va mezon qonuniga aylandi. U har bir yuritilayotgan hukmning to‘g‘riligaii tortuvchi fanlarning toshu-tarozisi sifatida namoyon bo‘ldi. Natijada tez orada vujudga kelgan Ulug‘bek rasadxonasining ilmiy tadqiqotlarida keng qo‘llanildi.

Jurjoniy Ulug‘bekni madrasada bevosita o‘qitibgina qolmay, uning Akademiyasini vujudga kelishiga ham katta hissa qo‘shdi. Chunki uning shogirdlari bu ilmiy markazning negizini tashkil etar edi. Shuning uchun ham uning ilmiy merosini to‘laligicha o‘rganish mustaqil Respublikamiz ma’naviyatiga salmoqli hissa bo‘lib qo‘shilishi shubhasizdir.

**Adabiyotlar.**

1. O‘zR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. Qulyozmalar fondi: «Oynaye gininamo», 1-sahifa.

2. Jurjoniy. Sharhe mulaxxas al-haya al-Chag‘miniy. O‘zR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutidagi 2655-raqamli qo‘lyozma, 225-a bet (arab tilida).

3. Qarang: Mir Sayyid Sharif Jurjoniy. At-ta’rifot, Istambul. «Dor-ul toboate omera», 1818 y., 11-bet.

## SADR SHAHID HUSOMIDDIN BUXORIYNING “VAQF KITOBI” ASARI

**Raxshona Kenjaboyeva-**
Islomshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Baytul-Hikma Academy MCHJ direktori

**Annotation.** Sadr Shahid Husam al-Din Bukhari is one of the prominent figures in Islamic law, and his work “Kitab al-Waqf” is an important source analyzing the fiqh-based foundations of the waqf institution in Islamic jurisprudence. This work is dedicated to elucidating the legal and practical aspects of waqf within the framework of Islamic legal studies, particularly in the Hanafi school of thought. This article examines the content of “Kitab al-Waqf”, its main fiqh-based arguments, and its significance in contemporary research.

This article employs historical-legal and Islamic-legal analysis methods. The primary source, Husomiddin Bukhari’s “Kitab al-Waqf”, is examined in terms of its structure, main fiqh-based arguments, and its comparison with the perspectives of other Islamic legal schools on waqf. Additionally, analytical approaches based on primary Islamic sources such as the Qur’an, Hadith, and other significant Islamic legal texts, as well as modern studies, are applied.

**Keywords:** Sadr Shahid Husam al-Din al-Bukhari, waqf, Islamic law, fiqh sources, Hanafi school.

Husomiddin Buxoriyning “Kitob al-Vaqf” asari ilk bor Saudiya Arabistonida muhaqqiq Abdulloh Nazir Ahmad tomonidan ilmiy tadqiqot va tabdil jarayonidan o‘tkazilib, nashr etilgan. Ushbu nashr qadimiy ikki muhim nusxaning birlashtirilishi va to‘ldirilishi asosida tayyorlangan bo‘lib, bu jarayonda matnning asl tuzilishi va mazmunini saqlab qolishga alohida e’tibor qaratilgan.

“Kitob al-Vaqf”ning ushbu ikki asosiy nusxasi quyidagicha tasniflanadi:

1. Makka shahridagi Masjid al-Haram kutubxonasida (Maktabatu al-Haram al-Makki ash-Sharif) saqlanayotgan “Kitob al-Vaqf” nusxasi, muallifi As-Sadr ash-Shahid deb ko‘rsatilgan. Ushbu nusxa nasx xati uslubida yozilgan bo‘lib, kutubxona fondida (08** raqam) bilan belgilangan to‘plamga kiritilgan.

2. Istanbuldagi Murod Mulla kutubxonasida (Murad Mulla nomi bilan ham mashhur) saqlanayotgan “Kitob al-Vaqf va al-Ibtido” nusxasi bo‘lib, unda 41 varaq mavjud. Bu nusxa (1/171) raqamli to‘plam ostida ro‘yxatga olingan va hijriy 9-asrga mansub qo‘lyozma sifatida tasniflanadi.

Abdulloh Nazir Ahmad Makka shahridagi Masjid al-Haram kutubxonasidagi nusxani Istanbuldagi nusxa bilan solishtirib, ikkisi o‘rtasidagi muhim farqlarni aniqlagan va ularni izohlarda alohida qayd etgan. “Kitob al-Vaqf” asarining matni ixcham shaklda tuzilgan bo‘lib, unda masalalar qisqa va aniq tarzda bayon qilingan, rivoyatlar yoki dalillarni kengroq keltirishdan voz kechilgan. Muhaqqiq ushbu xususiyatni hisobga olgan holda, asarning asl maqsadidan chetga chiqmaslik va izohlarning asl matndan ustun bo‘lib ketishining oldini olish maqsadida faqat zaruriyat darajasida minimal tahrir va sharhlar qo‘shish bilan cheklangan.

Muhaqqiq tahrir jarayonida “tanlab olingan matn” metodologiyasidan foydalangan. Agar asl nusxada matnning bir qismi tushib qolgan, o‘chirilgan yoki boshqa nusxalarda “to‘g‘riroq yoki eng to‘g‘ri” shakli mavjud bo‘lib, bu shakl asl matn bilan qarama-qarshi kelgan bo‘lsa, u holda to‘g‘ri deb topilgan shakl kvadrat qavslar [ ] ichida keltirilgan va ikki nusxa o‘rtasidagi farqlar izohlarda batafsil bayon qilingan. Shu bilan birga, muhaqqiq kitob matnini paragraflarga ajratib, punktuasiya belgilaridan foydalangan. Qadimiy klassik manbalarda punktuasiya odatda matnning ma’nosiga qarab tushunilgan va matn ichida bunday belgilar kamdan-kam qo‘llanilganligini hisobga olsak, bu tahrir jarayoni zamonaviy o‘quvchilar uchun matnni tushunarliroq qilishga xizmat qilgan.

Bundan tashqari, muhaqqiq kitobda oz sonli keltirilgan hadislar va sahobalar rivoyatlarining manbalarini aniqlab, ularni izohlarda ko‘rsatgan. Kitobdagi ko‘p matnlar asl manbalar bilan solishtirilib tekshirilgan va zarur hollarda to‘ldirilgan. Shuningdek, asarda ismi tilga olingan ayrim fiqh olimlarining qisqacha tarjimai hollari ham keltirilgan. “Kitob al-Vaqf”da vaqf huquqiga oid maxsus atamalar mavjud bo‘lib, ularni hozirgi zamon o‘quvchisi to‘liq anglash uchun muayyan ilmiy malaka talab etiladi. Muhaqqiq ushbu jihatni e’tiborga olgan holda, ba’zi ilmiy terminlarga qisqacha sharhlar qo‘shgan.

Abdulloh Nazir Ahmad “Kitob al-Vaqf”ni muallifning asl maqsadi doirasida saqlab qolishga intilib, faqat eng zarur izohlar bilan cheklangan. U ko‘p sonli izohlar qo‘shish, dalillarni to‘liq keltirish yoki turli fiqhiy qarashlarni taqqoslash kabi qo‘shimcha tadqiqotlardan qochgan. Asarni ortiqcha sharh va qo‘shimchalardan xoli holda saqlashga e’tibor qaratib, tabdil jarayoni bilan kifoyalanib, kitobni mustaqil tadqiqot sifatida emas, balki o‘zining asl shaklida taqdim etishni maqsad qilgan.

Mazkur asar Movarounnahrda vaqf institutining keng qo‘llanilganligini tasdiqlovchi muhim dalil sifatida xizmat qiladi. Asar matnida oilaviy vaqf, xayriya vaqfi, kambag‘al va boylar o‘rtasidagi huquqiy farqlar, shuningdek, vasiyat orqali vaqf qilish kabi mavzular bir necha bobda aniq misollar bilan tahlil qilinadi. Ushbu xususiyatlar “Kitob al-Vaqf”ning hanafiy fiqh tarixidagi o‘rni va ahamiyatini belgilab beradi, chunki u nafaqat huquqiy nazariyani, balki o‘sha davrdagi ijtimoiy amaliyotni aks ettiruvchi manba sifatida ham muhimdir.

Husomiddin Buxoriyning “Vaqf kitobi” islom huquqida vaqf institutining nazariy hamda amaliy asoslarini batafsil bayon qiluvchi muhim ilmiy manba hisoblanadi. Asarda vaqfning huquqiy tabiati, shartlari, boshqarilishi va bekor qilinishiga doir qoidalar keng yoritilgan. Mazkur asar zamonaviy islom huquqi va vaqf tadqiqotlari uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

# MUTAFAKKIR IBN SINO MA’NAVIY MEROSINING FRANSUZ TADQIQOT TAJRIBASIDAN MAKTAB TA’LIMIDA FOYDALANISH

**Kurbanov Djamshid Djurayevich**
BMTI akademik litseyi o‘qituvchisi, falsafa tarixi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Boqiyeva Marjona Shuhratovna**
BMTI akademik litsey ingliz tili o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Abu Ali Ibn Sinoning ilmiy merosining Fransiya ilm-faniga ta’siri, uning asarlarining Yevropa tiliga tarjima qilinishi, shuningdek, Fransiyada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va tarjimalar haqida so‘z boradi. Ibn Sinoning tibbiyot, falsafa, astronomiya va musiqa sohalariga qo‘shgan hissasi alohida ta’kidlanadi. Maqolada fransuz tadqiqotchilari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va tarjimalarning Ibn Sino merosining Yevropa ilmiy maktablarida qanday rivojlanishga olib kelganligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, maqolada Ibn Sinoning ilmiy merosini maktab ta’limiga integratsiyalash bo‘yicha takliflar ham berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ibn Sino, ilmiy meros, Fransiya, tarjima, tibbiyot, falsafa, astronomiya, musiqa nazariyasi, fransuz tadqiqotchilari, maktab ta’limi, Sharq ma’naviy merosi, ilmiy tadqiqotlar.

**Annotation:**
This article explores the influence of Abu Ali Ibn Sina’s scientific legacy on French science, the translation of his works into European languages, and the academic research conducted in France regarding his contributions. The study highlights Ibn Sina’s impact on medicine, philosophy, astronomy, and music theory. It also discusses the translations and research carried out by French scholars, demonstrating how Ibn Sina’s legacy shaped European scientific traditions. Additionally, the article presents proposals for integrating Ibn Sina’s scientific heritage into school education.

**Keywords:** Ibn Sina, scientific legacy, France, translation, medicine, philosophy, astronomy, music theory, French researchers, school education, Eastern spiritual heritage, scientific research.

Markaziy Osiyo insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimgi markazlaridan biri bo‘lib, bu hududda dunyoning eng qadimgi sivilizatsiyalari shakllangan. Tarixiy jarayonlarga nazar tashlansa, ushbu mintaqa buyuk mutafakkirlar va olimlar yetishtirib bergan ma’rifat o‘chog‘i bo‘lib kelgan. Bugungi kunda Abu Nasr Forobiy, Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino kabi ulug‘ allomalar ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasi bilan jahon miqyosida e’tirof etilmoqda. Ularning ilmiy-ma’naviy merosi nafaqat ilmiy jasorat ramzi, balki insoniyat uchun ibrat namunasi hisoblanadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, huquqiy demokratik jamiyat barpo etish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida barkamol shaxsni shakllantirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Bu borada davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Ta’lim sohasining yana bir eng asosiy vazifasi bugungi kun uchun zarur bo‘lgan yangi avlodni, ilm-fan va o‘z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli yoshlarni tarbiyalashdan iboratligi shubhasiz” [83]. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda “Sog‘lom avlod” dasturining keng miqyosda amalga oshirilishi, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida ta’lim tizimining tubdan isloh qilinishi hamda “Taraqqiyot strategiyasi”da belgilangan maqsadlarni ro‘yobga chiqarish bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan muhim qadamlar sirasiga kiradi.

[83] Shavkat Mirziyoyev. Yangi O’zbekiston strategiyasi. – T.: “O’zbekiston” nashriyoti, 2021. B.230.

## IBN SINO ILMIY MEROSINING G‘ARB TA’LIMIDAGI O‘RNI

Markaziy osiyolik mutafakkir Abu Ali Ibn Sino ilmiy merosining G‘arb ta’limida o‘rganilishi XII asrda uning mashhur “Qonun fit-Tibb” (“Canon”) asarining lotin tiliga tarjima qilinishi bilan boshlandi. Dastlab Yevropa mutafakkirlari Ibn Sinoning aynan tibbiyotga oid asarlariga katta qiziqish bildirdilar. Imperator Fridrix II ning topshirig‘iga binoan, Kremonlik Jerard tomonidan Toledo shahrida Ibn Sinoning “Qonun fit-Tibb” asari lotin tiliga tarjima qilindi va 1187-yilda nashr etildi. Ushbu tarjimadan so‘ng, Ibn Sinoning tibbiyot, falsafa, astronomiya va matematika sohalariga oid arab tilidagi qo‘lyozmalari Marc de Tolede va Michel Scot kabi olimlar tomonidan tarjima qilina boshlandi[84].

Bu borada fransiyalik sharqshunos A.M. Guachon mutafakkirning ilmiy merosi Yevropa fanining rivojlanishiga ikki yo‘l bilan ta’sir ko‘rsatganligini ta’kidlaydi. Birinchidan, tarjima asarlar bevosita Yevropa tadqiqotchilariga ilmiy ta’sir o‘tkazdi, ya’ni Ibn Sinoning ilmiy yutuqlari Yevropadagi ilmiy maktablarning rivojlanishiga xizmat qildi. Ikkinchidan, uning asarlarining tarjima qilinishi Yevropa olimlarini yangi ilmiy izlanishlarga ilhomlantirdi, natijada yangi ilmiy yo‘nalishlar shakllandi[85]. Shu tariqa, Ibn Sinoning ilmiy merosi G‘arb ilm-fani rivojida alohida o‘rin egalladi.

XVI asrda shveysariyalik mashhur shifokor va kimyogar Paratsels Yevropa universitetlarida tibbiyot fanining rivoji bilan tanishar ekan, Galen va Ibn Sino asarlarini shifokor tayyorlash uchun yetarli deb hisoblashganidan hayratda qolgan. U Ibn Sinoning ilmiy yondashuvlarini chuqur o‘rganib, ularni zamonaviy tibbiyot rivojiga ulkan hissa qo‘shgan asarlar sifatida e’tirof etgan[86]. Ayniqsa, Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari o‘rta asrlarda G‘arb tibbiyotining asosiy qo‘llanmasiga aylangan bo‘lib, bu asar ko‘plab yevropalik shifokorlar tomonidan asosiy manba sifatida qo‘llanilgan.

## FRANSIYA ILMIY MUHITIDA IBN SINO TADQIQOTLARI

Bugungi kunda Ibn Sinoning tibbiyot sohasiga oid asarlarining o‘rta asrlardagi nusxalari G‘arb davlatlarining yirik kutubxonalarida saqlanmoqda. Fransiya Milliy kutubxonasida mutafakkir merosining bir nechta tarjima nusxalari mavjud. Jumladan:

- “Tib qonunlari” (“Qonun fit-Tibb”) asarining XII asrga oid lotin tilidagi qo‘lyozma parchalarini uchratish mumkin;
- XV asrga oid to‘liq lotincha (1486) va ivritcha (1491) tarjimalari mavjud[87].

XX asrning o‘rtalarida Fransiyada Ibn Sino asarlarini tarjima qilish va ilmiy tadqiq qilish ishlari davom etdi. Ushbu davrda A. Muhammad, M. Henri, A. Georges C., C. Amelie-Marie, H. E. John, M. D. Christopher, Sh. Nabil kabi fransuz tadqiqotchilari mutafakkir ilmiy merosini chuqur o‘rganish bilan shug‘ullandi.

Mazkur davrda amalga oshirilgan muhim ilmiy tarjimalar va tadqiqotlar quyidagilardan iborat:

- Sharqshunos A. Muhammad va M. Henri Ibn Sinoning “Donishnoma” asarini fors tilidan fransuz tiliga tarjima qildi va unga ilmiy sharhlar yozdi[88].

---

[84] DEA en sciences de l information et de la communication. option : 4. Manuscrits et imprimes arabes daris la France du XVII e siecle :1 630- 1 740 / Annie VERNAY- NOURI. La page 66.

[85] Goichon A.-M. La distinction de l’essence et de l’existence d’après Ibn Sina (Avicenne). Paris: Desclée de Brouwer, 1937. P.546

[86] Avicenne et l’ éthique des sciences et des technologies aujourd’hui. Composé et imprimé dans les ateliers de l’UNESCO. Publié en 2004 par l’Organisation des Nations Unies pour l’éducation, la science et la culture 7, place de Fontenoy, 75352 Paris 07 SP. UNESCO 2004

[87] “Tib qonunlari” asarining eng qadimiy qo’lyozma nusxalari lotin tilida 1201-1300-yillar oralig’ida jamlangan. Ushbu nusxa Fransiya Milliy kutubxonasida NB. 6454 raqam ostida saqlanmoqda.

[88] Achena Muhammad, Masse Henri. Avicenne. Le Livre de science (traduction seule). (I), Logique, Métaphysique; (II), Physique, Arithmétique, Géométrie, Astronomie, Musique. Les Belles-Lettres, Paris 1955-1958.

• Misrlik faylasuf A. Georges Ibn Sinoning “Kitob ash-Shifo” asarining metafizikaga oid bo‘limini fransuz tiliga tarjima qilib, izoh va ilmiy tahlillar bilan boyitdi[89].

• Fransiya Akademiyasi a’zosi Goichon Amelie-Marie Ibn Sinoning “Fikrlar va qaydlar kitobi” asarini tarjima qilib, uning falsafiy qarashlarini tadqiq etdi[90].

• J. Henri va N. Abdelkader Ibn Sinoning XII-XIII asrlarda arab tilidan lotin va fransuz tillariga tarjima qilingan “Urjuza fi-t-Tibb” (“Tibbiyot qasida”) asarini ilmiy tahlil qilib, fransuz tiliga to‘liq tarjima qildi[91].

• Fransiyalik sharqshunos va musiqashunos Rodolphe D’Erlanger va F. H. Georg arab musiqasi tarixiga oid tadqiqotlar jarayonida Ibn Sinoning musiqa nazariyasiga oid fikrlarini tarjima qilib, ularni ilmiy baholash bilan shug‘ullandi[92].

Mazkur ilmiy tadqiqotlar Ibn Sino ilmiy merosining Yevropa ilm-fani, ayniqsa, falsafa, tibbiyot va musiqashunoslikka bo‘lgan ta’sirini yanada keng ochib berdi.

## IBN SINO MEROSINI MAKTAB TA’LIMIGA INTEGRATSIYALASH

Fransiyada ta’lim tizimida fan tarixi va unga hissa qo‘shgan olimlarning ijodi o‘qitilib kelinadi. Bunday yondashuv orqali o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishi ortadi va ularni olimlarning hayoti hamda asarlari bilan tanishtirish imkoniyati yaratiladi. Shu maqsadda, fransuz sharqshunoslarining Sharq ma’naviy merosi bo‘yicha tajribalaridan maktab ta’limida foydalanish yuzasidan quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

• **7-sinf “O‘zbekiston tarixi” darsligi**da Sharq ma’naviy merosi haqida gapirilganda, xorijiy mamlakatlardagi tadqiqotlarni o‘z ichiga olish zarur;

• **Tarbiya darslarida** Yevropalik olimlarning Abu Ali Ibn Sino va boshqa mutafakkirlarimiz ilmiy merosiga doir tadqiqotlari haqida so‘zlash;

• **Aniq fanlar**: Ibn Sinoning matematika va astronomiya bo‘yicha fransuz tadqiqotchilari tomonidan o‘rganilganligi haqida ma’lumot berish;

• **Falsafa va gumanitar fanlar**: Ibn Sino falsafasining Yevropa gumanizm davri va Uyg‘onish davri olimlariga ta’siri haqida tahlil yuritish;

• **Ilmiy to‘garaklar** tashkil etish va ularda Ibn Sino merosi, uning fanga qo‘shgan hissasi hamda zamonaviy fan bilan bog‘liqligi haqida munozaralar o‘tkazish.

Yuqoridagi takliflar amalga oshirilsa, o‘quvchilarning ilmiy va madaniy dunyoqarashi kengayadi hamda Ibn Sino merosini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Sharq va G‘arb ilmiy an’analarining o‘zaro bog‘liqligini yoritish orqali o‘quvchilarga ilmiy tafakkur va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. B.230.

2. DEA en sciences de l information et de la communication. option : 4. Manuscrits et imprimes arabes daris la France du XVII e siecle :1 630- 1 740 / Annie VERNAY- NOURI. La page 66.

3. Goichon A.-M. La distinction de l’essence et de l’existence d’après Ibn Sina (Avicenne). Paris: Desclée de Brouwer, 1937. P.546

[89] Anawati Georges C. La Métaphysique du Shifâ, introduction, traduction et notes (I). Vrin, Paris 1978-1985 [la division des sciences naturelles]

[90] Goichon Amelie-Marie. Livre des directives et remarques (Kitâb al-Isharat wa-l-tanbihat). Vrin, Paris. 1951.

[91] Jahier Henri, Noureddine Abdelkader. Avicenne. Poème de la médecine (“Urguza fi-Tib”). Les Belles-Lettres, Paris. 1956

[92] Rodolphe d’Erlanger. La musique arabe. Paris, Librairie Orientaliste Paul Geuthner. 1935.// Farmer Henry Georg. A history of Arabian music. Londres. 1929.

4. Avicenne et l’ éthique des sciences et des technologies aujourd’hui. Composé et imprimé dans les ateliers de l’UNESCO. Publié en 2004 par l’Organisation des Nations Unies pour l’éducation, la science et la culture 7, place de Fontenoy, 75352 Paris 07 SP. UNESCO 2004

5.“Tib qonunlari” asarining eng qadimiy qo‘lyozma nusxalari lotin tilida 1201-1300-yillar oralig‘ida jamlangan. Ushbu nusxa Fransiya Milliy kutubxonasida NB. 6454 raqam ostida saqlanmoqda.

6. Achena Muhammad, Masse Henri. Avicenne. Le Livre de science (traduction seule). (I), Logique, Métaphysique; (II), Physique, Arithmétique, Géométrie, Astronomie, Musique. Les Belles-Lettres, Paris 1955-1958.

7. Anawati Georges C. La Métaphysique du Shifâ, introduction, traduction et notes (I). Vrin, Paris 1978-1985 [la division des sciences naturelles]

8. Goichon Amelie-Marie. Livre des directives et remarques (Kitâb al-Isharat wa-l-tanbihat). Vrin, Paris. 1951.

9. Jahier Henri, Noureddine Abdelkader. Avicenne. Poème de la médecine (“Urguza fi-Tib”). Les Belles-Lettres, Paris. 1956

10. Rodolphe d’Erlanger. La musique arabe. Paris, Librairie Orientaliste Paul Geuthner. 1935.// Farmer Henry Georg. A history of Arabian music. Londres. 1929.

## MA’NAVIY MEROSNI O‘RGANISH -TARBIYA MANBAI

**Ilyos Quvondiqov-**
Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali dotsenti, falsafa doktori (PhD)

*“Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda, uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur”*

***Sh. Mirziyoyev***[93]**.**

Annotatsiya: Ushbu maqolada kishilar ongli faoliyati tabiiy tarixiy jarayon bulib, bu kundalik an’anaviy turmush faoliyatida tarixdan saboq olish, yoshlar dunyoqarashini ilmiy asoslangan xulosalar bilan boyitish hamda ularda ilmiy-mafkuraviy immunitetni shakllantirishga, tafakkurni faollashtirishga bag‘ishlangan.

Kalit suzlar: ma’naviyat, ma’rifat, ta’lim, tarbiya, mafkura, Vatanga muhabbat, qadriyat, mehr-oqibat, ma’naviy meros.

Abstract: This article discusses the conscious activities of individuals as a natural historical process. It focuses on learning lessons from history in daily traditional life, enriching the worldview of young people with scientifically grounded conclusions, and developing their scientific and ideological immunity while activating their thinking.

Keywords: spirituality, enlightenment, education, upbringing, ideology, love for the fatherland, values, compassion, cultural heritage.

Xalqimizning asrlar davomida yaratgan boy ilmiy, ma’naviy, axloqiy merosi, mutafakkirlar va allomalarimiz qoldirgan ko‘plab ilmiy asarlar, kashfiyotlar, umrboqiy qadriyatlar va an’analar ana shu qo‘lyozmalarda ham aks etgan. Milliy madaniy merosimizning ming-minglab namunalari turli taloto‘p zamonlarda chetga chiqib ketgani va ularni asl vataniga qaytarish borasida

[93] Mirziyoyev Sh.M. 2021 yil 19 yanvarda ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo’yicha o’tkazilgan videoselektor yig’ilishidagi ma’ruzasidan. O’zA.

ham amaliy ishlar boshlanganini haqli bir qoniqish bilan qayd etish kerak, albatta. Ajdodlarimizning bizga qoldirgan boy va betakror madaniy merosini sanab bitirish mushkul. Ularning e'tiboridan chetda qolgan sohaning o'zi yo'q. Ana shularni qamrab olgan asarlar, yodgorliklar, mamlakatimizning turli tarixiy shaharlaridan topilgan osori-atiqalar faqat O'zbekistonning emas, balki butun jahonning, YuNESKOning bebaho mulkidir. U xalqni xalq, millatni millat qilib turgan asoslar, ya'ni ming yilliklar mobaynida shakllanib, rivojlanib kelayotgan madaniy, ma'naviy, ma'rifiy, axloqiy va ruhiy an'ana, qadriyat hamda tamoyillardir.

Bunday madaniyatni va qadriyatlarni o'rganish yo'lida islom dinining insonparvarlik va bag'rikenglik g'oyalaridan samarali foydalanish, ularni chuqur o'rganish, Imom Moturidiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Abu Lays Samarqandiy, Qaffol Shoshiy, Abul Muin Nasafiy, Makhul Nasafiy, Mahmud Zamaxshariy, Bahouddin Naqshband, Burhoniddin Marg'inoniy, Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek va Zahiriddin Muhammad Bobur singari ulug' mutafakkirlarning ilmiy-ma'naviy merosini tadqiq etish bugungi kunda insonlarni, ayniqsa yoshlarni jaholat changalidan qutqarishda muhim ma'naviy tayanch bo'lib xizmat qilishi, shubhasiz.

Bugun o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, betakror an'analar ruhida tarbiyalashga etarlicha e'tibor qaratmaydigan va bu yo'lda o'zining tarixiy, madaniy, axloqiy merosini asrab-avaylab, uni kelajak avlodga qoldirishga e'tibor bermaydigan mamlakat tarixiy taraqqiyot chorraxasida qolib ketishi tayin. Hartomonlama uyg'un rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, o'z qarash va yondashuviga, fuqarolik nuqtai nazariga ega bo'lgan shaxsni kamol toptirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan yangi O'zbekistonda madaniy yodgorliklar, aziz qadamjolar hozirgi paytda yoshlarimizning dunyoqarashini boyitish, ularning tariximizga bo'lgan msunosabatini shakllantirish vositasiga aylanib bormoqda.

Ana shunday murakkab bir mafkuraviy makonda boy o'tmish madaniyatimiz va milliy an'analarimizni yoshlar ongiga singdirish, ularni tarixiy xotira, ajdodlarimiz merosiga sadoqat va hurmat ruhida tarbiyalash istiqboldagi muhim vazifalardan bo'lib turibdi. Prezidentlikka kirishishga bag'ishlangan tantanada nutq so'zlagan Shavkat Mirziyoyev yoshlar haqida to'xtalar ekan, shunday degan edi: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz".[94]

Markaziy Osiyo madaniyati azaldan dunyoni lol foldirib kelgan va G'arb uchun maktab vazifasini o'tagan. Bu o'rinda o'rta asrlar Sharq uyg'onish davrining ikki bosqichida, ya'ni IX-XI asrlarda ro'y bergan (birinchi bosqich) va XIV asrning ikkinchi yarmi hamda XV asrlarda (ikkinchi bosqich) yashab ijod etgan muttafakkir va allomalar ijodiga nazar tashlab o'tish o'rinlidir. Ma'lumki, O'rta asrlar Sharq uyg'onish davriga kelib, xalq boy an'analarini o'zida mujassam etgan tarbiyaviy-axloqiy risolalar paydo bo'ldi, ularda axloqning ham nazariy, ham amaliy masalalari tahlil etildi.

"Qutadg'u bilig", "Axloqi-Nosiriy", "Qobusnoma", "Hibatul haqoyiq", "Guliston", "Bo'ston", "Axloqi Jaloliy", "Mahbub ul-qulub ", "Boburnoma" kabi Yusuf Xos Xojib, Nasriddin Tusiy, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, Muslihiddin Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa allomalarimizning ta'limiy-axloqiy asarlari inson shaxsini ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Birinchi Prezident Islom Karimovning 2014 yil 15 mayda "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy tsivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati" mavzusida o'tkazilgan xalqaro anjumanda so'zlagan tarixiy nutqida Sharq ma'naviti va ma'rifatining jahon tamaddunidagi roli haqida qimmatli fikrlar olg'a surildi va uning roli ta'kidlandi.

[94] Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz "Xalq so'zi gazetasi 2016 yil 15 dekabr. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqidan".

Kaykovusning “Qobusnoma” asari ma’naviyat, axloq-odobga, ta’lim-tarbiyaga oid nodir asarlardan hisoblanadi. “Qobusnoma” qirq to‘rt bobdan iborat. Kaykovus o‘zining hayotiy tajribasi asosida o‘g‘li Gilonshohni tarbiyalashni istaydi va toju-taxt, boylik emas, pand-nasihatlarni bebaho meros, deb ta’kidlaydi. U o‘g‘liga shunday deb murojat qiladi: “Ey farzand, umidim shuki, sen shu pandlarni qabul qilgaysan. Men otalik vazifasini bajo keltirgan bo‘lurman. Bilginki, xalqning rasmi, odati shundayki, yugurib- elib, qidirib-axtarib dunyodan biror narsa hosil qiladilar va (bu topgan) narsalarini o‘zlarining yaxshi ko‘rgan kishisiga qoldirib ketadilar. Men dunyoda mana shu so‘zlarni hosil qildim, sen mening uchun qimmatbahosan. Menga safar vaqti yaqinlashdi, dunyodan nima hosil qilgan bo‘lsam, sening oldinga qo‘ydim, toki o‘zingga bino qo‘ymagaysan va o‘zingga nomunosib ishlarni qilmagaysan”[95].

“O‘zi poku, so‘zi poku, ko‘zi pok…” yoki xalqimiz ma’naviyatining noyob yodgorligi bo‘lmish “Avesto” kitobida ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal degan da’vatlarga urg‘u berilishi ajdodlarimizning komillikni juda keng ma’noda tushunganini ko‘rsatadi. Insonning ma’naviyati, fikri, so‘zi va harakati halol mehnat va halol rizq asosiga qurilishi lozimligi ming yillar mobaynida tarbiyamizning mazmun mohiyatini belgilab kelgan va ushbu g‘oyalar milliy g‘oyamizning ham poydevoriga asos qilib olingan. Yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson tarbiyasi kabi g‘oyalar ajdodlarimiz amal qilgan va meros qoldirgan an’analarga to‘la mos va xosdir. Adolat va halol mehnat inson kamolotini ta’minlashning mezoni ekanligi milliy g‘oyamizning ham tamoyillariga asos qilib olingan.

Ma’lumki, insonning etuklikka intilishida va kamol topishida hamisha ma’naviy tarbiya muhim ahamiyat kasb etgan. Bu boradagi Sharq mutaffakirlarining dahosi, ilm-fanning turli yo‘nalishlaridagi izlanishlari va qomusiy bilimlari hamon insoniyatni hayratga solib kelmoqda. Sharq Uyg‘onish davri falsafasida ta’limiy-axloqiy yo‘nalish muhim ahamiyat kasb etgan. Masalan, axloq masalasi faylasuflarning, buyuk mutafakkirlarning, tarixchi-yu shoir va adiblarning diqqat markazida bo‘lgan. Ta’limiy-axloqiy risolalar yozilgan, axloqning nazariy va amaliy masalalari tahlil etilgan. «Fozil odamlar shahri», «Baxt-saodatga erishuv haqida», «Axloq haqida risola», «Ishq risolasi», «Qutadg‘u bilig», «Axloqi Nosiriy», «Axloqi Jaloliy», «Axloqi Muhsiniy», «Hibatul-haqoyiq», «Qobusnoma», «Guliston», «Bo‘ston», «Mahbub ul-qulub» kabi Forobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Tusiy, Davoniy, Koshifiy, Kaykovus, Sa’diy, Jomiy, Alisher Navoiylarning ta’limiy-axloqiy asarlari inson shaxsini ma’naviy-axloqiy shakllantirish muammosini hal etishda tarbiyaviy asarlar sifatida muhim ahamiyatga ega.

Afsuski, insoniyat boshidan kechirgan fojialar, urushlar, tabiiy ofatlar natijasida ular qoldirgan buyuk merosning, aytish mumkinki, mingdan bir qismigina bizgacha etib kelgan, xolos. Tarixning zulmat va jaholat hukmronlik qilgan muayyan davrlarida olimlarning quvg‘inga va ta’qibga uchragani, ko‘pchiligining hayoti fojiali yakun topganiga tarix guvox.

Qadimgi dunyoning eng ulkan Aleksandriya kutubxonasi, Mirzo Ulug‘bekning noyob shaxsiy kutubxonasi yo‘q qilib yuborilgan. Bunday fojiali ro‘yxatni yana davom ettirish mumkin. Biroq, barcha qiyinchilik va ayovsiz sinovlarga qaramasdan, alloma va mutafakkirlar o‘zlarining ilmu fan rivoji yo‘lidagi burchiga, gumanizm va ma’rifat g‘oyalariga sodiq qolganlar, ijoddan to‘xtamaganlar.

Ana shulardan biri XI asrda yashab ijod etgan olim va mutafakkir Mahmud Qoshg‘ariydir. Uning ta’lim-tarbiyaga, xulq-atvorga oid «Devonu lug‘otit turk» asarida olg‘a surgan g‘oyalari hamon o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ushbu asarda qadimgi turkiy xalqlar tili tarkibiga kirgan so‘zlarning arabcha izohli tarjimasi berilgan. Bu kitobni qadimiy turkiy tilning izohli lug‘ati deyish mumkin. «Devon»dagi qo‘shiqlarda tabiat manzaralari, ov va jang tasvirlari, sevgi-muhabbat tuyg‘ulari, o‘git-nasihatlar o‘z ifodasini topgan.

[95] Kaykovus. Qobusnoma. T:, O”gituvchi NMIU. 2006.185 b.

She’rlarda ilm olishning qadri, bilimli, donishmand kishilarni hurmat qilish, mehmondo‘stlik, xushxulqlik, mardlik, jasurlikni targ‘ib etuvchi, o‘z manfaatini ko‘zlagan molparast, baxil, ochko‘z, do‘stiga va xalqiga xiyonat kabi salbiy tomonlarini qoralaydigan she’rlar ko‘p uchraydi. Bunday she’rlar turkiy xalqlar qadim-qadimlardan boshlab inson shaxsini shakllantirishda ta’lim-tarbiyaga katta e’tibor berganligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, pand-nasihatlarda asosiy o‘rinni ilm olishga undash, uning foydalari, ilm ahlini hurmat qilish to‘g‘risidagi fikrlar egallaydi. Yoshlarga ilmli kishilarga yaqinlashish, ulardan pand-nasihatlar olish maslahat beriladi. Asarda xalqning ta’lim-tarbiyaga oid tajribalari ifodalangan maqollar ham mavjud. Maqollarda ham qo‘shiqlardagi kabi do‘stlik va hamkorlik, mehnatga muhabbat, ilm olishga va kasb-hunar egallashga undash, vatanparvarlik va qon-qarindoshlik tuyg‘usi, tejamkorlikning ahamiyati, isrofgarchilik oldini olish, adolat va adolatsizlik, yaxshilik va yomonlikning oqibatlari, xulq-odob qoidalari, sihat-salomatlikni saqlashga oid o‘gitlar beriladi. Ushbu jihatlari bilan asar bugungi kunda ham yoshlarga ta’lim va tarbiya berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XXI asr – intellektual yoshlar asri hisoblanadi. Yangi O‘zbekistonda yoshlarning o‘z imkoniyatlarini yorqin namoyish qilishlari uchun barcha shart-sharoitlar, keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ayniqsa, keyingi sakkiz yil mobaynida yoshlar hayotida yuz yillarga teng bo‘lgan tub islohotlar amalga oshirildi. Bu borada mantiqan va tarixan o‘z isbotini topgan bog‘liqlik, o‘tmish-bugun-kelajak o‘rtasida uzviylikni amalga oshira oladigan intellektual salohiyatga ega bo‘lgan yoshlarni boy milliy meros va an’analarimiz asosida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi qilib belgilandi. Xullas, Sharq ta’lim-tarbiyasida ilmni targ‘ib etish, ta’limiy-axloqiy asarlardagi ma’naviy an’analarga suyanishga bevosita bog‘liqdir. Shaxs kamoloti muammosiga bunday yondashish ta’lim-tarbiya maksadi, vazifalari, mazmunini yanada boyitishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. 2021 yil 19 yanvarda ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidagi ma’ruzasidan. O‘zA.

2. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz “Xalq so‘zi gazetasi 2016 yil 15 dekabr. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqidan”.

3. Kaykovus. Qobusnoma. T:, O”gituvchi NMIU. 2006.185 b.

## JAMIYAT TARAQQIYOTIDA SIYOSIY MODERNIZATSIYANING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Xojiyev Tunis Nurkosimovich-**
O‘zbekiston Milliy universiteti Huquqiy fanlar kafedrasi dotsenti,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori,

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada siyosiy modernizatsiyaning asosiy tushunchalari uchun umumiy bo‘lgan qoidalarni aniqlash masalasi hal etiladi. Nazariyaning alohida yo‘nalishlari paydo bo‘lishi va rivojlanishining xronologik ketma-ketligi ko‘rib chiqiladi, ular umumlashtiriladi va to‘ldiriladi. Modernizatsiyaning umumiy qoidalari shakllantiriladi va ushbu model doirasida islom sotsio-madaniy muhitida shakllangan jamiyatlaridagi modernizatsion o‘zgarishlarning keyingi tahlili amalga oshiriladi.

**Kalit so‘zlar:** modernizatsiya, ijtimoiy rivojlanish, modernizatsiya modellari, siyosiy modernizatsiya, quvib yetuvchi modernizatsiya modeli, kechikkan modernizatsiya.

**Resume.** This article addresses the issue of identifying common principles underlying the fundamental concepts of political modernization. It examines the chronological sequence of the emergence and development of individual theoretical approaches, summarizing and supplementing them. The article formulates general principles of modernization and, within this framework, conducts a further analysis of modernization processes in societies formed within the Islamic socio-cultural environment.

**Keywords:** modernization, social development, modernization models, political modernization, overtaking modernization model, delayed modernization.

Ijtimoiy o‘zgarishning o‘zi juda ko‘p qirrali va serma’no bo‘lganligi sababli, uni o‘rganish turli nazariy-metodologik yondashuvlar doirasida olib borilishi mumkin. Zamonaviy sotsiologiyada ijtimoiy rivojlanishni tushuntiriga qaratilgan uchta yirik nazariya ilmiy doiralarda ko‘p muhokama etiladi. Bular formatsion, sivilizatsion va modernizatsion nazariyalardir.

Mamlakatimizda modernizatsiya paradigmasidan foydalanish, faqat mustaqillikka erishganimizdan keyingina boshlandi. Shu bois, modernizatsiya paradigmasiga e’tibor, asosan, 1980 yillarning oxirida Sovet Ittifoqida shakllangan ko‘p ukladli iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va, albatta, siyosiy o‘zgarishlarni tahlil qilishda uning amaliy samaradorligiga bo‘lgan umid bilan izohlanadi. Modernizatsiyaning sabab-oqibat aloqalarini tushunish uchun zamonaviy davrning mohiyatini aniqlash zarur bo‘ldai.

Siyosatshunoslar “zamonaviylik”ning umumiy xususiyatlari yoki asosiy tamoyillarini ajratib ko‘rsatishgan bo‘lib, ularni P.Shtompka quyidagicha umumlashtiradi:

1. Individualizm. Jamiyatda shaxsning markaziy o‘rni uzil-kesil o‘rnatiladi. Bu shaxs majburiy guruhiy aloqalardan ozod bo‘lib, o‘z xohishiga ko‘ra ijtimoiy jamoani tanlaydi, o‘z harakatlarini mustaqil ravishda belgilaydi hamda shaxsiy xatti-harakatlari, yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari uchun o‘zi javobgar bo‘ladi.

2. Differensiatsiya. Bu xususiyat mehnat va xizmat ko‘rsatish sohalariga xos bo‘lib, unda yuqori darajadagi ta’lim, malaka va tajribani talab etadigan ko‘plab yangi ixtisoslashgan faoliyat turlari hamda kasblar vujudga keladi.

3. Ratsionallik. Ushbu faoliyat prinsipi davlat boshqaruviga va umuman an’anaviylik unsurlaridan xoli bo‘lgan byurokratiyaga faol ta’sir ko‘rsatadi. Jamiyatda eng muhim o‘rin bilish vositasi va voqelikni o‘zgartirish quroli sifatida ilm-fanga tegishlidir.

4. Ekonomizm. Iqtisodiyot jamiyat hayotining hukmron sohasiga aylanib, ijtimoiy munosabatlarning boshqa sohalaridagi o‘zgarishlarni belgilab beradi hamda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning asosiy boshqaruvchisi sifatida namoyon bo‘ladi.

5. Ekspansiya, ya’ni zamonaviy turdagi jarayon va munosabatlarning jahon tizimining chekka qismlarida joylashgan, rivojlanishda orqada qolgan mamlakatlarga tarqalishi va ularni o‘z qonuniyatlariga bo‘ysundirish qobiliyati[1,56].

Boshqacha qilib aytganda, siyosiy modernizatsiya sanoatlashtirish, byurokratlashtirish, dunyoviylashtirish, shaharlashtirish, ta’lim va fan sohalarining tezkor rivojlanishi, vakillik siyosiy hokimiyati, makoniy va ijtimoiy harakatchanlikning jadallashuvi, turmush sifatining yuksalishi, ijtimoiy munosabatlarning oqilonalashuvi kabi jarayonlar majmuasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayonlar “an’anaviy yopiq jamiyat”ga qarama-qarshi o‘laroq “zamonaviy ochiq jamiyat”ni shakllantirishga olib keladi. Umuman olganda, siyosiy modernizatsiya samarali siyosiy tizim, uning institutlari va amaliyotlarini barpo etish hamda rivojlantirish jarayoni sifatida tavsiflanadi.

Siyosiy modernizatsiyaning dastlabki g‘oyalari XX asr o‘rtalarida mustamlaka imperiyalarining parchalanishi va shu asosda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi hududlarida “yosh davlatlar” deb ataluvchi ko‘plab mamlakatlarning vujudga kelishi sharoitida shakllandi. Bu davlatlar rahbarlari oldida keyingi taraqqiyot yo‘nalishini tanlash kabi murakkab vazifa paydo bo‘ldi. Ta’kidlash joizki,

G‘arb andozasidagi islohotlar dasturi XX asr boshlanishidan avval ham ko‘plab mamlakatlarning mustaqil hukumatlari tomonidan qabul qilingan edi. Bugungi kunda klassik hisoblangan modernizatsiya (mavhum an’anaviylikdan mavhum zamonaviylikka tezkor o‘tish) nazariyasi AQSh va G‘arbiy Yevropa olimlari hamda faol siyosatchilari tomonidan ishlab chiqilgan. Sovuq urush davrida u “uchinchi dunyo” mamlakatlariga “kommunistik yo‘l”ga muqobil sifatida tavsiya etildi. 1950 yillar - 60 yillar boshida turli metodologik an’analarga amal qiluvchi ko‘plab tahliliy guruhlar ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanish masalalarini tushuntiruvchi murakkab, biroq nozik, fanlararo nazariya (keyinchalik nazariyalar)ni yaratdilar. Bu nazariya yosh davlatlar va ularning ijtimoiy jihatdan bir xil jamiyatlari taraqqiyotining mazmunli yo‘nalishini belgilash uchun nihoyatda zarur deb hisoblandi[2, 40-56].

Keyinchalik, XX asrning ikkinchi yarmida, ushbu ilmiy yo‘nalish an’anaviylikdan tan olingan zamonaviylikka o‘tishning turli jihatlarini, asosan, sanoat jamiyatini o‘rganishning nazariy-uslubiy va tajribaviy tadqiqotlari bilan sezilarli darajada boyidi. Shu bilan bir vaqtda, dastlab evolyusionizm va funksionalizm ta’sirida shakllangan yangi ilmiy paradigma ham jiddiy ravishda takomillashdi. Modernizatsiya nazariyasi real jarayonlar tomonidan doimiy sinovdan o‘tkazilish sharoitida rivojlandi. Bu jarayonlar ko‘pincha nazariyaning asosiy qoidalariga tuzatishlar kiritardi.

I.V.Poberejnikov modernizatsiya maktabining rivojlanish bosqichlarini quyidagicha ta’riflaydi:

1. 1950 yillar oxiri - 60 yillar boshi - modernizatsion tadqiqotlarning vujudga kelishi va tez sur’atlarda miqdoriy o‘sish bosqichi;

2. 1960 yillarning oxiri - 70 yillar - keng qamrovli ichki konseptual va tashqi tanqid natijasida jiddiy sifat o‘zgarishlari bosqichi;

3. 1980 yillar - jiddiy modernizatsion tadqiqotlarning qayta jonlanish bosqichi bo‘lib, bu davrda modernizatsiya va dunyo tizimini tahlil qilish maktablarining bir-biriga yaqinlashuvi kuzatildi;

4. 1980 yillarning oxiri - 1990 yillar - asosan, Sharqiy va Markaziy Yevropa mamlakatlaridagi tub o‘zgarishlar natijasida neomodernizatsion va postmodernizatsion tahlilning shakllanish davri [3,77-95].

Modernizatsiya paradigmasida ijtimoiy rivojlanishning turli jihatlarini tushuntirishga qaratilgan ko‘plab nazariy-metodologik va tarmoqlararo yondashuvlar ishlab chiqildi.

Modernizatsiya konsepsiyasining dastlabki bosqichida (1950-1960 yillar) faoliyat yuritgan deyarli barcha olimlar, ularning qaysi sohaga mansubligidan qat’i nazar, evolyusion va tizimli-funksional xususiyatga ega bo‘lgan bir qator nazariy-metodologik qoidalarni qo‘llab-quvvatlaganlar. Bu esa modernizatsiyani o‘rganishning dastlabki nazariy-metodologik qurilmasi sifatida chiziqli modelning shakllanishiga olib keldi (U. Rostou, M. Levi, D. Lerner, N. Smelzer, Sh. Eyzenshtadt va boshqalar)[4, 27].

Chiziqli model doirasida ijtimoiy o‘zgarish jarayoni inqilobiy tus olib, an’anaviylikdan zamonaviylikka o‘tishda inson hayoti namunalarining tubdan va keng qamrovli o‘zgarishlari bilan tavsiflanardi. Modernizatsiyaga komplekslik tamoyili xos bo‘lib, bu uni faqat bitta sohada amalga oshirish mumkin emasligini anglatardi. Chiziqli model yaratuvchilari modernizatsiya bir vaqtning o‘zida inson faoliyatining barcha sohalarida o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi, deb hisoblashgan. Bu jarayon sanoatlashuv, shaharlashtirish, dunyoviylik, siyosiylashuv va millatchilikni, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining keng tarqalishi va aholi orasida ta’lim darajasining o‘sishi bilan bog‘liq bo‘lgan tarkibiy-funksional tabaqalanishni yuzaga keltirardi. Chiziqli model mualliflari modernizatsiya jarayonini har qanday ijtimoiy tizimga tezlashtirilgan o‘zgarishlar genini tabiiy ravishda singdirish sifatida talqin qilishgan.

Ular faoliyat sohalaridan birining majburiy o‘zgarishi boshlanishi bilan, bu muqarrar ravishda boshqa sohalarda ham oldindan aytib bo‘ladigan ta’sirlarga olib keladi deb hisoblashardi. Ushbu dastlabki model modernizatsiyani global voqealar zanjiri sifatida tasavvur etardi. Bu zanjir, bir tomondan, dolzarb (Amerika-Yevropa) g‘oyalar, texnologiyalar va institutlarning dunyoning barcha

hududlarida oddiy tarqalishi, boshqa tomondan esa, g‘ayri yevropa jamiyatlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ichki evolyusiyasi orqali ta’minlanardi. Kashfiyotchilarning tushunchasiga ko‘ra, har qanday jamiyatni an’anaviylikdan zamonaviylikka o‘tish koordinatalari tizimida joylashtirish mumkin edi. Nazariy jihatdan, bunday evolyusiya o‘tmishda yoki kelajakda barcha yer yuzidagi jamiyatlar bosib o‘tishi shart bo‘lgan modernizatsiyaning muayyan bosqichlari orqali kechardi.

Siril Blek modernizatsiyaning to‘rt bosqichini aniqlagan. Unga ko‘ra:

Birinchi bosqich. Jamiyat ichida an’anaviy va yangilanish g‘oyalari o‘rtasidagi ziddiyat, o‘zgarishlar tarafdorlarining ko‘payishi.

Ikkinchi bosqich. Zamonaviy fikrlaydigan elita qatlamining shakllanishi, uning an’anachilar ustidan hokimiyat uchun kurashda g‘alaba qozonishi (ko‘pincha bir necha avlod umri davomida kechgan shafqatsiz qarama-qarshilik orqali).

Uchinchi bosqich. Tub iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar bosqichi. Ishlab chiqarishning an’anaviy unsurlari o‘rnini zamonaviy unsurlar egallashi, keng ko‘lamli sanoatlashtirish va unga hamroh urbanizatsiya natijasida iqtisodiyotning agrar sektori ijtimoiy chekkaga surib chiqarilishi oqibatida yuzaga kelgan shiddatli iqtisodiy o‘sish.

To‘rtinchi bosqich. Jamiyatning sifat jihatidan yangilanishi, uning sanoat integratsiyasi va tarkibiy qayta tashkil etilishi, bunda muayyan darajada umumlashuv xususiyati ko‘zga tashlanadi. Jamiyatning sifat jihatidan qayta tug‘ilishi, uning industrial integratsiyasi va tarkibiy qayta tashkil etilishi, universallashuvning o‘ziga xos, ma’lum ulushi shakllanishi[5].

S.Eyzenshtadtning fikricha, siyosiy modernizatsiya quyidagi xususiyatlarga ega: markaziy hokimiyat institutlarining mintaqaviy va shaxsiy darajadagi ta’siri kuchayadi, hokimiyatni qonuniylashtirish faqat zamonaviy shakllarda tan olinadi, oliy hokimiyat egasi deb hisoblangan xalq oldida hukumatning javobgarligi tamoyili amal qiladi.

Ushbu model G‘arb sivilizatsiyasining tarixiy taraqqiyoti asosida yaratilgan bo‘lib, amalda G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikadan tashqaridagi ijtimoiy-madaniy tajribalar xilma-xilligini e’tiborga olmagan. Dastlabki modelning eng muhim kamchiliklaridan biri modernizatsiyaga intilgan alohida jamiyatlar uchun xalqaro muhit dinamikasini yetarlicha baholamaganligidir. Shuningdek, evolyusionistlarning barcha xalqlar uchun yagona rivojlanish yo‘li mavjud degan, ba’zi “parallel” yo‘llar bo‘lishi mumkinligini hisobga olmaydigan qarashi ham o‘zini oqlamaydi.

Modernizatsiya nazariyasi bo‘yicha dastlabki tadqiqotlarda modernizatsiya jarayoni an’anaviy jamiyatlardan o‘rtacha zamonaviy jamiyatlarga uzoq muddatli o‘tish sifatida talqin qilingan bo‘lsa, keyinchalik bu g‘oya qisman modernizatsiya modelida chuqur qayta ko‘rib chiqildi. Ushbu konsepsiya muallifi D.Ryushemeer, haqiqatan ham ko‘plab jamoalarda an’anaviy va zamonaviy unsurlar o‘zaro chatishib ketib, bir necha yildan to bir necha avlodgacha mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan o‘ziga xos siyosiy-ijtimoiy tizimni yaratishini ta’kidlagan. Tadqiqotchining fikricha, eng salbiy holat an’anaviy va zamonaviy unsurlar birlashganda bir-birining samarali ishlashiga to‘sqinlik qilishi edi.

Qisman modernizatsiya ehtimoli an’anaviy jamiyatlarda zamonaviy ijtimoiy-madaniy amaliyotlar va qadriyatlarning paydo bo‘lishi bilan belgilanardi, boshqacha aytganda, rivojlanishning turli bosqichlarida bo‘lgan jamiyatlar o‘rtasidagi aloqa mavjudligiga bog‘liq edi. E’tiborli jihati shundaki, tarixiy tajriba qabul qiluvchi jamiyatlar murakkab institutsional va madaniy hodisalarni o‘zlashtira olish imkoniyatini ko‘rsatdi, holbuki bu jamiyatlar tegishli hodisalarni mustaqil ravishda yarata olmas edilar. D.Ryushemeer o‘zlashmalar turli sohalarda turlicha qarshilikka duch kelishini juda muhim deb hisoblagan. Zamonaviy tashkilotlar muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan, shaxslar ilgari mavjud bo‘lmagan rollarni o‘zlashtirgan bo‘lsalar-da, ular hamon ushbu mintaqa uchun an’anaviy bo‘lgan qadriyatlarga tayanishlari mumkin. Din ijtimoiy hayotning barcha muhim sohalarini belgilaydigan zaif tabaqalashgan jamiyatlarni modernizatsiya qilish o‘z oqibatlariga ko‘ra eng katta qiyinchilikni tug‘diradi. Bunday holatda an’anaviy tizim har qanday yangilikka qat’iy qarshilik

ko‘rsatadi, biroq yangiliklar g‘alaba qozonsa, butunlay qulab tushadi, bu esa misli ko‘rilmagan miqyosdagi ijtimoiy-madaniy falokatni keltirib chiqaradi[5].

Modernizatsiyaning ko‘p chiziqli modeli demokratiyani har qanday zamonaviy jamiyatning zaruriy unsuri sifatida ko‘rishdan voz kechadi. Bu yerda chuqur iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy islohotlarning tezlashtirilgan ketma-ketligi natijasida shakllanishi mumkin bo‘lgan muqobil ijtimoiy tizimlar sifatida bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan kapitalizm va sotsializm ham ko‘rib chiqiladi.

Modernizatsiyaning qisman va chiziqli modellari tarkibiy yondashuvga asoslanib, keng ko‘lamli ijtimoiy jarayonlar va hodisalarni o‘rganishga tayanadi. Shunday bo‘lsa-da, qisman modernizatsiya modeli oldingi modelga xos bo‘lgan inqilobiylik, murakkablik, tizimlilik, globallik, bosqichma-bosqichlik va qaytarilmaslik xususiyatlarini rad etadi.

1970-1990 yillar mobaynida modernizatsiya nazariyalari majmuasini qayta ko‘rib chiqish jarayoni modernizatsiya paradigmasiga xos bo‘lgan evolyusionizm va funksionalizmning umumiy tanqidi sharoitida kechdi. XX asrning 90 yillarida E.Tiriakyan[6], P.Shtompka[7], A.Turen[8], S.Xantington[9] va boshqa olimlar modernizatsiya konsepsiyalarining zamonaviy qoidalarini ishlab chiqish ustida tadqiqot olib bordilar. Natijada esa, zamonaviy ko‘p chiziqli modernizatsiya modeli ishlab chiqildi.

Ko‘p chiziqli modernizatsiya modeliga quyidagi xususiyatlar xos:

1. Modernizatsiyani G‘arb qadriyatlari va institutlariga yo‘naltirilgan islohotlar zanjiri sifatida tushunishdan voz kechish, milliy rivojlanish modellarini shakllantirish imkoniyati, islohotlar yo‘nalishini o‘zgartirish mumkin bo‘lgan “burilish nuqtalari”ning mavjudligi.

2. Modernizatsion o‘zgarishlarni amalga oshirish bosqichida ijtimoiy-madaniy an’ananing muhim o‘rnini mustahkamlash. Masalan, E.Tiriakyan modernizatsiya jarayonida dinning ijobiy roli masalasini ko‘taradi. Tadqiqotchining fikricha, din ommani maqsadga erishishga samarali tarzda safarbar qilishi va ayni paytda modernizatsion elitaga qonuniylik baxsh etishi mumkin. Shuningdek, din samarasiz siyosiy tuzumni qonundan tashqari deb e’lon qilishi va hukmron avtoritar rejimlarga qarshi turushni samarali rag‘batlantirishi mumkin. E.Tiriakyan o‘z fikrini tasdiqlash uchun Polsha, Eron, Filippin va boshqa mamlakatlardagi jarayonlarni misol qilib keltiradi, bu jarayonlar tadqiqotchining fikricha, dinning ijtimoiy o‘zgarishlar sohasidagi salohiyatini tasdiqlaydi.

3. Tashqi siyosiy omillarga katta e’tibor qaratiladi. XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asrning birinchi o‘n yilligidagi voqealar natijasida, S.Xantington rivojlanayotgan mamlakatlarni demokratlashtirish jarayonlarini o‘rganib, ushbu mamlakatlardagi o‘zgarishlarning muvaffaqiyati Amerika davlatining turli xil ta’siri kuchayishi bilan bog‘liq ekanligini aniqladi. Tadqiqotchi buning isboti sifatida Ikkinchi jahon urushi yakunidan keyin yuzaga kelgan vaziyatni keltiradi: demokratiya AQSh qo‘shinlari tomonidan ozod etilgan mamlakatlarda qaror topgan bo‘lsa, sovet armiyasi ketidan G‘arb tushunchasidagi nodemokratik tuzumlar o‘rnatildi. Shunday qilib, S.Xantingtonning fikricha, dunyoda demokratiyaning tarqalish darajasi eng kuchli demokratik davlatlarning hozirgi tashqi siyosiy faoliyati holatining natijasidir[10].

4. O‘zgarishlar jarayoniga sifat jihatidan ta’sir ko‘rsata oladigan jamoaviy va individual faollarga birinchi navbatda e’tibor qaratiladi (P. Shtompka[11]).

5. Transformatsiya sodir bo‘layotgan ijtimoiy holatning tarixiy jihati tahlil qilinadi. Siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi uyg‘unlik afzallik sanaladi, aks holda S.Xantington ta’rifiga ko‘ra “parchalangan mamlakatlar” vujudga keladi.

6. Modernizatsiya jarayonining davriy tabiati tan olinadi. Jadal islohotlar va davlatlararo hamkorlik davrlari ko‘pincha ijtimoiy qoniqish yoki charchoq tufayli turli xil turg‘unlik bilan almashishi mumkin. To‘liq o‘rganilmagan sabablarga ko‘ra, ba’zi hollarda barqarorlik davri har tomonlama inqirozga aylanadi, boshqa hollarda esa yangi keng ko‘lamli texnologik, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sakrashga zamin yaratadi.

7. Har tomonlama modernizatsiyada endi eng muhim soha ajratilmaydi, iqtisodiy, ilmiy yoki siyosiy voqelik ustunligidan voz kechiladi hamda modernizatsiyaning o‘zaro to‘ldiruvchi xususiyati mustahkamlanadi.

Shunday qilib, siyosiy modernizatsiyaning maqsadi hokimiyat va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning demokratik shaklini yaratish, aholining aksariyat qismiga eng muhim davlat qarorlarini qabul qilishga ta’sir ko‘rsatish imkonini beradigan ijtimoiy va siyosiy mexanizmlarni yo‘lga qo‘yish ekanligi e’tirof etilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**


1. Штомпка П. Социология социальных изменений. М., 1996. С. 56.
2. Красильщиков В.А. Модернизация и Россия на пороге XXI века// Вопросы философии. 1993. №7. С. 40-56.
3. Побережников И.В. Переход от традиционного к индустриальному обществу. М:, 2006. С. 77-95.
4. Красильщиков В.А. Вдогонку за прошедшим веком: Развитие России в XX веке с точки зрения мировых модернизаций. М., 1998. С. 27.
5. Модернизация: теоретические и методологические проблемы //www.hist.msu.ru/Labs/Ecohist/OB7/poberej.htm
6. Tiryakian E. Modernization in a Millenarian Decade: Lessons for and from Eastern Europe in Social Change and Modernization. Berlin. 1995.
7. Sztompka P. The Sociology of Social Change. Oxford and Cambridge: Blackwell, 1993.
8. Touraine A. Le voix et le regard: Sociologie des mouvements sociaux. Paris. 1993.
9. Huntington S. The Third Wave: Democratization in the Late Twentieth Century. University of Oklahoma Press. 1991.
10. Хантингтон С. Третья волна. Демократизация в конце XX века. М., 2003. С.40-41
11. Штомпка П. Социология социальных изменений. М., 1996.


## ABU RAYHON BERUNIY VA IBN SINONING TABIAT VA ATROF-MUHITGA OID QARASHLARI


**Toshturov Sh.E.-**
Navoiy davlat universiteti doktoranti, t.f.f.d., PhD



**Rezyume.** Ushbu maqolada IX-XI asrlarda islom olamida ilm-fan va madaniyatning yuksalishida movarounnahrlik olimlarning hissasi, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino kabi buyuk allomalarimizning asarlarida insonning tabiat va atrof-muhitga munosabatlariga oid qarashlari bayon etilgan.



**Kalit so‘zlar:** Somoniylar hukmronligi, “oltin davr”, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Kitob al-qonun fit-tibb”.



**Resume.** This article discusses the rise of science and culture in the Islamic world during the 9th-11th centuries, highlighting the peak of scholarly achievements by scholars from Mawarannahr. It elaborates on the views regarding human relationships with nature and the environment as reflected in the works of great thinkers such as Abu Rayhan Beruni and Abu Ali ibn Sina.



**Keywords:** Samanid dynasty, “Golden Age”, Abu Rayhan Beruni, Abu Ali ibn Sina, “The Remains of Past Nations”, “The Canon of Medicine”.


IX-XI asr Sharq xalqlari fani va madaniyatidagi ilmiy yuksalish, shubhasiz, ko‘p jihatlari bilan Markaziy Osiyo olimlarining samarali ijodi tufayli vujudga keldi. Bu davr oralig‘ida Markaziy Osiyo

mintaqasi shunchalik ko‘p buyuk olimlarni berdiki, ularsiz o‘rta asr sharq fanini umuman tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu davrlarda Markaziy Osiyoda kuchli markazlashgan Somoniylar sulolasi hukmronligi o‘rnatilishi natijasida barqaror muhitning o‘rnatilishi iqtisodiy taraqqiyotga ayniqsa, ilm-fan rivoji yuksak cho‘qqilarga ko‘tarilishiga olib keldi. Shu tariqa bir tomondan hududning tarixiy sharoiti bunga imkon tug‘dirsa, ikkinchi tomondan “islom falsafasidagi kuchli ratsionalistik va materialistik elementlar qadimgi dunyo g‘oyaviy boyliklarini o‘zlashtirishni osonlashtirdi va tabiiy fanlarning taraqqiyotiga yordam berdi”[1].

IX-XI asr musulmon madaniyatidagi umumiy madaniy yuksalish Movarounnahr va Xuroson olimlari ijodida o‘zining yuqori cho‘qqisiga ko‘tarildi. Ellinistik davrning oxirlarida fan va madaniyat o‘chog‘i Misrning Iskandariya shahriga to‘g‘ri kelsa, musulmon madaniyatining “oltin davri” hisoblangan IX-XI asrlarda fan va madaniyat rivoji Xuroson hamda Amudaryoning ortidagi o‘lka Movarounnahrga yoki zamonaviy istiloh bilan aytganda, Markaziy Osiyoga ko‘chib o‘tdi. O‘sha davrlarda Markaziy Osiyodan Muhammad al-Xorazmiy (783-850), Ahmad al-Farg‘oniy (taxminan 798-865), Muxammad Ismoil al-Buxoriy (810-870), Muhammad at-Termiziy (824-892), Abu Nasr al-Forobiy (873-950), Abu Rayxon al-Beruniy (973-1048), Ibn Sino (980-1037), Maxmud az-Zamaxshariy (1075-1114) kabi yirik allomalar yetishib chikdiki, ularning benazir aql-zakovati ona zamin dovrug‘ini olamga yoydi [2]. Ushbu allomalardan Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino o‘z asarlari orqali nafaqat diniy bilimlarni, qolaversa fan va madaniyatni rivojlantirishga xizmat qilib, insonning tabiat va atrof-muhitga munosabati haqida fikrlarini bayon etdi va biz bugungi kunda ularni rivojlangan o‘rta asrlardagi ekologiya, atrof-muhit va tabiatga oid qarashlar sifatida e’tirof etishimiz zarur.

Abu Rayhon Beruniy o‘z zamonasining barcha fanlarini puxta egallagan qomusiy olimi bo‘lib, 973 (hijriy 362) yilda Xorazmning qadimgi Kat shahrida tug‘ildi. Beruniyning o‘z davri ilm-fanining turli sohalariga oid 160 dan ortiq tarjimalari, turli hajmdagi asarlari va yozishmalari bizgacha ma’lum[3]. Alloma o‘rta asr Sharq ilm-fanining deyarli hamma sohasida astronomiya, matematika, jug‘rofiya, tarix, geodeziya, mineralogiya, farmakognoziya, falsafa, filologiya, hatto she’riyatda ham sezilarli iz qoldirgan. Beruniy dastavval yaratgan asarlarning eng yirigi “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” (“Osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya”) bo‘lib, mavzu doirasi, unda qamrab olingan material shunchalik boy, kengki, asarning biror bir aniq ilm sohasiga taalluqli ekanini aniqlab bo‘lmaydi. Alloma fikrichaga ko‘ra, Alloh yaratuvchi va u butun borliqni harakatga keltiradi, ammo u yaratgan va harakatga keltirgan dunyo keyinchalik tabiat qonuniga binoan rivojlanadi[4].

Beruniyning dunyoqarashiga kelsak, olim ko‘pchilik ilg‘or zamondoshlari kabi deizm (( *lotincha*, deus - xudo) - diniy falsafiy ta’limot bo‘lib, unga ko ‘ra xudo mukammal tabiat „mashinasi“ni yaratib, unga qonunlar va harakat baxsh etgan olamiy aql deb e’tirof qiladi, biroq tabiatning o‘z harakatlariga xudoning keyingi aralashuvini inkor etadi va xudoni bilish uchun aqldan o‘zga yo‘lni rad qiladi.) nuqtai nazarida bo‘lgan. Olimning fikricha, yaratuvchi bor, u biror dinning vakili emas, balki umumbashariy bo‘lib, butun bashariyatni yaratgan, harakatga keltirgan. Shunga ko‘ra hayot tabiat qonuniga binoan davom eta beradi. Tabiat esa qotib qolgan holda emas, balki doimiy harakatda, o‘zgaruvchandir[5].

Beruniyning tabiatdagi o‘zgarishlar va iqlim hodisalari haqida quyidagi fikrni ilgari suradi: “Bu oldindan bilish [ishi) obihavo va turli joylar iqlimining xilma-xilligi sababli har xil bo‘ladi. Bu jihatdan har bir joy uchun [alohida) qonun belgilash zarur bo‘lib, bir joy uchun belgilangan qonunga asoslanib bo‘lmaydi, chunki bu hamma [joy) uchun yarayvermaydi”[6]. Alloma tabiatdagi o‘zgarishlar, fasllar almashishi xususida to‘xtalib, “jonivorlarning bir-biridan nasllanishi, daraxtlarning hosil berishi, ekin va mevalarning paydo bo‘lishidan iborat [vaqt-vaqti bilan) aylanib keluvchi barcha hodisalar shu [aqlga sig‘maydiganlar) jumlasiga kiradi. Basharti (daraxtlar) ahvolidan xabarsiz bo‘lgan bir kishini barglari to‘kilgan daraxt oldiga olib kelib, daraxtning ko‘karishi, gullashi, meva qilishi va boshqalar

haqida unga tushunti rish imkoni bo‘lsa, albatta u o‘z ko‘zi bilan ko‘rmagunicha [bunday hodi sani) aqldan uzoq biladi”[7].

Beruniy odamzodning tashqi ko‘rinishi va faoliyati bevosita uni o‘rab turgan atrof-muhitga bog‘liq ekanligi haqidagi qarashlari allomaning insoniyat rivojlanishida tabiiy muhitning o‘rnini tushunishga xizmat qilgan. Ya’ni, “.... [odamlar) tuzilishlarining rang, surat, tabiat va axloqda turlicha bo‘lishi faqatgina nasablarning turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yerning [odam] yashaydigan joylarining turlichaligidan hamdir. Tillarning turlicha bo‘lishiga bo‘lishiga sabab odamlarning guruhlarga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli xohishlarini ifodalash uchun [zarur] bo‘lgan so‘zlarga ehtiyoj tug‘ilishidir” [8]. Allomaning fikriga ko‘ra, “tabiat g‘olibroqdir. Kishi otasi yo onasi, yoki otasining otasi bobosi umricha yashaganda, o‘ziga keladigan har bir baxtsizlikdan kuchli dalillar bo‘lmasa o‘tib ketolmaydi. Bu daraxtlar va ekinlarda ko‘rinib turadi, chunki ularning bir navi uzoq vaqt yashash bilan tanilgan bo‘lsa, boshqasi tez ofat yetish va qisqa muddat yashash bilan mashhurdir” [9].

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini o‘rta asrlar sharoitida dunyo madaniyatining oldingi qatoriga olib chiqqan buyuk mutafakkirlardan biri Abu Ali ibn Sino bo‘lib, u Yevropada “Avitsenna” nomi bilan mashhur. Ibn Sino 980 (hijriy 370) yil Buxoroning Afshona qishlog‘ida tavallud topadi va yoshligidan ilm-fanni o‘rganishga kirishadi. Ibn Sino asarlarining umumiy soni 450 dan oshadi, lekin bizgacha faqat 160 ga yaqini yetib kelgan[10]. Olimning tabobat bilan bog‘liq ilmlardan tashqari kimyo, mineralogiya, astronomiya, matematika, o‘simlik va hayvonot dunyosi, geologik jarayonlarni o‘rganish sohasida ham u yangi-yangi fikrlarni ilgari surdi. Ayniqsa uning 5 ta mustaqil katta asardan tashkil topgan tibbiyotga oid qomusiy asari “Kitob al-qonun fit-tibb” 800 yil davomida hakimlar uchun asosiy qo‘llanma bo‘lib keldi. Allomaning “Tib qonunlari” asarida tabiatda olov, suv, havo va tuproq kabi unsurlarning inson organizmiga ta’siri xususida quyidagicha bayon etadi: “Tabib, unsurlarning to‘rtta va to‘rttadan ortiq emasligi to‘g‘risida tabiatshunos olimlarga ishonsin! Unsurning ikkitasi yengil va ikkitasi og‘irdir. Yengillari olov va havo, og‘irlari suv va yerdir. Yer oddiy jism bo‘lib, uning tabiiy o‘rni hammaning o‘rtasidir. U, o‘z tabiati bilan o‘sha o‘rinda turadi, agar o‘z o‘rnidan ajrasa, yana o‘shanga tomon harakat qiladi. Yerning tabiati sovuq va quruqdir. Suvga kelsak, suv oddiy bir jism bo‘lib, tabiiy o‘rni bilan, yer va havo o‘z tabiiy o‘rinlarida bo‘lganlarida, yerni o‘raydi va havoga o‘ralib turadi. Shunday o‘rinda bo‘lishi uning nisbiy og‘irligidir. sovuq va ho‘ldir. Havo oddiy bir jismdir. Tabiiy o‘rni suvdan yuqori, olovdan pastdadir. Shunday bo‘lishiga sabab nisbiy yengilligidir. Tabiati, yuqorida aytganimizcha, issiq va ho‘ldir. Havoning koinotda mavjudligi bor narsalarning siyraklanishi, latif bo‘lishi, yengil bo‘lishi va ko‘tarilishi uchundir” deya o‘z qarashlarini bayon etadi[11].

Ibn Sino “Tib qonunlari”da atmosfera havosining tozaligi kishilarning sog‘ligiga ta’sir etuvchi eng muhim unsur ekanligini ta’kidlab, ko‘plab kasalliklarga sabab bo‘lishini ta’kidlab o‘tadi. Xususan, “Biz havo deganda oddiy, hech narsa bilan aralashmagan havoni tushunmaymiz, chunki bizni o‘rab turgan havo unday emas. “Havo” deganda biz fazoga tarqalgan shunday bir jismni tushunamizki, u jism haqiqiy havo, suv bug‘lari bo‘lakchalari, chang va dud bilan ko‘tarilgan yer bo‘lakchalari va olov bo‘lakchalari aralashmasidan tashkil topgandir. To‘qay suvi sasib moddasi yomonlashganidek, havo ham ba’zan sasiydi va moddasi yomonlashadi. Havoning sasishi va vabo paydo bo‘lishi ko‘pincha yozning oxirida va kuzda bo‘ladi. Havo o‘zgarishi natijasida [odam] badanida ham turli o‘zgarishlar paydo bo‘ladi” [12].

Xulosa qilib aytganda, Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino kabi buyuk ajdodlarimiz asarlarida tabiat haqidagi fanlar rivojiga ham katta hissa qo‘shganlar. Ular tabiat qonuniyatlarini, o‘simlik va hayvonot dunyosini har tomonlama chuqur o‘rganib, atrofimizni o‘rab turgan muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga chaqirganlar.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sulaymonova F. Sharq va G‘arb (Qadimiy davr va o‘rta asrlar madaniy aloqalari). T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 1997. -B.205

2. Abduhalimov B.A. “Bayt al hikma” va O‘rta Osiyo olimlarining Bog‘doddagi ilmiy faoliyati. (IX-XI asrlarda aniq va tabiiy fanlari). T.:Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2004. -B.8.

3. O‘zbekiston tarixi (1-kitob). Ma’sul muharriri A.S.Sa’dullayev. -T.: Fan., 2018 y. -B.376.

4. Sulaymonova F. Sharq va G‘arb (Qadimiy davr va o‘rta asrlar madaniy aloqalari). T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 1997. -B.238-239

5. Sulaymonova F. Sharq va G‘arb (Qadimiy davr va o‘rta asrlar madaniy aloqalari). T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 1997. -B.245

6. Al-Beruniy, Abu-r-Rayhon Muhammad ibn Ahmad. Asarlar. /Tarjimon A. Rasulov. Izohlarni I. Abdullayev va A. Rasulov tuzgan. Mas’ul muharrirlar: I. Abdullayev va O. Fayzullayev/. T. «Fan», 1968. -B.94.

7. Al-Beruniy, Abu-r-Rayhon Muhammad ibn Ahmad. Asarlar. /Tarjimon A. Rasulov. Izohlarni I. Abdullayev va A. Rasulov tuzgan. Mas’ul muharrirlar: I. Abdullayev va O. Fayzullayev/. T. «Fan», 1968. -B. 113.

8. Al-Beruniy, Abu-r-Rayhon Muhammad ibn Ahmad. Asarlar. /Tarjimon A. Rasulov. Izohlarni I. Abdullayev va A. Rasulov tuzgan. Mas’ul muharrirlar: I. Abdullayev va O. Fayzullayev/. T. «Fan», 1968. -B. 236.

9. Al-Beruniy, Abu-r-Rayhon Muhammad ibn Ahmad. Asarlar. /Tarjimon A. Rasulov. Izohlarni I. Abdullayev va A. Rasulov tuzgan. Mas’ul muharrirlar: I. Abdullayev va O. Fayzullayev/. T. «Fan», 1968. -B. 116.

10. O‘zbekiston tarixi (1-kitob). Ma’sul muharriri A.S.Sa’dullayev. -T.: Fan., 2018 y. -B.378.

11. Ibn Sino, Abu Ali. Tib qonunlari: (Uch jildlik saylanma). (Tuzuvchilar: U.Karimov, H.Hikmatullayev). J.1. T.:, A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. -B. 14.

12. Ibn Sino, Abu Ali. Tib qonunlari: (Uch jildlik saylanma). (Tuzuvchilar: U.Karimov, H.Hikmatullayev). J.1. T.:, A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. -B. 44.

## “HUDUD UL-OLAM” ASARI MARKAZIY OSIYO UYG‘ONISH DAVRINING ILMIY MEROSI SIFATIDA

**Xudayberdiyev Ikrom-**
TIFT o‘qituvchisi (PhD)

**Annotatsiya.** *Maqolada “Hudud ul-Olam” asarining tuzulishi, bizgacha qanday yetib kelganligi, bosqichlari va uning Markaziy Osiyo uchun qanchalik ahamiyatli ekanligini yoritilgan. Shuningdek, asardan parchalar berish orqali ayrim atamalarning kelib chiqishi va “Hudud ul-Olam” asarida berilgan toponomik joylarni qisman yoritish orqali uning ilmiy yo‘nalishlarning bir qanchasiga mos kelishi isbotlangan. Maqola keltirilgan tarjimalar aynan asarning o‘zidan olingan. Bu uning ilmiy isbotlanganligini belgilaydi.*

## THE WORK "HUDUD UL-OLAM" AS A SCIENTIFIC HERITAGE OF THE CENTRAL ASIAN REVIVAL PERIOD.

**Abstract.** *The article discusses the composition of the work "Hudud ul-Alam", how it came to us, its stages, and its significance for Central Asia. It also provides excerpts from the work, explaining the origin of some terms, and partially explaining the toponomic places given in the work "Hudud ul-*

*Alam" to prove its correspondence to a number of scientific directions. The translations given in the article are taken from the work itself. This determines its scientific provenance.*

"Hudud ul-Olam" asari kim tomonidan yozilgan hozirgi kungacha aniq emas, lekin manbashunoslar va tarixchilar tomonidan asar Ibn Farg'uniy tomonidan yozilgan deb tahmin qilinadi.[96] Bu tahmin 1937-yilda Fyodorovich Vladimir Minorskiy tomonidan asarning ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida vujudga kelgan. Asar 982-983 yillarda yozilgan, keyinchalik yagona qo'lyozma nusxasi 1892-yilda Abdulfozil Gulpoygoniy tomonidan Buxoro hududlarida topilgan. 1893-yilgacha A.G.Tumaniskiy kutubxonasida saqlangan. 1924-yilga kelib asar Osiyo muzeyi fondiga topshirilgan. Asar jami 60 bobdan iborat bo'lib, asar ensiklopedik asar sifatida tan olingan va o'rganilgan.

"Hudud ul-Olam" asarining to'liq nomi "Hudud ul-Olam minal Mashriq ilal Mag'rib" hisoblanadi.[97] Ushbu asarning o'zbek tilidagi tarjimasi "Dunyoning sharqdan g'arbgacha chegaralari" deb tarjima qilinadi. Ushbu asar geografik asar hisoblanib, Markaziy Osiyo tarixining rivojlanish jarayonidagi ko'plab toponomik va geografik ma'lumotlarni o'zida jamlagan.

Asar rus sharqshunosi A.G. Tumanskiy tomonidan o'rganilgan bo'lib, 1893-yilda "Ukraina" gazetasida "Hudud ul-Olam" va Samarqand tarixi haqida parchalar keltirilgan. Shuningdek, asar V.V. Bartold tomonidan ham o'rganilgan bo'lib, o'zining "Tamaniskiy maqolasi" nomli mqaola yozadi vaasarning bir bobini tarjima qilmagan holatda maqolaga ilova qiladi. V.V Bartold ushbu asarni tarjima qilish imkoniyatiga ega bo'lib, asardagi ayrim toponomik ma'lumotlar juda ham mujmal berilganligi uchun asarni tarjima qilmagan. Asar nafaqat tarixiy-geografik balki, filologlar, arxeologlar, ekologlar uchun ham birlamchi manba bo'lib xizmat qiladi. Bu holat asar yozilgan davrda fanning turli sohalarga ajiratilishi yoki mustaqil fan mavjud bo'lmaganligi bilan ham izohlash mumkin. Shuning uchun asar umumiy konseptual xarakterga ega hisoblanadi. Bu uning hozirgi kundagi qiymatini oshirish bilan birga, mavjud ko'plab soha tadqiqotchilarini o'ziga jalb qiladi. Asarning tarjima qilish va o'rganish jarayonida tur xil leksik birikmalar va boshqa tilga tarjima qilinganda o'sha tildagi ekvivalentga ega bo'lmagan birikmalar ham mavjud. Bu keyinchalik prototerminlarni o'rganish, ularni ilmiy muomalaga kiritish kabi masalalarning mavjudligini ko'rsatadi.

Tarixchi va sharqshunos tadqiqotchi sifatida "Hudud ul-olam" asarida "afg'on" atamasining kelib chiqishi va hozirgi Afg'oniston hududlariga to'g'ri keluvchi geografik joy nomlari bilan bog'liq salmoqli ma'lumotlarni o'z ichiga olganligi asarning ilmiy qiymatini yanada oshirgan deb hisoblayman.

Asarda X asrda Sulaymon tog'laridagi afg'onlar musulmon bo'lmaganligi, VII-X asrlarda Sulaymon tog'lari atrofida, Gura va boshqa bir qator hozirgi Afg'onistonning borish qiyin bo'lgan hududlarda soxta e'tiqodlar saqlanib qolganligi haqida ma'lumotlar uchraydi. X asrda fanga kiritilgan manbalarda afg'onlarga oid birinchi shubhasiz tarixiy manba sifatida "Hudud ul-olam"dagi ma'lumotlarni hisobga olish kerak. Asarda G'azna va Hindiston o'rtasidagi aholi punktlarini sanab o'tish va qisqacha tavsiflashda "afg'onlar" (afg'on) atamasi ikki marta uchraydi: birinchi marta Saval qishlog'i aholisi nomi sifatida va ikkinchi marta Banihor (mahalliy) hukmdorining xotinlari orasidan ayollarga nisbatan afg'on so'zi ishlatilgan. G'azna va Hindiston o'rtasidagi hududlar, shahar va qishloqlarning tasvirlanish tartibi quyidagicha: Gardez, Saval, Husayn, Banihor, Xivon, Jolut va Balut, Biruza (Multonda). Gardez G'azna va Hindiston chegarasida joylashgan shahar sifatida belgilangan. Gardezda qal'a borligi va uning aholisi xorijiylar ekanligi ko'rsatiladi. Saval tog'ida joylashgan qishloq o'zining go'zal tabiati bilan tavsiflanadi. Aynan ushbu qishloq haqida gap ketgan, u yerda afg'onlar borligi eslatib o'tiladi.

[96] Hudud ul-olam (Movraunnahr tavsifi) / Fors tilidan tarjima, so'z boshi, izohlar va joy nomlari ko'rsatkichi. Tarjima Omonulla Bo'riyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – B. 12.

[97] Xoliqulov A.Y. Ilk o'rta asrlarda sug'dda bozorlar taraqqiyoti. SamDu ilmiy axborotnomasi. No 2/2 2023.

“Hudud ul-olam” asarida G‘uzgon tog‘laridan oltin va kumush, temir, mis kabilar qazib olinganligi ko‘rsatilgan. Gurda temir va mis, Toxaristonda qo‘rg‘oshin, oltingugurt va boshqa metallar va minerallar, Badaxshonda esa qimmatbaho toshlar qazib olinganligi haqida ma’lumotlar mavjud. Hunarmandchilikning rivojlanishi karvon savdosining o‘sishiga yordam berdi. Karvon yo‘llari ustida joylashgan shaharlar muhim hunarmandchilik va savdo markazlariga aylandi. Mahalliy savdogarlar O‘rta yer dengizi mamlakatlariga, Hindiston va Xitoyga sayohatlar qildilar. Ma’sudiyning aytishicha, Xurosonda So‘g‘d o‘lkasidan Tibet va Xitoyga o‘tayotgan ko‘plab odamlarni ko‘rganini va Xitoyga ko‘p marta borgan bir chol bilan Balxda uchrashganini eslab, bu chol hech qachon dengiz orqali o‘tmaganligini ta’kidlaydi. “Hudud ul-olam”da Banihor va Biruza (Multon) o‘rtasidagi shaharlarni qo‘shimcha sanab o‘tishda avval Xivon, keyin esa Jolut va Balut nomlari keltirilgan. Jolut va Balut shaharlari haqidagi ma’lumotlarga ko‘ra, ular tog‘ cho‘qqilarida, yo‘lning o‘ng va chap tomonida joylashgan bo‘lib, daryo bilan bo‘linadi. Xivon hududining qayerda bo‘lganligini hozircha aniqlashning iloji yo‘q. Tahminlarga ko‘ra, uni Dara Ismoilxon tumanidagi Hind daryosining o‘ng qirg‘og‘ida (Bannudan Multonga boradigan yo‘lda) qal’a xarobalari orqali aniqlash ehtimoli bor. XIX asrda bu hudud mahalliy aholi orasida Balut yoki Balot deb nomlangan.

Tohiriylar va Somoniylar davrida Balx ularning mulkidagi eng yirik shaharlardan biri edi. X asrda kattaligi bo‘yicha Somoniylar poytaxti Buxorodan kam bo‘lmagani haqida ma’lumotlar bor[98]. Balxdan muhim karvon yo‘li o‘tgan bo‘lib, O‘rta Osiyodan Hindistonga, Kobul orqali Hindistonni Xitoy bilan bog‘laydi. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, Hindiston bilan savdoning eng muhim markazi Kobul bo‘lgan. Seyistondagi Busg shahri Hindistonga savdo yo‘lida asosiy tranzit nuqtasi bo‘lib xizmat qilgan. Tolqon katta Shahar bo‘lib, IX asrda u shu qadar keng ediki, unda ikkita masjidi bor edi. Bu shaharda ishlab chiqarilgan jun matolar juda mashhur bo‘lgan[99]. Tolqondan sharob va namatlar ham eksport qilingan.

“Hudud-ul olam” asari ko‘plab ilmiy yo‘nalishlarini o‘z ichiga olganligi asarning bugungi kundagi ahamiyatini oshiradi. Shuningdek, asar nafaqat O‘zbekiston tarixi uchun ahamyatli balki, Markaziy Osiyo davlatlari va ularning tarixdagi tashqi aloqalari, madaniyatlarning almashinuvi, etnoslarning shakllanishi, toponomik ma’lumotlar va boshqa ilmiy asoslangan xulosa, fikrlarni yuzaga kelishida asosiy, birlamchi manba bo‘lib xizmat qiladi.

REFERENCES.

1. Hudud ul-olam (Movraunnahr tavsifi) / Fors tilidan tarjima, so‘z boshi, izohlar va joy nomlari ko‘rsatkichi. Tarjima Omonulla Bo‘riyev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – B. 12.
2. Xoliqulov A.Y. Ilk o‘rta asrlarda sug‘dda bozorlar taraqqiyoti. SamDu ilmiy axborotnomasi. No 2/2 2023.
3. Бартольд В.В. Сочинения Том 1 Туркестан в эпоху монголького нашествия. С. 298.
4. Бартольд В.В. Сочинения Том 7 Исторической географии и истории Ирана. С. 345.

[98] Бартольд В.В. Сочинения Том 1 Туркестан в эпоху монголького нашествия. С. 128
[99] Бартольд В.В. Сочинения Том 7 Исторической географии и истории Ирана. С. 26-27.

# JAMIYAT BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA GENDER TENGLIGI MASALASI

**Pulatov Jaxongir Nazirovich-**
Navoiy viloyati PMM dotsenti

**Annotatsiya:** maqolada inson, uning huquq va imkoniyatlari, xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni, xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura, madaniyat, ta’lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo‘ladigan **ijtimoiy jihatlariga** oid tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so‘lar:** adolat, huquq, tenglik, emansipatsiya, so‘z, fikr erkinligi.

Gender tengligi va jinsiy tenglik, aniqrog‘i, erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tenglik — bu oilada va jamiyatda erkaklar va ayollar o‘rtasida teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlar. Ba’zi tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra gender tengligi — bu patriarxal tizimdan keyingi ijtimoiy-jinsiy munosabatlarning keyingi bosqichi. Gender tengligi tamoyili insonning shaxs sifatida paydo bo‘lishiga to‘sqinlik qiladigan barcha ijtimoiy to‘siqlarni o‘rganish va yo‘q qilish, shuningdek, hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollar shaxsiyatini anglash uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iborat hisoblanadi.

O‘zbekiston gender tengligi ko‘rsatkichi ro‘yxatida 2019-yildan boshlab qatnashishni boshladi. 2019-yil holati bo‘yicha O‘zbekistonning gender tengligi ko‘rsatkichi ro‘yxatdagi 189 mamlakat ichida 62-o‘rinni egalladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg‘armasi (UNFPA) ekspertlarining fikriga ko‘ra, O‘zbekistondagi har 100 000 dan 29 ayol gender tengsizlik tufayli vafot etishi ko‘rsatilgan. O‘zbekistonda 2019-yil 2-sentabrda 562-sonli O‘zbekiston Respublikasi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilingan. O‘zbekistonda Gender tenglik bo‘yicha Komissiya 2019-yildan boshlab ish yuritib keladi.

Barchaga ma’lum, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015- yilning sentabrida Barqaror rivojlanish bo‘yicha o‘tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-son rezolyusiyasiga muvofiq, shuningdek, 2030 yilgacha bo‘lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Barqaror rivojlanishning Beshinchi maqsadini amalga oshirish doirasida “Gender tenglikni ta’minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish”ga oid to‘qqizta vazifani ishlab chiqdi. “Keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq-manfaatlarini, gender tenglikni ta’minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o‘rinlarini yaratish, mehnat hamda turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi”[100]. Shuningdek, Barqaror rivojlanishning beshinchi maqsadning vazifalariga (Gender tenglik) muvofiq, 2030-yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to‘liq va samarali ishtirokini va yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni ta’minlash zarur. Bundan tashqari, ushbu maqsad davlatning turli darajalarida Davlat dasturlarini qabul qilish jarayonida gender tenglik tamoyillarini joriy qilishni o‘z ichiga oladi.

So‘nggi yillarda gender tenglikni ta’minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish bo‘yicha ishlar bir necha yo‘nalishlarda olib borilmoqda:

- ayollar huquqlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish;
- ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini takomillashtirish;

[100] Mirziyoyev Sh. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”, T:. “O‘zbekiston”, 2021 y. 247-b.

- aholining gender tenglik va ayollar huquqlari to‘g‘risida xabardorligini oshirish;
- huquqni qo‘llash amaliyotida ularga rioya etilishini ta’minlash uchun mas’ul mansabdor shaxslarni tegishli huquqiy me’yorlar asosida o‘qitish. Gender tengligini joriy qilish nuqtai nazaridan ta’limdagi ijobiy siljishlarni alohida ta’kidlash kerak. Ya’ni, 2017- yildan boshlab aksariyat oliy o‘quv yurtlarida turli mutaxassisliklar bo‘yicha sirtqi bo‘limlar faoliyati tiklandi. Ta’limning ushbu shakli yosh ayollarga bolalarni parvarish qilish va boshqa oilaviy majburiyatlarni bajarishga xalal qilmasdan oliy ma’lumot olish imkoniyatini beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki, qabul qilinayotgan u yoki bu darajadagi hujjatlarning ayollar va erkaklar uchun bir me’yorda bo‘lishiga erishish uchun qonunchilikning gender ekspertizasini o‘tkazish majburiyligini ta’minlash muhimdir. O‘z navbatida, biznes inkubatorlari bilan bir qatorda, ayollarni ta’lim va fan sohasida rag‘batlantirish, shuningdek, STEM (Fan, texnologiya, muhandislik, matematika) laboratoriyalar yaratish orqali ularni tabiiy va texnik fanlar sohasiga jalb qilish choralarini ko‘rish zarur, bu o‘z navbatida ayollarning bandligini, zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. O‘zbekiston Respubikasi Konstitutsiyasi, 2023 –yil.
2. Mirziyoyev Sh. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”, T:. “O‘zbekiston”, 2021-yil, 19 b.
3. Mirziyoyev Sh. “Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari”, T:. “O‘zbekiston”, 2020 y. 381-b.


## ЁШЛАР ТАРБИЯСИДА МАРКАЗИЙ ОСИЁ МУТАФАККИРЛАРИ ИЛМИЙ-МАЪНАВИЙ МЕРОСНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ


**Ш.Б.Туробова-**
НавДУ катта уқитувчиси



РЕЗЮМЕ. Ушбу мақолада таълим- тарбия жараёнида Марказий Осиё мутафаккирлари илмий-маънавий мероснинг ўрни ва аҳамияти ҳақида фикр юритилади.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассматривается роль и значение научного и духовного наследия мыслителей Средней Азии в процессе образования.

RESUME. This article examines the role and significance of the scientific and spiritual heritage of Central Asian thinkers in the educational process


Замонавий жамиятнинг энг муҳим характерли жиҳати унинг барча соҳаларида глобаллашувнинг кўзга ташланаётганлигидир. Глобаллашув ўз-ўзидан тезкор ҳаракатланиш, зарур ахборотларни зудлик билан қўлга киритиш, уларни қайта ишлаш ва амалиётга самарали тадбиқ қилишни тақозо этади. Бу тарзда ҳаракатланиш имкониятига ўз соҳасининг билимдони бўлган, касбий малакаларни юқори даражада эгаллай олган, бой тажриба ва маҳоратга эга бўлган кадрларгина эришадилар.Шундай экан, таълимнинг барча босқичларида, таълим муассасаларида кадрларни тайёрлаш жараёнида даврнинг мазкур талабини инобатга олиш мақсадга мувофиқдир.Баркамол авлод тарбиясида Марказий Осиё уйҳониш даври мутафаккирларининг бой маънавий - илмий меросидан фойдаланиш давр талаби сифатида,бу борада Ўзбекистон Республикасининг Призиденти Ш.М.Мирзиёев шундай дейди:

“Буюк тарихда ҳеч нарса изсиз кетмайди. У халқларнинг қонида, тарихий хотирасида сақланади ва амалий ишларда намоён бўлади. Шунинг учун ҳам у қудратлидир.Тарихий меросни асраб-авайлаш,ўрганиш ва авлодлардан-авлодларга қолдириш давлатимиз сиёсатининг энг муҳим устивор йўналишларидан биридир. Янги таҳдидлар,жумладан, ”оммавий маданият” хавфи ва боқимандалик кайфияти пайдо бўлаётан,одоб-ахлоқ

қадриятларининг йўқолиш хавфи юзага келаётган ҳозирги глобаллашув шароитида бу ғоят муҳим аҳамият касб этмоқда.Шу сабабли, менинг фикримча,инсон маънавий олами, халқлар маданиятини белгилайдиган манбаларни асраб-авайлаш ва бойитиш бугунги кунда ҳар қачонгидан ҳам муҳимдир”[101]Юртимиз қадимдан илм-фан ва маданиятнинг ўчоғи бўлиб келган. Хусусан, заминимизда камол топган Марказий Осиё халқлари илмий- маънавий мероси бугунги кунда қимматли хазина бўлиб хизмат қилади. Улар олиб борган илмий изланишларда инсон руҳиятининг маънавий юксакликка интилиши, тинчлик-фаровонлик, миллатлараро тотувлик ва бағрикенглик, яратувчанлик, юрт ободлиги каби эзгу ғоялар мужассам. Дарҳақиқат, бизнинг маданиятимиз умуминсоният хазинасини бойитган улкан хазина бўлиб, Самарқанд, Бухоро, Хива шаҳарлари фақат олимлар ва санъат ихлосмандлари учунгина эмас, балки тарих ҳамда маданий меросимиз билан қизиқувчилар учун ҳам зиёратгоҳга айланган. Ватанимизнинг нафақат Шарқ, балки умумжаҳон цивилизацияси бешикларидан бири бўлгани халқаро миқёсда кенг тан олинмоқда. Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг илмий, тарихий ва фалсафий мероси, уларнинг замонавий илм-фанлар шаклланиши ҳамда ривожланишига қўшган улкан ҳиссасига оид масалаларни эътироф этмоғимиз мақсадга мувофиқ.

Жоҳиллар шаҳрининг аҳолиси, бахт-саодатга интилмайди, бахт-саодат нималигини билмайди ҳам. Чунки, жахолатдаги одамлар хеч қачон бахт топмаган ва бахт-саоатга ишонмайди ҳам. Фаровонликка келсак, жаҳолатдаги одамлар баъзилар назарида бахту-давлат бўлиб кўринадиган ўткинчи, юзаки нарсаларни, мол-дунёни, жисмоний лаззатларни, ҳирсу-шавкатни, обру, амал, шон-шуҳратни ҳақиқий бахт, фаровонлик деб уйлайдилар. ”[102]

Мутаффаккир фикрига кўра, барча нарсанинг калити жумладан фаровонлик ва бахтга эришишнинг асоси ҳам илм-маърифат бўлиб, шу асосда жамиятдаги ҳар қандай ёвуз иллатларни йуқ қилиш мумкинлиги таъкидланади. Юқорида таъкидланганидек,маънавий таҳдидлар ва ахборот хуружлари кучайган бугунги глобаллашув жараёнида ёшларни мафкуравий иммунитетини шакллантириш, уларда миллий ўзликни англаш туйғусини такомиллаштириш давр талаби бўлиб, Марказий Осиё халқлари илмий- маънавий меросидан ўрин олган бу ноёб қадриятлар ҳуқуқий демократик жамият тамойилларига ҳамоҳанглиги билан қимматли бўлиб баркамол авлод тарбиясида ватан равнақи, мамлакат осойишталиги, жамият барқарорлигини таъминлашда муҳим аҳамият касб этади.

## ЎЗБЕКИСТОН ДИНИЙ БАГРИКЕНГЛИК БОРАСИДА НАМУНА

**Сувонова Насиба Мардоновна-**
Навоий давлат университети ижтимоий фанлар кафедраси катта ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада барқарор ривожланишнинг энг устувор омилларидан ҳисобланмиш маданий, иқтисодий, сиёсий ва ижтимоий гуманитар соҳаларда амалга оширилаётган ислоҳотларнинг туб моҳиятини тўғри англаш, талқин этиш каби кун тартибидаги асосий вазифалар хусусида сўз боради. Шунингдек, жамиятимиздаги этник муаммоларни ижобий ҳал қилиш борасидаги ҳам фикр-мулоҳазалар юритилган.

Annotation: This article talks about the main tasks of the agenda, such as the correct understanding and interpretation of the fundamental nature of the reforms implemented in the cultural, economic, political and social humanitarian spheres, which are considered to be the most important

[101] Ш Мирзиёев “Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кутарамиз” Т.Узбекистон 2017 1-жилд 29- бет

[102] Абу Наср Фаробий „Фозил одамлар шаҳри’’ Т.А . Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти 1993 й 161-162 б.

factors of sustainable development. There were also comments on the positive solution of ethnic problems in our society.

"Диний бағрикенглик" атамаси одатда динлар орасидаги ўзаро ҳурмат, тинчлик ва барқарорликни назарда тутади. Бу турдаги бағрикенглик одамларнинг диний эътиқодларига қарамасдан, улар ўртасида ўзаро ҳурмат, тинчлик ва ҳамжиҳатликни сақлаш маъносини ифодалайди. Демак, динлараро бағрикенглик ўз ўрнида динлар, конфессиялар ва маданиятлар орасидаги зиддиятларнинг олдини олиш, барқарор ва ўзаро тўғри муносабатларни қуриш учун муҳимдир.

Мамлакатимизда бир юз ўттиздан ортиқ миллат ва элат вакиллари ягона оила фарзандларидек аҳил яшайди. Ана шундай кўп сонли миллат ва элат вакилларининг биргаликда, ҳамкор ва ҳамжиҳат бўлиб умр кечириши натижасида уларнинг ҳар бири маънавий ва маданий жиҳатдан бойиб, ўзаро муносабатлар таъсирида кўп миллатли халқимизнинг турмуш тарзи янада юксалмоқда. Шунингдек,уларнинг конституциявий ҳуқуқ ва эркинликлари, қонуний манфаатларини таъминлаш, таълим олиши, ўз қизиқиши ва лаёқати бўйича касб-ҳунар эгаллаши, меҳнат қилиши учун барча шарт-шароитлар яратилган. Айни пайтда турли миллат ва элатларнинг миллий анъана ва қадриятларини асраб-авайлаш, уларни янада ривожлантириш, бойитиш масаласи давлатимизнинг доимий эътиборида бўлиб келмоқда. Умумий ўрта таълим мактабларимизда етти тилда-ўзбек, қорақалпоқ, рус, қирғиз, туркман. қозоқ ва тожик тилларида билим берилаётгани, шунингдек, оммавий ахборот воситалари Ўзбекистонда истиқомат қилаётган миллатларнинг ўнта тилида фаолият олиб бораётгани бунинг ёрқин ифодасидир. Республикадаги православ эътиқодига амал қилувчилар учун “Слово жизни” газетаси, “Восток свыше” журнали, шунингдек, ибодат маърузалари ва бошқа маърифий нашрлар чоп этиляпти. Мамлакатимизда истеъқомат қилаётган барча миллат ва элат вакилларининг ўз она тилида ўқиши учун кенг имкониятлар яратилгани, олий ўқув юртлари, касб-ҳунар коллежлари, академик лицей ва мактабларда барча миллат вакиллари учун тенг шарт-шароитлар яратилгани, кўплаб тилларда газета ва журналлар чоп этилиб, телекўрсатув ва радиоэшиттиришлар олиб борилаётгани бу борадаги фаолиятнинг яққол далилидир. Мустақиллик йилларида республикамизда юзлаб масжидлар, черковлар, синагога ва ибодат уйлари қурилди ва қайта таъмирдан чиқарилди. Улар қаторида Тошкентдаги “Ҳазрати Имом” мажмуи, вилоят марказларидаги жомеъ масжидлар, Тошкентдаги Рус православ черковлари, шунингдек, буддавийлик ибодатхонаси, Самарқанддаги Арман Апостол черкови, Қорақалпоғистон Республикасидаги “Султан Вайс бобо” ва “Мухаммад Норимжоний” зиёратгоҳлари, “Пантейлемон” черкови ва бошқаларни кўрсатиш мумкин. Юртимизда Амир Темур, Мирзо Улуғбек, Алишер Навоий, Бердақ, Ажинияз ҳайкаллари қаторида Ганжавий, Руставели, Пушкин, Шевченколарнинг ҳайкаллари ҳам кўча ва майдонларимизга файз бахш этиб турибди. Буларнинг барчаси динлараро бағрикенглик ва миллатлараро тотувликнинг кўринишидир.

Ўзбекистонда диний бағрикенглик ва миллатлараро тотувлик тарихий илдиз ва мустаҳкам қонуний асосларга эга бўлиб, дунёвий давлат ва дин орасидаги муносабатларнинг мустаҳкам ҳуқуқий асослари яратилган. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 31-моддасида “Ҳамма учун виждон эркинлиги кафолатланади. Ҳар бир инсон хоҳлаган динга эътиқод қилиш ёки ҳеч қайси динга эътиқод қилмаслик ҳуқуқига эга. Диний қарашларни мажбуран сингдиришга йўл қўйилмайди” деб белгиланган. Ушбу моддани амалга ошириш механизми 1998 йил 1 майда қабул қилинган “Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида”ги Қонунида кенг ёритиб берилган. Унинг 3-моддасига кўра, Виждон эркинлиги фуқароларнинг ҳар қандай динга эътиқод қилиш ёки ҳеч қандай динга эътиқод қилмасликдан иборат кафолатланган конституциявий ҳуқуқидир. Шунингдек, Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон

декларациясининг 18-моддасида: “Ҳар бир инсон фикр, виждон ва дин эркинлиги ҳуқуқига эга,бу ҳуқуқ ўз дини ёки эътиқодини ўзгартириш эркинлигини ва таълимотда, тоат ибодат қилишда ва диний расм-русум ҳамда маросимларни оммавий ёки хусусий тартибда адо этиш, ўз дини ёки эътиқодига якка тартибда, шунингдек бошқалар билан бирга амал қилиш эркинлигини ўз ичига олади”, деб белгиланган. БМТ томонидан динлараро бағрикенглик ғоясини бутун дунёга тарғиб этиш мақсадида 2011 йилнинг 1-7 февраль кунларини бутун жаҳонда “Динлараро муносабатлар уйғунлиги бутунжаҳон ҳафталиги” деб эълон қилган эди.

Мамлакатимизда олиб борилаётган кенг кўламли ислоҳотларнинг асосий тамойилларидан бири бу - инсон эрки ва манфаатларини ҳимоя қилишга қаратилган. Президентимиз Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек: “Барчамизга яхши аёнки, инсон манфаатларини юрт тинчлиги, жамиятимиздаги ўзаро ҳурмат, меҳр-оқибат ва ҳамжиҳатлик муҳитидан ажратган ҳолда тасаввур этолмаймиз. Буларнинг барчаси бизнинг бебаҳо бойлигимиз ва уни кўз қорачиғидек асраш ҳар биримизнинг муқаддас бурчимиздир1”.

Мамлакатимизда мустақиллигимизнинг дастлабки йиллариданоқ Ўзбекистон ҳудудида истиқомат қилувчи турли миллат вакиллари учун ҳамжиҳатлик рамзи бўлган барқарор ва бирлик стратегияси ишлаб чиқилди ҳамда бу лойиҳани бир қанча қардош мамлакатлар ҳам қўллаб-қувватлашди. Президентимиз Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек, Ўзбекистон бошқа давлатлар билан сиёсий жиҳатдан рақобатлашмайди, аксинча, аҳил қўшничилик муносабатларини янада мустаҳкамлаштириш орқали бирдамлик ва якдиллик ғояларни ёқлайди. Зеро, муқаддас Қуръони Каримда таъкидланганидек: “Мўминлар, ҳеч шак-шубҳасиз оға-инидирлар2”. Уларнинг ораларига биродарлик солган Зот Ҳақ Таолонинг Ўзидир. У боғлаган ришта ҳеч қачон узилмайди3. Миллатлараро тотувлик ва ҳамкорликни мустаҳкамлаштириш масаласи юртимиз сиёсий ҳаётидаги энг муҳим, шу билан бирга устувор вазифаларидан ҳисобланади. Шунингдек, жамиятимиздаги этник муаммоларни ижобий ҳал қилиш борасидаги ҳам оқилона сиёсат олиб борилмоқда.

Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатларида мамлакатда фаолият юритувчи турли диний ташкилотлар сони ва уларнинг қанча вақтгача амал қилиш муддатлари бўйича ҳеч қандай чекловлар қўйилмаган. Ўзбек халқининг ментал характерига ҳос бўлган ҳамжиҳатлик, диний бағрикенглик, бирдамлик каби олийжаноб инсоний фазилатларнинг ривожланиши ўзининг узоқ тарихига эга. Бу инсоният тараққиётининг илк босқичларига бориб тақалади. Чунки Марказий Осиё цивилизация бешиги ҳисобланган ва шу сабабдан бу ҳудудларга ўзга ўлкалардан ҳунармандлар, олимлар, заргарлар ва тижоратчилар мунтазам равишда келишган ҳамда аксарияти бу ерларда муқим ўрнашиб қолишган. Мамлакатимиздаги бугунги тараққиётнинг асосий марказида эса шарқона қадриятларимиз ва анъаналаримизга содиқлик, демократик ислоҳотларни изчил давом эттириш ҳамда цивилизациялашган эр-кин ва фаровон давлат қуриш концепцияси турибди. Ўзбекистон Республикасидаги мавжуд турли диний конфессиялар фаолиятига кўмаклашиш дин идоралари қўмитаси ҳузурида турли диний ташкилотлар билан диний бағрикенглик тамойиллари асо-сида ҳамкорликни йўлга қўйиш, динлараро ҳамжиҳатлик ва бирлик масалаларини тарғиб ҳамда ташвиқ қилиш, қўллаб-қувватлаш мақасадида Кенгаш ташкил этилган. Маърифат, маданият, маънавият, одоб-аҳлоқнинг асосий ўзаги ҳисобланмиш дин ишларига эътибор қаратиш, диний бағрикенглик ғояларини улуғлаш унга амал қилиш эса жамият ижтимоий ҳаётида тинчлик, барқарорлик тамойилларини таъминлашда муҳим рол ўйнайди.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жоизки, Ўзбекистоннинг халқаро майдондаги нуфузининг юксалиши мамлакатимизда истиқомат қилаётган турли миллат вакилларига эҳтиром кўрсатиш ва улар билан дўстона алоқаларни ўрнатиш орқали ҳам белгиланади. Ўзбекистон Республикаси президенти Шавкат Мирзиёв томонидан ижтимоий-иқтисодий соҳани ри-вожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бу жараёнда эса Ўзбекистонда истиқомат қилаётган бир қанча

миллат ва элат вакилига эркин яшашлари учун ўз соҳаларида қонуний равишда фаолият юритишлари учун барча шарт-шароитлар яратилган. Мана шундай жиҳатлар эса мамлакатимизда толерантлик, бағрикенглик, ҳамжиҳатлик каби умуминсоний қадриятлар нақадар улуғланишидан далолат беради.

**Фойдаланилган адабиётлар**

1. Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. - Т.:Ўзбекистон, 2017 йил.-Б.24.
2. Қуръони Карим. Ҳужурот сураси, 10-оят.
3. Жалолиддин Румий. Мажолиси сабъа. - Т.:Янги аср авлоди, 2018. 1-мажлис.-Б.68.

## ОИЛАВИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТИЗИМИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ИЖТИМОИЙ ШАРОИТЛАР БИЛАН АЛОҚАСИ

**Мамадиярова Малика-**
НавДУ мустақил тадқиқотчиси

**Annotatsiya.** Жамият ривожланишининг замонавий ижтимоий-маданий ва иқтисодий шароитида ҳаёт ҳақидаги эски ғоялар ўзгармоқда, қадриятлар қайта баҳоланмоқда ва янги қадрият йўналишлари ишлаб чиқилмоқда, маданиятнинг маънавий-ахлоқий асосларига эътибор кучаймоқда. Қадриятлар шахс, фуқаро тушунчаларига ва касбий ривожланишида муҳим аҳамият касб этмоқда.

**Annotation.** In the modern socio-cultural and economic conditions of society's development, old ideas about life are changing, values are being reevaluated and new value directions are being developed, and attention is being paid to the spiritual and moral foundations of culture. Values are gaining importance in the understanding of the individual, citizen, and in professional development.

**Аннотация.** В современных социокультурных и экономических условиях развития общества меняются старые представления о жизни, происходит переоценка ценностей и выработка новых ценностных установок, усиливается внимание к духовно-нравственным основам культуры. Ценности важны для понимания личности, гражданина и профессионального развития.

Замонавий жамиятда оиланинг турмуш тарзи кўп жиҳатдан сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий соҳаларни қамраб олган кескин ўзгаришлар билан боғлиқ. Ўтиш даврларида оиланинг жамият ва шахс ўртасидаги воситачи сифатидаги роли янада сезиларли бўлади. Ижтимоий ўзгаришларга мослашиш даражасига кўра, оилаларнинг уч турини ажратиш мумкин: а) баъзи турмуш ўртоқлар содир бўлаётган ўзгаришларга мослашишга муваффақ бўлишди; б) бошқа турмуш қурган жуфтликлар ажралишмоқда ёки жиддий иқтисодий, ижтимоий ва психологик қўзғалишларни бошдан кечиришмоқда; с) учинчи гуруҳ оилалари янада мақсадли ва тушунарли ўзгаришларни кутиб, "музлаб" қолгандай туюлди, бу сафар кутишга, дунёдаги воқеаларга "ташқаридан" қарашга ҳаракат қилишди. Дунёда содир бўлган оиланинг ўзгариши саноат-бозор цивилизациясининг[103] шаклланиши ва ривожланиши натижасида юзага келган оиланинг ижтимоий институтининг global инқирозининг ўзига хос ифодасидир. Л.Б.Терских, аксинча, оилани ўзгартириш модернизация жараёни, анъанавий оила турини замонавийга ўзгартириш ва умуман ижобий йўналишга эга бўлди деб ҳисоблайди[104].

[103] Антонов А.И. Микросоциология семьи. - М.: ИНФРА-М, 2005. С. 85.
[104] Терских Л.Б. Социально-экономическая адаптация различных демографических типов семей в условиях

Оилавий инқироз тарафдорлари унинг асосий функцияларини давлат ва жамоат институтлари томонидан йўқотиш ёки алмаштиришни, катта оиланинг ижтимоий-маданий меъёрларини ва оилавий турмуш тарзини йўқ қилишни салбий баҳолайдилар. Улар оилавий ишлаб чиқаришни устун ижтимоий иқтисодиёт ва оилавий турмуш тарзи сифатида йўқ қилишни, барча оила аъзоларини иш ҳақи меҳнатига кўчиришни, ота-оналар ва болаларнинг биргаликдаги фаолиятини individual ўзини ўзи парвариш қилиш ва истеъмол қилиш билан алмаштиришни, барча ижтимоий институтлар фаолиятини ёлғиз шахсга йўналтиришни қайд етадилар. Шунинг учун улар оила сиёсатининг мақсади сифатида оилани мустаҳкамлаш, individual қадриятлардан фарқли ўлароқ оилавий қадриятларни мустаҳкамлаш, оилавий мулк ва оилавий ишлаб чиқаришни ривожлантириш, барча ижтимоий институтларнинг фаолиятини шахсдан оилага йўналтиришни таклиф қилмоқдалар.

Қадрият тузилмалари ғояси фақат онг билан боғлиқ ҳодисалари сифатида ҳисоблаш нотўғридир. Ушбу тезисни тасдиқловчи мисол сифатида совет халқи онгида инқилобга қаратилган янги иқтисодий ва сиёсий тафаккурни жорий этишга таянган қайта қуриш мафкурачиларининг муваффақиятсиз рационалистик тахминини таклиф қилиш этилади. Кўриниб турибдики, қадрият тузилмаларининг динамикаси, албатта, оқилона тартибга солиш ва бошқариш учун мос емас. Вазият анча мураккаб. Инсоний қадриятларнинг тузилиши, унинг еътиқодлари, ҳаракатлари, интилишларининг табиати ва тартиб тартиби инсон индивидуаллиги табиатининг чуқур тузилишини акс еттиради. Қадриятга асосланган дунёқараш онг ҳодисаси емас, балки инсонни ўзи яшаётган дунё билан боғлайдиган ҳаётий, яъни екзистенциал муносабатлардир. У макросоциум доирасида емас, балки микросоциум доирасида, асосан, шахсий принципни шакллантиришнинг илдизлари яширинган оилада шаклланади.

Замонавий оилаларнинг турмуш тарзи бошқа хусусиятларга ега. Ота-оналикнинг ижтимоий обрўси енди унинг маданиятдаги аҳамиятини барқарорлаштириш ва ривожлантириш учун қўшимча имкониятларга ега бўлди. Бундай имкониятларга жамиятнинг ишлаб чиқариш бирлиги сифатида бир қатор оилаларни мустаҳкамлаш ва болаларнинг "бошланғич" позицияларининг асосий шарти сифатида ота-оналарнинг жамиятдаги ижтимоий обрўсини ошириш киради.

Шундай қилиб, XXI аср бошларида биз жамоат тузилмалари фаолиятининг асосларига таъсир кўрсатган global трансформацион жараёнларга гувоҳ бўлмоқдамиз. Аҳолининг ижтимоий-иқтисодий аҳволи таҳлили шуни кўрсатадики, аксарият оилалар ушбу даврларда оғир ёки ўта оғир ижтимоий-иқтисодий шароитларда омон қолишган. Табиийки, бу шароитларга мослашиб, одамлар мослашиши, нафақат хулқ-атворини, балки фикрлаш услубини ҳам ўзгартириши керак еди. Оила ҳаётида ахлоқий тамойилларнинг бироз қадрсизланишига имкон берадиган омон қолиш тизими шакллана бошлади. Жамият онгининг бифуркацияси мавжуд. Бир томондан, нарсаларга прагматик қарашнинг аниқ тенденцияси мавжуд, аммо аниқлаштирувчи саволлар шуни кўрсатдики, онгсиз равишда жамият ҳали фаровон жамият нафақат прагматик ечимларга таяниши керак деган анъанавий ғоялардан узоқлашмаган, балки Худога ишониш билан боғлиқ муносабатларга ҳам, оилага трансцендент нарса сифатида қараш орқали юқори ахлоқ идеаллари шаклланади.

Замонавий жамиятни ривожлантириш учун ижобий йўналишда оилавий қадриятлар тизимининг ўзгаришига сезиларли таъсир кўрсатиши мумкин бўлган бир қатор чора-тадбирларни назарда тутадиган дастурни тайёрлади ва кўриб чиқишга таклиф қилди.

---

реформ. Дисс. на соиск. степени к.с.н. - М., 1996. С. 71.

1. Оналик, туғилиш ва оилавий муносабатларнинг обрўсини ошириш соҳасида ўзбек жамиятининг оммавий онгига тизимли таъсир кўрсатиш чораларини амалга ошириш.

1.1. Оилавий турмуш тарзи ва оилавий қадриятларни фаол тарғиб қилиш.

1.2. Онанинг мақомини яхшилаш нуқтаи назаридан оналикнинг жамиятдаги ролини қайта баҳолаш.

1.3. Оммавий ахборот воситаларида бузғунчи хатти-ҳаракатларни тарғиб қилишнинг барча шаклларини (зўравонлик, тажовузкор хатти-ҳаракатлар, жинсий бузуқлик, tamaki истеъмол қилиш, алкогол ва гиёҳвандлик воситалари) мақсадли ва қатъий чеклаш.

Тарихий воқеаларнинг оилавий қадриятларга таъсири маданий шароитда оилавий қадриятларни шакллантириш ва ривожлантириш жараёнининг ажралмас қисмидир. Турли тарихий даврларда жамиятда муҳим ўзгаришлар юз берди, бу оилавий қадриятларга бевосита таъсир кўрсатди. Мисол учун, урушлар ва инқилоблар пайтида оилалар қийинчиликларга дуч келишди ва ўз қадриятларини қайта кўриб чиқишлари, йўқотишларни бошдан кечиришлари ва омон қолишга мослашишлари керак еди. Бошқа томондан, иқтисодий ўсиш ва барқарорлик даврида оилавий қадриятлар консерватизмга ва белгиланган меъёр ва анъаналарни сақлаб қолиш истагига мойил бўлиши мумкин. Ўзбекистонда сиёсий тизимдаги ўзгаришлар, ижтимоий инқилоблар ёки йирик маданий ўзгаришлар каби тарихий воқеалар оила ва унинг тузилишига боғлиқ бўлган қадриятларга таъсир қилиши мумкин. Ушбу ўзгаришлар оилавий муносабатлар, еркаклар ва аёлларнинг роллари, ота-оналар, gender нормалари ва оилавий ҳаётнинг бошқа жиҳатларида акс етади. Шундай қилиб, тарихий воқеаларнинг оилавий қадриятларга таъсирини тушуниш маданият шароитида оилавий қадриятларни ўрганишнинг муҳим жиҳати ҳисобланади.

## “INGLIZ VA O‘ZBEK FOLKLORIDA YOLG‘IZLIK MOTIVI”

**Sayidova Moxichexra Islomovna**
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti 2-bosqich magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqola ingliz va o‘zbek folkloridagi yolg‘izlik motivini tadqiq etishga bag‘ishlangan. Har bir xalqning folklorida insoniy hayotning murakkab qirralaridan biri bo‘lgan yolg‘izlik motivi turli madaniy va diniy jihatlar bilan ifodalanadi. Ingliz folklorida bu motiv qahramonlarning dushmanlari bilan kurashi yoki ichki iztiroblarini yengishi orqali yoritilsa, o‘zbek folklorida ko‘proq diniy e’tiqod va taqdir bilan yarashish ko‘rinishida ifodalanadi. Maqolada har ikki folklordagi bu motivlarning o‘ziga xos jihatlari va umumiy tomonlari solishtirilib, tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** ingliz folklori, o‘zbek folklori, yolg‘izlik, iztirob, madaniyat, diniy e’tiqod.

**Abstract.** This article is dedicated to the study of the theme of loneliness in English and Uzbek folklore. The motif of loneliness, which is one of the most profound and complex human experiences, is reflected differently in the folklore of each nation, influenced by cultural and religious factors. In English folklore, this motif is often depicted through characters’ struggles with enemies or their inner torment, while in Uzbek folklore, it is expressed through faith in God and acceptance of fate. The article compares and analyzes the unique and shared aspects of this motif in both cultural contexts.

**Keywords:** English folklore, Uzbek folklore, loneliness, inner turmoil, culture, faith, fate.

**Kirish.** Folklor har bir xalqning madaniy merosi sifatida xalqning kundalik hayoti, dardlari, umidlari va tuyg‘ularini aks ettiradi. Uzoq asrlardan beri og‘zaki ijodning turli shakllari orqali xalq o‘zining ichki olamini ifodalab keladi. O‘zbek va ingliz folklori ham bu borada alohida o‘rin egallaydi. Har ikki madaniyatda ham xalq dostonlari, ertaklari, qo‘shiqlari va balladalarida insoniy tajribalar,

xususan, yolg‘izlik, dard, sevgi va ayriliq keng qamrovli mavzulardan biri hisoblanadi. Yolg‘izlik motivi xalq og‘zaki ijodining eng chuqur va keng tarqalgan hissiy holatlarini ifodalaydi.

Yolg‘izlikning ifodalanishi o‘sha xalqning madaniyati, urf-odatlari va diniy e’tiqodlari bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, ingliz folklori ko‘pincha qahramonlarning ichki kurashlari va sinovlarini aks ettiradi. Ingliz balladalarida yolg‘izlikning qahramonni iztirobga soluvchi kuch ekanligi va uni yengib o‘tish yo‘llari yoritiladi. Bunday motivlar insonning ruhiy olami va uning dushmanlar, qiyinchiliklar bilan kurashi orqali ochib beriladi. Ingliz xalq qo‘shiqlarida ko‘pincha qahramonlar sevgisiz yoki o‘lim tufayli yolg‘iz qolib, hayotlarining ma’nosini izlashadi. Bu asarlar odamlar orasidagi munosabatlar, dard va yolg‘izlikni chuqur tasvirlaydi.

O‘zbek folklorida esa yolg‘izlik motivi ko‘proq qahramonlarning taqdirga bo‘ysunishi, Allohga ishonishi va sabr-toqatli bo‘lishi bilan ifodalanadi. O‘zbek xalq dostonlari va qo‘shiqlarida qahramonlar ko‘pincha uzoq safarlarda, begona yurtlarda yoki janglarda yolg‘iz qolganda ichki iztirobga duch keladilar. Biroq ular bu sinovlarni Allohga tavakkal qilib, taqdirning qarshisida sabr bilan yengib o‘tadilar. Masalan, Alpomish dostonida Alpomishning uzoq yurtlarda yolg‘izligi uning ruhiy mustahkamligi va qahramonlik salohiyatini sinovdan o‘tkazuvchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Ingliz va o‘zbek folklorida yolg‘izlik motivining o‘xshash va farqli jihatlari mavjud. Ingliz madaniyatida bu motiv qahramonlarning ichki dunyosiga ko‘proq urg‘u berilgan bo‘lsa, o‘zbek madaniyatida bu motiv ko‘proq ma’naviyat va e’tiqod bilan bog‘lanadi. Ushbu maqola ingliz va o‘zbek folklorida yolg‘izlik motivining ifodalanish usullari va ularning madaniy jihatlarini tahlil qilishga bag‘ishlanadi.

**Ingliz folklorida yolg‘izlik motivi**

Ingliz folklori insonning hayotiy sinovlari va ichki kurashlarini aks ettiradi. Masalan, "The Unquiet Grave" balladasida yolg‘izlik va iztirob sevgilisidan ajralgan qahramonning qayg‘usi orqali tasvirlangan. Bu asarlarda qahramonlar dushmanlar bilan yolg‘iz kurashadilar yoki sevgi umidsizliklarida yolg‘iz qoladilar. Ingliz ertaklarida ham qahramonlar ko‘pincha noma’lum joylarda yolg‘iz qolib, o‘z qobiliyatlarini sinaydilar.

**O‘zbek folklorida yolg‘izlik motivi**

O‘zbek folklorida yolg‘izlik ko‘proq diniy va ijtimoiy nuqtai nazardan ifodalanadi. Masalan, "Alpomish" dostonida qahramon uzoq yurtlarda yolg‘iz qolib, vataniga qaytish uchun kurashadi. Yolg‘izlik bu yerda insonning sabr-toqati va matonatini sinovchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, xalq qo‘shiqlarida sevgi va ayriliq motivlari orqali yolg‘izlik chuqur iztirob sifatida ifodalanadi.

**Solishtirish**

Ingliz folklorida yolg‘izlik ko‘proq insonning ichki iztirob va hayotiy kurashlariga asoslanadi. O‘zbek folklorida esa bu motiv diniy va ma’naviy jihatlari bilan yoritiladi. Har ikkala folklorda ham yolg‘izlik insonning kuchini sinaydigan omil sifatida ko‘riladi.

**Muhokama va natijalar.**

Ingliz folklorida yolg‘izlik motivi odatda qahramonlarning ichki kurashlari va psixologik holatlari orqali namoyon bo‘ladi. Qahramonlar ko‘pincha tashqi muhitdan ajralib, yolg‘iz o‘z dardlari va qiyinchiliklari bilan kurashishga majbur bo‘ladilar. Bu holatlar insonning individualizmi va ichki quvvati sinovdan o‘tadigan holatlar sifatida aks ettiriladi.

Masalan, ingliz xalq balladalari orasida "The Unquiet Grave" singari asarlar qahramonlarning yolg‘izligi va iztiroblarini aks ettiradi. Ushbu balladada qahramonning sevgilisi vafot etadi va u sevgilisining qabrida uzoq vaqt o‘z dardlari bilan yolg‘iz qoladi. Bu yerda yolg‘izlik nafaqat hissiy holat, balki insonning qayg‘uli kechinmalari bilan bog‘liq bo‘lgan ruhiy sinov sifatida ifodalanadi. Qahramon o‘lim va ayriliq sababli o‘z hayotining ma’nosini yo‘qotadi va sevgilisi bilan bo‘lgan

munosabatlarini unutolmay, uzoq muddat yolg‘iz yashaydi. Ushbu holat ingliz folkloridagi yolg‘izlikning ruhiy va hissiy jihatlarini chuqur aks ettiradi.

Bundan tashqari, ingliz ertaklarida ham qahramonlarning uzoq yo‘llarda yoki noma’lum joylarda yolg‘iz qolishi kuzatiladi. Ular bu holatlarda o‘z hayotlari uchun kurashib, ichki quvvatlarini sinashadi. Bu turdagi ertaklar insonning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi va individualizmni qadrlaydi. Yolg‘izlik bu asarlarda ko‘pincha qahramonlarning yetuklik va ichki o‘zgarishlarini bosqichma-bosqich ko‘rsatadi.

**O‘zbek folklorida yolg‘izlikning ifodalanishi.** O‘zbek folklori, xususan, dostonlar va xalq qo‘shiqlarida, yolg‘izlikning ifodalanishi ko‘proq ma’naviy va diniy e’tiqodlar bilan bog‘lanadi. Qahramonlar ko‘pincha taqdir sinovlariga ro‘baro‘ keladilar va yolg‘izlik bu sinovlarning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Biroq, o‘zbek qahramonlari Allohga tavakkal qilib, bu sinovlardan o‘tishga tayyor bo‘lganligi bilan ajralib turadi. Masalan, "Alpomish" dostonida qahramon Alpomish uzoq yurtlarda yolg‘iz qolib, vataniga qaytish uchun kurashadi. U yolg‘iz qolganida, uning matonati va sabr-toqati sinovdan o‘tadi. Bu yerda yolg‘izlik nafaqat fizik holat sifatida, balki qahramonning ruhiy va axloqiy yetukligini ko‘rsatadigan sinov sifatida namoyon bo‘ladi. Alpomishning yolg‘izligi uning qahramonlik fazilatlarini yanada kuchaytiradi va uni xalq dostonidagi asosiy ideal qahramonga aylantiradi. Ushbu motivda Allohga bo‘lgan ishonch va sabr-toqat katta rol o‘ynaydi.

Bundan tashqari, o‘zbek xalq qo‘shiqlarida sevgi va ayriliqning chuqur iztiroblari tasvirlanadi. Xalq qo‘shiqlarida sevgilisidan ajralgan yoki dushmanlari tomonidan kamsitilgan qahramonlar o‘z yolg‘izliklarini Allohga shikoyat qilish orqali yengishga harakat qiladilar. Bu qo‘shiqlarda qahramonlarning iztirob va yolg‘izlikni yengishlari diniy e’tiqod va tavakkal orqali amalga oshiriladi. Yolg‘izlik bu asarlarda insonning ichki dunyosini boyituvchi va uni kuchliroq qiluvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

**Ingliz va o‘zbek folklorini solishtirish.** Ingliz va o‘zbek folkloridagi yolg‘izlik motivi mazmun jihatdan farq qiladi. Ingliz folklorida yolg‘izlik ko‘proq qahramonning individual kurashlari, ichki iztiroblari va shaxsiy o‘zgarishlari bilan bog‘liq bo‘lsa, o‘zbek folklorida yolg‘izlik ko‘proq taqdir va Allohga bo‘lgan ishonch bilan chambarchas bog‘langan. Ingliz xalq asarlarida qahramonlar yolg‘izlikni o‘z-o‘zini anglash, shaxsiy o‘sish va ma’naviy jihatdan yetuklikka erishish yo‘li sifatida qabul qilsalar, o‘zbek qahramonlari yolg‘izlikni sinov sifatida ko‘rib, Allohga tavakkal qilish orqali bu sinovlardan o‘tadilar.

Har ikki madaniyatda ham yolg‘izlikning insoniy va ruhiy jihatlari chuqur ifodalanadi. Ingliz qahramonlari yolg‘izlikni yengib, kuchliroq bo‘ladilar va o‘z ichki olamlarini boyitadilar, o‘zbek qahramonlari esa yolg‘izlikni Allohga ishonish orqali yengadilar va sabr-toqat bilan sinovlarni yengib o‘tadilar. Shu tariqa, har ikki madaniyatda yolg‘izlik insonning kuchini sinovdan o‘tkazadigan va uning ruhiy holatini shakllantiradigan motiv sifatida tasvirlanadi.

**Tahliliy xulosalar.** Muhokama jarayonida ko‘rinib turibdiki, ingliz va o‘zbek folkloridagi yolg‘izlik motivi xalqning madaniyati, urf-odatlari va diniy e’tiqodlari bilan uzviy bog‘liqdir. Ingliz madaniyati individualizm va qahramonlarning ichki kurashlariga e’tibor qaratadi, o‘zbek madaniyatida esa ma’naviyat va diniy qarashlar asosiy o‘rinni egallaydi. Shu bilan birga, har ikki madaniyatda yolg‘izlik motivi insonni yetuklashtiruvchi va ruhiy jihatdan shakllantiruvchi kuch sifatida tasvirlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**:

1. Abdullayeva, S. (2017). O‘zbek xalq dostonlarida qahramonlik va yolg‘izlik motivlari. Toshkent: Adabiyot va San’at nashriyoti.
2. Anderson, M. (2000). English Folklore: Heroes and Loneliness. London: Oxford University Press.
3. Sharipov, B. (2018). O‘zbek xalq ertaklarida insoniylik va ruhiy holatlar. Toshkent: Ma’naviyat.
4. Thompson, S. (1989). Loneliness in Western Folklore and Ballads. New York: Harper Collins Publishers.

5. Yoqubov, N. (2016). O‘zbek xalq qo‘shiqlarida sevgi va ayriliq. Samarqand: Sharq nashriyoti.

## АНАЛИЗ СУЩНОСТИ И ВЫЯВЛЕНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ ФАКТОРОВ СЕПАРАТИЗМА

**Кабулов Жахонгир-**
Соискатель Урганчского государственного университета

**Annotatsiya:** Maqolada separatizm fenomeni, uning mohiyatini tahlil qilish va uning paydo bo‘lishi va tarqalishiga yordam beradigan omillarni aniqlashga bag‘ishlangan. Xususan, ushbu kontseptsiyani aniqlashga turli xil yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, muallif zamonaviy davrda separatistik harakatlarning paydo bo‘lishi va faollashishi sabablarini o‘rganadi. maqolada, shuningdek, separatistik mafkuralar asosida yotadigan ajralish huquqining turli xil tushunchalari ko‘rib chiqilgan.

**Аннотация:** Статья посвящена феномену сепаратизма, анализу его сущности и выявлению факторов, способствующих его возникновению и распространению. В частности, рассмотрены различные подходы к определению этого понятия. Также автор исследует предпосылки появления и причины активизации сепаратистских движений в современную эпоху. В работе также рассматриваются различные концепции права на сецессию, которые лежат в основе сепаратистских идеологий.

**Reference:** The article is devoted to the phenomenon of separatism, the analysis of its essence and the identification of factors contributing to its emergence and spread. In particular, various approaches to the definition of this concept are considered. The author also explores the prerequisites for the emergence and causes of the intensification of separatist movements in the modern era. The work also examines various concepts of the right to secession that underlie separatist ideologies.

На сегодняшний день актуализация сепаратистских проявлений как в массовом сознании, так и в политико-практическом воплощении стала одним из знамений современного этапа мировой истории. Сепаратизм относится к одной из самых политизированных, подчас эмоционально окрашенных исторических и политологических категорий, что затрудняет выработку беспристрастного, «академического» подхода к анализу и оценкам феномена сепаратизма в истории и тем более в современной политической практике.

Сепаратизм (от латинского separatus — отдельный), понимаемый как стремление к обособлению тех или иных социальных групп, является одним из фундаментальных свойств жизни социума с присущими последнему мозаичностью и дробностью на основе этнических, религиозных, расовых и других отличий. Это понятие вбирает в себя как разработку политических программ, содержащих концептуальное обоснование права на суверенное существование, так и действия, направленные на их реализацию. Вместе с тем сепаратизм многогранен и многообразен, что не всегда делает возможным использование сложившихся и привычных определений при анализе конкретных исторических «кейсов». Сепаратистские движения могут различаться мотивацией, степенью радикализма и методами достижения целей, различным соотношением значимости внутренних и внешних факторов. По своей направленности сепаратистские движения могут принимать формы сецессионизма (выход из состава единого государства какой-либо его части и обретение независимости) и ирредентизма (стремление к объединению с соседней страной или ее частью).

Сепаратизм порождается, как правило, комплексом внутренних и внешних причин, что не исключает актуализацию тех или иных определенных факторов в конкретных исторических обстоятельствах (межэтнические противоречия, нередко переплетающиеся с

межконфессиональными, экономическое неравенство, несовпадающие идеологические ориентиры, исторические обиды, расовые отличия, поддержка сепаратистских движений извне и др.). Своеобразие сепаратистским проявлениям придают также особенности политической культуры и эмоционально-психологического склада, присущие тем или иным народам.

Modernism is an ideological trend in the literature of the late XIX - XX century, in which the departure from classical standards is noticeable and new, radical literary forms of writing are clearly expressed.The main feature of this direction becomes a radical rethinking of the traditional view of the world. Instead of offering the reader established concepts, the literature of modernism either strives for the most accurate reflection of reality, or completely opposes it. The author no longer acts as a bearer of absolute truth, but emphasises its relativity. The integrity of the artistic world is destroyed: the linear narrative is replaced by a fragmentary structure, presented in the form of separate episodes and transmitted through several characters with opposing views on what is happening.

Among the most famous modernists of the early 20th century are the Irish writer James Joyce, author of the iconic novel “Ulysses” (1922), written in a stream-of-consciousness style, and the Russian writer Andrei Bely, who created the groundbreaking novel “Petersburg” (1913), which reflected key features of modernist aesthetics.

In the works of both writers there is a considerable number of stylistic devices used, but these are mainly metaphors. Metaphor (from the Greek μεταφορά - ‘transfer, figurative meaning‘, derived from μετά - ‘over’ and φορός - ‘bearing‘) is a word or expression used in a figurative sense, based on the similarity of one object or phenomenon to another by a certain feature. According to B. V. Tomashevsky, metaphor is a kind of trope in which the object denoted by the word in its direct meaning has a certain indirect similarity with the object to which the meaning is transferred. [108]

The use of metaphors by these two authors differs slightly. While Andrei Bely tries to create sublime, symbolic metaphors, James Joyce speaks literally, sometimes even crudely, comparing objects to natural and everyday things.

Andrei Bely’s metaphors in the work ‘Petersburg‘ are mostly aimed at describing the influence of mood, atmosphere of spaces and objects on a person. He skilfully uses metaphors to convey the feelings of the main character as he moves into a new space:

*‘...The greenish, frowning room was dominated by semi-darkness; the wind howled...’.* [109]

(“*…В зеленоватой, нахмуренной комнате господствовал полусумрак; выл ветер…*”)

[108] Метафора // Литературная энциклопедия терминов и понятий / Под ред. А. Н. Николюкина. — Институт научной информации по общественным наукам РАН: Интелвак, 2001. — Стб. 533. — 1596 с. — ISBN 5-93264-026-X

[109] Петербург / Белый А.—М.:ООО «ДА!Медиа», 2014. – 533 р

With this sentence the author tries to convey the gloominess of the room. This is vividly expressed in the word ‘frowning‘. One can immediately understand that the room was not a pleasant one and it brought negative feelings to the protagonist.

Another moment describing the state of the environment around the character:

*‘...Petersburg breathed...’.*[110]

(*“…Петербург дышал…”)*

In the book this sentence denotes the liveliness of the city, the activity of people around, a large number of colorful events that bring the city back to ‘life’.

No less he paid attention to the atmosphere of his characters:

*‘... the black lady was thinking in the entryway about such all things simple and mundane...’.* [111]

*(“… черная дамочка помышляла в подъезде о таком все простом и земном…”)*

This metaphorical turn of phrase indicates the dark state of this ‘lady’s’ personality, showing her full of something dark and secretive.

Turning to the style of using metaphors in James Joyce’s works, a certain contrast in the colors of the metaphors compared to Andrei White catches the eye. If even in the grey ‘Petersburg‘ there was still romance and mystery, in ‘Ulysses’ James Joyce often compares his objects to something ordinary, completely ruining the whole magical atmosphere. This can be seen in this passage as well:

*‘...The sea, the snotgreen sea...’.* [112]

In this version of the description of the sea, there is no sense of romance, which is often associated with the sea. Only a certain amount of disgust. The metaphor is rather down-to-earth, not having something extraordinary in itself for an ordinary person.

Sometimes he compared man to an animal:

*‘The loose flesh of his neck shook like a cock’s wattles.’* [113]

Joyce juxtaposes the loose skin on the character’s neck with the soft, wavering cock’s earrings, creating a visual and evocative image - the reader instantly imagines these folds coming into motion. Instead of traditional lofty comparisons (e.g. ‘a neck like a column’), he resorts to a down-to-earth and even slightly comical comparison, which enhances the sense of naturalness and realism of the description.

Even when comparing something powerful, he uses slightly unusual examples:

*‘Like a shot off a shovel.’* [114]

This metaphor is simple but effective, crude but memorable. It makes the text more lively and conversational, conveying speed not subliminally, but through concrete physical experience.

**CONCLUSION**

Thus, the use of metaphors in the works of Andrei Bely and James Joyce reflects their different approaches to modernist aesthetics. Bely fills his images with symbolism and mystical atmosphere, creating metaphors that convey mood, depth of emotion and the influence of space on the characters. In his descriptions, St Petersburg seems to come alive, becoming the protagonist of the novel.

In contrast, Joyce destroys Romantic poetics by introducing crude, naturalistic, sometimes even repulsive comparisons into the text. His metaphors emphasise the materiality, physiological and everyday world in which his characters live. He is not afraid to use unexpected images, sometimes deliberately prosaic or comical, which makes his style unique and as close to real speech as possible.

Both authors experiment with language, but they do it in different ways: White strives for sublime metaphoricality, and Joyce - to straightforward and crude expressiveness. These differences

[110] Петербург / Белый А.—М.:ООО «ДА!Медиа», 2014. – 268 р

[111] Петербург / Белый А.—М.:ООО «ДА!Медиа», 2014. – 70 р

[112] Egoist Press, London: October 1922"--Prelim. – 23 p.

[113] Egoist Press, London: October 1922"--Prelim. – 217 p.

[114] Egoist Press, London: October 1922"--Prelim. – 527 p.

emphasise the diversity of modernism, where the search for new forms and meanings manifests itself in very different narrative styles.

**REFERENCES**

1. Метафора // Литературная энциклопедия терминов и понятий / Под ред. А. Н. Николюкина. — Институт научной информации по общественным наукам РАН: Интелвак, 2001. — Стб. 533. — 1596 с. — ISBN 5-93264-026-X

2. Петербург / Белый А.—М.:ООО «ДА!Медиа», 2014. – 667 стр.

3. Egoist Press, London: October 1922"--Prelim. – 1129 p.

## “MADANIY TAFAKKUR” TUSHUNCHASI VA UNING INSONIYAT RIVOJIDAGI O‘RNI

**Aslonov Jurabek Mansurovich-**
Navoiy davlar universiteti “Ijtimoiy fanlar “kafedrasi doktoranti

### The concept of "Cultural thought" and its role in human development

**Abstract.** This article discusses the contribution of cultural thought to human personality and its development in society. The process of formation of cultural thought, its impact on humanity, its role in the field of education, and globalization processes are analyzed. Cultural thought is considered as a concept that shapes not only the individual, but also the entire society, and its impact on social development is enormous.

**Key words**: thinking, culture, man, personality, social development, national values, globalization, education, moral values.

Madaniy tafakkur so‘ziga turli davrlarda turli xil olimlar tomonidan turlicha ta’riflar berib kelingan. O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida unga shunday ta’rif bergan: “Madaniy tafakkur jamiyatning ma’naviy rivojlanish darajasini belgilaydi va odamlarning dunyoqarashi, estetik didi, an’analarga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi… Bu tafakkur orqali insonlar o‘z tarixiy ildizlarini anglab, milliy va umumjahon madaniyatini qadrlashni o‘rganadilar.”

Madaniy tafakkur mavzusi bo‘yicha turli davrlarda ko‘plab mutafakkirlar va olimlar ish olib borgan. Platon va Aristotel kabi antik olimlar sohaning rivojiga tamal toshini qo‘ygan bo‘lsalar, Sharqdagi ulamolardan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy va Imom G‘azzoliylar ushbu yo‘nalishda faol ish olib borganlar. Madaniy tafakkur va sivilizatsiyalarning rivojlanish qonuniylarini o‘rgangan Arnold Toynbi, madaniy tafakkurni antropologik jihatdan o‘rgangan hamda strukturalizmning asoschisi hisoblangan Klaud Levi-Straus hamda madaniyat va sivilizatsiya rivojlanishning bosqichlari haqidagi ilmiy ishlari bilan tanilgan Osvald Shpenglerlar madaniy tafakkur sohasini o‘rgangan zamonaviy tadqiqotchilardan hisoblanishadi.

Madaniy tafakkur insonlarning atrofdagi dunyo va o‘zini anglashdagi jarayonlarning umumiy tizimini bilish hisoblanadi. Har bir jamiyatning tafakkuri ularning o‘ziga xos madaniy qadriyatlari, urf-odat va an’analari hamda dunyoqarashlaridan shakllanadi. Madaniy tafakkur nafaqat individning fikrlash tizimini, balki butun jamiyatni, uning boshqa jamiyatlardan ajratib turadigan xususiyatlarini shakllantiradi. Hozirgi kunda madaniy tafakkurni o‘rganish, uning jamiyatdagi o‘rni va ta’sirini tahlil qilish zamonamizning eng muhim ijtimoiy masalalaridan biridir.

Madaniy tafakkur, jamiyatdagi odamlarning fikrlash tarzini birlashtiradi. Misol uchun, o‘zbek xalqining madaniy merosi, uning qadriyatlari va urf-odatlari, individual tafakkurni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Har bir millat o‘z madaniyatiga asoslangan tafakkur shaklini rivojlantiradi [1].

Madaniy tafakkur shaxsiyatni shakllantirishda muhim omil bo‘lib, u individning o‘zini qanday anglashini va jamiyat bilan munosabatlarini belgilaydi. Madaniyat shaxsiyatning dunyoqarashini va hayotga bo‘lgan qarashini shakllantiradi. Masalan, o‘zbek xalqining madaniy qadriyatlari, uning axloqiy me’yorlari va tarixi, yoshlarni tarbiyalashda va ularning tafakkurini rivojlantirishda asosiy vositadir [2].

Madaniy tafakkur shaxsiy rivojlanishga ta’sir qiladi va jamiyatda odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni shakllantiradi. Shuningdek, u shaxsiyatni jamiyatdagi o‘rniga moslashtiradi va individning jamiyatda muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan axloqiy va ijtimoiy qoidalarni o‘rgatadi [3].

Ta’lim tizimi inson va jamiyatda madaniy tafakkurni shakllantirishda eng asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Aynan ta’lim, uning sifati orqali insonlarning madaniyatga, urf-odatlarga va qadriyatlarga bo‘lgan munosabati shakllanadi. Jamiyatda ta’lim tizimi orqali madaniy tafakkur tarbiyalanadi, yosh avlod madaniyatning asosiy qadriyatlarini bog‘cha, maktab va oliy o‘quv yurtlarida o‘zlashtiradi.

Globalizatsiya jarayonlari madaniy tafakkurda yangi shakllar va yondoshuvlarni yaratmoqda. Zamonaviy ta’lim tizimi o‘zining global xususiyatlari bilan madaniy tafakkurni yanada kengroq doirada rivojlantirish imkonini beradi. Madaniy tafakkurning o‘zgarishi, shuningdek, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning asosiy omiliga aylangan [4].

Globalizatsiya madaniy tafakkurning yangi shakllarini yuzaga keltiradi. Dunyo xalqlari o‘rtasidagi aloqalar va madaniy almashinuvlar tafakkur tizimlarini qayta shakllantiradi. Globalizatsiya jarayoni madaniy tafakkurni faqat milliy emas, balki xalqaro miqyosda ham rivojlantiradi. Shu bilan birga, madaniy tafakkur o‘z milliy qadriyatlaridan chetga chiqmasdan, global fikrlashni qamrab olishi kerak [5].

Globalizatsiya va madaniy tafakkur o‘rtasidagi aloqalar jamiyatlarning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir qiladi. Madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va muloqotlarning kuchayishi jamiyatning tafakkurini yanada kengaytiradi.

Bundan tashqari madaniy tafakkurning ta’lim sohasidagi o‘rni ham beqiyosdir. U insonniy intellektual taraqqiyoti va ma’naviyatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Aynan tafakkurning ushbu yo‘nalishi ta’lim jarayoniga milliy va umumbashariy qadriyatlarni, jahon madaniyatini kiritish imkonini beradi. Bu esa, o‘z o‘rnida o‘quvchilarning turli madaniyatlar va an’analar bilan tanishishlari bilan bir qatorda milliy madaniyatni ham qadrlashlariga o‘rgatadi. Shu bilan bir qatorda, madaniy tafakkur san’at, musiqa, adabiyot va boshqa ijodiy yo‘nalishlar orqali oquvchilarni yanada sifatli ta’lim olishga undaydi. Ta’lim sohasiga madaniy tafakkurning faol jalb qilinishi natijasida ta’limning nafaqat mazmuni boyiydi, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlari hamda o‘sadi; jamiyatga integratsiyalashuv jarayoni faollashadi.

Madaniy tafakkur jamiyatning rivojlanishida va shaxsiyatning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Madaniyat va tafakkurning o‘zaro aloqasi, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va axloqiy jarayonlarga ta’siri hozirgi kunda ilmiy izlanishlarning markazida turadi. Madaniy tafakkur ta’lim tizimi, globalizatsiya jarayonlari va shaxsiyat rivojlanishiga ta’sir qilgan asosiy omil sifatida ajralib turadi. Bu jarayonlar o‘z navbatida jamiyatdagi umumiy barqarorlikka hissa qo‘shadi.

**Foydalanilgan Adabiyotlar**

1. Karimov I. A. O‘zbek madaniyati va xalqimizning qadriyatlari. Toshkent: O‘zbekiston. 1997
2. Turaeva D. Madaniy tafakkur va uning jamiyatdagi roli. Toshkent: Akademnashr. 2008
3. Sattarov F. Ta’lim va madaniy tafakkur. Toshkent: Oliy o‘quv yurtlari. 2012
4. Johnson A. Globalization and cultural thought. New York: Global Press. 2015

# YOSHLAR TARBIYASIDA ILMIY-MA’NAVIY MEROSNING O‘RNI

**Boqiyeva Marjona Shuhratovna-**
BMTI akademik litsey ingliz tili o‘qituvchisi

**Kurbanov Djamshid Djurayevich-**
BMTI akademik litseyi o‘qituvchisi, falsafa tarixi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada mamlakatimizda mustaqil rivojlanishning dastlabki yillaridanoq, demokratik o‘zgarishlar sharoitida jamiyat hayotini yangilashning muhim bo‘g‘ini sifatida ta’lim sohasini isloh qilish siyosatini izchil amalga oshirishga katta e’tibor berilmoqdaligi hamda barkamol insonni tarbiyalashda axloqiy tarbiya muhim ahamiyat kasb etishi, bu tufayli insonning axloqiy fazilatlari, yuqori axloqiy ongi va axloqiy xulq-atvori shakllanish tahlil etilgan. Shuningdek, buyk allomalarimizning ma’naviy merosimizga qo‘shgan hissalari va hayotimizda tutgan o‘rni haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** axloqiy tarbiya, yoshlar, xulq-atvor, tarbiya, jahon hamjamiyati, milliylik, madaniyat, ma’naviyat, axloqiy an’analar, umumbashariy qadriyatlar konsepsiya, ilmiy, ma’daniy, adabiy meros.

**Annotation.** This article analyzes the consistent implementation of educational reform policies as a crucial component of renewing social life in the context of democratic transformations from the early years of independent development in our country. It emphasizes the significant role of moral education in nurturing a well-rounded individual, highlighting how ethical qualities, a high moral consciousness, and moral behavior are shaped. Additionally, the article discusses the contributions of our great scholars to the spiritual heritage and their place in our lives.

**Keywords:** moral education, youth, behavior, upbringing, global community, national identity, culture, spirituality, ethical traditions, universal values, concept, scientific, cultural, literary heritage.

**Kirish.** Har qanday jamiyatning kelajagi uning yosh avlodiga bog‘liq. Yoshlarning barkamol inson bo‘lib shakllanishida ilmiy-ma’naviy meros muhim rol o‘ynaydi. Ajdodlardan qolgan ilmiy va madaniy meros yoshlarga nafaqat bilim, balki axloqiy qadriyatlar, vatanparvarlik va komillikka intilish ruhini ham singdiradi. Bugungi kunda yoshlarni har tomonlama yetuk inson sifatida tarbiyalashda, ularning dunyoqarashi va ma’naviy olamini boyitishda ilmiy-ma’naviy merosning o‘rni juda katta.

1.Ilmiy-ma’naviy meros tushunchasi. Ilmiy-ma’naviy meros bu – ajdodlarimizdan bizga yetib kelgan ilm-fan yutuqlari, ma’naviy qadriyatlar, adabiy, falsafiy va tarixiy asarlar, diniy va axloqiy ta’limotlar majmuasidir. U quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

1. Ilmiy meros – Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek kabi olimlarning ilmiy ishlari va kashfiyotlari.

2. Ma’naviy meros – Maqol, rivoyat, afsona, diniy-axloqiy ta’limotlar, xalq og‘zaki ijodi.

3. Adabiy meros – Alisher Navoiy, Bobur, Abdurahmon Jomiy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro kabi allomalarning asarlari.

Bu boy meros yosh avlodni tarbiyalashda asosiy vositalardan biri bo‘lib, ularga insoniylik, bilim olishga intilish va yuksak axloqiy sifatlarni o‘rgatadi.

Yoshlar tarbiyasida ilmiy-ma’naviy merosning o‘rni.

1. Ilmiy meros – tafakkur va intellektual salohiyatni rivojlantirish

Buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosi yoshlarning tafakkurini kengaytirib, ularga ilm olishning qadrini tushuntiradi. Masalan, Al-Xorazmiy algebra faniga asos solgan bo‘lsa, Beruniy geodeziya va astronomiya bo‘yicha qimmatli tadqiqotlar olib borgan. Bu olimlarning ilmiy merosi yoshlarni ilm-fanga qiziqtirish, yangilik qilishga undash va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

2. Ma’naviy meros – axloq va odobni shakllantirish

Ma’naviy meros insonning axloqiy qiyofasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ahmad Yassaviy va Najmiddin Kubro kabi mutafakkirlar yoshlarni halollik, adolat, sabr-qanoat va kamtarlikka chaqirgan. Bugungi kunda yoshlarimizga ushbu qadriyatlarni singdirish ularning jamiyatda munosib o‘rin egallashiga xizmat qiladi.

3. Adabiy meros – ruhiy dunyoni boyitish va vatanparvarlikni shakllantirish

O‘zbek adabiyoti durdonalaridan bo‘lgan Alisher Navoiy, Bobur, Furqat, Behbudiy kabi adiblarning asarlari yoshlarga hayotiy saboq beradi. Masalan, Boburnoma asarida Bobur Mirzo halol mehnat, vatanparvarlik va adolatparvarlik haqida fikr bildirgan. Ushbu asarlar yoshlarimizning dunyoqarashini boyitib, ularni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalaydi.

Ilmiy-ma’naviy merosni yoshlar ongiga singdirish usullari

1. Ta’lim tizimida ilmiy merosni targ‘ib qilish

• Maktab va oliy o‘quv yurtlarida ajdodlarimiz ilmiy kashfiyotlarini chuqur o‘rgatish.

• Yoshlarni ilmiy izlanishlarga jalb qilish, ilmiy to‘garaklar va seminarlar tashkil etish.

2. Ma’naviy va axloqiy tarbiyada merosning ahamiyatini oshirish

• Yoshlar uchun milliy qadriyatlar va axloqiy me’yorlar haqida seminar-treninglar o‘tkazish.

• Mahalla, oilaviy muhitda ma’naviy qadriyatlar targ‘ibotini kuchaytirish.

3. Zamonaviy texnologiyalar orqali merosni keng targ‘ib qilish

• Raqamli platformalar (YouTube, Telegram, Instagram) orqali ilmiy-ma’naviy meros haqida kontent yaratish.

• Mobil ilovalar va interaktiv kurslar orqali yoshlarning ajdodlar ilmiga bo‘lgan qiziqishini oshirish.

**Xulosa**

Ilmiy-ma’naviy meros yoshlarni tarbiyalashning muhim omillaridan biri bo‘lib, ularning intellektual va axloqiy kamolotiga xizmat qiladi. Buyuk ajdodlarimizdan qolgan bilim va qadriyatlar asosida yoshlarni yetuk inson sifatida voyaga yetkazish kelajagimiz mustahkamligining garovidir. Shu sababli, ta’lim tizimi, oilalar va jamiyat bu borada yanada faol bo‘lishi zarur.

Yoshlarimiz ajdodlar merosidan ilhom olib, o‘z bilimini oshirsa va ma’naviy barkamol bo‘lsa, Vatanimiz ravnaqiga ulkan hissa qo‘sha oladilar.

**Adabiyotlar ro‘yxati**


1. Karimov I.A. Yuksak Manaviyat - Yengilmas Kuch. - Toshkent: Manaviyat, 2008.
2. Ahmad Yassaviy. “Hikmatlar”. Toshkent, 2002.
3. Najmiddin Kubro. “Tasavvufiy asarlar”. Toshkent, 2010.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. “Yangi O‘zbekiston – taraqqiyot va ma’naviyat yo‘lida”. Toshkent, 2021.
5. Vohidov Sh., Qosimov B. “O‘zbek adabiyoti tarixi”. Toshkent, 2008.


## TIPALOGIK TAHLIL VA TALQIN


**Maxmudova Diyora Muxtor qizi-**

Navoiy davlat universiteti O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi, I bosqich magistranti.

Ilmiy rahbar: f.f.f.d dotsent Ahmedova.Z



**Annotation.** In this article, presents a comparative and typological analysis of the novels of two authors representing two different nationalities: Belarusian writer Svetlana Alexievich’s “У войны не женское лицо” and Uzbek writer Utkir Khoshimov’s “Ikki eshik orasi”. Both of these works are about World war II, its consequences, in addition, the horrors caused by the war, and their similarities and differences are analyzed.

**Keywords:** comparative-typological analysis, Nobel, World war II, woman, novel, Uzbek mentality, pafos, behind the front.

Qiyosiy-tipologik tahlil imkoniyatlari asosida ikkita millat vakili bo‘lgan, ikki xil ijtimoiy muhitda ijod qilgan, ikki xil ijodiy metodda o‘z asarlarini yaratgan, va eng muhimi, hech kimga o‘xshamaydigan uslubi bilan ajralib turadigan ikki ijodkorning buyuk asarlarini quyida tipalogik tahlil qilishga harakat qildik. Ikkala yozuvchining ham tahlilga tortilgan asarlari XX asrda ro‘y bergan Ikkinchi jahon urushi, uning insonlar taqdiridagi oqibatlari va u keltirgan kasofatlar haqida bo‘lib, birinchisi, belarus yozuvchisi, 2015-yilda Nobel mukofoti sovrindori bo‘lgan Svetlana Aleksiyevichning hujjatli-ocherk janrida yozilgan ‘‘Urushning ayoldan yiroq qiyofasi’’ (1983) asari hamda taniqli o‘zbek yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning ‘‘Ikki eshik orasi’’ (1986) romanlari hisoblanadi.

XX asrga kelib jahon tarixidagi eng katta talafotli urushlar bo‘lib o‘tdi. Biroq bu ikki jahon urushlari mohiyat jihatdan bir-biridan farq qiladi. 2-jahon urushi vayronkorlik darajasi va qurbonlar soni bo‘yicha 1-jahon urushidan bir necha barobar yuqori tursa-da, unda vatanparvarlik prinsiplari yo‘lida hamda tinchlik uchun kurash bo‘lib o‘tgan. Aniqrog‘i, Germaniya, Italiya, Yaponiya kabi fashistik va militaristik davlatlarning tajovuziga qarshi ko‘plab xalqlar o‘z ozodligi va insoniy erki uchun kurash olib borganlar. Shu sababli 2-jahon urushi haqidagi aksariyat asarlarda tushkunlik kayfiyati (dekadentlik) emas, aksincha, qahramonlik va kurashuvchanlik ruhi yuqori turadi. 1-jahon urushi esa, bundan farqli ravishda, ozodlik yoki tinchlik uchun emas, yangi o‘ljalar va iqtisodiy daromad maqsadida bo‘lib o‘tgan. Asosan, mustamlakachi davlatlarning hukumatlari va yirik oligarxlar manfaati uchun olib borilgan. Svetlana Aleksiyevichning ‘‘Urushning ayoldan yiroq qiyofasi’’ asarida ikkinchi jahon urushida qatnashgan ayollarning hikoyalari jamlangan. Asar nomi belarus yozuvchisi Ales Adamovichning ‘‘Tom ostidagi urush’’ asarining birinchi qatoridan olingan. Bu asari uchun S. Aleksiyevich bir necha mukofotlarga sazovor bo‘lgan. Yozuvchi bu asarini yozish davomida o‘z qahramonlarini shaxsan o‘z ko‘zi bilan ko‘rganligini, ular bilan dildan suhbatlashganligini asar ichida keltiradi. Bu ayollarning ,dastlab, urushda tushgan rasmlarini, medallarini ko‘rsatishlarini keyinchalik esa, boshidan o‘tkazgan dahshatli kunlarini eslab gapirishga ham kuch topolmay qolishlarini alohida ta’kidlab o‘tadi. Asar bu jihatdan o‘zining aniq fakt va dalillarga tayanganligi bilan ham ajralib turadi. Bunga qo‘shimcha ravishda, aytib berilgan barcha voqea-hodisalar ostiga shu ayolning ism-familiyasini va urushdagi lavozimini ham yozib qo‘yadi. Asar realistik jihatdan O‘tkir Hoshimovning ‘‘Ikki eshik orasi’’ romani bilan o‘xshash hisoblanadi. Chunki adib O‘.Hoshimov ham o‘z asarining yozilish tarixi haqida shunday deydi: ‘‘… bu kitobdagi ko‘p odamlarni o‘zim ko‘rganman, ko‘plari bilan gaplashganman. Ba’zilarining o‘zi bilan, ba’zilarining ruhi bilan. Ba’zilari nimani gapirgan bo‘lsa, shuni qog‘ozga tushirdim. Ba’zilari nima gapirganini emas, nimani o‘ylayotganini yozishga majbur bo‘ldim’’. Urush haqida yozilgan minglab asarlarni, tasvirga olingan yuzlab kinolarni misol qilib keltirish mumkin, lekin ularda asosan erkaklarning qahramonliklari, ularning janglardagi jasorati tarannum etiladi. Vaholanki, ayyollar urushi boshqacha. Tabiatning go‘zal namunasi, nozik hilqat vakillari bo‘lgan ayollargina urushning bor dahshati haqida ro‘yirost gapiroladi, shoirlar tabiri bilan aytganda, faqat sevish uchun yaratilgan ayollargina o‘zlarining tabiatiga mos bo‘lmagan ishlarni qilishga urush majbur qilganligini yozoladi. Svetlana Aleksiyevichning ‘‘Urushning ayoldan yiroq qiyofasi’’ asari aynan mana shu ayollar urushi haqida “gapiradi”. Bu haqida muallif o‘zi shunday deydi: ‘‘Ayollar urushi erkaklar urushidan dahshatliroq desam adashmagan bo‘laman. Erkaklar tarix, dalillar ortiga berkinishadi, urush ularni g‘oyalar, turli manfaatlar to‘qnashuvi sifatida jalb qiladi. Ayollar esa hissiyotlar iskanjasida qolgan. …Men urushni emas, urushdagi odam haqida yozyapman. Urush tarixini emas, hislar tarixini bitmoqdaman. Zero ayol hayot beradi. Uni in’om etadi. Uni o‘zida uzoq vaqt saqlab yuradi, parvarishlaydi. Ayollar uchun o‘ldirish qiyinroq ekanligini angladim. …tahqirlangan, oyog‘osti qilingan, hamiyati toptalgan… ko‘zlari o‘yilib, ko‘kraklari kesib tashlangan ayollar… Bu kitobni o‘qiydiganlarga rahmim keladi,

o‘qimaydiganlarga ham…’’.[115] Tarix kitoblariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Sobiq SSSR qo‘shinlari tarkibida milliondan ortiq ayyollar urushda qatnashgan. Bu ayollar erkaklar bilan yelkama yelka frontda turli xil yumushlarni bajarishgan. Biz ayollar deb aytayotganimiz, aslida, ko‘pchiligi 16 yoshdan boshlab 19-20 yoshgacha bo‘lgan yoshgina, hali voyaga ham yetib ulgurmagan qizlar bo‘lib, ular o‘z yelkalariga oila, farzand tashvishlari o‘rniga, urush yukini olganlar. Afsuski, asardagi askarlar uchun urush g‘alaba bilan yakunlansa-da, jangchi ayollar uchun urush hech qachon tugamadi, ular qalbida urush doim saqlanib qoldi. Ular avvalgidek ayol bo‘la olishmadi. Chunki ular muhabbat, oila, farzand kabi ne’matlardan oldin urushga duch kelgan edilar. Urush doim ular uchun birlamchi bo‘lib qoldi. Urush vaqtida vatan oldidagi fidokorona jasorati uchun berilgan medallarini ham urushdan so‘ng ko‘rsatishga qo‘rqishardi, fronda ayol askarlarni avaylagan, ularga hurmat ko‘rsatgan, ularni singlisidek ko‘rgan erkaklar ham, urushdan so‘ng ularga uylanishni istashmas edi. To‘g‘ri, frontda bir-biriga ko‘ngil qo‘yib topishgan yigit-qizlar ham bo‘lgan, ammo bunday “front qiziga” uylanganligi uchun yigitning yo ota-onasi, yo opa-singlisi qarshi bo‘lishgan. Chunki xalq ongida ayol askarlar haqida yomon fikrlar bor bo‘lgan. Shunday bo‘lgach bu ayollar jimgina biqinib olishdi, erkaklar g‘alabani ayollar bilan birga baham ko‘rishmadi. Urushdan so‘ng erkaklar qahramonlarga, g‘oliblarga, kuyovlarga aylanishdi. Ular olgan medallarini faxr bilan taqib yurishdi, hattoki urushdan majruh bo‘lib qaytgan nogiron erkaklarga ham o‘z holati ayb sanalmadi, ular hayotda o‘z o‘rinlarini topib ketishdi. Urushda erkaklar ayollarchalik ko‘p narsa yo‘qotmadi. Ammo ayollarchi? Ular urushdan qaytgach, juda ko‘p ta’na- malomatlarga qoldi, ularni yengiltaklikda, ‘‘urushga er qidirib borgan’’ likda ayblashdi. Urush ayollarining achchiq qismatlarini, ular qalbining tub-tubida yotgan alamli dardlarini S.Aleksiyevich asaridagi jumlalaridan quyidagilarni misoli qilib keltirishimiz mumkin: ‘‘Onam, saharda, hamma uxlab yotganda meni uyg‘otdi: “ Qizim, senga ul-bul narsa solib qo‘ydim. Ket, ket, bolam... Ikkita singling bor hali. Kim ularni xotin qiladi? To‘rt yil erkaklar bilan frontda bo‘lganingni hamma biladi...’’ Qalbimga tegmanglar. Undan ko‘ra, boshqalarga o‘xshab medallarim haqida yozing‘’, (o‘sha manba, 34-bet). “...Erimdan xafa emasman, uni allaqachon kechirganman. Ketar chog‘ida alam bilan: ”Es-hushli xotin bo‘lganingda urushga borarmiding? Otishni o‘rganarmiding? Shuning uchun bolani ham eplab tug‘olmading”,-dedi. Xudodan uning ham gunohlarini kechirishini so‘rayman...”, (o‘sha manba, 298-bet). Yuqorida keltirilgan jumlalar faqat ikki ayolning umrida bo‘lgani, ularning achchiq iztiroblari hisoblanadi. Asarda urushning insoniylikdan yiroq bo‘lgan qiyofasi askar ayollar obrazining holati vositasida ruhiy ochib berilgan o‘rinlar yetarlicha topiladi. Yozuvchi yuqoridagi o‘sha ikki ayol taqdiri misolida ham deyarli barcha urush ayollarining umumlashma obrazini yarata olgan desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Nima bo‘lgan taqdirda ham urush baribir urush. Urushda bu ayol, bu erkak deb ajratilmaydi, urushda faqat askarlar bo‘ladi. “Urushda yarim inson, yarim yirtqich bo‘lishing kerak. Boshqa yo‘l bilan tirik qolishning imkoni yo‘q. Faqat inson bo‘lsang- tirik qolmaysan!”, (o‘sha manba, 84-bet). Tahlil qilinayotgan har ikki asarda ham urush epizodlari, jang maydonidagi fojeali lavhalar juda ko‘p uchraydi. Bunday tasvirlar urush dahshatlarini yanada aniqroq tasavvur qilinishiga yordam beradi. Masalan, quyidagi tasvirlarga e’tibor qarataylik: “Bitta barak oldida bir ayol turgandi. U bola emizayotgandi. Bilasizmi... Itlar ham shu yerda, qorovullar ham, hamma qotib qoldi, hech qaysinisi tegmay turibdi. Nemis komendant bu manzarani ko‘rib... yugurib keldi-da, ona qo‘lidan go‘dakni yulib oldi... Bilasizmi, yonida kolonka, suv chiqadigan temir kolonka turgandi. U bolani mana shu temirga urdi. Miyasi oqib tushdi... Sutdek... Qarasam, ona yiqildi: Men shifokorman... Yuragi yorilganligini tushundim...”, (o‘sha manba, 342-bet). Asarda qanchadan qancha begunoh bolalar, ayollar, yosh va navqiron yigitlar juvonmarg bo‘lgani, nemislar, ayniqsa, bolalarni shafqatsizlarcha o‘ldirganligi, qochib ketayotgan murg‘ak go‘daklarni tanklar bilan quvib, xuddi yer haydagandek, yanchib o‘tishganligi haqida lavhalar berib o‘tilgan. Bu orqali S.Aleksiyevich front askarlari ruhiyatidagi o‘zgarishlarni umumiy holatda tasvirlab,

[115] Svetlana Aleksiyevich ‘‘Urushning ayoldan yiroq qiyofasi’’, Toshkent: O’zbekiston, 2018, 16-17- 26-betlar.

inson qalbidagi yovvoyi instinktlarga e'tibor qaratadi, front va undagi voqealar har ikki taraf askarlari qalbida turli buzg'unchi va vahshiy hissiyotlarni keltirib chiqarishini ta'kidlaydi. Eng achinarlisi, aslida, bu askarlarning o'zlari ham shunchaki siyosat, utopik jamiyat va davr qurbonlari edi. Urushdagi jasorat bilan fikrlash jasorati tamomila boshqa-boshqa jasorat. Asar kitobxonning urush haqidagi tasavvurlarini tubdan o'zgartirib yuboradi. Shu sababdan bu asar yozib tugatilgach ikki yil nashr qilinmay yotgan. Yozuvchi nashriyotlardan rad javob olgan. Hammasidan bir xil javob qaytarilgan: Ortiqcha naturalizmda yozilganligini, dahshati ko'pligini, o'ta qo'rqinchli urush tasvirlanganligini sabab qilib ko'rsatishgan. Hattoki yozuvchini "sovet ayolining qahramonona qiyofasini bulg'ashda, pasifizmda, kommunistik partiyaning yyetakchi va yo'lboshlovchi vazifasi ko'rsatilmagan"likda ayblashgan. "Xo'sh, u qanday bo'lishi kerak edi? Unda generallar va dono generalissimus bo'lishi kerakmidi? Bit va qon bo'lmasligi kerakmi? Qahramon va qahramonliklar haqida yozish kerakmi? Onalar o'z bolasini, jigarbandini, g'alaba uchun baxshida qilganligini yozmaslik kerakmidi?"[116],- deb yozadi muallif asariga bildirilgan tanqidlar haqida. 2- jahon urushi davrida Ukraina ham SSSR tarkibidagi davlatlardan biri bo'lgan. Ukrainada bo'lgan dahshatli ochlik haqidagi tasvirlarni yozuvchi o'ta mohirlik bilan berib o'tadi. Odamlar qurbaqa, sichqon va kalamushlarni ham yeyishadi, osmonda chumchuq va olashaqshaqlar ham yo'q bo'lib ketadi, odamlarning yarmi qirilib ketib, qolganlari ochlik tufayli, hattoki, yosh bolalarga ham, yaradorlarga ham boshqacha ko'z bilan qarashadi. Ayniqsa, muallif quyidagi jumlalari orqali o'sha dahshatli ochlikning o'ta og'ir darajada bo'lganligini juda ta'sirli qilib gavdalantiradi: "Oksana bilan dugona bo'lganmiz, u ukrainalik edi. Ochlik tufayli ...qishlog'ida odamlarning yarmi qirilib ketibdi. Ukalari va ota-onasi ham o'libdi. U esa kechasi kolxoz otxonasidan ot go'ngini o'g'irlab yer ekan. Shu bilan o'limdan qutilib qolibdi. Hech kim yeya olmas ekan. U esa yebdi: "Issiqligida og'izga kirmaydi, sovuq bo'lsa amallab yesa bo'ladi. Muzlagan bo'lsa undanam yaxshi, undan somonning hidi keladi", (o'sha manba, 21-bet). S.Aleksiyevich yuqoridagi misollar orqali o'quvchiga ham ruhiy, ham psixologik jihatdan urushning o'ta salbiy tomonlarini ko'rsatib ketadi. Asar qahramonlari urushni g'alaba bilan yakunlashadi. Amma urushdan so'ng ular yana oldingidek yashay olishmadi, yana oldingidek xotirjam bo'lisholmadi, yuragida bir kemtiklik his qilishardi, hattoki tushlariga ham urushda ko'rganlari kirib chiqardi, ular oldingidek baxtli bo'lisholmadi. O'tkir Hoshimov tili bilan aytganda: "Urushda g'olib va baxtli podshoh, g'olib va baxtli qo'shin, g'olib va baxtli davlat, g'olib va baxtli tuzum bo'lishi mumkin. Ammo g'olib va baxtli odam bo'lmaydi. Negaki, urush odamni odam o'ldirishga majbur qiladi. Odam o'ldirgan odam esa hech qachon baxtli bo'lmaydi!"[117].

Ikki xil davr, ikki xil mintaqada yashagan ikki ijodkor asarini bog'lagan rishta, barcha xalqlar adabiyotining asriy mavzusi bo'lgan urush va undagi insonlar taqdiri bo'lsa, ularni farqlab turuvchi jihat diniy e'tiqodlar, urf-odatlar va mentalitet hisoblanadi. Svetlana Aleksiyevich asari shafqatsiz realizmda yozilgan bo'lib, urushning bor dahshati "yalang'och" holda tasvirlangan bo'lsa, O'tkir Hoshimov asari o'zbek xalqining milliy mentalitetiga moslanganligi bilan, o'quvchini "ayagan"ligi bilan farqlanib turadi. Bunga qo'shimcha tarzda, bu ikki o'xshash asarning farqli jihatlaridan yana biri bu "Urushning ayoldan yiroq qiyofasi"da aynan frontning o'zida bo'lgan voqealarga, undagi qonli to'qnashuvlarga asosiy e'tibor qaratilgan bo'lsa, "Ikki eshik orasi" asarida yozuvchi front ortidagi urush odamlari iztiroblarini ko'proq ko'rsatib berishga harakat qiladi. Bu bilan muallif urushdan minglab kilometr uzoqda bo'lgan insonlar taqdiriga ham urushning qanchalik ta'sir o'tkaza olganligini katta mahorat bilan tasvirlaydi.

"Ikki eshik orasi" O'tkir Hoshimov adabiy merosida asosiy o'rin egallaydi. Ushbu roman 1986-yilda yozilgan bo'lib, undagi voqealar Toshkent yaqinidagi qishloqlardan birining chorak asrlik hayoti haqida hikoya qiladi. Undagi voqealar urushdan oldin boshlanib, urush yillarida, undan keyingi davrda ham davom etadi va 1966-yildagi Toshkent zilzilasi bilan tugaydi. Kichik bir qishloq va unda

[116] Svetlana Aleksiyevich ''Urushning ayoldan yiroq qiyofasi'', Toshkent: O'zbekiston, 2018, 21-bet.
[117] O'tkir Hoshimov "Daftar hoshiyasidagi bitiklar", sharq, Toshkent: 2015, 210-bet.

yashaydigan insonlarning fojeali taqdirlari misolida butun dunyo tinchligiga raxna solgan urush qoralangan, asarda urush va uning g‘ayriinsoniy mohiyatiga ko‘proq urg‘u berilgan, ko‘plab o‘zbek yigitlarining urushda qatnashgani, ba’zilari qahramonlarga aylangani, ba’zilari nogiron bo‘lib qaytgani, yana ba’zilari esa umuman qaytmaganligi, bunday ko‘rguliklar ota-onalar qalbini jarohatlagani, qalbiga ozor yetkazgani, yana kimlarnidir bu dunyoni tark etishiga sabab bo‘lgani romanning umuminsoniy pafosini tashkil etadi. Asarni Orif oqsoqol tilidan aytilgan quyidagi jumlalar harakatga keltirib turadi deyish mumkin: “Xudo odamzodga umrni o‘lchab beradi. Odamning umri necha yil yashagani bilan sanalmaydi... Bir xil odamlar bor: u eshikdan kirib, bu eshikdan chiqib ketayotganda qo‘lidan kelgancha savobli ish qiladi. Hayot degan imoratga aqalli bitta g‘isht qo‘yib ketadi. Yana bir xillari bor: o‘sha imoratdan aqalli bitta g‘ishtni o‘g‘irlab ketgisi keladi. O‘g‘irlab-ku, hech qayoqqa borolmaydi, narigi eshikka borganda bari bir tashlab ketadi. Ikki orada imoratni buzgani qoladi”.[118] Roman personajlarga boyligi bilan kitobxonni o‘ziga jalb etadi. Yozuvchi, ayniqsa, Orif oqsoqol obrazini mukammal chizishga muvaffaq bo‘lgan. Oqsoqol xalq orasida katta obro‘-e’tiborga ega, odamlar undan qo‘rqqanidan emas, balki uni yaxshi ko‘rganidan hurmat qilishadi. U ko‘pgina o‘zbek qariyalari kabi tashabbuskor va donishmand shaxs sifatida tasvirlangan. Urushning eng og‘ir damlarida ham xalq bilan birga bo‘lib, charchagan, sillasi qurigan odamlarni og‘ir va tinimsiz mehnatga otlantira olgan, o‘zi ham ular bilan birgalikda mehnat qilgan. U odamlarni baholashda o‘z me’yoriga ega – erkak kishining belida belbog‘i bo‘lishi kerak. Belbog‘ oqsoqol uchun mardlik, or-nomus va odamiylik belgisi. Shunday bo‘lsa-da, bu obraz urushda ikki pahlavondek o‘g‘lidan bir kunda qoraxat olgan ota, keyinchalik o‘z ayolini yerga “bergan” erkak, bir begona erkak bilan qochib ketib, el oldida sharmanda qilgan kelinini kechirolgan qaynota sifatida urushning jafokash timsoli hamdir. Romanda ayollar obraziga ham keng o‘rin berilgan. Ular ichida, ayniqsa, qora amma obrazi ajralib turadi. Qora amma – mehribon, sodda, bardoshli va mehnatkash ayol. Uning obrazida urush davridagi o‘zbek onalarining tipik siymosi tasvirlangan. O‘gay qizi bo‘lgan Robiyani yoshligidan tarbiyalab, uni o‘z onasidek katta qildi, el-yurt ishiga kamarbasta bo‘lsin deb yolg‘iz farzandi – Kimsanini, urushga kuzatdi. Biroq taqdirning qora ammaga bergan sinovlari juda-juda ko‘p ekan: Poyezd bosib, turmush o‘rtog‘idan ayrildi, urush tugagach o‘g‘li Kimsan ham qaytmadi, o‘ligi ham topilmadi. U boshiga tushgan barcha ko‘rgiliklarni sabr-bardosh bilan yengib, o‘zida yashashga kuch topoldi. Hayotda “... tirikmisan, kurashasan. Yo yengasan, yo yengilasan. Qiziq, nega endi yengilish uchun kurashish kerak! Cho‘qqiga chiqayotgan odam yiqilishni niyat qilmaydi-ku! Kurashdingmi, yengishing shart!”[119]. Bir qarashda, yozuvchining o‘z asarida keltirib o‘tgan yuqoridagi jumlalari qora ammaning hayotdagi shioriga aylanib ketgandek bo‘lib ko‘rinadi. Romandagi yana bir ayol obrazi bu – Robiya. Asarda u juda aqlli, sadoqatli, go‘zal bir o‘zbek qizi sifatida tasvirlangan. Afsuski, unga ham taqdir kulib boqmadi: Yoshligida onasidan yetim qoldi va otasi tarbiyasida ulg‘aydi. Biroq otasini ham “xalq dushmani” sifatida ayblab olib ketishdi. Muhabbat bobida ham Robiyaning omadi chopmadi: Urush tugaganiga bir necha yil bo‘lsa-da sevgilisi Kimsanni sadoqat bilan kutdi, ammo taqdirning gardishi bilan u o‘zining tutungan tog‘asiga turmushga chiqishga majbur bo‘ldi. U sabrli, mehribon, irodali o‘zbek ayoli sifatida barchaga na’muna bo‘la oladi. Robiyaning bunday ijobiy xislatlariga mutlaqo teskarisini asardagi Ra’no obrazida kuzatishimiz mumkin. Ra’no juda latofatli ayol edi, eri Shomurod ham uni jonidan ortiq yaxshi ko‘rardi. Bir qarashda, uning baxti boshqalarnikiga nisbatan butunroq edi. El qatori uning eri Shomurod ham urushga ketdi. Ayollar eridan har-har zamon bitta-yarimta xat olib turishsa, uning eridan tez-tez xat kelardi. Lekin Ra’no mana shu baxtning qadriga yetmadi, o‘z nafsining qurboniga aylanib eriga xiyonat qildi, uch oylik bolasini tashlab, Umar zakunchi bilab qochib ketdi. Ra’no subutsizligi, o‘ylamay ish qilishi, jilovlay olmagan nafsi tufayli

[118] O’tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi”, yangi asr avlodi, Toshkent: 2021, 554-bet.
[119] O’tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi”, yangi asr avlodi, Toshkent: 2021, 550-bet.

umrining so‘ngida xasta va baxtsiz bo‘ldi. Yozuvchi har bir obrazga alohida e’tibor qaratgan, ularsiz asar yaxlitligiga putur yetadi. Romandagi Kimsan Husanovning urushda ko‘rgan-kechirganlarini asarning eng asosiy kulminatsion nuqtasi deyish mumkin. Kimsan mard, oriyatli, jasur, ”belida belbog‘i bor” yigit edi. U urush boshlanganligini eshitishi bilan, vatan himoyasiga otlandi. Urushda juda ko‘p qiyinchiliklarni boshidan o‘tkazdi, nemislarga asir tushdi, ko‘plab dahshatli voqealarning guvohi bo‘ldi. Kimsan nemis doktorlariga “tajriba quyonchasi” bo‘lganlardan biri edi. Nemislar o‘z askarlariga sovuqqa chidamli bo‘lishlari uchun dori kashf qilishardi. Oldiniga bir cholni tajriba qilib ko‘rishadi, muzni o‘yib, ichiga cholni solishadi, chol dorining ta’siri tufayli sovuqqa 24 daqiqa chidab, keyin o‘ladi. So‘ng bir yoshgina, yetti yoshlar chamasidagi qizchasi bor ayolni muzga tashlashadi, qizchasi onasiga qarab tinmay yig‘lardi, ayol “ukolning kuchi bilan” 35 daqiqa chidab, keyin jon beradi. Ofitserlar quvonishadi, “mo‘jizaviy dori” yaratganligi bilan bir-birini tabriklashadi. Demak, ularning nazarida, bu galgi dorining foydasi ko‘p ekan-da!? “Hisob-kitobga usta nemislar, ”madaniyatli”, “bilimdon” fashistlar bir narsani o‘ylamasdi. Ayolni shuncha azobga bardosh berishiga majbur qilgan kuch dori emas! Onaning ko‘z o‘ngida qizchasi turibdi. U bolasidan umid uzolmayapti. O‘lolmayapti. “Dono” fashistlarning aqli qandoq yetsin bunga!”. (o‘sha manba, 493-bet). Yozuvchi O‘.Hoshimov yuqorida keltirilgan misollar orqali nemislarning vahshiyona harakatlarini, urushda hech qanday mehr-shafqat bo‘lmasligini, shunday bo‘lsada, onaning o‘z farzandiga bo‘lgan mehr-muhabbati hamma narsadan kuchli ekanligini isbotlab beradi.

Ikki asarni ham o‘qigan holda shunday xulosa qilish mumkinki, urush va unda qozonilgan g‘alaba hech bir millat odamlariga baxt olib kelmadi. Aksincha, urush asri odamlarini ham, undan keyin tug‘ilgan bolalarni ham baxtsiz qildi. Yuqorida tahlil qilingan ikki asar qahramonlarining taqdiriga ham urush bevosita yoki bilvosita kirib bordi va ularni o‘zining qurbonlariga aylantirdi. Urushni xalq o‘ylab topmadi, lekin xalq uning jabrdiydasiga aylandi. “Urush degan palakatni ko‘pincha nodon siyosatchilar o‘ylab topadi. Jangari sarkardalar boshlaydi. Jabrini esa begunohlar tortadi. Jangda halok bo‘lgan begunoh askar. Guldek o‘g‘lidan ayrilgan begunoh ona, begunoh ota. Tul qolgan begunoh kelin. Otasidan judo bo‘lgan begunoh g‘o‘dak...”[120].- deb yozadi O‘.Hoshimov. Bu ikki asar o‘sib kelayotgan yosh avlodni insoniylikka, iymon va insofga chaqirishga, tinchlikni qadrlashga, XX asrda bo‘lib o‘tgan ikki jahon urushi va uning oqibatlari haqida to‘g‘ri xulosa chiqarishga undaydi. Ayniqsa, hozirda dunyo tinchligiga raxna solayotgan davlatlar siyosatiga ko‘r-ko‘rona ergashmasdan, gumanizm tarfdori sifatida yondashishga chaqiradi. Eng asosiysi, hozirda yashab turgan hayotimizga shukronalik hisini uyg‘otadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Svetlana Aleksiyevich ‘‘Urushning ayoldan yiroq qiyofasi’’,O‘zbekiston, Toshkent -2018.
2. O‘tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi”, yangi asr avlodi, Toshkent- 2021.
3. O‘tkir Hoshimov “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”, sharq, Toshkent- 2015.


## XOJA AHROR VALIY TASAVVUFIY G‘OYALARINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI


**Nazarova Gulshan Ismoilovna**

Osiyo xalqaro Universiteti 2-bosqich magistranti



**Rezyume.** Ushbu maqola islom madaniyati, sufizm va uning Sharq Renessansiga ta’sirini tushuntiradi. Maqolada sufizmning yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Khoja Ahrar Valiyning qarashlari va ularning bugungi kunda ahamiyati muhokama qilinadi.



**Kalit so‘zlar:** islom madaniyati, Sharq Renessansi, Renessans madaniyati, ilmiy manbalar, sufiy tartibi, sufiy, inson kamoloti, axloqiy fazilatlar.


[120] O’tkir Hoshimov “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”, sharq, Toshkent: 2015, 214-bet.

**Resume:**This article explains Islamic culture, Sufism, its influence on the Eastern Renaissance, the views of Khoja Ahrar Vali, one of the representatives of Sufism, and their significance today.

**Keywords:** Islamic culture, Eastern Renaissance, Renaissance culture, scientific sources, Sufi order, Sufi, human perfection, moral qualities.

Tasavvuf musulmon Sharqi mamlakatlari ijtimoiy hayotiga chuqur kirib borgan nazariy ta’limot va maslak sifatida ushbu davlatlar aholisining ijtimoiy va ma’naviy hayotining ajralmas qismi bo‘lgan qarashlar tizimidir.Shunga ko‘ra tasavvufiy qarashlar jamiyatimizning o‘z davridagi fan, madaniyat va adabiyoti rivojiga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Milliy qadriyatimizga aylangan islom dini g‘oyalari va ko‘rsatmalari millatimizning tabiiy-tarixiy rivoji, ijtimoiy turmushi, yashash tarzi, o`tmishi, kelajagi, madaniyati, ma’naviyati, urf-odatlari, an’analari, tili, u vujudga kelgan hudud va boshqalar bilan uzviy bog‘langan. U milliy qadriyatlarimiz bilan xilma-xil shakllarda, bir-biri bilan uzviy aloqada namoyon bo`ldi, o`ziga xos milliy qadriyatlar tizimini tashkil qildi. Milliy qadriyatlarimiz tarkibidagi ba’zi islomiy qadriyatlarimiz kishilarning yashash joylari, turmush sharoitlari bilan bog‘liqlikda shakllandi. Shu sababli ham mintaqamizda bizning turmush tarzimiz, shart-sharoitlarimizga mos tarzda shariatning hanafiylik yo‘nalishi rivojlandi.Xalqimizning ma’naviy merosi, an’analari, urf-odatlari, adabiyoti, san’ati bilan umuminsoniy qadriyatlarning milliy darajada namoyon bo`lish shakllari islomiy qadriyatlar bilan bog‘lanib ketgan. “**Ular millatimizning tarixiy rivojlanish jarayonida avloddan avlodga o‘tib kelayotgan madaniy xususiyatlar va jihatlarda o`z aksini topadi”** deb ta’kidlaydi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev[1]. Bu tizimda tabiiy-tarixiy birlikni ta’minlovchi qadriyatlar – yagona e’tiqodlilik, qarindoshlik, madaniy-ma’naviy yaqinlik, o`tmish va ma’naviy meros, ona yurt tuyg‘usi va boshqalar barqaror hisoblanadi. XI asrdan boshlab Sharqning barcha nufuzli mutafakkir olimlari, ahli adabiyot bo‘lmish shoir va yozuvchilar tasavvuf g‘oyalaridan oziqlanib, uning insonparvarlik va haqsevarlik haqidagi qarashlaridan ilhomlanib ijod qilganlar. Bu haqida mashhur olim E. Bertels “Tasavvuf adabiyotini o‘rganmasdan turib, o‘rta asrlar musulmon Sharqi madaniy hayoti haqida tasavvurga ega bo‘lish mumkin emas. Bu adabiyotdan xabardor bo‘lmasdan Sharqning o‘zini anglash ham qiyin” deb ta’kidlagan edi.[2]

Tasavvuf namoyandalarining asarlarida poklik, xalollik, to‘g‘rilik, mexr-shafqat, o‘z kuchi, peshona teri va xalol mexnati bilan kun kechirish, Allox taolo visoliga yetishish yo‘lida insonni botinan va zohiran xar tomonlama takomillashtirish kabi ilg‘or umuminsoniy qadriyatlar ifoda etilgan. Huddi Shunday yuksak g‘oyalar Kubroviya, Naqshbandiya singari tariqatlarning mazmuni, mundarijasini tashkil etadi. Mamnuniyat bilan tilga olish lozimki, Najmiddin Kubro qalamiga mansub “Favo‘ix al-Jamol va fatvotix al-Jalol”, “Al-Usul al-ashora”, “Risolotut-turk” kabi 30 ga yaqin noyob asarlar mavjud. Uning tariqatida diniylik bilan dunyoviylik chambarchas bog‘lanib ketgan. Uning asarlaridagi kishilarning halollik, odamiylik, molu-dunyoga hirs o‘ymaslik, o‘z nojo‘ya ishlaridan tavba qilishdek axloqiy-g‘oyaviy, tarbiyaviy talab-qoidalar bizning kunlarimizda ham g‘oyatda muhim ahamiyatga molikdir. Demak, din bizning qon-qonimizga, ongu shuurimizga shu qadar teran singib ketganki, uni hech qanday kuch, hech qanday tashviqot bilan chiqarib bo`lmaydi. Xalqqa xizmat, mehr-oqibat, o`zaro yordam, insofu-diyonat, adolat, odamlarni yaxshilikka undab, yomonlikdan qaytarish, ular o‘rtasidagi munosabatlarda murosayu madoraga amal qilishdek durdona qadriyatlar qadimdan xalqimizning qon-qoniga singib hayotiy tarziga aylangan bo`lsada, islomiy qadriyatlar buni yanada yuksak darajaga ko`talishiga omil bo`ldi desak, hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Bunda yurtimiz hududida shakllanib, butun dunyo hamjamiyatiga ta’sir o`tkaza olgan tasavvufiy tariqatlar ahamiyati va o`rni juda katta. Tariqat silsilasi muayyan sulukning eng ishonchli tomonlaridan biri sanaladi. Silsila – muayyan tariqatning o‘z shayxi yoki piri orqali Muhammad sollallohu alayhi vasallamga yetib boradigan hasabnomasi, ya’ni ustoz-shogirdlik shajarasidir. Silsilaga kiruvchi shayxlar tariqat asoslarini Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamdan naql qilishda xizmat qilgan[3]. Payg‘ambar

sollallohu alayhi vasallamning silsilai ma’naviylari Abu Bakr Siddiq orqali tasavvuf tariqati otasi shayx Yusuf Hamadoniygacha yetib kelgach, uni muarrixlar “silsilai Siddiqiya”, deb yuritishgan. Shayx Abdulxoliq G‘ijduvoniydan Bahouddin Naqshbandgacha yetib kelgan silsila “xojagon-naqshbandiya”, deyilgan, Xoja Ahrori Valiydan boshlab “naqshbandiya-ahroriya” nomini olgan[3]. Tasavvuf g‘oyalari va yo`l-yo`riqlari islom dini qarashlari, qadriyatlarining oddiy xalq ongiga, uning turmush tarziga aylanishiga muhim vosita vazifasini o`tagan. Chunonchi, yurtizmiz zaminidan shunday siymolar yetishib chiqdiki, ular o‘zlarining sermazmun hayoti, ibratli harakatlarga asoslangan faoliyati, ma’naviy-ma’rifiy o‘gitlari bilan xalq ehtiyojlari, manfaatlari yo‘lida butun kuch-g‘ayratini, kerak bo‘lsa, jonini-yu, dunyoviy mol-mulkini ham ayamay el-yurt xizmatida bo`lgan. Shunday piru-ustozlardan biri **Xoja Ahror Valiy (1404–1490)** hazratlari hisoblanadi. Diyorimizning sharif zotlaridan hisoblanadigan bu ulug‘ siymo haqida o`z davrida buyuk insoniy fazilatlari tufayli zamondoshlari tomonidan «yaxshilar qutbi», «shayxlar shayxi», «ahli tariqat peshvosi», «sulh va tinchlik valiysi» degan juda yuksak darajadagi nomlarga sazovor bo‘lgan. Sababi, Xoja Ubaydulloh Ahror Valiy xojagon-naqshbandiya tariqatining eng buyuk murshidlaridan biri ekanligi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotda katta iz qoldirib, o‘z davrida shuhrati dunyo mamlakatlari bo‘ylab nom chiqargan. Uning tasavvuf tarixidagi buyuk xizmatlaridan biri naqshbandiya silsilasi islom olamidagi eng ulug‘ silsilalardan biriga aylanishidir va ushbu tariqatning “**«Dil ba yoru, dast ba kor» (Qalbing Allohda, qo‘ling mehnatda bo‘lsin)**” degan shiorini amalda yuksak darajada namoyish eta olgan pir sifatida mashhur bo`lgan.

Xoja Ahrori Valiy tasavvuf tarixida birinchi bo‘lib xalq ravnaqi yo‘lida tariqatni siyosatga, podshohlarga ta’sir ko‘rsatuvchi amaliyotga aylantirgan. Piru komilning ilmiy-ma’naviy merosi bizgacha uning “Risolai Volidayya(Otaga atalgan risola)”, “Risolai Havroiyya(Hularga atalgan risola)”, “Fiqrot ul-orifiyn(Ma’rifat ahlining so`zlaridan parchalar)”, “Anfosi nafiysa(Nafis fikrlar)” kabi risolalari orqali yetib kelgan. Ushbu risolalarda so`fiyning fiklari nasr va nazmda ifodalangan bo`lib, unda tariqatning g‘oyalari, solikning axloqu-fazilatlari va ularni qanday qilib yuksak darajaga yetkazish bo`yicha pandu nasihatlar, mushohadalar keltirilgan. Jumladan, tariqat yo`lidagi solik nafaqat doimiy ibodatda balki hamisha xalq xizmatida, mehnat bilan mashg‘ul bo`lishi uqtirilgan. Masalan, Xoja Ahror Valiyning “Risolai Volidayya” risolasida quyidagi fikrlar keltirilgan: Solikning balog‘ati shunga ishoratki, botinda Haq subhonahuga yetishib, mushoda va munojotda U bilan, zohirda esa xalq bilan bo`ladi. Shu o`rinda risolada Robia roziyallohu anhodan to`rtlik keltiriladi:

Inniy ja’altuka fi-l-fuvodi muhaddasiy,
Va abathu jismiy li man aroda julusiy.
Fa-l-jismu minniy li-l-jalisi muvonisun,
Va habibu qalbiy fi-l-fuvodi anisiy.
Mazmuni:
Seni yuragimda suhbatdoshimga aylantirdim,
Jismimni esa men bilan suhbatdosh bo`lishni xohlovchiga qo`ydim.
Demak, jismim suhbatdosh uchun ulfat,
Qalbim mahbubi esa dilimga ulfatdir.[5]

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, o`zbek milliy qadriyatlarning rivojlanishida tasavvufiy ta`limotlarning o`rni juda muhim. Tasavvufiy ta’limotlardagi qarashlar bevosita hozirgi kunimizda ham nafaqat barkamol avlod tarbiyasidagi mavjud muammolarni hal qilishda, balki jamiyatimizning juda ko`p ijtimoiy-siyosiy masalalarga yechim topishga xizmat qila oladi. Buning uchun ushbu ta’limotlarni hozirgi zamon ijtimoiy-ma’naviy sohalarga nisbatan integratsiyasiga oid tadqiqotlarni amalga oshirish yurtimiz ilm egalari oldidagi muhim vazifadir. Yana tasavvufiy qarashlar ularni yoshlarning ongiga singdirish bo`yicha turli targ‘ibot chora-tadbirlarini amalga oshirish zaruriy ehtiyojdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**
1. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. - Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2017. -28-b.
2. Бертельс Э. Суфизм и суфийская литература. – М.: Наука, 1995.с.54
3. Tasavvuf ta’limotiga oid manba. Asar nomi va muallif noma’lum. Qo‘lyozma, fors tilida. IBXITM manbalar xazinasi inv. №52.
4. **Mehrojiddin Amonov.** Naqshbandiylik silsilasida Xoja Ahror Valiyning tutgan o‘rni. https://www.bukhari.uz/?p=20033&lang=oz
5. Xoja Ubaydulloh Ahror. Tabarruk risolalar. Toshkent. “Adolat”. 2004 yil 32-b

## O‘ZBEKISTON YOSHLARI TARBIYASIDA MA’NAVIY MEROSNING O‘RNI

**Juliyev Ismat-**
Samarqand viloyati Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi
Ta’lim jarayonini tashkil etish sho‘basi yyetakchi mutaxassisi
**Soliyev Anvar-**
Samarqand transport texnikumi ishlab chiqarish ta’lim bo‘yicha direktor o‘rinbosari

**Annotatsiya.**Future of Uzbekistan, which has playe d an important role in the education of young people, is the future of the developing country, and the spiritual and educational heritage left by our ancestors is considered the main source for the education of our future youth . Therefore, we need to study our spiritual and educational heritage more deeply and enlighten our youth.
*Keywords:* youth, spiritual, educational, heritage, ancestors, nation.

Tarixdan ma’lumki, mamlakatimiz bir necha bor bosqinchilar hujumiga duchor bo‘lgan, qaramlik va zulm ostida qolgan. Buning natijasida xalqimizning boy ma’naviy merosi, urf-odatlari qadrsizlanishiga mahkum bo‘lgan. Ayniqsa, chor mustamlakachiligi va sovetlar tuzimi davrida milliy qadriyatlarimiz, urfodatlarimiz oyoq osti qilindi. Ona tilimiz, boy ma’naviy merosimiz qadrsizlantirildi. Mustaqillik yillarida ana shu boy ma’naviy-madaniy merosimizni tiklash va rivojlantirish, jamiyat ma’naviyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasida olib borilmoqda.

Ma’naviyat sohasining asosiy masalalaridan bir yoshlarni tarbiyasiga bo‘g‘lagan holda kelajakka sari yo‘l ochib, ularni tarbiyasiga alohida e’tibor berish kerakligini mujassam etishga undamoqda. Bugungi kunda, hanuz jahon ilmi darajasida tadqiqotlar o‘tkazilmaganligini hisobga olib, "Milliy ma’naviyatimiz asoslari" deb atalishi asli mohiyatga muvofiqroq bo‘lib yoshlar tarbiyasiga sindirilib kelinmoqda. Ma’naviyatning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni, uning ruhiyat, madaniyat, axloq kabi hodisalarga nisbati, Yoshlar ruhidagi borliq haqiqati bilan uyg‘unlik darajalari (Vatan, Shaxs, Millat, Adolat, Haqiqat), Shaxs ma’naviyatining asosiy jihatlari (imon, ilm, mas’uliyat, mehr), Milliy ma’naviyatimizning tarixiy takomili tashkil qiladi. Hozirgi paytda bu yoshlarni tarbiyasining qamrovi borgan sari kengayib, uning mavzu doirasiga kiruvchi qator masalalar alohida tarmoqlari sifatida o‘rganilmoqda

Buning ma’nosi, shaxs ma’naviyati voqelikda millat ma’naviyatidan ayru, undan tashqarida bo‘lmaydi. Shunday ekan, yoshlarni ma’naviyati haqida muayyan tasavvurga ega bo‘lmay turib, alohida shaxs ma’naviyatini ham o‘rganish imkondan tashqari. Agarchi, tarixan va nazariy jihatdan millat ma’naviyati, tom ma’noda olganda, ushbu yoshlarga qaysidir bir tarzda aloqador hisoblanuvchi o‘tmish, bugun va kelajakdagi barcha shaxslar ma’naviyatining majmuidan iborat bo‘lsa-da, voqelikda har bir shaxs ma’naviyati millat ma’naviyatidan oziqlanadi, uning asosida kamol topadi.

Ma’naviyat – inson va jamiyat va yoshlar hayotining uch asosiy sohasidan (yo‘nalishidan) biri, har bir insonning Haqqa, borliqning mohiyatiga bo‘lgan munosabati. Ma’naviyat – o‘z mazmuniga

ko‘ra ko‘p qirrali murakkab botiniy hodisa bo‘lib, mohiyatan Inson ruhidagi borliq haqiqati bilan uyg‘unlikni anglatadi. Shu ma’noda uni Insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudrati, yoshlarnini ruhiy poklanish va yuksalishga da’vat etadigan, uning ichki olamini boyitadigan, iymon-irodasini, e’tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg‘otadigan qudratli botiniy kuch, Haqiqat nurining inson qalbida aks etishi, yoki baqoning fanoda zuhuri, dunyoviy va uxraviy maqsadlarning uyg‘unligi, insonning o‘z mohiyati oldidagi mas’ulligi, o‘zligini anglashi deb ham ta’riflash mumkin. Insonning borliq abadiyatiga daxldorligi ayni uning ma’naviyati tufaylidir.

Agar bir millat yoshlari o‘z ajdodlarining ma’naviy merosidan butkul bebahra qolgan bo‘lsa va muayyan sharoitda to‘liq boshqa millat madaniyati ruhida tarbiya olsa, uni endi o‘z millatining to‘laqonli vakili deyish qiyin. Ammo eng yomon holat Sho‘rolar davrida yuz berdi. Bu davrda sun’iy birlashtirilgan ulkan bir hududning barcha aholisi, millatidan qat’i nazar, kuchli va har taraflama taziyq ostida muayyan maqsadlarda maxsus ishlab chiqilgan yolg‘on mafkura ruhida majburiy “tarbiya” qilindi. Bu zug‘umga barcha ham birday bo‘y bergani yo‘q, ammo afsus bilan e’tirof qilishga to‘g‘ri keladiki, bunday vahshiyona va makkorona “ta’lim-tarbiya” tizimi juda ko‘p yoshlar ongida og‘ir asoratlar qoldirib yoshlarni ma’naviyatini zaxarlab kelmoqda.

Yoshlar ma’naviyati – har bir inson ruhidagi borliq haqiqati bilan uyg‘unlik darajasi. Bu uyg‘unlik har bir yosh, ilmi, mas’uliyati, mehri orqali namoyon bo‘ladi va Vatan, Shaxs, Millat, Adolat, Haqiqat tuyg‘ularida ifodalanadi.

Buyuk ajdodlarimiz bizga qoldirgan ulkan meros – milliy ma’naviyatimiz nazariyasini shakllantirish uchun butun kerakli unsur va tarkiblarni yaratib qo‘ ipti, faqat yoshlari shunga asosan xolis nazar bilan astoydil qidirsak, kifoya.

Yoshlar ma’naviyat – har bir millatga qaysidir bir tarzda aloqador hisoblanuvchi o‘tmish, bugun va kelajakdagi barcha shaxslar ma’naviyati majmuini muayyan bir tizim sifatida anglanishi. Milliy ma’naviyatimiz ham tarixiy hodisa, ham zamonaviy voqelik bo‘lib, millatning o‘tmishi, buguni, hamda kelajagini o‘zida mujassam etadi. U yoshlarning ma’naviy takomil jarayoni bilan bog‘liq va nafaqat ajdodlarimiz yaratgan ma’naviy merosda, balki bugungi kun va kelajak avlodlarning hayotga munosabatida, orzu-istaklarida o‘z aksini topgandir. Uning teranligi va ko‘lami ajdodlarimizning ming yillar davomida to‘plagan yaxlit tarixiy-ma’naviy tajribasi bilan belgilanadi, shu bilan birga xalq donishmandligining turli suratlarda zuhur etishi ham u haqdagi nazariy xulosalarning manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Bizning qadimiy va go‘zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e’tirof etmoqda. Yoshlarimizni bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar etishib chiqqani anglatar ekanmiz kelajakda bundanda kuchliroq kelajak avlod qolishga xizmatimizni, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog‘liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko‘tarilishida ona yurtimizda tug‘ilib kamolga etgan ulug‘ allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g‘urur va iftixor bag‘ishini anglatishdir.

**XULOSA.**

Shunday ekan, yoshlarimizni milliy ma’naviyatni rivojlantirish yo‘lida ma’naviy merosga juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, asrab-avaylash va undan unumli foydalanish zarurdir. Qolaversa, ulardan oqilona foydalanish albatta madaniy turizm rivojiga salmoqli hissa qo‘shadi. Ma’naviy va madaniy merosni asrabavaylash va muhofaza qilish jamiyat oldidagi muhim vazifalardan biri bo‘lib, ular bizga tarix va madaniyatimizni tushunish va qadrlash imkonini beradi.

Taraqqiyot va rivojlanishiizda ushbu omillar yoshlari tarbiyalashda va bilim berishda asosiy, muhim ro‘l o‘ynaydi

**ADABIYOTLAR**:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T., «O‘zbekiston», 2017.
2. Jo‘rayev N. Tarix falsafasi.-T.: Ma’naviyat. 1999.
3. O‘zbekiston Prezidentining Milliy g‘oya, targ‘ibot va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risidagi farmoni // Ta’lim. 2006 yil 26 avgust.
4. https://uzbekistan.travel/uz/uzbekistan/
5. https://daryo.uz/k/2022/04/21/madaniy-merosimiz-bebaho-boyligimiz.

## ALLYUZIYALARNI O‘QITISHDA PEDAGOGIK YONDASHUV

**Bozorova Matluba-**
Buxoro Davlat Pedagogika Instituti tayanch doktorant

**Annotatsiya. Ushbu tezisda** allyuziyalarni aniqlay olish, uni qo‘llash uchun o‘quvchilarning din, mifologiya, tarix va boshqa adabiyot asarlari haqida juda ko‘p bilimga ega bo‘lishligi, ularni qo‘llay olish va to‘g‘ri tahlil qilishligi keltirib o‘tilgan. Allyuzilarni tushunib, muloqotda qo‘llay olish uchun qadamba qadam yo‘l-yo‘riqlar keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar.** allyuziya, intertekstuallik, lingvistika, adabiy tahlil, madaniy kontekst.

**ANNOTATION,** This article discusses the identification and application of allusions. It emphasizes the necessity for students to possess extensive knowledge of religion, mythology, history, and other literary works to effectively apply and analyze allusions. Furthermore, the article highlights the significance of allusions in communication and provides step-by-step guidelines for understanding and using them effectively.

**Keywords:** allusion, intertextuality, linguistics, literary analysis, cultural context.

**Kirish.** Allyuziya va intertekstuallik postmodern adabiyotda lingvistik izlanishlarni talab qiladigan muhim tarkibiy qismlar bo‘lib xizmat qiladi. Intertekstuallik kontseptsiyasi o‘quvchilarni matnning asosiy mavzulari va ma’nolarini tushunishlarini boyitib, ko‘plab talqinlar bilan shug‘ullanishga taklif qiladi. Turli asarlar orasidagi havolalar va aloqalarni tan olish orqali o‘quvchilar aks holda yashirin qolishi mumkin bo‘lgan ahamiyatli qatlamlarni ochishlari mumkin. Ushbu ko‘p qirrali yondashuv nafaqat o‘qish tajribasini oshiradi, balki matnlar o‘rtasidagi dialogni rivojlantiradi, bu esa adabiyotning murakkab gobelenlarini yanada nozik baholash imkonini beradi.

Allyuziyalarni o‘rgatish davomida, deyarli har bir darsda qo‘llaniladigan qoidalar mavjud. Biz bu qoidalarni misollar orqali berib borsak o‘quvchilarga yanada osonroq va tushunarliroq bo‘ladi. O‘quvchilarga allyuziyalarni muvaffaqiyatli tahlil qilishda yordam berish uchun ularga jarayonni ochib berish kerak bo‘ladi, bunda allyuziyali klip yoki videoklipni toping va uni sinf bilan baham ko‘rish maqsadga muvofiqdir. Buni bosqichma-bosqich olib borish zarur.

Avvalambor allyuziya mavjud bo‘lgan syujetni o‘quvchilarga ko‘rsatish, so‘ng tinglovchidan matnda qayerda va nima uchun ishlatilganligini muhokama qilish, ta’sirni tahlil qilish, allyuziya qanday qilib belgi, mavzu yoki syujetga chuqurlik qo‘shishini o‘rgatish kerak.

Misol uchun, Romeo va Juletta haqida so‘z olib borganda, Romeo va Juliettani quyosh va Venera (sevgi ma’budasi) bilan taqqoslaganini ko‘rsatishingiz mumkin, bu Shekspirning Romeo sevgisining kuchini yetkazish uchun ishlatilgan va bunda allyuzilardan qanday foydalanishini ko‘rsatib beradi.

Muhokama qilinayotgan til hodisalari o‘quvchilarning keng dunyoqarashini ochib beradi, ularning bilimlari teranligi va uning kengroq ma’nolarini yoritadi. Bu lingvistik birliklar oddiy fon havolalaridan oshib ketadi; ular ko‘pincha adabiyotda topilgan muayyan ijtimoiy, tarixiy yoki kundalik voqelik bilan shug‘ullanadilar. Bunday jalb qilish ochiq va yashirin matnli tashbehlarning boy

gobeleniga yordam beradi va o‘quvchilarni matn ichiga kiritilgan ma’no qatlamlarini o‘rganishga taklif qiladi.

Intertekstuallik ushbu tadqiqotda asosiy kontseptsiya sifatida ajralib turadi va madaniy doiradagi turli matnlar o‘rtasidagi murakkab aloqa to‘rini ta’kidlaydi. Intertekstuallikni shunchaki qarz olish yoki plagiat sifatida ko‘rishdan ko‘ra, uni adabiyotni chuqurroq tushunishga erishish vositasi sifatida tan olish kerak. U matnlarning bir-biri bilan qanday suhbatlashishini ta’kidlab, o‘quvchining tajribasini boyitgan dialogni yaratadi.

Allyuziya va intermatn o‘rtasidagi munosabatlar murakkab, chunki ular bir-biri bilan chuqur bog‘langan holda mustaqil ishlaydi. Allyuziyalar oldingi matnlarga shlyuz vazifasini o‘taydi, kengroq matnlararo landshaft esa bu havolalarni ma’no kontinuumida joylashtiradi. Birgalikda ular o‘quvchining tushunishini kuchaytiradi, sirtdan tashqariga chiqadigan va matnning madaniy va tarixiy kontekstlari bilan tanqidiy ishtirok etishga chorlovchi nozik talqinni rag‘batlantiradi.

Mualliflarning ijodiy jarayoni, balki ular mavjud bo‘lgan madaniy va ijtimoiy-siyosiy manzaralarni aks ettiruvchi ko‘zgu vazifasini ham o‘taydi. Shunday qilib, allyuziyalar ta’limda bebaho ob’ektivni taqdim etadi, bu orqali biz til, kontekst va o‘quvchining ishtiroki bilan to‘qilgan ma’noning murakkab gobelenini ochib beradigan ushbu o‘zaro bog‘liqliklarni o‘rganishimiz mumkin.

Bu izlanishning zamirida “bilish” tushunchasi yotadi. Ushbu tushuncha o‘quvchilarning matn ichida taqdim etilgan voqelikni qanday izohlashi va o‘zlashtirishini qamrab oladi. Bu adabiyotning o‘zgartiruvchi kuchini ta’kidlab, har bir o‘qish tajribasi shunchaki passiv qabul qilish harakati emas, balki bizning tushunchamizni shakllantiradigan faol ishtirok ekanligini ko‘rsatadi. O‘quvchilar o‘zlarining talqinlarida o‘zlarining tajribalari, madaniy kelib chiqishi va bilimlarini olib kelishadi, bu ularga boshqalarga darhol tushunilmaydigan ma’nolarni olish imkonini beradi. O‘quvchi va matn o‘rtasidagi bu dinamik o‘zaro ta’sir tilning ravonligini va vaqt o‘tishi bilan tushunchalarning uzluksiz evolyutsiyasini ta’kidlaydi.

Shu nuqtai nazardan, vositachilik ishoralar va matnlararo murojaatlarni talqin qilishda hal qiluvchi omilga aylanadi. O‘quvchilar tanish matnlarga duch kelganda, vositachilikka bo‘lgan ehtiyoj ko‘pincha kamayadi, chunki belgilangan kontekst tushunish uchun aniq asos yaratadi. Misol uchun, Pushkinning "Boris Godunov" asarida Marina Mnishek haqidagi allyuziya rus tarixi va adabiyotidan xabardor bo‘lganlar tomonidan osongina tan olinadi. O‘quvchilarning oldingi bilimlari ko‘prik vazifasini o‘taydi va ularga allyuziyaning ahamiyatini va uning hikoyadagi oqibatlarini tushunishga imkon beradi. Biroq, matn kamroq tanish bo‘lishi mumkin bo‘lgan hollarda, ko‘proq vositachilik talab etiladi, chunki o‘quvchilar chuqurroq ma’nolarni ochish uchun o‘zlarining madaniy va kontekstual bilimlariga tayanib, talqin qilishning murakkabliklarini navigatsiya qilishlari kerak.

Intertekstuallik kontseptsiya sifatida ushbu bilish va vositachilik g‘oyasini kengaytirib, matnlar o‘rtasidagi munosabatlarga va ularning bir-biriga ta’sir qilish usullariga e’tibor qaratadi. Hikoyaning syujeti, maqsadli auditoriyasi va tashqi matnlarni o‘z ichiga olgan "vertikal matnlar" tushunchasi ma’lum bir asarning semantik vazni va janrini tushunish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu ko‘p qirrali tuzilma ma’noni yanada boyroq tahlil qilish imkonini beradi, chunki vertikal va gorizontal kontekst o‘quvchi tajribasini shakllantirish uchun o‘zaro ta’sir qiladi. Zamonaviy tadqiqotlarda intertekstuallik "matn ustunligi" va matn ustunligi nazariyasini o‘rganish uchun asos bo‘lib qoldi, bu esa ba’zi matnlar madaniy ahamiyati yoki tarixiy ta’siri tufayli ko‘proq og‘irlik yoki obro‘ga ega ekanligini ta’kidlaydi.

Bu hodisaning yorqin misolini Dostoevskiyning “Jinoyat va jazo” asarini qayta talqin qilishda ko‘rish mumkin. Sarlavha zamonaviy munozarada "O‘sish va jazolash" ga mohirlik bilan moslangan bo‘lib, jurnalistlar va sharhlovchilar o‘z auditoriyalarini jalb qilish uchun tashbehlardan qanday foydalanishlarini namoyish etadi. Ushbu o‘zgarish nafaqat klassik adabiyotning doimiy dolzarbligini ta’kidlabgina qolmay, balki zamonaviy muammolar va tashvishlarni aks ettirish uchun madaniy havolalarni qayta kontekstlash usullarini ham ko‘rsatadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda allyuziya bizning adabiyot haqidagi tushunchamizni va uning kengroq mazmunini boyitadi. Ular o‘quvchilarni til, madaniyat va ma’no o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni chuqurroq tushunishga yordam berib, turli darajadagi matnlar bilan shug‘ullanishga taklif qiladilar. Madaniy tilshunoslik ob’ektivi orqali biz bu aloqalarni o‘rganishni davom ettirishimiz mumkin, adabiyot atrofimizdagi dunyo tomonidan shakllantirilishi va shakllantirilishining chuqur usullarini ochib beradi.

**Adabiyotlar.**

1. Anikina E.M. Media-diskursdagi intertekstuallik (ingliz-amerika matbuoti materiallari asosida): filologiya fanlari nomzodi: 10.02.04. Ufa, 2007. - 235-bet.

2. Arnold I.V. Intertekstuallik muammolari // Sankt-Peterburg davlat universiteti Axborotnomasi. - 1992.

3. Arutyunova N.D. Tilning mantiqiy tahlili: Matnni shakllantirish va intermetn // M.: Nauka, 1989. - B.235.

4. Xoshimova D.R. Allyuziya va intertekstuallik lingvistik tushunchalarining o‘zaro bog‘lanishi // Academic research in educational sciences, 2021.

## TURKIY TAMADDUN ASOSLARI BILAN YANGI UYG‘ONISH SARI

**Muzaffar Suvonkulov-**
Guliston davlat universiteti dayanch doktoranti

**Resume:** If we look at the history of humanity, we can see that it has gone through a series of different civilizations. The civilizations of Egypt, Mesopotamia, India, China and Greece are considered the oldest civilizations. Islamic civilization stands out in the history of the Middle Ages. The reason is that, unlike ancient civilizations, Islamic civilization encompassed many nations. We do not observe this situation in ancient civilizations. The contribution of the Turkic peoples to the creation, development and wide spread of Islamic civilization is incomparable. After all, the Turkic peoples managed to create civilization twice, both in the Islamic world and in world history. We analyze these aspects and propose using the phrase "Turkic civilization". This article will discuss this.

Siyosat va dinning bir-biridan ajratilishishi dinni inkor etish degani emas. Zero siyosat taraqqiyot yo‘lini belgilab bersa, din uning natijasini belgilab beradi. Dunyoviy bilimlarning inson, jamiyat manfaatlariga xizmat qilishini diniy bilimlar ta’minlaydi. Zotan uni salbiy ehtiyojlar yoki ijobiy ehtiyojlarga xizmat qilishini diniy bilimlarsiz aniqlay olmasligimiz mumkin. Ham dunyoviy ham diniy bilimlarni birday o‘qitish yuqori samara berishi shubhasiz. Chunki insoniyat tarixidagi uyg‘onishlar bu ikki sohaning bir vaqtda, birgalikda o‘rganilishi natijasida yuz bergan.

Umuman tarixga nazar tashlasak xalqlarning paydo bo‘lishi, uyg‘onishi, nomlanishi e’tiqod bilan bog‘liqligini kuzatamiz. Gohida hududlar ham shu tariqa nomlangan. Zardushtiylik dini paydo bo‘lganida ham qadimgi dinlariga e’tiqod qilishda davom etganlar-turonliklar, zardushtiylikni qabul qilganlar-eronliklar nomini oldi va shu tariqa Turon va Eron nomlari yuzaga keldi. Mintaqa ilk bora e’tiqod jihatidan ikkiga ajraldi.[121]

Insoniyat tarixida uch bora uyg‘onish davri yuzaga kelgan. Ularning ikkitasi Sharqda - Osiyoda, bittasi G‘arbda – Yevropada sodir bo‘lgan. Ilk uyg‘onishni islom dini ta’sirida yuzaga kelgan degan qarashni fan qabul qilgan. Ammo, uning yana bir omili borki uni e’tirof etishmaydi, bu inson omili, ya’ni turklardir. Zero, ikkinchi uyg‘onish davri buni to‘liq isbotlab berdi. Bu ham ilohiy ham dunyoviy jihatdan shakllangan, o‘ziga xos bir fenomendir.

[121] Рахманалиев Р., Империя тюрков. История великой цивилизации. Москва:РИПОЛ классик.2015. 16 ст.

“Bir kuni Nuh alayhissalom uyquda chog‘ida banogoh jomasining etagi ochilib, avrotlari ko‘rinib qoladi. Shu vaqtda Homning nazari otasi avrotiga tushadi va o‘rinsiz xanda otib kulib yuboradi. Homning bu beadabligidan Som juda hijolat tortib, kechirim so‘rash niyatida, yopib qo‘yish uchun intiladi. Ammo, Yofas Homning qilmishidan voqif bo‘lib uning adabini beradi. Hom Yofasga yopishganida, hazrati Nuh alayhissalom ularning g‘avg‘osidan uyg‘onib ketadi. Qarasa, Hom bilan Yofas bir-biri bilan olishmoqda, Yofas Homning adabini bermoqda, Somdan ular janjali sababini so‘raganida, Som uyalganidan javob bera olmaydi. Oxiri Yofas alayhissalom bilan Hom orasidagi janjal sababidan hazrati Nuh alayhissalom voqif bo‘ladi va Som haqiga duo o‘qiydi: “Haq taolo seni va farzandlaringni solihlar, nabiylar va avliyolarga aylantirsin!”. Hom haqiga duo o‘qidilarki, Haqqi subhona va taolo, sening avlodingdan qoralar yaratilgay. Yofas borasida duo qildilarki, Haq taolo seni va farzandlaringni aziz va mukarram tutib, fazlu ehsoning barokotidan naslingizda barakot bo‘lgay. Tavorix ahli kiborlaridan ba’zisi bu naqlning ta’sirini yo‘qotishga tirishib, Hom haqida qilingan duo sababini boshqacha tushuntiradilar. Bo‘lsa bordir. Har taqdirda ham bu uch aka-uka har qaysisi o‘z xizmatlarini ado etmoqqa kirishadi. Otalari tufayli va duosidan uchga bo‘linib ketdilar, deydilarki, rizq turlichadir”.[122] Bu diniy tarixdan xulosa qiladigan bo‘lsak Yofas avlodlari, ya’ni turklar shu ilohiy davrdanoq adolat, haqiqat, nizomi olam uchun kurashga bel bog‘laganlar. Shuning uchun ham soddadillik, rostgo‘ylik, haqiqatparvarlik, ishonuvchanlik, adolatparvarlik har bir turkka ajdodlardan o‘tib kelayotgan meros tuyg‘ulardir.

Tarixning har bir davrida o‘ziga xos voqealar sodir bo‘lgan. Muayyan vaziyatlarda muayyan shaxslar tarix sahnasida paydo bo‘lgan va insoniyatni o‘zgartirgan. Bunday insonlar payg‘ambarlar, dohiylar, islohotchilar, diktatorlar, xaloskorlar, fotixlar, donishmandlar, faylasuflar, avliyo va boshqa shu kabi insonlardir. Turklardan payg‘ambar chiqmagan bo‘lsa-da boshqa hamma zotlar yetishib chiqdi. Bunga ham Nuh alayhissalomning duosi sababdir, balki. Bunday insonlar yetishib chiqqan davr ko‘lamiga qarab milliy va umuminsoniy uyg‘onish davri deb ataladi. Uyg‘onish esa ko‘p bor qorishish, aralashish, almashinish yuz bergan jamiyatlarda yuzaga keladi. Chunki uyg‘onish unutishni samarasi sifatida namoyon bo‘ladi.[123]

Turklarda milliy uyg‘onish bir necha bor yuzaga kelgan. Birinchi – milliy uyg‘onish Xitoy ta’siridan xolos bo‘lish uchun O‘g‘uzxon (miloddan avvalgi 209-174) davri uyg‘onishi. O‘g‘uzxon sultonlar sulolasini boshlab berdi.[124] Bu sulola Mustafo Kamol Otaturk inqilobigacha davom etdi. O‘g‘uzxon barcha turk qavmlariga nom berdi va bu nomlar hozirgacha saqlanib qolgan: uyg‘ur, qang‘li, qipchoq, qarluq, xalaj, chiyug‘ va boshqalar. Taomga tuz qo‘shib yeyishni ham O‘g‘uzxon joriy qilgan.[125] Yozuv bo‘lmaganligi uchun ham bu davrdagi voqealarni avvalo turklar xalq og‘zaki ijodi na’munalari, shuningdek xitoy manbalari orqali o‘rganamiz.

Ikkinchi – milly uyg‘onish jujan (avar)lar ta’siridan xolos bo‘lish uchun Bumin xoqon davrida yuz berdi. Bu uyg‘onishning ko‘lami birinchisidan ancha keng bo‘ldi. Uzoq Sharqdan Qora dengizgacha keng hududlarda yuzaga keldi. Birinchi uyg‘onishdan farqli o‘laroq bu uyg‘onish davrida yozuv paydo bo‘lgan edi. Bu davrda azaldan tarqalib ketgan keng maydondagi turklar bir davlatga birlashdilar. Turli xalqlarning turli manbalarida turli nomlarda atalgan bir xalq umumiy nom – turk, ko‘kturk nomi bilan nomlandi.

Uchinchi uyg‘onish ham milliy, ham umuminsoniy uyg‘onish bo‘lib, islom olami bilan omuxtalikda sodir bo‘ldi va islom uyg‘onishi panasida qolib ketdi hamda insoniyat taraqqiyotida bemisl iz qoldirdi. IX-XII asrlar Markaziy Osiyo, umuman insoniyat tarixidagi ilk uyg‘onish davri sifatida muhrlandi. Bu uyg‘onish mintaqa xalqlarini birlashtirgan ma’naviy omil – islom dini sababli “musulmon uyg‘onishi” nomini oldi. Bu uyg‘onish davrida to‘rt buyuk turk davlati hukm surdi:

[122] Mirzo Ulug’bek., To’rt ulus tarixi., T.:Cho’lpon.,1994. 20-bet.
[123] Suvonkulov M., Turklar ma’naviyatining islom taraqqiyotiga ta’siri., Magistr darajasi uchun dissertatsiya ishi., 77-bet
[124] Mirzo Ulug’bek., To’rt ulus tarixi., T.:Cho’lpon.,1994. 32-bet.
[125] O’sha asar, 33-bet.

qoraxoniylar (950-1212), g‘aznaviylar (960-1183), saljuqiylar (1040-1187), xorazmshohlar (1097-1231). Bu uyg‘onish insoniyat taraqqiyotiga hissa qo‘shgan ko‘plab allomalarni berdi. Professor M.Imomnazarovning ta’kidlashicha Turkistondan ikki mingdan ortiq allomalar yetishib chiqqan.[126]

Uyg‘onish davrini yuzaga keltirgan bir necha omillar mavjud:

- mintaqaning arab xalifaligidan qutulib, mustaqil davlatlarni vujudga kelishi;

- yagona din – islom tufayli ulkan hudud – Yaqin va O‘rta Sharqdagi turli xalqlar, mamlakatlar o‘rtasidagi aloqalarning rivoj topishi, ma’naviyatda umumiylikning vujudga kelishi;

- Buyuk ipak yo‘li ahamiyattining qaytadan oshishi, mamlakatlararo savdo aloqalarining rivojlanishi;

- insoniyat avval erishgan yutuqlari – qadimgi yunon, hind, eron, xitoy ilm-fani yutuqlarini inkor etilmay, aksincha, vorisiylik asosida tadqiq etilishi va ulardan keng foydalanilishi.[127]

Yana bir muhim omil borki – bu, bag‘rikenglik tuyg‘usidir. Bag‘rikengligi sababli turklar jahon davlatlarini barpo etdilar va o‘ziga xos qorishiq madaniyat yaratdilar. Bag‘rikenglik sababli turli irq, millat va e’tiqod egalari bir davlatga, bir ilmiy muhitga birlashdilar. Bu holat o‘z samarasini jamiyat hayotining turli jabhalarida namoyon qildi.

Turklarning jangovor tabiati, serg‘ayratligi, jasurligi, kezi kelganda shavqatsizligi, vatanparvarligi islom dinini g‘ayridinlardan himoya qilgan bo‘lsa, bag‘rikengligi, tez moslashuvchanligi, intiluvchanligi islom dinini taraqqiyotiga xizmat qildi.[128] Xoh jihod, xoh ma’rifat orqali bo‘lsa ham islom yo‘lida shahid bo‘lish turklar uchun eng yuksak sharaf edi. “Beshikdan to qabrgacha ilm izla!”, “Vatanni sevmoq imondandir”, “Ilmni Xitoyga borib bo‘lsa ham o‘rganing” – kabi hadislar turklarga ruh bag‘ishladi. Imom al-Buxoriyning “Ilmdan o‘zga najot yo‘q va bo‘lmagay”. – degan purma’no o‘giti esa dasturulamal bo‘ldi.

Turklar – saljuqlar musulmon olamida birinchi bo‘lib “madrasalar” barpo etdilar va unda ta’lim berishni joriy etdilar. Birinchi madrasalar Bog‘dod, Nishopur, Isfaxon, Xirot va Marvda barpo etildi. O‘sha davrning eng mashxur madrasasi “Nizomiya” madrasasi edi. Bu davr tarixda “Saljuqiylar sharqi” deb nom oldi. Saljuqiylar davri shuningdek, Eronning “oltin asri” ham bo‘ldi. Chunki saljuqiylar davrida fors tili davlat tili edi.[129] Fors tilining davlat tili maqomida bo‘lishi keyingi davrlarda ham davom etdi. Bu turk uyg‘onishining islom uyg‘onishi panasida qolib ketishining asosiy sababi bo‘ldi. Nizomiya madrasasi o‘sha davrning eng yirik va mashxur madrasasi edi. Akademik V.Bartoldning ta’kidlashicha: “X asrda mavjud bo‘lgan madrasalar nafaqat Xuroson va Movarannaxrda musulmon hukumatining harakatlaridan qat’iy nazar, islomni yoyishning kuchli vositasi bo‘lgan. Balki bu xalifalikdan tashqaridagi musulmon targ‘ibotining o‘sha paytda Markaziy Osiyoda musulmon olamining boshqa chekkalarida bo‘lmaganidek muvaffaqiyatlarga erishganligining asosiy omili bo‘lgandir”.[130] Lekin bu yerdagi asosiy omil – fenomen, mintaqaning o‘ziga xos madaniyat yaratgan aholisi – turklar edi. Zero, turklarning hokimiyatni egallashlari va butun musulmon davlatlarini birlashtirishlari natijasida madrasalar keng ommalashdi va butun musulmon olamiga yoyildi. Qoraxoniylar me’morchilikga minoralar qurishni olib kirdilar. Minoralarda “azon” aytilganda muazzin ovozini uzoq masofalarga yetib borishi ta’minlangan. Keyinchalik, 1453-yil usmonli turklar tomonidan Konstantinopol (Kunstantinya) egallangach, shahardagi Ayo Sofiya ibodatxonasi masjidga aylantirilgach, unga ham minoralar qurildi.

---

[126] Mahmudov R., O’rta Osiyo allomalarining ilmiy merosi., T.:Mumtoz so’z.,2019. 7-bet.

[127] Xayrullayev M. (tahriri ostida)., Ma’naviyat yulduzlari., T.:Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti.,2001. 12-bet.

[128] Suvonkulov M., Tamaddun yaratgan turkiylar (maqola)., T.,Tafakkur jurnali.,1-son., 2021. 118-bet.

[129] Рахманалиев Р., Империя тюрков. История великой цивилизации. Москва:РИПОЛ классик. 2015. 230-237 ст.

[130] Белоглазов А., Влияние ислама на политические процессы в Центральной Азии., Казань: Казанский университет.,2013. 30 ст.

Keyingi uyg‘onish buyuk jahongir sohibqiron Amir Temur va temuriylar davrida sodir bo‘ldi hamda milliy va umuminsoniy ahamiyat kasb etdi. Bu uyg‘onish turklarning o‘ziga xos fenomeni o‘laroq namoyon bo‘ldi. Manbalarda Amir Temurni Qur’oni Karimni yoddan bilgani (qori ekanligi), Qur’oni Karimni oldidan orqasiga va orqasida oldiga qarab yoddan qiroat qila olganligi ta’kidlangan. Buyuk Sohibqiron payg‘ambarimiz (s.a.v.) avlodlarini hurmat qilgan va e’zozlagan. Sayyid Barakani o‘zining ma’naviy ustozi – piri deb bilgan.

Hech qanday tashqi ta’sirlarsiz yana bir bor uyg‘onishining sodir bo‘lishi – bu, turklarning bag‘rikengligi, yuksak ma’naviyat sohibiligi, bunyodkorligi, yaratuvchanligi, ham ilohiy, ham dunyoviy jihatdan dunyo hokimiyati, olam nizomi sohibi ekanliklarining amaliy ifodasi bo‘ldi. Bu davr haqli ravishda “islom renessansi” yoki “musulmon renessansi” emas “temuriylar renessansi” sifatida tarixda qoldi. Zero, ikkinchi uyg‘onish “qoraxoniylar”, “g‘aznaviylar”, “saljuqiylar”, “xorazmshohlar” yoki “turk uyg‘onishi” emas “islom renessansi” sifatida tarixda qolgan edi.

Umuman turklar tarixiga nazar tashlansa, ular orasdia birlik, jipslik bo‘lgan vaqtlarda o‘ziga xos yuksalish, uyg‘onish – renessans sodir bo‘lganligini kuzatamiz. Hususan, hozirgi kundagi turk xalqlari til jihatidan uch yirik: o‘g‘uz, qarluq va qipchoq guruhlariga bo‘linadi. Ikki yirik uyg‘onish sodir bo‘lgan davrlarda shu uch guruh vakillari bir bayroq ostida yagona davlatga birlashganligini kuzatamiz. Shu jihatdan Amir Temur bayrog‘idagi uch xalqa uch iqlim barobarida shu uch guruh o‘g‘uz, qarluq, qipchoqlarga ishora deb aytishimiz mumkin. Zero, Amir Temur ajdodlari singari barcha turk xalqlarini va ular yashagan hududlarni bir davlatga, yagona bayroq ostiga birlashtira oldi. Temuriylar renessansi Mirzo Ulug‘bek davrida o‘z taraqqiyotining yuqori cho‘qqisiga chiqdi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach jamiyat hayotining barcha sohalarida islohotlar izchillik bilan amalga oshirila boshladi. Ayniqsa, 2016-yilgi Prezident saylovidan keyingi jarayonlar mamlakatimiz, millatimiz taraqqiyotini tubdan boshqa yo‘nalishga – haqiqiy taraqqiyot yo‘liga burib yubordi. Bu jarayonlarni Afrosiyob, O‘g‘uzxon, Attila, Sotiq Bug‘roxon, Anushtegin, Amir Temur, Sulaymon Qonuniy, Fotix Mehmet va Mustafo Kamol davrlariga o‘xshatish mumkin. Zero, qisqa yetti yil ichida bir portlash kabi taraqqiyotimiz jadallashdi. Jamiyat hayotining barcha sohalarida jonlanish sodir bo‘ldi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-sonli, 2019-yil 4-sentabrdagi “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4436-sonli, 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-sonli Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-sentabrdagi “Ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 736-con qarori ijrosi, Tarix fanini 2021-2030 yillarda yanada rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar yangi uyg‘onish poydevorini yaratishimizga asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

1990-yillarda turklar olamida mustaqil davlatlarning tashkil topishi ularni yana birdamlikka chorlovchi omil bo‘ldi. 1992-yil 30-oktabr kuni Turkiya Jumhuriyati Prezidenti Turg‘ut O‘zal tashabbusi bilan Anqara shahrida “Turk tilli davlatlar sammiti” bo‘lib o‘tdi va ishtirokchi (Turkiya, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Qirg‘iziston)lar tomonidan siyosiy va iqtisodiy birdamlik munosabatlari o‘rnatildi. 1993-yil 12-iyulda Olma-Ota shahrida “Turk madaniyati xalqaro tashkiloti” tashkil etildi. 2008-yil 21-noyabrda Boku shahrida “Turk tilli davlatlar parlamenti Assambleyasi” tashkil etildi. 2009-yil 3-oktabr kuni Ozorbayjonning Naxichevon shahrida Ozorbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Turkiya prezidentlari tomonidan rasmiy jihatdan “Turk kengashi” tuzildi.[131] 2010-yil 25-mayda Nursulton Nazarboyevning tashabbusi bilan Ostona shahrida “Xalqaro turk akademiyasi” ish boshladi. 2012-yil “Turk kengashi” bayrog‘i qabul qilindi. 2012-yil 23-avgustdan madaniy

[131] Rajabov Q., Qandov B., Jahon mamlakatlari va xalqaro tashkilotlar., T.:Yangi nashr. 2015. 61-bet.

targ‘ibot, ma’naviy yuksalishga qaratilgan loyihalarni ilgari surish, tarixiy merosni o‘rganish maqsadida “Turk madaniyati va merosi jamg‘armasi” ish boshladi. Mamlakatimiz kech bo‘lsada 2018-yil 30-aprel kuni rasmiy jihatdan kengashga a’zo bo‘ldi.[132] Turkmaniston neytral davlat sifatida doimiy mehmon sifatida qatnashib keladi. Mojariston kuztuvchi davlat sifatida qatnashib kelgan bo‘lsa, 2019-yil 12-sentabr kuni a’zolikka rasmiy jihatdan ariza berdi.[133]

Ushbu siyosiy jarayonlar tarixda bo‘lgani kabi barcha turk xalqlarini birlashtirmoqda. Bu holatni maqsad qilayotganimiz uchunchi uyg‘onish davrining tarixiy izchillikni qaytalanishi sifatida baholashimiz mumkin. Biz uyg‘ondik, bizni yelkamizda ajdodlarimizga munosib avlod bo‘lishdek sharafli yuk turibdi. Mana shu maqsad yo‘lida ilmimiz ziyoda, ma’naviyatimiz yuksak, e’tiqodimiz sobit, ma’rifat tarqatishdek ulug‘ ishimizda muvaffaqiyatimiz bardavom bo‘lsin!

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Рахманалиев Р., Империя тюрков. История великой цивилизации. Москва:РИПОЛ классик., 2015.

2. Mirzo Ulug‘bek., To‘rt ulus tarixi., T.:Cho‘lpon.,1994.

3. Suvonkulov M., Turklar ma’naviyatining islom taraqqiyotiga ta’siri., Magistr darajasi uchun dissertatsiya ishi.

4. Mahmudov R., O‘rta Osiyo allomalarining ilmiy merosi., T.:Mumtoz so‘z.,2019.

5. Xayrullayev M. (tahriri ostida)., Ma’naviyat yulduzlari., T.:Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti.,2001.

6. Белоглазов А., Влияние ислама на политические процессы в Центральной Азии., Казань: Казанский университет.,2013.

7. wikipedia.ru

## MIRZO ULUG‘BEKNING ILM-FAN RIVOJIDAGI RO‘LI

**Boyto‘rayev Sirojiddin Usmon o‘g‘li-**
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi
**Mamasaidova Ruxshona Qarshi qizi-**
Denov tadbirkorlik va pedogogika instituti talabasi

**Abstract:** The Timurid era was a great impetus to the rise of science and culture in Central Asia in the 14th-15th centuries. The Timurid rulers supported science and art, turning Samarkand into a scientific center. Mirzo Ulugbek stands out with his discoveries in astronomy and mathematics. Ulugbek’s scientific achievements had a great influence on world science not only in his time, but also in subsequent centuries. During this period, great achievements in other fields of science also played an important role. Three articles provide information about the development of science and culture during the Timurid era and the scientific activities of Mirzo Ulugbek.

**Keywords:** Movarounnahr, Amir Temur, Mirzo Ulugbek, mathematics, "Aflatuni of the time", Tillakori madrasah, "Ziji jadidi ko‘ragoni", fluent method, "Zafarnoma", Chinnikhona, Afrosiyob.

**Kirish.** Bobokalonimiz Amir Temur jahon tarixida kam uchraydigan uzoqni ko‘ruvchi buyuk davlat arbobi edi. XIV asrning ikkinchi yarmi XV asr boshida Movarounnahrda milliy birlikni yuzaga keltirgan mustaqil davlatga asos solgan, o‘rta asr uyg‘onish davri madaniyati, ilm-fani, san’ati taraqqiyotiga bebaho hissa qo‘shgan, uning benazir homiysi bo‘lib tanilgan bu ulug‘ zot muborak nomi asrlar osha avlodlarning faxri va iftixori bo‘lib kelgan. Temuriylar davrida O‘rta Osiyoda maydonga kelgan buyuk svilizatsiya buyuk tarixiy shaxslarni faylasuf va donishmandlarni, shoir va

[132] wikipedia.ru
[133] wikipedia.ru

san’atkorlarni, me’mor va sohibi hunarlarni yetishtirdi. Ular o‘z navbatida jahon madaniy taraqqiyotini boyitishga hissa qo‘shganlar. Shuning uchun ham muborak Temur shaxsi uning siyosiy, ijtimoiy faoliyati, falsafiy qarashlari qariyb besh yuz yildan ziyod jahon olimlarining diqqat markazida bo‘lib kelgan. Temuriylar davlati sa’y-harakatlari tufayli XIV asr o‘rtalari va XV asr boshida Samarqandda astronomiya, tibbiyot, riyoziyot, falsafa, tarix kabi fanlar, me’morchilik, adabiyot, san’at, xattotlik va musiqa san’ati gurkirab o‘sadi ko‘p olimlar, san’atkorlar yetishib chiqqan[1].

**Asosiy qism.** Temuriylar davrida ayniqsa ilm-fan sohasiga o‘zining katta hissasini qo‘shgan Temuriy hukmdor Mirzo Ulug‘bekning faoliyati alohida e’tiborga molikdir. Mirzo Ulug‘bek 1394-yilning 22-martida Amir Temur saltanatining qishki chorbog‘i, hozirgi Eronning Sultoniya shahrida tavallud topgan. Amir Temur 1394-yilda Iroqdagi Mordin qal’asini qamal qiladi. Shu vaqtda Sohibqironning Sultoniyadagi qarorgohida Ulug‘bek tug‘iladi. Tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida yozilishicha, Amir Temur huzuriga chopar kelib Ulug‘bekning tug‘ilgani va munajjimlar bu nevara kelajakda ham olim, ham hukmdor bo‘lishini bashorat qilganlari xushxabarini yetkazadi. Sohibqiron xursandligidan Mordin qal’asi qamalini to‘xtatib, uning xalqiga yuklangan to‘lovni bekor qiladi. Shundan ham bilishimiz mumkunki, Sohibqiron Amir Temur nabirasi Mirzo Ulug‘bekka tug‘ilgandanoq yuksak baho bergan. Amir Temur suyukli nabirasi Muhammad Tarag‘ayning go‘dakligidan bilimdon ustozlar qo‘lida tarbiyalanishiga alohida e’tibor qaratgan. Tarixiy manbalarda Ulug‘bek o‘n bir yoshigacha buvisi Saroymulkxonim tarbiyasida bo‘lib, mashhur olimlardan saboq olgani qayd etilgan. Ulug‘bek bobosining saroyidagi eng yirik allomalar, jumladan, sayyoralarning ikki yuz yillik harakat jadvallarini tuzgan Mavlono Ahmad va Qozizoda Rumiy kabi yetuk astronom va matematik olimlar ta’sirida ulg‘aygan. Shuningdek, unga to‘rt yoshidan Orif Ozariy ham ta’lim bergan. Uning ustozlari o‘z davrining eng yetuk olimlaridan bo‘lgan. Ular o‘z bilimlarini Mirzo Ulug‘bekka ham o‘rgatib yoshligidan yetuk olim sifatida tarbiyalagan. Ulug‘bek ustozlaridan olgan bilimlarini umri davomida qo‘llab o‘z yurtida ilm-fanga samarali hissa qo‘shgan[2].

1411-yil oktyabrdan, ya’ni hayotining o‘n yettinchi yilining o‘rtasidan Ulug‘bek Movarounnahr va Turkistonning birgina va mustaqil sultoni bo‘ladi. Mirzo Ulug‘bek Movarounnahr hukmdori etib tayinlangach, ko‘p vaqtini Samarqandda o‘tkazar hatto otasi Shoxruh Mirzoning harbiy yurishlarida ham kamdan-kam qatnashar va ayrim hollarda qo‘shin yuborish bilan cheklanardi. Ulug‘bek shu qadar kichik yoshida ulkan bir mamlakatning sultoni bo‘lib, to umrining oxirigacha ya’ni 39 yil davomida mamlakatning sultoni bo‘lib turdi. Bilamizki, Mirzo Ulug‘bek hukmronligi davrida davlatini yana ham rivojlantirishda harbiy yurishlardan ko‘ra ko‘proq ilm-fanga e’tibor qaratgan va O‘rta Osiyolik olim sifatida Jahon olimlarini hali hamon hayratga solib kelmoqda.[3].

Ulug‘bek aslida ulug‘ olim va bunyodkor kishi bo‘lib bobosi Amir Temur kabi jangchi emas, balki ilm-ma’rifat shaydosi edi. Binobarin, u mamlakatda ilm-fan ravnaqiga jon-jahdi bilan kirishar va bu yo‘lda o‘z xazinasini ham ayamas edi. Uning davrida Samarqand sharqning eng gullagan madaniyat o‘chog‘iga aylangan edi. Ulug‘bek Mirzoning birinchi ustozi “zamona Aflotuni” Salohiddin Muso ibn Maxmud Qozizoda Rumiy edi. Ulug‘bek Mirzo Qozizoda Rumiydan falakiyotga oid sir-sinoatlarni o‘rganib, keyinchalik mazkur allomaning maslahati bilan Koshonlik G‘iyosiddin Jamshid ibn Muiniddinni ham Samarqandga chaqirib keltirgan. Dunyo astronomiyasi taraqqiyotini Mirzo Ulug‘bekning xizmatlarisiz tasavvur etish qiyin. Movarounnahrda 40 yil hukmronlik qilgan sultonning ilm-fan uchun alohida g‘amxurlik ko‘rsatishi madrasalar barpo etishi, Samarqandda yirik astronomiya maktabiga asos solishining o‘zi tarix oldidagi katta xizmatidir. Mirzo Ulug‘bek tashabbusi bilan 1424-1428 - yillar mobaynida Samarqand shimolida Obirahmat arig‘i bo‘yidagi Ko‘xak tepaligi bag‘riga bunyod etilgan jahonga mashhur rasadxona o‘z davrida osmon jismlarini o‘rganuvchi eng yirik inshoot hisoblangan. Ushbu tarixiy obida orqali kuzatishlar asosida 1437-yilda dunyoga mashhur “Ziji jadidi ko‘ragoniy” asari yaratildi. Yevropada birinchi bo‘lib bu asarni tadqiq etgan olim Oksford universiteti professori Jon Grivs hisoblanadi. U 1650-yilda mazkur asardagi jadvallarni qisman nashr ettiradi. XV asrda Samarqanddagi Mirzo Ulug‘bek qurdirgan rasadxonada kattagina globus bo‘lgan. Unda

iqlimlarning chegaralari, tog‘lar, cho‘llar, dengizlar va daryolar ko‘rsatilgan. Binobarin, dunyodagi ikkinchi globusni Samarqand astronomlari yasashgan. Ulug‘bekning o‘limidan keyin u mutaassiblar tomonidan yo‘qotilgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Ulug‘bek Samarqandda balandligi 50 metrli quyosh soati yasagan. Ushbu noyob soat ham saqlanib qolmagan[4]. Yuqorida ta’kidlanganidek Mirzo Ulug‘bek O‘rta asrlardayoq koinot sir-sinoatlarini puxta o‘rganib o‘zining astronomik jadvallarini tuzgan va keyinchalik Yevropada ham astronomiya fanining shakllanishiga zamin yaratgan.

1417-1430 - yillar orasida Ulug‘bek Samarqand markazi Registon maydonida ulkan madrasa, xonaqoh, muqatta masjidi va hammom qurdiradi. Shuningdek, 1417-yilda Buxoroda va 1433-yilda G‘ijduvonda ham madrasa qurdirgan. XV asrning 40-yillarida Ulug‘bek Samarqandning Cho‘ponota tepaligida, Ulug‘bek rasadxonasiga yaqin joyda saroy bunyod ettirgan. Uning devorlari chinni bilan qoplangani uchun ham Chinnixona deb atalgan. Ulug‘bek va boshqa olimlar shu yerda samoviy kuzatuv, ilmiy tadqiqotlardan so‘ng hordiq chiqarishgan. Chinnixonaning ko‘shkida rangli shishalar ishlatilgan. Arxeologik qazishmalar jarayonida Chinnixonadan topilgan tosh taxtachalardan biriga “baxtli bo‘l” yozuvi borligi aniqlangan. Madrasalarda diniy ilmlarga nisbatan matematika, geometriya, falakiyot, tibbiyot, jo‘g‘rofiya va tarix kabi dunyoviy ilmlar ko‘proq o‘qitilgan. Ulug‘bek Samarqandda ikkita madrasa: biri Registon ansambli tarkibida va ikkinchisi Go‘ri Amir ansambli tarkibida barpo etgan. Boshqa yirik olimlar qatorida Ulug‘bekning o‘zi ham bu madrasalarning har birida haftada bir marotaba ma’ruza o‘qigan. Boshqa vaqtini ko‘proq astronomik kuzatishlarga, “Zij” ustida ishlashga va davlat ishlariga bag‘ishlagan. Yaqin yillargacha u faqat astronom va matematik deb hisoblanardi. Lekin XX asr oxirida uning ijodi serqirra bo‘lib, u tarix, she’riyat va musiqa bobida ham qalam tebratgani aniqlandi. Ulug‘bek she’rlar ham yozgan[5]. Mirzo Ulug‘bek o‘z davrining eng mashhur davlat arbobi bo‘libgina qolmay balki, ilm-fan homiysi va ko‘p qirrali olim ham bo‘lgani ma’lum. U tomonidan qurilgan madrasalar va rasadxonalar Ulug‘bek nomini abadiyatga muhrlagan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘zi qurdirgan rasadxonada ko‘plab olimlar bilan birgalikda yulduzlar joylashuvini o‘rgangan. Bu o‘sha davr uchun eng katta yutuqlardan biri edi.

Shuningdek Mirzo Ulug‘bek ko‘plab jamoat inshootlari – karvonsaroylar, timlar, hammomlar va chorsular ham qurdirgan. Karvonsaroylardan eng kattasi Registonda, hozirgi Tillakori madrasasi o‘rnida joylashgan bo‘lib, Mirzoyi nomi bilan shuhrat topgan. Bunday karvonsaroylar, hammomlar faqat Samarqanddagina emas boshqa yirik shaharlarda va savdo yo‘llarida ham qurilgan. Ulug‘bek Go‘ri Amir maqbarasiga ham ayrim qurilishlar bilan o‘zgacha fayz tarovat bag‘ishlaydi. Samarqanddagi Afrosiyobning janubida ulkan qabriston markazida joylashgan Shohi Zinda obidasi me’morchilik san’atining kamyob durdonalaridan hisoblanadi. Mazkur yodgorlik asosan XI asrdan boshlab qurilib kelinayotgan bo‘lsada, Amir Temur va Ulug‘bek zamonasida nihoyasiga yetkazilgan. Ulug‘bekning sa’y harakati bilan bu yerda ham me’morchilik ishlari olib boriladi[6].

Mirzo Ulug‘bek aniq fanlardan tashqari tarix va musiqa ilmida ham qalam tebratgan. “Muhit ut-tavorix” nomli asarda yozilishicha, Ulug‘bek zo‘r shinavanda musiqashunos ham bo‘lgan. U katta va kichik naqoralarda ijro etiladigan buljiy, shodiyona, axloqiy, ulusiy va usuli ravon kabi musiqa asarlarini yaratgan. Mirzo Ulug‘bek tarixnavis donishmand edi. “Tarixi arba ulus” asari Mirzo Ulug‘bekning turkiy xalqlar tarixini qanchalik chuqur bilganidan dalolat beradi. Undagi nazmiy parchalar esa, ulug‘ ajdodlarimizning she’riyatdan yetarlicha xabardor bo‘lganini ko‘rsatadi[7].

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davri ilm-fan va madaniyatning o‘sishiga katta hissa qo‘shgan va ayniqsa Mirzo Ulug‘bek bu sohada ulkan iz qoldirgan. Uning ilmiy faoliyati va Samarqanddagi ilm-fan markazi o‘z zamonasining eng mashhur va ta’sirchan ilmiy anjumanlaridan biri bo‘lib qoladi. Shuningdek Mirzo Ulug‘bek ko‘plab fanlarning rivojlanishiga ham o‘zining salmoqli hissasini qo‘shgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muhammadjonov A. “Temur va Temuriylar saltanati”. Toshkent: qomuslar bosh tahririyati. 1994

2. Ahmedov A. “Ulug‘bek” – Toshkent: “FAN” 1991-yil.
3. Fayziyev T. “Mirzo Ulug‘bek avlodlari” Toshkent. “Yozuvchi” 1994-yil.
4. Asqarxo‘jaev S. “Mirzo Ulug‘bekning me’morchilik faoliyati iqtisod va tarix haqida” 1995-yil.
5. Ashraf Ahmedov “Ulug‘bek: Sharqning buyuk mutafakkirlari”. 1991-yil.
6. Azamat Ziyo “ Munajjim izlarini izlab” Toshkent. 1994-yil.
7. Ahmedov B. “Falakiyot sultoni” O‘zbekiston ovozi: 1994-yil.
8. Ziyoiddin Shahshahoyev “Mirzo Ulug‘bek va uning im-fan merosi”. Toshkent- 1997-yil.
9. Shodmon A’zamov “Mirzo Ulug‘bek: Ilmiy faoliyat va merosi” Toshkent. 2000-yil.
10. Shuhrat Nizomov “Mirzo Ulug‘bekning astronomiya sohasidagi ilmiy ishlari”- Toshkent. 2004-yil.

## MARKAZIY OSIYO DAVLATCHILIK TARIXIDA IJTIMOIY BOSHQARUVNING MA’NAVIY ASOSLARI

**Mansurova Malohat Yunus qizi-**
Navoiy davlat universiteti “Ijtimoiy fanlar” kefedrasi katta o‘qituvchisi
**Saxatov Bekzod Kenjayevich-**
Navoiy viloyat Ichkiishlar boshqarmasi TKX KITEB xodimi

**Annotation.** This article presents the history of social governance in our country, the stages of formation of the governance system in it, and its spiritual and moral principles. Also, the spiritual foundations of social governance in the history of Central Asian statehood are indicated from many religious, philosophical and cultural factors.

**Keywords:** Governance, social governance, spirituality, religion, philosophy, ethics, principles, religion.

Markaziy Osiyo davlatchilik tarixida ijtimoiy boshqaruvning ma’naviy asoslari juda boy va ko‘p qirrali bo‘lib, bu hududning tarixiy, madaniy, diniy va falsafiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Ijtimoiy boshqaruvning ma’naviy asoslari, asosan, qadimiy shahar madaniyatlari, Islom dinining tarqalishi, va turli falsafiy ta’limotlar bilan chambarchas bog‘liq. Quyidagi asosiy jihatlar Markaziy Osiyoda ijtimoiy boshqaruvning ma’naviy asoslari sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin:

Qadimiy ijtimoiy tuzum va boshqaruv tizimlari Markaziy Osiyo hududi tarixan turli xalqlar va imperiyalar tomonidan boshqarilgan, jumladan, so‘g‘diylar, saklar, yunon-iskeptlar, turklar va boshqa ko‘plab xalqlar. Ularning boshqaruv tizimlari ko‘pincha qarorlar qabul qilishda ma’naviy va axloqiy tamoyillarga asoslanardi. Misol uchun, qadimiy So‘g‘d davlatida, aholini boshqarishda adolat va xushmuomalalik tamoyillari muhim o‘rin tutgan.

Islom dini va uning boshqaruv tizimidagi roli Markaziy Osiyoning islomni qabul qilishidan keyin, ijtimoiy boshqaruvda ma’naviy asos sifatida Islom dini tamoyillari, ya’ni odil boshqaruv, rahm-shafqat, xolislik, va har bir insonning huquqlari kabi qadriyatlar ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, Abbosiylar davrida Bag‘doddan chiqqan ilmiy va diniy qarorlar Markaziy Osiyoning boshqaruv tuzilmasiga ta’sir ko‘rsatgan.

Sufizm, ya’ni tasavvuf ta’limoti, Markaziy Osiyoda ijtimoiy boshqaruvga juda katta ta’sir ko‘rsatgan. Sufiylar ijtimoiy barqarorlik va axloqiy tozalikka e’tibor berib, boshqaruvchilarning ruhiy va axloqiy yetukligini ta’kidlaganlar. Sufiylar boshqaruvchilarga adolatli va xushmuomalalik bilan rahbarlik qilishni maslahat berishgan, bu esa xalqlar orasida tinchlik va hamjihatlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynagan. Turk-mongol imperiyalarining boshqaruv ma’naviyati davri bo‘lib bunda, Chingizxon va uning vorislari o‘zining boshqaruv tizimini jiddiy ravishda ma’naviy asoslarga qo‘ygan. Chingizxonning "Yassos" qonunlari axloqiy tamoyillarga asoslanib, barcha fuqarolarni teng

ko‘rish va adolatni ta’minlashga qaratilgan edi. Ular, shuningdek, diniy erkinlikni tan olib, har bir kishi o‘z diniga qarab yashash huquqiga ega deb hisoblashgan.

Tabaqa tuzilishi va ma’naviy axloqiy qadriyatlar bo‘lib unda Markaziy Osiyo davlatchiligida ko‘pincha ikki asosiy tabaqa mavjud bo‘lgan: yuqori (hukumdorlar, olimlar, diniy rahbarlar) va pastki (dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar) tabaqalar. Yuqori tabaqa ijtimoiy boshqaruvni amalga oshirgan va shu bilan birga, ularga diniy va ma’naviy mas’uliyat ham yuklatilgan. Ma’naviy yuksaklikni saqlab qolish, adolatli boshqaruvni ta’minlash va xalqqa xizmat qilish bunday rahbarlar uchun oliy maqsad bo‘lgan.

Falsafiy va axloqiy ta’limotlar Markaziy Osiyo tarixida, xususan, Nizomiy, Fuzuliy, Alisher Navoiy kabi buyuk shoirlar va mutafakkirlar axloqiy ma’naviy qadriyatlarni ijtimoiy boshqaruvning asosi deb bilganlar. Ular boshqaruvni faqat kuch orqali emas, balki hikmat va ma’naviyat orqali amalga oshirishni ta’kidlaganlar. **Alisher Navoiy** o‘zining "Xamsa" asarida ijtimoiy adolat va axloqiy qadriyatlarni markazga qo‘ygan. U jamiyatda adolatli boshqaruv, ilm-fan va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish orqali insonlar orasida tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga chaqirgan. Navoiy ijtimoiy adolatni, insoniyatning haqiqiy baxti va farovonligini ta’minlashda muhim deb bilgan.

Nizomiy — o‘zining "Xamsa" asarida nafaqat falsafiy, balki axloqiy masalalarni ham keng yoritgan. U ijtimoiy adolat, ilm-fan va axloqiy tartibni muhim deb bilgan. Nizomiyning asarlarida insonning ma’naviy kamoloti, haqiqatni izlash va jamiyatni sog‘lomlashtirish muhim o‘rin tutadi.

Fuzuliy esa, asarlarida axloqiy fazilatlarni, ayniqsa sevgi va insoniy qadriyatlarni ta’kidlagan. Uning she’rlari orqali insonning ruhiy kamoloti, qalbni poklash va haqiqatni topish yo‘li ko‘rsatiladi.

Xulosa qilib aytganda, davlatchilik tarixida ijtimoiy boshqaruvning ma’naviy asoslari ko‘plab diniy, falsafiy va madaniy omillardan shakllangan. Bu hududdagi boshqaruvning muvaffaqiyatli bo‘lishi ko‘pincha adolat, axloqiy yuksaklik va ijtimoiy tenglikni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, bu tamoyillar xalqlar orasidagi tinchlik va barqarorlikni saqlashga yordam bergan. Shunday qilib, bu buyuk shoirlar va mutafakkirlar nafaqat adabiy asarlarida, balki ijtimoiy va siyosiy fikrlarida ham axloqiy ma’naviy qadriyatlarni muhim deb hisoblashgan va ularni jamiyatni boshqarishning asosiy tamoyili sifatida ilgari surganlar.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: “Yoshlar nashriyoti uyi”, 2018. –B.109
2. Штомпка П. Социология социальных изменений. - М., 2017. - С.94.
3. Қирғизбоев М. Маънавият, маърифат, мафкура. //Мулоқот. 2000. № 1.-B.13-15.
4. Бобоев Ҳ. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент: “Фан”, 2004.; Азамат Зиё. Ўзбек давлчилиги тарихи. Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар. – Тошкент: “Шарқ”, 2000. -Б.61.


## KARIMBEK KAMIY IJODIDA TARBIYA MASALASI


**Mardonova Xonzoda Anvar qizi**
Navoiy davlat universiteti 1-kurs magistranti



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shoir Karimbek Kamiyning ta’lim-tarbiya masalasida maktabning o‘rni nechog‘liq yuksak ekanligi, uning ikki olamdagi manfaati, zarurati hamda dolzarbligi masalasi ochib berilgan.



Kalit so‘zlar: maktab, tashbeh, tajohuli orif, tanosub, tazod, konsept, konseptosfera,


The issue of education in the work of Karimbek Kamiy


**Abstract:** This article reveals the high place of the school in the issue of education of the poet Karimbek Kami, its benefits, necessity and relevance in both worlds.

**Keywords:** school, metaphor, tajahuli orif, tanosub, tazod, concept, conceptosphere,

Inson yaralibdiki, u hamisha yangi bilimlarni egallashga intiladi. U tomon bosilgan har qadamda adadsiz yaxshiliklar yotadi. Ilmga bo‘lgan past nazar esa kishini xor qiladi. Bilimsiz kishini Ahmad Yassaviy suyaksiz ilikka qiyoslaydi, iliksiz suyakka hatto it ham qiyo boqmaydi. Bilimsiz kishining taqdiri ham xuddi shundaydir.

Kelajak egalarini hayotga tayyorlashda tarbiya o‘choqlarining vazifasi nihoyatda ulkandir. Ular tarixiga nazar tashlar ekanmiz, dastlab xos kishilarning uylarida yo‘lga qo‘yilgan bilim maskanlari madrasa, maktab, dorilfunun, oliygoh shakllarida rivoj topdi. Har bir muassasaning maqsadi esa yagona–sifatli kadrlarni elga tortiq etish edi.

Yangi avlodni zamon talablariga javob beradigan darajada tayyorlashda shubhasiz, ilm dargohlarining hissasi tengsizdir. Tarixan to‘siqlarga uchrab kelgan bu maskanlarda ziyo ulashuvchilar doimo erkin va keng doirada mushohada yuritishni xohlaganlar. Afsuski, uzoq davr mobaynida ilmning qadri ancha toptaldi. Davr zulmi ayovsiz davom etaverdi, ammo qalbi uyg‘oq ulamolarning ovozi ham chekinmadi. Shunday bo‘lsada, Chor Rossiyasi bosqini chillasida ma’naviyatimizga putur yetkazish maqsadida ilm buloqlari xor etildi.

1865–1922-yillarda faoliyat yuritgan Karimbek Kamiy ijodida ham maktab mavzusi alohida ahamiyatga egadir. Musammat turkumiga kiruvchi murabba janrida yozilgan bu asarda ijodkor o‘zining ta’lim va tarbiya haqidagi qarashlarini tasvirlaydi. Butun ijod namunasida har bir so‘zga o‘zgacha ma’no yuklaydi. Matlada kishining haqiqiy inson bo‘lib kamol topishi, el ichra tanilishida maktabning ulushi haqidagi ilk qadamlar keltiriladi. Kishiga husn, fayz, obro‘-e’tibor hadya qilguvchi, eng chorasiz paytlarda ham qo‘llab turuvchi kuch sifatida maktabda olingan bilimni ulug‘laydi. Maktab Arab-u Ajamlar uchun birdek aziz. Shoir xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi omil tariqasida ham maktabga murojaat qiladi. Ilm dargohida olingan xazinalarning bahosi yo‘qligini uning “Maktabki, boisi darajoti rafi’dur, Maktabki, parda no‘shi uyubi sha’nidur” [11;75] misrasidan anglash mumkin. Bu yerda raf’i so‘zi xazina so‘ziga kontekstual mos kelib, ziyo istagan qalblar uchun tasalli vazifasida keladi. Misraning badiiy tahlilida Kamiyning tasvir vositalaridan mohirona foydalanganini sezish mumkin. Xususan, ushbu baytda majoziy tashbehdan unumli foydalanadi. Tashbeh–Sharq adabiyotida keng tarqalgan san’atlardan biri bo‘lib, “o‘xshatish” ma’nosini ifodalaydi. Ikki narsa yoki tushunchani ular o‘rtasidagi haqiqiy yoki majoziy munosabatlarga ko‘ra o‘xshatish san’atidir. Tashbeh san’ati tasvirlanayotgan shaxs, buyum yoki tushunchani o‘quvchi ko‘z o‘ngida aniqroq jozibaliroq gavdalantirishga xizmat qilib, asar timsollari ma’naviy qiyofasini yorqinroq ochish, binobarin shoir g‘oyasini o‘quvchi ko‘z o‘ngida aniqroq, jozibaliroq gavdalantirishga xizmat qilib, asar timsollarining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘quvchi ko‘z o‘ngida to‘la yetkazishga imkon beradi.[7;14]

Maktabni shoir hayotdagi butun to‘siqlarni yenga olishga qodir bo‘lgan, kishini zararlardan asrab turguvchi to‘siqqa mengzaydi. Bunda har qanday xavf-u xatar orqaga chekinadi, chunki diniy va dunyoviy egallangan bilimlarning zalvori beqiyosdir.

Keyingi baytda ilm dargohining yana boshqa qirralari ochila boraveradi. Bunda Karimbek Kamiy lafziy san’atlar turkumiga kiruvchi tanosub san’atidan ustalik bilan foydalanadi.

Maktabki, bog‘i jannati desam ravo
Toliblarini anda ano diljo‘shi navo [11;75]

Qiyoslanayotganda misralardagi maktab, tolib so‘zlari bir guruhga kiradi. Tanosub–she’r baytlarida ma’no jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so‘zlarni qo‘llab, ular vositasida obrazli ifodalar, lavhalar yaratish san’atidir. Ayni shu talablarga javob beruvchi ushbu misralarda maktab tashbeh san’ati bilan hamkorlik qilib, ravzayi rizvonga tenglashtiradi. Jannat ahllari sanalmish munosib toliblarning esa bunda yayrashlari tabiiy holdir.

Mir’oti dil kudurati andin topar safo,
Har fardi shaxsa loiqu lozimu talab erur. [11;75]

Bu misralarda ham maktab yetuk xizmatining jannatga yetishish yo‘lidagi samarasi keltiriladi. Har bir inson qalbi yakunda sukunatga umid qilar ekan, u tahsilni komil qilishi lozimligini tasvirlaydi.

Keyingi misralarning umumiy bayonida maktabning bahosi–ummonga, hech ham o‘chmaydigan chiroq yorug‘ligiga o‘xshatiladi. Shoir mard-u zang‘a, ya’ni butun insoniyat uchun maktab bilan birga bo‘lish shart ekanini uqtiradi. Agar kimda kim undan uzoqlashsa xor-u zorlikka mahkumligini ta’kidlaydi.

Maktab emasmu iki jahonning saodati,
Maktab emasmu davlatu iqbol ra’iyati,
Maktab emasmu mol ila johning ziyodati,
Maktabki, ma’dani durru siymu zahab erur. [11;75]

Bayozining davomida ijodkor yana bir muhim san’at, tajohuli orifga murojaat qiladi. “Bilib turib bilmaslikka olish” ma’nosini ifodolovchi ushbu she’riy san’at shoirning baytda aks ettirilayotgan biron obrazli iborani aniq aytmasdan o‘zini bilib-bilmaslikka olishdek ko‘rsatishini nazarda tutadi. [ 7;35]

Ilmli kishi haq ma’noda abadiy halovatga erishadi. Sinovli ochunda “yashamoq” “lazzatlanmoq”, “kifoyalanmoq” uchun naf’li hamda amaliy ilm darkordir. Zero, Alisher Navoiy ta’biri bilan aytganda, “Ilm, senga maqsud bil, Endiki ilm o‘ldi amal aylagil.” Fursat bo‘lganida bilimlarni ilmga, ilmni esa amalga aylantirish uni el uzra tarqatish kerak. O‘z umrini ijodning lazzatini ta’tishga sarflagan Kamiy merosida ham maktabning tub mohiyatida barcha ezguliklarning kaliti bo‘lib, foydali ilm masalasi turadi.

Maktab emasmu johili oqil qilay, Kamiy,
Maktab emasmu noqisi komil qilay, Kamiy
Maktab emasmu omini fozil qilay, Kamiy
Maktabki, daf’i hama jahlu g‘azab erur.[11;75]

Sifatlar silsilasida ta’lim-tarbiya maskanining vazifalari tazod san’ati yordamida ochib beriladi. Tazod “qarshilantirish”, “zid qo‘yish”, ma’nolarini ifodalaydi. Baytda ma’no jihatidan o‘zaro zid, qarama-qarshi bo‘lgan so‘zlarni qo‘llab, ta’sirchan badiiy timsollar, lavhalar yaratishni nazarda tutadi. Misralardagi johil–oqil, noqis–komil, omi–fozil konseptlari chin ma’noda tazod san’atini ochib berishga qaratilgandir. Baytdagi mazmundan maktabni tanlamoq kishini poklovchi, uni isloh qiluvchi yo‘lning ibtidosi ekanligi anglashiladi. Murabbaning yadrosida bir ulug‘ e’tiqod masalasi: “Yomonlik eshiklarni ochuvchi, insoniylikdan uzoqlashtiruvchi g‘azab illatiga qarshi yagona qurol” himoya vositasi o‘rnida maktab va uning konseptosferasi turadi.

Har bir odamzod saodatga erishish omonligida maktabni makon tutmoq kerak. Milliy uyg‘onish davrida nihoyat ehtiyoj sezilgan bu dargohlarning istiqloli masalasiga Karimbek Kamiy aslo befarq qarolmadi. O‘z dil armonlarini yakdillashtirish istilohida u “maktab” ni tanladi. Ma’naviy-ma’rifiy mazmundagi har qanday g‘oyalar kaltaklangan o‘sha zamonlarda bu shubhasiz jadidona qarash edi. Mudom xalqining g‘ami bilan kun ko‘ruvchi ijodkorning ushbu yondashuvlari bugun ham dolzarbdir.

Yangi O‘zbekistonning shonli tarixini zarhal harflar bilan bitish uchun bugun ham yoshlarimiz oldida jahon standartlariga to‘la mos keluvchi bilimlarni o‘zlashtirish masalasi yotadi. Ushbu maqsadni ado etish uchun esa Karimbek Kamiy kabi ziyolilar tajribasi va aqidalariga ergashish eng odilona yo‘l bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abdulxayr M. Navoiy asarlarining izohli lug‘ati. Toshkent, 2018.–653 b.
2. Adizova I. So‘zdin baqoliroq yodgor yo‘qdir.–Toshkent: O‘zbekiston”, 1995.–149b.
3. Abdulhakimova O. Badiiy til va tasvir. Toshkent: Akedemnashr, 2014–54 b.
4. Afoqova N. Jadid lirikasida musammat. – Toshkent: Fan, 2005.–140 b.
5. Haqqulov I. Abadiyat farzandlari. Toshkent: Yosh gvardiya, 1990.–189 b.

6. Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. Toshkent: Sharq, 1998.–158b.
7. Hojiahmedov A.Mumtoz badiiyat malohati. Toshkent: Sharq, 1999.–238 b.
8. Karimov B. So‘z xiyoboni.Toshkent, 2020.–248 b.
9. Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq og‘zaki ijodiyoti. – Toshkent, 1974. – 382 b.
10. Mingboyeva D. Timsollar tilsimi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.–179 b.
11. Oltinbek O. Dilni obod aylangiz. Toshkent: Ma’naviyat, 1998.–134 b.
12. Qayumov A. Nazm va tafakkur quyoshi. Toshkent: Fan, 1992.–47 b.
13. Qosimov B. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004.–296 b.

## YUSUF XOS HOJIBNING "QUTADG‘U BILIG" ASARIDA MILIY, MA’NAVIY MEROSI, AXLOQIY VA SIYOSIY QARASHLAR TAHLILI.

**Meliboyev Akobir**
Samarqand transport texnikumi, Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari.

**Annotatsiya:** This article describes the content and essence of the epic poem "Kutadgu Bilig" created by Yusuf Khos Hajib and its place in the modern era. In addition, the issues of social justice, state administration, qualities of a leader, and morality in the work "Kutadgu Bilig" are highlighted. The moral views on state administration, that is, the moral qualities attributed to the king, ministers, and ordinary servants, are compared with the thoughts, words, and processes related to state administration.

**Kalit so‘zlar**: Karakhanid dynasty, Yusuf Khos Hajib, "Kutadgu bilig", philosophical and moral guide, just life, state administration, head of state, morality, virtue.

Yangi O‘zbekistonimizda madaniy sohada yoshlarga milliy tarixni milliy ruhda, xolisona, ilmiy asosda yetkazish, o‘tmishdan xulosa va saboq chiqarish asosida o‘z taraqqiyot yo‘li va kelajagini to‘g‘ri belgilay oladigan barkamol avlodni tarbiyalashga oid islohotlar olib borilmoqda. “Vatanimiz o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘yayotgan bugungi kunda biz uchun qadimiy tariximiz va madaniyatimizga oid yangi ilmiy tadqiqotlar har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham biz jahondagi ilmiy-madaniy tashkilotlarni O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish, asrab-avaylash va targ‘ib etish jarayonlariga keng jalb etib, dunyoning turli mamlakatlaridagi shu yo‘lda birga ishlash istagini bildirgan olimlar va mutaxassislarga har tomonlama yordam berishda davom etamiz”[1]. Qiymati baland bo‘lgan tarixiy-falsafiy asarlarni chuqurroq o‘rganish va uni keng ommaga tatbiq etish yosh tadqiqotchilar zimmasidagi muhim vazifadir. Jumladan, buyuk alloma Yusuf Xos Hojibning o‘n uch ming misradan ortiq, masnaviyda yozilgan “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga eltuvchi bilim”) asari Sharq ma’naviy merosining bebaho manbasi hisoblanadi. Asar jahon olimlari e’tiboridan chetda qolmagan, jumladan, A.Jaubert, H.Vamberi, V.Bartold, V.Grigorev, V.Radlov, A.Kononov, S.Malov, O Pritsak, A.SHcherbak, E.Tenishev, I.Steblova kabi olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Asar tadqiqot ishlari davomida o‘zbek, turk, nemis, rus, ingliz, uyg‘ur, qozoq, turkman, ozarbayjon, qirg‘iz tillariga o‘grilib, ilmiy tarjimalari va tadqiqotlari nashr etilgan. Falsafiy-axloqiy asar hisoblangan “Qutadg‘u bilig” – turkiy xalqlarning davlat va jamiyat boshqaruvi, turkiy xalqlarning falsafiy tafakkuri, etnik qadriyatlar, komil inson haqidagi qarashlari, bilim olishning inson uchun ahamiyati, axloq va madaniyat masalalari, bola tarbiyasi, insoniy fazilatlar haqida qarashlari, shuningdek, turkiy adabiyot va tilshunoslik fanlar to‘g‘risidagi bilimlarni o‘zida jamlagan ma’naviy merosdir. “Qutadg‘u bilig” asari hozircha bizgacha yetib kelgan turkiy badiiy adabiyot namunalarining eng ko‘hnasi hisoblanadi. Olim Q.Omonov asarni chuqur o‘rgangan holda quyidagi fikrlarni bildiradi, “Davlat boshqaruvi va qonunchiligi bilan bog‘liq bo‘lgan uslub taraqqiyotini, aytish mumkinki, uning eng yuqori cho‘qqisini “Qutadg‘u bilig” asarida ko‘ramiz. Bu an’ana davom etib, saljuqiylar vaziri

Nizomulmulkning “Siyosatnoma”, Kaykovusning “Qobusnoma” asarlari vujudga keldi. “Qutadg‘u bilig” asari turkiy tilda yaratilgan g‘oyaviy asar bo‘lib, u turkiy xalqlar dunyoqarishi va davlat boshqaruvining azaliy an’analari bilan islom mafkurasi uyg‘unlashgan asar sifatida yuzaga keldi. Asarda axloq va odob, ta’lim va tarbiya, adolat va intizom, davlat va jamiyat, hukmdor va xalq hamda ma’naviy kamolotning yo‘l-yo‘riqlarini, usullarini, chora-tadbirlarini shakllantirish tizimi mujassamlashgan. Yusuf Xos Hojib asardagi barcha bahsni ta’lim-tarbiya atrofida olib borar ekan, u o‘z davridan, tuzumdan, ijtimoiy va siyosiy, moddiy va ma’naviy hayotdan, o‘sha davrning turli tabaqalari, toifa va guruhlari, ularning rasm-rusum qoidalari, hunar va kasbkorlari, jamiyatdagi mavqelari, tutgan o‘rinlari, davlat aparatining qanday asosga qurilganligi, tutgan mavqeyiga qarab har bir tabaqaning dunyoqarashi kabilar va urug‘larning ma’muriy bo‘linishi, saroy ichki va tashqi siyosati, xullas, ko‘hna o‘tmish hayotining har sohasidagi ma’lumotlarni beradi, uning hozirgi davr faylasuflariga ham, adiblariga ham, tabiblariga ham, olim va fozillarga ham, rahbarlar va boshqa kasb egalariga fikrlari bor. Yusuf Xos Hojib “Davlat - adolat va aql bilan boshqarilmog‘i kerak”, - degan fikrni ramziy shaklda ifodalagan. Bugungi kunda chindan ham demokratik huquqiy davlatni qurish va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish uchun rahbarlar adolatli va aql bilan ish ko‘rmog‘i shart. Adolatlilikning huquqiy tomoni qonunlarga rioya etishni, siyosiy tomoni esa davlatni adolat qoidalari asosida boshqarishni, fuqarolarni g‘amini yeyishni anglatadi. “Rahbar - bu o‘zini jamiyat xizmatiga yo‘llagan kishi bo‘lib, undan unitilmas nom, so‘z hamda buzib bo‘lmas amaliy ishlar, ya’ni bilim-qonunlar, urf-odatlar, an’analar, tartiblar, madaniy, ma’naviy-axloqiy yuksak ko‘nikmalar, ezgulik va rivojlanishga undovchi mafkura, ruhiy jo‘shqinlik qolmog‘i kerak”[2] - deb ta’rif beradi Yusuf Xos Hojib. Yusuf Xos Hojibning qarashlari davlat va uning boshqaruviga oid masalalarda ham katta o‘rin tutgan. Uning nazdida davlatboshi fuqarolarning jipslashuviga ko‘maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda ustunligini taminlovchi va mustahkamlovchi shaxsdir.

“El-yurtni boshqarib zulmni bartaraf qilish uchun rahbar ezgu fel, xulq va behisob yaxshilik fazilatlariga ega bo‘lishi kerak”, - deydi Yusuf Xos Hojib. “Boshliqqa ezgu kishi yaqin bo‘lsa, uning ovozasi olamga yoyiladi. El-yurt ishlari ham yaxshilanadi”[3], - deydi Yusuf Xos Hojib. Ushbu jumla hozirgi kundagi rahbarlar uchun dasturul amal hisoblanadi, desak xato bo‘lmaydi. Darhaqiqat, insoniyat sivilizatsiyasining barcha davrlarida va har qanday tuzumda boshqaruvchi vasifasida turgan shaxslar o‘zlariga aqlli, dono, zehni o‘tkir va intelektual salohiyatga ega bo‘lgan odamlarni yig‘adi. Buning boisi shundaki, boshqaruvchi ya’ni rahbar ommaning yetakchisi sifatida jamiyatni harakatga keltiradi, xalqning ijodiy kuchlarini, uning tashabbus va intilishini uyg‘otadi, xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy hayotini jonlantiradi. Shuning uchun ham rahbar o‘zi avvalambor o‘zi bilimli va zakovatli bo‘lishi kerak. Rahbar shaxs yetakchilariga xos jonini ham fido qilish, xalqqa sidqidildan xizmat qilish, odamlarni o‘ziga jalb eta olish, kechirimli bo‘lish, odamlarni birlashtirish, boshqarish, yuksak maqsadlar sari safarbar qilish, yonib yashash, uzoqni ko‘ra olish, yetakchilikni o‘z qo‘liga olish, el-yurt tashvishi bilan yashash, yangilikka intilish, xalqning dardini o‘zini dardi deb bilish, sog‘lom turmush tarzini barpo etish kabi fazilatlarga ega bo‘lish va doimo oq-qorani farqiga borishi kerak, shundagina rahbar o‘z yo‘lidan adashmaydi va ko‘zlagan maqsadiga erishadi. “Rahbar kishining yetakchiligi va xalqchilligi”, - degan tushuncha Yusuf Xos Hojibning asosiy o‘giti hisoblanadi. Bugungi qiyinchiliklarni yengish, to‘g‘ri yo‘l topish, bu juda murakkab va qiyin vazifa hisoblanadi[4]. Lekin shu bilan birga, chinakam rahbarlik qobilyati bo‘lgan, kerak bo‘lsa, qatiqqo‘llik xususiyatlariga ega, insofli, diyonatli va adolatli, yetakchi va xalqchil rahbarlargina bu qiyinchiliklarni osongina yengib o‘tadi. Rahbarlik qobilyati ham odamzodga Alloh taolo tomonidan beriladigan noyob bir in’omdir. Binobarin, rahbar shaxs ana shu yuksak talab va mezonlarga munosib bo‘lishi zarur. Afsuski, barcha rahbarlar ham zimmasiga olayotgan ma’sulyatini teran tushunavermaydi. Biz ko‘pincha rahbar qat’iyatli, bilimdon va talabchan bo‘lishi kerak deymiz. Hech shubhasiz, rahbar uchun bu fazilatlar suv bilan havoday zarur. Lekin hozirgi zamonda faqat shular bilan uzoq manzilni ko‘zlamoq qiyinroqdir. U o‘zining issiq istarasi, muomalasimi, qandaydir boshqa ijobiy jihati bilan

odamlarning e’tiborini o‘ziga tortadigan, bir so‘z bilan aytganda, xalqning ko‘ngliga yo‘l topa oladigan bo‘lishi shart. Rahbar eng murakkab, eng mushkul vaziyatlarda ham odamlarni ko‘ndirishi, ularni ba’zi bir nojo‘ya ishlardan, xatti harakatlardan qaytarish va jamoada sog‘lom iqlim barpo eta olish salohiyatiga ega bo‘lishi darkor.

Tadqiqotchilar, asarni Qoraxoniylar davri asosiy qonunchilik kitobi bo‘lib, davlatni tutib turuvchi uch asosdan biri törü ekani alohida ta’kidlanadi” – deya yozadi[5]. Zero, Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarini yozgan davrda, davlat boshqaruvida kelishmovchiliklar tez-tez yuz takrolanib turgan. Shuning uchun, davlatni to‘g‘ri boshqarish, amaldorning sifatlari, el bilan muomala qilish, ichki odob va tartib qoidalari va unga amal qilish qonun (törü) asosida bo‘lishi Yusuf Xos Hojib o‘z zimmasiga oldi va o‘zining “Qutadg‘u bilig” asarini yaratdi. Turkiy xalqlar orasida “Qutadg‘u bilig”ning mashhurligi shundaki, asarni qardosh Turkiyada ham taniqli olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan, jumladan, R.R.Arat, A.Dilachar, K.Eraslan, O.F.Sertkaya, A.B.Erjilasun, I.Kafeso‘g‘lu, N.Kulekchi, E.Ushenmez, K.Yavuz kabilarning xizmatlari ahamiyatlidir. Asarning tarixiy ahamiyati, ijtimoiy mazmuni o‘rgangan tadqiqotchi Suer Eker shunday yozadi: XI asrning oxirlarida “Qutadg‘u bilig” va “Devonu lug‘oti-t turk” kabi turk tili va madaniy merosini kelajak avlodlarga etkazib berishga benazir xizmat qilgan ikki bebaho yozma yodgorlik yaratildi. “Qutadg‘u bilig” va “Devonu lug‘oti-t turk” yangi turk-islom sivilizatsiyasining ilg‘or fikr, san’at va ilm-fanga doir asarlari o‘laroq Beruniy, Forobiy, Ibn Sino kabi allomalar etishib chiqqan ijtimoiy-madaniy iqlimning mahsullaridir”[6].

**XULOSA**

Xulosa o‘rnida aytish joizki, Yusuf Xos Hojibning xalq orasidan yetishib chiqqanligi, uning g‘oyalar va falsafiy-ijtimoiy qarashlari, o‘z davrning ilg‘or ziyolilaridan biri bo‘lganligini ko‘rsatib turadi. Yusuf Xos Hojib merosi hamda Sharq sivilizatsiyasi va falsafiy fikrlar taraqqiyotini yanada chuqur o‘rganuvchi mutaxassislarning yangi avlodini tarbiyalash oldimizda turgan ulkan vazifadir. Bundan tashqari kelajakda jamiyatimizning ayrim G‘arb jamiyatlari kabi tuzatib bo‘lmas darajadagi ijtimoiy-ma’naviy muammolarga duchor bo‘lmasligi uchun buyuk ajdodlarimiz merosi, xalqimizning tarixiy xotirasiga bog‘liq an’analar va muqaddas e’tiqodimiz durdonalarini saqlash va kelajak avlodlarga sof holda yetkazib berish dolzarb vazifalardan biridir.

**ADABIYOTLAR**


1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: “O‘zbekiston”, 2021.
2. O.Salimov, Q.Quranboyev. “Boshqaruv hikmati” G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot manbaa uyi, “Ta’lim” nashriyoti Toshkent – 2018.
3. Y.X.Hojib. Qutadg‘u bilig. -T. Cho‘lpon nashriyoti. 2007-yil.
4. Marjon Ziyadulla qizi Maylibayeva, Xolmo‘minov Zokir o‘gli Mo‘minmirzo. Yusuf Xos Hojibning boshqaruvga doir qarashlari va o‘gitlarining mazmun-mohiyati. “Oriental Art and Culture” jurnali. Qo‘qon 2022. https://scholar.google.com.
5. Омонов Қ. Ўзбек ҳужжатчилигининг асослари: Юзага келиши ва тарихий такомили. Тошкент 2016.
6. Suer Eker. Yusuf Hâs Hâcib. Kutadğu Bilig (1069). Türk edebiyatı tarihi 1.

## "SCIENTIFIC-TECHNOLOGICAL MAPPING OF 'VIDEVDAT': A CASE STUDY OF PERSONAL NAMES

**Murodova Gulmira Muhiddin qizi**

**Annotation:** This article analyzes the historical significance of *Avesta*, one of the oldest written sources of Central Asia, which contains valuable information about state formation, governance, material, and spiritual life. The study examines the role and advantages of the newly proposed method in historical studies, the "Scientific-Technological Mapping of Written Sources" (STMWS), in *Avesta* research. Differences among various translations are analyzed, with a focus on personal names and their frequency in the text to assess the historical importance of key figures. The research highlights that identifying inconsistencies in *Avesta* translations through scientific-technological mapping and restoring the original meaning of the text remain crucial challenges in historical studies.

**Keywords:**
Avesta, written sources, historiography, source studies, scientific-technological mapping, STMWS, translation analysis, Zarathushtra, historical figures.

## "VIDEVDAT"NING ILMIY-TEXNOLOGIK XARITASI: SHAXS NOMLARI MISOLIDA

Ma'lumki kishilik jamiyati tarixi nihoyatda ziddiyatli muammo va qarama-qarshiliklarga boy sanaladi. Shu o'rinda tarixni o'rganishda yechimini kutib yotgan anchagina muammolar mavjud bo'lib, bu muammolar faqatgina o'rganilayotgan tarixiy davr xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan va aynan o'sha davr ruhiyati aks etgan tarixiy yozma manbalarning ya'ni O'rta Osiyoning qadimiy yodgorligi bo'lmish "Avesta"ni o'rganishning o'rni beqiyos. "Avesta"ning biz uchun eng ahamiyatli jihati shundaki, u o'sha uzoq davrlardagi davlat shakllanishi va davlat tuzumi, davlatning asosiy moddiy, ma'naviy va ijtimoiy-siyosiy poydevorlari haqida tasavvur bera oladigan eng qadimgi yozma manbadir. Tarix faniga yordamchi fan hisoblanmish manbashunoslik fanida yangi metod bo'lmish "Yozma manbalarning ilmiy-texnologik xaritasi" metodi fanga kirib kelmoqda. Ilk bora ushbu metodni fanga Anvar Boqiyev 2015-yilda olib kirgan. A. Boqiyev o'zining "Yozma manbaning informatsion- texnologik xaritasi"ga doir ilk mulohazalar (VI-IX asrlar)" nomli maqolasida ushbu metodning afzalliklari to'g'risida ma'lumot berib o'tgan. Ilm-fan taraqqiyotida innovatsion texnologiyalardan foydalanish hozirgi davrning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Yozma manbani "Yozma manbaning informatsion-texnologik xaritasi"ni (YoMITX) tuzish orqali tadqiq etish manbashunoslikda ham yangi imkoniyatlarga keng yo'l ochadi. YoMITX — yozma manbaning mohiyati va ichki belgilarini fundamental darajada tadqiq etishga xizmat qiladi. YoMITXga tayangan holda matndagi ma'lumotlar miqdorini aniqlash mumkin. "Yozma manbalarning ilmiy-texnologik xaritasi" usuli o'z navbatida manbani chuqurroq o'rganish va uni tahlil qilish uchun keng imkoniyatlar ochadi. YoMITX yozma manbadagi ma'lumotlarni ma'lum bir tizimga soladi va belgilariga ko'ra turkumlaydi. [134]

Bizga ma'lumki yozma manbalar o'z davri bo'yicha muhim ahamiyatga ega, unda aks ettirilgan shaxs nomlari, geografik nomlar, mifologik nomlar, xudo nomlari va boshqa nomlarni o'rganish orqali va ushbu nomlar manbada nechchi marta kelganini bilish orqali bizga o'sha davr haqida haqqoniy tasavvur paydo bo'ladi. Misol uchun shaxsning tarixiy shaxs bo'lganligi yoki uydirma ekanligini aniqlashda u haqidagi ma'lumotlarning aniqligi va chalkashliklar uchramasligini, xronologik ketma-ketlikda buzilishlar bo'lmasligini asos qilib olishimiz mumkin, mavqeyini esa o'rganilayotgan shaxs manbada nechchi marta uchrayotganligi va u haqidagi fikrlar orqali aniqlashimiz mumkin. Tahlil uchun Ingliz tilidagi tarjimani aniqrog'i Darmesteter tarjimasi olindi. Jeyms Darmesteter matnni 1880

[134] A. Boqiyev "Yozma manbaning informatsion- texnologik xaritasi'ta doir ilk muloxazalar (VI-XIX asrlar)" T.2015

yilda Pahlaviy tarjimasiga tayanib tarjima qildi. 1898 yilda u qayta ishlangan tarjimani nashr etdi.[135] Keyinchalik Fritz Volff "Avesta" matnining ko‘p qismini nemis tiliga " Bartholomae monumental Avestan lug‘ati”ga asoslanib tarjima qilgan[136]. Kellensning so‘zlariga ko‘ra, Darmesteter tarjimasi ba’zida “Videvdat”ni tushunishda ustunroq bo‘ladi Uning qaydlari ayniqsa bebaho bo‘lib qoladi.[137] Bunga sabab qilib ushbu tarjima qolgan tarjimalardan qadimiyroq hamda “Avesta” matnida chalkashliklar uchramasligini ko‘rsatishimiz mumkin. O‘zbek tilidagi tarjimaning ikkalasini ham ya’ni Asqar Mahkam[138] hamda Mirsodiq Is’hoqov[139] tarjimasi ilmiy-texnologik xaritani yaratishga asos qilib olindi. ling Quyidagi jadvalda “Videvdat”da tilga olingan shaxs nomlari tahlili berilgan.

| № | Darmesteter | A.Mahkam | M. Is’hoqov | Soni | Ma’lumot |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Zarathushtra | Zardusht | Zaratushtra | 184 marta | Zardushtiylik dining payg‘ambari |
| 2 | Thraetaona | Faridun | Traetaona | 1 marta | Hamzaga ko‘ra tibbiyot ixtirochisi |
| 3 | Azi Dahaka | Ajdaho | Aji Daxaka | 1 marta | Aji Dahaka yoki Zohaq afsonaviy shoh sifatida dunyoni ming yil hukmronlik qilgani aytiladi. |
| 4 | Yima | Jam | Yima | 34 marta | Vivanghat o‘g‘li Axura Mazda Yimaga taklif qiladi, undan dinni qabul qilishni va uni odamlarga yetkazishni. Vara qurgan. |
| 5 | Vivanghat | Vayvangxon | Vivahvant | 6 marta | Yimaning otasi |
| 6 | Urvatat-nara | Arvatatnara | Urvatot-nara | 1 marta | Zaratushtraning uchta o‘g‘li bor edi: Isat-vastra, Xvare-chitra va Urvatat-nara. |
| 7 | Pourushaspa | Yo‘q | Pourushaspa | 3 marta | Zarathushtraning otasi |

Shu vaqtgacha “Avesta” tarixi va uning tarixshunosligi borasida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, ushbu yodgorlik bir qancha tillarda tarjima qilinganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki “Avesta” tarjimalari o‘rtasida farqlar uchrashi, bir manba doirasida bo‘lganligi bois juda katta kamchilik hisoblanadi. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etib tarixga asl “Avesta” matnlarini qaytarish va uning ahamiyatini oshirish hozirgi kun tarix fanining dolzarb muammosi hisoblanadi. “Avesta”ning ilmiy-texnologik xaritasi borasida tadqiqotlar yo‘q bo‘lganligi bois yanada chuqurroq o‘rganilishga muhtoj.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


1. Boqiyev “Yozma manbaning informatsion- texnologik xaritasi’ta doir ilk muloxazalar (VI-XIX asrlar)” T.2015
2. Darmsteter Y. The Zend — Avesta, I.Oxford, 1880
3. Fritz Volff. Avesta: Die heiligen Bücher der Parsen. 1910
4. J. Kellens, “Avesta, the holy book of the Zoroastrians” Encyclopedia Iranica, 1987.
5. Avesto / Asqar Mahkam tarjimasi. – T.: Sharq, 2001. – 384 b
6. M. Is’hoqov. Avesta. Videvdot kitobi. Toshkent. 2007.


[135] Darmsteter Y. The Zend — Avesta, I.Oxford, 1880
[136] Fritz Volff. Avesta: Die heiligen Bücher der Parsen. 1910
[137] J. Kellens, “Avesta, the holy book of the Zoroastrians” Encyclopedia Iranica, 1987.
[138] Avesto / Asqar Mahkam tarjimasi. – T.: Sharq, 2001. – 384 b
[139] M. Is’hoqov. Avesta. Videvdot kitobi. Toshkent. 2007.

# KOGNITIV TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING ASOSIY TAMOYILLARI VA ULARNING O‘QUVCHILAR MUAMMOLARINI HAL ETISHDAGI ROLI.

**N.N.Umarov**
Navoiy davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

***Abstract:*** *This article focuses on the basic principles of cognitive learning technologies and their role in solving students’ problems. Information is also provided on the significance of cognitive educational technologies in revealing the true essence of a number of shortcomings in the education system, as well as their contribution to solving problems that students encounter and find difficult to solve.*

***Keywords:*** *Principle of activity, principle of problem-based learning, principle of metacognitive management, principle of individual approach, individual approach, reflection, contextual learning, principle of multi-channel learning, collaborative learning.*

**Kirish.** Bugungi kunda tezkor axborot oqimida talabalarning faqat bilim olish emas, balki ularni qayta ishlash, tahlil qilish va yangilik yaratish qobiliyatlariga ega bo‘lishi talab qilinadi. Kognitiv ta’lim texnologiyalari tamoyillarining dolzarbligi zamonaviy ta’lim jarayonlarida bilimlarni samarali o‘zlashtirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantirish bilan bog‘liq. Kognitiv texnologiyalar ana shu maqsadlarga xizmat qiladi. Oddiy bilim berishdan ko‘ra, o‘quvchilarga bilimlarni qanday qo‘llashni o‘rgatish muhim. Kognitiv yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilar real muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar orqali bilimlarni chuqur o‘zlashtiradilar. O‘quvchilarga o‘z bilimlarini qanday boshqarishni o‘rgatish – ya’ni, qanday qilib yaxshiroq o‘rganish, eslab qolish va tushunish mumkinligini tushuntirish – samarali ta’limning asosiy jihatlaridan biridir. Kognitiv ta’lim texnologiyalari shu yo‘nalishda muhim ahamiyatga ega. Kognitiv ta’lim texnologiyalari zamonaviy sun’iy intellekt va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan uyg‘unlashgan holda o‘qitish jarayonini shaxsiylashtirish va differensiallashtirish imkoniyatini yaratadi. Hayot davomida o‘qish va o‘z ustida ishlash zamonaviy jamiyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Kognitiv yondashuv o‘quvchilarda mustaqil o‘rganish qobiliyatini rivojlantirib, ularga doimiy ravishda yangiliklarni o‘rganish imkoniyatini taqdim etadi.

**Asosiy qism.** Kognitiv ta’lim texnologiyalari tamoyillarini chuqur tadqiq etish orqali birinchidan ta’lim tizimidagi bir qancha kamchiliklarning asl mohiyati yuzaga chiqsa, ikkinchidan o‘quvchilarda uchraydigan, ular hal etishda qiynaladigan muammolarni bartaraf etishga ham fundamental asoslar paydo bo‘ladi. Ulardan bir qanchasini ko‘rib chiqamiz.

1. O‘quvchilardagi passiv o‘rganish va faollik yetishmovchiligi muammosi. Faollik tamoyili – o‘quvchilarni bilimlarni faqat eslab qolish emas, balki mustaqil izlanish va muammolarni hal qilish orqali o‘rganishga rag‘batlantiradi. Natijada, ular dars jarayonida faol ishtirok etadi va bilimlarni yanada chuqurroq o‘zlashtiradi.

2. O‘quvchilardagi tayyor bilimlarni yodlashga asoslangan yondashuv muammosi. Muammoli ta’lim tamoyili – o‘quvchilarga tayyor javoblarni o‘rganish emas, balki muammolarni tahlil qilish va yechim izlashga o‘rgatadi. Bu ularda tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Muammoli o‘qitish texnologik yo‘l bilan rivojlandi. Natijada muammoli o‘qitishning to‘rt bosqichdan iborat mantiqiy shakli paydo bo‘ldi: muammoning qo‘yilishi, uni yechish yo‘llarini aniqlash, muammoni yechishning eng maqbul yo‘lini tanlash, muammoni yechish.[140]

3. O‘quvchilardagi o‘z bilim olish jarayonini boshqarish qiyinchiliklari muammosi. Metakognitiv boshqaruv tamoyili – orqali o‘quvchilar o‘z o‘rganish jarayonlarini kuzatish, tahlil qilish va yaxshilash imkoniga ega bo‘ladilar. Bu esa mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

[140] N.Sh.Xasanova “Ta’lim tizimida muammoli oʻqitish texnologiyalaridan foydalanish”, “Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. 4-bet.

4. O‘quvchilardagi esda saqlash va tushunishdagi qiyinchiliklar. Ilgari olingan bilimlarga tayanish tamoyili yordamida yangi bilimlar o‘quvchining mavjud bilimlari bilan bog‘lanadi, bu esa axborotni eslab qolish va tushunishni osonlashtiradi. Natijada, o‘quvchilar bilimlarni uzoq vaqt eslab qoladi va ularni amaliyotda qo‘llay oladi.

5. O‘quvchilardagi o‘quv jarayonida qiziqish va motivatsiya yetishmovchiligi muammosi. Individual yondashuv tamoyili – har bir o‘quvchining ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos o‘qitish usullaridan foydalanishni ta’minlaydi. “Individual” tushunchasi lotincha bo‘lib, yakka tartibda yolg‘iz va maxsus shug‘ullanish ma’nolarini bildiradi.[141] Aynan shu sababli individuallashtirilgan ta’lim shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv va tadqiqot shakli bo‘lib, unda har bir ta’lim oluvchi o‘quv jarayonida faol ishtirok etadi. Mana shu jihati bilan individual yondashuv muhim ahamiyatga ega. Chunki unda yakka tartibda shug‘ullanish ta’lim oluvchilarni faollashtiradi, ta’lim beruvchilarning uslubi yondashuvini kuchaytiradi va ta’lim oluvchilarning o‘quv-biluv malakasi asosiy diqqat markazida bo‘ladi.[142] Kontekstual ta’lim tamoyili esa bilimlarni real hayotiy vaziyatlarga bog‘lab, o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi.

6. O‘quvchilardagi tanqidiy va ijodiy fikrlash yetishmovchiligi muammosi. Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish tamoyili – o‘quvchilarga mustaqil fikrlash, muhokama yuritish va yangi g‘oyalar ishlab chiqish imkoniyatini beradi. Bu esa ularga o‘z fikrlarini asoslash va innovatsion yechimlarni topish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

7. O‘quvchilardagi o‘z yutuqlari va kamchiliklarini baholash qiyinchiliklari muammosi. Refleksiya tamoyili orqali o‘quvchilar o‘z o‘rganish jarayonlarini tahlil qilib, o‘z kuchli va zaif tomonlarini anglaydilar. Bu ularga kelajakdagi ta’lim jarayonini yaxshiroq tashkil qilish imkonini beradi. Bilish shakli sifatida refleksiya nafaqat tanqidiy, balki evristik tamoyil hamdir: u yangi bilim manbai sifatida namoyon bo‘ladi.[143]

8. O‘quvchilardagi bilimlarni real hayotda qo‘llay olmaslik muammosi. Kontekstual ta’lim tamoyili va muammoli ta’lim tamoyili o‘quvchilarni o‘rganilgan bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llashga o‘rgatadi. Natijada, ular nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

9. O‘quvchilardagi biryoqlama o‘rganish usuli (faqat kitob yoki ma’ruzaga tayanish) muammosi. Ko‘p kanalli o‘qitish tamoyili – turli o‘quv uslublarini (vizual, audial, kinestetik) qo‘llab-quvvatlab, o‘quvchilarga mos usulda ta’lim olish imkonini yaratadi. Bu esa bilimlarni tez va samarali o‘zlashtirishga yordam beradi.

10. O‘quvchilardagi jamoaviy ish ko‘nikmalarining rivojlanmaganligi muammosi. Hamkorlikda o‘rganish tamoyili orqali o‘quvchilar jamoada ishlash, muloqot qilish va fikr almashish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu esa ularga kelajakda jamoaviy muammolarni hal qilishda yordam beradi. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi mualliflaridan biri bo‘lgan R.Slavinning ta’kidlashicha, o‘quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish uchun ko‘rsatma berilishi etarli emas. O‘quvchilar tom ma’nodagi hamkorlik, har bir o‘quvchining qo‘lga kiritgan muvafaqqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Mazkur texnologiyada o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o‘quvchining kundalik natijasi avval qo‘lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi. Shundagina o‘quvchilar o‘zining dars davomida erishgan natijasi komandaga foyda

---

[141] Sh.Mardonov “Pedagogika fanidan o’qitishning elektron-modulli didaktik ta’minotini ishlab chiqish”. Chirchiq, 2021-yil.

[142] O.Jabborova “Individual yondashuv texnologiyasi mazmuni”, “Multidisciplinary Scientific Journal” 4-jild 3-son. 2023-yil. Mart. 340-bet.

[143] Sh.Jo’rayev “Talabalarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida”, “Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. 2024-yil. 57-bet.

keltirishini anglagan holda mas’uliyatni his qilib, ko‘proq izlanishga, bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga intiladi.[144]

Jamoaviy faoliyat orqali bilim olish, guruhli topshiriqlar, muhokamalar va loyihalar asosida o‘quvchilar bir-biridan o‘rganish imkoniga ham ega bo‘ladilar.

**Xulosa.** Kognitiv ta’lim texnologiyalari tamoyillari o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirish, bilimlarni chuqur o‘zlashtirish va amaliyotda qo‘llash qobiliyatlarini shakllantirish orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Bu tamoyillar orqali nafaqat an’anaviy ta’limdagi kamchiliklarni bartaraf etish, balki o‘quvchilarning hayotga tayyorgarligini yaxshilash ham mumkin. Kognitiv texnologiyalar yordamida har bir o‘quvchining bilish jarayoni individual tarzda tahlil qilinadi va shunga mos o‘qitish strategiyalari ishlab chiqiladi. Raqamli platformalar va sun’iy intellektga asoslangan ta’lim texnologiyalari o‘quvchilarning bilish jarayonini kuzatish va ularga mos keladigan takliflarni ishlab chiqishga imkon beradi. O‘quv jarayonida vizualizatsiya, grafik organayzerlar, assotsiativ bog‘lanishlar kabi usullardan foydalanish axborotni samarali kodlash va xotirada uzoq vaqt saqlash imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. N.Sh.Xasanova “Ta’lim tizimida muammoli oʻqitish texnologiyalaridan foydalanish”, “Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. 4-bet.

2. Sh.Mardonov “Pedagogika fanidan o‘qitishning elektron-modulli didaktik ta’minotini ishlab chiqish”. Chirchiq, 2021-yil.

3. O.Jabborova “Individual yondashuv texnologiyasi mazmuni”, “Multidisciplinary Scientific Journal” 4-jild 3-son. 2023-yil. Mart. 340-bet.

4. Sh.Jo‘rayev “Talabalarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida”, “Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. 2024-yil. 57-bet.

5. Ch.G‘oibnazarova “Kollabarativ ta’lim texnologiyasi”, Multidisciplinary Scientific Journal 2-jild 13-son. 2023-yil noyabr. 419-bet.

## YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’RIFATLI SHAXS TARBIYASINING HUQUQIY ASOSLARI

**Habibullayev Orif Muhiddin o‘g‘li-**
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Ijtimoiy-gumanitar va tarix” kafedrasi katta o‘qituvchisi

*Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat.*
**Sh.M.Mirziyoyev**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida ma’rifatli shaxs tarbiyasining huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar, ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar, yoshlar tarbiyasiga oid qonuniy me’yorlar va ularning jamiyat rivojiga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, ma’rifatli shaxs shakllanishida ta’lim va tarbiyaning ahamiyati hamda huquqiy asoslarining takomillashtirilishi bo‘yicha takliflar beriladi.

[144] Ch.G’oibnazarova “Kollabarativ ta’lim texnologiyasi”, Multidisciplinary Scientific Journal 2-jild 13-son. 2023-yil noyabr. 419-bet.

**Kalit so‘zlar:** Yangi O‘zbekiston, ma’rifatli jamiyat konsepsiyasi, ma’naviy barkamollik, ta’lim va tarbiya, taraqqiyot strategiyasi, ma’naviyatning konstitutsiyaviy mezonlari, Uchinchi Renessans, huquqiy asos.

**Аннотация.** В статье анализируются правовые основы воспитания просвещенной личности в условиях Нового Узбекистана. Будут освещены реформы, реализуемые в стране, изменения в системе образования, правовые нормы, связанные с образованием молодежи, и их влияние на развитие общества. В статье также обсуждается значение образования и воспитания в формировании просвещенной личности, а также даются предложения по совершенствованию их правовой базы.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, концепция просвещенного общества, духовное совершенство, образование и воспитание, стратегия развития, конституционные критерии духовности, Третий Ренессанс, правовая база.

**Abstract.** The article analyzes the legal basis for the education of an enlightened person in the context of New Uzbekistan. The article will cover the reforms implemented in the country, changes in the education system, legal norms related to the education of young people, and their impact on the development of society. The article also discusses the importance of education and upbringing in the formation of an enlightened person, and provides suggestions for improving their legal framework.

**Keywords:** New Uzbekistan, concept of an enlightened society, spiritual perfection, education and upbringing, development strategy, constitutional criteria of spirituality, Third Renaissance, legal framework.

Mamlakatimizda milliy yuksalish davrida jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy jarayonlar mohiyati tubdan ijobiy tomonga o‘zgardi. Endilikda inson omilini ro‘yobga chiqarish, uning ma’naviy takomilini ta’minlash, uning har tomonlama yuksalishi uchun shart-sharoitlar yaratib berish, o‘z iste’dodlari va qobiliyatlarini erkin namoyon qilish kabi an’analar mustahkam rivojlanib bormoqda. Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, aholi turmushi va yashash muhitidagi muhim tomonlarni rivojlantirish, jamiyatda islohotlar ko‘lamining yuksalishida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish va uni yuksaltirish uslublarini ijtimoiy hayotga tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’naviy qadriyatlarimizni asrash va uni targ‘ibot qilish ham jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Ma’naviyat fan va taraqqiyot, ilmiy-ijodiy yutuqlar bilan rivojlanadi, xalqimiz tafakkuri va boy imkoniyatlari bilan hamohang holda boyib, sayqallanib boradi. Ma’naviyat va uning asosiy mezonlari xalqimiz ongida vorisiylik tarzida avloddan avlodga o‘tib boradi. Ma’naviyat targ‘iboti jarayonida ham ana shu maqsadlar bajarila borib, ma’rifat degan yuksak ijtimoiy hodisa bilan birgalikda olib boriladi.

Shuningdek, bugungi globallashuv sharoitida ularni har qanday mafkuraviy tahdidlardan xalos qilish, “fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat” tamoyili asosida tafakkurida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, bo‘layotgan voqea-hodisalarga erkin fikr bildira oladigan, kerak bo‘lsa tahlil qila oladigan darajada ulg‘aytirishga erishishdir. Zero, yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz” – degan fikrlari buni isbotlab turibdi.[1]

So‘nggi yillarda respublikamizda olib borilayotgang keng ko‘lamli islohotlarning asosiy negizlaridan biri - bu ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘lib, bunda aholimiz, ayniqsa yosh avlodning har tomonlama yetuk va barkamol inson bo‘lib yetishishini ta’minlashdan iborat. Buni amalga oshirish uchun hukumatimiz tomonidan bir qancha huquqiy yaratilib o‘rtaga tashlandi.

Mazkur asoslar rivojlanish yo‘lidan og‘ishmay ildamlayotgan respublikamizda istiqomat qiluvchi har bir shaxsni ma’naviy qiyofasini va tafakkurini ijobiy tomonga o‘zgartiribgina qolmasdan, balki yosh avlod tarbiyasidek nozik jabhani olib borilayotgan islohotlar va amalga oshirilayotgan ishlar sifatini ta’minlaydi.

Ma’rifatli jamiyat, ma’rifatli shaxs tarbisi borasidagi dastlabki islohotlardan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son qaror hisoblanadi. Mazkur qarorda “Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda “Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari” degan hayotbaxsh g‘oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda” – deb ta’kidlangan. [2]

Keyingi yillarda ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishni takomillashtirish ishida uzoq yillardan beri isloh etishga muhtoj bo‘lgan muammolarni hal etish borasida yangicha yondashuv amalga oshirildi. Jumladan,

- ma’naviyat mezonlariga doir tushuncha va tamoyillar asosiy qomusimiz hisoblanadigan yangilangan konstitutsiya matnida aks ettirildi;

- jamiyatimizning ma’naviy taraqqiyoti va yangi ma’rifiy makonni yaratish bilan bog‘liq jarayonlarning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlash, ushbu sohaga doir zarur qonunlar, huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish borasida sa’y-harakatlar amalga oshirilmoqda;

Ma’rifatli shaxs tarbiyasidagi huquqiy asoslardan biri “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hisoblanadi. Mazkur strategiyada jamiyatimizning ma’naviy rivoji bilan bog‘liq ishlar davlat siyosatining alohida va ustivor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab berilishi mazkur sohadagi faoliyatning yangi bosqichini boshlagani shubhasiz. Davlatimiz rahbari tomonidan farmonda “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash, ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish vazifalari” borasidagi maqsadlarning aniq-tiniq belgilab berilgani esa bu jabhadagi ishlarni jadallashtirdi. [3]

E’tiborli tomoni bugungi kunga kelib ma’naviyat sohasiga munosabat butunlay o‘zgardi. Mustaqillik yillarida birinchi marta bu boradagi ishlar davlat siyosatining alohida yo‘nalishiga aylandi. O‘z navbatida bu, Asosiy qonunimizda ma’naviyatning konstitutsiyaviy mezonlari va ushbu sohadagi davlat siyosatining huquqiy asoslarini mustahkamlash, bu boradagi tartib-qoidalarni aniq-tiniq belgilab qo‘yish zaruratini yuzaga keltirdi.

Taraqqiyot strategiyasining beshinchi yo‘nalishida “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasini kelgusi besh yillikda amalga oshirilishi ko‘rsatib o‘tilgan. Bu nima degani? Dunyodagi rivojlangan davlatlar va jamiyatlarning bugungi kundagi mavqei eng avvalo, o‘sha davlat yoki jamiyatda a’zosi bo‘lgan kishilarning bilimlilik darajasi bilan o‘lchanadi. Muhtaram Prezidentimiz muammoning mohiyatini chuqur anglagan holda ilm o‘rganish, yoshlarni bilimli va ma’nan yetuk qilib tarbiyalash nafaqat oila yoki ta’lim muassasida amalga oshirilishi, balki barcha sohalarda ham bu konsepsiyaga qat’iy amal qilinishi zarurligi belgilab qo‘yilgan.

Bu konsepsiya orqali madaniyat va san’atni yuksaltirish, yoshlarni sog‘lom e’tiqod ruhida tarbiyalash, millatlararo hamjihatlik va o‘zaro hurmatni mustahkamlashga ustuvor ahamiyat qaratilgani muhim jihat sanaladi. Zero, bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yagona va ahil oila bo‘lib yashayotgani, fidokorona mehnati bilan Vatanimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shayotgani e’tiborga loyiq. Shu bilan birga, davlatimizning bugungi siyosati ham barcha millat va elat vakillarining milliy o‘zligini, ona tili va madaniyatini, dini, urf-odat va an’analarini saqlab qolish va ustovorlik qaratilishiga yo‘naltirilgan.

Bugungi kunda jamiyatimizda ma’naviy va moddiy hayotni uyg‘un ravishda olib borilishi o‘z tasdig‘ini topmoqda. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “Kimki ma’naviyat masalasi – bu faqat ma’naviyat va ma’rifat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi deb o‘ylasa xato qiladi”

Zero, ma’naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Ma’naviy-ma’rifiy soha oldida turgan ulug‘ maqsad – Uchinchi Renessansga poydevor qo‘yish va uni barpo etish, avvalo, xalqimiz, qolaversa yoshlarimizni tafakkurini yuksaltirishdan iborat.

“Yangi O‘zbekistonni yetuk ma’naviyatli jamiyat, erkin va baxtli insonlar yashaydigan yurtga aylantirishimiz uchun barcha tizim tashkilotlari bilan bir qatorda vazirlik va idoralar, tashkilot rahbarlari, ziyolilar, olimlar, qisqacha aytganda barcha ertasiga befarq bo‘lmagan odamlar birlikda harakat qilishi, qo‘lni-qo‘lga berib ishlashi zarur. Ana shundagina biz o‘z oldimizga qo‘yilgan maqsadga erishishimiz va rivojlangan mamlakatlar qatoridan mustahkam o‘rin egallashimiz mumkin bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan huquqiy asoslarga tayangan holda ma’nan barkamol, yuksak iqtidorli va mustaqil fikrlaydigan, Vatanimizga sodiq, qat’iy hayotiy qarashlarga ega yigit-qizlarni tarbiyalash, ularning iste’dod va qobiliyati, ezgu intilishlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o‘rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish bundan buyon ham siz va bizning oldimizda turgan, kezi kelganda kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalardan bo‘lib qolaveradi albatta.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2021-yil 26- mart. PQ-5040-son. www.lex.uz.
3. Sh.M.Mirziyoyev. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. Toshkent - O‘zbekiston, 2019 y.
4. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 7 dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi.

## YOSHLARNI TARBIYALASHDA ILMIY VA MA’NAVIY MEROSNING O‘RNI

**O‘ktamova Dilfuza O‘ktamovna-**
Navoiy davlat universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi 1-kurs Tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada yoshlar ta’limi va tarbiyasida ilmiy va ma’naviy merosning ahamiyati yoritiladi. Ilmiy meros yoshlarning intellektual rivojlanishiga, tanqidiy fikrlash va tahliliy qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ma’naviy meros esa axloqiy tarbiya, halollik, vatanparvarlik va insoniylik kabi qadriyatlarni singdiradi.

O‘zbekistonda davlat siyosati yoshlarning ilmiy va ma’naviy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan. “Davlat yoshlar siyosati to‘g‘risidagi qonun” yosh avlodning ilm-fan va axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalanishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Ta’lim jarayonida ilmiy bilimlar va ma’naviy qadriyatlarning uyg‘unligi yoshlarning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida fan va axloqni uyg‘un holda o‘qitish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va milliy merosni targ‘ib etish muhim ahamiyatga ega.

Shu tariqa, yoshlarni tarbiyalashda ilmiy va ma’naviy merosning uyg‘un qo‘llanilishi jamiyat taraqqiyotiga, barqaror rivojlanishga va axloqiy yetuk avlod shakllanishiga zamin yaratadi.

**Kalit so‘zlar:** Ilmiy meros, ma’naviy meros, yoshlar ta’limi, axloqiy tarbiya, intellektual rivojlanish, davlat siyosati, ilm-fan, axloqiy qadriyatlar, tanqidiy fikrlash, barqaror rivojlanish.

**Abstract.** This article highlights the significance of scientific and spiritual heritage in the education and upbringing of young people. Scientific heritage contributes to the intellectual

development of youth, fostering critical thinking and analytical skills. Meanwhile, spiritual heritage instills moral education, honesty, patriotism, and human values.

In Uzbekistan, state policy is focused on enhancing the scientific and spiritual potential of young people. The Law on State Youth Policy supports the education of the younger generation based on science and ethical values.

Integrating scientific knowledge with moral values in education ensures the sustainable development of youth. Schools and higher education institutions must combine academic subjects with ethical teachings, promote critical thinking, and encourage the preservation of national heritage.

Thus, the harmonious application of scientific and spiritual heritage in youth upbringing contributes to societal progress, sustainable development, and the formation of a morally and intellectually mature generation.

**Keywords:** Scientific heritage, spiritual heritage, youth education, moral upbringing, intellectual development, state policy, science, ethical values, critical thinking, sustainable development.

Har qanday mamlakatning kelajagi unda o‘sib, o‘nib, voyaga yetgan yosh avlodining tarbiyasiga bog‘liq. Davlat yoki jamiyat kelajagini rivojlantirish va shakllantirish jarayonida yoshlarning ta’lim-tarbiyasi muhim omil hisoblanadi. Har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash uchun, albatta ta’lim tizimi ilmiy va ma’naviy merosni uyg‘unlashtirishi juda muhim.

O‘zbekistonda yoshlarning ilmiy va ma’naviy tarbiyasiga katta e’tibor qaratilib, milliy meros asosida ularning axloqiy qiyofasini shakllantirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Muhtaram Presidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta’kidlashicha, “Kelajagimizni bunyod etish uchun biz avvalo yoshlarimizning ma’naviy va ilmiy salohiyatini oshirishimiz kerak” (Mirziyoyev, 2021). Shu bois, yosh avlodni tarbiyalashda buyuk allomalarning ilmiy va ma’naviy merosini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy va ma’naviy merosning inson tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati azal azaldan juda ahamiyatli bo‘lgan.Sharq mutafakkirlari inson tarbiyasiga katta e’tibor qaratgan. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida ilm-fan va axloq insonning mukammal shaxs bo‘lishi uchun muhim vosita ekanligini qayd etadi. Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida esa komil insonni tarbiyalash tamoyillari bayon etilgan. Ibn Sino o‘zining “Donishnoma” asarida ilm-fanning yosh avlod ma’naviy shakllanishidagi o‘rnini ta’kidlagan.

Shuning borobarida Yassaviy hikmatlarida ham yoshlarni mehr-oqibat, sabr-toqat va adolatli bo‘lishga chaqirgan. “Kim ilm istasa, avvalo axloqini tuzatsin”, – deb yozadi u (Yassaviy, 2003). Ushbu ta’limotlar bugungi yoshlar tarbiyasida ham dolzarb ahamiyatga ega desam aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Zamonaviy ta’lim va tarbiya tizimidagi yondashuvlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, zamonaviy pedagogikada ham yoshlarni ilmiy va ma’naviy jihatdan tarbiyalash masalalari muhim sanaladi. J. Dyuining “Demokratiya va ta’lim” asarida yoshlarni erkin fikrlashga o‘rgatish va ularni jamiyatda faol shaxs sifatida shakllantirish g‘oyasi ilgari suriladi (Dewey, 1997). Hasanboy Yo‘ldoshevning “Pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta’lim” asarida esa zamonaviy metodlar orqali yoshlar ma’naviyatini boyitish yo‘nalishlari bayon etilgan.

Bugungi kunda O‘zbekistonning yoshlarga oid davlat siyosati ham ilmiy va ma’naviy tarbiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan. “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunda yosh avlodning intellektual va axloqiy tarbiyasini shakllantirish bo‘yicha muhim tamoyillar belgilangan (Lex.uz, 2016).

Ilmiy va ma’naviy meros yosh avlodning har tomonlama ta’lim- tarbiya olishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Shu o‘rinda o‘z madaniy merosini anglash va unga amal qilish orqali yoshlar shaxsiylik, maqsad va qadriyatlar tuyg‘usini rivojlantiradi. Bu esa ularni zamonaviy hayotning murakkabliklariga tayyorlaydi.

Ilm-fan yoshlarda tanqidiy fikrlash, innovatsiya va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirib rivojlantirsa, ma’naviy meros esa axloqiy qadriyatlarni, insoniy fazilatlar va hayot mazmunini anglab yetishga yordam beradi.

Ilmiy meros insonlarni bilim darajasini va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga zamin yaratadi. Qolaversa insoniyat sivilizatsiyasini shakllantiruvchi bilim, metodologiya va ixtirolarni ham albatta ilmiy meros o‘z ichiga oladi. U Ijtimoiy fanlar, fizika, biologiya va matematika kabi bir qancha fan yoki sohalarni qamrab oladi. Uning yosh avlod ta’limidagi o‘rni beqiyosdir. Ayniqsa ilm- fan yoshlarga savol berish va dalillar asosida xulosalar chiqarish, tahlil qilishni o‘rgatadi. Bulardan tashqari innovatsiyaga rag‘batlantirishda ham ilmiy bilim ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Global raqobatdoshlikni oshirish bu ilmiy savodxonlik bilan birga yoshlarni texnologiya, muhandislik, tibbiyot sohalarida yuqori natijalarga erishishga sabab bo‘ladi. Bulardan tashqari yoshlarni zamonaviy muammolarga yechim topishida ilm- fan sog‘liqni saqlash inqirozlari, iqlim o‘zgarishi va texnologik xavfsizlik kabi global muammolarni tushunishiga yordam beradi.

Ma’naviy meros orqali yoshlar axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni, ularni ongiga singdirishni, emotsional barqarorlikni ta’minlash kabi bir qancha vazifalarni o‘zlarida shakllantiradi.

Ma’naviy meros insoniyatni boshqaruvchi falsafiy, diniy va axloqiy ta’limotlardan iborat bo‘lib, bir nechta madaniyatlar va an’analar doirasidagi donishmandlikni o‘z ichiga oladi. Uning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni beqiyosdir. Asosan ma’naviy meros yoshlarda insonparvarlik, halollik, mehnatsevarlik, rahmdillik, hurmat va mas’uliyat kabi fazilatlarni shakllantiradi. Qolaversa, yoshlarga mustahkam iroda, ishonch, o‘zini boshqarish va jamiyatga tegishlilik hissini beradi. Ijtimoiy totuvlikni mustahkamlash orqali esa yosh avlodga turli diniy va ma’naviy ta’limotlarni anglash bag‘rikenglik, hamdardlik va tinchlikni targ‘ib qiladi.

Yoshlarni har tomonlama barkamol etib rivojlantirish uchun ilmiy va ma’naviy merosni fan va axloqiy tamoyillarni bog‘lash, ilm-fan tarixi va falsafasini o‘rgatish, xarakter tarbiyasini shakllantirish va erkin fikrlash va muloqotni rivojlantirish usullar bilan uyg‘unlashtirish lozim. Shu bilan birga ilmiy yutuqlar axloqiy me’yorlarga asoslangan holda qo‘llanilishi kerak, ilmiy bilimlarning rivojlanish jarayoni, shu jumladan, ma’naviy va falsafiy g‘oyalar bilan bog‘liqligini tushuntirish muhimdir. Maktablarda halollik, insonparvarlik va ijtimoiy mas’uliyat kabi qadriyatlarni fan bilan birgalikda o‘rgatish lozim, ilm-fan va ma’naviyat bo‘yicha ochiq munozaralar o‘tkazish yoshlarga dunyoqarashini kengaytirishda yordam beradi.

Yoshlarni ta’lim-tarbiyasi haqida gap ketganda, faqat ularga texnik bilimlarni o‘rgatish yoki faqat ular axloqiy qoidalar bilan cheklanishi kerak degani emas. Aksincha, ilmiy tafakkur va ma’naviy qadriyatlarni birgalikda shakllantirish orqali rivojlantirish lozim. Aql-zakovat va ma’naviyat uyg‘unligi jamiyatda yuzaga keladigan har qanday zamonaviy muammolarni hal qila oladigan, shu bilan birga, o‘zining madaniy va axloqiy ildizlarini saqlab qoladigan yosh avlod bilan ta’minlashga zamin yaratadi.

Ilmiy va ma’naviy merosni yoshlar ta’limiga ongli va muvozanatli tarzda integratsiya qilish orqali biz ularni har tomonlama yetuk, barkamol, axloqiy va ijtimoiy faol shaxslar sifatida shakllantira olamiz. Ular o‘z ajdodlarining bilim va qadriyatlarini o‘rganish orqali, kelajakda ularni hayotga tatbiq eta oladigan insonlarga aylanishadi.

## Bibliografiya

**1. Rasmiy hujjatlar va Prezident asarlari**

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2021). Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). Toshkent: Adolat.
3. O‘zbekiston Respublikasi. (2016). Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida Qonuni. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlar bazasi.

**2. Sharq mutafakkirlari va ularning asarlari**

4. Navoiy, A. (2011). Mahbub ul-qulub. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa.
5. Forobiy, A. N. (1993). Fozil odamlar shahri. Toshkent: Fan nashriyoti.
6. Ibn Sino. (1980). Donishnoma. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi nashriyoti.
7. Yassaviy, A. (2003). Hikmatlar. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.

**3. Zamonaviy ilmiy va pedagogik adabiyotlar**

8. Avloniy, A. (1992). Turkiy Guliston yoxud axloq. Toshkent: Ma’naviyat.
9. Fitrat, A. (2019). Oila. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.
10. Yo‘ldoshev, H. (2020). Pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta’lim. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
11. Sharipov, U., & Komilov, N. (2017). Ma’naviyat va axloqiy tarbiya masalalari. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.

**4. Elektron manbalar va ilmiy maqolalar**

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti: https://president.uz
15. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlar bazasi: https://lex.uz
16. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi: https://nlib.uz
17. Google Scholar – ilmiy maqolalar qidirish tizimi: https://scholar.google.com
18. ResearchGate – ilmiy tadqiqotlar tarmog‘i: https://www.researchgate.net
19. UNESCO – xalqaro ta’lim va madaniyat bo‘yicha manbalar: https://en.unesco.org
20. BMTning Ta’lim, fan va madaniyat bo‘yicha ma’lumotlar bazasi: https://www.un.org/en/global-issues/education

## NAVOIY QIT’ALARINING O‘RGANILISHI

**O‘ktamova Diyora Qayum qizi-**
Navoiy davlat universiteti O‘zbek tili va adabiyoti mutaxasisligi,1-kurs magistranti.
Ilmiy rahbar:f.f.f.d dotsent Xudoyorova.M

***Annotation.*** *In this article, a famous literary critic on the continues of the great thinker Alisher Navoi, appealed to the scientific analysis of the poet’s continents and the true nature of the ideas in them, and the true significance of the ideas in themMany historical event, story, narration, legends are also about comparative analysis of these genre poems of this genre by Uzbek and world literature.*

***Keywords: c****ontinental, Quran, naqbandicism, story, narrative, legend, modernity, A.Oripov, E.Vohidov .*

Alisher Navoiyning buyuk ijodiyotiga qiziqish nafaqat O‘zbekistonda, balki butun dunyoda asrlar davomida davom etib, deyarli barcha nasriy va nazmiy janrdagi asarlari bugungi kungacha yuksak darajada o‘rganilib kelinmoqda.Shu jumladan, Navoiy qit’alariga qiziqish ham katta bo‘lib, ular o‘zbek adabiyotshunosligida A.Hayitmetov, A.Abdug‘afurov, R.Orzibekov, Y.Ishoqov, I.Haqqulov, M.Xudoyorova, O.Hamroyeva kabi tadqiqotchi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Mashhur navoiyshunos olim Ibrohim Haqqulov Navoiy qit’alarini bir necha tahlil usullari orqali tadqiq etadi.Olim shoir qit’alarining janr xususiyatlari, ulardagi Qur’oni Karim va Naqshbandiylik g‘oyalarining ta’siri kabi masalalarni chuqur o‘rganadi. Qit’a ikki baytdan o‘n ikki baytgacha bo‘lib, adabiyotimizda to‘rt baytdan ortiqlari kam uchraydi. Navoiyning " azoyin ul- maoniy" devonida 210 qit’a joy olgan bo‘lib , I.Haqqulov ularning qariyib 200 ga yaqini ikki, uch, to‘rt baytli ekanligini va ularda tabiatdagi oddiy qirg‘oqchilik hodisalaridan tortib, koinot sir-asrorlarigacha, chumolidan tortib, inson hayoti va qismatigacha munosabat bildirilganligini aytadi. Ularning ko‘pchiligi diniy-falsafiy ruhda bo‘lib, ularning tub mohiyatiga Qur’oni karim oyatlari va naqshbandiylik tariqati g‘oyalari singdirilgan.Chunki Navoiy ijodida asosiy mezon sifatida islom dinini qabul qilgan va islom dinining

Markaziy Osiyoda keng tarqalgan uch tariqatidan biri bo‘lgan naqshbandiya tariqatidan boradi.Tariqatning asosiy shiori “Dil ba yoru, dast ba kor”ya’ni “qo‘ling mehnatda-yu, diling Allohda bo‘lsin” degan g‘oyadir.I.Haqqulov ,ayniqsa,shoirning "Qanoat tariqig‘a kir", "Vajhi maosh uchun", "Kimki o‘zlik imoratin buzdi"," Qanoat g‘o‘shasintutqilki", "Erur orifqa ganji fayz etsa", "Agar oqil ersang ",kabi qit’alari zaminida naqshbandiya tariqatining tub mohiyati va asosiy falsafiy axloqiy shariatlarinisharhlashga bag‘ishlangan ekanligini aytadi.Misol uchun ,

Qanoat tariqig‘a kir, ey ko‘ngil,
Ki xatm o‘lg‘ay oyini izzat sanga bayti bilan boshlanuvchi o‘n bir baytli qit’asini tahlil qilar ekan, Navoiy ta’rifiga ko‘ra" naqshbandiylik tariqi-qanoat maslagi "ekanligini va yuqoridagi baytdan shu ma’no anglashilishini ta’kidlaydi.Vafo va sadoqat to‘g‘risidagi Xoja Bahouddin Naqshband va uning iti haqidagi Naqshbandning vafosizlikka etak silkib, itning izlarini ko‘zlariga surish orqali vafodorlikka sajda etyotganligini anglatuvchi hikoyat keltiradi.[Qarang:И.Хаккул.Камол ет касбким.—Т.: Чулпон,1991.16-17-б].

Desang xilvatim anjuman bo‘lmasin,
. Kerak anjuman ichra xilvat sanga.
Vatan ichra sokin bo‘lib soyir o‘l,
Safardin agar bo‘lsa mehnat sanga .

baytlarida esa Naqshbandiylikning quyidagi : "Xilvat dar anjuman" ya’ni el ulusdan ajralma, mayli, yolg‘iz bo‘l, lekin odamlardan qochma , anjuman ichida xilvatingni top va " safar dar vatan"—Vatanga safar–ona yurt tarixi , buguni va kelajagiga sayohat qil shartlari ifodalanganligi aytadi.

I.Haqqulov ba’zi qit’alarni o‘rganar ekan ularni bevosita Qur’on Karim va hadislar bilan bog‘laydi. "Kirmagay jannat ichra hech baxil.." qit’asi uchun Qur’ondagi jannat va do‘zax tasvirlari; " Agar nodon mahalsiz harzakim aytur.."qit’asini Qur’on oyatlaridan biridagi anxarul asvot- eng yoqimsiz ovoz-"eshak savti"degan jumla ; "Ilmdin kasb qilki" qit’asini "Olloh taolodan foydali ilm so‘rangiz va befoydasidan saqlaningiz" deyilgan hadis; " Haq zotig‘a birovki xirad birla fikr etar" qit’asini "Sen Xudodan boshqa iloh yo‘q ekanligini bil!"–deyilgan sura ;" Fosiq menu kofir nihone .."qit’asini esa Ka’baning ta’rifi kabilar orqali o‘quvchiga tushuntiradi.

Navoiyning ijtimoiy-siyosiy, axloqiy ta’limiy yo‘nalishdagi qit’alarida jamiyatdagi turli toifa vakillari, xususan, hukmdor, xattot, fosiq, komil inson, donishmand, yaxshi, yomon, zohid kishilar qanday bo‘lmog‘i kerakligi , ilm, tavoze, saxiylik , qanoat, hilm kabi fazilatlarning foidalari, ikkiyuzlamachilik , maqtonchoqlik , baxillik, yolg‘onchilik kabi illatlarning esa fojialari haqida so‘z boradi.Shoir ularning ko‘pchiligida tarixiy shaxslar, payg‘ambarlar, afsonaviy qahramonlar yoki mumtoz adabiyotimizdagi Iskandar Oyinasi, Jamshid Jomi kabi ramziy obrazlarga ishora qiladi.Ibrohim Haqqulov ilmiy tahlillarida yuqoridagi har bir obraz va shaxlarning qit’adagi o‘rni va ular orqali ifodalanmoqchi bo‘lgan fikrlarning asl mohiyatini o‘quvchiga yetkazish uchun ular bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab hikoyat, rivoyat va afsonalar keltiradi.Jumladan, "G‘azalda uch kishi " qit’asida Dehlaviy, Sheroziy, Jomiy haqida, "Qiblatul kuttobkim, derlar ani Sulton Ali" qit’asida Sulton Ali Mashhadiy haqida, "Toj ko‘p dardisar berur" qit’asida esa Ulug‘bek va Abdulatif kabi tarixiy shaxslar haqida ma’lumotlar keltiradi.Bundan tashqari "Tavakkulni ulkim " qit’asida "Qorun " haqida , "Rahraviki , toji hidoyat "qit’asida "Hudhud va Sulaymon payg‘ambar " haqida, "Biyik maqomig‘a ulkim " qit’asida "Zanjir " haqida, "Xo‘b ekan chog‘daki mustag‘ni eding" qit’asida "Darvesh va hukmdor " haqida " Sibat ar xobi makun mayli taom" qit’asida "Semiz va zaif darvesh" haqida,"Dushman gar hasud shud nek ast" qit’asida "Uchta xasadchi " haqidagi hikoyatlar; " Viqor gavhariyu" qit’asida "Hilm" haqida, " Tavoze’ yaxshi ammo" qit’asida "Muqbil va Mudbir " haqida, "Laim farqig‘a iqbol tojini qo‘ymoq" qit’asida " Fir’avn va Iblis haqidagi rivoyatlarni; "Tilingni asragil"qit’asida " Xo‘rozni bexosiyat qichqirig‘i haqidagi, "Pokdoman zuafodin neki zoyanda bo‘lur" qit’asida esa "Bibi Maryam va Iso" haqidagi afsonalar bilan tanishtiradi.Olim qit’alarga mazmuniga doir har bir hikoyatlar hamda ba’zi atamalarning sharhini shunchalik zo‘r mahorat bilan kiltiradiki,

ularsiz Navoiy tilini tushunish anchayin qiyin bo‘lar edi.Misol uchun, Navoiyning olim tomonidan qilingan quyidagi tahlilini olaylik:[Qarang: И.Хаккулов, Камол ет касбким.Т.: Чулпон,1991.78-79 б]

Ko‘b oltin, kumush sori qo‘l sunmog‘il,
Ki tutsang kafingni qora rang etar.
Ko‘ngulda dog‘i maylini asrama,
Ki ko‘ngulni dog‘i ham ul rang etar.

Ushbu qit’a tahlilida I.Haqqulov buyuk hind yozuvchisi Robindranat Tokurning "Meros nomli hikoyasini keltiradi va ularni o‘zaro taqqoslaydi.Hikoya Jogonatx Kundo ismli molparast chol haqida bo‘lib, ziqnaligi sabab kelinining o‘limiga sababchi bo‘ladi va shu voqea sabab o‘g‘li bilan munosabatlari uziladi.Bir kuni chol Nitay Pal ismli bolani asrab oladi va unga bor boyligini meros qoldirmoqchi bo‘ladi.Uni boyliklari yashiringan ibodatxonaga etadi. Bola ibodatxona havosidan boshi aylanib holsizlana boshlaydi.Chol yuqoriga chiqadi, pastdan esa "Amaki otamning oldiga ketaman " degan bo‘g‘iq ovoz eshitiladi.Chol bolani dafn qilyotganda esa bolaning otasi ya’ni cholning o‘g‘li kelib qoladi. Boylik uchun aqldan ozgan telba chol esa o‘z nabirasini I.Haqqulov tabiri bilan aytganda "o‘spirin bola timsolida umid va lajagini o‘z qo‘li bilan g‘orga daft etadi".Olim bu qayg‘uli voqeada "Ko‘b oltin, kumush sori qo‘l" cho‘zishning oqibatlari butun dahshati bilan aks ettirilganligini , Alisher Navoiy va Tokur hikoyasi deyarli bitta mohiyatni ifodalab,Tokur tasviridagiJogonatx Kundo ham ko‘nglida "ko‘b oltin, kumush "maylini asrab, shu mayli kasofatida uning"kafi" gina emas, qalbi ham qoraga cho‘lg‘anganligini ta’kidlaydi.

Hazrat Navoiy qit’alarida butun insoniyatga tegishli bo‘lgan shunday mavzularni olib chiqadiki, ular bugungi asrimizda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.I.Haqqulov shoirning ko‘plab qit’alarini mazmunan A.Oripov, E.Vohidov,G‘.G‘ulom kabi zamonaviy shoirlarimiz she’rlari bilan qiyoslaydi.[Qarang:И.Хаккул.Камол ет касбким.—Т.: Чулпон,1991.221-б].

Masalan, "Zamona ahli emaslar atolarig‘a shabih" qit’asidagi asosiy mazmunni bugungi kunda "Men ham yashayapman o‘z zamonamda, Davrimdan qayga ham tushardim yiroq,– tarzida A.Oripov Navoiyga yaqin fikrlarni aytganligini misol qilib keltiradi.Yoki Navoiyning:]Qarang:И.Хаккул.Камол ет касбким.—Т.: Чулпон,1991.158-б].

Uyda ravnaqidur, agar kishiga
Yaxshi hamxona bo‘lsa hamzonu.
Zeb ila turfa hargiz o‘lmas uy,
Bo‘lmasa anda turfa kadbonu.

qit’asi bilan Gofur G‘ulomning " Sensiz kelajak yo‘q, bema’ni jahon",deya ayolga qarata aytgan

Astoydil har erkak -yo‘ldosh demasa,
Insof mahkamasi sudga beradi,
Ikki do‘st qiyinni yenga olmasa,

Hayotning chippakka chiqar omadi,—mazmunidagi fikrlari ayolga bag‘ishlangan, mohiyatan bir xil ma’no kasb etishini aytadi.

Xulosa qilib aytganda, Ibrohim Haqqulov buyuk shoir qit’alarini chuqur tahlil ostiga oladi va ulardagi tub mohiyat, ma’no -mazmunni o‘quvchiga yetkazish uchun ularga ham diniy-tasavvufiy, ham dunyoviy jihatdan yondashadi.Ibratga arzigulik ko‘plab hikoyat va rivoyatlarni keltiradi.Qiyosiy tahlillari orqali bugungi kunda ham qadr-qimmatli va ahamiyatga molik ekanligini isbotlab beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.И.Хаккул.Камол ет касбким.—Т.: Чулпон,1991.
2.А.Навоий.Хазоин ул-маоний.—Т.: Янги аср авлоди,2016.
3.Sirojiddinov Sh, .Yusupova D, Davlotov O.Navoiyshunoslik.—T.:Akademnashr,2020.
4.Mallayev N.Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti.—T.: O‘zbekiston,2015.

# O‘RTA OSIYODA O‘TKAZILGAN MILLIY-HUDUDIY CHEGARALANISH VA O‘ZBEKISTON SSRNING TASHKIL TOPISHI

**Orziqulov Komiljon-**
Navoiy davlat universiteti 1-bosqich magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada 1924-yilda O‘rta Osiyoda o‘tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish arafasida mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy holat, Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasi, Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasi va Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikalarining tugatilishi ularning o‘rnida milliy respublikalar tuzilishi haqida mulohaza yuritilgan, shuningdek O‘rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishining o‘tkazilishi va uning oqibatlari yoritib berilgan.

**ABSTRACT.** This article discusses the socio-political situation in the region on the eve of the national-territorial delimitation in Central Asia in 1924, the liquidation of the Bukhara Soviet Socialist Republic, the Khorezm Soviet Socialist Republic, and the Turkestan Autonomous Soviet Socialist Republic and the formation of national republics in their place, as well as the conduct of the national-state delimitation in Central Asia and its consequences.

**Kalit so‘zlar:** Milliy-hududiy chegaralanish, Turkiston ASSR, BXSR, XXSR, SSSR ,V qurultoyi, V.I.Lenin, Turkkomissiya

**KIRISH.** XX asrning 20-yillarida bolsheviklar Milliy respublikalar tuzish g‘oyasi yerli xalqlar hayotida tengsizlik mavjudligi, milliy mojarolar kuchayib borayotgani bilan asosladilar. Bu mojarolardan qutulish yo‘li esa turkmanlar, qirg‘izlar va boshqalarning milliy davlatini tuzish deb e`lon qildilar, amalda esa bu xalqlarni bir-biridan ajratib qo‘yishdan boshqa narsa emasdi. O‘rta Osiyo respublikalarining milliy-davlat chegaralanishi milliy muammo sifatida mahalliy nashrda yetarli darajada, biroq ijtimoiy-huquqiy jihatdan kamroq yoritilgan. Milliy-chegaralanish natijasida O‘rta Osiyoda ikkinchi va bo‘lishi muqarrar bo‘lgan muhim dunyoviy voqeani ko‘radilar. O‘zbek, turkman, qirg‘iz, qoraqalpoq, tojik, qozoqlar milliy chegaralanish masalasiga juda katta qiziqish bilan qarashgan. Milliy chegaralanish ularning har biriga yagona davlat bo‘lib birlashishlariga imkoniyat berar edi. RKP (b) ning 10-12- syezdlarining milliy masala bo‘yicha tarixiy qarorlari O‘rta Osiyo kommunistlari va mehnatkashlarini amaliy va nazariy jihatdan qurollantirdi va milliy davlat chegaralanishi uchun harakat dasturiga aylandi. Buxoro, Xorazm va Turkistonning 1924-yilgi turli kengash va konferensiyalarida milliy chegaralanish masalasining dastlabki muhokamasi bo‘lib o‘tdi Mavzuning dolzarbligi shundaki, postsovet makonida tashkil topgan davlatlar, jumladan O‘rta Osiyo davlatlarining o‘zaro munosabatlarini uyg‘unlashtirish milliy-hududiy chegaralanish tarixini tadbiq etishni taqozo etmoqda.

**Asosiy qism.** 1920-1924 yillarda mustaqil Buxoro va Xorazm Respublikalarining mavjud bo‘lib turishi Markazning vaqtinchalik murosa yo‘lini tanlaganligidan boshqa narsa emas edi. Aslini olganda, Sovet hukumatining rahbari V.I. Lenin sovet respublikalari asosida SSSRni tashkil qilish prinsiplari to‘g‘risida 1922-yil kuzida to‘xtalar ekan, «Qo‘shilishdan oldin ajralish kerak», deb masalani aniq kuygan edi. Xullas, Turkiston mintaqasini milliy-hududiy jihatdan qayta chegaralash Markaz va RKP (b) MK O‘rta Osiyo byurosi tomonidan ishlab chiqildi va 1924 yilning boshlarida u o‘zining so‘nggi bosqichiga kirdi. [145]

[145] O’zbekiston tarixi (1917-1991-yillar).Ikkita kitob. Birinchi kitob. (1917-1939-yillar). Toshkent – “O’zbekiston”,2019. 290-bet

Sovetlar hukumati va kompartiyaning Turkistonda yuritgan milliy-mustamlakachilik siyosatiga baho berib Mustafo Cho‘qay quyidagicha yozgan edi: «Kimki milliy masala sohasidagi sovetlar siyosatidan o‘ziga zarur saboqlar chiqarib olishni istasa, u Lenin programmasi Turkistonda amalda qanday qo‘llanayotganini yaxshilab o‘rganib chiqishi va shundan so‘nggina biron xulosaga kelishi shart». Darhaqiqat, Turkistonda Sovetlar olib borgan shovinistik mustamlakachilik siyosati lenincha milliy siyosatning naqadar mudhish va dahshatli ekanligini fosh etishda yorqin namunadir.[146]

1924-yil 12-iyunda RKP (b) MQsining Siyosiy byurosi « 0 ‘rta Osiyo Respublikalarini (Turkiston, Buxoro va Xorazm) milliy chegaralash to‘g‘risida»gi masala bo‘yicha qaror qabul qildi. Unda quyidagilar ko‘zda tutildi: a) Turkiston, Buxoro va Xorazmning turkmanlar yashaydiganqismlaridan mustaqil Turkmaniston Respublikasini tashkil etish; b) Turkiston va Buxoroning o‘zbeklar yashaydigan qismlaridan mustaqil

0’zbekiston Respublikasini tashkil etish; d) Turkmanlami ajratib olib, Xorazm Respublikasini mavjud holida qoldirish. Chunki, Xorazm Respublikasi rahbarlari 1924-yil 8 mayda RKP(b) MQsiga «Xorazmda milliy masalani hal qilish to‘g‘risida maktub» yo‘llab, unda Xorazmni milliy chegaralashga qo‘shmaslikni so‘ragan edilar. Ular o‘z fikrlarini Xorazmning olisda joylashganligi, iqtisodiy jihatdan ajralib turganligi kabi masalalar bilan asoslagan edilar. 1923-yil oktabrdan Xorazm Kompartiyasining mas’ul kotibi lavozimida ishlagan Qalandar Odinayev ham bu g‘oyani ma’qullagan edi. Ammo 1924-yil iyul oyida u Markazning fatvosi bilan ishdan olib tashlangach, 1926-yilda Xorazm Kompartiyasi respublikaning chegaralanishga kiritilishiga o‘z «roziligi»ni bildirdi.

0’zbekiston SSR huzurida butun hokimiyat 1924-yil 31 oktabrda tuzilgan 0 ‘zbekiston SSR Inqilobiy Qo‘mitasi (Revkom) qo‘liga o‘tadi. 0 ‘zbekiston SSR Inqilobiy Qo‘mitasining raisi etib Fayzulla Xo‘jayev tasdiqlandi. Turkmaniston SSRda Inqilobiy Qo‘mitani N.Oytoqov boshqardi. 1924-yil noyabr va dekabr oylarida Nusratulla Mahdum Lutfullayev raisligida Tojikiston ASSR Inqilobiy Qo‘mitasi, I.Aydarbekov raisligida Qoraqirg‘iz (Qirg‘iziston) muxtor viloyati Inqilobiy Qo‘mitasi faoliyat ko‘rsatdi. Inqilobiy Qo‘mitalar «milliy jumhuriyat va muxtor viloyatlar»ni tuzish ishi bilan shug‘ullandilar. Milliy chegaralanish bilan ayni paytda iqtisodiy chegaralanish ham o‘tkazildi, ya’ni ilgari Turkiston, Buxoro va Xorazm Respublikalari ixtiyorida bo‘lgan barcha moddiy boyliklar: zavodlar, fabrikalar, yer maydonlari, chorva mollari, madaniy-oqartuv muassasalari kabilar davlat tashkilotlari o‘rtasida taqsimlandi. Ana shu taqsimot asosida 0 ‘zbekistonga 1195 ming desyatina sug‘oriladigan yerlar, 185 ta sanoat korxonasi, 2.590 ming bosh chorva mollari tegdi. 1924-1925-yillarda respublika jami aholisining 85 foizi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish tarmog‘ida band edi. [147]

Milliy chegaralanish natijasida O‘zbekiston SSRning tashkil etildi. Uning tarkibiga quyidagi hududlar kiritildi: Turkiston ASSR dan 9 ta uyezd, 133 tuman va 7 qishloq okrugi; — Buxoro respublikasining 9 ta viloyati; — Xorazm respublikasining 23 ta tumani. O‘zbekiston SSR tashkil etilgan paytda uning hududi 312394 kv. km ni, aholisi 4 mln 447 ming 55 kishini tashkil etar edi. 1926-yil ma’lumotlari bo‘yicha, milliy tarkibiga ko‘ra aholining 74,2 foizini o‘zbeklar, qolganlarini esa boshqa millatlar tashkil etar edi. O‘zbekiston SSR ning dastlabki poytaxti Buxoro bo‘lgan. Biroq ko‘p o‘tmay — 1925-yil aprelda poytaxt Samarqand qilib belgilandi. 1930-yil oxirida poytaxt Toshkentga ko‘chirildi. O‘zbekiston SSR hududida butun hokimiyat O‘zbekiston SSR sovetlarining ta’sis qurultoyiga qadar Muvaqqat Inqilobiy qo‘mita ixtiyoriga berildi. Buxoro Respublikasi hukumati raisi, taniqli davlat arbobi Fayzulla Xo‘jayev O‘zbekiston SSR Inqilobiy qo‘mitasi raisi qilib tasdiqlandi. O‘zbekiston xalqiga murojaat qilib, O‘zbekiston SSR tuzilganligini, uning tarkibiga Tojikiston ASSR kirganligini ma’lum qildi. Milliy chegaralanish bilan bir vaqtda iqtisodiy bo‘linish ham o‘tkazildi. Turkiston, Buxoro, Xorazm respublikalariga tegishli barcha boyliklar yangi milliy respublikalar

[146] O‘zbekiston SSR tarixi. To‘rt jildlik. Bosh muharrir I.Mo‘minov, Uchinchi jild, 397-bet.

[147] Narzulla Jo’rayev, Shodi Karimov. O’zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). Ikkinchi kitob «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent – 2011, 80-81-bet

o‘rtasida qayta taqsimlandi. Bu ishlar sovet hukumati tomonidan maxsus tuzilgan O‘rta Osiyo tugatish komissiyasi boshchiligida amalga oshirildi. 1925-yil 13-fevralda Buxorodagi Xalq uyida Umum O‘zbek sovetlarining birinchi qurultoyi ochildi. Qurultoy «O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzilganligi to‘g‘risidagi Deklaratsiya»ni qabul qildi. Qurultoyda davlat hokimiyati oliy organlari tuzilganligi rasmiylashtirildi. O‘zbekiston SSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi Raisi lavozimiga farg‘onalik dehqon, «Qo‘shchi» uyushmasi rahbarlaridan biri Yo‘ldosh Oxunboboyev saylandi. O‘zbekiston SSR hukumati — Xalq Komissarlari KengashRaisi lavozimiga Fayzulla Xo‘jayev tasdiqlandi. Milliy chegaralanish davrida O‘rta Osiyoda faoliyat ko‘rsatib kelgan partiya, komsomol va xo‘jalik tashkilotlarida ham bir qator tashkiliy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Turkiston, Buxoro va Xorazm Kommunistik partiyalari, komsomol va xo‘jalik tashkilotlari, kasaba uyushmalari qayta tashkil etildi.

O‘zbekiston Kompartiyasining 1925-yil 6—12- fevral kunlari Buxoroda bo‘lib o‘tgan 1-ta’sis syezdida O‘zbekiston Kommunistik (bolsheviklar) partiyasi tashkiliy jihatdan rasmiylashdi. Uning Markaziy Qo‘mitasi saylandi. V. I.Ivanov va Akmal Ikromov (1927-yildan birinchi kotib) Markaziy Qo‘mitaning mas’ul kotiblari etib saylandilar. Shu yili O‘zbekiston komsomoli (O‘z LKSM), respublika kasaba uyushmalari, uning rahbar organlari ham tuzildi. Ular respublikada Markaz va sovet hokimiyatining tayanch organlari bo‘lib qoldilar. Sovet hukumati O‘zbekistonda o‘zining rasmiy partiya, sovet, komsomol va xo‘jalik tashkilotlarini tuzib, asta-sekin siyosiy va iqtisodiy tayanchini mustahkamlab bordi. Bu esa unga O‘zbekistonda keng miqyosda bolshevistik siyosat yuritish imkoniyatini berdi. Shu tariqa sovetlar butun choralar bilan O‘zbekistonda o‘z hokimiyatini mustahkamlashda davom etdi. 1925-yil may oyida O‘zbekiston SSSR tarkibiga kiritildi.

SSSR Konstitutsiyasi, uning asosiy qonunqoidalari O‘zbekiston SSR hududida bevosita ishlaydigan bo‘ldi. 1927-yilda qabul qilingan O‘zbekiston SSR ning birinchi va 1937-yilda qabul qilingan ikkinchi Konstitutsiyasi ham amalda SSSR Konstitutsiyasining ko‘chirma nusxasi edi. Chunki O‘zbekiston qog‘ozdagi «suveren» respublika bo‘lib, amalda Markazga tobe va qaram bir o‘lka edi, xolos. U o‘z xalqining milliy manfaatlariga oid biror-bir dolzarb, hayotiy ahamiyatga molik masalani Ittifoq hukumatidan xoli ravishda mustaqil hal eta olmasdi. Bunga uning haddi sig‘masdi. Binobarin, respublikaning ichki va tashqi siyosatiga daxldor barcha masalalar faqat hukmron Markaz xohish-irodasi bilangina hal etilardi. Hatto O‘zbekistonning ma’muriy-hududiy tuzilishiga oid masalalar ham ittifoq hukumati tasarrufida edikiston xalqi, uning hukumati roziligini so‘ramasdan 1929-yilda Tojikiston ASSR O‘zbekiston SSR tarkibidan chiqarilib, Tojikiston Sovet Sotsialistik Respublikasiga aylantirildi hamda SSSR ga qabul qilindi. Shunday qilib, qog‘ozda suveren respublika sifatida shakllantirilib, hukmron sovet imperiyasi tarkibiga kiritilgan O‘zbekiston SSR amalda Markazga to‘la bo‘ysunuvchi, arzon xomashyo mahsulotlar.[148]

**Xulosa.**

Xulosa qilib aytganda , milliy chegaralanish oqibatda O‘rta Osiyo hududida azaldan yashab kelayotgan xalqlarining xo‘jalik hayoti , turmush tarzi va milliy an’analariga jiddiy putur yetkazildi va tashkil etilgan yangi milliy davlatchilik ularning bundan keyingi taraqqiyotiga yangi nozik farqlarni olib kirdi. Asrlar davomida manfaatlari bitta bo‘lib birga yashagan o‘zbek , tojik , qozoq, qirg‘iz, turkman xalqlarning rus sovet tizimi tomonidan qo‘shtirnoq ichidagi mustaqil davlatlarga bo‘lib yuborilishi, ularni necha yillar davomida bir - biriga aloqasi bo‘lmagan xalqlar singari yashashga majbur qildi. Aslida esa bu xalqlarining manfaati qadimdan ham hozirda ham bitta yagona bo‘lgan.

[148] Q. Usmonov, M. Sodiqov. O‘zbekiston SSR tarixi, «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent – 2010, 80-81-bet.

# FRANSIYA TADQIQOTCHILARINIG OKS SIVILIZATSIYASI YODGORLIKLARIDAGI ARXEOLOGIK TADQIQOTLARI XUSUSIDA

**Rasulova Sevara Chariyerovna**
Termiz davlat universiteti, O‘zbekiston tarixi ixtisosligi 07.00.01 2-kurs tayanch doktoranti.

**Annotatsiya**. Oks sivilizatsiyasi – miloddan avvalgi 2500-1350-yillarni o‘z ichiga olib, hududiy jihatdan Janubiy O‘zbekiston Surxon vohasida joylashgan Sopollitepa, Jarqo‘ton, Mo‘lali, Bo‘ston yodgorliklarini qamrab olgan Sopolli madaniyati, Shimoliy Afg‘oniston hududidagi Dashtli madaniyati va Janubiy Turkmaniston mintaqasidagi Namozgoh madaniyatlarining umumiy nomidir. XX asrning boshlarida fransuz-o‘zbek arxeologik ekspeditsiyasi natijasida qo‘lga kiritilgan moddiy manbalar ushbu maqolada muhokama etiladi. Moddiy manbalar Qadimgi Sharqning birlamchi sivilizatsiyalari yodgorliklari bilan o‘zaro taqqoslanadi, shuningdek, fransuz arxeologik ekspeditsiyalarning bir nechtasi davriy ketma-ketlikda havola etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Oks sivilizatsiyasi, Sopolli madaniyati, Dashtli madaniyati, Namozgoh madaniyati, Jarqo‘ton, Mo‘lali, Bo‘ston. Ulug‘depe.

**Abstract:** The Oxus civilization – 2500-1350 BC, in the Central Asian region. The civilization was including three region which are Sopolli, Dashtli as well as Namazgoh culture. In generally, it is called the Oxus civilization. The material sources obtained as a result of the French-Uzbek archaeological expedition at the beginning of the 20th century are discussed. The material sources are compared with the monuments the civilizations of the Ancient East, and several French archaeological expeditions are cited in chronological order.

**Key words.** Oxus civilization, Sopolli, Dashtli, Namazgoh culture, Jarkoton, Molali, Boston, Ulugdepe.

Fransuz arxeologiyasi Markaziy Osiyo mintaqasida ko‘p yillik izlanishlari davomida ushbu makonda qaror topgan Oks sivilizatsiyasi haqida shunday fikrlarini bayon etadi: “Garchi Oks sivilizatsiyasi u qadar tan olinmagan bo‘lsada, birinchi izlanishlar taxminan 40 yil oldin bo‘lgan, (ushbu ekspeditsiya 2010-yilda amalga oshirilgan) u bilan birinchi kashfiyotlar aslida qariyb bir asrga borib taqaladi. U mafkuraviy tamoyillar va geosiyosiy kurashlar bilan zanjirlangan Markaziy Osiyodagi arxeologik tadqiqotlarning murakkab tarixining bir qismidir”.[149] Ammo shuni alohida ta`kidlash lozimki, Yevropa jamoatchiligiga uchun hali ham noma`lum bo‘lganligiga qaramasdan, ko‘p jihatlari bilan Yaqin va O‘rta Sharqning buyuk sivilizatsiyalarin bilan taqqoslanadigan bo‘lsa, Oks sivilizatsiyasi o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ayniqsa fransuz arxeologlari tomonidan olib borilgan ekspeditsiya natijasida qariyb sakkiz asrlik bronza davrining tarixini shakllantirishga xizmat qiladi. Aslida esa Oks sivilizatsiyasi haqidagi bilimlar 1970-yillardan boshlab keskin rivojlandi.

Ilk izlanishlar Markaziy Osiyo mintaqasida XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida bo‘lib bo‘lib o‘tgan, biroq ularni amalga oshirgan chet ellik olimlar amerikaliklar yoki ruslar, birinchi navbatda Aleksandr Makedoniskiyning mintaqadagi izlarini aniqlashga uringanlar. Keyinchalik 1907 va 1917-yillardagi inqilobiy o‘zgarishlardan so‘ng O‘rta Osiyo davlatlarining ko‘pchiligining Sovet Ittifoqiga qo‘shilishi bilan mintaqaning to‘liq qayta konfiguratsiyasi arxeologiya sohasida Rossiya monopoliyasining o‘rnatilishiga olib keldi. Afg‘onistonda Fransiya arxeologiyasi Delegatsiyasi (DAFA) tashkil etilishi Sobiq Britaniya imperiyasi bo‘lgan Hindiston hududlarida Britaniya va Amerika tadqiqotlari bu mintaqadagi siyosiy muvozanatni saqlab qoldi. Arxeologik ekspeditsiya Turkmanistonning Namozgohdepe va Yazdepe kabi manzilgohlar asosan bronza va temir davrining

[149]Bendezu-Sarmiento J.— Centre national de la recherche scientifique (CNRS): UMR 7206 Eco-Antrhropologie MNHN/Musée de l’Homme, Paris, the french Republic; e-mail: julio.bendezu-sarmiento@mnhn.fr; ORCID: 0000-0002-0831-3955.

xronologiyasining yaratishda asosiy birlamchi hudud vazifasini o‘tagan. 1940-yillarning oxiri hamda 1970-yillar orasidagi kashfiyotlar uchta arxeolog V. Masson,[150] I. Xlopin[151] va V. Sarianidilar[152] hisoblanadi. Ushbu hudud doirasida ochilgan hududlardan topilgan manbalar bir xil bo‘lib asosan arxeologlar tomonidan ushbu madaniyat Eron shimoliy-sharqidagi madaniyatlar bilan bog‘liq holda V. Sarianidi tomonidan “Baqtriya-Marg‘iyona arxeologik majmuasi” deb nom olgan.[153]

Oks sivilizatsiyasini mukammal o‘rganish jarayoni asosan 1970-yillar va 1980-yillarda sovetlar arxeologiyasining bir muncha kamroq siyosiylashgan davrda ancha rivojlandi. Tarixiy obidalarni qazish ishlari jadallashib buyuk qadimiy sivilizatsiyalarni yaxshiroq aniqlash imkonini berdi. 1970-yilda V. Sarianidi tomonidan Turkmanistondagi Gonurtepa o‘rnida olib borgan tadqiqotlari hamda akademik A. Asqarov tomonidan Sopollitepa[154] yangi madaniyatining ochilishi o‘zbek arxeologiyasining yangi qadamlaridan biri edi. DAFA hamda sovet-afg‘on missiyasi tomonidan Oks daryosining har ikkala qismida parallel ravishda olib borgan arxeologik ekspeditsiyasi Oks sivilizatsiyasi haqidagi bilimlarimizning tamal toshi hisoblanadi. 1970-yillarning boshidan Kobul bozorlarida sivilizatsiya qabristonlarining talon-taroj qilinishidan so‘ng ko‘plab san`at buyumlari parokanda holatiga kelgan edi. 1970-yillar oxirida esa Afg‘oniston va Eronning siyosiy yopilishi SSSRning izchil ochilishi bilan bir vaqtda to‘g‘ri keladi, bu esa g‘arb arxeologlarining ilmiy maqsadlarini qaytadan ilmiy qarashlarini o‘zgarishiga olib kelgan. Biroq bu ochiqlik siyosati faqatgina Sovet Ittifoqining parchalanishi hamda 1991-yildan so‘ng O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligining qabul qilinishidan so‘ng Markaziy Osiyo mintaqasida ko‘plab xalqaro missiyalar tashkil etilgan. Shuni ham tan olib aytish kerakki, Afg‘onistonning shimoliy hududlarida Oks sivilizatsiyasining yodgorliklarining topilishi ko‘plab talonchilarning ochko‘zligini uyg‘otmay qolmadi, ular tezda yashirin ravishda qazish ishlarini amalga oshirib ko‘plab qimmatbaho artefaktlarning shaxsiy kolleksiyalarga aylanishiga olib keldi. Ushbu artefaktlarning ajoyib sifatida butun dunyo e’tiborini tortdi. Shu darajda ilmiy ediku, DAFA (Fransiya arxeologiyasi Delegatsiyasi) ularni yo‘q bo‘lib ketishini oldini olib ularni ro‘yxatga olishga qaror qildi.[155] Mana shunday Oks sivilizatsiyasi yodgorliklarida olib borilgan bir necha ekspeditsiyalar va ularning tahliliy natijalarini kitobxonlar e’tiboriga xavola etiladi.

2012-yilda fransuz - turkman tadqiqotchilar bilan (MAFTUR) Oks sivilizatsiyasining bir necha yodgorliklarida olib borgan ekspeditsiyasi natijasida o‘z davri uchun tushunarli bo‘lgan xronologik davrlashtirishni taklif etdi: ilk bronza davri – Namozgoh IV (m.avv. 32013-000-2500), o‘rta bronza davri – Namazgoh V (m.avv. 2500-2200), so‘ngi bronza davri – Margiana, Gonur – (m.avv. 2200-1800), so‘ngi bronza davri – Margiana, Togolok – (m.avv. 1800-1500).[156]

2013-yilda fransuz – o‘zbek ekspeditsiyasi Oks sivilizatsiyasining O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan Jarqo‘ton yodgorligining geografik joylashuvini tahlil etadigan yozma manba chop etildi.[157]

---

[150] Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы. МИА 73, Ленинград, 1959. 39. с.

[151] Хлопин И.Н. Геоксюрская группа поселений эпохи энеолита. Москва. Ленинград. 1964. С. 167.

[152] Сарианиди В.И. Некоторые вопросы древней архитектуры энеолитических поселений Геоксюрского оазиса. КСИА, 1962. Вып. 91.

[153] Сарианиди В.И. Сиро-Хеттское происхождение Бактрийско-Маргианской глиптики. ВДИ. - М., №1, 1999. С. 55.

[154] Аскаров А.А. Сапаллитепа. Ташкент. 1973. С. 171.

[155] Bendezu-Sarmiento J.— Centre national de la recherche scientifique (CNRS): UMR 7206 Eco-Antrhropologie MNHN/Musée de l’Homme, Paris, the french Republic; e-mail: julio.bendezu-sarmiento@mnhn.fr; ORCID: 0000-0002-0831-3955.

[156] Mamedov A. Lecomte O. Bendezu-Sarmiento J. Ulug Depe a forgotten city in Central Asia. 2012.

[157] Bendezu-Sarmiento J. Mustafoqulov S. Le site proto-urbain de dzharkutan durant les âges du bronze et du fer. Recherches de la mission archéologique franco-ouzbèke-Protohistoire. 2013. P. 207.

2019-yilda esa fransuz tadqiqotchilari Oks sivilizatsiyasining ikki bosh yodgorligi joylashgan Jarqo‘tonda (MAFOuz-Protohistoire) va Ulug‘depeda (MAFTUR) ekspeditsiyalar uyushtirilib, bu ikki yodgorliklardan aniqlangan moddiy yodgorliklar vositasida Oks sivilizatsiyasi qadimgi Hind va Eron platosi oralig‘ida joylashgan muhim tranzit yo‘lining ahamiyatini ochib berdi. [158] Shu yilning o‘zida (2019) yana bir qancha nashrlar chop etildi. Xususan, Namazgahdepedan 45 km g‘arbda, Altindepedan 45 km sharqda joylashgan Ulug‘depe yodgorligida qazuv ishlari amalga oshirilib, kulolchilik sohasidagi qo‘lga kiritilgan moddiy manbalarda Hind vodiysining Kvetta yodgorligi hududidan topilgan sopollarning aynan uyg‘unligini takrorlanishini fanda o‘z isbotini topdi.[159] XXI asrning dastlabki 10 - yilliklarida kelib fransuz arxeologlari Oks sivilizatsiyasining umr ko‘rgan davrini 800 yil ya’ni 8 asr deb baholagan bo‘lsalar, o‘n yillardan so‘ng qayta o‘tkazilgan qazuv ishlari natijasida esa 600 yil degan ilmiy xulosaga keldilar.[160]

Turkmanistonda Namozga Depe, Ulug‘ Depe, Altin Depe, Kelleli, Taip, Togolok; Afg‘onistondagi Dashli; O‘zbekistonda Sopollitepa, Mo‘lalitepa va Jarqo‘ton) va Murg‘ob va Amudaryo bo‘yidagi tarqoq vohalar orasida tashkil etilgan Oks sivilizatsiyasi yodgoriklari garchi mahalliy adabiyotlarda ilk shahar deb ta’riflangan bo‘lsa-da,[161] fransuz tadqiqotchilarida esa protoshahar deb nom berildi.[162] Fransuz arxeologi Bendezu-Sarmiento J. tomonidan 2024-yilda chop etilgan maqolada Oks sivilizatsiyasining bosh yodgorliklari qatorida Ulug‘depening aniq xronologik davrlarini qayd etib, eneolit davrining boshlaridan toki m.avv. III asrlargacha (Parfiya davrigacha) bo‘lgan deb ilmiy xulosaga keladi.[163]

Xulosa qilib aytganda, Oks sivilizatsiyasining – Jarqo‘ton va Ulug‘depe yodgorliklarida fransuz-o‘zbek, fransuz-turkman arxeologik ekspeditsiyalari XXI asrda amalga oshirilgan eng yirik ahamiyatga ega bo‘lgan qazuv ishlari sanalib, Oks sivilizatsiyasi haqida kitobxonlarga batafsilroq ma’lumot olishga imkon beradi. Bungacha ham muallif tomonidan german-o‘zbek ekspeditsiyalari natijalari muhokama etilgan bo‘lib,[164] bu sohadagi ilmiy ishlar ko‘lami kelajakda yanada kengaytirilishi nazarga tutilgan.

**Adabiyotlar ro‘yhati**

1. Bendezu-Sarmiento J. Centre national de la recherche scientifique (CNRS): UMR 7206 Eco-Antrhropologie MNHN/Musée de l’Homme, Paris, the french Republic; e-mail: julio.bendezu-sarmiento@mnhn.fr; ORCID: 0000-0002- 0831-3955.
2. Bendezu-Sarmiento J. Mustafoqulov S. Le site proto-urbain de dzharkutan durant les âges du bronze et du fer. Recherches de la mission archéologique franco-ouzbèke-Protohistoire. 2013. P. 207.
3. Bendezu-Sarmiento J. Lhuillier J. Habitat and Occupancy during the Bronze Age in Central Asia Recent work at the sites of Ulug-depe (Turkmenistan) and Dzharkutan (Uzbekistan). 2019. P. 97-114.
4. Bendezu-Sarmiento J. Mamedov A. Khalmuradov A. Turkmen-french archaeological expedition Ulug depe a unique discovery: alabaster vases fine arts national museum. 2016. P. 36.

[158]Bendezu-Sarmiento J. Lhuillier J. Habitat and Occupancy during the Bronze Age in Central Asia Recent work at the sites of Ulug-depe (Turkmenistan) and Dzharkutan (Uzbekistan). 2019. P. 97-114.

[159] Bendezu-Sarmiento J. Mamedov A. Khalmuradov A. Turkmen-french archaeological expedition Ulug depe a unique discovery: alabaster vases fine arts national museum. 2016. P. 36.

[160] Bendezu-Sarmiento J. L’énigmatique disparition de la civilisation de l’Oxus. 2020. P. 49-53.

[161] Шайдуллаев Ш.Б. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари. Тарих фанлари докторлиги диссертацияси автореферати. ЎзР ФА Археология институти. Самарқанд, 2009. с. 288.

[162] Bendezu-Sarmiento J. Funerary rituals and archaeothanatological data from BMAC graves at ulug depe (Turkmenistan) and Dzharkutan (Uzbekistan). 2021. P. 405-424.

[163] Bendezu-Sarmiento J. The Protohistoric period in Central Asia and the importance of research at Ulug-Depe (Turkmenistan). 2024. P. 122-125.

[164] Rasulova S.Ch. Germaniya tadqiqotchilarining Surxon Vohasidagi arxeologik tadqiqotlari xususida. “Surxon vohasining insoniyat sivilizatsiyasidagi o’rni: moddiy va nomoddiy madaniyat asoslari” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. Termiz. 2024. 1-may. B. 390-396.

5. Bendezu-Sarmiento J. L’énigmatique disparition de la civilisation de l’Oxus. 2020. P. 49-53.
6. Bendezu-Sarmiento J. Funerary rituals and archaeothanatological data from BMAC graves at ulug depe (Turkmenistan) and Dzharkutan (Uzbekistan). 2021. P. 405-424.
7. Bendezu-Sarmiento J. The Protohistoric period in Central Asia and the importance of research at Ulug-Depe (Turkmenistan). 2024. P. 122-125.
8. Mamedov A. Lecomte O. Bendezu-Sarmiento J. Ulug Depe a forgotten city in Central Asia. 2012.
9. Rasulova S.Ch. Germaniya tadqiqotchilarining Surxon Vohasidagi arxeologik tadqiqotlari xususida. “Surxon vohasining insoniyat sivilizatsiyasidagi o‘rni: moddiy va nomoddiy madaniyat asoslari” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. Termiz. 2024. 1-may. B. 390-396.
10. Аскаров А.А. Сапаллитепа. Ташкент. 1973. С. 171.
11. Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы. МИА 73, Ленинград, 1959. 39. с.
12. Сарианиди В.И. Некоторые вопросы древней архитектуры энеолитических поселений Геоксюрского оазиса. КСИА, 1962. Вып. 91.
13. Сарианиди В.И. Сиро-Хеттское происхождение Бактрийско-Маргианской глиптики. ВДИ. - М., №1, 1999. С. 55.
14. Хлопин И.Н. Геоксюрская группа поселений эпохи энеолита. Москва. Ленинград. 1964. С. 167.
15. Шайдуллаев Ш.Б. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари. Тарих фанлари докторлиги диссертацияси автореферати. ЎзР ФА Археология институти. Самарқанд, 2009. с. 288.

## AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI SAN’ATIGA BIR NAZAR

**Boyto‘rayev Sirojiddin Usmon o‘g‘li-**
Denov tadbirkorlik va pedogogika instituti o‘qituvchisi
**Ravshanova Marjona Karimovna-**
Denov tadbirkorlik va pedogogika instituti talabasi

**Abstract:** This article analyzes the formation and development of art during the reign of Amir Temur and the Timurids, as well as its impact on Central Asian and world culture. In particular, the development of architecture, miniature, oratory, and other applied arts, their specific styles and artistic achievements, are highlighted. The article also pays special attention to the uniqueness of the Samarkand and Herat art schools, the work of great artists such as Kamoliddin Behzod, and the cultural patronage of the Timurid rulers.

**Keywords:** Timurids, "mehtar", Pir Ahmad Ghiyosiddin, Dilkusho Park, Ulugbek, " Majolisun-Nafois", Alisher Navoi, Vasifi, Baburs, poetry, Zahiriddin Babur, Herat.

**Kirish.** Bobokalonimiz Amir Temur jahon tarixida kam uchraydigan, uzoqni ko‘ruvchi buyuk davlat arbobi edi. XIV asrning ikkinchi yarmi XV asr boshida Movarounnahrda milliy birlikni yuzaga keltirgan mustaqil davlatga asos solgan, o‘rta asr uyg‘onish davri madaniyati, ilm-fani, san’ati taraqqiyotiga bebaho hissa qo‘shgan, uning benazir homiysi bo‘lib tanilgan bu ulug‘ zot muborak nomi asrlar osha avlodlarning faxri va iftixori bo‘lib kelgan. Temuriylar davrida O‘rta Osiyoda maydonga kelgan buyuk sivilizatsiya buyuk tarixiy shaxslarni – faylasuf va donishmandlarni, shoir va san’atkorlarni, me’mor va sohibi hunarlarni yetishtirdikim, ular o‘z navbatida jahon madaniy taraqqiyotini boyitishga hissa qo‘shganlar. Binobarin Temur va Temuriylar davri san’atini keng miqyosda o‘rganish, hozirgi zamon san’at taraqqiyotida uning boy an’analaridan foydalanish yo‘llarini

izlash san’atkorlar va san’atshunoslik fanining qadrli va e’zozli vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu esa, o‘z navbatida mustaqil davlatimiz yoshlarini vatanparvarlik ruxida tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi[1].

Temuriylar davrida tasviriy san’at – miniatyura san’ati va monumental rassomlikda ham ko‘tarilish yuz bergan. Bir talay miniatyura asarlari maydonga kelgan. Bizgacha yetib kelgan tasviriy san’at yodgorliklari Samarqand, Hirot va Buxoroda bu san’atning o‘ziga xos uslublari shakllangani, hayotni haqqoniy tasvirlash tomon rivojlanib borganini ko‘rsatadi. XIV asr oxiri va XV asr tasviriy san’at yodgorliklarini mavzuga qarab, portretlar, hayotiy lavhalar, peyzaj, binolarga ishlangan surat va naqshlar, kitob bezaklari va boshqa suratlarga bo‘lish mumkin. Bu davrda Pir Ahmad G‘iyosiddin va Xo‘ja Abdulhay Sulton Uvays, Usta Shamsiddin, Mansur, Shox Muzaffar, Mavlono Shaxobiddin Abdulla, Mavlono Zahiriddin Azhor, Pirsayid Ahmad Tabriziy, Bobonaqqosh kabi juda ko‘p musavvirlar ijod qilganlar[2]. Yuqorida aytib o‘tkanimizdek, XIV asr oxiri XV asrda ikkinchi renesanss davri Temuriylar davriga to‘g‘ri keladi va bu davrda ko‘plab ilmiy bilimlar bilan birgalikda tasviriy san’atning ham rivojlanganligini ko‘rishimiz mumkin.

**Asosiy qism.** Sohibqiron Amir Temur Samarqandning Bog‘i shamoldagi qurdirgan saroy rasmlarini chizgan Pirsayid Ahmadning tengi yo‘q musavvir bo‘lganini aytib uning san’atidan hatto sharqning buyuk rassomi Moniy ham o‘yalar edi deb yozadi, Zahiriddin Bobur esa Dilkusho bog‘i saroyidagi rasmlarda Amir Temurning Hindiston safari tasvirlanganini hikoya qiladi. XIV asr ikkinchi yarmi va XV asr boshidagi gavjum hayot Samarqandda musiqa, raqs va tomosha san’atining jonlanishiga olib kelgan turli yozma manbalarda va miniatyuralarda o‘z aksini topgan[3].

Tarixdan ma’lumki, G‘arb Sharq davlatchiligida notiqlik san’ati har vaqt siyosiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etgan. Temur va Temuriylar davlatida ham notiqlik san’ati-so‘z san’atiga jiddiy e’tibor berilgan. Samarqand va Hirotda notiqlik maktablari bo‘lib, ularda Mavlono Ershod, Qozi Xishiy, Ibrohim Balxiy, Hotam Asal ustozlik qilganlar. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha Amir Temur ham tengi yo‘q notiq bo‘lgan. Ibn Arabshoxning “Temur hayoti” asarida Temurning notiqligiga katta baho bergan, uning “ovozi jarangdor va shirali” bo‘lganini ham yozgan. Bir arab solnomasining guvohligiga asoslanib Barbara Brey esa o‘zining “Ibn Xaldun” sarlavhali maqolasida Temur nutq so‘zlaganda “ qarashlari o‘tli, yoniq, ovozi yoqimli, jarangdordir” deb ko‘rsatgan[4]. Notiqlik san’ati qadimdan rivojlangan bo‘lib Temuriylar davriga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan jumladan, Amir Temur ham o‘z davlatining ko‘plab shaharlarida notiqlik san’ati maktablarini tashkil etgan va unda zamonasining mashhur olimlari dars bergan.

Movarounnahr madaniyati, ilm-fani, ayniqsa, Ulug‘bek zamonida yuksak chuqqilarga ko‘tarildi. XV asrning 20-yillaridayoq Ulug‘bek Movarounnahr, O‘rta va Yaqin Sharqda buyuk olim va madaniyat homiysi sifatida tanildi. Natijada ilm-fan bilan bir qatorda adabiyot, xattotlik, musavvirlik, musiqa va raqs san’ati yana taraqqiy topib, Samarqand nafis san’at markaziga aylandi. Ulug‘bek faqat fan bilan mashg‘ul bo‘lib qolmay, she’riyat va san’at bilan ham qiziqar, mushoiralarda qatnashar, san’at va adabiyot taraqqiyotiga uning namoyondalariga ko‘maklashar edi. Alisher Navoiy “ Majolisun-Nafois” da, Ulug‘bek adiblarining homiysigina emas, she’riyatning qadriga yetuvchi edi, o‘zi ham she’r yozar edi deb ko‘rsatgan[5].

Amir Temur va Temuriylar davrini mubolag‘asiz nafaqat o‘zbek xalqining, balki butun Yaqin va O‘rta Sharq xalqlarining musiqa san’atlari uchun jadal ravnaq topgan, kamolot cho‘qqisiga erishgan, chinakam uyg‘onish davri bo‘lgan deyish mumkin. Temuriylar sulolasining deyarli besh asrlik (Temurdan-Boburiylargacha) hukmronligi mobaynida xonanda va sozandalar rasmiy-diplomatik, harbiy va boshqa tantanalarning doimiy qatnashchilariga aylanib, xalq tomoshalari, ommaviy bayramlar ularsiz o‘tmas edi. Bu esa, o‘z navbatida, musiqaning boshqa san’atlar qatoridan muhim o‘rin egallashini ta’minladi. Zamondoshlarining ko‘rsatmalariga binoan Sohibqiron saroyda o‘tkazilgan tantanalarda doim musiqachilarning ijrosini maroq bilan tinglab, yangi yaratilgan asarlarga baho berishni xo‘sh ko‘rgan. Sohibqiron harbiy yurishlarida ham musiqiy asboblarga bo‘lgan ixlosini

unutmagan, uning bu fazilatlarini merosxo‘rlaridan tortib sarkardalarigacha – butun saroy ahli yaxshi bilgan. Amir Temurning musiqiy asboblarga bo‘lgan mehrini uning harbiy yurishlari tasvirlangan ko‘pgina miniatyuralar ham tasvirlaydi. Temuriylar davrida, saroylarning bosh darvozalari tepasiga maxsus nog‘oraxonalar qurish odat tusini olgani musiqa san’atiga bo‘lgan e’tiborning ya’na bir yorqin dalilidir. Saroy musiqiy guruhlarining – asosan karnaychilar va nog‘orachilardan iborat yyetakchilarini hukmdorning shaxsan o‘zi tayinlar, ularni “mehtar” mazkur to‘dalar ommaviy bayram va tantanalarda Ramazon oyida bozorlarda kechasi o‘tkazilgan udumlarda faol qatnashadi[6]. Amir Temurning musiqiy asboblarga bo‘lgan mehri Temuriylar davrida musiqaning rivojlanishiga katta turtki bo‘lgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Saroydagi har bir tadbir va marosimlar musiqiy asboblarsiz o‘tmagan, Amir Temurning musiqachilarga bo‘lgan hurmati ham o‘zgacha bo‘lgan.

Shuni ham aytish kerakki Temuriylar davrida Behzod ijodini ko‘zatib yurgan, uni yaxshi bilgan zamondoshlari buyuk musavvirga faqat hamdu sanolar o‘qib, uning ijodidan birorta nuqson topolmaganlar. Masalan Vosifiyni asarlaridagi naqqoshu musavvirlar ijodiga taalluqli bir joyi – Mir Alisher Navoiy majlisida Kamoliddin Behzodning bir lavhasi muhokamasi xususida so‘z boradi. Bu hikoya tasviri ko‘p marotaba tilga olingan. Behzodning chehrakusholik san’atini Vosifiy alohida qayd etib, shunday hikoya qiladi: “U ko‘proq olampanoh (ya’ni, Sulton Husayn Mirzo) dargohining shafqatli ulug‘ amirlaridan va yirik arboblaridan bo‘lgan Amir Bobomahmud suratini ixtilofli holatlarda tasvirlaydi. Shu bois Behzod chehrakusholik san’atining komil ustasi deya ta’riflangan[7].

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni aytamizki, Amir Temur va uning saltanati vorislari – Temuriylarning deyarli hammasi hunar va san’at ahliga hurmat ila qarab, ularning mehnati va san’atini qadirlab, homiylik qilib kelgani bois Movarounnahr, qolaversa, Xuroson va Balxda hamda Hindistondagi Boburiylar podshohligida madaniy hayot muhiti taraqqiy etgan edi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. “Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyat va san’at”- maqolalar. TOSHKENT.1996-yil
2. Guliston jurnali. 1967-yil
3. I. Mo‘minov “Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli” TOSHKENT. 1963
4. “Boburnoma” TOSHKENT. 1958-yil
5. Ibn Arabshoh “Jizin Timora” TOSHKENT. 1967-yil
6. N. Mallayev “O‘zbek adabiyoti tarixi” TOSHKENT. 1965-yil
7. Alisher Navoiy. Asarlar 3-jild. TOSHKENT. 1948-yil.

# YOLG‘ON VA DEZINFORMATSIYA KATEGORIYALARINING FALSAFIY VA MANTIQIY TAHLILI HAMDA ULARNING INSON TAFAKKURIDA TUTGAN O‘RNI

**Salomov Suhrob-**
O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti “Falsafa” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

## A philosophical and logical analysis of the categories of lies and misinformation and their role in human thinking

**Abstract.** In the information age, lies and misinformation have become an integral part of society’s life. These phenomena have a significant impact on the process of human cognition, social relations and political decision-making processes. Lies and misinformation can be analyzed in terms of the main branches of philosophy - ontology, epistemology and logic. This article explores the essence of these concepts, their epistemological and logical analysis, as well as their role in philosophical thinking.

**Keywords:** falsehood, truth, dialectics, essence, misinformation, philosophical analysis, logical analysis, epistemology, manipulation.

Yolg‘on falsafada qadimdan muhokama qilingan tushunchalardan biridir. Aristotel o‘zining “Metafizika” asarida haqiqat va yolg‘on o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlikni ta’kidlagan. Uning ta’rificha, haqiqat – bu mavjudlikning asl mohiyatini aks ettiruvchi tafakkur mahsuli bo‘lsa, yolg‘on esa asl mohiyatni buzib ko‘rsatishdir.

O‘rta asr mutafakkirlari, jumladan, Avitsenna va Farobiy haqiqat va yolg‘onning gnoseologik jihatlarini tadqiq qilgan. Avitsennaning fikricha, yolg‘on – bu inson tafakkurining noto‘g‘ri xulosalarga kelishi natijasida yuzaga keladigan bilish xatosidir. Gegel esa dialektik yondashuv asosida yolg‘onni o‘zgaruvchanlik va rivojlanish jarayoni bilan bog‘liq deb tushuntiradi.

Dezinformatsiya – bu yolg‘onning ijtimoiy ko‘rinishi bo‘lib, u maxsus strategiyalar orqali ma’lumotlarni buzib ko‘rsatish, noto‘g‘ri talqin qilish va ommaga noto‘g‘ri qarashlarni singdirishdan iborat. Karl Popperning “Ochiq jamiyat va uning dushmanlari” asarida dezinformatsiya totalitar tuzumlarning asosiy quroli sifatida ko‘rsatiladi. Unga ko‘ra, yolg‘on va dezinformatsiya ochiq jamiyatning intellektual taraqqiyotiga to‘sqinlik qiladi.

Dezinformatsiya – jamiyatga ta’sir ko‘rsatish maqsadida ataylab noto‘g‘ri yoki chalg‘ituvchi ma’lumotlarni tarqatish jarayonidir. U turli shakllarda namoyon bo‘lib, axborot manipulyatsiyasining muhim vositasi hisoblanadi. Quyida dezinformatsiyaning asosiy turlari ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

To‘liq soxtalashtirish deganda mavjud bo‘lmagan voqea yoki faktni haqiqat sifatida taqdim etish tushuniladi. Bunday dezinformatsiya turi odatda quyidagi xususiyatlarga ega:

Sun’iy ravishda yaratilgan materiallar – fotosuratlar, videolar yoki hujjatlar soxtalashtiriladi.

Ijtimoiy muhitga ta’sir ko‘rsatish – ommaviy axborot vositalari yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali keng tarqatiladi.

Qarama-qarshilik yaratish – jamoatchilik fikrini ma’lum bir yo‘nalishga burish maqsadida qo‘llaniladi.

Bu turdagi dezinformatsiyaning natijalari jamoaviy ongni manipulyatsiya qilishga, noto‘g‘ri qaror qabul qilishga va ijtimoiy mojarolarning avj olishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Chala haqiqat – ma’lum bir fakt yoki voqeani noto‘g‘ri kontekstda talqin qilish orqali dezinformatsiya tarqatish usulidir. Bu jarayonda quyidagi metodlar ishlatiladi:

Faktlarni tanlab keltirish – faqat muayyan nuqtayi nazarni tasdiqlovchi jihatlar aks ettiriladi.

Ma’lumotlarni kontekstdan ajratish – voqealar faqat muayyan burchakdan yoritilib, umumiy manzara buzib ko‘rsatiladi.

Semantik manipulyatsiya – so‘z va iboralar turlicha talqin qilinib, asl mazmun buziladi.

Chala haqiqat ommaviy axborot vositalari, siyosiy kampaniyalar va reklama strategiyalarida keng qo‘llaniladi. Bu turdagi dezinformatsiyaning xavfi shundaki, u to‘liq yolg‘on emas, balki chala haqiqat bo‘lgani uchun odamlar unga oson ishonishadi.

Yo‘naltirilgan chalg‘itish

Yo‘naltirilgan chalg‘itish – muhim ma’lumotlardan e’tiborni burish maqsadida chalg‘ituvchi axborot tarqatish usuli hisoblanadi. Uning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Yuqori emotsional yuklama – odamlarni hissiyotga berilishga majbur qiluvchi yangiliklar e’lon qilinadi.

Yana-da jozibador mavzularni ilgari surish – oddiy yoki jiddiy muammolar o‘rniga odamlarni ko‘proq qiziqtiradigan mavzular sun’iy ravishda targ‘ib qilinadi.

Muammolarning sun’iy ravishda yaratib berilishi – mavjud muammolar o‘rniga ahamiyatsiz mavzular ko‘tariladi.

Bunday dezinformatsiya odatda siyosiy strategiyalar, iqtisodiy manipulyatsiyalar va korporativ axborot urushlari doirasida keng qo‘llaniladi. Natijada, jamoatchilik e’tibori haqiqiy muammolardan chalg‘ib, noto‘g‘ri yo‘nalishda fikr yuritadi.

Dezinformatsiyaning yuqoridagi turlari zamonaviy axborot muhitida keng tarqalgan bo‘lib, ularning har biri jamiyatga ma’lum darajada salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Axborotning ishonchliligini tekshirish, tahliliy tafakkurni rivojlantirish va mustaqil manbalar bilan solishtirish dezinformatsiyaga qarshi kurashning samarali usullari hisoblanadi. Ilmiy asoslangan yondashuv orqali ushbu muammolarning oldini olish va axborot maydonida xolislikni ta’minlash mumkin.

Gnoseologiya nuqtayi nazaridan yolg‘on va dezinformatsiya inson bilish jarayoniga qanday ta’sir qilishini aniqlash muhimdir. Immanuil Kant o‘zining "Sof aql tanqidi" asarida bilish jarayoni inson ongining strukturaviy xususiyatlari orqali shakllanishini ta’kidlaydi. Kantga ko‘ra, sub’yektiv tajriba va aql kategoriyalari inson bilimining mohiyatini belgilaydi.

Karl Popper esa bilish jarayonini falsifikatsiya tamoyili orqali tushuntiradi. Uning fikricha, ilmiy bilish shubha qilish va yolg‘on gipotezalarni rad etish orqali rivojlanadi. Shu sababli, dezinformatsiya ilmiy bilish tamoyillariga zid bo‘lib, faktlarni tahlil qilishga va real haqiqatni aniqlashga to‘sqinlik qiladi. Mantiqiy tahlil nuqtayi nazaridan yolg‘on va dezinformatsiyaning ishlash mexanizmlari sofistika va mantiqiy xatolar orqali aniqlanishi mumkin. Sofistika – bu noto‘g‘ri mantiqiy xulosalar asosida insonni chalg‘itish usulidir.

Ko‘p uchraydigan mantiqiy xatolar:

*Ad hominem* – muhokamada dalil o‘rniga shaxsga hujum qilish;

*Post hoc, ergo propter hoc* – sabab va natija munosabatlarini noto‘g‘ri tushunish;

*Soxta dilemma* – mavjud muqobil variantlarni e’tibordan chetda qoldirish.

Bu kabi xatolar dezinformatsiyaning asosiy vositalari sifatida ishlatiladi. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda dezinformatsiyaning tarqalish mexanizmi sofistik usullar asosida qurilgan.Dezinformatsiyaga qarshi kurashning eng samarali usullaridan biri tanqidiy fikrlash va axborotlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishdir. Chomskining “Ommaviy manipulyatsiya vositalari” asarida ta’kidlanishicha, tanqidiy fikrlash yo‘qligi insonni manipulyatsiya ob’ektiga aylantiradi. Shu bois quyidagi strategiyalar dezinformatsiyaga qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etadi:

Manbalarni tekshirish – faktlarni rasmiy va mustaqil manbalar bilan solishtirish;

Mantiqiy tahlil – sofistika va manipulyatsion usullarni aniqlash;

Bilimlarni rivojlantirish – ilmiy metodologiyaga asoslangan yondashuvni qo‘llash.

Yolg‘on va dezinformatsiya nafaqat gnoseologik muammo, balki axloqiy va siyosiy masala hamdir. Ushbu hodisalar mantiqiy xatolar va manipulyatsion mexanizmlar orqali inson ongiga ta’sir ko‘rsatadi. Falsafa va mantiq nuqtayi nazaridan olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tanqidiy fikrlash, sofistika va manipulyatsiyani aniqlash qobiliyati dezinformatsiyaga qarshi kurashda asosiy quroldir. Karl Popper va Noam Chomskining tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, haqiqatga erishish jarayoni doimiy shubha va tekshiruvni talab qiladi. Shu sababli, ongli jamiyatni shakllantirish uchun ilmiy tahlil va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


1. Alimov, A. (2019). Zamonaviy Axborot Makonida Yolg‘on Ma’lumotning Tarqalish Mexanizmlari va Uning Ijtimoiy Oqibatlari . "Fan va texnologiya" nashriyoti, Toshkent.
2. Blekbern, S. (2018). Haqiqat haqida . Oksford universiteti matbuoti. (Ingliz tilidan B. Rasulov tarjimasi, 2021, "Ziyo" nashriyoti).
3. Diogenes Laertios. (2019). Mashhur Faylasuflar Hayoti va Ta’limotlari . (Yunon tilidan O. Mahmudov tarjimasi). O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, Toshkent.
4. Frankfurt, HG (2005). Bullshit haqida . Prinston universiteti matbuoti. (Ingliz tilidan S. Karimov tarjimasi, 2020, "Yangi asr avlodi" nashriyoti).
5. Hamidov, R. (2022). Mantiq Ilmi: Tarixiy va Zamonaviy Talqinlar . "Tafakkur" nashriyoti, Toshkent.
6. Karimov, S. (2020). Falsafiy Kategoriyalar Lug‘ati . "O‘zbekiston" nashriyoti, Toshkent.
7. Levy, N. (2017). Internet asrida kognitiv tarafkashlik va jamoaviy aldanishlar . Kembrij universiteti matbuoti. (Ingliz tilidan D. Narzullayev tarjimasi, 2021, ToshDU nashriyoti).
8. Mahmudov, F. (2019). Mantiq va Tafakkur Madaniyati . "Fan" nashriyoti, Toshkent.
9. Normatova, M. (2021). XXI Asr Madaniyatida Postmodernizm va Haqiqat Tushunchasi . “Falsafa va huquq” jurnali, 4(2), 78-95.
10. Olimov, B. (2020). Axborot Asrida Tafakkur Savodxonligi . "O‘zbekiston" nashriyoti, Toshkent.


## “NOROZILIK” AKTI VA UNI YUZAGA KELTIRIVCHI LISONIY BIRLIKLAR

(Ahmad Yassaviy hikmatlari misolida)


**Toshpulatova Gulhayo Azamat qizi-**
Navoiy davlat universiteti 1- kurs magistranti



**Annotatsiya:**Ushbu maqolada tasavvuf ilmining yirik namoyandasi Ahmad Yassaviy hikmatlaridagi "Norozilik"aktini yuzaga chiqaruvchi lingvistik vositalarning leksik,semantik va pragmatik tahlillari yoritilgan .Bular orqali muallif noroziliklari kimga yoki nimaga qaratilganligi ochib berilgan.



**Kalit so‘zlar:** Semantik maydon, pragmatik tahlil,mayl ,so‘roq so‘zlar,leksik birliklar.



**Abstract:**This article examines the lexical, semantic, and pragmatic analyses of the linguistic means that create the act of "Discontent" in the sayings of Ahmad Yasawi, a prominent figure in the science of Sufism. Through these, it is revealed who or what the author’s discontent is directed at.



**Keywords:**Semantic field, pragmatic analysis, mood, interrogative words, lexical units.


Tasavvuf ilmi inson ruhiyatini va axloqiy fazilatlarini komillikka yo‘naltiruvchi bir ilmdir. Bu sohaning yirik namoyandasi Ahmad Yassaviy o‘z hikmatlarida olam va odam, shariat va tariqat, xilvat va uzlat masalari batafsil yoritilgan. “Devoni hikmat” asari nafaqat adabiyot vakillari uchun, balki

tilshunoslik olamida ham o‘z o‘rniga ega. Quyida keltirilgan hikmatlarda esa norozilik aktini yuzaga chiqaruvchi atov birliklar lingvistik, semantik , komponental va pragmatik tahlillar asosida yoritilgan.

Tavba qilib Haqqa yonsam bo‘lormukin,
Tavbasizdin o‘lub ketsam, netgum mano?
Piri mug‘on mani yo‘lg‘a solormukin,
Yo‘lg‘a kirmay o‘lub ketsam, netgum mano?

Yamon so‘zdin bu tilimni emdi yig‘sam,
Egri yo‘lg‘a kirgonlarni urub-so‘ksam.
Namoz o‘qub, riyozatda belim buksam,
Belim bukmay o‘lub ketsam, netgum mano?

Tavba qilsam, piri mug‘on tortormukin?
Kundin-kunga toatlarim ortormukin?
Nafsim mani yomon yo‘ldin qoytormukin,
Qoytormayin o‘lub ketsam, netgum mano?

Tavba qilsam, Xojam qabul etormukin?
Hama nodon bu dunyodin o‘tormukin?
Hasrat bilan g‘aflat tongi otormukin,
Tong otmayin o‘lub ketsam, netgum mano?

Yuqorida keltirilgan hikmatlar pragmatik ma’nolar zanjiriga qurilgan bo‘lib, uning asosida Alloh vasliga yetishish, komillikka erishish va bu yo‘lda umrini toat -ibodatda o‘tkazish kerakligi haqida qarashlar batafsil aks ettirilgan.

Ahmad Yassaviy “hikmatlar”ining bosh obyekti – muallifning o‘zi. Unda o‘z “menligi” orqali barcha insonlardagi ma’naviy-axloqiy, diniy tarbiya masalalarini muhokamaga tortadi. Bu yo‘lda o‘z-o‘zi bilan (norozilik ruhida) kurashish yog‘asi ustunlik qiladi. “Haq”, “Piri mug‘on”, “Xojam” kabi undalma birliklari orqali ularga murojaat etib, “tavbasizlikdan”, to‘g‘ri yo‘lga kirmasdan, “namoz o‘qimasdan”, “nafsni qaytarmasdan” o‘lib ketsam, nima qilaman? kabi -sa shart mayli lingvistik birligi va so‘roq leksemasi keltiriladi . Shart maylidagi "o‘lib ketsam "leksemasi I shaxsni ifodalagan ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasini tashkil etib "o‘lsam" so‘ziga tengdir ."Nima qilaman?" so‘roq leksemasi orqali o‘z - o‘ziga murojaat etib savoliga javob qidiradi.Bu vositalar orqali o‘z-o‘zidan noroziligini ochiq ifodalaydi.Leksemalardagi semantik maydon esa shariat qonunlariga qurilgan.Semantik maydon asosini esa "namoz","tavba qilmoq","Haq","Xo‘ja"kabi lingvokulturologik birliklar tashkil etadi.

Ishq o‘tida kuyub-yonib toat qilg‘il,
Oqil ersang, yig‘lamoqni odat qilg‘il,
Tunlar qotib, mehnat tortib, rohat ko‘rgil,
Mehnat tortmay sango lutfi a’losi yo‘q.

Xalq ichinda toat qilding, barcha riyo,
Ayo zohid, qilg‘on ishing bori havo,
Hech naf’i yo‘q ushbu toat, balki riyo,
Mundog‘ ishga Haqni aslo rizosi yo‘q.

Pinhon yurub toat qilg‘il, Xudo bilsun,
Ko‘z yoshingni daryo qilg‘il, rahmi kelsun,
Ondin so‘ngra Haq dardinga davo qilsun,
Ayo do‘stlar, ko‘z yoshini riyosi yo‘q.

“Toat qilg‘il”, “odat qilg‘il”, “rohat ko‘rg‘il” kabi buyruq maylidagi fe’l birliklari vositasida ikkinchi shaxsga murojaat qiladi. Uning tavbasizligi va qilgan ishlari barchasi yolg‘on ekanligidan norozi ekanligini aytadi. Ahmad Yassaviy hikmatlarida to‘g‘rilik, Haq din uchun kurashish, iymon, e’tiqod tushunchalari asos bo‘lib xizmat qiladi. Bir so‘z bilan aytganda "shariat ahkomlari"dan toki, "haqiqat" tomon yo‘l ko‘rsatilgan.

Quloqsizga oyat, hadis, hikmat harom,
Essiz, hikmat ich-qornimda bo‘lsun tamom,
Nodonlarg‘a tokay aytib, yig‘lay mudom,
Dod aylasam, hech kim quloq solg‘oni yo‘q.

So‘zni aytgil so‘z qadrig‘a yetgonlarga,
Ixlos bilan so‘zga quloq solg‘onlarg‘a,
So‘zni chaynab mazosig‘a yetgonlarga,
Beixloslar so‘z qadrig‘a yetgoni yo‘q.

So‘zga yetmas bexabarga essiz ma’ni,
So‘zni aytsang, donog‘a ayt, durni koni,
Xizmat qilmay yetgon bormu, bilsang muni,
Xizmat qilmay eranlarg‘a yetgoni yo‘q.

Bu o‘rinda “hadis”, “hikmat”, “oyat” kabi Qur’oniy birliklar keltirib o‘tiladi. Ahmad Yassaviy “nodon”, “beixlos”, “aqlsiz” kabi otlashgan sifat leksemalari keltirib ulardan shikoyat etadi. O‘z noroziligini esa “so‘z qadriga yetgani”, “quloq solgani ","xizmat qilgani” kabi sifatdosh birliklar va “yo‘q” modal so‘zi orqali ifodalab beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Ahmad Yassaviy hikmatlari tom ma’noda norozilik ruhida yozilgan bo‘lsa-da, barchasining ostida ezgulik, yaxshilik, Haqqa oshiqlik aks ettirilgan. Yoshlarni ma’naviy va axloqiy tarbiyasiga urg‘u beradi. Vatanparlikka, halol va pokiza yashashga chorlaydi. Haqni tanigan, toat-ibodatga umrini bag‘ishlagan, so‘zi va amali teng bo‘lgan insonlarni ulug‘laydi. Bir so‘z bilan Ahmad Yassaviyni “Ulug‘lik kuychisi” desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1993
2.Ibrohim Haqqul. Ahmad Yassaviy adabiy –badiiy nashr. –T.,
3.Xoja Ahmad Yassaviy .DEVONI HIKMAT(Yangi topilgan namunalar). Toshkent:Movarounnahr,2004.1-22-bet.

# NOSIR XISRAVNING HAYOTI VA ILMIY ME`ROSI

**Usmonov Nurmuhammad Eshmahmat o‘g‘li-**
Denov tadbirkorlik va pedagogika inistituti talabasi
**Mahmaraimov Izzat Azamat o‘g‘li-**
Denov tadbirkorlik va pedagogika inistituti talabasi

**Abstract:** Nasir Khisrav is a great Persian-Tajik poet, philosopher and thinker who lived and created in Central Asia. He occupied an important place in Persian literature and called mankind to high moral values, science and justice through his works. His works such as "Safarnama" and "Dishan" have not lost their relevance and importance even today. This article highlights the life, creative activity and important aspects of Nasir Khisraf’s works.

**Key words:** Qobadian, Molton, Tabriz, Yemen, Ismailis, Yumgon, Kokcha, Saodatnama, Human nature.

**Kirish.** Sharq adabiyoti va falsafa va jo‘g‘rofiya fanlar taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan Abumuiniddin Nosir Xisrav al-Qo‘bodiyoniy 1004-yilda hozirgi Tojikistonning janubida, Amudaryo irmog‘i Kofirnihon daryosi bo‘yidagi Qo‘bodiyon shahrida tug‘ildi. Boshlang‘ich bilimlarni o‘z shahrida egallagan Nosir keyin Balx va Marv kabi yirik shaharlarda tahsil oladi. Zehnli va tirishqoq Nosir Xisrav o‘z zamonasidagi barcha ilmlardan imkon qadar habardor bo‘lishga intilgan[1].

Iste’dodli shoir sifatida tanilish bilan birga falsafa, riyoziyot, fiqh va jo‘g‘rofiya ilmlarini chuqur o‘rganib, o‘z davrining yuksak ma`lumotli kishisi bo‘lgan. Nosir Xisrav oldin G‘aznaviylar, Saljuqiylar saltanatidagi ba`zi hokimlarning devonlarida turli vazifalarni bajaradi. Davlat xizmatida o‘tgan yillar uning hayotiy tajribasini ancha oshiradi. Nosir bir tarafdan yuqori tabaqalar hayoti, ularning mamlakat va xalqni boshqarish siyosatidan voqif bo‘lsa, ikkinchi tomondan, oddiy mehnatkash xalq turmushi, hunarmand, dehqon va boshqa kasb egalarining jamiyatdagi o‘rniga oid be`vosita kuzatish va tajribalari uning asarlarida aks etgan. Atoqli sharqshunos olim E.E.Bertels haqli ravishda ta’kidlab o‘tganidek, biz o‘sha davrdagi oddiy xalq turmushi haqida Nosir Xisrav asarlaridan unga zamondosh bo‘lgan ayrim tarixchilar kitoblaridan ham ko‘ra ko‘proq ma’lumotlar olamiz. Nosir Xisrav har xil kasb egalari ichida dehqon mehnatini ayniqsa ko‘kka ko‘tarib sharaflaydi[2].

**Asosiy qism.** 1045-yilda Nosir Xisrav davlat xizmatidan bo‘shab, safarga otlanadi. Uning bu safari yetti yilga cho‘zilib, 1052-yilgacha davom etadi. U Eron, Armaniston, Ozarbayjon, Suriya, Misr, Arabiston, Iroq diyorlarini — Tabriz, Qohira, Quddus, Makka, Madina, Laxso, Yaman, Basra, Isfahon va boshqa bir qator shahar va viloyatlarda bo‘ladi. Misrda ikki yildan ortiq muqim yashaydi. Safar davomida Nosir Xisrav o‘z zamonasining ko‘plab mashhur kishilari — shoirlar, olimlar, hokimlar bilan uchrashadi. Tabiiyki, bu uzoq safar mashaqqatlardan holi bo‘lmasdan, unga xatarli dengiz sayohati, sahrolarni kesib o‘tish, pulsizlik kabi sinovlarga bardosh berishga to‘g‘ri keladi. Allomaning safar xotiralari uning mashhur «Safarnoma» asarida aks etgan. O‘sha davrlarda islom dinidagi ikki asosiy mazhab bo‘lgan sunniylik va shialik hamda shu navbatida bir necha boshqa firqalaridan iborat edi. Nosir Xisrav bu mazhablardan shialikning ismoiliylar oqimiga e’tiqod qilardi[3].

U Misrda bo‘lganida bu yerga davlat mafkurasi darajasiga ko‘tarilgan ismoiliya g‘oyalari ba`zi jihatlari bilan o‘ziga rom qiladi. Ba`zi tadqiqotchilar Nosir Xisrav bundan oldin Hindistonda bo‘lganida Mo‘lton shahrida ismoiliylar jamoalari bilan ilk bor yaqinlashgani, uning g‘arbiy o‘lkalarga safar qilishdan ko‘zlagan asosiy maqsadlaridan biri ham ayni shu ismoiliylar ta’limoti bilan chuqurroq tanishish bo‘lganligi haqida fikrlar bildirilgan. Ismoiliylar g‘oyalarini qabul qilib, hatto, ularning bosh rahnamosidan maxsus topshiriq olib, bu oqimning yirik da’vatchilaridan biriga aylanishi Nosir Xisravning bu davrdan keyingi hayoti va ijtimoiy ta’siri katta ahamiyat kasb etganini ko‘rsatdi. Ismoiliya oqimining kelib chiqishi va Nosir Xisravning ismoiliylar tarafdori sifatidagi faoliyati rus olimi A. E. Bertelsning shu masalaga bag‘ishlangan yirik tadqiqotida mufassal tarzda yoritilgan[4].

Nosir Xisravning safardan vataniga qaytib kelishi bilan, ismoiliya ta’limotini targ‘ib qilishni boshlagan da’vatchilik faoliyati sunniy mazhabidagi hukmdorlarga yoqmagan, albatta. Shu sababli shoir ko‘p quvg‘in va ta’qiblarga uchrab, bir qancha muddat Mozandarondek xilvat o‘lkada yashirinib yuradi. Ammo vatanidan juda uzoqlikka toqat qilaolmay, taxminan 1060-yillarda Badaxshonga keladi va Pomir tog‘lari orasidagi Yumg‘on qishlog‘ida panoh topadi. Bu yerda o‘z asari ijodiy ishi bilan mashg‘ul bo‘ladi. Ismoiliylikka bo‘lgan e’tiqodidan voz kechmay, Misr hukmdorlari bilan maktublar yozishni davom ettiradi. Nosir Xisravning she’riy asarlarida zamonadan, o‘z ahvolidan shikoyat sadolari kuchlidir. Uning da’vatlari natijasida Badaxshonda ismoiliylar jamoasi vujudga keladi va ular asrlar davomida o‘z e’tiqodlariga sodiq bo‘lib qoladilar. Nosir Xisravning Yumg‘onda yashagan yillari bir tarafdan madaniy markazlardan uzoqda, yolg‘izlik va ichki iztiroblarda kechgan bo‘lsa-da, ikkinchi tarafdan ijodiy jihatdan juda sermahsul bo‘ldi. Shu paytlarda ijtimoiy tajribalar, ulkan iste’dodi, qomusiy bilimlariga tayanib, u yirik asarlarni yaratdi. Bu asarlarda o‘tkir falsafiy fikrlar, chuqur dunyoqarash, murabbiyona o‘gitlar mujassam edi. Sharq o‘lkalarida adib nomiga extirom yuzasidan “ Xakim” so‘zi qo‘shib aytiladigan bo‘ldi[5].

Nosir Xisrav 1088-yilda vafot etib, Yumg‘on qishlog‘idagi qabristonga dafn etilgan. Uning maqbarasi hozirgi shimoliy Afg‘onistonda Ko‘kcha daryosining o‘ng qirg‘og‘ida, tog‘ tepasida joylashgan Xazrat Sayyid qishlog‘i yaqinidadir. Ulug‘ shoir va olim maqbarasi asrlar davomida ziyoratgoh joyi bo‘lib, mahalliy aholi tomonidan “Mozori Shoh Nosir” deb ataladi. Nosir Xisrav o‘z asarlarini fors-tojik va arab tillarida yozgan. U bu tillarni mukammal egallagan bo‘lib, ba’zi o‘tmish shoirlarining devonlarida ma’nosi qiyin so‘zlar yuzasidan, zamondoshlar yordam so‘rab unga murojaat qilishgani ma’lumdir. Nosir Xisrav merosi nazmiy va nasriy asarlardan iboratdir. Nazmiy asarlari forsiy devon hamda shu tilda bitilgan “Ravshonnoma” va “Saodatnoma” dostonlaridan iborat. Nosir Xisrav arab tilidagi she’rlaridan ham devon tuzgan bo‘lsa-da, bu devonning keyingi taqdiri hozirgacha noma’lumdir. Nosir Xisravning forsiy devoni Eronda bir necha bor nashr etilgan. Devonning salmoqli qismini xalqqa zulm qiluvchi amaldorlarni qoralovchi satirik yo‘nalishdagi hamda ilmlarni egallash va komil inson bo‘lishga chaqiruvchi pand-nasihat mazmundagi she’rlar tashkil qiladi. O‘tmish shoirlardan Nosir Xisrav Rudakiyni ko‘proq tilga olib, uning xotirasiga ehtirom ko‘rsatgan[6].

“Ravshonnoma” falsafiy dostonidir. Shoir o‘zining falsafiy qarashlari bayon etilgan yirik nasriy asarlaridagi ba’zi masalalarni “Ravshonnoma”da she’riy shaklda muxtasar tarzda bayon etgan. Asarda, jumladan, “Inson fitrati”, “Inson sharafi”, “Komil inson sifati”, “Maqtovli va yaramas xulqlar”, “Jahillar va riyokorlar mazammati”, “Aql ta’rifida”, “Falak va yulduzlarning yaratilishi”, “To‘rt unsur sifati”, “Zohiriy va botiniy sezgilar” va shunga o‘xshash fasllar mavjuddir. “Uzluksiz bilish haqida” faslida mutafakkir shoir shunday xitob qiladi: O‘z vijdoningni bilib olgin, shunda ulug‘ ma`nolar turiga yetgaysan. Nosir Xisravning nasriy asarlari miqdor jihatidan uning she’riy merosidan kam emas. “Zod ul-musofirin” (“Musofirlarning yo‘l oziqalari”) kitobi shoir tomonidan 1061-yilda Yomg‘onda yozilgan. Bu asar muallifning falsafiy qarashlariga bag‘ishlanib, asosan donishmandona “Xudo yo‘lini bilish” masalasini oydinlashtiradi[7].

**Xulosa.**

Nosir Xisravning asarlari xalq turmushi va dehqon mehnatining ahamiyatini ko‘rsatib beradi. U dehqonchilikni odamlar uchun muhim va sharafli kasb sifatida yuqori baholagan. Uning so‘zlariga ko‘ra, dehqonlik hayot va rizqning asosi hisoblanadi. Dehqonlar mehnati jamiyat farovonligi uchun muhim omil bo‘lib, u hatto farishtalar mehnatiga tenglashtiriladi. Xulosa qilib aytganda, Nosir Xisrav o‘zining asarlari va sayohatlari orqali nafaqat xalqning turmush tarzini, balki ilmiy va diniy tafakkurini ham yoritgan ulkan mutafakkir va sayyohdir. Uning forsiy devoni va boshqa asarlari Eronda chop etilgan bo‘lib, adolat, ilm-ma’rifat va insoniylikni ulug‘laydi. Shuningdek, u falsafiy qarashlarini "Ravshanno‘ma"da ixcham tarzda bayon qilgan. Unda insonning tabiati, sharafi, axloqiy fazilatlari va kosmik unsurlar haqida chuqur mulohazalar yuritilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

**1.** Nosir Muhammad "Nasaf va Kesh allomalari - IX-XX asrlar. Taskira" Toshkent. 2006-y
**2.** Nosir Xisrav "Safarnoma" - Sharq nashriyoti. Toshkent 2003-yil.
**3.** Abdurahmon Jomiy "Bahoriston" Sh. Shomuhammedov tarjimasi. Toshkent 1997-yil.
**4.** A. E. Bertels "Nasiri Xisrav i Ismailizm" Moskva. 1959-yil.
**5.** Sh. Shomahmudov "Nosir Xisrav va uning falsafiy merosi" Toshkent. 1994-yil.
**6.** Q. Shamsiddinov "Nosir Xisravning ilmiy merosi" Toshkent. 2002-yil.
**7.** Sh. I. Al-Kashgariy "Nosir Xisrav va uning ta'siri" Toshkent 2010-yil.
**8.** Abdulla G'afforov "Safarnoma: Nosir Xisravning sayohatlari" Toshkent 2005-yil.

## YOSHLAR TARBIYASIDA JADIDLARNING ILMIY MA'NAVIY MEROSINI O'RGANISHNING DOLZARBLIGI

**Xaydarova Dilorom Abduxamidovna-**
Namangan davlat universiteti ilmiy tadqiqotchisi

**Abstract**: This article considers the issues of promoting the scientific and spiritual heritage of Jadid enlighteners among young people and their educational significance, proposals and recommendations for new approaches to studying Jadidism in its later years, as well as strengthening the national consciousness and spirituality of young people through the study of the scientific and spiritual heritage of Jadids.

**Key words**: Third Renaissance, Jadid, scientific heritage, Jadid philosophy, patriotism, national pride, religious associations, national education.

Mamalakatimizda qatag'on qurbonlari bo'lgan ota-bobolarimizning hayoti va faoliyatini, xususan, jadidlar merosini yanada chuqur o'rganish va ularning xotirasini abadiylashtirish bo'yicha muhim farmon va qarorlar qabul qilinmoqda. Halqimizning noyob adabiy-badiiy merosi bugungi kunda yosh avlodga ulkan ma'naviy kuch beradi. Hozirgi kundagi keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad qilib belgilandi.Prezident ma'ruzasida bugungi kunda jadidlar merosi va jadidchilik harakatining falsafiy masalalariga doir keng qamrovli tadqiqotlar olib borish, maxsus ilmiy izlanishlarni tizimli yo'lga qo'yish zarurligiga alohida ahamiyat berilgani bejiz emas. Xolbuki, ushbu sohada izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar ma'lumotlariga ko'ra, dunyoning yyetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari jadid falsafasi, adabiyoti va maorif tizimini atroflicha o'rganmoqda, bobolarimiz merosi tadqiqiga alohida e'tibor bilan qaramoqda.

Jadidchilik umummilliy harakat sifatida:

1. Jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi. Uyg'onish mafkurasi bo'lib xizmat qildi.
2. Maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqardi.
3. Mustaqillik uchun kurash olib bordi. Uning g'ayrat va tashabbusi bilan dunyo yuzini ko'rgan "Turkiston muxtoriyati" bu yo'ldagi amaliy harakatlarning dastlabki natijasi edi.

Madaniyatlararo muloqotni yo'lga qo'yish, tarbiyalash bag'rikenglik ruhidagi odamlar davlatlar, diniy birlashmalar va milliy ta'lim tizimlarining birgalikdagi vazifasidir[1].

Prezident ma'ruzasida bugungi kunda jadidlar merosi va jadidchilik harakatining falsafiy masalalariga doir keng qamrovli tadqiqotlar olib borish, maxsus ilmiy izlanishlarni tizimli yo'lga qo'yish zarurligiga alohida ahamiyat berilgani bejiz emas. Xolbuki, ushbu sohada izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar ma'lumotlariga ko'ra, dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari jadid falsafasi, adabiyoti va maorif tizimini atroflicha o'rganmoqda, bobolarimiz merosi tadqiqiga alohida e'tibor bilan qaramoqda. AQSh Prezidentining vakili Uilyam Bullitt 1919 yilgi

Rossiya to‘g‘risidagi hisobotida yangi maktablarni ochishda Sovet hukumati bir yarim yil ichida xalqni ma’rifat qilish uchun 50 yil ichida chorizmga qaraganda ko‘proq ish qilganini ta’kidlagan.[2]

Bu borada AQShning Kolumbiya, Michigan universitetlarida, Evroosiyo milliy universiteti, Turkman jahon tillari milliy institutida jadid adabiyoti namoyandalari, adabiy siymolari hayoti va ijodi, jadidchilik harakatining g‘oyaviy asoslarini aniqlash va ularning o‘zbek jadid Nasri, dramaturgiyasi, she’riyatida aks etishi, o‘zbek jadid she’riyati morfologiyasi masalalari tadqiqi yo‘lga qo‘yilgan.

Ayni paytda, hozirgi davr jadid falsafasidek milliy asosdagi yaxlit g‘oyalar tizimining ilmiy, metodologik va amaliy jihatlarini, zamonaviy ta’sirini har tomonlama tahlil qilish, uning bugungi kundagi ahamiyati va undan foydalanish imkoniyatlarini to‘la-to‘kis ochib berish nihoyatda muhim bo‘lib, bunday tadqiqotlarga e’tibor va ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Bugungi kunda ayni shu ehtiyoj:

birinchidan, jadid bobolarimiz falsafiy merosini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan har tomonlama va chuqur o‘rganish, ayni shu asosda o‘zbek falsafasini yangi davr talablari darajasiga chiqishiga erishish;

ikkinchidan, shu asosda yangi o‘zbekistonni barpo etish jarayonida xalqimizning jadidlar orzu qilgan zamonaviy dunyoqarashi va islohotchilik tafakkurini shakllantirish;

uchinchidan, yangiliklarga labbay deb javob beradigan yangi jadidlar avlodini tarbiyalash va islohotchi ziyolilar safini yanada kengaytirish, shu asosda yangi islohotchi yoshlar avlodini voyaga etkazish;

to‘rtinchidan, ushbu jarayonning kreativ va sosionik tamoyillarini ishlab chiqib, amaliyotga joriy etish yo‘llari va imkoniyatlari to‘g‘risida taklif va tavsiyalar tayyorlashni tizimli yo‘lga qo‘yish zaruratini davr talabiga aylantirdi.

Ta’kidlash lozimki, yangi o‘zbekiston barpo etilayotgan hozirgi davrda, milliy taraqqiyot uchun kurashgan, istiqlolimizning g‘oyaviy va amaliy manbalarini yaratishda eng samarali bosqich bo‘lgan jadidchilikning falsafiy asoslarini xolisona tahlil qilish, o‘rganish va xalqimizga etkazib berish mutaxassislar oldida turgan eng muhim vazifalardan biriga aylandi.

Buxoro amirligi va Xiva xonligida jadidchilik harakati Turkistondagi kabi X1X asr oxiri XX asr boshlarida shakllangan bo‘lsa ham, bu xududlardagi tarixiy sharoit undagi jadidchilik harakatiga xam o‘ziga xos xususiyatlar baxsh etdi. Buxoro va Xiva jadidlari ham maorifni isloh etishni, amir va xon xukmronligini cheklash, mavjud tuzum sharoitida islohotlar o‘tkazib, jamiyat taraqqiyoti va milliy mustaqillikni qo‘lga kiritishni maqsad qilib qo‘ygan edilar.

Jadidchilarning poydevori, tamal toshi – “usuli jadid” maktabi edi. Bu tabiiy, hamonki maqsad jamiyatni yangilamoq ekan, uni yangi avlodgina qilishi mumkin edi. Yangi avlodni esa, yetishtirmoq lozim. Eski an’anaviy usulda bu ishni amalga oshirish qiyin. Chunki zamon o‘zgargan. U tezkorlikni talab qiladi. Ikkinchidan, bugungi o‘quvchi tarix, jug‘rofiya, iqtisod, fizika, kimyo, matematika kabi zamonaviy fanlarni bilishi kerak. Ilmiy fanlar, fan-texnika yutuqlari so‘nggi uch-to‘rt asr dunyo taqdirini boshqa o‘zanga solib yubordi va Yevropani oldinga olib chiqdi. Endi Yevropa ilm-fanini egallamasdan dunyo bilan barobar yashab bo‘lmaydi. Bu ilm-fanni o‘zlashtirmoq uchun Yevropa tillarini bilmoq kerak. Ayni paytda o‘zlikni ham saqlamoq lozim. Din-diyonat ham zarur. Xullas, yashamoq uchun uchchala jihatni ham ushlamoq kerak bo‘ladi. Ushlaganda ham hech birini suiste’mol qilmaslik kerak. Aks holda muvozanat buziladi. Muvozanat buzilishi esa, yomon oqibatlarga olib keladi. Masalan, yolg‘izgina din ushlansa, dunyo qo‘ldan ketadi. Faqat o‘zlik, millat desak, yana dunyodan ajralib qolamiz. Birovning biz bilan ishi bo‘lmaydi. Yevropalashsak, o‘zlik yo‘qoladi. Bu ham fojia. Bu fojiani Behbudiy “Padarkush”da ko‘rsatib beradi.

Dunyoga chiqmoq uchun til bilmoq kerak ekan. Bu talab ham bugun mustaqil taraqqiyot sari ketayotgan O‘zbekiston uchun kun tartibidan tushgani yo‘q, axamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Tarixning murakkab, mas’uliyatli burilish davrida millatning ongini yuksaltirish, milliy iftixor tuyg‘usini kuchaytirish birinchi darajali vazifalardan ekanligini anglab yetganliklari uchun ham bu

boradagi barcha ishlarni o‘z zimmalariga oldilar. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomalarida aytganidek, biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak.[3] Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini o‘uncha ko‘p anglab yetadi.

*Xulosa o‘rnida aytish joizki, jadidlar - istiqlol kurashining g‘oyaviy ilhomchilari edilar. O‘zbekiston mustaqilligining tiklanishi tasodifiy va favquloddagi hodisa bo‘lmay, vatan uchun uchun kurash ildizlari uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Millatimiz fidoyilari bo‘lmish, vatanparvarlik harakatlari bilan jadid ziyolilari orzu qilgan istiqlolga, hur va ozod vatanimiz O‘zbekistonga erishdik. Har bir inson borki qalbida vataniga muhabbat, elparvarlik, yurtparvarlik xususiyatlarini rivojlantirish barcha ustoz murabbiylar hamda ota-onalarning burch va majburiyatlari hisoblanadi.*

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1.Медведев Д.А. Религия - мощная объединяющая сила // Маглюмат аль-Булгар (Вестник аль-Булгар). - 2008. - № 10.

2.https://kibalchish75.livejournal.com/362456.html?ysclid=m018rhmtxr73842869

3. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvardagi Parlamentga yo‘llagan murojaatnomasi / https://review.uz/uz/post/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-savkat-mirzieevning-olij-mazlisga-murozaatnomasi?ysclid=m2rrw9451r56517529

## YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA BUYUK ALLOMALARNING MADANIY VA MA’NAVIY MEROSINING O‘RNI VA AHAMIYARI

**Fadoyeva Ferangiz Xursan qizi-**
Buxoro davlat universiteti, “Fizika-matematika” fakulteti talabasi.

Annotatsiya. Markaziy Osiyo tarixiy voqealarga g‘oyat boy o‘lka bo‘lishi bilan birga azaldan ilm-fan, madaniyat va ma’naviyatning markazlaridan biri bo‘lib kelgan. Bu o‘lka dunyoga ma’naviyat va ma’rifatning barcha sohalarida yuzlab, minglab jahonshumul ulug‘ zotlar, davlat arboblarini tarbiyalab bergan. Umumbashariyat ma’rifatparvarligini yaratishda buyuk ajdodlarimiz bevosita ishtirok etganlar, uning taraqqiyoti va boyishiga ulkan hissa qo‘shganlar. Markaziy Osiyoning madaniy merosi jahon madaniyati va ma’rifatining uzviy ajralmas tarkibiy qismidir.

Rezyumye. Although Central Asia is a country rich in historical events, it has long been one of the centers of science, culture and spirituality. It has educated hundreds and thousands of world leaders and statesmen in all spheres of spirituality and enlightenment. Our great ancestors were directly involved in the creation of universal enlightenment and made a great contribution to its development and enrichment. The cultural heritage of Central Asia is an integral part of world culture and enlightenment.

Kalit so‘zlar: yuksak, ma‟naviyat, yoshlar, tarbiya, Markaziy Osiyo, alloma, ilmiy, meros.

Hozirgi davrda jahon ma’naviyati va ma’rifati saltanatida oz o‟rinlariga ega bo‘lgan ulug‘larimizni teran anglash, o‘rganish va ulug‘lashga va ularni boy ma’naviy meroslarini o‘rganish va ta’lim tarbiya jarayoniga keng targ‘ib qilishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xalqimizning buyuk mutafakkirlari uzoq o‘tmishdayoq olib borgan tadqiqotlari va kashfiyotlarida insonni odobli, ma’naviy barkamol mehnatsevar, vatanparvar qilib tarbiyalashga oid yangi g‘oya va ta’limotlarni yaratganlar. Ota bobolarimizdan qolgan ilmiy merosni chuqur o‘rganib, uni ta’lim- tarbiya jarayoniga tatbiq etish har bir ma’naviy barkamol va ijodkor mutaxassisning muqaddas burchidir.

Muso al-Xorazmiy (783-850), Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Ibn Sino (980 - 1037), Umar Hayyom (1048-1131), Nasriddin at-Tusiy (1201-1274), Ulug‘bek (2394-1449), Fiyosiddin al-Koshiy

(1385-1437), Ali Qushchi (1402-1474) va boshqalarning bizga qoldirgan boy meroslari fikrimizning asosidir. Bu allomalarimizning asarlarida bolalarni o‘qitish, mehnatga, odobga o‘rgatishda muallimlarning vazifalariga katta e’tibor berilgan. Jumladan, Nasriddin Tusiy fikricha muallim o‘quvchilarning aql-zakovatiga ta’sir qilish uchun ularning ishonchini qozonish va qalbidan joy olish mas’uliyatini his qilishi lozim. Ibn Sino fikricha, tarixiy manbalarni bilish olijanob va foydali faoliyatdir. U ilm - narsalarning inson aqli yordami bilan o‘rganilishi shaxs faoliyatida muhim ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Abu Rayhon Beruniyning pedagogik ijodida tarbiyaning maqsadi, vazifalari va o‘rni, yosh avlodning rivojlanishi haqidagi fikrlari chin ma’noda insonparvarlik va insonshunoslik asosiga qurilgan. Abu Rayhon Beruniyning pedagogik g‘oyalaridan eng muhimi bilimni puxta va mustahkam egallash zarurligidir.

Shu o‘rinda, o‘quvchilarni o‘zligini anglash va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda matematika tarixiga doir ilmiy-nazariy ma’lumotlar ham katta ahamiyatga ega. Vaholanki, milliy o‘zlikni anglash jarayonida tarixiy materiallarni o‘rganish xozirgi davrda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli matematika darslarining samaradorligini oshirishda Markaziy Osiyolik olimlar ijodidan foydalanish muammosini tadqiq etishni hamda tarixiy tushunchalarni shakllantirishning ilmiy pedagogik asoslarini yaratishga e’tibor qaratilmoqda. O‘tmish tariximizda buyuk mutafakkir olimlar juda katta ilmiy-didaktik meros qoldirganlar. Tarix xalqning haqiqiy tarbiyachisidir. Ulug‘ ajdodlarimizning ishlari va jasorati tarixiy xotiralarni jonlantiradi, yangicha dunyoqarashni shakllantiradi, tarixiy-ahloqiy tarbiya va saboq olishning manbaiga aylanadi. Markaziy Osiyo tarixida, o‘zlarida siyosiy ong, ahloqiy jasoratni, diniy dunyoqarash va qomusiy bilimlarni mujassamlashtirgan buyuk siymolar juda ko‘p bo‘lgan.Yaqin va O‘rta Sharqda AlXorazmiy, Al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Umar Hayyom, Tusiy kabi mutafakkirlar ilmiy didaktika asoschilaridir. Ularning izdoshlari qarashlarining muhim xususiyati shundan iborat ediki, mazkur olimlar doimo predmetning qiyofasi inson ongida mavhumlashuvi jarayoniga, mana shu predmetning mohiyati va o‘ziga xosligini tushunish, sodir bo‘lishi hamda shakllanishiga e’tibor berganlar. Ular bilishning predmeti va manbalariga, bilish jarayoni qanday bosqichlardan tarkib topishiga, bilish faoliyati bilan amaliy faoliyat o‘rtasidagi munosabatlarga qiziqqanlar. Al-Xorazmiy shaxsning uzluksiz kamol topishi nazariyasini rivojlantirish borasida muhim xizmat qildi, induktiv va deduktiv tafakkurdagi aloqidalik hamda umumiylikning birligi printsipini muayyanlashtirdi.

Al-Forobiy o‘qitish usullarining tasnifini ishlab chiqqan. Ularni amaliy va nazariy metodlarga ajratgan, shu tariqa o‘qitishning amaliy yo‘nalishi va kishilarning hayoti hamda kundalik faoliyati bilan bog‘liqlik g‘oyalarini ilgari surgan. Al-Forobiy matematika fani misollari asosida o‘qitishning ilmiylik, ko‘rgazmalilik, tushunarlilik va izchillik printsiplarini ishlab chiqadi. Bilish jarayonining va fandagi bilim shakllarini mohiyatini yoritadi. Uning fikricha, ana shu jarayonlar qonunlar sifatida shakllanadi va ularga rioya qilish fikrlashni takomillashtiradi hamda murakkab bilish jarayonida qo‘pol xatolarning oldini oladi. Bilish jarayoni fikrlash mantiqi orqali o‘tishi kerak. Mantiq ob’ekti anglashga qaratilgan va aql yetadigan mohiyatlar tahlil etiladigan fikrlash jarayonining to‘q’rililigini belgilashga xizmat qiladi. Mantiq quroldir va u narsalarni aniq bilishga yordam beradi.

Ibn Sinoning bilim orqali erishiladigan natijalar haqidagi ta’limoti o‘qitish nazariyasida alohida o‘rin egallaydi. Uning fikricha, buyumlarni chinakam bilishga tashqi ko‘rinishini tahlil qilish, sabablarini aniqlash asosida aql bilan erishiladi. Ibn Sino aqlning rivojlanish bosqichlarini ishlab chiqadi. Mushohada bilan idrok qilishning birinchi bosqichi aqliy kategoriyalarni tushuntirishdan iborat. Ikkinchi bosqichi ikki xil fikrni idrok etishdir. Aqliy rivojlanishning uchinchi bosqichiga o‘zlashtirilgan fikrlarni idrok etish bilan erishiladi. Shunda uni haqiqiy aql deyiladi. Matematikani o‘qitish jarayonida tarixiy materiallardan foydalanishni tashkil etish, o‘zining tizimiga asosan, ikki maqsadni parallel ravishda amalga oshiradi. Birinchidan, matematik qonuniyat, dalil, formulalarni, matematik talqinini amalga oshirsa, ikkinchi tomondan, bu qonuniyat, dalil, formulalarning na faqat

matematikada, balki boshqa fanlarda ham undan foydalanish uslublari ko‘rsatiladi, natijada shu soxada o‘quvchilar bilimi chuqurlashadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlarimizni ulug‘ allomalarimizdan namuna olgan holda bilim olishga undab , quyidagi fikrlarni bildirganlar: “Buyuk ajdodimiz Muhammad Xorazmiyning bir hikmati bor: “So‘z – gul, ish – meva”. O‘ylaymanki, bugun belgilab oladigan rejalaringiz qanchalik pishiq-puxta bo‘lsa, ishingiz ham shunchalik yaxshi samara beradi, Sizlar ko‘p kitob o‘qigan, bilimli avlod sifatida yurtimiz o‘tmishda jahon sivizilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganini yaxshi bilasiz. Siz Xorazmiylar, Farg‘oniylar, Beruniy va Ibn Sino, Ulug‘bek, Navoiy va Boburlar, Buxoriylar, Termiziylar avlodisiz. Ana shunday buyuk vatandoshlarimiz yaratgan bebaho bilim va kashfiyotlar bugun ham butun insoniyatga xizmat qilmoqda” [1]. Prezidentimiz o‘z so‘zlarida davom etar ekanlar, bu o‘rinda qomusiy olim Muhammad Xorazmiy asos solgan ilm – “algoritm”ni eslashning o‘zi kifoyaligini ta’kidlaganlar. Ushbu ulug,, zotning beqiyos xizmatlarini insoniyat hamon minnatdorlik bilan eslamoqda. Uning olamshumul kashfiyotlari bugungi axborot texnologiyalarini yaratishda ham asos bo‘lgan.

Xulosa qiladigan bo‟lsak buyuk allomalarimizning bizlarga qoldirgan ilmiy me’rosi ham buyukdir. Ushbu ilmiy me’rosdan hozirgi zamon bilan uyg‘unlashtirilgan holda foydalanish har bir bilim oluvchi uchun muhimdir. Allomalarning ta’kidlashicha, bolaning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o‘rinni egallaydi. Ayniqsa, oilada ota – onalar birinchi o‘rinda o‘z farzandlarining haqiqiy inson bo‘lib kamol topishiga alohida e’tibor berishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. review.uz/uz/712 Shavkat Mirziyoyev O„zbekiston yoshlari forumida yoshlar uchun muhim bir yangilikni yetkazdi.

2. Rasulov, A. R. (2021). O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari faoliyati, o‘zgarish va muammolar. Academic Research in Educational Sciences, 2(2), 257-264.

3. Абу Али Ибн Сино. Тиббиёт қонунлари: 3 жилдлик. 1-жилд. -Т.: 1980

4. Abu Nasr Forobiy. Risolalar. -T.: «Fan», 1975.- 144 bet.

5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: Abdulla Qodiriy, 1993.- 223 b.

6. N.A.Jumayeva. O‟rta Osiyo allomalarining ilmiy me‟rosi. Uslubiy qo‟llanma. Buxoro, “Durdona” nashriyoti. 2013.

.

## MADANIY VA TEXNOLOGIK DETERMINIZMNING JAMIYATDAGI O‘ZARO ALOQADORLIGI VA O‘ZARO TA’SIRI

**Yunusova Gulnoza Akramovna-**
Navoiy Davlat Universiteti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada madaniy va texnologik determinizmning jamiyatdagi o‘zaro ta’siri hamda aloqadorligi haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** determinizm, texnologiya, jamiyat, qadriyatalar, texnologik determinizm, texnokratiya.

**Abstract:** This article discusses the interaction and relationship between cultural and technological determinism in society.

**Keywords:** determinism, technology, society, values, technological determinism, technocracy.

Madaniy dinamika va texnologiyalarning o‘zaro ta’sirini o‘rganishga turli xil tadqiqot yondashuvlarining nazariy va uslubiy pozitsiyalari bizning ishimizda taqdim etiladi va asoslanadi. Texnogen determinizm va madaniy determinizm o‘rtasidagi bahsga alohida ahamiyat beriladi,

ularning tadqiqotlari L.V.Baeva, D.V.Galkin, F.Vebster, C.Gir, R.Uilyams, M.Maklyuen, D.Bell, O.Toffler va boshqa zamonaviy ilmiy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan. Ba'zilar texnologiya ma'lum madaniy va tarixiy sharoitlarning mahsuli ekanligi haqida bahslashadilar. Agar biz madaniy determinizm haqida gapiradigan bo'lsak, unda bu yerda inson yoki jamiyatning ishlab chiqarish vositalaridagi roli dunyoqarash va madaniy qadriyatlarni belgilaydi. Binobarin, biz raqamli madaniyatni madaniy va texnologik determinizm o'rtasidagi tafovutlarda kuzatamiz, bu yerda u turli xil hodisalarni yaratadigan turli xil madaniy darajalar to'plamining natijasi yoki zamonaviy jamiyat hayotini o'zgartiradigan texnologiyalar to'plami deb hisoblanadi. Ikkala holatda ham asoslarning kuchliligi va ahamiyatini anglagan holda, biz madaniy va texnologik determinizmga nisbatan tanqidiy pozitsiyani egallaymiz va uning o'zbek jamiyatidagi rivojlanish tendensiyasida ma'lum bir yondashuvni topishga harakat qilamiz.

Ilmiy ta'rifga ko'ra, texnologik determinizm - bu falsafiy va sotsiologik tushunchalardagi nazariy va uslubiy munosabat bo'lib, unga ko'ra jamiyat rivojlanishi texnologiya va texnologiyaning rivojlanishi bilan belgilanadi. Bu texnika neytral emas degan umumiy tushuncha bilan tavsiflanadi va uni o'zini o'zi boshqarish kuchi deb biladi. Bu shuni anglatadiki, texnika va texno soha inson manfaatlariga muvofiq emas, balki o'z (avtonom) mantig'iga muvofiq rivojlanadi, uning mazmuni insonga (yoki nafaqat odamga) bog'liq emas, lekin shu bilan birga u yoki bu darajada inson rivojlanishini belgilaydi[165]. Ushbu murakkab atamani aniqroq aniqlash uchun texnologik va determinizmni ajratish osonroq bo'ladi. Texnologiya-bu amaliy maqsadlar uchun ilmiy bilimlarni yaratadigan ko'nikmalar va usullar to'plami. Determinizm - bu falsafiy pozitsiya bo'lib, unga ko'ra har bir hodisa boshqa vositalar bilan qo'zg'atib bo'lmaydigan sharoitlarga ega. Shuning uchun texnologik determinizm - bu faqat texnologik tomon javobgar bo'lishi mumkin bo'lgan voqealar va vaziyatlar[166] demakdir.

Texnologik determinizmning tadqiqot taxminlari shundan iboratki, jamiyatning texnologik rivojlanishi uning ijtimoiy tashkiloti va madaniy qadriyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Xususan, biz ushbu yo'nalishni kuzatamiz va zamonaviy raqamli dunyoda kuzatamiz. "Texnologik determinizm" atamasining o'zi birinchi marta amerikalik sotsiolog va iqtisodchi Torstein Veblen (1857-1929) tomonidan o'rganilgan. Sanoat inqilobi davrida texnologik determinizm muhim belgilovchi xususiyat sifatida texnologiyaga oid g'oyalar asosida aniqlandi. O'sha davrning g'oyalari shundan iboratki, texnologik yutuqlar jamiyatga boshqa masalalarga qaraganda ko'proq ta'sir ko'rsatgan, shuning uchun ular umuman ijtimoiy o'zgarishlarga katta hissa qo'shgan. Ilm-fanning moslashuviga ko'ra, texnologiya ma'lum vaqt ichida tez rivojlandi. Texnologik deterministlarning ta'kidlashicha, texnologiyaning bu evolyutsiyasi zamonaviy madaniyatga bevosita ta'sir ko'rsatgan va avloddan-avlodga o'tib kelayotgan jamiyatning qadriyatlari va me'yorlarini shakllantirgan. "Texnologiya" atamasi ilgari yozish va bosib chiqarish hatto ov qilish vositalarini nazarda tutgan, ammo endi u ko'proq kompyuter va televideniye bilan bog'liq. Bugungi kunda texnika jamiyatning raqamli madaniyatini rivojlantirishning ajralmas qismiga aylanib bormoqda, uni egallash va undan foydalanish uchun ma'lum ko'nikmalar va texnikalar shakllandi. Texnika inson faoliyatining sun'iy organlarining o'ziga xos tizimi bo'lib, mehnat jarayonida jamiyat va tabiat o'rtasida oraliq ahamiyatga ega bo'ldi[167].

Texnokratiya doktrinasi ilg'or texnika va texnologiya barcha ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarning asosiy shartlari ekanligini ta'kidlaydi. Ushbu nazariyalarni oldindan bilib, biz ilmiy-texnik taraqqiyotning ta'siri nafaqat ishlab chiqarishda va uning iqtisodiy samaradorligida, balki jamiyatning ijtimoiy tuzilishi va uning aqliy hayot sohasini rivojlantirishda ham sezilarli

[165] Мамфорд Л. Миф машины. Техника и развитие человечества. - М., 2001. – С.213.
[166] https://en.wikibooks.org/wiki/An_Internet_of_Everything%3F/Technological_and_Cultural_Determinism
[167] Афонин В.А., Афонин Ю.В. Теория и история культуры. Учебное пособие для самостоятельной работы студентов. - Луганск: Элтон-2, 2008.- 296 с.

o‘zgarishlarga olib kelishini ta’kidladik. Ushbu nazariyalar va tadqiqotlar yagona sanoat jamiyati nazariyasini ilgari surgan R.Aron kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan; sanoatning barcha bosqichlarini kuzatgan V.Rostou; J.Galbreyt yangi industrial jamiyat nazariyasini ilgari surdi, D.Bell postindustrial jamiyat asosida ulkan ishlarni o‘rgandi; O.Toffler va Z.Bjezinskiy, ular sanoat va texnotron jamiyatga ta’sir ko‘rsatdi. Albatta, ularning ishlarida umumiylik farqlardan ko‘ra ko‘proq ko‘rinadi. Ushbu asarlarning farqlari shundaki, ular sanoat va texnologik taraqqiyotning turli bosqichlarida o‘rganilgan, bu yerda biz madaniy ijtimoiy jihatlardagi farqlar ko‘rinadi.

G‘arbni sanoatlashtirish va modernizatsiya qilishning klassik nazariyalari 1960-yildan 1980-yilgacha M.Levi, V.Rustov, A.Arganskiy, D.Lern, N.Smelzer, S.Blek kabi olimlar tomonidan taklif etilgan. Sanoatlashtirishning asosiy portlovchi manbalari texnologik ko‘nikmalar va ilmiy izlanishlarning rivojlanishi, ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi va ularning aloqa usullari, bozor sanoatining tarqalishi va iqtisodiy o‘sish, huquqiy jamiyat va texnogen davlatning qurilishi edi. Bunday portlovchi texnologik rivojlanish metafora bilan bog‘liq nutqdagi semantik o‘zgarishlarga turtki berdi, masalan, davlat - mashina, odam - avtomat, o‘rnatish byurokratiyasi, shuningdek, dunyo-soat va kompyuter dunyosi kabi ramziy darajada[168]. Shuni ta’kidlash kerakki, bugungi kunda ham ushbu semantik munosabat lug‘at jihatidan juda katta o‘zgarishlarga duch kelmoqda, chunki hozirgi dunyoda raqamli davlat, raqamli iqtisodiyot, raqamli ta’lim kabi ko‘plab metaforalarning paydo bo‘lishi allaqachon jamoatchilikning leksik qo‘llanilishiga kiritilgan. Olimlar L.E.Grinin va A.L. Grininaning zamonaviy tadqiqotlari agrar-hunarmandchilik ishlab chiqarishining o‘rnini bosgan ishlab chiqarishni sanoat-savdo yuritish uchun nazariy shart-sharoitlarni yaratadi, bu esa ilmiy-texnikaviy va keyinchalik kibernetik inqilobga turtki berdi.

Tadqiqotchi D.Bell texnik determinizm tarafdori sifatida zamonaviy jamiyat hozirgi sanoat jamiyati o‘rnini bosadigan postindustrial rivojlanish davriga kirayotganini ta’kidladi. Ushbu sakrash Yaponiya, G‘arbiy Yevropa, Amerika Qo‘shma Shtatlari kabi mamlakatlarda aniq ko‘rinadi. Uchinchi texnologik inqilob postindustrial jamiyatni vujudga keltirdi, bu yerda ijtimoiy hayotning barcha sohalari telekommunikatsiya va kompyuter ishlab chiqarish tufayli hamma joyda texnologiyalashtirila boshlandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Мамфорд Л. Миф машины. Техника и развитие человечества. - М., 2001.
2. https://en.wikibooks.org/wiki/An_Internet_of_Everything%3F/Technological_and_Cultural_Determinism
3. Афонин В.А., Афонин Ю.В. Теория и история культуры. Учебное пособие для самостоятельной работы студентов. - Луганск: Элтон-2, 2008.
4. Кирсанов Я.А. Взаимодействие техники и власти в культуре индустриального и постиндустриального общества (на материале западной литературы XIX–XX вв): автореф. дис. канд. культурол. Саратов, 2011.
5. Гринин Л.Е., Гринин А.Л. От рубил до нанороботов. Мир на пути к эпохе самоуправляемых систем (История технологий и описание их будущего). М., 2015.


[168] Кирсанов Я.А. Взаимодействие техники и власти в культуре индустриального и постиндустриального общества (на материале западной литературы XIX–XX вв): автореф. дис. … канд. культурол. Саратов, 2011, - С. 8.

# FOROBIY IJTOMOIY HAYOT, JAMIYAT VA UNING TARQQIYOTI HAQIDA

**Abdunasirova Xalima Erdtillayaevna-**
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti ”Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotation: in this article, a scientific analysis of the ideas of Forobi about the character of social life: statehood, social relations were carried out.

Markaziy Osiyo buyuk davlatchilik va ijtimoiy-siyosiy an’analarga ega hudud bo‘lib, yurtimiz tuprog‘ida yashagan hukmdorlar, siyosiy arboblar, mutafakkirlar, donishmandlarning jamiyat va inson takomili haqidagi qarashlari salmoqli bo‘lgan. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining siyosat va siyosiy munosabatlarga doir qarashlari ular yashagan davr va muhit bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi bilan birgalikda, jamiyatning uzoq kelajakdagi istiqbolini ham o‘ziga xos tarzda yoritishga harakat qilingan edi. Davlat va jamiyat qurilishi, inson kamoloti, aholi bilan muloqot, millat va elatlar o‘rtasidagi aloqalar allomalar ijtimoiy-siyosiy qarashlarida o‘z aksini topgan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: “Bir haqiqatni hech qachon unutmaylik: biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz. Biz - hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo‘rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan, azmu shijoatli, buyuk xalqmiz”, deb ta’kidlaydi [1].

Forobiy o‘zining sermahsul ilmiy ijodida o‘z davridagi ma’lum fanlarning deyarli barchasiga oid asarlar yaratib, ularda fundamental tadqiqotlar va natijalarga erishdi, falsafaning barcha sohalari bilan shug‘ullandi. Forobiy dunyoqarashining yakunlovchi qismi, so‘nggi maqsadi – inson jamoasi, insonning ijtimoiy mohiyati, uning kutgan orzu-umidlari, insoniy munosabatlar, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishilgan fuqarolar jamiyatini qurish masalalaridir, deb ko‘rsatadi M.Xayrullaev [2:246]. Forobiy ijtimoiy hayot, jamiyat va uning taraqqiyoti masalalarida ham, jamiyat taraqqiyotida qadriyatlarning o‘rnini ko‘rsatishga harakat qildi, chuqur falsafiy masalalarni o‘rtaga tashladi. U o‘zining «Fozil odamlar shahri» asarida har bir inson o‘z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi. U mazkur narsalarni bir o‘zi qo‘lga kirita olmaydi, balki bu jarayonda o‘ziga o‘xshagan kishilarning, ya’ni jamiyatning yordamiga muhtoj bo‘ladi. Bu ishda yetuk jamiyat, ideal davlat haqidagi fikrlarni rivojlantirib, alloma inson va insoniyat taraqqiyotida jamiyat a’zolarining birgalikda, bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishlari lozimligini uqtiradi. Ideal jamiyat a’zolari esa nafaqat milliy, balki umumbashariy qadriyatlarning ham o‘rnini to‘g‘ri tushunishi, yoshlarga ta’lim va tarbiya berish, jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligiga erishish kerakligini ko‘rsatadi. Forobiy insonlarni o‘zaro hamkorlikka chaqiradi, dunyoda yagona bir butun inson jamoasi tuzish haqida orzu qiladi. Albatta, bu jamoada milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg‘unligiga erishilgan, ularning integrasiyalashuvi intensivlashgan bo‘ladi, deydi alloma. «Baxt-saodatga erishuv haqida» risolasida Forobiy davlatni har tomonlama etuk, o‘zida eng yaxshi insoniy fazilatlarni namoyon qilgan kishilar yordamida boshqarish zarurligini qayd etadi. Shuningdek, u har tomonlama yetuk aholini ilm va ma’rifatga olib boruvchi ideal jamiyat haqida fikrni olg‘a suradi. «Fozil odamlar shahri» asarida u davlatni boshqarayotgan shaxs, hokim Ollohdan boshqa hech kimga bo‘ysunmasligi kerakligini uqtirib, davlat boshlig‘i ega bo‘lishi kerak bo‘lgan o‘n ikki fazilat haqida qimmatli fikrlar bildirgan. Forobiy esa, insonlar bir-biri bilan ahil jamoa bo‘lib birikib, yagona maslak asosida yashaganlaridagina ko‘zlangan maqsadlariga yetishishi mumkinligini ta’kidlaydi. Uning qarashlarida g‘oyalari insonlarni ijtimoiy jihatdan birdamlikka chaqirishi, bir-biriga o‘zaro yordam berib yashash g‘oyalari ilgari surilib, fuqarolarni jamiyatda ijtimoiy mas’uliyatini yuqori bo‘lishiga qaratilgan edi. Mutafakkir jamiyatda kishilar o‘zini-o‘zi tarbiyalashi, insonparvarlik g‘oyalari bilan o‘z dunyoqarashini boyitishi, axloq va huquqiy normalarga ongli tarzda itoat etishi, shaxsning jamiyat, ijtimoiy tuzumning esa, shaxs oldidagi burchlari hamda javobgarliklarining qat’iy ravishda

shakllanishi va unga amal qilinishi lozimligi borasidagi olamshumul nazariyalarni ilgari surgan edi. Mutafakkirning ta'kidlashicha, "Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga erishish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi. Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-biriga etkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati buyicha intilgan etuklikka erishishi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi" [3:183]. Forobiy inson, insoniyatning kelib chiqishini teistik izohlashga harakat qilsada, xalqlarda «umumiy» va har bir xalqning o'ziga xos «xilqatlari» mavjudligini inkor etmaydi. «Chunki, - deb yozadi u, - har bir xalq o'sha narsa, hodisani o'zicha anglab, o'zicha aks ettiradi» [3:168]. Odamlar o'rtasidagi bog'lanish robitalari, – deb yozadi Forobiy, - shu odamlarning xulq-atvori, tabiati, fe'li va tilining umumiyligiga asoslanadi, har bir xalq o'ziga xos mana shunday xususiyatlarga ega. Shu tufayli har bir xalq vakillari boshqa xalq vakillariga aralashib, qo'shilib ketmasligi kerak. Chunki, turli xalqlar xuddi ana shu xususiyatlari bilan farqlanib turadi» [3:173]. Forobiy, xalqning o'ziga xos belgisi uning «yashash joyi », mahallasi, va yurtida aks etadi deb ko'rsatadi. «Odamlarning o'zaro bog'liqligi, - deb yozadi Forobiy, - uylari, umuman yashash joylarining umumiyligiga asoslanadi. Har uydagi odamlar o'zaro yaqin aloqalarda bo'ladilar, yana ular bir ko'chada, yana bir mahallada yashaydilar. Shu tufayli odam avval qo'shnisi bilan yaqin bo'ladi.' Yana u xuddi shu qo'shnisi bilan bir ko'chada, bir mahallada, bir shaharda va nihoyat shu shaharni ixtiro etgan bir yurtda yashaydi». Deyarli X asr o'tgach etnografiya fani Forobiy ko'rsatgan «xilqatlarni» xalq, etnosning milliy belgilari sifatida tan oldi. Sotsiologik va sotsial-psixologik yondashuvlar millatlararo munosabatlarning XX asrda chuqurlashuvi va keskinlashuvi natijasida yuzaga kelgan. Bu boradagi ilmiy-nazariy konsepsiyalarni uch guruhga ajratish mumkin. 1.Milliy nizolar qadimdan mavjud, chunki kishilar tabiatan va ijtimoiy mavqei nuqtai-nazardan teng emaslar. Ushbu tengsizlik xalqlar, millatlar o'rtasida irqiy tengsizlikni ham keltirib chiqaradi [4:312]. 2. Ijtimoiy munosabatlarda irqiy omillarga e'tibor berish hollari qadimdan ma'lum. Masalan, er. av. XXV asrlarda Old Osiyodan Hindistonga ko'chib borgan oriy qabilalari jamiyat hayotini tabaqalarga bo'lib boshqarishni joriy etganlar, o'zlarini esa oliy nasl vakillari hisoblaganlar. Irqiy yondoshuvlar gitlerchilar Germaniyasi va Yaponiya militaristlarining g'oyaviy quroli bo'lgan. F.Nisshening xalq, «omma daho shaxslarning yomon nusxalari» [5:219], nemislarni esa metafizik fikrlashga moyil oliy irq, deb qaragani ma'lum. Buyuk davlatchilik shovinizmida ham boshqa millat va halqlarga past nazar bilan qarash ta'siri mavjud. Ijtimoiy voqealar aslida etnososial munosabatlarning natijasidir.

Xulosa qilib aytganda, Uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri, ulug' mutaffakkir Abu Nasr Forobiy o'zining sermuhsul hayotida barcha sohalarda qilgan ijodida alohida e'tibor bilan etnosotsial munosabatlarni Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib o'rgandi. U inson va insoniyat baxtli yashashi uchun yuksak axloqiy fazilatlar bilan birga milliy va millatlararo qadriyatlarga amal qilib yashashi lozimligini ilmiy asoslab berdi.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnoma. 2020, 24.01.// www.uza.uz

2. Xayrullaev M. Uyg'onish davri va Shark mutafakkiri. –T.: 1971.

3. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. –T.: A.Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993.

4. Aberkrombi I.N., Terner B.S. Sosiologicheskiy slovar. –Kazan: Kazanskiy universitet, 1997.

5. Nisshe F. Soch. v 2 t. T. 1. –M.: Misl, 1990.

# MARKAZIY OSIYO MUTAFFAKKIRLARINING DAVLATCHILIK TO‘GRISIDAGI GOYALARI VA QARASHLARI

**Maxmudov L.Yu**
TIFT Ijtimoiy fanlar va tarix kafedrasi katta o‘qituvchisi,
**Dalak’yan Janna**
Toshkent arxitektura va qurilish universiteti katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada turkiy xalqlarni birlashtirish to’g’risidagi qarashlari hamda bu boradagi amaliy ishlari to’g’risida so’z yuritiladi. Bundan tashqari maqolada o’zbek xalqining shallanish tarixi va etnik uxshashliklari to’g’risida ham mulohazalar yuritilgan.
**Kalit so’zlar**: Turk, turkiylar, Markaziy Osiyo, identiklik, islom dini va boshqalar.

**Аннотация.** В этой статье рассказывается об Амире Темуре и его видении объединения тюркского улуса и тюркских народов в централизованном государстве, а также о его практической работе по этому вопросу. Кроме того, в статье даны размышления об истории и этнической принадлежности узбекского народа.
**Ключевые слова:** Турецкий, тюрки, среднеазиатский, идентичность, ислам и т. д.

**Annotation**

This article will talk about the views of Amir Timur and his centralized state on the unification of the Turkic Ulus and Turkic peoples, as well as his practical work on this issue. In addition, the article also reflects on the history and ethnic similarities of the shalling of the Uzbek people.
**Keywords:** Turkish, Turkish, Central Asia, Identity, Islam, etc.

Markaziy Osiyo xususan o’zbek xalqi tarixiga nazar tashlar ekanmiz, islom dini misolida bir dinning o’zi XIV-XV asrlar mobaynida unga bo’lgan turli xil yondoshuvlar natijasida ikki xil funktsiyani bajarganligini kuzatish mumkin. Bu ikki funktsiya mintaqada yuz bergan ikki buyuk uyg’onish davri bilan bog’liqdir. Ya’ni bu IX-X va XIV-XV asrlar bo’lib, aynan shu davrlarda bir tomondan o’zbek xalqi xalq sifatida shakllangan bo’lsa, ikkinchi tomondan, bu davrda milliy shakllanishdagi muhim ijtimoiy-siyosiy omillar yuz beradi. Bular - ijtimoiy omillar sifatida ma’naviyat, din, mafkura, iqtisodiyot bo’lsa, siyosiy omillar sifatida mavjud siyosiy tuzum va davlat boshqaruvi davomida erishilgan ulkan yutuqlar edi. Aynan shu davrlarda milliy shakllanish uchun ham siyosiy, ham ijtimoiy muhit mavjud edi. Islom dini zo’ravonlik asosida targ’ib qilingani bilan xalq xarakterida doimiy kurashlar natijasida shakllangan tolerantlik xususiyati milliy xarakterda har qanday zo’ravonlik yoki bag’rikenglik bilan qabul qilingan jihatlardan ham kelajak uchun yaxshilik yo’lida foydalanish sifatini shakllantirdi. Bu o’zbek xalqining identiklik jarayonida murakkab tarixiy vaziyatlardan foydalana olish, sharoitdan oqilona xulosa chiqarish kabi eng noyob fazilatlari edi.

Xususan o’zbek xalqining davlatchilik tarixiga nazar tashlaydigan bo’lsak, biz uni qadimgi Xorazm davlatidan tortib, to Amir Temurning markazlashgan davlati va undan keyingi davrlarni keltirishimiz mumkin. Bu davrlarning har biri aholi ongiga o’ziga xos tarzda ta’sir o’tkazish bilan birga, ma’lum bir dunyoqarashni ham shakllantirgan. Bugungi kunda olimlar o’zbek davlatchiligi 2700 yillik tarixga ega ekanligi haqidagi nazariyalarni ilgari surmoqda. Bu haqida tarixiy manbalar va yirik tarixiy asarlardagi ma’lumotlar ham xabar beradi. Boshqacha aytganda, tarixnavislikning rivojlanib borishi va ularda jamiyat hayotining turli yo’nalishlari bo’yicha ma’lumotlarda o’z aksini topishi, o’zbek davlatchiligi boy taraqqiyot yo’liga ega bo’lib kelganini ko’rsatadi. Bundan tashqari dunyoga mashhur Strabon, Plutarx, Kvint Kurtsiy Ruf, Gerodot kabi tarixchilar bilan birga o’rta asrlar tarixshunosligida sulolaviy tarixlarga bag’ishlangan asarlar ham buni tasdiqlaydi. Ammo davlatchilikni bosh manbai bu - xalq hisoblanadi. O’zbekiston hududida tashkil topgan ilk davlatlar

boshqa qabila va etnoslar birligi asosida vujudga keladi. Keyinchalik esa bu davlatlar siyosiy va iqtisodiy jihatdan zaifligi tufayli ular o'rnida siyosiy jihatdan ustunlikka ega bo'lgan markazlashgan davlatlar tashkil topa boshlaydi. Bu markazlashgan davlatlar siyosiy-iqtisodiy jihatdan kuchli bo'lganligi tufayligina uzoq muddat davomida boshqaruv va strategiyani saqlab tura olgan.

Shundan kelib chiqqan holda XIV asrning 60-yillarida Mavorounnahrda hukm surgan nixoyatda og'ir siyosiy va iqtisodiy vaziyat mamlakatni birlashtirib, kuchli bir davlat tashkil etishni talab qilmoqda edi. Amir Temur o'z davrining bunday talabini yaxshi tushungan va u shuning uchun ham bor e'tiborini Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzishga qaratadi. Amir Temur o'z siyosatining g'oyaviy asosini tashkil etishda o'zbek xalqining tarixiy ildizlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan turk ulusini birlashtirish maqsadiga tayandi. Bunda u xalqni birlashtirish uchun yagona e'tiqodga birlashtirish lozimligin tushungan edi. Yagona e'tiqod manbaini shakllantirish Markaziy Osiyoda islom dinining rolini oshirish, tasavvuf tariqati vakillariga tolerant munosabatda bo'lish asosida qurilgan edi. Boshqa tomondan ushbu davrda tasavvufning naqshbandiya suluki yyetakchi xarakter kasb etib, unda mehnatga, insonga bo'lgan ratsional munosabat, boshqa suluk, mazhab, din vakillariga tolerant kayfiyat ijtimoiy- siyosiy hayotda vaqt o'tib uyg'onish davri hodisasining shakllanishiga olib keldi: "So'fiylik g'oyalari ushbu davr ijtimoiy tafakkuriga ulkan ta'sir ko'rsatgan. Ulardan mavjud jamiyatning o'tkir ijtimoiy ziddiyatlarini hal etishda foydalanilgan. Bularning hammasini O'rta Osiyo jamiyatining keng qatlamlarini qamrab olgan keng harakatlariga qiyos etish mumkin. Bu jarayon XV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr jamiyatida naqshbandiya suluki va uning mashhur arbobi Xoja Ahror yyetakchi mavqega ega bo'lganda o'z cho'qqisiga ko'tarilgan".

Bunday yuksak va mashaqqatli maqsadni amalga oshirishda Amir Temur ruhoniylar, harbiylar, savdogar va shahar hunarmandlariga tabaqalariga tayanib ish tutgan. Bundan tashqari u turk, arab, va eronliklar tarixini chuqur bilgan va amaliy jihatdan foyda keltira oladigan har qanday bilimlarni qadrlagan. U davlat ishlari uchun hamma narsaning foydali tomonlarini olishga harakat qilgan hamda davlat ahamiyatiga ega bo'lgan har bir masalani hal etishda shu sohaning bilimdonlari va ulamolari bilan maslahatlashgan.

Xususan Amir Temurning hayotlik davridayoq uning harbiy san'ati va davlat boshqarish uslubiga bag'ishlangan maxsus asar yaratilib, bu asar "Temur tuzuklari" deb nomlanadi. Amir Temur va Temuriylar tarixini tadqiq etgan olimlar fikricha, bu asardagi barcha manbalar uning o'z og'zidan yozib olingan. Asarda davlatni boshqarish uslublari bilan birga bu boradagi sir-sinoatlar shuningdek, Amir Temurning davlatni boshqarish davomida erishgan ulkan yutuqlari hamda ularning sabablari haqida so'z boradi. Shuning bilan birga asarda, davlatni boshqarishda kimlarga tayanish, toju-taxt egalarining yo'nalishi va vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarini saylash, askar-sipohilarning maoshi, davlat arboblari hamda qo'shin boshliqlarining burchi va vazifalari, amirlar, vazirlar hamda boshqa mansabdorlarning davlat ishlarida ko'rsatgan alohida xizmatlarini munosib taqdirlash tartibi va boshqalar xususida bayon etiladi. Albatta Amir Temur ushbu asarda keltirib o'tilgan barcha uslub va maslahatlarga to'la amal qilgan va busiz u barpo qilgan markazlashgan davlatni tuzib bo'lmasdi ham. Chunki Movarounnahrda Amir Temur hokimiyat tepasiga kelmasidan oldingi ijtimoiy-siyosiy ahvol tang holatda bo'lib, Mavorounnahr hududida yashagan umumiy aholi turli etnik birliklar va urug'-qabilalar sifatida yashab, ularning ijtimoiy-siyosiy qarashlari ham turlicha bo'lgan. Bu esa o'z navbatida, ushbu hududda yashagan xalqlarning milliy birlik va birdamlik asosida birlashishiga to'sqinlik qilar edi. Bundan tashqari davlatchiligimiz tarixida davlat boshqaruvi haqida asar yozib qoldirgan yagona hukmdor AmirTemur hisoblanadi. U o'z zamonasi tartiblariga mos ravishda jamiyatni o'n ikki toifaga taqsimlasa-da, mohiyat e'tibori bilan bu o'n ikki toifaga barcha ijtimoiy guruhlar kirgan. Mavorounnahrni Amir Temur va Temuriylar boshqargan davrini tahlil qilishda "Temur tuzuklari" dan tashqari bir qancha boshqa tarixiy asarlarning o'rni katta albatta. Ammo bu asar boshqa asarlardan farq qilib, bu ham bo'lsa unda davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy asosda qurish g'oyasining keng targ'ib qilinganiligidir. Amir

Temur bu asardan davlatni boshqarishda keng foydalangan va shu bilan birga u davlat va jamiyatni boshqarishda asardan o'zidan keyingi hukmdorlarning ham foydalanishini targ'ib qilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. La route de Samarcand au temps de Tamerlane. Imprimerie Nationale. Paris, 1990.
2. Amir Temur in historia mundi. "Sharq", 2001.
3. Erkuziev A.A., Mamazhanova N.A. Izuchenie lichnosti Amira Timura in Europa (saeculo XVI–XVIII) // Molodoy uchenyy, 2015. N. 9. S. 959-961.


## THE ROLE OF POLEMICS IN THE DJADIDIZM MOVEMENT


**Saakyan Roza Yurevna**
Asia International University



**Abstract**. Polemics were central to the intellectual and social transformations within the Djadidizm movement in Central Asia during the late 19th and early 20th centuries. This paper explores the ways in which polemical literature served as an essential tool for the Djadid intellectuals, challenging colonial authority, religious orthodoxy, and traditionalist values. Through an analysis of key debates on education, religion, women's rights, and political autonomy, this study highlights how polemics shaped the movement's vision for modernity and national identity. The lasting impact of these polemical exchanges on Central Asian thought is examined, offering valuable insights into the intellectual history of the region. The role of print media, public debates, and rhetorical strategies employed by the Djadidists will also be analyzed to understand their effectiveness in influencing both elite and popular discourse. Finally, this paper considers how these historical debates continue to resonate in contemporary Central Asian societies, shaping discussions on nationalism, modernity, and religious reform.



**Keywords**: Djadidizm, polemics, Central Asia, intellectual history, education reform, Islamic reform, national identity, colonialism, modernization, women's rights.


**Introduction**.The Djadidizm movement emerged in Central Asia in response to the perceived stagnation caused by traditionalist practices and the oppressive colonial rule of the Russian Empire. The movement's proponents sought to modernize education, reinterpret Islamic teachings, and promote a sense of national consciousness. Central to these goals was the use of polemics—heated debates conducted through newspapers, pamphlets, and public speeches. These polemics provided a platform for Djadid intellectuals to engage in ideological struggles, challenging both colonial policies and conservative religious ideologies[169].

The intellectual atmosphere of Central Asia during this period was marked by rapid social and political change. Russian colonial expansion had introduced new administrative structures, legal codes, and educational policies that disrupted traditional ways of life. At the same time, global intellectual movements such as pan-Islamism and pan-Turkism were gaining traction, influencing local debates on identity, governance, and religious authority. The Djadidists, through their polemical writings, sought to navigate these shifting dynamics, positioning themselves as agents of progress who could bridge the gap between tradition and modernity.

Beyond their immediate concerns, the Djadidists were also part of a broader global movement of Muslim reformers who sought to redefine the role of Islam in a rapidly modernizing world. Their debates on education, women's rights, and political autonomy mirrored similar discussions happening

[169] Behbudi, M.K. (1913). Education and Reform in Central Asia.

in the Ottoman Empire, Egypt, and South Asia. By examining the polemical strategies employed by the Djadidists, we gain deeper insight into the ways in which intellectuals in colonial contexts sought to challenge existing power structures and carve out a new vision for their societies[170].

Methods

This study uses a qualitative research methodology, focusing on historical texts, periodicals, and writings produced by Djadid intellectuals during the late 19th and early 20th centuries. Key sources include works published in influential periodicals such as Taraqqiy, Sadoyi Turkiston, and Shura. These sources provide direct insights into the polemical debates of the period, allowing for a detailed analysis of the major themes, arguments, and figures involved in the Djadid movement[171].

The methodology involves several analytical approaches. First, a thematic coding of the polemical debates is conducted to identify recurring motifs in discussions on key issues such as education reform, reinterpretation of Islamic doctrine, the role of women in society, and critiques of colonial rule. This allows for a systematic categorization of arguments and rhetorical strategies used by the Djadid intellectuals.

Second, a comparative analysis is undertaken to examine how these polemics interacted with broader global intellectual trends, including pan-Islamism, pan-Turkism, and European Enlightenment thought[172].

Additionally, the study incorporates a historical-contextual approach, situating the polemical writings within the larger socio-political framework of the Russian colonial administration and the traditional Islamic institutions of Central Asia. This helps to understand the constraints and opportunities faced by the Djadid intellectuals in their reformist endeavors.

Results

The press played a pivotal role in shaping public discourse in Central Asia, serving as a primary forum for polemical debates. Newspapers like Taraqqiy and Shura became platforms where Djadid intellectuals articulated their grievances and challenged conservative and colonial forces. These periodicals were filled with articles, essays, and critiques, addressing issues such as education reform, religious orthodoxy, and political autonomy[173].

Education reform was one of the most contentious issues debated in the press. Djadid intellectuals criticized the existing madrasah system for its outdated curriculum and resistance to modern sciences, advocating instead for a more secularized, practical education system modeled after European and Ottoman schools. These debates often became personal, with conservative ulema accusing the reformers of abandoning Islamic traditions, while the Djadidists portrayed their opponents as backward and resistant to progress.

Discussion

The polemical literature of the Djadidizm movement played a crucial role in shaping the intellectual and political landscape of Central Asia. By engaging in debates on education, religion, women's rights, and political autonomy, Djadid intellectuals challenged entrenched traditions and colonial policies. These polemics were not just academic exercises; they were part of a broader ideological struggle aimed at transforming society and fostering a new vision for the future. One of the key aspects of the Djadidist polemics was their engagement with global intellectual currents. By drawing on European Enlightenment thought, Ottoman reforms, and modernist Islamic discourses, they positioned themselves as part of a wider movement of Muslim reformers seeking to modernize their societies while preserving Islamic identity. The tensions between progress and tradition, between

[170]Fitrat, A. (1923). Literature and National Awakening.
[171] Khalid, A. (2000). The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia.
[172] Spector, I. (1979). The Soviet Union and the Muslim World.
[173] Gasprinski, I. (1905). The Muslim Press and Reform.

colonialism and national identity, and between religious authority and secular knowledge were at the heart of these debates[174].

**Conclusion.** The role of polemics in the Djadidizm movement was instrumental in shaping the intellectual trajectory of Central Asia. Through their debates and writings, Djadid intellectuals challenged colonial and religious authorities, advocated for modernization, and contributed to the development of national consciousness in the region. Despite the suppression of the movement under Soviet rule, the themes and ideas that emerged from these polemical debates continue to resonate in contemporary Central Asia, influencing ongoing discussions about modernization, identity, and the role of Islam in society.

References

1. Behbudi, M.K. (1913). Education and Reform in Central Asia.
2. Fitrat, A. (1923). Literature and National Awakening.
3. Khalid, A. (2000). The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia.
4. Spector, I. (1979). The Soviet Union and the Muslim World.
5. Gasprinski, I. (1905). The Muslim Press and Reform.
6. Kamp, M. (2006). The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism.
7 Yurevna, S. R. (2024). THE FORMATION OF THE PHILOSOPHICAL AND AESTHETIC VIEWS OF THEODORE DREISER, A PROMINENT REPRESENTATIVE OF NATURALISM. Western European Journal of Linguistics and Education, 2(5), 171-174.
8. Yurevna, S. R., & Djalilovna, J. L. (2023). IRONY IN ENGLISH LANGUAGE FICTION AS AN EXPRESSION OF THE AUTHOR'S WORLDVIEW. Intent Research Scientific Journal, 2(10), 135-140.

## YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI "ALPOMISH" DOSTONI ORQALI SINGDIRISH

**Sattorova Muborak-**
Navoiy davlat universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Bu maqolada "Alpomish" dostonining bugungi kunda ham yosh avlodlarni tarbiyalashda milliy qadriyatlarimiz namunalaridan biri sifatida vazifa bajarib kelayotganligi haqida fikr yuritilgan.
Kalit so`zlar: Doston, vatanparvarlik, sevgi, personaj, xalq madaniyati, urf-odat, xalq, orzu, qadriyat, meros mardlik,qahramonlik.
Аннотация. В этой статье рассматривается, как дастан «Алпамыш» по-прежнему играет важную роль в воспитании молодого поколения как один из примеров национальных ценностей.
Ключевые слова: Дастан, патриотизм, любовь, персонаж, народная культура, традиции, народ, мечта, ценность, наследие, мужество, героизм.
Annotation. This article examines how the epic "Alpomish" still plays a significant role in educating the younger generation as an example of national values.
Keywords:Epic, patriotism, love, character, folk culture, traditions, people, dream, value, heritage, courage, heroism.

[174] Kamp, M. (2006). The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism.

Alpomish” dostoni qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi, sevgi va sadoqat, oila mustahkamligi va urug‘lar birligini kuylovchi ulkan eposdir. Respublikamizning birinchi prezidenti Islom Karimov aytganidek, “Xalqimizning qadimiy va shonl itarixi tuganmas bir doston bo‘lsa, “Alpomish” ana shu dostonning shoh baytidi. Bu doston bizga insonparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqqoniy bo‘lishni, vatanimizni, oila qo‘rg‘onimizni qo‘riqlashni, do‘stu yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishni o‘rgatadi.

“Alpomish” – o`bek xalq og‘zaki ijodidagi qahramon personaj. Turkiy xalqlarda og‘izdan og‘izga o`tib kelayotgan biylarning sardori. Turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan. “Alpomish”ning qoraqalpoq, qozoq, oltoy versiyalari doston shaklida, tatar va boshqird versiyalari ertak va rivoyat shaklida bizgacha yetib kelgan.

1999-yilda O`zbekistonda “Alpomish” dostoninig 1000 yilligi keng nishonlandi. O`zbekiston Respublikasi Birinchi prezidenti I.A.Karimov “Alpomish” dostoninig 1000 yilligiga bag‘ishlab so`zlagan nutqida: “Alpomish” dostoni o`zbek xalqi tarixida, madaniyati va ma’naviyatida milly va umuminsoniy qadriyatlar timsoli sifatida juda katta o`rin tutadi. Bu doston bugungi kunda ham kelajak avlodlarni barkamol shaxs qilib tarbiyalashda milliy qadriyatlarimiz namunalaridan biri sifatida vazifa bajarmoqda. Doston zamiridagi jo`mardlik, qahramonlik, do`stlik, adolat tushunchalari va ona-Vatanga, vatandoshlarga muhabbat tuyg‘usi, mustaqillik davridagi milliy istiqlol mafkurasi g‘oyalari bilan hamohang bo`lganligi uchun ham mazkur dostonga e’tibor yanada kuchaymoqda.[175]

Dostonning 1000 yilligining xalqaro madaniy tadbir sifatida nishonlanishi, asarning to`liq nashri yaratilib, kitobxon va adabiyotshunoslar diqqatiga havola qilinishi, asar asosida ssenariy yaratilib, mohirona ekranlashtirilgani ushbu buyuk qadriyatimizga xalqimiz va hukumatimizning katta e’tiboridan darak beradi.

“Alpomish” dostoniga ilmiy munosabat o`zbek folklorshunosligida kattagina hajmga egadir. E’tirof etish kerakki, dostonga munosabat g‘oyat xilma-xildir. Xalqimiz dard va intilishlarini, orzulari ifodasi bilan yo`g‘rilgan mazkur adabiy merosga ne-ne tuhmat toshlari yog‘ilmadi, asar qahramonlaridan tortib uni kuylagan baxshilar sha’niga ne-ne qarshiliklar bo`lmadi. Xalq ijodiyoti jonkuyarlari va millatparvar ustozlarning say’i harakatlari tufayligina doston qatog‘on qilichidan asrab qolindi.[176] Ilmu fanning qizig‘i ham shunda bo‘lsa kera –“Alpomish” dostonini o`rganish jarayoni bundan keyin ham bir tekis taraqqiy qilmoqda. Dostonni tahlil va talqin qilishga qarshi aqidalaridan voz kechish ancha qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi.

E’tirof etish kerakki, XX asr folklorshunosligida “Alpomish” dostoniga bag‘ishlangan o`nlab tadqiqotlar yaratildi: monografiya, risola va maqolalar e’lon qilindi; dissertatsiyalar yoqlandi. Bu jarayon bugungi kunda ham davom etmoqda. Ushbu buyuk dostonning g‘oyaviy-badiiy jihatlari, qahramonlar xarakteriga xos bo`lgan mardlik va vatanparvarlik, do`stlik va salbiy qahramonlarga xos bo`lmish illatli xususiyatlar ochib berilmoqda. Asarning xalq ma’naviyati tarixidagi o`rni va roli xususidagi mulohazalar o`rtaga tashlanmoqda.

Doston u yoki bu jihatlari uzoq-yaqin xalqlar folkloriga mansub asarlar bilan chog‘ishtirilib, muayyan xulosalar chiqarilmoqda. Ularning qariyb barchasida ta’kidlanayotgan bitta ilmiy haqiqat shuki, doston turkiy xalqlar tarixi bilan uzviy bog‘liq bo`lib, uni o`qish va o`rganish avlodlar uchun ham milliy va ma’rifiy, ham ma’naviy- estetik ahamiyat kasb etadi. Alohida ta’kidlash joizki, mamlakatimiz ko‘pmillatli davlatdir. Respublikamiz maktablarida mamlakatda istiqomat qilayotgan 100 ga yaqin millat va elatlarning bolalari bir ota-ona farzandlaridek yonma-yon o‘tirishib ta’lim olishmoqda. Ushbu do‘stona vaziyatni yanada mustahkamlash, o‘tmish tarix va milliy qadriyatlarga

[175] . “Alpomish” – o`zbek xalq qahramonlik eposi”, T., 1999.3-bet.

[176] Mirzayev T., “Alpomish” dostonininig o`zbek variantlari, T., 1968;

o‘zaro hurmatni shakllantirishda “Alpomish” dostoni ham o‘ziga xos vazifa bajarishiga hech qanday shak-shubha yo`q.

“Alpomish” xalq dostonini tahlil qilish va o`rganish jarayonida faqat obrazlarga tasnif berish, tilning u yoki bu unsurlari bilan bog‘liq faktlarning o`zini qayd etish yaxshi samara bermaydi deb o`ylaymiz. Balki, dostondagi yyetakchi g‘oyalarga, milliy va umumbashariy ahamiyatga molik omillarga, ularning ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimi bilan bog‘liq asosiy nuqtalarga ko`proq e’tibor qaratish lozim. Asarni tahlil qilayotgan paytda, eng avvalo o`qituvchining faoliyati mana shu jihatlarni, shu o`quv faoliyatda o`quvchilarning ham milliy va ma’naviy, ham axloqiy tarbiyasini rivojlantirishga o`rin berilishi lozim.

Biz xalq og‘zaki ijodiga mansub “Alpomish” dostoni yuzasidan ayrim fikr va mulohazalarga nazar tashladik. Yosh avlodga bu dostonni o`qish va o`rgatish orqali baxshilarimizning so‘z daholari ekanliklariga, har bir so‘z, har bir tasvir, har bir misra qatiga milliylikni mohirona singdira olganliklarini yetkazish mumkin. Bu doston qatlaridan o‘zbek va qoraqalpoq xalqlarining tarixini, urf-odatlarini, dunyoqarashidagi eng nozik, bir qarashda ilg‘amaydigan yoxud e’tibor bermaydigan jihatlarni, o`zbek va qorqalpoqlarning tafakkur tarzini, hamma-hammasini topa olish mumkin. Boshqa hech bir dostonda bunday milliylikni, bunday go‘zallikni, bunday badiiylikni va bunday samimiylikni ko‘rib bo‘lmasa kerak!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Alpomish” – o`zbek xalq qahramonlik eposi”, T., 1999.
2. Mirzayev T., “Alpomish” dostonininig o`zbek variantlari, T., 1968;
3. To`ra Mirzayev. O`zME. Birinchi jild.Toshkent, 2000-yil.

## FAROBIYNING ILM VA TARBIYA BORASIDAGI ILMIY MEROSI

**Sadikova Roza Ismailovna-**
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
“Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotation in this article, a scientific analysis of ideas about the structure of Forobius being, the nature of nature, the role of reason and science, the character of social life was published.

Forobiyning o‘rta asr ilg‘or fikri taraqqiyotidagi o‘rni va rolini ta’riflaganda, avvalo, uning qadimgi yunon olimlari asarlarini tarjima qilganligini va ularga yozgan sharhlarining ahamiyatini ko‘rsatib o‘tish lozim. Farobiy qadimgi yunon donishmandlari Platon, Aristotel, Epikur, Zenon, Ptolomey, Evklid kabilarning asarlarini chuqur tahlil qildi va ularga sharhlar yozib, sharq ilmiy dunyosini tanishtirdi. Mutafakkir o‘z sharhlarida ularning qarashlariga o‘zining ilmiy va amaliy munosabatlarini ham bildirdi, bu bilan qomusiy bilim egasi ekanligini ko‘rsatdi. Qomusiy aqli va fanga qo‘shgan ulkan hissa uchun Forobiy “al-Muslim as-Soniy (Ikkinchi Muallim)”, “Sharq Aristoteli” degan unvon oldi. Forobiy o‘z asarlarida har bir sohada aql tamoyillariga va narsalarning ob’ektiv munosabatlariga mos keladigan haqiqiy ahvolni bilishga, uni isbot qilishga erishdi. U “Inson tanasining a’zolari haqidagi” risolasida inson organizmi bilan ijtimoiy-siyosiy muhitning o‘zaro birligiga, insonning ruhiy va jismoniy holatining tashqi muhit ta’siriga bog‘liqligiga e’tibor qaratdi. Forobiy “Bo‘shliq haqidagi risola”da mutlaq bo‘shliqning bo‘lishi mumkin emasligini va tabiatda fazoni tashkil etuvchi ko‘zga ko‘rinmaydigan zarrachalar mavjud degan fikrni aytadi. U yunon va sharq mantiqshunoslarini chuqur o‘rgandi va ularni rivojlantirdi. U mantiq ilmini eng to‘g‘ri fikrlashning shakllari va qoidalari haqidagi ilm, to‘g‘ri bilimga erisha oladigan omil deb ko‘rsatdi. Forobiy ilmga va ilmiylikka e’tibor berib, faqat ilmda borliqning birdan bir to‘g‘ri holati aks etishdan iborat degan o‘lchamni-mezonni ilgari suradi. Uning fikricha, bilimlar borliqdan kelib chiqadi va

insonning o‘z ehtiyoji uchun borliqni o‘rganishi jarayonida tinimsiz bilimlarimiz oshib boradi. Barcha ilmlar yig‘masi dunyoni birligiga va Forobiy o‘z sharhlarida “O‘zi qonunni mensimaydigan va shu bilan birga, qo‘li ostidagilarni ham shunga undaydiganlar o‘z xatti-harakatlari ila katta tartibsizliklar keltirib chiqaradilar. Xalq qonunlarga ehtiyoj sezishi va ularni chuqur o‘rganishlari zarur, chunki ular keyinchalik xalqning o‘ziga foyda keltiradilar”, - deb qayd etadi [1:25]. Jamiyat rivoji uchun oqil, idrokli insonlar borligi muhimligi to‘g‘risida u oqil, idrokli insonlar xohlagan narsa yaxshi, farahbaxshdir, lekin nodonlarning xohlaganlarini rad etmoq kerakligini, hokimning tarbiyali, boshqaruvning ko‘ngildagidek bo‘lishi shahar aholisi uchun juda muhimligini tushuntiradi. Yaxshi boshqaruv yaxshi qonunlarga bog‘liq, yomon boshqaruv yomon qonunlarga, yetuk boshqaruv yetuk qonunlarga bog‘liq degan qoidalarni u o‘z sharhlarida keltiradi. Forobiy inson axloqiy fazilatlari, ruhi va badani e’zozlanishini, odamlar o‘rtasidagi tenglik ularning har biriga ato etilgan, o‘zlari munosib bo‘lgan mavqedir, - deb uqtiradi [2:38-40]. Forobiy o‘z sharhlarida yoshlarning jismoniy mashqlari foydaliligi, xalq urf-odatlari, bayramlari ularga ko‘ngilxushlik berishlari, yoshlarning oqilona va xayrli ishlariga, e’tibor qilinadigan erlarga, ibodatxonalarga katta e’tibor berishligini, muqaddas uylar va inshootlarni ziyorat qilishlikni uqtiradi va bu ishlarni sohibi qonunlar-rahbarlar amalga oshiradilar, deb ko‘rsatadi. U Platonning inson va oliy jamiyat to‘g‘risidagi ta’limotini rivojlantirib “agar odamlar oliy fazilatga ega bo‘lsalar u holda ular juda baxtiyordirlar”, - deydi [3:65]. Forobiy Arastuni o‘rganishida agar inson g‘ayriaxloqiy, go‘zallik, olijanoblik va ulug‘vorlikka o‘zi va o‘z ruhi o‘rtasidagi mavjud narsa orqali erishgan bo‘lsa, u barkamolikka erishgan bo‘ladi. Fikrlash va tahlil etish tufayli odam o‘zida avvaldan noma’lum bo‘lgan bitiklarni topadi, - deb ko‘rsatadi [4:72]. Ma’lumki (bu falsafiy qonuniyat) insonlar zarurat sababli o‘zlari ehtiyoj sezgan holatlarni bilishga, idrok etishga intiladilar. Ammo insonni o‘rab turgan tabiat, koinot, jamiyat muammolari behisobki, buning barchasini bir yoki bir necha insonlarning bilishlari, tushunib etishlari, haqiqiy manzara mohiyatini to‘liq anglash juda qiyin. Forobiy inson intilayotgan narsalar haddan ziyodmi, bu insonga tabiatan xosmi, uni chegaralash yoki bosib turish kerak-mi? degan savollarga javob berib, bular barchasi mulohazalar yuritishni talab qiladi, ular bo‘yicha turli fikrlar mavjud, – deb ko‘rsatadi. Demak, dunyoning tuzilishi va insonning uni bilishga intilishi o‘zi murakkab bo‘lib, bunda tafakkurli inson haqiqiy bilimlarga, garchi ular hali nisbiy bo‘lsalarda intilib yashaydilar. Inson koinotning bir bo‘lagi ekan, uning maqsadini bilish uchun avvalo butun koinotning maqsadini bilib olishimiz kerak degan xulosa kelib chiqadi. Forobiy Arastuning turli turkum va darajadagi odamlarni qanday, nimalarga, bilimlarning qaysi turlariga o‘rgatish zarurligini tushuntiradi, toki ular o‘zi intilayotgan maqsadni yaxshi tasavvur etsak, olgan bilimlari bilan johiliyatdan qutulib shu bilimlarni o‘zlariga rahnoma, dastur qilib olsin degan g‘oyasini ma’qullaydi. U o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida ilk borliq – Tangri ta’rifi yo‘qligi, ilk borliq-javhar-aslini maydonga keltiruvchi narsalarga bo‘linmaydigandir, degan fikrni beradi. U Tangri ilk borliqdir, U bo‘linmasdir, U Birinchi Borliq o‘z javharidan ham bo‘linmasdir, U modda emas ham, U o‘z mohiyati bilan fe’lli aqldan iboratdir, - deb ko‘rsatdi [5:181-182]. Forobiy ko‘rsatishicha Birinchi Borliq o‘zining kamolotiga ko‘ra boshqa barcha narsalardan ajralib turadi. U (Tangri) o‘z zoti bilan ulug‘vor, olijanob va sharafli bo‘ladi, uning asli o‘zidan boshqa har qanday bir narsaga qaram emas, u o‘zi boqishidan buyuklikka, o‘zi boqishidan shon-sharafga sohibdir. Bu sifatlar tangrining ulug‘vorligidandir. Forobiy borliq to‘g‘risida ilk borliq bu shuki, undan barcha borliq vujudga keladi boshqalari usiz yashay olmaydi, ilk borliq faqat o‘zining borlig‘i uchun mavjud, boshqa mavjudot esa uning o‘zida bordir deydi. U mavjudoti soniy (ikkinchi mavjudot) to‘g‘risida fikrlab, birinchi mavjud (Haq ta’alo)dan taralgan ketma ketlikda olamda o‘n bitta borliq mavjudligini va ular barchasi birinchi sababdan kuch-quvvat oladi, deb isbot beradi

Forobiy barkamol inson to‘g‘risida to‘xtalib, odam insoniy kamolot cho‘qqisiga etgani sababli eng a’lo baxt-saodatga etishgan odamdir. Uning ruhi faol aql bilan bog‘langani, u barcha insonlarni haqiqiy baxt-saodatga etaklaydi, - deb ko‘rsatadi. Forobiy o‘zining bu fikrlarini Fozil shahar (davlati) hokimi sifatlarini ko‘rsatishda rivojlantirdi Fozillar shahrining birinchi boshlig‘i shu shahar aholisiga

imomlik qiluvchi oqil kishi bo‘lib, u tabiatan o‘n ikkita xislat-fazilatni o‘zida birlashtirgan bo‘lishi zarurligini ko‘rsatdi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak Forobiy o‘zining qator falsafiy, mantiqiy ta’limotlari bilan butun dunyo ilm-u ma’rifatiga ulug‘vor hissa qo‘shdi va xalqimiz tarixida dastlabki Uyg‘onish davrining shakllanishini boshlab berdi. Hozirgi kunda yoshlarning ma’naviy dunyosini yanada mukammallashtirishda, ilm-bilim olishini takomillashtirishda alloma bobolarimiz meroslarini chuqur o‘rganish dolzarb ekanligini yana bir bor anglamoq zarur.

ADABIYOTLAR:

1.Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: A.Qodiriy, 1993.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: A.Qodiriy, 1993.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: A.Qodiriy, 1993.
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: A.Qodiriy, 1993.
5. Abu Nasr Forobiy, Ilmlarning kelib chiqishi. –Toshkent.:Yangi asr avlodi. 2016

## TIBBIYOT HODIMI HAMDA BEMOR MUNOSABATLARI

**Quvondiqova Yulduz-**
Navoiy Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi
yetakchi o‘qituvchisi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Tibbiyot hodimi hamda bemor munosabatlari haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Shifokor, bemor, deontologiya, kasalliklar, dori-darmon, tibbiy etika.

Tibbiyot deontologiyasi – tibbiyot xodimlarining kasbga aloqador etikasi, doridarmon, umuman davoning ta’sirini oshirishga karatilgan xulq-atvor taomillari. Deontologiya, ya’ni kishining xulqi, odobi haqidagi tushuncha XVI asrning boshlarida ingliz faylasufi va iqtisodchisi I. Bentam tomonidan taomilga kiritilgan. Tibbiyot deontologiyasiga oid ma’lumotlar uzoq tarixga ega. Aslida, Tibbiyot deontologiyasi keng falsafiy mazmunga ega bo‘lib, bir qancha yo‘nalishlardan iborat:[1]

- shifokor bilan bemor o‘rtasidagi;
- shifokor bilan bemorning yaqin kishilari o‘rtasidagi munosabat;
- shifokorning hamkasblari bilan munosabati va h.k.

Tibbiyot deontologiyasiga vrachning sir saklashi, bemorning hayoti va sog‘lig‘i uchun tibbiyot xodimining javobgarligi, tibbiyot xodimlarining o‘zaro munosabati masalalari va boshqa kiradi. Tibbiyot deontologiyasiga muvofiq, tibbiyot xodimi bemorga katta e’tibor berishi, uning sog‘lig‘ini tiklash yoki azobini yengillatish uchun butun bilimini sarflashi, bemorga uning sog‘lig‘i haqidagi faqat foyda keltira oladigan ma’lumotlarni aytishi (qarang Psixoterapiya), bemorning vrach bilan sirdosh bo‘lishiga erishuvi zarur. Bemorning kasalligi haqida uning ishtirokida hamkasblari bilan so‘zlashishi yaramaydi.Tibbiyot deontologiyasining tibbiyot amaliyotida to‘g‘ri joriy qilinishi, shifokorning ongi, saviyasi, madaniyati, dunyoqarashi, bilim va qaysi jamiyatda yashayotganligi bilan chambarchas bog‘liq.

Kishilik jamiyatining turli davrlarida deontologik munosabatlar turlicha kechgan, u zamon talabiga moye ravishda o‘zgarib borgan. Tibbiyot deontologiyasi tibbiyot xodimlaridan yuksak insoniy fazilatlar, sofdillik, ziyraklik, odamiylik va boshqalarga ega bo‘lishni taqozo etadi. Tibbiyot deontologiyasi xalqaro kodeksini Xalqaro vrachlar jamiyati tasdikdagan (1949, Jeneva). O‘zbekiston Respublikasida tibbiyot intini bitiruvchilar „O‘zbekiston shifokori“ning qasamyodini qabul qiladilar (1996-yildan).Shifokorning bemor bilan munosabati.Bu yerda tibbiy etika va tibbiy deontologiya eng

katta ahamiyatga ega. Haqiqat shundaki, ularga rioya qilmasdan, bemor va shifokor o‘rtasida ishonchli munosabatlar o‘rnatilishi ehtimoldan yiroq emas va bu holda kasal odamni tiklash jarayoni sezilarli darajada kechiktiriladi.[2] Bemorning ishonchini qozonish uchun, deontologiyaga ko‘ra, shifokor o‘ziga professional bo‘lmagan iboralar va jargonlarni ishlatishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak, shu bilan birga u bemorga kasallikning mohiyati haqida ham, shuningdek, bajarilishi kerak bo‘lgan asosiy choralar to‘g‘risida ham aniq aytib berishi kerak. to‘liq tiklanishiga erishish uchun olinishi kerak. Agar shifokor buni qilsa, u o‘z bo‘limidan javob topishi aniq.

Haqiqat shundaki, bemor shifokorga 100 foiz ishonishi mumkin, agar u haqiqatan ham o‘zining professional darajasiga ishongan bo‘lsa.Ko‘pgina shifokorlar tibbiy etika va tibbiy deontologiya bemorni chalg‘itishni taqiqlashini unutishadi va o‘z holatlarini mohiyatini odamga etkazmasdan, o‘zlarini keraksiz darajada ifoda etadilar. Bu bemorda qo‘shimcha qo‘rquvni keltirib chiqaradi, bu hech qachon tezda tiklanishiga yordam bermaydi va shifokor bilan munosabatlarga juda zararli ta’sir ko‘rsatishi mumkin.[3] Bundan tashqari, tibbiy etika va deontologiya shifokorning bemor haqida tarqalishiga yo‘l qo‘ymaydi. Shu bilan birga, ushbu qoidaga nafaqat do‘stlar va oila a’zolari, balki ma’lum bir odamni davolashda qatnashmaydigan hamkasblar ham amal qilishlari kerak.[4] Shifokor va bemor o‘rtasida bir nechta aloqa modellari mavjud: axborot (impassiv shifokor, butunlay mustaqil bemor); izohlovchi (ishontiruvchi shifokor); maslahat (ishonch va o‘zaro kelishuv); paternalistik (vasiy vrachi) T. Parsons shifokor va bemor uchun ideal rol turlarini ishlab chiqdi. Garchi shifokor va bemor, uning fikriga ko‘ra, umumiy maqsad - ikkinchisining sog‘lig‘ini tiklash bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ularning vazifalari va imtiyozlari keskin farqlanadi.Bemor: 1) sizning ahvolingizni bemor sifatida rag‘batlantirish; 2) potentsial yordam so‘rash; 3) shifokorga ishonish; 4) odatdagi vazifalardan va ularning holati uchun javobgarlikdan ozod qilinadi. Professional shifokorning roli quyidagi talablarga javob berganda:

1) o‘z manfaati uchun emas, balki bemorning farovonligi uchun harakat qilish;

2) har qanday shaxsiy munosabatlar va guruhga bog‘liqlik bilan emas, balki kasbiy xulq-atvor qoidalarini (universalizm) boshqarishi kerak;

3) kasallikni nazorat qilish maqsadida kasbiy bilimlaridan maksimal darajada foydalanish (funktsional o‘ziga xoslik);

4) ob’ektiv va hissiy jihatdan uzilib qolish (samarali betaraflik). Albatta, bu yerda sotsiologiyadan ko‘ra ko‘proq psixologiya mavjud. Maks Veber ham ijtimoiy harakatni tahlil qilishda ushbu farqlarga e’tibor bergan. Hamshira va shifokor munosabatlari. Deontologiya xodimlarning bir-biriga nisbatan hurmatli munosabatini talab qiladi. Aks holda, jamoa uyg‘un ishlay olmaydi. Kasalxonada kasbiy munosabatlarning asosiy bo‘g‘ini - bu shifokorlarning hamshiralar bilan o‘zaro aloqasi.

Avvalo hamshiralar bo‘ysunishni kuzatishni o‘rganishlari kerak. Agar shifokor juda yosh bo‘lsa ham, hamshira o‘n o‘n yildan ortiq ishlagan bo‘lsa ham, u barcha retseptlariga rioya qilgan holda unga oqsoqol kabi munosabatda bo‘lishi kerak. Bu tibbiy axloq va deontologiyaning asosiy asoslari.Ayniqsa, shifokorlar bilan munosabatlarda bunday qoidalarga hamshiralar tomonidan bemorning huzurida rioya qilish kerak. U tayinlashlarini jamoani boshqarishga qodir bo‘lgan yetakchining o‘ziga xos hurmatga sazovor shaxs tomonidan amalga oshirilishini ko‘rishi kerak. Bunday holda, uning shifokorga bo‘lgan ishonchi ayniqsa kuchli bo‘ladi. Shu bilan birga, axloqshunoslik va deontologiya asoslari hamshiraga, agar u etarlicha tajribaga ega bo‘lsa, yangi boshlagan shifokorga, masalan, uning salafi muayyan vaziyatda ma’lum bir tarzda harakat qilgani haqida shama qilishni taqiqlamaydi.

Norasmiy va odobli shaklda ifodalangan bunday tavsiyalar yosh shifokor tomonidan haqoratlash yoki uning kasbiy imkoniyatlarini kamsitish sifatida qabul qilinmaydi. Oxir oqibat, u o‘z vaqtida tezkor yordam uchun minnatdor bo‘ladi Xulosa: Shifokor va bemor o‘rtasida o‘zaro tushunishni o‘rnatishning eng muhim shartlaridan biri bu tuyg‘u qo‘llab-quvvatlash. Agar bemor shifokor yordam

berishni emas, balki yordam berishni niyat qilganini tushunsa, u davolanish jarayonida faolroq ishtirok etishi mumkin. Shifokor ko‘rsatganda tushunish, odam uning shikoyatlari eshitilganiga, shifokorning fikriga o‘rnatilganiga amin va u ularni mulohaza qiladi. Ushbu tuyg‘u shifokor: "Men seni eshitaman va tushunaman", - deganida yoki uni boshini qimirlatib yoki bildirganida kuchaytiradi.

Hurmat insonning shaxs sifatida qadr-qimmatini tan olishni nazarda tutadi. Bu, ayniqsa, anamnezni yig‘ish bosqichlarida, shifokor bemorning hayot sharoitlari bilan tanishganda juda muhimdir. Hamdardlik Bemor bilan hamkorlikni o‘rnatishning kalitidir. Siz o‘zingizni bemorning o‘rniga qo‘yishingiz va dunyoga uning ko‘zlari bilan qarashingiz kerak. Kasallikning ichki rasmini - bemor boshdan kechirgan va boshdan kechirgan barcha narsalarni, nafaqat uning mahalliy hissiyotlarini, balki umumiy farovonlikni, o‘zini kuzatishni, uning kasalligi haqidagi g‘oyasini tushunish va hisobga olish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Y.Fayziyev Umumiy va tibbiy psixologiya Toshkent-2020[1]

2. Z.Ubaydullayev Tibbiyot psixologiyasi Toshkent-2019[2] 3. Sh.Maxmudova Kasb kasalliklari Toshkent-2013[

## TIBBIY SUG‘URTA: AMALDAGI TURLARINI RIVOJLANTIRISH VA MAJBURIY TURINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI

**Boymurodova Mahliyo-**
Navoiy Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi
yyetakchi o‘qituvchisi.

**Annotasiya:** Mazkur maqolada tibbiy sug‘urtaning aholini ijtimoiy himoyalashdagi ahamiyati, uni omma orasida keng targ‘ib qilishning muhimligi hamda majburiy tibbiy sug‘urtani bosqichmabosqich joriy etish tizimini tugallab, uni ommaviy ravishda amal qilishini joriy etish zarurati bayon qilingan. Shuningdek, ixtiyoriy tibbiy sug‘urtani rivojlantirish yo‘nalishlari belgilangan hamda majburiy turini joriy etishga to‘sqinlik qilayotgan jihatlar aniqlangan va ularni bartaraf etish bo‘yicha ko‘rsatmalar berilgan.

**Tayanch so‘zlar:** tibbiy sug‘urta, majburiy tibbiy sug‘urta, sug‘urtalovchi, sug‘urtalanuvchi, sug‘urtalangan shaxs, sug‘urta mukofoti, sug‘urta qoplamasi, ijtimoiy ajratmalar, assistanslar, sug‘urta polislari.

O‘zbekistonda tibbiy sug‘urta majburiy bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, respublikada “Tibbiy sug‘urta to‘g‘risida”gi qonun loyihasi konsepsiyasini ishlab chiqish rejalashtirilganligi aytib o‘tilgan[1]. Mazkur qonun bilan har bir fuqaroni tibbiy sug‘urta tizimi bilan qamrab olish umumiy va majburiy bo‘lishi hamda ularning tibbiy va profilaktik xizmatlarga teng huquqi, shuningdek, sug‘urta polisiga muvofiq yuqori sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish kafolati belgilab qo‘yilgan. Tibbiy sug‘urta - sug‘urtalanuvchi tomonidan to‘plangan mablag‘lar hisobidan sug‘urta hodisasi yuz bergan taqdirda tibbiy yordam uchun to‘lov kafolati sifatida ifodalangan sog‘liqni saqlash sohasida aholining manfaatlarini ijtimoiy muhofaza qilishning bir shakli.

Tibbiy sug‘urta, fuqarolarga kasallik bo‘lgan taqdirda sug‘urta hodisasi (sog‘lig‘ining buzilishi) holatlarida muayyan hajmdagi tibbiy xizmatni bepul taqdim etishga kafolat beradi, sug‘urta tibbiy muassasasi bilan shartnoma mavjudligini tasdiqlaydi. Majburiy tibbiy sug‘urta sug‘urta hodisasi yuz berganda sug‘urtalangan shaxsga majburiy tibbiy sug‘urta hisobiga bepul tibbiy yordam ko‘rsatishni

kafolatlovchi davlat tomonidan yaratilgan huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy choralar tizimi bo‘lgan majburiy ijtimoiy sug‘urta turi hisoblanadi.

Bugun mamlakatda majburiy tibbiy sug‘urtani joriy etish imkoniyatlari va shartlari tez-tez muhokama etilmoqda. Majburiy sug‘urtaning ushbu turi joriy etilishi sog‘liqni saqlash tizimi hamda sug‘urta sohasini isloh qilishga oid ba’zi hukumat dasturlarida ham ko‘zda tutilmoqda. Majburiy tibbiy sug‘urtani joriy etish imkoniyatlarini ko‘rib chiqishdan avval tibbiy sug‘urtaning o‘zi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tishni lozim topdik.

Tibbiy sug‘urta sug‘urtaning bir turi bo‘lib, unda sug‘urtalanuvchi sug‘urta tashkiloti bilan kelishilgan ma’lum haq (sug‘urta mukofoti) evaziga tibbiy xizmatdan foydalanish bo‘yicha xarajatlarning yuzaga kelish xavfini sug‘urta shartnomasida kelishilgan summa va shartlar asosida sug‘urta tashkilotiga o‘tkazadi. Sug‘urtalanuvchi salomatligi yomonlashganligi sababli xarajat qilishga majbur bo‘lganda sug‘urta tashkiloti ushbu xarajatlarni sug‘urta shartnomasida ko‘rsatilgan pul mablaglari doirasida qoplab beradi. Agar tibbiy sug‘urta shartnomasi ixtiyoriy tarzda tuzilsa, u holda ixtiyoriy tibbiy sug‘urta hisoblanadi. Tibbiy sug‘urta shartnomasi qonun asosida majburiy tarzda tuziladigan bo‘lsa, ya’ni fuqarolar qonunga binoan tibbiy sug‘urta shartnomasi tuzishga majbur bo‘lsalar, u holda sug‘urtaning bu turi majburiy tibbiy sug‘urta hisoblanadi.

Qonunchilikka asosan majburiy tibbiy sug‘urta ijtimoiy yo‘naltirilgan sug‘urta turi hisoblangani bois ushbu sug‘urta turini amalga oshiruvchi sug‘urta tashkilotlari uchun moliyaviy barqarorlik va to‘lov qobiliyatiga oid qo‘shimcha talablar qo‘yilishi mumkin. Bunda shuni ta’kidlash lozimki, majburiy tibbiy sug‘urta ijtimoiy sug‘urta ko‘rinishida ham amalga oshirilishi mumkin. Ijtimoiy sug‘urtaning odatdagi sug‘urtadan farq qiluvchi tomoni shundaki, ijtimoiy sug‘urtada yagona ijtimoiy sug‘urta fondi yaratiladi va bu fond asosan sug‘urta mablag‘larini to‘plab, tijorat maqsadlarini ko‘zlamagan holda mablag‘larni mo‘ljaldagi maqsadlarga qayta taqsimlaydi.

Majburiy tibbiy sug‘urtani ijtimoiy sug‘urta sifatida amalga oshirganda bu sohadagi munosabatlar sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilik doirasiga tushmaydi. Bu o‘z navbatida ushbu sohadagi munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi yangicha me’yoriy-huquqiy aktlar majmuasini ishlab chiqishni talab etadi, bu muammolarni hal etishning samarali vositalaridan biri, shubhasiz, mamlakatimizda tibbiy sug‘urtaning imkoniyatlaridan samarali foydalanish hisoblanadi. Tibbiy sug‘urtaning amaldagi turlarini rivojlantirish hamda majburiy turini joriy etish bilan birgalikda uni samarali tashkil etish ayni soha taraqqiy etgan mamlakatlar tartibi va tajribasini o‘rganishni va qo‘llash mumkin bo‘lgan jihatlarni aniqlashni taqozo etadi. Shu bois, rivojlangan davlatlar amaliyotidan namunali jihatlarni keltiramiz.

G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining ko‘pchiligida ixtiyoriy va majburiy tibbiy sug‘urta tizimi davolanish uchun moliyaviy xarajatlar og‘irligini alohida olingan fuqarolardan jamiyatga yuklash zarurati natijasida vujudga kelgan. Bunday yordam XX asrga qadar beistisno tarzda xususiy, professional tashkilotlar va jamiyatlar tomonidan ta’minlangan. Shundan so‘ng tibbiy yordamni moliyalashtirish bo‘yicha davlatning mavqei osha bordi. Ko‘pgina mamlakatlarda kasaba uyushmalari ta’siri ostida sug‘urtalashning davlat tizimi rivojlanishi natijasida hunarmandlar, sanoat ishchilari bu borada aholining boshqa guruhlariga nisbatan birinchilar qatorida imtiyozga ega bo‘la boshladilar. Xususan, Germaniyada ijtimoiy sug‘urtaga daromadlarni taqsimlashning muhim mexanizmi sifatida yondashiladi. Bunda majburiy tibbiy sug‘urta bilan aholining tahminan 90 foizi qamrab olingan. Aholining taxminan 10 foizi, ya’ni yuqori va juda yuqori daromadga ega qatlami faqat ixtiyoriy tibbiy sug‘urta xizmatlaridan foydalanadi, majburiy tibbiy sug‘urta tizimiga kiruvchi taxminan yana 5 foiz aholi qo‘shimcha ravishda ixtiyoriy tibbiy sug‘urtadan ham foydalanadi, bu esa boshqa shifokorni tanlash, gospitallashning qulayroq usullarini tanlab olish yoki kasallanganda qo‘shimcha tovon puli olish imkonini yaratadi. Germaniyada har bir tizim faoliyat ko‘rsatish manbalarining shakllanishiga ko‘ra quyidagicha moliyalashtiriladi, sog‘liqni saqlashni moliyalashtirishning 60 foizi majburiy tibbiy sug‘urta fondlariga to‘lanadigan badallar orqali, 10 foizi tijorat asosidagi sug‘urtalash mablag‘lari

hisobiga, taxminan 15 foizi davlat byudjeti resurslari hisobiga va taxminan 15 foizi fuqarolarning shaxsiy mablag‘laridan tashkil topadi.

Shu tariqa, har bir davlat tibbiy yordamning moliyalashtirilishini tashkil etish bo‘yicha javobgarlikni ijtimoiy sug‘urtalash tizimini barpo etish orqali o‘z zimmasiga olgan bo‘lib, u mamlakatda mavjud ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy vaziyatga moslashgan bo‘ladi. Ayni chog‘da majburiy sug‘urtaning rivoji qanchalik kuchli bo‘lmasin, ixtiyoriy tibbiy sug‘urtaning vujudga kelishiga to‘sqinlik qila olmadi. Aksincha, sug‘urtaning bu sohasi keyingi yigirma-o‘ttiz yil ichida ijtimoiy ta’minot va fuqarolarning himoyalanishi tizimida u mustahkam o‘rin oldi. Aynan ixtiyoriy tibbiy sug‘urta sharofati bilan majburiy (davlat) sog‘liqni saqlash tizimi doirasida sug‘urta tamoyillarini qo‘llash imkoniyati tug‘ildi. Barcha mamlakatlarga xos bo‘lgan xorijiy tajribaning bosh xususiyati shuki, tibbiy sug‘urtaning ikkala - majburiy va ixtiyoriy tizimi ham bir-birini to‘ldirib turadigan modelni tashkil etadi va bu deyarli barcha kasalliklar va uning oqibatlarini qoplama bilan ta’minlash imkoniyatini beradi.

O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimida bozor munosabatlariga xos bo‘lgan mexanizmlarni joriy etish, aholining tibbiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojining sifatli qondirilishini ta’minlash maqsadida respublika hukumati tomonidan kompleks tusga ega bo‘lgan ishlar amalga oshirildi. Biroq, sog‘liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirishda Davlat byudjeti mablag‘larining samarali sarflanishini ta’minlash, bu borada xalqaro amaliyotda qo‘llanilayotgan moliyalashtirish manbalarini O‘zbekiston amaliyotida qo‘llashni taqozo etyapti. Shu tufayli, respublikamizda majburiy tibbiy sug‘urta tizimini joriy etishga zaruriy ehtiyoj sifatida qaralmoqda. O‘zbekistonda tibbiy sug‘urtani amalga oshirishning o‘ziga xos ijobiy tomonlari

O‘zbekistonda tibbiy sug‘urtani amalga oshirishning o‘ziga xos ijobiy tomonlari juda ko‘p, shu bilan birga aytish joizki, xuddi shu ijobiy tomonlarni aholiga amaliyotda qo‘llanilishining joriy holatini namoyish qilish orqali anglatish juda muhim. Ammo mamlakatimiz sug‘urta bozorida aynan tibbiy sug‘urtaning amalga oshirilishi yuzasidan statistik ma’lumotlar matbuot yoki sug‘urta kompaniyalari saytida e’lon qilinmaydi va bu holat tibbiy sug‘urtaga bo‘lgan qiziqishni susaytiradi. Aksincha internet saytlarida, turli portal va matbuot orqali ommaga namoyish etishni kuchaytirish zarur, shunda majburiy tibbiy sug‘urtaning joriy etili shi jarayoni ham tezlashadi.

Uzoq vaqt olib borilgan tadqiqotlar va statistik materiallarni to‘plash, ixtiyoriy tibbiy sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan bozor talabini izchil o‘rganish, shuningdek majburiy va ixtiyoriy tibbiy sug‘urta o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tahlil qil ish natijasida xususiy sug‘urtalovchilar polis majburiyatlarining muayyan tarkibini - sug‘urta qoplamasi tarkibini ishlab chiqdilarki, u iste’molchilarning shaxsiy talablarini hisobga olgan holda keng miqyosli tibbiy xarajatlar yuzasidan to‘lovlarni o‘tkazish imkonini beradi.

**Adabiyotlar/Literatura/References:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 1 apreldagi PQ-2863-sonli qarori.

2. https://www.project.gov.uz sayti ma’lumotlari.

3. https: //www.norma.uz/nhh_loyihalari/maj buriy_tibbiy_sugurta_uch_bosqich da_joriy_etiladi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

# ЎЗБЕКИСТОНДА ПЕДИАТРИЯ ФАНИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ

**Тўрақулова Сурайё Равшановна-**
Навоий Абу Али ибн Сино номидаги жамоат саломатлиги техникуми

XIX аср охири, XX аср бошларида Ўрта Осиё аҳолисига тиббий хизмат кўрсатиш, айниқса аёллар ва болаларга, энг паст даражада бўлган. XIX аср охири бутун Туркистон бўйлаб фақатгина 8та аёллар ва болалар амбулаторияси, 5та болалар уйи ва 2та ясли мавжуд эди. Асосан шаҳар аҳолисига тиббий хизмат кўрсатилган. Болалар қонтингенти ўртасида энг кўп учраган касалликлар: безгак, ўлат, чин чечак ва қутириш бўлган. Эрта ёшдаги болаларда қуйидаги касалликлар кўп учраган – овқат ҳазм қилиш тизими, нафас олиш аъзолари касалликлари, лейшманиоз, скарлатина ва кўк йўтал. Болалар бир йил ичида бир неча марта касалланганлар, 1000та туғилган болалардан 400-330таси бир ёшгача нобуд бўлган, ярмиси 4 ёшгача ҳам яшамаган. 1920 йилда Туркистон комиссиариати қошида республикамизда Соғлиқни сақлашда “Она ва болани” мухофаза қилиш бўлими очилган, унинг вазифаларига даволаш ва профилактик хизмат кирган. 1922 йилда Тошкентда 100 ўринга мўлжалланган Роза Люксембург номли касалхона ва 2та болалар маслаҳатхонаси очилган.

Бу вақтларда нафақат аҳолини соғлигини сақлаш, балки биринчи навбатда болалар аҳолиси соғлиғини сақлашга ҳам катта эътибор берилган. Унинг натижасида тиббиёт кадрларига – шифокор – педиатрларга талаб ошган.

1920 йилда Тошкентда биринчи бўлиб, Туркистон Давлат Университетида Биринчи Ўрта Осиё медицина факультети очилган. Ўшандан бошлаб, Республикамиз ўз медицина кадрларини тайёрлай бошлаган. 1920 йилда Тошкент Медицина институтида биринчи болалар касалликлари кафедраси МДУ доценти А.Н.Устинов томонидан ташкил қилинган ва 1922 йилгача у раҳбарлик қилган. 1922 йилдан 1924 йилгача кафедрага Василий Иванович Лисенко (1885 – 1946 йил) тиббиёт фанлари доктори, профессор раҳбар бўлган. 1927 – 1930 йил кафедрага Николай Иванович Осиновский – т.ф.д. профессор раҳбарлик қилган. Унинг асосий ишлари цинга, скарлатина, церебро – спинал менингит, ошқозон – ичак тизими касалликлари клиникаси ва диагностикасига қаратилган. 1930 – 1960 йилларда кафедрага Р.С. Гершенович раҳбарлик қилган. 1935 йилда талабалар сонининг кўпайиши санитария – гигиена, даволаш факультетларида болалар касалликлар кафедрасини алоҳида тузишга эҳтиёж туғдирган. 1935 – 1966 йилларда бу кафедрани К.Г.Титов бошқарган. 1966 – 1967 йил ва 1975 – 1990 йилларда М.А. Мирзамухамедов, 1968 – 1972 йилларда О.С.Махмудов рахбарлик қилган, 1972 – 1975 йилларда кафедра мудири вазифасини доцент Елецкая Валентина Павловна бажарган. Бу вақтда ТошДавТИ клиникаси болалар бўлими қошида янгидан санитария – гигиена ва стоматология факультетлари учун болалар касалликлари кафедраси тузилган, унга профессор М.Р.Нуриддинов рахбарлик қилган.

1931 йилда Туркистон Давлат университети қошидаги медицина факультети Ўрта Осиё медицина ўқув даргоҳига айлантирилган, у ерда “Она ва бола” соғлиғини муҳофаза қилиш факультети очилган. 1935 йилда у педиатрия факультети номини олган, бу вақтда мамлакат медицина кадрларини кераклигини ҳис қилган. 1945 йил сентябр ойида педиатрия кафедраси асосида учта кафедра очилган. Бу болалар касалликлари пропедевтикаси, факультатив педиатрия ва госпитал педиатрия кафедралари. Бу талабалар сонини кўпайишига олиб келган. 1963 йилда Самарқанд медицина институти, 1965 йилда эса Андижон медицина институтида педиатрия факультетлари очилган.

Ўзбекистон республикаси шифокор – педиатрларни тайёрлашга муҳтож эди. Ўзбекистонда педиатриянинг ривожига хисса қўшган олимлар:

1. Рафаил Самуилович Гершенович (1888 - 1960) т.ф.д. профессор хизмат кўрсатган фан арбоби, Берлин ва Париж педиатрлар жамиятининг аъзоси. У 1907 йилда Париж университети медицина факультетини тугатган. 150та илмий ишлар муаллифи, овқат – ҳазм қилиш тизими касалликлари, пеллагра, болалар сили, лейшманиоз, қон касалликларини ташҳислаш ва даволашини ўрганган.

2. Константин Герасимович Титов (1898 – 1970 йил) т.ф.д. профессор, хизмат кўрсатган фан арбоби. 65 та илмий ишлар муаллифи, илмий ишлари болалардаги ўпка ва қон касалликларини ўрганишга бағишланган.

3. Манноп Атаматович Мирзамухамедов (1920 – 2002 йил) – т.ф.д. профессор, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган шифокор. 150дан ортиқ илмий ишлар муаллифи, илмий ишлари овқат ҳазм қилиш аъзолари касалликлари ташҳисоти ва давосига бағишланган.

4. Азиз Мақсудович Мақсудов (1907 – 1959 йил) доцент, 1945 йилдан бошлаб, ТошТИ, педиатрия кафедрасини бошқарган ва 1947 йилдан бошлаб республикада бош педиатр бўлган. Унинг илмий изланиши кўп қиррали ва медицинанинг қуйидаги бўлимларини ўз ичига олган: ошқозон касалликлари, лейшманиоз, подагра, токсик касалликларни гелиотроп билан даволаш.

5. Б.У. Қорахўжаев. СамМИ болалар касалликлари кафедраси мудири. 1950 – 1954, 1987 – 1977 йилларда унинг раҳбарлигида малярия, лейшманиоз, ревматизм, гўдак ёшидаги болаларда моддалар алмашинуви ва унинг сурункали бузилиши касалликларига қарши кураш олиб борилган. У нафақат педиатр, балки олим бўлган.

6. Сайфиддин Шамсиевич Шамсиев (1914 - 1995) фанлар академияси корреспондент аъзоси, профессор. 1951-1972 йилларда ТошМИ, кейин ТошПМИ болалар касалликлар кафедраси, 1973 йилдан то умрининг охиргача болалар касалликлари пропедевтикаси кафедрасида раҳбарлик қилган. 1984 йилдан профессор бўлган. У республикада педиатриянинг ривожига ва болалар соғлиғини сақлашга катта ҳисса қўшган. Медицина кадрлари ва илмий шогирдлар тайёрлаш билан шуғулланган. 150тадан ортиқ илмий қўлёзмалари мавжуд. Олим томонидан қуйидаги китоблар ёзилган. “Болалар клиник электрокардиографияси”, “Болалар клиник фонокардиографияси”, “Болаларда ўткир пневмониялар”, “ Участка педиатрлари учун қўлланма”. Унинг раҳбарлигида 10дан ортиқ тиббиёт фанлари доктори ва 40та тиббиёт фанлари номзоди чиқарилган.

7. Саломат Назаровна Йўлдошева (1913 – 1988йй). Ўзбек халқидан чиқган биринчи профессор аёл. 1960 – 1972 йилларда ТошМИ, 1972 йил СамПИ факультатив педиатрия кафедрасига раҳбарлик қилган. С.Н.Йўлдошева ўз шогирдлари билан “Болаларда ревматизм” касаллиги муаммоси билан шуғулланган.

8. Орхон Сирожиддинович Махмудов (1927 йилда туғилган), тиббиёт фанлари доктори профессор, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган фан арбоби, Абу Райҳон Беруний номли Давлат мукофоти лауреати. 300тадан ортиқ илмий ишлар раҳбари, илмий ишлари болалардаги юқумли касалликларнинг долзарб муаммоларига қаратилган. 1966 – 1968 йилларда санитария - гигиена факультети декани, 1968 – 1972 йилларда институт илмий ишлар бўйича проректори бўлган. 1976 – 1983 йил Педиатрия ИТИ директори. 1983 – 1984 йилларда Ўзбекистон Соғлиқни Сақлаш Вазири ўринбосари булиб ишлаган.

9. Мойитдин Расулович Нуритдинов (1927 – 1996 йиллар) – тиббиёт фанлари доктори профессор, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган шифокор. 100дан ортиқ илмий ишлар муаллифи. Илмий ишлари болалар гематологияси ва ревматологиясига бағишланган. Бизнинг республикамиз мустақил бўлгандан сўнг Президентимиз раҳбарлиги остида, бир қанча камчиликлар бартараф этилди ва халқимизнинг ҳам моддий, ҳам маънавий савияси ортди. Бизнинг республикамизда соғлом авлодни тарбиялашга алоҳида эътибор берилади. 1993 йил 4 март куни Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти томонидан “Соғлом авлод учун” I ва II даражали, кўкрак нишони тасдиқланган. Бу орден билан иқтидорли авлодларни тарбиялаган

инсонлар тақдирланадилар. Ўсиб келаётган ёш авлодни соғлом бўлиши учун ҳамма шароитлар яратилмоқда. Ўз навбатида Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни Сақлаш вазирлиги томонидан ўсиб келаётган ёш авлод соғлиғини тиклаш мақсадида катта ишлар амалга оширилмоқда.

Бу мақсадда Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни Сақлаш вазирлиги томонидан янги қонцепция қабул қилинди: а) Аҳоли соғлигини сақлаш учун пул маблағларини аҳолига ва тиббий муассасаларга бериш: б) Тиббий муассасаларнингасосий мақсади профилактик йўналиш бўлганлигини инобатга олиб, амбулатория, поликлиникаларда тиббий хизматларни яхшилаш ва тиббий хизмат кўрсатиш бўйича янги медицина шаклларини тузиш, кундузги стационар, уйдаги шифохона, амбулатория комплекслари, махаллада даволаш пунктлари очиш кўзда тутилган. Кадрлар сонини эмас, балки сифатини яхшилашга эътибор бериш лозимлиги кўриб чиқилди. Бунинг учун талабалар билими амалиёт билан боғлиқликда ва поғона шаклида тузилди. Тиббиёт олийгоҳларига талабалар қабул қилиш сони камайтирилди ва халқаро норматив кўрсатгичларига якинлаштирилмоқда. Институтларга талабалар қабул қилиш танлов асосида, тест сўровлари бўйича олиб борилаяпти. 1999 йилдан бошлаб, ҳамма тиббиёт олийгохлари янги ўқитиш дастурини олди. Ҳамма тиббиёт муассасалари аҳоли соғлиғини тиклашга йўналтирилган, охирги йилларда янги концепция бўйича ишлаш ижобий натижалар берди. Бизнинг республикамизда болалар ўлими кўрсатгичи камайди. Амбулатория, поликлиника, кундузги шифохона, махсус амбулатория комплекслари хизматлари яхшиланиши ўлим курсатгичи камайишига сабаб бўлди. 1998 йил 10 ноябрда «Ўзбекистон Республикасида Соғлиқни Сақлашни ташкил этиш давлат дастури» қабул қилинди ва Ўзбекистон Республикасида Соғлиқни Сақлашнинг янги йўналиши кўриб чиқилди. Бу дастур педиатрия хизмати учун асосий ҳисобланади, чунки у ўсиб келаётган авлод соғлиғини таъминлашга қаратилган. Қабул қилинган давлат дастурида соғлом, баркамол авлодни тарбиялаб вояга етказиш кўзда тутилган.

**Адабиётлар:**

1. «Педиатрия»,- руководство для врачей под редакцией Р.Е.Бермана, В.К.Вогана. Книга 6, -М, 1989.

2. «Патология детей старшего возраста»,-под редакцией А.А.Баранова, М, - 1998

3. Пайков В.Л., Хацкель С.Б., Эрман Л.В. Гастроэнтерология детского возраста в схемах и таблицах: Справочное руководство. СПб., 1998.

4. Парийская Т.В.. Справочник педиатра. ЭКСМО. Москва 2004 г. 14. Руководство по детской артрологии. Под ред.акад. АМН СССР М.Я. Студеникина и порф. А.А.Яковлевой. – Л. 1987. – С . 162- 170.

## YOSHLARNI MUOMALA VA SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA O‘RGATISHNING PSIXOLOGIK MOHIYATI

**Suvonova Mehribonu Musayevna-**
Navoiy Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi
bosh o‘qituvchisi
**Saidova Nafisa Bahriddinovna-**
Navoiy Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi
yetakchi o‘qituvchi

Tabiiyki, kelajagi buyuk O‘zbekistonimiz istiqboli har tomonlama puxta o‘ylangan ta’lim-tarbiya tizimining nechog‘lik muvaffaqiyatli tashkil etilishiga ko‘p jihatdan bog‘lik. Zero, bugungi bozor iqtisodiyoti va jahon tsivilizatsiyasiga chiqish davrida har bir shaxsning o‘ziga xos va ayni paytda jamiyat taraqqiyoti uchun zarur hisoblangan jismoniy, ruhiy, ma’naviy va intellektual

imkoniyatlari ko‘lamini bilish, tahlil qilish va rivojlantira borish muhim ahamiyat kasb etadi. Hammaga ma’lum, bola tarbiyasi insoniyat mavjudligining muhim sharti hisoblanganligi bois, u dunyoga kelmasdanoq tarbiyaviy tadbirlar boshlab yuboriladi.

Bugungi kunda o‘quvchi yoshlarni xar tomonlama kamol toptirish, ularni kelajagimizning munosib egalari qilib o‘stirish uchun mamlakatimizda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, jamiyat rivoji, davlat ravnaqi jismoniy va aqliy mehnatda, ijtimoiy-ma’naviy hayotning turli sohalarida qizg‘in faoliyat ko‘rsata oladigan, layoqatli, mustaqil fikrli, yuksak saviyali, o‘z ma’suliyatini seza oladigan etuk insonlarni tarbiyalab etishtirishga bog‘liqdir. Bu jihatdan o‘quvchi yoshlarni muomala va shaxslararo munosabatlarga o‘rgatishning ahamiyati beqiyosdir.

Ma’lumki, jamiyatda yashash, uni boshqarish, insonlar o‘rtasidagi to‘g‘ri munosabatlarni tuzish eng avvallo muloqot, ya’ni muomala haqidagi bilimlarga bog‘lik bo‘ladi. Aslida har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilatlari, hattoki, nuqsonlari ham muloqot jarayonining mahsulidir. Jamiyatdan ajralgan, muloqotda bo‘lish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan odam o‘zida individ sifatlarini saqlab qolishi mumkin, lekin u shaxs bo‘lolmaydi. Shuning uchun muloqotning shaxs taraqqiyotidagi ahamiyatini tasavvur qilish uchun uning funktsiyalarini, mazmunini, bizning hayotimizda bajaradigan vazifalarini tadqiq va tahlil qilish muhim hisoblanadilar. Biz yaxshi bilamizki, kishilarning insoniylik fazilati, odobi, avallo, boshqalar bilan bo‘lgan munosabatlarda ko‘rinadi. Xalqimiz har kimning so‘ziga, muomalasiga, o‘zini tutishiga qarab baho beradi. Yosh avlod tarbiyasida ho‘shmuomalalikka e’tibor berish juda muhim. Shu sabab bola tarbiyasida odob me’yorlarini unga singdirib borish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, muomala va shaxslararo munosabatlar masalasi psixologiya fanining eng asosiy va metodologik mavzularining biri bo‘lib hisoblanadi. Jahon psixolog-olimlari bu muammo bo‘yicha o‘zlarining qator ilmiy tadqiqotlarini o‘tkazganlar va uning echimiga holisona hissalarini qo‘shganlar. Lekin, shunga qaramay bu mavzu va, ayniqsa, o‘quvchi yoshlarni to‘g‘ri muomala va shaxslararo munosabatlarga o‘rgatish masalasi bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolaveradi, desak aslo mubalag‘o bo‘lmaydi. Chunki, naslimiz davomchilarini nafaqat jismonan baquvvat, balki ma’naviy boy, yangi davr talablariga javob beradigan, muloqot jarayonida erkin fikr yuritadigan qilib tarbiyalash barcha pedagog va psixologlarning muhim vazifasidir.

O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021 yy. rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha qabul qilingan Harakatlar strategiyasining davlat dasturida shaxsning erkinligi, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish, muomala madaniyatini tarkib toptirishga birlamchi e’tibor qaratilgan. Shunday ekan, o‘smir va o‘spirinlarni muloqot jarayonida mustaqil fikrini erkin ifodalash malakalarini va ularning tanqidiy fikrlashini shakllantirish amaliyotchi psixologlar oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Zero, XX1 asrda yashaydigan har bir insonning tanqidiy fikrlashi uchun avvalo muloqotga o‘rgatish zarur.

O‘smir va o‘spirinlarni muloqotga o‘rgatish uchun ularga psixologik, pedagogik adabiyotlarni o‘qishga tavsiya qilish, muloqot jarayonida yoshlar faoliyatini kuzatish, fikrlashini aniqlash va shu jarayonda psixologik o‘yinlar, mashqlar, treninglardan foydalanish muhimdir. Maktabning o‘rta va yuqori sinflarda yozma nutq mazmunli, ta’sirli bo‘lib, grammatik jihatdan tobora to‘g‘ri, mukammal tuzilib boradi va oqibatda bunday nutq og‘zaki nutqning o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsata boshlaydi. Bolalar nutqi bevosita kattalar nutqi ta’sirida o‘sadi. Shuning uchun o‘qituvchi nutqi o‘quvchilar nutqini o‘stirishda namuna bo‘lib xizmat qilishi kerak. Shuningdek, o‘quvchilar tafakkurini o‘stirmay turib, ularning nutqini ham o‘stirib bo‘lmaydi. Og‘zaki gapirish, bayon yoki insho yozishda o‘quvchilarning reja tuzib olishlariga e’tibor berish kerak. Yozma va og‘zaki nutqni o‘stirish uchun kitob ustida muntazam ishlash, o‘qigan matnlarning tezisini, konspektini tuzish, ma’ruza, referatlar tayyorlash, adabiy kechalar, yozuvchilar, olimlar hamda ziyoli insonlar bilan uchrashuvlar o‘tkazib borish muhim ahamiyatga egadir.

Psixologik adabiyotlarni tahlili bo‘yicha, o‘smirlar muloqotiga nisbatan o‘spirinlar muloqoti ancha tarbiyalangan bo‘ladi, chunki ular muloqot madaniyati, muomala sirlarini egallagan bo‘ladi, delingan. Lekin, bugungi kundagi o‘tkazilgan tadqiqot va kuzatishlar hamda real pedagogik amaliyot o‘spirinlar masalasida ham qator muammolar borligini ko‘rsatib kelmoqda. Fikrimizcha, shu bois ularga yordam ko‘rsatuvchi kishilar bo‘lib birinchi navbatta amaliyotchi psixologlar hisoblanadi. O‘ylaymiz-ki, maktab (kolledj) psixologining bu boradagi asosiy vazifasi shundan iboratki, ijtimoiy psixologiyaning faol metodlaridan omilkorona foydalangan holda aniq psixologik-pedagogik yordam ko‟rsatish, ya’ni o‘spirinlarni ota-onasi, pedagoglar va boshqa katta yoshdagilar bilan bo‘ladigan, o‘rtoqlari, sinfdoshlari va tengdoshlari bilan bo‘ladigan munosabatlarga tayyorlash, ularga o‘ziga bo‘lgan munosabatda va o‘zini-o‘zi, ichki yagonalikni, boshqalar bilan muloqotga kirisha olmaslikni kabi tipik holatlarni tushunishida yordam berish, turli trening va mashqlar o‘tkazish va ularning samarasi orqali yoshlarni to‘g‘ri muomalaga o‘rgatishdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. V.Muxina «Detskaya psixologiya», M., 1999
2. ye.O.Smirnova «Detskaya psixologiya», M., 2003

## XX ASRDA HUQUQNI MUHOFAZA QILISH ORGALARI XODIMLARINING QATAG‘ON QILINISHI

**Sayfiyeva Marjona-**
Navoiy davlat universiteti magistranti

**Abstract.** In this thesis, we witness the martyrdom of many of our compatriots as a result of the heavy burdens imposed on our country by the Sovet Union between 1917 and 1991 and the policies of the Sovet Union, and their composition includes representatives of all strate of the population, and among them, we reflect on the sad fate of law enforcement officers, who are representative of the educated stratum with high potential and experience.

**Key words:** Sovet Union, prosecution, ”Uzbek case”, ”big terror” repression, Adurahim Yusufzoda

**Kirish.** Bugungi tahlikali, murakkab dunyoyimizda globallashuv jarayonlari avj olayotgan va mamlakatlarning milliy ma’naviyati, madaniyatiga, buguni va kelajagiga, tinch, osuda hayotiga jiddiy ravishda putur yetkazish va izdan chiqarish uchun kuchli “qurollangan” davlatlar tomonidan turli xavf-xatarlar va yod unsurlarning ochiq va yashirin ravishda kirib kelish jarayoni tezlashayotgan bir davrda biz yashayotgan bo‘lsakda o‘z mustaqilligiga ega bo‘lgan hur O‘zbekistonda kechirilayotgan dorulomon kunlarning qadriga yetib asrab, avaylab, ogoh bo‘lib, aslida, bunday zamonga yetishmoqlik qanday og‘ir va og‘riqli jarayonlarni boshimizdan o‘tkazganimiz va vaholanki, bu uchun qanchadan qancha yurtdoshlarimizning begunoh qonlari to‘kilib va bu yo‘lda shahid ketganligini yodimizdan chiqarmasligimiz va ularni doim hurmat va ehtirom bilan eslamog‘imiz shuning bilan birga ularga munosib voris bo‘lmog‘imizni maqsadga muvofiq deb bilaman. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Xalqimiz asrlar davomida og‘ir sinovlarda, bosqinchi va yovuz kuchlarga qarshi mashaqqatli kurashlarda bukilmas iroda va jasorat namunasini amalda namoyon etib kelgan. O‘z ozodligi, erkinligi yo‘lida kurashib behisob qurbonlar bergan ota-bobolarimiz jasorati xotiramizdan hech qachon o‘chmaydi” degan gaplari yuqoridagi fikrlar isbotidir.[1] Vatanimiz tarixiga nazar tashlasak yurtimizning gullab yashnagan va o‘sha davr zamonasining buyuk davlatlar qatorida bo‘lganligi-yu va asfsuski, boshidan o‘tkazgan mash’um jarayonlarning qurboni bo‘lganligiga ham

shohid bo‘lamiz. Bunga Sovet Ittifoqining davlatimiz ustidan terrordan foydalangan holda yuritgan siyosatini misol qilmoqchiman.

**Asosiy qism.** Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda, 1934-1938 yillarda O‘zbekistonda 40mingdan ziyod kishi jazoga tortilgan shulardan 7300 nafari otib tashlangan. O‘tgan asrning 80-yillarida “paxta ishi”, “o‘zbek ishi” degan soxta ayblovlarga asosan 40ming kishi tergov qilingan, 5 ming nafari jinoiy javogarlikka tortilgan. E’tibor berish kerakki, daxshatli repressiya ko‘lankasi tushmagan jamiyatdagi birorta tarmoq, soha, chekka qishloq qolmagan. 1934-1935 yillarning o‘zida 260 mingga yaqin kishi qamoqqa olinadi. [2]. Yagodandan keyin NKVDga rahbarlik qilgan ”temir narkom” Yejov shaxsan Stalinning ko‘rsatmasi asosida NKVDni ommaviy qirg‘in va qatag‘on quroliga aylatiradi. 1937-1938 yillarda amalga oshirilgan ”Katta qirg‘in” avvalo, Lenin boshlab bergan, keyin Stalin izchil davom ettirgan qatag‘on siyosatining avj nuqtasi-kulminatsiyasi bo‘ldi. [3]

Sho‘ro qatag‘onlarining daxshatli davrida minglab begunohlar qatorida prokuratura tizimi vakillari ham ko‘plab musibatlarga duchor bo‘ldi. Ori va nomusini har narsadan ustun qo‘yib, nohaqliklarga qarshi borgan, qat’iyat ko‘rsatgan, chin ma’noda dovyurak va vatanparvar mahalliy xodimlarning 150 nafariga jinoyat ish qo‘zgatilgan, 30 nafari esa otib tashlangan.

O‘zekistondagi qatag‘on qurboni bo‘lgan shunday vakillardan biri Abdurahim Yusufzoda edi. 1920-1924 yillarda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi adliya xalq noziri va Respublika prokurori bo‘lib ishlagan Abdurahim Yusufzoda taraqqiyparvarlarning ”Yosh buxoroliklar” yyetakchilaridan biriga aylangan. A.Yusufzoda tashabbusi bilan Buxoro shaxrida 3ta sud binosi barpo etilgan, sudlov organlarida birinchi bor apellatsiya organi “Taniz mahkamasi(“Arz mahkamasi”) tashkil etilgan. A.Yusufzodaning sa’y-harakatlari bilan bilan 1924-yilda Moskvada rus va o‘zbek tilida “Бухарская жизнъ” nomli jurnal hamda O‘zbekistondagi ilk kinostudiya -“Buxoro-Rus” kinojamiyati tashkil etilgan. Ammo repressiya jarayoni bunday noyob shaxsni ham chetlab o‘tmadi va u umri davomida ko‘plab tazyiq va ta’qiblarga uchradi. A.Yusufzoda 1937-yil 14-oktabrdagi O‘zSSR NKVD qoshidagi ”Uchlik”ning qarori bilan O‘zekistodagi aksilinqilobiy tashkilotlarda ishtiroki va sovetlarga qarshi faoliyati uchun otuvga hukm qilindi. Hukm 1937-yil 25-oktarda ijro etildi.[4]

Sovet Ittifoqiga Adurahim Yusufzodaga kabi yuksak salohiyatli, ilmli, o‘qimishli, yurti uchun jonkuyar, sara shaxslar aslo kerak emas edi. Biz hozir birgina Yusufzoda misolida ko‘rdik, lekin, ularning soni va salmog‘i anchayin ko‘pchilikni tashkil qilgan. Ularning muqaddas nomlari ancha yillar o‘tib qonuniy yo‘l bilan oqlandi, lekin, o‘sha davrda ham ma’naviy, ham ruhiy jihatdan chekkan azoblarini hech qanday tovon bilan to‘lab bo‘lmaydi.

**Xulosa.** Fikrlarim so‘ngida shuni xulosa qilishim mumkinki, yurtimiz huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari kabi taraqqiyparvarlar xalqimizni mustaqillik yo‘liga olib chiqish va davlatimizni rivojlantirish uchun ancha harakat qilishdi lekin sho‘ro hukumati ziyolilarni ilm va zakovat bilan also yengib bo‘lmasligini anglab ularni jismonan yo‘q qilishga kirishgan. Natijada, tajribali kadrlarning yo‘qolishiga, qo‘rquv muhitining shakllanishiga ham olib kelgan. Aslida bu bilan ular o‘zlarining mafaatlari doirasida xizmat qilmagan millatparvarlarning pok nomini qora balchiqqa botirib, mavjud bo‘lgan avtoritar hamda totalitar boshqaruv uslublarining umrini uzoqroq qilishni reja qilgan edilar. Mana shu millatparvarlarning qatli asosida istiqlolni maqsad qilgan taraqqiyparvar yurt rahbarlari hamda tizim vakillari ham ma’nan ham jismonan yo‘q qilindi va ular shu bilan xalqparvar siyosatchilarning erkin, xalqchil faoliyatini bir qadar bo‘g‘ishga erishdilar. Yana shuni qo‘shimcha qilishim lozimki, o‘sha murakkab vaziyatda bunday vatani, xalqi xizmatidagi fidoyi shaxslarninng istiqlolday buyuk ne’matga erishishimizga qo‘shgan xizmatlari beqiyos ekanligini har vaqt anglamog‘imiz va qadriga yetmog‘imiz darkor.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 2 maydagi “9-may-Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-143-son Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-6456793#-6458894

**2.** Shamsutdinov R. va b. Tarixiy xotira beqiyos. - Toshkent: “Encyclopedia world”, 2024. – Б.124

**3.** B.Hasanov va b. Tarix: xotira, xulosa, saboqlar. - Toshkent: 2024. – Б.8-9.

**4.** Shamsutdinov R. Abdurahim Yusufzoda – Buxoro respublikasining prokurori / Adabiyot gazetasi, 2023 йил 17 октябр, - №22 (85)-сони.

## MAKTAB TA’LIMIDA O‘ZBEK CHOLG‘U ASBOBLAR TO‘GARAGINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

**Egamberdiyev Uyg‘un Sayfiddin o‘g‘li**
NavDU Magistranti
Ilmiy rahbar: **Farrux Gaybullayevich Nurullayev**
BuxDU p.f.f.d.professor

**Annotasiya:** Maqola mazmunida umumta’lim maktablarida o‘zbek cholg‘u asboblar to‘garagini tashkil etish yollari haqidagi fikr-mulohazalar bildiriladi.

**Kalitli so‘zlar:** ansambl, to‘garak, ritm tuyg‘usi, musiqiy soz, cholg‘u ijrochiligi, badiiy-ijro, vokal yoki cholg‘u musiqasi.

Ansambl fransuzcha “ensemble” so‘zidan olingan bo‘lib, “Vokal yoki cholg‘u musiqasi asarini bir necha ijrochilar tomonidan ijro etilishi” manosini anglatadi. O‘zbek xalq cholg‘u asboblari ansamblini tuzish jarayonida rahbar bir qator tashkiliy masalalarini hal qilishi lozim. Ansambl jamoasini uyushtirish ikki asosiy davrga, ya’ni tayyorgarlik ishlari va jamoani butlash (komplektlash) uchun tashkiliy ishlarni amalga oshirish davrlariga bo‘linadi.

O‘zbek xalq cholg‘u ansambli tarkibiga kiruvchilarga nisbatan quyidagi talablar quyiladi:

- ishtirokchilar tovushning baland-pastligini ajrata bilishi;
- eshitish qobiliyati;
- ritm tuyg‘usi va yaxshi xotiraga ega bo‘lishi;
- musiqa san’atiga havasi;
- cholg‘u ansambli jamoasi oldiga qo‘yiladigan talablarga javob beradigan bo‘lishi kerak.

Agar o‘quvchilar biror cholg‘u asbobini chalishni bilsa, yoki boshlang‘ich musiqa savodidan xabardor bo‘lsa, rahbar ularning mazkur bilimlarini aniqlaydi va shunga qarab kelgusida cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha alohida mashg‘ulotlar tashkil etib boradi. Bu ishtirokchilarni qabul qilingandan so‘ng ularning imkoniyat va qobiliyatlariga qarab guruhlarga bo‘linishi etiborda tutiladi. Rahbar har bir mashhulotlar belgilaydi, qatnashuvchilarning soniga qarab, ansamblning turini aniqlaydi. Bular kichik, o‘rta, katta tarkibdagi ansambllar yoki dutor, rubob, kamonli sozlar ansambllari bo‘lishi mumkin.

Birinchi darslarda sozda mashqlar, oddiy, tanish bo‘lgan kuylardan parchalar chalish bilan birga ishtirokchilar tomonidan musiqa savodxonligini o‘zlashtirib borishga alohida etibor beradi. Ansambl qatnashchilarining ijro malakalari bir muncha o‘sgandan so‘nggina asta-sekin kichik tarkibdagi rubobchilar, dutorchilar unison ansambldan tashkil qilinadi. Bu ishtirokchilarnign ijro mahoratlarini o‘stirib borishga, jamoa bo‘lib chalish malakalarini sngdirib borishga yordam beradi.

Ansamblga asta-sekin chang, nay, g‘ijjak va boshqa sozlar ham qo‘shib boriladi. Ansambl mashg‘ulotlari haftada 2 marta o‘tkaziladi. Bir mashg‘ulot jamoaviy tarzda o‘tkazilsa, ikkinchisi har bir sozanda bilan alohida-alohida (individual tarzda) olib boriladi. Rahbar har bir ishtirokchi bilan alohida dars o‘tganda nota o‘qish, ularning ijrochilik mahoratini o‘stiruvchi turli mashqlar, gammalar ustida ishlaydi, nazariy bilimlarni mustahkamlaydi.

Ansamblda o‘rganilayotgan asarlarni murakkab bo‘laklarini o‘zlashtirish, ifodali ijro etish malakalarini singdirish kabi ishlarni amalga oshiradi. Berilgan vazifalar to‘liq o‘zlashtirilgandan keyingina navbatdagi bosqich vazifalarini bajarishga o‘tiladi. Ansambl ishtirokchilari alohida kundalik daftar tutadilar. Rahbar tomonidan berib boriladigan topshiriqlar kundalik daftarga yozib boriladi va ularning bajarilib borilishi nazoratga olinadi.

Ansamblda ijro mahoratini egallash avvalo har bir cholg‘u sozini to‘g‘ri tutish, tovush chiqarish madaniyatini o‘zlashtirish, qo‘l holati va ijro harakatlarini to‘g‘ri shakllantirish, maqsadga muvofiq to‘g‘ri va erkin o‘tirishni o‘rganish, hamda jamoaviy ijro qoidalariga to‘liq rioya etishlikni nazarda tutadi.

Maktabda cholg‘u asboblari ansambli to‘garaklarini tashkil etishda, o‘quvchi-yoshlarga estetik tarbiya berishda turli vositalardan foydalaniladi. Shulardan biri maktabda va maktabdan tashqari muassasalarda tashkil etilgan cholg‘u asboblari to‘garaklaridir. Bu to‘garak ko‘p sonli o‘quvchi-yoshlarni birlashtiradi. Ular o‘zaro hamkorlikda jamoa bo‘lib kuylashni, nota bilan ijro etishga o‘rgatadilar.

To‘garakdagi ko‘p ovozli musiqa bolalarda musiqaviy qobiliyatning uyg‘un suratda rivojlanishiga ijobiy ta’sir etadi. Ular musiqaning nozik sirlarini bilib oladilar. Professional sozandalik malakalarini hosil qila boradilar. Ansamblga kilrgan o‘quvchilar dastlab asosan qashqar rubobi va dutor chalishni o‘rganish olishni hohlaydilar. Lekin ular istagan cholg‘u asboblari bilangina to‘garak tuzib bo‘lmaydi. Shuning uchun dutor, rubob, g‘ijjak, chang, doira va boshqa asboblarning to‘garakdagi o‘rnini va ahamiyatini o‘quvchilarga tushuntirish lozim.

O‘qituvchining dutor, rubob, nay kabi asboblarda nafis kuy va mashqlarni namuna tariqasida ijro etishi tufayli o‘quvchilarning mazkur musiqa asboblariga qiziqishlar oshadi. O‘quvchi-yoshlarni notaga qarab musiqa asbobida kuylar chalishga o‘rgatishda dastavval musiqa savodining boshlang‘ich qismi bir xildagi cholg‘u asboblari guruhlari bilan tanishtirish kerak.

Nota bilan kuy ijro etishni o‘rganishlari uchun ular birinchi galda musiqa applikaturasi, har qaysi asbobda ijro etish uchun tegishli oktava, notalarning nota yo‘lida joylashuvi, notalarning cho‘zilish va ularning sanalishi, pauzalar, o‘lchov va taktni yaxshi o‘zlashtirib olishlari lozim. Shundan keyin ijro etish uchun bolalarga kichik-kichik kuylar berilishi mumkin.

Kuy o‘rganish davomida nota yozuvida ishlatiladigan boshqa belgilar ham o‘rgatiladi. O‘quvchilar notani tez o‘qiy olishlari uchun har darsda doskaga kichik-kichik mashqlar yozib, jamoa bo‘lib o‘qishga o‘rgatish zarur. Buning uchun mashqning o‘lchovini aniqlash, ritmikasini chapak bilan chalish, notalar nomini aytib kuylash, nixoyat hamma shoshmasdan baravar ijro etishi lozim. Ansamblda soz chalishning qoidalari va umumiy talablar:

- ijro paytida gavdani shunday tutish kerakki, toki u ijrochining barcha harakatlari uchun kulay va tashqi ko‘rinishi chiroyli bo‘lsin;
- suyanchiqqa suyanmasdan, o‘rindiqning yarmisida o‘tirish lozim;
- ijro etishdagi holati har tomonlama qulay bo‘lishi uchun gavdani va gavda holatini erkin tutish lozim;
- o‘ng qo‘lning to‘g‘ri joylashishiga, erkin harakatda bo‘lishiga erishish kerak;
- chop qo‘l soz dastasini siqmaslik kerak (rubob, avg‘on rubobi, soz, dutor sozlarida), qo‘l kafti dastaga tegmasdan, erkin bo‘lishiga harakat qilish lozim;
- cholg‘u dastasi chpa qo‘lning bosh va ko‘rsatgich barmoqlari o‘rtasida joylashtirilib, barmoqlar holatiga etibor berish lozim, bosh va o‘rta barmoqlar bir-birining to‘g‘risida bo‘lgani maqsadga muvofiq;
- chertib chalinadigan torli cholg‘ular ijrosida barmoqlar ikki parda bo‘linmasining o‘rtasida emas, balki pardaning xarrak yo‘nalishidagi pillar bo‘linmasiga taqab qo‘yiladi. Simlar esa barmoqlarning tirnoq oldi yostiqchasi bilan bosiladi. Har bir cholg‘u sozida chalish qoidalariga ham ana shunday tartibda rioya qilinadi. Ijro uchun qulay va to‘g‘ri holatni tanlash, qo‘llarni erkin tutish,

tovush chiqarish madaniyatini to‘g‘ri o‘zlashtirish har bir soz ijrosi uchun umumiy talablar mazmuniga kiradi.

Jamoa bo‘lib ijro etganda barobar va birgalikda ijro etishga erishish lozim. Cholg‘u sozi tovush haddan ziyod kuchlanmasin, ijro etish o‘zgalardan ildamlab ham, ortda qolib ham ketmasligi lozim. Jamoaviy ijro bir xil hissiyot bilan, bir tanu bir jon bo‘lib, bir xilda ijro etish ekanlishini yodda tutish kerak. Cholg‘u sozlarini yaxshi saqlanishi avvalo mashg‘ulot o‘tkaziladigan xonaga bog‘liq. Ansambl o‘tiladigan dars xonasi keng, yorug‘, havosi toza, harorati mo‘tadil, akustikasi maqsadga muvofiq bo‘lishi kerak. O‘qish xonasida kitoblar, notalar, cholg‘u soziga kerakli torlar, ansamblga kerakli bo‘lgan qo‘llanmalarni saqlaydigan shkaf, pultlar va musiqa darsini o‘tkazish uchun nota chizig‘i chizilgan doska, sinf taxtasi bo‘lishi kerak. Dars xonasi sozlarining applikatura jadvallari, havaskor va professional ansambllarning, bastakorlarning, taniqli sozandalarning rasmlari bilan jihozlab qo‘yiladi. Musiqa cholg‘ularini toza havo yetarli darajada almashinib turadigan xonada saqlash kerak.

Cholg‘u asbobini biror tovush manbaiga, masalan, kamertonga yoki to‘g‘ri sozlangan fortepianoga almashtirish tavsiya etiladi. Ansamblda esa cholg‘ular nay yoki chang asbobida sozlangani maqul. Torlarni sozlashda ularni juda jarangli qilib tortish tavsiya qilinmaydi. Simlar po‘latdan ishlangan bo‘lsada, tegishli o‘rtacha balandlikdan yuqori sozni ko‘tara olmasligi mumkin. Dars boshlashdan yoki konsertga chiqishdan oldin ansambldagi cholg‘u asboblarini toza qilib sozlash va butun ansambl sozini bir necha bor tekshirib ko‘rish tavsiya etiladi. Cholg‘u asboblarini avval musiqa rahbarining o‘zi sozlaydi, keyinchalik esa u barcha qatnashchilarni cholg‘ularni o‘zlari sozlashiga o‘rgata borish kerak. Sozlarni sozlashdan avval tor uchun qo‘yilgan xarrakning joyida turganligini tekshirish kerak. Soz avval ochiq torda tovush hosil qilib, keyin esa 12 pardani bosib, eshitib ko‘rish orqali tekshiriladi. Agar tovush sof oktava bo‘lsa, xarrak to‘g‘ri turgan bo‘ladi, torni bosganda tovush oktavadan baland chiqsa, xarrakni tovush xonasidan uzoqlashtiriladi. Torni bosganda tovush oktavadan past sadolansa, xarrak to‘g‘ri turgan bo‘ladi deb bo‘lmaydi, u holda xarrak tovush xonasi tomonga suriladi.

Barcha torlarda oktava sadolanishi tekshiriladi. Xarrakni aniq joylashtirgandan so‘ng birinchi torni “lya” tovushiga sozlab, keyin qolgan torlar sozlanadi, keyin qolgan torlar sozlanadi. Sozlar yakka tartibda sozlangach, ansambl sadosi bir necha bor eshitib ko‘riladi.

Ansambl uchun repertuar tanlash.

1. Yallama yorim (O‘zbek xalq kuyi)
2. Yulduzcham (A.Muhammedov musiqasi)
3. May (G‘.Qodirov musiqasi)
4. Qorbobo qo‘shig‘i (A.Ilyosov musiqasi)
5. Oftob chiqdi (O‘zbek xalq musiqasi)
6. Olmacha-anor (O‘zbek xalq qo‘shig‘i)
7. imalar devdim sizga (O‘zbek xalq qo‘shig‘i)
8. Kak poshli nashi podrujki (Ukrain xalq qo‘shig‘i)
9. Savka i Grisha (Ukrain xalq qo‘shig‘i)
10. Oy djiguni, djiguni (Ukrain xalq qo‘shig‘i)
11. Qora soch (O‘zbek xalq lapari)
12. Do‘loncha (O‘zbek xalq kuyi)
13. Qashqarcha (B.Pinko qayta ishlagan o‘zbek xalq kuyi)
14. Yumalab-yumalab (O‘zbek xalq qo‘shig‘i)
15. Omon yor (O‘zbek xalq qo‘shig‘i)
16. Tom boshida tog‘ora (O‘zbek xalq qo‘shig‘i)
17. Chamanda gul (O‘zbek xalq qo‘shig‘i)
18. Do‘stlik qo‘shig‘i (A.Muhammedov musiqasi).

Sekin-asta ansambl repertuarining soni ham salomog‘i ham ortib boraveradi. Eng muhimi, yosh cholg‘uchilarda havasni pasaytirmaslik, uni o‘stirish lozim. To‘garakdagi musiqiy mashg‘ulotlar orqali yosh sozandalarda sog‘lom musiqiy didni tarbiyalashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. I.Rajabov. “Maqomlar masalasiga doif’. -T., 1963 yil.
2. O.Ibrohimov. “O‘zbek xalq musiqa ijodi”. Metodik tavsiyalar. -T., 1994 yil.
3. I-IV sinflarda “Musiqa madaniyati” darslari dasturi Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturi. Toshkent. “Sharq” nashriyoti matbaa konserni. 19999 yil, 258-289 betlar.
4. VII-sinflarda “Musiqa madaniyati” darslari dasturi. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturi. Toshkent. “Sharq” nashriyot matbaa konserni. 1999 yil, 7885 betlar.
5. Janaydarov Sh. Va Nurmatov H. Cholg‘ular ansambli. O‘quv qo‘llanma. Toshkent T.D.P.U. 2002 yil.
6. Maqom ansambli. Umumta’lim maktablari va maktabdan tashqari muassasalarning to‘garak rahbarlari uchun dastur. O.Ibrohimov. Toshkent. 1993 yil.


## BADIIY ASARLAR VOSITASIDA O‘QUVCHILARNING MUSIQIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI


**Hikmatova Dilnoza Himmatovna**
NavDU Magistranti
Ilmiy rahbar: **O.O.Fayziyev**
NavDU professori



**Anotatsiya:** Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarini musiqa darslarida diqqat hamda xotirasini shakllantirish uchun tajribadan o‘tgan usullar va musiqa darslarida qollaniladigan didaktik o‘yinlar haqida so‘z boradi.



**Kalit so‘zlar:** diqqat, xotira, musiqiy xotira, e’tibor, didaktik o‘yinlar.


Bugungi kunda har qanday davlatning rivojlanib borishi xalqining osoyishta hayot kechirishi o‘sha davlat yoshlarining ta’lim tarbiyasi odob-axloqi va kelajagiga beriladigan e’tiboridadir. Xususan O‘zbekistonda ham yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. **O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov takidlaganidek “Farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lishlari shart”, deb maqsadni aniq qo‘ydi.**

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2017-2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasi rivojlanishining beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha HARAKATLAR STARTEGIYASI loyihasi ishlab chiqildi. 2019-yil mart oyida beshta muhim tashabbus ilgari surildi. Bu tashabbus o‘z ichiga yoshlarni madaniyat san’at va sportga jalb etish ularda zamonaviy axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, xotin qizlar bandligini ta’minlash vazifalarini oladi.

Yoshlar orasida milliy musiqa san’atimizni targ‘ib etishni maqsad qilgan holda bir nechta qarorlar qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 17.11.2017 yildagi O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ-3391- son:Mumtoz musiqa merosimiz namunalarini notaga olish, mavjud yozuvlarni takomillashtirish va amaliyotga joriy etish, maqom san’atining ijtimoiy-tarixiy ildizlari, ilmiy- nazariy negizlari, milliy va

umumbashariy qadriyatlar bilan bog‘liq jihatlarini yurtimiz olimlari va chet ellik mutaxassislar ishtirokida chuqur o‘rganib, yangi ilmiy tadqiqotlar yaratish;

Maqom san’atining ko‘p asrlik ijro yo‘llarini puxta o‘zlashtirib, ularni yangicha usullar bilan boyitib, yosh avlod vakillariga o‘rgatib kelayotgan maqomchilar, maqomshunos ilmiy- pedagog olimlar va mutaxassislar, Maqom markazi xodimlari faoliyatini moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash;

«Xalqimiz badiiy tafakkurining mahsuli bo‘lgan „Shashmaqom“, ya’ni, olti maqomni, ta’bir joiz bo‘lsa, olti azim daryoga qiyoslash mumkin. Bu daryolar asrlar davomida jahon madaniyat ummoniga quyilib, uni har tomonlama to‘ldirib, boyitib kelmoqda. Shuning uchun ham bu muazzam musiqiy durdona YUNESKO tomonidan jahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgani chuqur ma’no va ahamiyatga ega, deb o‘ylayman», — dedi prezident o‘z nutqida[177].

«Agar biz asl, haqiqiy san’atni bilmoqchi, o‘rganmoqchi bo‘lsak, avvalo mumtoz maqom san’atini bilishimiz, o‘rganishimiz kerak. Agar biz san’atni, madaniyatni ko‘tarmoqchi bo‘lsak, avvalo mumtoz maqom san’atini ko‘tarishimiz kerak. Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur», — dedi davlat rahbar[178]i.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida PQ-112-son qarori:

**1.** 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab ta’lim muassasalarida o‘quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste’dodlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan quyidagi chora- tadbirlar amalga oshirilishi belgilansin:

a) umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida:

musiqa fani o‘qituvchilarini kamida uchta milliy musiqa cholg‘ularida kuy ijro etishga o‘rgatish xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi doirasida amalga oshiriladi, bunda qayta tayyorlash (malaka oshirish) kurslarida mashg‘ulot olib borish uchun madaniyat va san’at sohasi vakillari shartnoma asosida jalb etiladi; b) umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim muassasalarida: ektoriy konsertlari ta’lim va madaniyat muassasalarida tashkil etiladi hamda o‘quvchi va talabalarning musiqiy madaniyati va savodxonligini yuksaltirishga, estetik didi, dunyoqarashini kengaytirishga va musiqani his qilishiga qaratilgan amaliy mashg‘ulotlardan iborat bo‘ladi; v) umumiy o‘rta ta’lim muassasalari, bolalar musiqa va san’at maktablari, madaniyat markazlari: 2022 — 2024- yillarda mazkur qarorga belgilangan reja-jadvalga muvofiq 3 tadan milliy musiqa cholg‘ulari to‘plamlari bilan ta’minlanadi;

milliy musiqa cholg‘ulari to‘plamlari bilan ta’minlash xarajatlari O‘zbekiston Respublikasi respublika budjeti va tegishli mahalliy budjetlardan teng ulushlarda ajratiladigan mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladi;

Prezidentimiz ta’kidlaganidek mamlakatizda madaniyat va san’at taraqqiy etmasa jamiyat rivojlanmaydi, taraqqiyotning chinakam samarasi boylik yoki kuch- qudrat darajasi bilan emas, milliy madaniyatning naqadar yuksaklikka ko‘tarilgani bilan o‘lchanidi deydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72- sessiyasida so‘zlagan nutqida.

Hozirda san’at va madaniyat yoshlar hayotida muhim o‘rin egallamoqda va bu sohalarni rivojlanishi uchun mamlakatimizda bir qancha ijtimoiy va huquqiy qaroqlar qabul qilindi. Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 30-iyun Yoshlar kunida O‘zbekiston xalq shoiri G‘afur G‘ulomning ushbu; ,,Siz axir osmonni olmoq bo‘lsangiz, Ne uchun yelkamni tutib bermayin”, degan so‘zlari bilan yoshlarni

[177]20 1 8-yil 6 sentyabr kuni O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev Shahrisabzda Xalqaro maqom san’ati anjumani ochilish marosimida ish tirok etib, nutq so‘zladi.

[178]2018-yil 6 sentyabr kuni O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev Shahrisabzda Xalqaro maqom san’ati anjumani ochilish marosimida ishtirok etib, nutq so‘zladi.

ruhlantirdi va maqom xonandaligi maqom cholg‘u ijrochiligi, baxchichilik va fortepiano yo‘nalishlariga qabul qilingan talabalar shartnomasi to‘liq davlat tomonidan to‘lab berilishi haqida qaror qabul qildi. Bu qaror O‘zbekistondagi maqom xonanda va sozandalari, baxshichilar hamda fortepiano ijrichilari uchun juda katta yangilik bo‘ldi bunday qaror ularning o‘z ustilarida ishlashlari kerak avlodni o‘zlaridanda bilimliroq qilib tarbiyalashlari uchun turtki bo‘ldi. Ta'lim tizimidagi e'tiborni bilimlarni uzatishdan ularning yordami bilan kasbiy va ijtimoiy ko‘nikma va ko‘nikmalarni shakllantirish va takomillashtirishga o‘tish o‘quv jarayonining barcha tarkibiy qismlarini unda ta'lim mazmuni va shakllarini aks ettirish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqishni talab qiladi. musiqa o‘qituvchisining kasbiy faoliyati. Shu munosabat bilan biz ta'limning barcha shakllari, usullari va vositalaridan foydalangan holda kasbiy faoliyatning sub'ekti va ijtimoiy mazmuni va shakllarini modellashtirishdan iborat bo‘lgan belgi-kontekstni o‘rganishning psixologik-pedagogik kontseptsiyasiga e'tibor qaratishni tanladik. (A.A. Verbitskiy).

Maktab yoshidagi o‘quvchilarda eng muhim muammolardan biri bu aqliy jarayonlarning rivojlanishidir ya’ni xotira va e'tibor. Diqqat va xotirani rivojlantirish yozish, hisoblash va o‘qishni o‘rganish kabi muhimdir.

Maktab yoshida e'tibor va xotira, boshqa barcha aqliy jarayonlar kabi, tafakkurning sifat jihatidan o‘zgarishi tufayli sezilarli o‘zgarishlarga uchraydi.Bolaning xotirasi o‘zboshimchalik xususiyatlariga ega bo‘lib, ongli ravishda tartibga solinadigan va vositachi bo‘ladi. Muvaffaqiyatli maktab ta'limining asosiy shartlaridan biri bu ixtiyoriy diqqat va xotirani rivojlantirishdir. Ta'limni boshlang‘ich maktabda boshlagan bolalar ko‘pincha beparvolik yoki e'tiborning kam rivojlanganligidan aziyat chekishadi. Diqqatning etarli darajada rivojlanishi bilan barcha fikrlash jarayonlari tezroq va to‘g‘riroq davom etadi, harakatlar aniq va aniq amalga oshiriladi, bola o‘z xatti-harakatlarini nazorat qila oladi, faoliyat uchun maqsadlar qo‘yadi va vazifalarni tizimli ravishda hal qiladi.

Bolalarni musiqiy ta'lim, tarbiyalash, rivojlantirishga doir olib boriladigan har bir jarayonda musiqa asarini ijro etish, ularni tinglash va idrok etish shuningdek, musiqani tushunish, fikrlash va tafakkur qilishda diqqat va xotira alohida o‘rin tutadi

Umumta’lim maktabida boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarni musiqa darslarida o‘rgatish jarayonida xotira va e’tiborning ahamiyati juda yuqori. Musiqiy faoliyat turlarining hech biri ( tinglash , ijro etish, ijodiy va boshqalar ) diqqat va xotiraning ma'lum ko‘rinishlarisiz amalga oshirilmaydi.

Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarning rivojlanishidagi muhim kamchilik - bu e'tiborsizlik. . Bolaning e'tiborsizligining sabablaridan biri sog‘lig‘ining yomon holatidir. E'tiborsizlikning sababi uyqusizlik yoki kundalik rejimga rioya qilmaslik ham bo‘lishi mumkin. Ammo normal sharoitda yashovchi sog‘lom bolalar ham e'tiborsiz bo‘lishi mumkin. Bu intizomsizlik yoki o‘rganishga qiziqishning etishmasligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Maktab o‘quvchilarining kontsentratsiyasi, agar ular bajarayotgan ishning vazifasini, maqsadini tushunsalar, yanada barqaror bo‘ladi. O‘qituvchi uchun bolalarning e'tiborini uzoq vaqt saqlab qolishdan ko‘ra, ularni jalb qilish osonroq. Hatto qiziqarli mashg‘ulotning ham monoton ko‘rinishi talabaning e'tiborini charchatadi.

Diqqatning muhim xususiyati uning o‘zgaruvchanligi va konsentratsiyasidir.

Diqqatni almashtirish deganda uning bir ob'ektdan ikkinchisiga, bir faoliyat turidan ikkinchisiga o‘tishi tushuniladi. Bu xususiyat uning diqqatini bir ob'ektdan ikkinchisiga o‘tkazish tezligida namoyon bo‘ladi. Ikki ko‘p yo‘nalishli jarayon diqqatni almashtirish bilan bog‘liq: diqqatni jalb qilish va chalg‘itish. Birinchisi, odamning diqqatini qandaydir narsaga o‘zgartirishi va unga to‘liq e'tibor qaratish, ikkinchisi, chalg‘itish jarayoni qanday amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi. Xotira muammosi pedagogika va psixologiyadagi eng murakkab va dolzarb masalalardan biridir. Xotiraga ta'sir qiluvchi eng muhim omillardan biri insonning tafakkuri, bilimi, bilimi, dunyoqarashidir. Bolaning xotirasi va e'tibori kattalarning xotirasi va e'tiboridan sezilarli darajada farq qiladi. Bola diqqatni jamlashi va unga zarur bo‘lgan materialni qattiq eslab qolishi uchun uni turli usullar va

usullardan foydalangan holda ushbu ishga jalb qilish kerak. Ta'lim jarayonini tashkil etishning bunday shakllaridan biri ko‘pincha o‘yindir. O‘yin inson faoliyatining asosiy turlaridan biridir. O‘yinning inson hayotidagi ahamiyati an'anaviy ravishda psixologiya fanida ta'kidlangan.

Diqqatni faollashtirish, charchoqni kamaytirish, qiziqishni oshirish, shu bilan o‘rganish samaradorligi, fikrlash jarayonini optimallashtirish va bolani insoniy munosabatlarning haqiqiy dunyosiga kiritish uchun o‘yindan foydalanish qobiliyati ta'kidlanadi. A. Leontiev o‘yinni "estetikdan oldingi faoliyat" turi deb ataydi, chunki. unda tasavvur va fantaziya birinchi o‘ringa chiqadi.Ular yordamida bola o‘yindagi yangi voqelikdan xabardor bo‘lib, unda hamma narsa erkinlik qonunlariga bo‘ysunadi va shartli bo‘ladi. Kichik yoshdagi o‘quvchilarning e'tiborini va musiqiy xotirasini rivojlantirish uchun musiqa darslari uchun o‘yin usullari va usullari to‘plamidan foydalanish zarur

Musiqa darsi ijodkorlik darsidir. Ijodkorlik - bu sifat jihatidan yangi narsalarni keltirib chiqaradigan va o‘ziga xosligi, o‘ziga xosligi va ijtimoiy-tarixiy o‘ziga xosligi bilan ajralib turadigan faoliyatdir.

Musiqa darslarida foydalanish mumkin bo‘lgan musiqiy va didaktik o‘yinlar.

Cholg‘uni tanlang tanlang.

Maqsad: O‘quvchilarda cholg‘ular tembrini ko‘rinishini bir biradan farqlay olish.

Tavsif. Turli musiqa asboblari tasvirlangan kichik kartalar to‘plami. (simfonik orkestr asboblari, o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri).

Qo‘llash usuli. O‘qituvchi bolalarga musiqa haqida gapirib,O‘quvchilar turli cholg‘u asboblari tovushining xarakterli xususiyatlarini ifodalovchi asarlar ijro etadi. Tinglagandan so‘ng, talabalar asbobning tegishli tasviri bilan kartalarni tanlashlari kerak.

Ajoyib narvon.

Maqsad. O‘quvchilarda tovushlarni turli balandlikda ijro etib ularni o‘zaro bog‘lash, kuyning harakat yo‘nalishini farqlash qobiliyatini rivojlantirish.

Tavsif. Etti pog‘onali zinapoya tasvirlangan karta. Har bir qadam ma’lum bir balandlikdagi nota hisoblanadi

Qo‘llash usuli. O‘qituvchi fortepianoda bolalarga turli xil notalarni ijro etishni boshlaydi.Bolalar tovush yuqoriga va pastga siljiganda ular qaysi nota ijro etilmaganligini aniqlashlari kerak. Uni aniqlab, ular mos keladigan pog‘onaga qadam qo‘yadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 17.11.2017 yildagi PQ 3391-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida PQ-112-son qarori.
3. Davlatimiz rahbarining 2017 yil 17 noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2018 yil 6 apreldagi “Xalqaro maqom san’ati anjumanini o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorlari.


## CHOR ROSSIYASIDA JADIDCHILIK HARAKATI


**Erkinboyev Fozilbek Zakirjon o‘g‘li-**
**Ilmiy rahbar: Shirinova Firuza Inoyatovna-**
Navoiy davlat universiteti Tarix fakulteti



**Annotatsiya:** Jadidchilik (Usul-u Jadid) harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda va islom olamining boshqa hududlarida shakllangan muhim madaniy va siyosiy harakatlardan biri hisoblanadi. Bu harakat asosan G‘arb dunyosining modernizatsiya ta’siriga javob sifatida yuzaga kelgan. Unda harbiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy sohalardagi ortda qolish sabablari tahlil qilinib, ularga muqobil yechimlar ishlab chiqishga e’tibor qaratilgan. Harakatning yetakchi namoyandalaridan

biri bo‘lgan Ismoil Gaspiralining faoliyati ham shuni ko‘rsatadiki, u yangi ta’lim tizimini rivojlantirish va jamiyatni ma’rifat bilan yuksaltirishni asosiy vazifa sifatida ko‘rgan. Shu maqsadda Usul-i Jadid maktablari tashkil etilib, an’anaviy ta’lim usullaridan farqli ravishda yangicha yondashuv joriy qilingan. Biroq, bu harakat jamiyat ichida turli qarama-qarshiliklarga sabab bo‘lib, ayrim guruhlarning qarshiligiga duch kelgan. Natijada, tashqi va ichki omillar tufayli bu harakat kutilgan natijalarni to‘liq bera olmagan.

**Kalit so‘zlar:** Jadidchilik, Usul-u Jadid, Ismoil Gaspirali, Chor Rossiyasi, Ma’rifatparvarlik, Zamonaviy ta’lim, Musulmon modernizmi, Tatar jadidchiligi, Markaziy Osiyo islohoti, Milliy uyg‘onish.

XVIII-XIX asrlarda Markaziy Osiyo va butun Islom dunyosida G‘arbga nisbatan harbiy, ilmiy va madaniy ustunlik yo‘qolgani istar-istamas tan olingan edi. Sanoatlashtirish va modernizatsiya jarayonining ortishi bilan G‘arb dunyosi tobora katta ta’sir kuchiga ega bo‘lib borayotgan edi. Shunday sharoitda G‘arbning bosimiga qanday javob berish kerakligi, yangi kuchdan kelayotgan tahdid va chaqiriqlarga qanday javob qaytarish lozimligi ziyolilar va davlat boshqaruvining eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qoldi. Shu sababli, turli yechimlar taklif qilina boshlandi. Bu yondashuvlarni ikkita asosiy yo‘nalishga ajratish mumkin: biri — islomiy e’tiqod va madaniyatning asl holatiga qaytish, ikkinchisi esa G‘arbning ilmiy va texnologik taraqqiyotini Islom dunyosining o‘ziga xos madaniy qadriyatlari asosida moslashtirib qabul qilish edi.

Bu jarayonni dastlab Usmoniylar davlati boshdan kechirgan bo‘lsa-da, shunga o‘xshash islohotlar Islom dunyosining boshqa hududlarida ham, jumladan, Chor Rossiyasining musulmon aholisi yashaydigan yerlarda ham yuzaga keldi. Shu maqsadda Ismoil Gaspiralining Chor Rossiyasi hukmronligi ostida yashashga majbur bo‘lgan musulmon aholisini ma’rifat yo‘li bilan uyg‘otish va ularning madaniy hayotini saqlab qolish uchun harakat qilganini ko‘rishimiz mumkin. Bu yondashuv orqali Chor Rossiyasining musulmon aholisini o‘z o‘zligini saqlab qolishga undash maqsad qilingan edi. Ushbu tadqiqotda, tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qilish orqali, aslida katta imkoniyat bo‘lgan, biroq ichki va tashqi ta’sirlar tufayli to‘xtab qolgan va Markaziy Osiyo hamda jahon siyosatida katta o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan jadidchilik harakati tahlil qilinadi. Tadqiqotda birlamchi va ikkilamchi manbalar birgalikda qo‘llanilgan bo‘lib, tavsifiy yondashuv asosida olib borilgan.

Jadidchilik[179] yoki Usul-u Jadid harakati, XIX asr oxirlarida Rossiyadagi musulmon turklar orasida paydo bo‘lgan ta'lim va madaniyat sohasidagi islohot harakatidir. Jadidchilik so‘zi arabcha "jadid" so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, "yangi" degan ma'noni anglatadi. Jadid so‘zidan hosil bo‘lgan "tajdid" esa "yangilash, qayta tiklash", "mujaddid" yoki "jadidchi" esa "yangilovchi shaxs" ma’nolarini bildiradi. Jadidchilik atamasi eskirgan yoki buzilgan qadriyatlarning o‘rniga yangisini joriy etish yoki eski an’analarni qayta tiklash degan ma’noni ham anglatishi mumkin. Shuning uchun bu tushunchaning ham oldinga, ham orqaga qaragan jihatlari bor deb aytish mumkin.

Jadidchilik davrida tez-tez uchraydigan "islah" tushunchasi ham xuddi shunday ikki ma'noga ega. "Isloh" so‘zi "buzilishning teskari tomoni, to‘g‘rilash, kamchiliklarni bartaraf etish, yomonlikni yo‘qotish, nosozliklarni yaxshilash, ta’mirlash va sog‘lomlashtirish" ma’nolarini anglatadi. Bundan tashqari, islah deganda "bir narsani avvalgi yaxshi holatiga qaytarish yoki eskirgan jihatlarini yangi unsurlar bilan almashtirish" tushuniladi (Maraş, 2002: 31-32)[180]. Shu sababli, Usul-u Jadid harakatiga

[179] Jadidchilik bilan bog‘liq qo‘shimcha ma’lumot uchun qarang:
Begali Qosimov (1995), “20-asr boshlarida Turkistondagi Jadidchilik harakatining asosiy xususiyatlari”, Avrasiya Etüdləri Dergisi, Jild: 2, Son: 8, bet. 88-97.

[180] Ibrohim Marjas (2002), “Turk dunyosida diniy yangilanish (1850-1917)”, Ötüken Yayınları №535, Madaniyat seriyasi: 231, Istanbul.

yo‘naltiruvchi va uning g‘oyaviy asosini tashkil etuvchi ushbu ikki tushuncha bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, deyarli sinonim sifatida qo‘llanilgan.

Jadidchilik harakati 1884-yilda Ismoil Gaspiralining Qrimda Usul-u Jadid maktablarini ochishi bilan siyosat va tarix adabiyotiga kirib kelgan. Aslida esa, jadidchilikka olib boruvchi jarayon Usmoniylar davlatining 1683-yildagi Venadagi mag‘lubiyatidan keyin boshlangandek tuyuladi. Shu paytgacha mag‘lubiyat nimaligini bilmagan va o‘zining ustunligini shubha ostiga qo‘ymagan Islom dunyosi, endi o‘zini o‘zidan past deb hisoblagan xristianlar tomonidan mag‘lub etilayotganini ko‘rib katta fikriy inqirozga tushdi. Venadagi mag‘lubiyatdan keyingi 300 yil davomida Usmoniylar davlati va butun Islom dunyosi o‘zlarini nega g‘ayrimuslimlarga mag‘lub bo‘lishayotgani, nima uchun ortda qolayotganini va ilmiy-texnologik oraliqni qanday yopish mumkinligini izlash bilan band bo‘ldi. Bu fikr Markaziy Osiyo va boshqa Islom yurtlarida ham aks sado berib, bu mintaqada Usul-u Jadid harakati shakllanishiga olib keldi.[181] Jadidchilik harakati dastlab Volga-Ural mintaqasida Tatarlar orasida keng tarqalgan bo‘lsa, keyinchalik Qrim va boshqa hududlarga yoyildi.[182] Ushbu harakatning muvaffaqiyati ehtiyoj va xavf hissi bilan bog‘liq edi. Chunki XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Volga Tatarlarining savdo bilan shug‘ullanuvchi o‘rta sinfi Rossiya imperiyasidagi iqtisodiy o‘zgarishlardan salbiy ta’sir ko‘ra boshladi. Natijada, Tatarlarning yangi maktablar ochishi, matbuotni rivojlantirishi va modern ta’lim tizimiga o‘tishi jadidchilik harakatini kuchaytirdi. Xuddi shu jarayon Kavkaz va Markaziy Osiyoda ham kechdi. Rossiyaning Markaziy Osiyoni bosib olishi jadidchilik g‘oyalarining tarqalishiga imkon yaratdi. 1885-yilda Gaspirali Ismoil tomonidan nashr etilgan Tarjimon gazetasi Markaziy Osiyoda ham o‘z o‘quvchilarini topdi. Markaziy Osiyolik jadidchilar Ismoil Gaspirali shaxsiga katta hurmat bilan qaragan va uning ko‘plari u bilan bevosita aloqada bo‘lgan. Shuningdek, Tatar maktablari va nashrlari uzoq vaqt davomida Markaziy Osiyo jadidchilari uchun asosiy ta’lim vositasi bo‘lib qoldi. Rossiyaning boshqa hududlaridan ayrim musulmonlar Markaziy Osiyoga kelib, yangi usulda ta’lim beruvchi maktablarda dars bera boshladilar. Ammo Markaziy Osiyoda jadidchilikning rivojlanishini faqatgina Tatar ta’siri bilan bog‘lash noto‘g‘ri bo‘lardi. Bu harakatni Markaziy Osiyo aholisi o‘z ehtiyojlariga moslashtirib qabul qildi va rivojlantirdi. Jadidchilik harakati XIX asr oxirida faqat ta’lim bilan cheklanmay, balki ijtimoiy va diniy islohotlarni ham o‘z ichiga oldi. Ayrim jadidchilar Islom dini doirasida yangilanish zarur ekanini ilgari surgan bo‘lsa, boshqalari diniy urf-odatlarning ortiqcha qattiq qo‘llanishini tanqid qilishgan.[183]

Jadidchilik harakati dastlab Tatarlar orasida paydo bo‘lib, keyinchalik Qozog‘iston, Markaziy Osiyo va boshqa islomiy mintaqalarga tarqaldi. Bu harakat Turkiyaning modernizatsiya harakatiga ta’sir ko‘rsatdi va milliy ong rivojlanishiga hissa qo‘shdi.

Kazan va Astraxanning Rossiya tomonidan bosib olinishi va bu yerlardagi musulmon aholi majburan nasroniylashtirilishi Tatar ziyolilarida milliy ongning kuchayishiga sabab bo‘ldi. Rossiya davlati ba’zan musulmonlarga nisbatan yumshoq siyosat olib borgan bo‘lsa-da, ishonchsizlik davom etardi. Rossiya hukumati tomonidan jadidchilarga nisbatan cheklovlar qo‘yilganligi sababli, ayrim Tatar va Ozarbayjon ziyolilari Turkiyaga ko‘chib o‘tdi. Istanbulda Yusuf Akchura, Ayaz Ishoqiy, Husayin Zoda Ali, Ahmad A’g‘o‘li kabi jadidchilar faoliyat yuritdi va gazeta va jurnallar nashr etish orqali bu g‘oyalarni keng yoydi.

Markaziy Osiyoda rus ta’siri kuchaygan sari, jadidchilik harakati qiyinchiliklarga duch keldi. Rossiya ma’muriyati bu harakatni nazorat qilish va cheklashga harakat qildi. Ular jadidchilik harakati

[181] Serge A. Zenkovski (2000), Rossiyada turkchilik va islom, Ali Nejat Ongun (tarj.), Istanbul: Günce nashriyoti, bet. 76-86.
[182] Ahmet Kanlıdere (1995), “The Revitalizing Aspect of the Tatar Reform Movement”, University Seminar for Studies in the History and Culture of the Turks, New York: Columbia University.
[183] Gaspirali I. (1883-1914). Tarjimon gazetasi maqolalari.

orqali musulmonlarning milliy ongining kuchayishidan xavotirda edilar. Shuning uchun jadid maktablarini turli usullar bilan cheklash yoki yo‘q qilishga urindilar.

Jadidchilik harakati Markaziy Osiyo va Rossiya musulmonlari orasida ilm-fan, madaniyat va milliy ongni rivojlantirishga qaratilgan muhim islohot harakati bo‘ldi. Bu harakat, ayniqsa, Ismoil Gaspirali tashabbusi bilan rivojlandi va butun musulmon dunyosiga ta’sir ko‘rsatdi. Biroq, jadidchilikning tez rivojlanishiga qaramay, Rossiya hukumati va ichki konservativ kuchlar tomonidan bu harakatga qarshilik ko‘rsatildi.[184] Oqibatda, jadidchilik harakati maqsadlariga to‘liq erisha olmadi, lekin u musulmon jamoalarida modernizatsiya g‘oyalarining paydo bo‘lishiga katta hissa qo‘shdi.

XIX asr oxirida Markaziy Osiyoda davom etayotgan siyosiy va madaniy muammolar natijasida jadidchilik harakati shakllana boshladi. Bu yillarda Markaziy Osiyodagi mutaassib kuchlar va zamonaviy bilimlarni egallashga intilayotgan yosh aql egalari o‘rtasida keskin tafovut mavjud edi. O‘sha paytdagi islohotchilar "jadidchilar" deb nomlangan bo‘lib, ular ta'limni zamonaviy usullar bilan isloh qilish, tabiiy va aniq fanlarni o‘rgatish tarafdori edilar. Shu maqsadda yangi maktablar ochilib, gazeta va jurnallar chiqara boshlandi, ilm-fan va texnologiyani o‘rganish zarurligi ta’kidlandi.

1890-yilda Farg‘onada, 1893-yilda Samarqandda dastlabki Jadid maktablari ochildi. Buxorodagi va umuman Markaziy Osiyodagi Usul-u Jadid maktablarining ochilishida Ismoil Gaspiralining katta hissasi bor edi. U Buxoro va butun Markaziy Osiyoni uyg‘otish, u yerdagi xalqni ta’lim orqali mustamlakachilik zulmidan xalos qilishga chaqirar edi. Chunki u Markaziy Osiyoda yuzaga keladigan uyg‘onish butun Islom dunyosi mustamlakachilikdan qutilishiga yordam berishi mumkin, deb o‘ylardi.

Biroq bu yangilanish harakati mutaassib doiralar tomonidan kuchli qarshilikka uchradi. O‘z dinini va an'anaviy qadriyatlarini G‘arb ta’siridan himoya qilish tarafdori bo‘lganlar Usul-u Jadidni "G‘arbga ergashish" deb qabul qilib, unga qarshi chiqishdi. Bu esa jadidchilikning oldinga siljishiga to‘sqinlik qildi.

Jadidchilik harakati Markaziy Osiyo, Rossiya musulmonlari va Islom dunyosida katta ta’sir o‘tkazgan modernizatsiya harakati bo‘lib, uning asosiy maqsadi musulmonlarni ilmiy va madaniy jihatdan taraqqiy ettirish edi. Ismoil Gaspiralining sa’y-harakatlari bilan boshlangan bu jarayon Buxoro, Samarqand, Qozon, Qrim va boshqa joylarga tarqaldi. Biroq ichki qarshiliklar va Rossiya imperiyasining tazyiqlari sababli bu harakat uzoq davom eta olmadi va oxir-oqibat inqirozga yuz tutdi.

**Foydalangan adabiyotlar;**

1. Qosimov B. (1995). “XX asr boshlarida Turkistondagi Jadidchilik harakatining asosiy xususiyatlari”. Avrasiya Etüdləri Dergisi.

2. Khalid A. (1998). The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. Berkeley, CA: University of California Press.

3. Devlet N. (1999). Rusya Türklerinin Milli Mücadele Tarihi. Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları.

4. Kanlıdere A. (1997). Reform Within Islam: The Tajdid and Jadid Movement Among The Kazan Tatars (1809-1917). İstanbul: Eren Yayıncılık.

5. Gaspirali I. (1883-1914). Tarjimon gazetasi maqolalari.

6. Ibrohim Marjas (2002), “Turk dunyosida diniy yangilanish (1850-1917)”, Ötüken Yayınları №535, Madaniyat seriyasi: 231, Istanbul.

[184] Devlet N. (1999). Rusya Türklerinin Milli Mücadele Tarihi. Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları.

# TRADING STRATEGIES AND TECHNICAL ANALYSIS METHODS: CHART PATTERNS AND INDICATORS

**To‘qmirzayev Kamol Mo‘min o‘g‘li,**
Profi Universiteti (Navoiy Filiali) rektor yordamchisi,
E-mail: kamoltukmirzayev@mail.ru tel: +998902342015
ORCID iD: 0009-0000-4245-0729

**Abstract.** This article examines the significance of technical analysis methods in financial markets and their application in trading strategies. Specifically, the role of chart patterns and technical indicators in predicting market movements is analyzed. The study evaluates the effectiveness of the most popular chart patterns (head and shoulders, double top, flag) and trend, momentum, and volume indicators (MACD, RSI, Bollinger Bands, On-Balance Volume) based on real market data. Since technical analysis relies solely on historical data, integrating it with fundamental analysis is of great importance.

**Keywords:** technical analysis, chart patterns, indicators, trading strategies, market analysis, technical indicators, mathematical model, technical metrics.

## Торговые стратегии и методы технического анализа: графические паттерны и индикаторы

**Аннотация.** В данной статье изучается значение методов технического анализа на финансовых рынках и их применение в торговых стратегиях. В частности, рассматривается роль графических паттернов и технических индикаторов в прогнозировании движений рынка. В ходе исследования оценивалась эффективность наиболее популярных графических паттернов (голова и плечи, двойная вершина, флаг) и индикаторов тренда, импульса и объема (MACD, RSI, Bollinger Bands, On-Balance Volume) на основе реальных рыночных данных. Поскольку технический анализ опирается исключительно на исторические данные, его интеграция с фундаментальным анализом приобретает важное значение.

**Ключевые слова:** технический анализ, графические паттерны, индикаторы, торговые стратегии, анализ рынка, технические индикаторы, математическая модель, технические показатели.

## Bolalarni kelajak kasblariga yo‘naltirish: Kriptovalyutalarga investitsiya qilishdagi xatarlar va ularni boshqarish mexanizmlari

**Annotatsiya.** Raqamli iqtisodiyot global mehnat bozorlarini tubdan o‘zgartirayotgan bir paytda, yosh avlodni yangi raqamli kasblarga tayyorlash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqola yoshlarning kriptovalyutalarga qiziqishining ortib borayotgan tendensiyasini tahlil qiladi va ular duch kelayotgan murakkab investitsion xatarlarni baholaydi. Volatillik, tartibga solinmagan muhit va kiberxavfsizlik tahdidlarini chuqur tahlil qilib, maqola ushbu xatarlarni boshqarish bo‘yicha samarali strategiyalarni taklif etadi. Bundan tashqari, ta’lim tizimida kriptosavodxonlikni joriy etish orqali raqamli moliyaviy muhitda mustaqil harakatlana oladigan va uni shakllantirishga qodir, moliyaviy jihatdan savodli yosh mutaxassislarni tayyorlash zarurligi asoslanadi.

**Kalit so‘zlar**: kriptovalyuta, investitsiya xavfi, yoshlar moliyaviy savodxonligi, raqamli iqtisodiyot, blokcheyn kasblari, ta’lim innovatsiyasi

**Kirish.** Tez sur’atlar bilan raqamlashtirilayotgan dunyoda yosh avlodni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan ta’minlash ko‘plab mamlakatlar uchun strategik ustuvor vazifaga aylanmoqda. Blokcheyn texnologiyasi va kriptovalyutalarning paydo bo‘lishi 21-asrning eng inqilobiy innovatsiyalaridan biri sifatida qaralmoqda. Ayrim hududlarda 18 yoshgacha bo‘lgan yoshlarning 50

foizdan ortig‘i raqamli investitsiyalarning biror shaklida ishtirok etgan [185], bu esa raqamli moliyaviy savodxonlik bo‘yicha tizimli ta’lim zarurligini yaqqol ko‘rsatadi.

Mazkur maqola quyidagilarni maqsad qiladi:

- Yoshlar duch kelayotgan kriptoaktivlardagi investitsiya xatarlarini tahlil qilish
- Ularni boshqarish mexanizmlarini taklif etish
- Erta kasbiy yo‘naltirish tizimlariga kriptomoliyaviy savodxonlikni integratsiya qilish zarurligini asoslash

Tadqiqotda sifatli kontent tahlili, transmilliy taqqoslashlar va ilg‘or adabiyotlar sharhi metodlari qo‘llanilgan.

**Kriptovalyutalarning rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyotdagi o‘rni.** Bitcoin, Ethereum va Solana kabi kriptovalyutalar alternativ investitsion vosita, to‘lov tizimi hamda innovatsion platformalarga aylangan. Ular Web3 deb nomlangan blokcheyn asosidagi markazlashmagan internetning asosi hisoblanadi. 2024-yil boshida global kriptovalyutalar bozori kapitalizatsiyasi $2,6 trilliondan oshdi va institutsional investorlar soni ortib bormoqda [186].

Bu jarayonlar nafaqat moliyaviy oqibatlarni, balki mehnat bozorining o‘zgarishini ham aks ettiradi. Smart-kontrakt ishlab chiqish, markazlashmagan moliya (DeFi), NFT va metaverse integratsiyasi kabi yangi kasblar vujudga kelmoqda [187]. Bolalar bu tushunchalar bilan erta tanish bo‘lsa, kelajakda raqobatbardosh bo‘lishlari osonlashadi.

**Yosh investorlar uchun kriptovalyutalardagi xatarlar manzarasi.** Volatillik va bozor spekulyatsiyasi: Kriptovalyutalar an’anaviy aktivlardan farqli o‘laroq, ijtimoiy tarmoqlardagi tendensiyalar, spekulyatsiyalar va global yangiliklardan kuchli ta’sirlanadi. Masalan, Elon Musk tomonidan qilingan tvitlar Dogecoin narxining keskin o‘zgarishiga sabab bo‘lgan [188]. Bunday volatillik bir necha soat ichida katta yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin, ayniqsa tajribasiz yoshlar uchun.

Huquqiy bo‘shliqlar va tartibga solinmaslik: Ko‘plab mamlakatlarda kriptovalyutalarning qonuniy maqomi hali to‘liq belgilab olinmagan, bu esa yosh investorlarni firibgarlik, noqonuniy platformalar yoki investitsion piramidalarga nisbatan himoyasiz qiladi [189]. 2022-yilda 20 dan ortiq yirik kripto birjalari faoliyati to‘xtatilgan bo‘lsa-da, ko‘plab yoshlar VPN orqali ulardan foydalanishda davom etgan.

Kiberxavfsizlik va moliyaviy jinoyatlar: Kriptoaktivlarning ommalashuvi yangi turdagi kiberjinoyatlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Chainalysis ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda kriptoga oid firibgarlik va xakerlik holatlari $3.8 milliard zarar yetkazgan [190]. Phishing, ijtimoiy muhandislik va smart-kontrakt ekspluatatsiyalari yoshlar tomonidan yetarlicha anglanmaydi.

Psixologik va xulq-atvor xavflari: Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlar yuqori xavfli aktivlarga investitsiya qilishda “ommaviy ergashish” va “foydani qo‘ldan boy berish qo‘rquvi” (FOMO) holatiga juda moyil bo‘ladilar [191]. Bu esa hissiyotga asoslangan noto‘g‘ri investitsion qarorlarni kuchaytiradi.

**Yoshlar uchun kriptoinvestitsiyalardagi xatarlarni boshqarish mexanizmlari.** Moliyaviy ta’lim va kriptosavodxonlik: Maktab dasturlariga raqamli moliya va kriptoasoslarni erta kiritish, yoshlarning ongli investitsion qarorlar qabul qilishiga xizmat qiladi. Estoniya va Singapur bu borada ilg‘or dasturlarni amalga oshirgan[192].

---

185 OECD. (2022). *Youth and Digital Finance: Emerging Trends*.
186 CoinGecko. (2024). *Crypto Market Capitalization Overview*.
187 World Economic Forum. (2023). *Future of Jobs Report: Digital Professions*.
188 CNBC. (2021). *Elon Musk’s Crypto Influence: Risk and Regulation*.
189 IMF. (2023). *Crypto Regulations Across Jurisdictions*.
190 Chainalysis. (2022). *Crypto Crime Report 2022*.
191 Journal of Behavioral Finance. (2021). *Teen Investment Psychology in Digital Markets*.
192 Ministry of Education, Singapore. (2023). *National Financial Literacy Framework*.

Simulyatsiyalangan o‘rgatish tizimlari: Virtual portfellar, o‘yinlashtirilgan platformalar orqali bozor harakatlarini real investitsiyasiz o‘rganish imkoniyati yaratiladi. Investopedia Simulator va CoinMarketGame kabi vositalar mahalliy ta’lim tizimlariga moslashtirilishi mumkin.

Regulyatsiya xabardorligi kampaniyalari: Ta’lim muassasalari moliyaviy regulyatorlar bilan hamkorlikda yoshlarga qonuniy huquqlar, xavfsiz platformalar va shikoyat mexanizmlari haqida ma’lumot berishlari kerak. Real holatlardagi firibgarlik misollarini darslarda muhokama qilish tanqidiy fikrlashni kuchaytiradi.

Texnik va fundamental tahlil ko‘nikmalari: Grafiklar, hajm tahlili va tokenomika asoslarini o‘rgatish yoshlar uchun “hype” ortidagi real harakatlarni anglash imkonini beradi. Buning uchun TradingView va boshqa interaktiv vositalardan foydalanish mumkin [193].

Ota-ona va ta’lim muassasalari ishtiroki: Farzandlarining raqamli moliyaviy faoliyatida ota-onalar doimiy ishtirok etishi zarur. Uyda va maktabda ochiq muloqot maydonlari tashkil etilishi muhim.

Raqamli asrda kasbga yo‘naltirish: Zamonaviy kasbga yo‘naltirish tizimi blokcheyn ishlab chiqish, kriptoiqtisodiyot, fintech regulyatsiyasi va markazlashmagan texnologiyalar sohalaridagi imkoniyatlarni aks ettirishi kerak. Oliy ta’lim muassasalari:

- Blokcheyn va DeFi bo‘yicha tanlov kurslarini joriy etishlari
- Kripto-innovatsion lagerlar va hakatonlar tashkil etishlari
- Texnologik kompaniyalar bilan amaliyot dasturlarini yo‘lga qo‘yishlari mumkin

Jahon banki yoshlarga oid strategiyalarni raqamli transformatsiya yo‘nalishlari bilan uyg‘unlashtirishni tavsiya etadi, bu mehnat bozoridagi malaka nomutanosibligini kamaytiradi [194].

**Xulosa.** Kriptovalyutalar bir vaqtning o‘zida innovatsiya va inklyuziv iqtisodiyotni rivojlantirish imkonini beruvchi vosita, hamda ayniqsa yosh avlod uchun jiddiy xavf manbai bo‘lishi mumkin. Raqamli moliya kundalik hayotga tobora chuqurroq kirib borayotgan bir vaqtda, yoshlarni bu borada bilimli qilish milliy ta’lim va iqtisodiy rivojlanish strategiyalarining ajralmas qismiga aylanishi zarur.

Ushbu maqolada yuqori volatillik, tartibga solinmagan muhit va kiberjinoyatlar kabi asosiy xatarlar yoritilib, ularni boshqarish vositalari sifatida moliyaviy savodxonlik, xavflarni oldindan aniqlash va axloqiy yondashuvlar ilgari surildi.

Shu bois, quyidagi tomonlarning hamkorligi muhim:

- Ta’lim muassasalari – raqamli moliyaga oid bilimlarni maktabdan boshlab joriy qilishlari;
- Davlat va regulyatorlar – xavfsiz, shaffof platformalarni kafolatlashlari;
- Oila va jamiyat – ochiq muloqotni va ongli qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlashlari lozim.

To‘laqonli ta’limiy va huquqiy muhitda ulg‘ayotgan yoshlar nafaqat himoyalangan investor, balki mas’uliyatli va innovatsion raqamli iqtisodiyot quruvchisiga aylanishi mumkin. Ularning raqamli savodxonligi kelajakdagi kasbiy yo‘nalishlarigagina emas, balki butun global moliyaviy tizimga ta’sir ko‘rsatadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar


1. OECD. (2022). Youth and Digital Finance: Emerging Trends.
2. CoinGecko. (2024). Crypto Market Capitalization Overview.
3. World Economic Forum. (2023). Future of Jobs Report: Digital Professions.
4. CNBC. (2021). Elon Musk’s Crypto Influence: Risk and Regulation.
5. IMF. (2023). Crypto Regulations Across Jurisdictions.
6. Chainalysis. (2022). Crypto Crime Report 2022.
7. Journal of Behavioral Finance. (2021). Teen Investment Psychology in Digital Markets.
8. Ministry of Education, Singapore. (2023). National Financial Literacy Framework.
9. Murphy, J. (2021). Technical Analysis of the Financial Markets. McGraw-Hill Education.
10. World Bank. (2023). Digital Jobs and the Future of Youth Employment.


[193] Murphy, J. (2021). *Technical Analysis of the Financial Markets*. McGraw-Hill Education.
[194] World Bank. (2023). *Digital Jobs and the Future of Youth Employment*.

# O‘ZBEKISTONDA TA’LIMNI RAQAMLASHTIRISH VA EdTechning JORIY ETILISHI

**T.U.O‘tapov-**
**NavDU Informatika kafedrasi dotsenti**

***Annotatsiya:*** ushbu maqolada asosan ta’lim tizimini raqamlashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar to‘g‘risda xususan, ta’limni raqamlashtirish bosqichlari, ta’limda raqamli texnologiyalarni joriy etishning sabablari**,** EdTech sohasining rivojlanishi, e-Maktab, Hemis platformalarining joriy etilishi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

***Kalit so‘zlar:*** EdTech, e-maktab.uz, hemis.uz ta’lim platformasi, raqamli texnologiyalar.

**Аннотация:** в данной статье представлена информация о проводимых мероприятиях по цифровизации системы образования, в частности, о стадиях цифровизации образования, причинах внедрения цифровых технологий в образование, развитии сферы EdTech, внедрении платформ e-School, Hemis.

**Ключевые слова:** EdTech, e-maktab.uz, образовательная платформа hemis.uz, цифровые технологии.

**Annotation:** This article primarily provides information about the measures being taken to digitalize the education system, in particular, the stages of digitalization of education, the reasons for the introduction of digital technologies in education, the development of the EdTech sector, the introduction of e-School, Hemis platforms.

**Keywords**: EdTech, e-maktab.uz, the hemis.uz educational platform, digital technologies.

EdTech (inglizchadan education — «ta’lim» va technology — «texnologiyalar») — ta’lim texnologiyalari sohasidagi loyihadir. Ta’limni raqamlashtirish deyilganda masofadan va bevosita ta’lim muassasasida elektron o‘qitish uchun turli dasturlar, ilovalar va boshqa qo‘shimcha raqamli resurslardan foydalanish tushuniladi. Shuni alohida qayd etish lozimki, ta'limni raqamlashtirish va masofaviy onlayn ta’lim bu aynan bir xil jarayon emas. Raqamlashtirish tushunchasi juda keng qamrovli hisoblanadi. Yana bir muhim jihati raqamlashtirish nafaqat o‘quv jarayoniga tegishli, balki uni tashkillashtirishda ham bevosita qo‘llaniladi.

2020-yilda boshlangan koronovirus pandemiyasidan keyin ta’limni raqamlashtirishga e’tibor va uni joriy etish masalasi hukumat darajasida muhokamaga aylandi. Barcha ta’lim muassasalari masofaviy onlayn o‘qitish tizimiga o‘tishga majbur bo‘lishdilar. Aslida raqamlashtirish jarayonlari dunyo miqyosida ancha oldin boshlangan bo‘lib ta’limda raqamli vositalardan foydalanish atamasi allaqachon kun tartibidagi masalaga aylanib ulgurgan.

Butunjahon iqtisodiy forrumining baholashiga ko‘ra 2025 – yilga borib ta’limga mo‘ljallangan raqamli texnologiyalar bozorining hajmi 342 millyard dollarga etar ekan. Faqatgina Coursera platformasida bir yilda 100 mln tinglovchi onlayn o‘qishgan.

**Dunyo bo‘yicha ta’limni raqamlashtirish quyidagi bosqichlarni bosib o‘tdi:**

Saksoninchi yillarning o‘rtalari - to‘qsoninchi yillarning boshlarida raqamlashtirishning birinchi to‘lqini kompyuter savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, maktab va oliy o‘quv yurtlarida birinchi kompyuter sinflarining paydo bo‘lishini o‘z ichiga oldi;

Ikkinchi bosqichda o‘quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish haqida gap bordi - raqamli qurilmalar va formatlar nafaqat informatika darslarida qo‘llanila boshlandi;

Uchinchi - zamonaviy bosqichda, taxminan 2018-yildan boshlab, gap raqaml transformatsiya - ta’limning barcha jarayonlarida raqamli texnologiyalarni qo‘llash haqida bormoqda.

Ta’limni raqamli transformatsiya qilish jarayonida quyidagilar yangilanadi:

Bugungi kunda odamlarga hayotda raqamli kompetensiyalar kerak bo‘ladi (masalan, davlat idoralari bilan deyarli barcha o‘zaro aloqalar endi elektron "Davlat xizmatlari" orqali, banklar bilan - raqamli ilovalar orqali amalga oshiriladi; juda ko‘p odamlarning ishini raqamli texnologiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi). Demak, bolalarni raqamli texnologiyalardan to‘g‘ri foydalanishga maktabdayoq o‘rgatish yaxshiroq;

O‘qitishning pedagogik usullari va texnologiyalari, chunki raqamli muhitdagi mashg‘ulotlar sinfdagi an’anaviy mashg‘ulotlardan ko‘p jihatdan farq qiladi (hatto raqamli didaktika tushunchasi paydo bo‘ldi).

**Nima uchun ta’limda raqamli texnologiyalar joriy etilmoqda?**

Ko‘pchilik ekspertlarning fikricha raqamli internet muhiti hayotimizning ajralmas qismiga aylanib, ko‘plab jarayonlarni osonlashtirayotgani uchun bizning asrimizda ta’limni raqamlashtirishsiz olib bo‘lmaydi, Masalan, Sankt-Peterburg davlat universitetining pedagogika instituti direktori, oliy ta’lim tizimidagi "Ta’lim va pedagogika fanlari" federal o‘quv-uslubiy birlashmasi raisi Yelena Kazakova ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish yoki foydalanmaslik masalasi kun tartibida emas deb hisoblaydi va quyidagilarni ta’kidlaydi "Biz hech qanday raqamli texnologiyalarni joriy qilmaymiz. Biz boshqa olamda yashay boshladik! Endi raqamli texnologiyalarni joriy etishga umid qilishni to‘xtatamiz. Nima, butun dunyo raqamlashtirilib, biz bo‘r va taxta bilan ishayveramizmi? Bu kulgili-ku, bunday bo‘lmaydi-ku."

Shuningdek, Rossiya Oliy iqtisodiyot maktabining ilmiy-tadqiqot instituti rektori Nikita Anisimov ham raqam kelajak emas, balki muqarrar voqelik va uning muqobili yo‘qligini, shuning uchun oliy o‘quv yurtlari qayta qurilishi va raqamli yetuklikka erishishi kerakligini ta’kidladi. Boshqacha aytganda, raqamli vositalardan foydalanish moda masalasi emas, balki dolzarb zaruriyatdir.

**Ta’limda raqamlashtirish qanday foyda keltirishi mumkin?**

Bugungi kunda ta’limda raqamli texnologiyalarning samaradorligi kamida quyidagi asosiy yo‘nalishlarda tasdiqlangan:

Barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’limda ham raqamlashtirish tashkiliy vazifalarni osonlashtiradi. Maktab elektron kundaligida ma’lumotni qayd etish va uzatish qulayroq (masalan, o‘qituvchidan o‘quvchining ota-onasiga va aksincha), oliy o‘quv yurtlari uchun zamonaviy vositalar esa minglab talabalarning har biri uchun individual jadval tuzish imkonini beradi (bunda uning shaxsiy tanlovini hisobga olish);

Raqamlashtirish o‘quvchilar va talabalar uchun ta’lim olish imkoniyatlarini qulaylashtiradi. Shunday qilib, o‘quvchilarning bir qismi o‘qituvchi bilan auditoriyada, bir qismi esa uydan masofadan turib ulanadigan gibrid ta’lim imkoniyatlari esa, o‘quvchilar va talabalarga jismoniy (masalan, kasallik tufayli) qatnasha olmaganlarida darslarni o‘tkazib yubormaslikka imkon beradi;

Auditoriyadagi mashg‘ulotlarning odatiy shakli bilan bir qatorda raqamli texnologiyalardan foydalanadigan aralash ta’lim imkoniyatlari ta’limni yanada individuallashtirishga yordam beradi: ko‘proq qobiliyatli o‘quvchilarga mavzular va mashg‘ulotlarni qiyinroq va zaifroqlarga ular uchun eng qiyin mavzularni ishlab chiqishga yordam beradi. To‘liq onlayn dasturlarda istalgan joyda jismonan turib o‘qish va imtihon topshirish mumkin;

Onlayn ta’lim oddiy formatga qaraganda ancha keng ko‘lamli ta’lim kontentiga kirish imkonini beradi. Dunyoning yetakchi universitetlarining ommaviy kurslari joylashtirilgan yirik onlayn platformalar (Coursera, Khanacademiya va boshqa shunga o‘xshash loyihalar) dunyoning istalgan nuqtasidan, masalan, Garvard yoki MDU ma’ruzalarini tinglash imkonini beradi;

Bunday platformalar paydo bo‘lgunga qadar bunday imkoniyat faqat tegishli oliy ta’lim muassasalari talabalarida mavjud edi, ammo hamma ham u yerga kirish imkoniyatiga ega emas. Hozir turli oliy o‘quv yurtlari o‘z dasturlariga boshqa yetakchi universitetlarning tayyor ma’ruza kurslarini kiritishi mumkin

O‘zbekiston dunyoning ko‘plab mamlakatlari singari davlat va jamiyat institutlarining normal faoliyat ko‘rsatishiga, siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma’rifiy asoslarni yaratishga va mustahkamlashga intiladi. Kerakli islohotlarni o‘qimishli kishilar ishlab chiqib, amalga oshirgan taqdirdagina maqsadga erishish mumkin. Ta’lim hamma narsaning asosini tashkil etadi! Raqamlashtirish bu sohada mavjud muammolarni hal qilishga yordam beradi. O‘zbekistonning raqamlashtirilishi taxminan 12 yil oldin boshlangan. 2012-yilda respublika hukumati "Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish bo‘yicha keng qamrovli dastur"ni tasdiqladi.

2013-yil iyul oyida mamlakatimizda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali ishga tushdi. 2016-yilda O‘zbekiston fuqarolari my.gov.uz portalida yagona OneID tizimidan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu tizim foydalanuvchilarni identifikatsiya qilish orqali davlat organlari va tijorat korxonalarining keng ko‘lamli xizmatlaridan foydalanish imkonini beradi.

2017-yilda O‘zbekiston hukumati tomonidan 2017-2021-yillarda respublikani rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi. 2020-yilda "Raqamli O‘zbekiston - 2030" strategiyasi qabul qilindi. Ushbu strategiya doirasida elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, ushbu sohani malakali kadrlar bilan ta’minlash kabi keng qamrovli ijobiy ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

O‘zbekiston Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-5712-son Farmoni qog‘ozli maktab hujjat aylanishidan elektron hujjat aylanishiga o‘tish uchun asos bo‘ldi. Prezidentning 06.11.2020 yildagi "O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-6108-son Farmoni doirasida:

Xalq ta’limi vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan birgalikda 2022/2023 o‘quv yiliga qadar o‘quvchilar bilimini baholash jarayonini raqamlashtirish va shaffofligini ta’minlash maqsadida barcha umumta’lim muassasalarida "Elektron kundalik" dasturini joriy etish vazifasining ijrosi o‘laroq “Elektron kundalik” (hozirgi eMaktab) raqamli ta’lim platformasini sinovdan o‘tkazish 2018 yil noyabr oyida Toshkent shahrining Yunusobod tumanidagi 235-sonli maktabda boshlangan va bugungi kunda butun O‘zbekiston bo‘ylab 10 157 ta maktab eMaktab tizimiga ulangan.

2024 yilda ta’limni raqamlashtirish doirasida 3 ming 710 ta maktabda zamonaviy kompyuter sinflarini ochish, qariyb 40 ming dona kompyuter, 800 dona interaktiv doska va 442 dona robototexnika to‘plamini xarid qilish rejalashtirilgan. Shuningdek, 2228 ta kompyuter sinflarini jihozlash rejalashtirilgan. Bu maqsadlar uchun davlat byudjetidan 400 mlrd so‘m ajratilgan. Maktablarni internetga ulash uchun Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan hamkorlikda maxsus Education tarifi ishlab chiqildi, unga ko‘ra 400 nafardan kam o‘quvchi o‘qiydigan maktablarda internet tezligi 40 mb/s, 400 nafardan ko‘p o‘quvchi o‘qiydigan maktablarda esa 100 mb/s etib belgilandi.

2025-yil yakuniga qadar maktabning butun hududi bo‘ylab Wi-Fi qamrov hududini kengaytirish rejalashtirilgan. Shuni ta’kidlashni istardimki, O‘zbekistondagi barcha umumiy o‘rta ta’lim muassasalari, hatto borish qiyin bo‘lgan joylarda joylashganlari ham internetga ulangan.

Hemis — O‘zbekiston ta’lim sohasidagi yangiliklardan biri bo‘lib, jahon standartlariga mos keluvchi hamda kadrlar tayyorlashda yangi metodlarning qo‘llanishiga yordam beruvchi platformadir. Hemis — ta’lim jarayonini onlayn tarzda boshqarish imkonini beruvchi axborot tizimidir Hozirgi kunda Hemis’dan 217 dan ortiq Oliy ta’lim muassasalari hamda 1 milliondan ortiq foydalanuvchilar (talaba va o‘qituvchilar) foydalanadi. 2021-yil 1-sentyabrdan boshlab bosqichma-bosqich oliy ta’lim muassasalarida joriy etish orqali “O‘quv jarayoni” modulida guruh jurnali, dars jadvali, imtihonlar jadvallari, talabaning reyting daftarchasi, o‘zlashtirish qaydnomalari, davomat hisobotlari, diplom va akademik ma’lumotnomalar tizimda, ya’ni platformaning o‘zida shaklantirilmoqda;

Shuningdek, “Ma’muriy jarayon” modulida oliy ta’lim muassasasi strukturasi, talabalar kontingenti va ularning harakati, professor-o‘qituvchilar tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yuritish hamda hisobotlarni tayyorlash raqamlashtirildi. 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab barcha davlat oliy ta’lim muassasalarida talabalar o‘quv varaqasi, reyting daftarchasi, akademik ma’lumotnoma, dars jadvali, davomat va o‘zlashtirishga oid ma’lumotlar, to‘lov-kontrakt shartnomalari raqamlashtirildi.

Xulosa qilib aytganda besh yil oldin ushbu platformalarni uzoq vaqtga mo‘ljallanmagan deb bashorat qilishgan edi, Lekin ko‘rib turibmizki, tizim nafaqat o‘rnashib qoldi, balki imkoniyatlarni kengaytirdi, qo‘shimcha xizmatlarni taqdim etdi va shu bilan birga O‘zbekistonda EdTech sohasini rivojlantirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Атаджанова , А. (2023). Перспективы развития цифровизации образования - большие возможности для улучшения процесса обучения и расширения доступа к знаниям. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 175–177.

2. https://uza.uz/uz/posts/oliy-talim-islohotlari-kengayib-borayotgan-imkoniyatlar_392536;

## KORXONALARNING IQTISODIY BARQARORLIK VA XAVFSIZLIK DARAJASINI IFODALOVCHI KO‘RSATKICHLAR TAHLILI

**Sheraliyeva Saida Azatovna-**
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasi dotsenti v.b.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada korxonalarning iqtisodiy xavfsizlik darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tahlil qilingan. Buning uchun korxonalarni iqtisodiy xavsizligi uchun moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlariga e’tibor qaratilgan. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ko‘rsatkichlar mazmun, mohiyati ko‘rsatilgan.

**Kalit so`zlar:** Raqamli iqtisodiyot, iqtisodiy xavfsizlik, bankrot xolat, iqtisodiy xavfsizlikka tahdid, xavfsizlik darajasi indikatori.

Raqamli iqtisodiyot rivojlanayotgan bir davrda korxonalarning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash muhim vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda. Raqamli iqtisodiyot rivojlantirishda korxonalrning iqtisodiy xavfsizligiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish va tahlil qilish orqali korxonalarni bankrot xolatidan saqlab qolish juda muhim hisoblanadi. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi deganda uning ilmiy, texnik, texnologik, sanoat xavfsizligi, tashqi muhit va uning moslashuvchan rivojlanish qobiliyati bilan bog'liq to‘g'ridan-to‘g'ri yoki bilvosita iqtisodiy tahdidlardan inson potentsiali orqali iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash jarayonidir [1,c.88].

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligining asosiy maqsadi hozirgi vaqtda uning barqaror va eng samarali ishlashini ta'minlash va moslashuvchan rivojlanish uchun yuqori potentsialni ta'minlashva kelajakda o‘sishini ta’minlashdir. Bunga korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga salbiy ta'sirni kamaytirish, xavfining oldini olish orqali erishiladi. Bunday holda, korxonalar xavfsizligiga tahdid tushunchasi paydo bo‘ladi. Sanoat korxonalari uchun eng muhimi iqtisodiy xavfsizlikka tahdid, chunki barcha yo‘qotishlar (tashkiliy, axborot, korxonaning obro‘si) oxir-oqibat aniq iqtisodiy yo‘qotishlarda aks etadi. Shuning uchun ham korxonalarning iqtisodiy xavfsizligi ko‘rsatkichlarini o‘rganish orqali korxonalarning iqtisodiy xavfsizligi, balki ularning darajasini aniq baholash mumkin. Buning uchun korxonalarni iqtisodiy xavsizligi uchun moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini o‘rganish tavsiya etiladi [2, 259 б.]. Iqtisodiy adabiyotlarda miqdorni aniqlashga urinishlar qilingan korxonaning iqtisodiy xavfsizligi darajasini baholashda iqtisodiy xavsizlik indikatorlari orqali yondoshuvi, bunda iqtisodiy xavfsizlik darajasi indikator deb ataladigan ko‘rsatkichlardan foydalangan holda belgilanadi.

Ko‘rsatkichlar tavsiflovchi chegaraviy qiymati sifatida ko‘rib chiqiladi va iqtisodiy xavfsizlikning ma'lum darajasiga mos keladigan turli xil funktsional sohalardagi korxonalar faoliyati iqtisodiy xavfsizlikni baholash natijalariga qarab belgilanadi [3, c. 208 ].

Ularga ishlab chiqarish, moliyaviy va ijtimoiy ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi va shu ko‘rsatkichlar orqali baholanadi (1-jadval).

Korxonalarni iqtisodiy xavfsizlik darajasi ko‘rsatkichlaridan birnecha turlarini ko‘rib chiqamiz:

1. Likvidlikning yo‘qolishi xavfi - kompaniyaning qonuniy manbalardan daromadi va qarzlarini to‘lash bilan bog'liq imkoniyatlari tahlil qilish mumkin. Ushbu tahlil joriy moliyaviy majburiyatlar bo‘yicha barcha qarzlarniuning joriy aktivlari hisobidan qanchalar to‘lash mumkinligini ko‘rsatadigan joriy likvidlik koeffitsienti yordamida kuzatish mumkin.

2. Korxonaning moliyaviy mustaqilligini yo‘qotish xavfi-bunda asosan o‘z mol-mulki garovi bilan ishlaydigan qarzdorlik darajasi oshishi bilan bog'liq bo‘ladi va bunday tahdid moliyaviy aktivlarni aylanishi koeffitsienti yordamida aks ettirilishi mumkin.

3. Kapitalning daromadligi-kompaniya daromadlilikga va rivojlanish qobiliyatini yo‘qotish bilan bog'liq bo‘lgan xatarlarni o‘rganishga xizmat qiladi.

**Korxonalarni iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlari**

| № | Ko‘rsatkichlar nomi | Ko‘rsatkichlarning tarkibiy elementlari |
|---|---|---|
| **1.** | Ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari | -ishlab chiqarish dinamikasi (o‘sish sur'ati) |
| | | - quvvatdan foydalanish darajasi |
| | | - ishlarning umumiy hajmida ITIning ulushi |
| | | - tadqiqot va ishlanmalarning umumiy hajmidagi ITIning ulushi |
| | | - ishlab chiqarish fondlarining yangilanishi (yangilanishi) darajasi |
| | | - ishlab chiqarish jarayonining barqarorligi (ritmi) |
| | | - korporatsiyalar uchun uchinchi tomon buyurtmalarining nisbati |
| | | - mahsulot raqobatbardoshligi darajasi |
| | | -texnologik uskunalarning yosh tarkibi |
| | | -ishlab chiqarilgan mahsulot ketgan vaqt samaradorligi |
| **2.** | Moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar: | -mehnat samaradorligi |
| | | - sotishdan tushgan daromad |
| | | - aktivlarning aylanishi |
| | | - aktivlarning rentabelligi |
| | | - moliyaviy vosita |
| | | -kapitalning daromadliligi |
| | | -joriy likvidlik darajasi |
| **3.** | Ijtimoiy ko‘rsatkichlar: | - standartlarga nisbatan mukofot darajasi |
| | | - ish haqining yetarlilik darajasi |
| | | - ish vaqtining yo‘qolishi |
| | | -xodimlarning yoshi va malaka tarkibi |
| | | -ishchi hodimlarning sog’lomlik darajasi |

**1-jadval**

Bunday tahdid aktivlar va kapitalning daromadliligi ko‘rsatkichlaridan foydalanib tahlildan o‘tkazilishi kerak. Aktivlarning rentabelligi indikatori uni ishlatishda korxonaning barcha aktivlari tomonidan ishlab chiqarilgan sof foyda darajasini aks ettiradi. Kapitalning daromadligi korxonaga kiritilgan aktivlarning ishlash darajasini tavsiflaydi.

4. Texnologik uskunalarning yosh tarkibi xavfi- bunda korxona tomonidan yuzaga keladigan asosiy vositalarning eskirishi yuzaga keladi va amortizatsiya fondining ko‘payishi yuzaga keladi.

5. Quvvatlardan foydalanish darajasi- bunda iqtisodiyotning oltin qoidaga rioya qilmaslik bilan bog'liq jorayondir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir bosqichda ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi ma'lum bir bog'liqlikka mos keladi. Ularning asosiysi iqtisodiy xavsizlikni baholashga xizmat qiladi. Bu orqali esa korxonaning bankrot bo‘lmasligini oldini olishi mumkinligi va barqaror rivojlanishini ta’minlashimiz mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1.Васильев В.Л. Анализ экономической безопасности промышленного производства в России и возможные мероприятия по ее повышению науровне предприятия / В.Л. Васильев, И.М. Ганиев // Вестник Рязанского государственного университета им. С.Л. Веснина. - 2010. - № 27. - С. 88-99.

2. Tuxtabayev J.Sh. Korxonalarda mehnat samaradorligini oshirishnihg metodologik asoslari. –T.: “Fan va texnologiya”, 2017, 259 b.

3. Гапонснко В.Ф. Экономическая безопасность предприятий. Подходы и принципы / В.Ф. Гапонснко, А.Л. Беспалько, Л.С. Власков. - М.: Ось. -89, 2007.-208 с.

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISH DARSLARINI O‘QITISHNING DIDAKTIK VAZIFALARI

**Murodilloyeva Mahbuba-**
Profi University Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 5-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: **K.M.Ulug‘murodova-** f.f.f.n (PhD)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarini tashkil etishning o‘ziga xosligi, muhimligi hamda uning asosiy tamoyillari haqida so‘z boradi. Maqolani yoritishda metodik manbalarga tayangan holda ilmiy ma’lumotlar orqali fikrlar asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim, o‘qish, maqsad, metod, tamoyil, boshlang‘ich sinf, darslik, ifodali o‘qish.

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslari o‘z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko‘ra ta’lim tizimida alohida o‘rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta’limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmedlar ta’limini o‘qish ta’limisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi[195].

Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini oshirishimizda eng avvalo, ularning nutq faoliyatini, to‘g‘ri talaffuz orqali rivojlantirib olishimiz darkor. Chunki har bir o‘quvchining nutq faoliyati har xil shakllanadi. O‘qituvchilarning samarali mehnatlari va o‘quv mashg‘ulotlari natijasida bu kamchiliklar tuzatilib boriladi.

Qolaversa, maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘rganilgan bilimlar majmui boshlang‘ich ta’lim o‘qish savodxonligi darslarida shakllanib boriladi. Har bir harfni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgangan o‘quvchi, ushbu harflarni yozish va o‘qish ko‘nikmalarini vaqt o‘tgan sari ongli ravishda o‘qituvchi yordamida rivojlantiradi. Ko‘rgan harflarining ma’nosini tushuna boshlaydi va bu harflarni qo‘shib o‘qish natijasida qanday so‘z hosil bo‘lishini, ular qanaqa ma’no kasb etishini o‘rganadilar.

[195] Qosimova K, Matchonov S, G`ulomova X, Yo`ldosheva Sh, Sariyev Sh Darslik. Ona tili o`qitish metodikasi. – T.: NOSIR, 2009. – B. 65.

O‘quvchi matnni to‘g‘ri, tez, tushunib o‘qish, mazmunini o‘zlashtirish bilan ilk bor o‘qish darslarida yuzlashadi. O‘qish darslari orqali Davlat ta’lim standarti (DTS) talablari bo‘yicha o‘zlashtirishlari ko‘zda tutilgan o‘quv-biluv ko‘nikma-malakalari hamda bilimlarini egallashlariga yo‘l ochiladi. Aynan o‘qish ta’limida insonning, avvalo, o‘zligini, qolaversa, olamni anglashga bo‘lgan intilishlariga turtki beriladi[196].

Shu maqsadda “O‘qish kitobi “darslarga ona tabiat atrofimizni o‘rab turgan olam Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlol va milliy-ma’naviy qadriyatlar, xalqlar do‘stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo‘yicha atroflicha tushunchalar berishga mo‘ljallangan badiiy, aloqiy-ta’limiy ommabop asarlar kiritiladi.[197] Bu kabi yondashuvlar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilari dunyoqarashida milliy qadriyatlarimiz xususida ijobiy fikrlar, tasavvur olami kengayib boradi. Qolaversa, ularda mustaqil fikrlash ko‘nikmalari ham shakllanadi. Xususan, “o‘quvchi dalillar, kuzatishlar, taassurotlarini haqiqatga mos ravishda oddiy bayon etibgina qolmay, shu maqsadni eng yaxshi til vositalaridan (so‘z, gaplardan) foydalangan holda, maxsus tasvirlar bilan ifodalashga o‘rganadi. Mazmunni aniq ifodalashi uchun o‘quvchi nutqi til vositalariga boy bo‘lishi talab etiladi va so‘zlarning, gaplarning eng mosini tanlab foydalana olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi zarur”[198].

O‘qish darslari savod o‘rgatish davrida o‘quvchilarni bo‘g‘in, so‘z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o‘qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o‘qish texnikasi rivojlanadi. Jumladan, tabiatga oid mavzular yordamida o‘quvchilar tabiatdagi o‘zgarishlar, yil fasllarining almashinuvi, hayvonot olamiga doir bilimlarni egallaydilar. Bunday mavzudagi asarlar o‘quvchilarni kuzatuvchanlikka, tabiatni sevishga, unga nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga yordam beradi.

Umuman, “O‘qish kitobi” darsliklarida materiallarning sinfdan sinfga o‘tgan sari mavzu jihatidan ham, mazmun jihatdan ham kengaya borishi hisobga olingan. Masalan, 1-sinfda o‘rgatiladigan “Ajdodlarimiz - faxrimiz”, “Ilm – aql chirog‘i”, “Zumrad bahor”, “Kumush qish” kabi mavzular 2-4-sinflarda ham davom ettirilgan. Bu esa o‘quvchilarning oldingi bilimlarini to‘ldiradi va boyitadi.

Uzluksiz ta’limning boshqa bosqichlaridan farqli o‘laroq, boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida o‘quvchilarning o‘qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishlash ta’limning didaktik maqsadi hisoblanadi. U turli mavzudagi matnlar ustida ishlash orqali ma’naviy-axloqiy, adabiy-estetik tarbiya bilan chambarchas bog‘lab olib boriladi. O‘quvchilar darsliklar yordamida o‘zlashtiradigan bilim, ko‘nikma va malakalarning kelajak hayotda zarur bo‘lishini tushunib yetishishlariga erishish o‘quvchilar oldidagi muhim vazifalardandir.

Umuman olganda, o‘qish darslari oldiga qo‘yiladigan didaktik vazifalar quyidagilardan iborat:

1.O‘quvchilarda yaxshi o‘qish sifatlari: to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qishlarini shakllantirish.

2. O‘quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o‘rgatish, kitobga muhabbat uyg‘otish ularni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish.

3.O‘quvchilarni atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.

4. O‘quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

5. O‘quvchilarni bog‘lanishli nutqini va adabiy-estetik tafakkurini o‘stirish.

6. O‘quvchilarning xayolot olamini boyitish.

7. Elementar adabiy tasavvurlarini shakllantirish.

---

[196] Yo`ldoshev J. O`qituvchilar uyidagi ijodkor o`qituvchilarning 1-anjumanidagi nutqidan. 1992-yil. – B.4.

[197] Qosimova K, Matchonov S, G`ulomova X, Yo`ldosheva Sh, Sariyev Sh Darslik. Ona tili o`qitish metodikasi. – T.: NOSIR, 2009. – B. 67.

[198] Xalilova R. O`quv qo`llanma. Ona tili o`qitish metodikasi. – Buxoro: Fan va ta’lim, 2022. – B. 40.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir ta’limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo‘lib, ular zamonaviy o‘qitish usullari bilan boyitib borilmoqda. Bu vazifalar boshqalari bilan o‘zaro bog‘liq holda va sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlari jarayonida hal qilinadi[199].

Bolalar o‘qishi uchun mo‘ljallangan asarlar barcha xalqlar tarixida qadimdan davom etib kelgan. Bolalar va o‘smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiy- ommabop va publitsistik asarlar majmuyi tom ma’noda bolalar adabiyotini tashkil etsa-da, asosan, sof badiiy asarlar bu tushuncha mohiyatini anglatish an’anaga aylangan. Bolalarbop barcha asarlarda yosh avlodning dunyoqarashi, orzu-istaklari, voqelikka estetik munosabati o‘z ifodasini topadi[200]. Bu esa bolalarda ijodiy fikrlash qobiliyatini jonlantiradi.

Badiiy o‘qish ifodali o‘qish va ijodiy fikrlashning yuksak bosqichi hisoblanadi. Unda so‘z san’atining barcha komponentlari ishtirok etadi. U o‘quvchidan asar ruhiga batamom kirishni, san’atkorona o‘qishni talab etadi. Badiiy o‘qishda asar qahramonlarining ruhiy holati, kechinmalari to‘la anglab yetilgandagina ta’sirchan-likka erishish mumkin.

Dastur talablarini to‘liq bajarish va amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, o‘qish ko‘nikmalarini to‘gri va puxta egallash va takomillashtirib borish zarur. O‘qish ko‘nikmalari savod o‘rgatish jarayonida shakllanadi, o‘qitishning keyingi bosqichlarida takomillashadi.

Ba’zi vaqtlarda o‘qish darslariga nisbatan yuzaki qarashlar natijasida o‘quvchilarimizning fikrlash qobiliyatlari samarali rivojlanmasligi mumkin. Bu holat barcha o‘quvchilarda kuztilmasada, ba’zan darsga qiziqmaydigan, e’tiborsiz o‘quvchilarimizda ko‘zga tashlanadi. Har bir sinfda 30-40% o‘quvchi o‘qigan matnini o‘zi fikrlab aytib ketishi mumkin, biroq qolgan o‘quvchilarga turtki berilmasa, (gohida nima haqida gap ketayotganligini ham bilmay o‘tirishi mumkin) ular o‘zlari mustaqil fikr yuritolmay qolishi ham hech gap emas.

Chunki mustaqil fikrlash inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo`lib, fikr yuritish kreativ faoliyat asosida nafaqat o`quv predmetini o`zlashtirishga, ayni paytda o`quvchi tafakkurini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Mustaqil fikrlash-bu inson sezgi organlari va aqliy faoliyatining birligi ularoq, mustaqil ravishda tahlil qilish, umumlashtirish, induktiv, deduktiv xulosalar chiqarish, taqqoslash va aniqlashtirishdir.[201]

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, o‘quvchilarga ko‘proq hikoya, ertaklar, she’rlar o‘qitish va ularning o‘qish savodxonligi jarayonini nazorat qilib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi, shoirlar tomonidan mohirona yozilgan har bir asarlar o‘quvchining ko‘ngliga tez kirib borishi hamda ular tafakkuriga singishi o‘qish darslarida o‘qituvchi tomonidan olib boriladigan metodik jarayonlarga bog‘liq sanaladi. Bu esa o‘qish darslari uchun asoslangan tamoyillarda o‘zini namoyon etadi.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Jamilova B. O`quv qo`llanma. O`zbek bolalar adabiyoti. – T.: O`qituvchi, 2019.
2. Nurullayeva Sh. Mustaqil fikrlash mezonlari. Xalq ta’limi jurnali. 2001. 7-son.
3. Qosimova K, Matchonov S, G`ulomova X, Yo`ldosheva Sh, Sariyev Sh Darslik. Ona tili o`qitish metodikasi. – T.: NOSIR, 2009.
4. Yo`ldoshev J. O`qituvchilar uyidagi ijodkor o`qituvchilarning 1-anjumanidagi nutqidan. 1992-yil.
5. Xalilova R. O`quv qo`llanma. Ona tili o`qitish metodikasi. – Buxoro: Fan va ta’lim, 2022.


[199] Qosimova K, Matchonov S, G`ulomova X, Yo`ldosheva Sh, Sariyev Sh Darslik. Ona tili o`qitish metodikasi. – T.: NOSIR, 2009. – B. 69-70.
[200] Jamilova B. O`quv qo`llanma. O`zbek bolalar adabiyoti. – T.: O`qituvchi, 2019. – B.6-7.
[201] Nurullayeva Sh. Mustaqil fikrlash mezonlari. Xalq ta’limi jurnali. 2001. 7-son. – B.34.

# BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ANVAR OBIDJON IJODINING O‘RGANILISHI

**Ishpo‘latova Laziza-**
Profi University Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 5-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: **K.M.Ulug‘murodova** f.f.f.n (PhD)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Anvar Obidjon ijodi xususida ilmiy ma’lumotlar qiziqarli topshiriqlar shaklida berilgan. Qolaversa, o‘quvchilarining bilim, malaka, ko‘nikmalariga mos ravishda metodik o‘yinlardan ham foydalanish jarayonlari tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** *vatanparvar, ertak, qiziqarli, obraz, ijodkor, syujet, o‘quvchi,yumor.*

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida bolalarga badiiy adabiyotga qiziqish uyg‘otish, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va o‘qish madaniyatini shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Bu borada bolalar adabiyoti vakillarining asarlarini o‘rganish, ayniqsa, Anvar Obidjon ijodi xususida to‘xtalish alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek bolalar adabiyotining taniqli yozuvchilaridan biri bo‘lgan, Anvar Obidjonning ijodi adabiy-badiiy mazmunining yengilligi, qiziqarli syujetlar va hazil-mutoyiba bilan yo‘g‘irilgani sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun juda mos keladi. Uning she’rlari, hikoyalari, ertaklari va pyesalari o‘quvchilarni hayotiy qadriyatlar bilan tanishtirish, ularning axloqiy qarashlarini shakllantirish va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi[202].

Adib, o‘zbek bolalar adabiyotida o‘zining qisqa va mazmunli she’rlari, qiziqarli hikoya, qissa, pyessalari orqali bolalar ko‘ngliga va ongiga ta’sir etuvchi asarlar yaratdi. Har bir asarining rivoji qiziqligi, soddaligi bilan o‘quvchini o‘ziga jalb qila olgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Uning 1980 yilda “Bahromning hikoyalari”, 1983 yilda “Ey, yorug‘ dunyo”, “Olovjon va uning do‘stlari”, 1986 yilda “Masxaraboz bola”, 1987 yilda “Akang qarag‘ay Gulmat”, “Juda qiziq voqea”, 1988 yilda “Oltin yurakli avtobola”, 1989 yilda “Dahshatli meshpolvon”, 1992 yilda “Alamazon va Gulmat hangomasi”, 1993 yilda “Ajoyibxona”, 1994 yilda “Meshpolvonning janglari”, 1996 yilda “Alisher ila Husayn yoki uch o‘g‘ri”, 1999 yilda “Oltiariq hangomalari”, 2001 yilda “Bulbulning cho‘pchaklari” kabi qator to‘plamlari chop etilgan[203].

U har bir asarida bolalani kamtar, odobli, o‘qimishli, vatanparvar bo‘lishga undab keladi. Bola borki, nurga intiladi. Quyoshga talpinib yashaydi. Negaki quyosh bor joyda, nur bor, nur bor joyda ma’murchilik, xursandchilik bo‘ladi. Ma’murchilik, xursandchilik bor joyda g‘am, kulfat, ofat bo‘lmaydi, tinchlik, xotirjamlik, ahillik, baxt bo‘ladi. Asarlarida bola ta'lim-tarbiyasida xalq og‘zaki ijodining ahamiyati ochib beriladi. Xalq azal-azaldan xalq og‘zaki ijodini astoydil sevgan. Farzandlarini ertak, maqol, tez aytish, topishmoqlar aytib berish bilan tarbiya qilgan. Bunday bolalar sog‘lom, tetik, pok, o‘ktam, polvon, vatanparvar, ota-onaga muhabbatli bo‘lib o‘sgan. Bu an’ana bugungi kunda ham davom etib keladi. Agar bolaning vujudi xalq og‘zaki ijodi bilan yog‘rilgan bo‘lsa, uni tinglashni hamma narsadan ustun qo‘yadi. Kerak bo‘lsa o‘zlariga kulgi, jasorat, orom bag‘ishlaydigan xalq og‘zaki ijodini kechasi-yu kunduzi tinglashga tayyor turadiganlari ham yo‘q emasligini Anvar Obidjon ishonarli qilib tasvirlaydi.

Anvar Obidjon o‘zbek bolalar adabiyotida o‘ziga xos maktab yaratgan shoirlardan biri hisoblanadi. Bu ko‘proq uning turli buyumlar, jonzotlar, o‘simliklar haqida yaratgan asarlarida ko‘zga tashlanadi. G‘azal janrida yaratgan “Bulbulning salomnomalari” o‘zbek bolalar adabiyotida katta voqea bo‘ldi. Bu asarda turli xil narsalarning o‘ziga xos qirralari ochib beriladi. Masalan, qo‘rqoq Quyon, do‘stsiz Chayon, arg‘amchidek buralib yuradigan ilon, tun-u kun yer qaziydigan Yumron, tovusdek chiroyli Qizilishtonlarning tuzilishlari, hayot tarzlarini ochib berish bilan kichkintoylarda

[202] https://www.ziyo.uz.com
[203] Solijonov Y . A.Obidjon poetik olami. Monografiya. – T.: Yangi asr avlod, 2022. – B. 216.

tabiat olamiga nisbatan bo‘lgan qiziqishlarini o‘n chandon oshirishga erishgan. Anvar Obidjonning she’rlarida bolalarni mehnatkash, o‘qimishli, odobli, vatanparvar bo‘lishga mudom chorlovchi kuch bor. Ha, Anvar Obidjonning she’rlari yosh kitobxonni xuddi cho‘g‘dek porlab turishiga barakali hissa qo`shmoqda. Anvar Obidjonning o‘nlab qissa va dostonlari, ertak va dramalari bolalar qo‘lidan tushmay kelmoqda.[204]

1. O‘ziga xos qahramonlar va syujet – Uning hikoyalari va she’rlarida bolalar olamiga mos keladigan qahramonlar ishtirok etadi. Bu qahramonlar orqali o‘quvchilar atrof-muhitni anglash, insoniy fazilatlarni qadrlash va hayotiy tajribaga ega bo‘lishadi.
2. Qiziqarli va tushunarli til – She’rlari o‘ynoqi, hikoyalari sodda va tasviriy bo‘lib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan oson o‘zlashtiriladi.
3. Tarbiyaviy ahamiyat – Uning asarlarida vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, halollik kabi mavzular ilgari suriladi.
4. Lug‘at boyligini oshirish – O‘quvchilar yangi so‘z va iboralarni o‘rganadi, bu esa ularning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishga yordam beradi[205].

**Anvar Obidjon ijodini o‘rganishda quyidagi natijalarga erishish mumkin:**

- **Savodxonlik oshadi – O‘quvchilar matnlarni to‘g‘ri, aniq va ongli o‘qish ko‘nikmalarini shakllantiradi.**
- Nutq va tafakkur rivojlanadi – O‘z fikrlarini aniq va ravon ifodalash qobiliyatlari kuchayadi.
- Ijodiy tafakkur shakllanadi – O‘quvchilar tasavvur va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
- Badiiy did rivojlanadi – Kitobga qiziqish ortadi, adabiy matnlarni tushunish qobiliyatlari kuchayadi.
- Ma’naviy tarbiya beriladi – Bolalar mehr-oqibat, halollik, vatanparvarlik kabi fazilatlarni anglay boshlaydi[206].

Boshlang‘ich sinflarda Anvar Obidjon ijodini o‘rganish o‘quvchilarning nafaqat adabiy savodxonligini oshirish, balki ularning badiiy tafakkuri, mustaqil fikrlashi va ma’naviy tarbiyasiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘qituvchi dars jarayonida zamonaviy metodik usullar va interfaol mashg‘ulotlardan foydalansa, bolalar ushbu asarlarni yanada yaxshiroq o‘zlashtirishi, ulardan zarur xulosalar chiqara olishi mumkin. Shuning uchun Anvar Obidjon ijodini o‘rganish boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun katta ahamiyat kasb etadi[207].

Xulosa qilib aytganda, Anvar Obidjonning asarlarini o‘rganish o‘quvchilarni ma’naviy yetuk bo‘lishga, ezgulik sari intilishga, salohiyatli va albatta, vatanparvar bo‘lishlikka undaydi.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. (Darslik-majmua). – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
2. Qosimova K, Matchonov S, G`ulomova X, Yo`ldosheva Sh, Sariyev Sh Darslik. Ona tili o`qitish metodikasi. – T.: Bayoz, 2022.
3. Solijonov Y . A.Obidjon poetik olami. Monografiya. – T.: Yangi asr avlod, 2022.
4. Yo`ldashev.S. O`zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon. – T.: Fan, 1989.
5. https://www.ziyo.uz.com
6. http://Kh- davron.uz


[204] Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. (Darslik-majmua). — Toshkent: O‘qituvchi, 2010. — B. 286.

[205] Qosimova K, Matchonov S, G`ulomova X, Yo`ldosheva Sh, Sariyev Sh Darslik. Ona tili o`qitish metodikasi. – T.: Bayoz, 2022. – B. 60.

[206] http://Kh- davron.uz

[207] Yo`ldashev.S. O`zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon. – T.: Fan, 1989. – B. 98.

# MAMLAKAT IQTISODIYOTINI MODERNIZATSIYA QILISHDA BANKLAR FAOLIYATINING TAHLILI

**G.K.Xatamova -**
NavDU Geografiya kafedrasi dotsenti

**Annotsiya.** Tezisda O‘zbekiston banklarida asosiy vositalarni hisobga olish masalalari va uning korxonalar va umuman mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish asosi sifatida tutgan o‘rni muhokama qilinadi. Tezis asosiy vositalarni hisobga olishning asosiy prinsiplari va xususiyatlarini bankning moddiy-texnik bazasining asosi sifatida ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan. Shuningdek, tezisda asosiy vositalarni hisobga olishning mohiyati va metodologiyasi o‘rganiladi, uni takomillashtirish va nazorat qilishning ba’zi jihatlari, ularni o‘z vaqtida hujjatlashtirish taklif etiladi.

**Kalit so‘zlar**: asosiy vositalar, amortizatsiya, xalqaro standartlar, asosiy vositalarni analitik hisobga olish, aktivlar, amortizatsiya.

**Аннотация.** В статье рассматривается вопросы учета основных средств в банках Узбекистане и его роль как основы модернизации экономики предприятий и страны в целом. Статья посвящена рассмотрению основных принципов и особенностей учета основных средств как основой материально-технической базы банка. А также статье исследуются сущность и методика учета основных средств, предложены некоторые аспекты его совершенствования и контроля, своевременность их документирования.

**Ключевые слова:** основные средства, амортизация, международные стандарты, аналитический учет основных средств, активы, амортизация.

**Annotation.** The article examines the development of fixed asset accounting in banks in Uzbekistan and its role as the basis for the modernization of the economy of enterprises and the country as a whole. The article isdevoted to the consideration of the basic principles and features of the accounting of fixed assets as the basis of the material and technical baseof enterprises. The article also examines the essence and methodology of accounting for fixed assets, suggests some aspects of its improvement and control, and the timeliness of their documentation

**Key words:** fixed assets, depreciation, international standards, analytical accounting of fixed assets, assets, depreciation

Mustaqillikning dastlabki yillarida respublika iqtisodchilari shu qadar hayotiy ehtiyojga ega edilarki, bu buxgalteriya hisobi va auditni tashkil etish va rivojlantirish, shu jumladan asosiy vositalarni hisobga olish va audit qilish, iqtisodiyotning turli tarmoqlari doirasida faoliyat yuritadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda.mulkchilikning turli shakllari [1]. Shunga qaramay, bu borada ba’zi rivojlanmagan savollar mavjud va mulkni hisobga olish va auditini isloh qilish birinchi navbatda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga, respublikamizdagi qonunchilikka asoslangan va xalqaro standartlar talablariga muvofiq tashkil etilgan bo‘lishi kerak. Iqtisodiyotning jadal rivojlanishining hozirgi bosqichida mavjud ishlab chiqarish salohiyatining samaradorligini oshirishda moddiy-texnik bazani kengaytirish, qayta tashkil etish va rekonstruktsiya qilish muhim ahamiyatga ega[2]. Ularni ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi, ayniqsa xo‘jalik yurituvchi subyektlarda, ko‘p jihatdan ularning asosiy ishlab chiqarish vositalari bilan ta’minlanishiga bog‘liq, shuning uchun asosiy vositalar bilan yetarli darajada ta’minlanmaganligi mahsulot va mehnat unumdorligining sekinlashishiga, shuningdek mahsulot tannarxining oshishiga, ko‘payish manbalarining pasayishiga olib keladi. Boshqa tomondan, asosiy vositalarning “ortiqcha” bo‘lishi va ulardan noto‘g‘ri foydalanish ularni boshi berk ko‘chaga olib keladi, natijada ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi pasayadi. Asosiy vositalardan foydalanish darajasi oshgani sayin ishlab chiqarish rivojlanib, uning hajmi oshadi. Shu sababli, asosiy

vositalarni hisobga olish va ulardan foydalanishni takomillashtirish samaradorligi darajasini o‘rganish asosida mavjud imkoniyatlarni aniqlash katta ahamiyatga ega.

UFRS (Ias) 16 “asosiy vositalar” standartining maqsadi moliyaviy hisobot foydalanuvchilari asosiy vositalarga kiritilgan investitsiyalar va bunday investitsiyalardagi o‘zgarishlarni aniq tushunishlari uchun asosiy vositalarni hisobga olish tartibini belgilashdir. Asosiy vositalarni hisobga olishda asosiy masalalar joriy aktivlarni tan olish, ularning balans qiymatini aniqlash va amortizatsiya va amortizatsiya xarajatlarini tan olishdir.

O‘zbekiston Milliy Entsiklopediyasidan. Asosiy vositalar ishlab chiqarishning moddiy sharoitlarini (asboblar, bino, inshoot, qurilma va boshqalar) ta’minlaydigan vositalardir[3]. Buxgalteriya hisobi va rejalashtirishda asosiy vositalarga xizmat muddati bir yildan ortiq bo‘lgan va eng kam ish haqining 15 baravaridan kam bo‘lmagan xarajatlar kiradi. Asosiy vositalar buxgalteriya hisobida fermer xo‘jaligi uchun qabul qilingan dastlabki narxda aks ettiriladi. Asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati ularni sotib olish (bino va inshootlarni qurish) uchun haqiqiy xarajatlarga kiritiladi. Asosiy vositalar xizmat muddati davomida dastlabki qiymatda hisobga olinadi. Asosiy vositalarni qayta baholash faqat hukumat qarori bilan amalga oshiriladi.

Tahlil va natijalar. Buxgalteriya hisobining milliy qoidalari va usullarining xalqaro standartlarga ma’lum o‘xshashligiga qaramay, bugungi kunda UFRS bo‘yicha moliyaviy hisobotlarni o‘zgartiradigan yozuvlarsiz amalga oshirish mumkin emas. Ushbu tezisda UFRS bo‘yicha hisobot tuzishda yuzaga keladigan asosiy vositalarni hisobga olishda asosiy tipik transformatsion tuzatishlar muhokama qilinadi. Aktivlarni hisobga olish va baholash masalalarida UFRS va NSBU o‘rtasida katta farq borligi, transformatorning tuzatish simlariga ehtiyoj paydo bo‘lishining asosiy sababidir. O‘zgartirishlar va ularni amalga oshirish sabablarini hisobga olgan holda, biz birinchi navbatda bitta muhim farqga e’tibor qaratmoqchimiz. Gap shundaki. UFRS iqtisodiy tarkibning yuridik shakldan ustunligiga so‘zsiz rioya qiladi, unga ko‘ra operatsiyaning iqtisodiy mazmuni hisob varaqda aks ettirilishi kerak. Milliy standartlarga muvofiq ishlashga odatlangan buxgalter operatsiyani faqat dastlabki hujjatlar mavjud bo‘lganda aks ettirish zarurligini baholaydi[4]. UFRS bo‘yicha hisobotlarni tuzishda aksariyat operatsiyalar professional muhokamalar va ularning iqtisodiy mazmunining huquqiy shakldan ustuvorligi nuqtai nazaridan baholash asosida amalga oshiriladi.

Aosiy vositalar, bino (inshotlar)ni qurilishi (rekonstruksiyasiyas) bilan boyliq bo‘lgan loyiha-qidiruv ishlari, qurilish materiallari, mehnat, harajatlar ham asosiy vositalar sotish bilan bo‘lgan boshqa kapitallashuvligan harajatlar oldindan to‘lov quyidagi buxgalteriya hisobi yozuvlari bilan rasmiylashtiriladi: sotib olingan bino (inshoot) balansda quyidagi buxgalteriya hisobi o‘tkazmasi bilan aks ettiriladi:

Dt 16509 “bankning imoratlari – binolar va boshqa inshootlar”;

Kt 19909 “olinishi lozimligi ulug‘lar-tovar-moddiyliklar uchun” yoki

Kt 19907 “xizmatlar uchun oldindan to‘lagan harajatlar”;

3) sotib olingan boshqa asosiy vositalar qiymatini balansda aks ettirilishi:

Dt 165xx asosiy vositalarninging tegishli hisobvarag‘i;

Kt 19909 “olinishi lozimligi ulug‘lar-tovar-moddiyliklar uchun” yoki

Kt 19907 “xizmatlar uchun oldindan to‘lagan harajatlar”;

4) assosiy vositalarni omborga kirim qilish quyidagi o‘tkazma bilan rasmiylashtiriladi:

Dt 16561 “Ombordagi asosiy vositalar”;

Kt 19909 “olinishi lozimligi ulug‘lar-tovar-moddiyliklar uchun” yoki

Kt 19907 “xizmatlar uchun oldindan to‘langan harajatlar”;

Milliy qonunchilikda asosiy vositalarni (asosiy vositalarni) hisobga olish O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2021-yil 26-noyabrda 3336-son bilan ro‘yxatga olingan. Soliq kodeksida qayd etilgan amortizatsiya solig‘i stavkalari tushunchasi ham mavjud ular soliqqa

tortiladigan foydani shakllantirish xarajatlarining cheklangan darajasini belgilaydi. Odatda, mahalliy korxonalar amortizatsiyani hisoblashda ushbu asosiy vositaning aniq hisoblangan xizmat muddatini emas, balki amortizatsiya soliq stavkasini qabul qiladilar. Bu soliq hisobini osonlashtiradi, albatta, lekin xalqaro standartlarning iqtisodiy mezonlariga javob bermaydi.Chunki, xalqaro standartlar nuqtai nazaridan, butunlay eskirgan asosiy vosita ishlab chiqarishda deyarli ishtirok eta olmaydi va foyda keltirmaydi. Agar shunday vaziyat yuzaga kelsa, ushbu aktivning foydalanish muddatini noto‘g‘ri hisoblab chiqilsa, uni qayta ko‘rib chiqish zarur bo‘ladi.

Yuqoridagilarni sarhisob qilsak, UFRSNING O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni isloh qilish va shakllantirishga ta’siri yildan yilga ortib bormoqda. UFRSNI (Xalqaro Moliyaviy Hisobot Standartlari) o‘rganish va amaliyotga joriy etish bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar milliy standartlarni ular bilan yaqinlashtirish jarayoniga samarali ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston buxgalteriya hisobini muvofiqlashtirish zarurati xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdan manfaatdor bo‘lgan va ularni jahon reytinglariga kiritishga intilayotgan yirik milliy kompaniyalar sonining ko‘payishi bilan bog‘liq.NSBU (Milliy buxgalteriya standarti) hisobotlarini UFRS hisobotlariga aylantirishda hisobga olinishi kerak bo‘lgan eng katta va dolzarb topishmoqlar keltirilgan. Summani avtomobil shinasining og‘irligiga (kg uchun) qarab 0,3% BRV (990 so‘m) miqdorida belgilash rejalashtirilgan edi. Yengil avtomobil shinasining og‘irligiga qarab (R13 dan R20 gacha) yig‘im 6200 dan 16 200 so‘mgacha, yuk mashinalari (R16 dan R18 gacha) esa 11,3 mingdan 58,8 ming so‘mgacha bo‘lishi kerak edi.O‘zgarishlarni oz vaqtida hujjatlarda ifoda etish bank daromadiga ta’sirini aniqlash zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonuni. URK 13.04.2016 yildagi 404-son.
2. Кудбиев, Д. (2021). Методологические основы учета арендованных основных средств. In Современная наука. XXI век: научный, культурный, ИТ контекст (pp. 119-124).
3. Temirqulov, A, & Qudbiyev, N. (2022). Iqtisodiy rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda soliq siyosati o‘rni. Journal of Integrated Education and Research, 1(2), 121-127
4. Rasulova, S. X. (2021). Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishning iqtisodiy ahamiyati va uni to‘g‘ri hisobga olish zaruriyati. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 713-718.


## BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARGA “OT” SO‘Z TURKUMINI O‘RGATISH TEXNOLOGIYASI


**Abdualimova Nazokat Kamol qizi**
Profi University Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 5-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: **K.M.Ulug‘murodova** f.f.f.d. (PhD)



**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Boshlang‘ich ta’lim bosqichida Ona tili fanining ahamiyati va fanning o‘ziga xos xusussiyatlari yoritilgan. Mulohazalarning har biri asosli tarzda tahlil qilingan.



**Kalit so‘zlar:** Ona tili, boshlang‘ich ta’lim, o‘quvchi, pedagog, zamonaviy ta’lim, fonetika, grammatika.


Ona tili fani boshlang‘ich ta’lim tizimining asosiy poydevor fanlaridan biri hisoblanadi. Ushbu fan bolalarning og‘zaki va yozma nutqini shakllantirish, til vositalaridan to‘g‘ri va samarali foydalanish, o‘z fikrini ravon, mantiqan ifoda etish, shuningdek, o‘quvchilarning muloqot madaniyatini yuksaltirishda muhim o‘rin egallaydi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘quv predmeti sifatida nafaqat grammatik bilimlarni berishga, balki o‘quvchilarning fikrlash, tushunish, anglash, eslab qolish, izohlash va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu bosqichda o‘quvchilar ilk bor tahliliy fikrlash, umumlashtirish va qiyoslash kabi aqliy faoliyat elementlarini o‘zlashtira boshlaydilar. Shu boisdan ham, ona tili fani orqali ularning tafakkurini izchil shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Ona tili darslari orqali bolalar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda rivojlanadi:

- **Savodxonlik va imlo qoidalarini o‘rganish** – so‘zlarni to‘g‘ri yozish, tinish belgilaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish;
- **Nutq malakalarini rivojlantirish** – o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda bayon qilish, savollarga javob berish, suhbatda ishtirok etish;
- **O‘qish va tushunish kompetensiyasini rivojlantirish** – matn ustida ishlash, asosiy fikrni ajratish, xulosa chiqarish, savol tuzish va unga javob berish[208].

Boshlang‘ich ta’limning davlat ta’lim standartlarida belgilanganidek, ona tili fani o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘quvchini keyingi bosqichlardagi ta’limga tayyorlash, ilmiy-nazariy fanlarga asos yaratishning eng muhim bosqichidir.

Ona tili darslarida o‘rgatiladigan barcha bilimlar mantiqiy ketma-ketlikda, yengildan murakkabga qarab quriladi. Avval so‘zning ma’nosi, tovush va harflar, so‘z yasash, keyin esa so‘z turkumlari, gap tuzilishi va matn ustida ishlashga o‘tiladi. Bu jarayonda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, individual qobiliyatlari va psixologik tayyorgarlik darajalari hisobga olinadi. Shuningdek, so‘nggi yillarda ona tili o‘qitilishida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, axborot vositalari va interfaol metodlar keng joriy etilmoqda. Ular orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, faol ishtirok etish, muammoni yechish, muloqotga kirisha olish ko‘nikmalari samarali rivojlanmoqda. Ona tili boshlang‘ich sinflarda o‘quv predmeti sifatida shakllanuvchi shaxsning tilni bilish va qo‘llay olish kompetensiyasini, shuningdek, ijtimoiy-madaniy, axloqiy va muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi tayanch fan hisoblanadi. Bu fan orqali o‘quvchining keyingi fanlarga tayyorlanish jarayoni, tafakkurining chuqurlashuvi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash asoslari shakllanadi.

Darhaquqat, bugungi kunda o‘qitishning o‘ziga xos usullari shakllandi va ular rivojlanib bormoqda. Bu jarayonlar bir qancha bosqichlarni bosib o‘tmoqda. 50-90-yillar mobaynida boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi sohasida anchagina qo‘llanmalar yaratildi. Bu yillar mobaynida ona tili o‘qitish metodikasi fan sifatida rivojlana boshladi, umumiy pedagogika, didaktik, psixologik xarakterdagi ilmiy tekshirishlarning natijalari ona tili o‘qitish metodikasini takomillashtirish va yangi metodika yaratishga imkon berdi.

O‘quvchilarga ona tilini o‘rgatish, ularni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish vazifasidan kelib chiqib, bilish nazariyas asoslanib, barcha yaqin, o‘zaro bog‘liq fanlar tavsiyalariga asoslanib, ona tili o‘qitish metodikasi o‘z tamoyillarini ishlab chiqadi. Bu tamoyillar umumdidaktik tamoyillardan o‘zgacha bo‘lib, o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi o‘quv mehnatining yo‘nalishlarini belgilab beradi[209]. Shu bois K.D.Ushinskiy boshlang‘ich maktab o‘quv predmetlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib, uni markaziy va yetakchi predmet hisoblaydi. Ona tili nutq, o‘qish, yozuv sohasidagi ko‘nikma va malakalar o‘quvchilar o‘quv mehnatining zaruriy sharti va vositasi hisoblanadi. Bola o‘qish ko‘nikmalarni egallashi bilan, birincha navbatda o‘z ona tilini o‘rganishi zarur. Chunki ona tili bilimdonlikning aql-idrokning kalitidir.

Ona tili boshqa fanlarni o‘qitish vositasi hamdir: tarix, jamiyat, falsafa, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o‘rganiladi. Boshqa fanlarni puxta o‘zlashtirish uchun o‘quvchilar ona tilini yaxshi bilishlari, ya'ni to‘g‘ri, tez, ongli o‘qiy olishlari, xatosiz yoza olishlari, og‘zaki va yozma nutqi ravon

[208] http://interscience.uz

[209] Qosimova K, Matchonov S, G`ulomova X, Yo`ldosheva Sh, Sariyev Sh Darslik. Ona tili o`qitish metodikasi. – T.: NOSIR, 2009. – B. 10.

rivojlangan bo‘lishi lozim. Bugungi kunda komil insonni tarbiyalashda ona tili juda katta rol o‘ynaydi. Chunki o‘quvchilarda dunyoqarash e'lementlarini shakllantirishni, mavhum tafakkurini o‘stirishni va orfografik, grammatik, orfoepik ko‘nikma va malakalarini hosil qilishi uchun ilmiy-nazariy bilimlarining tizimini berishda ham ona tili asosiy vosita sanaladi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tilida mashg‘ulotlar turi va mazmuni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. O‘qish, yozuv, grammatik materialni o‘rganish, kuzatishlar hamda o‘quvchilarning ijtimoiy faoliyatlari bilan bog‘liq holda ularning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish.

2. 1-sinfga kelgan o‘quvchilarga savod o‘rgatish, ya’ni ularni e’lementlar o‘qish va yozishga o‘rgatish, u ko‘nikmalarni takomillashtira borib malakaga aylantirish.

3. Adabiy til normalarini, ya’ni imloviy va tinish belgilar, savodli yozuvni, to‘g‘ri talaffuzni o‘rganish, ifodali nutq va uslubiy e’lementlarni egallash.

4. Grammatika, fonetika, leksikadan nazariy materiallarni o‘rganish, tildan ilmiy tushunchalar tizimini shakllantirish.

5. O‘quvchilarni o‘qish va grammatik darslari orqali badiiy, ilmiy, ommabop va boshqa adabiyotlar namunasi bilan tanishtirish, ularda adabiy asarni idrok etish ko‘nikmasini hosil qilish.

Maktabda ona tili o‘qitish metodikasining bunday yo‘nalishi haqiqatni bilish qonuniyatlariga ham, hozirgi zamon didaktikasi vazifalariga ham mos keladi. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining quyidagi asosiy tamoyillari boshlang‘ich ta’limda ona tili o‘qitish metodikasining vazifalarini belgilab, aniqlashtirib beradi: ta’lim ustuvorligining tan olinishi; ta`lim olish shaklini tanlash erkinligi;

Ta‘lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo`yilmasligi; ta‘lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta`minlanishi; ta`lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi; ta`lim va tarbiyaning insonparvarlik va demokratik xususiyati;

O‘quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi; insonning butun hayoti davomida ta`lim olishi; jamiyatda pedagoglarning ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi; ta`lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi; bilimlilik, qobiliyatlilik va iste`dodning rag`batlantirilishi; ta`lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg`unligi; ta`lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik[210].

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib ta’kidlash joizki, Ona tili darslari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini har tomonlama bilim, malaka, ko‘nikmalarini shakllantirishga asosiy poydevor vazifasini bajaradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. AzizxoʻjaevaN.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent:TDPU, 2006.
2.Azimova I, Mavlonova K, Quronov S, Tursun Sh. “Ona tili va o‘qish savodxonligi” 1- sinf uchun darslik.I-II qism. “Yangiyo‘l poligraf servis” MCHJ nashriyoti. 2021yil.
3.Azimova I, Mavlonova K, Quronov S, Tursun Sh. “Ona tili va o‘qish savodxonli-gi ” 2- sinf uchun darslik.I-II qism. “Yangiyo‘l poligraf servis” MCHJ
4.Mirzaahmedov.A. O‘quvchilar faolligini oshirishdanoan’anaviy darslar. Til va adabiyot ta’limi jurnali. 1996. 3-son
5. Lyamin V.T. Integratsiya darslari va ularga sharhlar. «Boshlang‘ich maktab» j Toshkent. 2000 yil
6. Qosimova K, Matchonov S, G`ulomova X, Yo`ldosheva Sh, Sariyev Sh Darslik. Ona tili o`qitish metodikasi. – T.: NOSIR, 2009.

[210] Xolboyeva G. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasining metodologik va ilmiy asoslari

# O‘ZBEKISTON UCHINCHI RENESSANS OSTONASIDA: JADIDLAR ORZULARINING USHALISHI

**Parmonov Ulug‘bek Odiljon o‘g‘li** –
Xalqaro Nordik unversiteti yoshlar ishlari va talabalarga xizmat ko‘rsatish departamenti tyutori, tarbiyachi-pedagog.

Bugun tez-tez qulog‘imizga chalinayotgan Uchinchi Renessans so‘zlari birinchi bor O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mustaqilligimizning 29 yilligi arafasida so‘zlagan tantanali tabrik nutqida yangragan edi. XVII asrdan beri oqsoqlanib kelayotgan tabiiy va aniq fanlarni rivojlantirish va bu orqali to‘rtinchi sanoat inqilobiga asos solish asosiy vazifalardan etib belgilandi hamda bu maqsadlarni amalga oshirish uchun amaliy harakatlar boshlandi. Tarixga nazar tashlasak, buyuk ajdodlarimiz IX-XII asrlarda Ahmad al-Farg‘oniy, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, YUsuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg‘ariy, Mahmud Zamaxshariy, Imom al-Buxoriy, Hakim at-Termiziy, Moturidiy, Abul Muin Nasafiylar; XIV-XVI asrlarda Mirzo Ulug‘bek, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumiy, ali Qushchi, Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod kabilar ikkita Renessansga asos soldilar va dunyo ilm fani rivojiga munosib hissa qo‘shdilar.

XIX asr oxirlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakatining namoyandalari ajdodlar an’anasini davom ettirib, jamiyatni modernizatsiya qilish, tabiiy va aniq fanlarni rivojlantirish va bu sohalarda buyuk kashfiyotlarni amalga oshirish maqsadida ta’lim tizimini isloh qilishga kirishdilar. Ammo mustamlakachi hukumat va mutaassib ulamolarning qarshiligiga uchragan, 1937-1938 yillarda jismonan yo‘q qilib yuborilgan taraqqiyparvarlarning orzulari ushalmay qoldi.

Jadidlar maorifni, maktab va madrasalarni tubdan isloh qilish, ta’lim-tarbiya tizimini o‘zgartirish, millatni ma’nan uyg‘otish uchun kurash olib bordilar. Turkistonda Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvar qori Abdurashidxonov, Buxoroda Fayzulla Xo‘jayev va Abdurauf Fitrat, Xiva xonligida esa Polvonniyoz YUsupovlar jadidlarni birlashtirdilar va bu harakatga boshchilik qildilar. Buxoro jadidchiligi uzoq yillardan beri jamiyatda hukm surayotgan turg‘unlik va qoloqliklarni bartaraf etish maqsadida vujudga kelgan bo‘lib, Abdulvohid Munzim, Mukamil Burxonov, Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Usmon Xo‘ja, Otaulla Xo‘jayev, Abduqodir Muhiddinov, Muso va Muxtor Saidjonovlar, Qilich Xo‘jayev, Ahmadjon Hamdiy, Hamidxo‘ja Mehriy, Muhiddin Raf’at, Muhiddin Mansurov kabi taraqqiyparvarlar maktab va madrasalarda dunyoviy fanlarni o‘qitish va bu fan yo‘nalishlarida yetuk kadrlar tayyorlash uchun faol harakat olib bordilar[211]. Ular ilm-fanni rivojlantirish, malakali, bilimli kadrlar tayyorlash maqsadida 1909 yilda “Tarbiyai atfol” jamiyatini tuzdilar hamda Termiz, Karki, YAngi Buxoro va G‘ijduvonda jamiyatning 28 ta shaxobchasini ochdilar[212]. Jamiyat o‘z faoliyati davrida ilmga chanqoq yoshlarga iqtisodiy va ma’naviy yordam ko‘rsatib, ularni Rossiyaning Qozon, Ufa, Boqchasaroy hamda Turkiyaga o‘qishga yubordi; Turkiya va Eronda nashr qilingan matbuot namunalari bilan buxoroliklarni muntazam tanishtirib bordi; o‘rinsiz sarf-xarajatlarga, to‘y va ma’rakalarda yo‘l qo‘yiladigan isrofgarchiliklarga qarshi chiqib, bu mablag‘larni farzandlar tarbiyasiga, ularni chet ellarda o‘qitish uchun sarf qilishga da’vat etdi[213].

Abdurauf Fitrat Turkiyada o‘qiyotgan vatandosh o‘quvchi-talabalarga ham iqtisodiy, ham ma’naviy yordam ko‘rsatish, Buxoro va Turkistondan talabalar kelishini ko‘paytirish va muntazamlashtirish maqsadida “Tarbiyai atfol” jamiyatining Istanbuldagi shahobchasini ochib, uni

[211] Ражабов Қ. XX аср бошларида Туркистон ёшлари // “Ҳуқуқ ва бурч” (Тошкент), 2008. - № 2. – Б. 41.
[212] Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. - Москва: СССР халқларининг марказий нашриёти, 1926. – Б. 84.
[213] Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. – Б. 86-87.

“Buxoro ta’mimi maorif jamiyati” nomi bilan rasman ro‘yxatdan o‘tkazdi. Ushbu jamiyat o‘z faoliyati davomida 60 ga yaqin buxorolik va turkistonlik talabalarga moddiy va ma’naviy yordam ko‘rsatdi[214].

Jadidlar faol amaliy harakat olib borish bilan birga, g‘oya va qarashlarini davriy matbuot nashrlarida va o‘z asarlarida ham targ‘ib qilib bordilar. Jumladan, Asl kasbi savdogar va tabib bo‘lgan taraqqiyparvar Mirzo Sirojiddin Hakim (1877-1914) matbuot orqali Buxoro jamiyatidagi barcha muammolarga o‘z munosabatini bildirdi hamda ularni bartaraf etishga oid taklif-tavsiyalarini taqdim etdi.

Mirzo Sirojiddin 1910 yilda yozgan “Tuhfai ahli Buxoro” asari, shuningdek, 1912-1913 yillarda “Buxoroi sharif”, “Samarqand” gazetalari va “Oyina” jurnalidagi 60 dan ortiq maqolalarida bola tarbiyasi, diniy va dunyoviy ilmning ahamiyati, komil inson tarbiyasi, maktab va madrasalar masalasi va boshqa mavzular yetakchilik qilgan. U *“Bir oz faoliyat lozim”* nomli maqolasida jahon ilm-fani rivojiga hissa qo‘shgan mutafakkirlarimiz Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, imom Buxoriy, shoir Rudakiylarni o‘z asrining yagonasi va durdonasi, deb ataydi. Buxoroning hozirgi ahvolidan afsuslanib: “*Bas, hozirgacha bizga nima bo‘libdiki va nima monelik qilmoqdaki, bizning ko‘zlarimiz hozirgi ilm fanni ko‘rish u yoqda tursin avvalgi ilm fandan ham yopiq qolmoqda*”[215], - deydi. Buxoroda sanoat korxonalari, tijoratxonalar va shirkatlar ochish zarurligini, tibbiyot ilmini rivojlantirib, sog‘likni saqlashga alohida e’tibor qaratish kerakligini ta’kidlaydi.

Mirzo Sirojiddin Buxoroning yevropa va Osiyoning bir qator davlatlaridan orqada qolishiga birinchi sabab qilib ilm-fanning oqsayotganini ko‘rsatsa, ikkinchi sabab qilib iqtisodiy qaramlikni ko‘rsatadi[216]. Buxoroning yevropa mamlakatlaridan taraqqiyot jihatdan orqada qolganidan afsuslanadi, ammo bundan tushkunlikka tushmaydi, u Buxoroning kelajagiga ishonadi va taraqqiyot asosini ilm, hunar hamda tarbiyaga bog‘laydi. Taraqqiyotga erishish uchun maorif sohasini rivojlantirish va isloh qilish kerakligini ta’kidlab, rivojlangan mamlakatlardan SHveysariya misolida dunyoviy ilmlarning xalq va millatning taraqqiyotidagi ahamiyatini ko‘rsatib o‘tadi[217].

Buxoroning taraqqiyparvarlik harakati yirik namoyandasi Abdurauf Abdurahim o‘g‘li Fitrat (1886-1938) g‘oyaviy qarashlarida ham ilm-fanni rivojlantirish masalalari birinchi o‘rinda turadi. Uning 1912 yilda Istanbulda nashr etilgan “Hind sayyohi bayonoti” asarida o‘lka hayotining ko‘plab muammolari – harbiy nozirlarning intizomsizligi, shahar va uning atrofidagi qishloqlarning ekologik ahvoli, el sog‘ligini saqlash – tabobat va davolash usullari, sanoat va ishlab chiqarishning nochor holati, qozixonalar ishi, qator viloyatlarning milliy gazetaga muhtojligi, yo‘l qurilishi, hatto temir yo‘llar, dehqonchilik va hunarmandchilik – hayotning barcha sohalari keskin islohga muhtoj ekani hind sayyohining nazari orqali idrok qilinadi[218]. Asar qahramonlari orqali dunyoviy bilimlarning zarurligini Qur’oni karim va hadisi sharif orqali ko‘rsatib: “*Ovro‘podan muallimlar olib kelish va har yili bir necha iste’dodli yoshlarni tibbiy ta’lim olish uchun Rossiyaga yuborish, bularning birontasi shariatga qarshi ishlar emas. Zero, olamning faxri bo‘lmish alayhissalavotu vassalla buyurganlar: “Utlub il-ilma va lav bas-Sini”, ya’ni “ilm agar CHinda bo‘lsa ham tilab o‘qingiz”. Ana shu hadisi sharif mazmuniga diqqat bilan e’tibor qilaylik, Payg‘ambarimizning CHinni misol keltirishlaridan maqsadlari albatta fiqh va tafsir ilmini o‘rganish emas, chunki CHin kofiristondir. Bu hadisda tilga olingan ilm, ya’ni tib va san’atdir. Ma’lum bo‘ldiki, dunyoviy ilmlarni g‘ayridinlardan o‘rganish ham bizning shariatimizga mosdir*”[219], deb yozadi.

Abdurauf Fitrat Buxoro davlatining madaniyati, tabobati, sanoati va hatto yer osti boyliklaridan xalq manfaati yo‘lida foydalanish haqida qayg‘uradi. Buxoroning taraqqiyotdan orqada qolib ketayotganiga asosiy sabab qilib, mamlakat aholisining savodsizligi, siyosiy ongi rivojlanmaganligi

---

[214] Заки Валиди Тўғон. Бугунги турк эли. Туркистон ва унинг янги тарихи. 2-босқи. - Истанбул, 1981. - Б. 354.
[215] Камсуқум табиб М. С. Мизохўрдов. Қадри фаолият лозим аст // “Бухоройи шариф” (Янги Бухоро), 1912 йил, 22 март. - № 10.
[216] Мирзо Сирож. Туҳфаи аҳли Бухоро. - Душанбе: Адиб, 1991. - С. 76.
[217] Мирзо Сирож. Туҳфаи аҳли Бухоро. – С. 84.
[218] Фитрат. Ҳинд сайёҳи баёноти // Танланган асарлар. 1-жилд. - Тошкент: “Маънавият”, 2000. – Б. 98-168.
[219] Фитрат. Ҳинд сайёҳи баёноти. – Б. 134-136.

va ilmu ma’rifatdan uzoqda ekanligini ko‘rsatadi. U mamlakatni tanazzuldan, xalqni nochor ahvoldan qutqarish uchun ilm-fanni rivojlantirish zarurligini uqtiradi. Fitrat dastur ahamiyatiga ega risola va maqolalarni e’lon qilibgina qolmay, bu asarlar zamirida yotgan asosiy g‘oya – ma’rifatparvarlik faoliyati bilan amaliy jihatdan ham shug‘ullandi. Shu bois u 1913 yil oxiri 1914 yil boshlarida maktab ochish bilan mashg‘ul bo‘ldi.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro jadidlari mamlakatning taraqqiy etishi ilm-fanni rivojlanishida, deb bildilar va buning uchun yangi usul maktablarini ochdilar. Ularda dunyoviy fanlarni o‘qitishni yo‘lga qo‘ydilar. Iste’dodli yoshlarni chuqur bilim egallashlari uchun o‘z homiyliklari ostida xorijga o‘qishga yubordilar. Ammo millat va Vatan fidoyilari mustabid tuzumning qurboniga aylandilar va yangi Uyg‘onish davriga asos sololmadilar. Bugun ularning armon bo‘lib qolgan orzularini amalga oshirishni boshlab bergan prezidentimizning siyosatini fidoyi rahbarlar hamda iste’dodli va bilimli yoshlar amalga oshiradilar degan umiddamiz.

## O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA BADIIY PSIXOLOGIZM ILDIZLARI VA TADRIJIY TARAQQIYOTI

**Aslonova Moxiniso**
NavDU O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi 2-kurs magistranti
**Ilmiy rahbar: dots.Boltayeva G.**

**Annotatsiya.** Adabiyotshunoslikda ma’lum bir asarning psixologik tahlili muhim o‘rin tutadi. Psixologizm va psixologik tahlilning shakllanishi va rivojlanishi o‘zbek adabiyotida realistik usulning shakllanishi va chuqurlashuvi bilan bir yo‘nalishda o‘sdi. Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotshunosligida badiiy psixologim tushunchasi, badiiy psixologizmning usul va vositalari, psixologik tahlil turlari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** psixologiya, badiiy psixologizm, psixologik tahlil, psixologik mazmun, ichki ruhiy holat.

**Аннотация.** В литературоведении важную роль играет психологический анализ конкретного произведения. В узбекской литературе психологизм и психологический анализ развивались в одном направлении с формированием и углублением реалистических методов. В этой статье обсуждаются понятие моего художественного психолога в узбекском литературоведении, методы и средства художественного психологизма, виды психологического анализа.

**Ключевые слова:** психология, художественный психологизм, психологический анализ, психологическое содержание, внутреннее психическое состояние.

**Abstract.** In literary criticism, an important role is played by the psychological analysis of a particular work. In Uzbek literature, psychologism and psychological analysis developed in the same direction with the formation and deepening of realistic methods. This article discusses the concept of my artistic psychologist in Uzbek literary criticism, methods and means of artistic psychologism, types of psychological analysis.

**Key words:** psychology, artistic psychologism, psychological analysis, psychological content, internal mental state.

Insoniyat qadr-qimmati, uning zohiriy va botiniy xususiyatlariga e’tibor jamiyat maishiy muammo va inqirozlardan ozod bo‘lgandagina ahamiyat kasb etgan. Bu borada o‘zbek olimlarining izlanishlari ham talaygina. O‘zbek olimi H.Umurovning kuzatuvlariga ko‘ra psixologizm dastlabki kurtaklarini nemis sentimentalizmida yozadi[220]. Darhaqiqat, nemis sentimentalizmining falsafiy

[220] Умуров Ҳ. Бадиий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Т.: Фан, 1983. – Б. 11-12.

asoslarni inson tuyg‘ulari va hislarini yoritishga qaratilgani, bu davr adabiyotida ta’sirchan, xissiyotlarga boy inson ideallashtirilgani tufayli sentimentalizm oqimida psixologizm mavjudligini inkor qilib bo‘lmaydi. Keltirilgan davrlardagi psixologik asarlarni badiiy qahramonining ruhiyati birinchi o‘rinda bo‘lib, asar kompozitsiyasining barcha unsurlari inson ruhiyatini ochishga yo‘naltirilganligi bilan boshqalardan ajratib turadi. Shuningdek, psixologik turdagi asarlarda tizimlilik ham muhim hisoblanadi. Unda badiiy asarning g‘oyaviy niyatidan boshlab, badiiy asar g‘oyasi, syujet kompanentlari, yechimi, xotimasi ruhiyat evrilishlarini ochib berishga qaratilgan bo‘ladi. Xususan, badiiy asarning bosh g‘oyasi ruhiyat bo‘lsa, badiiy asardagi barcha kompanentlar tizimli shaklda ushbu psixologik holatni ochib berishga xizmat qiladi. Bu haqida H.Umurov: “Hamma narsa ijodiy rejadan boshlanadi, ijodiy reja tug‘ilgach badiiy asarning taqdiri belgilanadi” deydi[221]. Darhaqiqat, badiiy asardan ko‘zlangan maqsad, badiiy asar g‘oyaviy niyati va yozuvchini yoritish niyatida bo‘lgan muammo badiiy asarni bir tizim sifatida shakllantiruvchi eng muhim omil. Psixologik mazmundagi asarlarda, asar ijodiy rejasidan kelib chiqqan holda muallif tizimli ravishda uslub va badiiy tasvir vositalariga murojaat qiladi, g‘oyani aks ettiruvchi janr va shaklni tanlaydi. Psixologik mazmunli asarga lirika bilan bir qatorda nasrning roman va hikoya janrlarida keng imkoniyat beradi. Bunday asarlarda adabiy qahramon xarakterini yaratish ham muhim sanaladi. H.Umurov ta’biri bilan aytganda, “tashqi muhit xarakter ichki dunyosida qo‘zg‘alishlar, zilzilalar, kechinmalar uyg‘otgani kabi, bu ichki dunyoning murakkab “sirlari” xarakter xatti-harakatlarini asoslashga, boshqarishga, tashqi muhit rivojiga turtki beradi”[222].

O‘zbek olimlarining badiiy psixologizm haqidagi tadqiqotlari orasida N.Qobilovaning qarashlari ham alohida o‘rin tutadi. Tadqiqotchi N.Qobilovaning fikriga ko‘ra: “Hikoya – hayotning kichik bir parchasini aks ettiradi, unda bir yoki bir necha hayotiy voqea qalamga olinadi. Bu janrda qahramon ruhiy dunyosi izchil ravishda batafsil yoritish, “qalb dialektikasi”ni bosqichma-bosqich berish imkoni biroz cheklangan. Hikoyaga xarakterlar tayyor holdakirib keladi, shu sababli hikoya janrida psixologik tahlil ko‘proq situativ xarakterga ega bo‘ladi. Hikoyada tush, gallyutsinatsiya, maktub singari shakllarni qo‘llash ham ko‘p uchramaydi. Bu janrda psixologik detal, psixologik tafsilotdan foydalanish imkoniyati ko‘proq; portret esa, asosan, shtrixlar tarzida ko‘rinadi[223]. Hikoyada psixologizmni ta’minlashda rivoya subyekti ham ahamiyatli. “Epik asarlardagi rivoya subyekti, voqealarni hikoya qiluvchi, ular kechayotgan makon va zamon, personajlarga oid tafsilotlarni yetkazib, tasvir predmetiga o‘z munosabatini bildiruvchi shaxs roviy”[224]hisoblanadi. Rivoya subyekti psixologik asarlarda badiiy psixologizmni ta’minlovchi vositalardan biri sanaladi. A.Yesin badiiy psixologizm mavjud asarlarda uchinchi shaxs roviynutqi ko‘proq kuzatilishi, uning inson ruhiyatini ochishdagi imkoniyatlari kengligini ta’kidlaydi [225]. A.Yesin fikrlari keyingш yillarda Yevropada olib borilayotgan tadqiqotlarda rivojlantirilgan bo‘lib, ushbu tadqiqotlarda uchinchi shaxs roviy nutqining ikki xil shakli belgilanadi. Manfred Jannin “Roviy shakllari” nomli kitobida uchinchi shaxs roviyning bevosita hikoya ishtrokchisi bo‘lgan kuzatuvchi qahramon roviy va voqeada ishtirok etmaydigan har narsadan xabardor ilohiy/muallif roviy turlariga ajratadi[226]. Muallif roviyning voqelik davomida har yerda hozir-u nozir bo‘lishi, qahramonlarning eng yashirin onlariga ham shohid bo‘lib, ularni qahramonning o‘zidan ham ko‘proq anglay olishi kabi xususiyatlari, badiiy asarda qahramon ruhiyatini yoritishda keng imkoniyatlar yaratib beradi. Faqat bu ham yana yozuvchining asosiy maqsadiga tobe hisoblanadi. Badiiy asarda birinchi shaxs qahramon va ikkinchi

[221] Умуров Ҳ. Бадиий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Т.: Фан, 1983. – Б. 50.
[222] Умуров Ҳ. Сайланма. Биринчи жилд. Рисолалар. – Т.: Фан, 2007. – Б. 42.
[223] Қобилова Н. Жек Лондон ва Абдулла Қаҳҳор ижодида бадиий психологизм. Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... – Бухоро, 2020. – Б.18.
[224] Қуронов Д. ва бошқ.Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2010. – Б.57.
[225] Умуров Ҳ. Бадиий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Т.: Фан, 1983. – Б.50-53.
[226] Herman D. Encyclopedia of Narrative Theory. – New York: Francis Group, 2005. – P.80.

shaxs qahramon roviyning nutqi imkoniyatlaridan samarali foydalanib, inson ruhiyatini batafsil yoritish tajribalari ham kuzatiladi. Binobarin, hikoya birinchi shaxs roviy tilidan rivoya qilinganda qahramon ruhiyati nutqning monolog, ichki dialog, ichki psixologik tahlil va ong oqimi shakllari vositasida yoritiladi. Uchinchi shaxs roviy nutqida esa ko‘proq, muallif nutqi,remarkalar va dialog shakllarida ifodalanishi kuzatiladi.Yuqorida keltirilgan har bir rivoya shaklining o‘z imkoniyat doirasi mavjud bo‘lib, birida muayyan tasvir vositalari xos bo‘lsa, boshqasida boshqa tasvir vositalari birlamchi hisoblanadi. Badiiy asarda psixologiklikni ta’minlashda yana bir muhim unsur sifatida psixologik tasvir vositalarini keltirish mumkin. Psixologik tasvir vositalari badiiy tasvir vositalaridan farqli o‘laroq asarning estetik qiymatini oshirish bilan birga inson ruhiyatini ko‘lamli tasvirlashni maqsad qiladi. Psixologik tasvir vositalarini ikki turga ajratish mumkin: bevosita va bilvosita tasvir vositalari.

Bevosita (bazi manbalarda ichkaridan tasvirlash vositalari) – qahramon nutqi, qalb dialektikasi, monolog va dialog. Bilvosita tasvir vositalari (tashqaridan tasvirlash vositalari): qahramon ruhiy holati bilan parallel tasvirlanuvchi peyzaj, portret tasvirlari hisoblanadi[227].Bevosita tasvir vositalari qahramon ruhiyatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri nutqi (xotira va tasavvur tasvirlari orqali, psixologik tahlil), monolog va ichki dialog orqali tasvirlaydi. Bilvosita tasvir vositalari esa yozuvchi tomonidan personaj nutqining ekspressiv xususiyatlari, xulq-atvori, inson psixikasining tashqi ko‘rinishlari, mimika, portret va peyzaj tasvirlari kabi tasvir vositalari orqali ifodalanadi. Psixologik turdagi asarlarda ushbu vostilar ha ikki turi ham keng qo‘llaniladi. Yuqorida sanab o‘tilgan badiiy psixologizmning konseptual birliklarini umumlashtirgan holda quyidagi fikrlarni bildirish mumkin, badiiy psixologizm adabiyotshunoslikning zamonaviy metodlaridan biri bo‘lib, psixologik matnlarni bir butun kompozitsion birlik sifatida tahlil qiladi. Psixologik asarlarda psixologik tasvir vositalari belgilangan. Ularning soni zamonaviy tadqiqotlarda kengayib bormoqda. Zamonaviy psixologik asarlarda leytmotiv, intermatn, psixoterapiya, gallyutsinatsiya, illuziya, gipnoz, psixologik timsol kabi psixologik vositalar ham uchraydi. Ushbu psixologik vositalarning xususiyatlari, ularning tasnifi, badiiy asar kompazitsiyasida tutgan o‘rni hali to‘liq yoritilmagan, adabiyotshunoslik nazariyasida yechim qidirilayotgan masalalardan biri hisoblanadi.

Istiqlol yillarida hozirgi o‘zbek adabiyoti qisqa davr ichida katta rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Ammo shu davr oralig‘ida yaratilgan asarlar o‘zining mazmuni, shakli va uslubi bilan bir-biridan ajralib turadi. Mustaqillikning ilk yillarida yaratilgan asarlarda sotsrealizm unsurlari adabiy asarlarni tark etmagan bo‘lsa, 2000 yildan keyin yaratilgan badiiy asarlarda modernizm va postmodernizm unsurlarni ko‘rishimiz mumkin. Adabiyotshunos olima S.Kamilova istiqlol davri o‘zbek nasrida badiiy metod sintezi, stilistik usullarning o‘zgarishi, janriy transformatsiyalar va postmodernistik usullar xosligini aks etishini tahlil qilgan xolda, Milliy adabiyotimiz bosib o‘tgan murakkab va individual taraqqiyot yo‘lini uch davrga bo‘ladi[228]:

1.O‘tish davri (XX asrning 80-90- yillari), maqsadlar o‘zgarishining tahlili davri (1990-2000) va “verdandi” davri. Ya’ni, o‘tgan asrning 80-90-yillarida o‘zbek madaniyati va adabiyotida “mafkuraviy bo‘shliqni” bartaraf etish va o‘z milliy g‘oyasini aniqlash, rus adabiyotidan “zerikish”, G‘arb va Amerika adabiyoti bilan yaqinroq tanishish jarayoni yuz berdi.

2. Ikkinchi davrda esa, o‘zbek adabiyoti milliy o‘ziga xoslik – globallashuv, estetik qiymat – bozor iqtisodiyoti kabi qutbli tushunchalar bilan belgilanadigan vaziyatga tushib qoldi. Bu esa adabiy jarayonga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. O‘zbek yozuvchilari borliqni falsafiy tushunishga intilib, zamonaviylikni aks ettirishning yangi shakllarini izlay boshladilar.

---

[227] Страхов И.В. Психологическийанализ в литературном творчестве: пособие для студентов пед. ин-тов. – Саратов: изд-во Сарат. пед. ин-та, 1973. – С.51.

[228] https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2019/04/Saodat-Kamilova.pdf (Концептуальная модель узбекской литературы конца XX – начала XXI вв.)

3. Adabiyotning hozirgi (uchinchi) davri mumtoz o‘zbek bayonchiligi qonuniyatlari, realizm an’analari, modernistik va postmodernistik tendensiyalar sintezi bilan tavsiflanadi. Aynan shu davrdan boshlab, o‘zbek adabiyotida badiiy psixologizmning yangi, jahon adabiy jarayonlari bilan hamnafas davri boshlandi.

XX asr adabiyotida peshqadamlik qilgan psixologizmning dinamikprinsipi, o‘z o‘rnini analitik va tipologik prinsiplarga bo‘shatib berdi. Endi badiiy obraz ruhiyatini ochib berishda uning tashqi “hayoti”, hatti-harakatlari emas, balki uning ichki olami, kechinmalari, o‘y-fiklari, va ayniqsa uni o‘rab turgan muhimning xarakter shakllanishi va shaxs qismatiga tasviri yetakchilik qilmoqda. Ta’kidlash joiz-ki, analitik psixologizmda badiiy obraz ruhiyatining eng kichik hissiyotlarigacha barcha qirralari bilan batafsil, chuqur ochib berilishi hozirgi o‘zbek hikoyanavisligining rivojlanishiga katta turtki bo‘ldi. Bu esa o‘z o‘rnida zamonaviy o‘zbek nasri doirasida insonning tashqi hayotidan ichki hayotiga kirib borishga qaratilgan bir qator psixologik muammolarni hal qilishga imkon beradi. Obraz ruhiyatidagi tushkunlik, ruhiy yolg‘izlik kabi holatlar dunyodan ajralgan xolda emas, balki obrazni dunyo ichida, markazida tasvirlana boshlandi. O‘zbek adabiyotida badiiy psixologizm muammosi aksariyat hollarda hikoya janri namunalarida yorqin ifodasini topdi. Bugungi kunda ham o‘zbek adabiyotida hikoya janri epik turdagi janrlar ichida eng kichigi hisoblansada, badiiy obraz ruhiyatini ochib berish – badiiy psixologizm va uning turli ko‘rinishlarini o‘quvchiga yetkazib berishda boshqa nasriy janrlar orasida yetakchilik qilmoqda. Psixologik hikoya o‘zining qisqa, lo‘nda va har bir davr uchun dolzarb falsafiy g‘oyalari bilan bugungi globallashuv jarayonida yashayotgan informatsion asr o‘quvchisi, qolaversa yozuvchisi uchun ham eng qulay janrga aylandi.

Ammo XX asr boshidan to hozirgi davrgacha qalam tebratgan va tebratayotgan yozuvchilar (Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Shukur Xolmirzayev, Hayriddin Sulton, Erkin A’zam, Nazar Eshonqul, Ulug‘bek Hamdam, Isajon Sulton, Salomat Vafo, Abdunabi Hamro)da zamon va hikoya uslubi umuman farq qiladi. Ayni sho‘ro davri hikoyachiligida inson mehnati ulug‘langan asarlar yaratish kuchaygan bo‘lsa, shu davrning yetmishinchi yillaridan insonning o‘zi asar bosh g‘oyasini tashkil eta boshladi. Bugungi kun nasrida esa falsafa va psixologiya bilan uyg‘un holda, inson ruhiyati, botinini tahlil etish avj oldi.

Umuman olganda, o‘zbek prozasi o‘zining falsafiyligi, ramziyligi, psixologik tasvir vositalarining kuchliligi, bayonchilik uslubining murakkab shakli – muallif va qahramon nutqining uyg‘unlashib ketishi bilan ajralib turadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Herman D. Encyclopedia of Narrative Theory. – New York: Francis Group, 2005.
2. Yo‘ldosh Q., Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016.
3. Умуров Ҳ. Бадиий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Т.: Фан, 1983.
4. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
5. Қобилова Н. Жек Лондон ва Абдулла Қаҳҳор ижодида бадиий психологизм. Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... – Бухоро, 2020.
6. Қуронов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2010.
7. www.ziyonet.com

# MARKAZIY OSIYO XALQLARI ORASIDA NOG‘ORA URMA CHOLG‘ULARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Saidiy Said Bolta-Zoda-**
NavDPI professori, San ’atshunoslik fanlari nomzodi

Jahon xalqlari musiqa madaniyatida, jumladan, Markaziy Osiyo musiqiy hayotida cholg‘ularning o‘z o‘rni bor. Urma cholg‘ular uzoq tarixga ega bo‘lib, ular asrlar davomida umumjamiyat rivojlanishining barcha bosqichlarida takomillashib, mukammallashgan shaklda bizgacha yetib keldi.

Urma cholg‘ularning zarbu-usullaridagi xilma-xil sadolari, inson ruhiyotiga ta’sir qiluvchi ilohiy qudratga ega ekanligi qadimdan ma’lum. Ehtimol, ularning inson hayotiga chuqur kirib borganligi ham shu sabablidir.

Odamzodning muntazam harakatlari muayyan usuliy tartibni tashkil etganligi natijasida urma cholg‘ularning paydo bo‘lishini ta’minlagan deyish mumkin. Urma cholg‘ular sadolari yordamida inson ruhiy olamiga tegishli tahsir o‘tkazib kelingan. Borliqning insonga ta’sirida insonning ichki ritmik-usuliy harakatlari ham muhim ahamiyatga egadir.

Ritm madaniyati hayot boshlang‘ich asoslaridan biri bo‘lib, tarbiya jarayonida alohida o‘rin egallaydi. Ritm muayyan shaxsiy yoki jamoaviy harakatlar mukammallashuvining boshlang‘ich nuqtasi hisoblanadi.

Ritm - musiqada ma’nodorlik, o‘tkirlik, aniqlik, ta’sirchanlik asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Etnopsixolog B.Teplovning ta’kidlashicha, ritm hissiyoti musiqada ichki a’zolar bilan yondosh aloqadorlikda bo‘lsa ham, u hali musiqaviy usuliy chekinmadan tashkil topmasdan faqatgina uning paydo bo‘lishiga muhim sharoit yaratadi, xolos. Yahni, ritm musiqada muayyan his tuyg‘u, zavq, hayajon maromini boshqaruvchi hodisa hisoblanadi. Demak, ritm hissiyoti nafaqat harakat, balki tabiiy tuyg‘ularning mavjudligi bilan ahamiyatlidir. O.Apraksina ritm hissiyotini biror bir musiqiy faoliyat [xoh u qo‘shiq, xoh cholg‘ulardagi ijro yoki musiqa bastalash bo‘lsin] uning amaliyotisiz bo‘lishi mumkin emasligini ta’kidlaydi. A.Nazarovning fikricha, "Ritm - ibtidoiy inson hayotining asosiy qat’iy turkumi bo‘lib, jamoa faoliyatini birlashtiruvchi, unga uyg‘unlik bag‘ishlovchi yagona vosita hisoblangan. Ritm - nafaqat ijtimoiy jihatdan eng yuqori oliy shakliy vazifa, balki undan ham kengroq ma’naviy vazifalarni bajarib, insonni avlodlar ruhi bilan bog‘lovchi muhim omil hisoblanadi».

Madaniyatning tobora rivojlana borishi natijasida odamzodga “Chapak”, “Qars”, “Tepgi”, ijrosi turli xil rasm-rusm, urf-odatlar ifodasi sifatida jalb etilib, bir necha musiqiy ritmlar negizini tashkil etgan, desa ham bo‘ladi. Qars ijrolari yakka, guruhli tusda, hatto erkaklarning yog‘och-tayoq qurollarida, qars - sado chiqarish uslublari turli xil bahodirona raqslarda ijro maqomini bajarish vazifasini ado etgan.

«So‘nggi Ashel» davrida ibtidoiy odamlarning urma cholg‘ulari tarkibida "kunda cho‘p", "qovoq-cho‘p", "bambuk", "paqqildoq" kabi cholg‘ular o‘rnida qo‘llanilgan ashyolar ham mavjud bo‘lgan. Bunday ashyolar yordamida erkaklar tomonidan turli ritmlar ijro etilib kelingan.

Ma’lumki, Markaziy Osiyo xalqlari orasida eng qadimgi va keng tarqalgan urma cholg‘ulardan biri nog‘oradir. Bu cholg‘uning asta-sekin mazkur xalqlar, ularning qavm va qabilalari orasida paydo bo‘lib, tarqalib ketishida ayollarning o‘rni va xizmati katta bo‘lgan. Muzlik bosqichi davrida evropaning «Mustg‘e» (fransiya g‘ori) davrida g‘orlar ichida yashab, o‘z uy yumushlarini shu yerning o‘zida bajarishgan. Ayollar cholg‘u yasash maqsadida emas, balki kiyim tayyorlash maqsadida xayvon terisiga ishlov berganlar, so‘ngra uni xumsimon katta yog‘och kundaga quritish uchun tashlab qo‘yganlar. G‘orlardagi quruqlik va issiqlik tahsirida yog‘och kundalarga terining yelimsimon

moddasi yopishib qolishi natijasida qurishi ham tezlashgan. Oqibatda, kovak kundaga yopishgan teri haqiqiy nog‘orasimon sas chiqarib, diqqatni jalb etgan holda urma cholg‘u mavqeini egallab qolgan.

Demak, jahon hamjamiyatining eng sevimli va sozlarining ilk piri hisoblangan “HOG‘ORA”-cholg‘usi ayollar tomomidan tassodifan paydo bo‘lgan cholg‘u hisoblanib, uning tarixiga 100- ming yil bo‘lib o‘tdi va morfologik genezisi tariximizda muhrlandi deyish mymkin. Xuddi shunday kiyimga mo‘xtojlik davrida yuzaga kelgan deyish ham mumkin.

O‘zbekistonning Surxondaryo viloyati Teshiktosh g‘oridan topilgan toshdagi haykalcha tasviri nog‘ora cholg‘usining Mavorounnahr zaminida ham keng qo‘llanilganligidan dalolat beradi.

Ikkinchi cholg‘uning tarixiga 11- mimg yil bo‘lib o‘tgan, bu “NAY”- cholg‘usidir. Qozoqistonning “bo‘ri g‘ozg‘on” g‘oridan topilgan “g‘ajirnay” (cho‘pon nay),

Uchinchi cholg‘u 5- mimg yillik tarixiga kelib ilohiyot bilan bog‘lanuvchan, differensial qo‘zg‘alishlarga sababchi va jahon mo‘jizalaridan biri sanalgan “DOYRA” - cholg‘usidir. Ushbu cholg‘u “Nissioniy” va “Parfioniy”-lar davrida nafaqat musiqiy olam, hatto u yo bu ko‘rinishdagi falsafaviy g‘oyalar targ‘ibotchiligi va tibbiyotning ruhiyyot- (psixologik) olamida keng foydalanib kelingan. Ushbu cholg‘uning nomoddiy qo‘llanishi 8- mingyilliklarga borib taqalsa-da, ammo, faktologik tarix mavjud emas. Faqatgina 5- ming yillik tarixida cholg‘uning sirlari filologik jixatdan ma’lum bo‘lib, dalil sifatida ijro sirlari haligacha ochilmasdan qolgan. Ya’ni, ruhiyyot bilan bog‘lansa-da, undagi ijrochiga ayyon bo‘lgan sirli usul “shohzarbligida” ruhiy xastaliklar davolanib kelinganligi haqida faktologik ma’lumotlar mavzud bo‘lib, ya’ni, oliy asab faoliyati funksiyalariga chiqish va bo‘y sundirish, ong osti harakatlarini anglash va differensial qo‘zg‘alishlarni bajarish kabi muolajalar bajarilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


Farmet H.G. Islam. -Musikgeschichte in Bildern. -Lei’zig, s.a.Bd 3. Lfg.2.- 196 r.

2. Saidiy S.B. Markaziy Osiyo madaniyatida urma cholg‘ular (o‘zbek va tojik an’analari misolida)./.diss.s.f.n.O‘z. B.A.S.I.T.I.(arxiv).

Saidiy S.B. Temuriylar davri cholg‘ulari. //J. MOZIYDAN SADO, - Toshkent, 2004. №4(24). 26-27 b.


## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQIY TO‘GARAKLAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH


**Nematov Shahzodbek Otabek o‘g‘li-**
Navoiy DU, Musiqiy ta’lim kafedrasi talabasi
Ilmiy rahbar: **Nosirov Laziz Nematulloyevich-**
Navoiy DU Musiqiy ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi



**Annotatsiya.** Maqolada to‘garak shakllari va uni boshqarish tizimi haqida ma’lumotlar berilgan.Shuningdek, o‘quvchi yoshlarni sinfdan tashqari turli to‘garaklarga qiziqishlarini oshirib borish omillari o‘rin olgan.



**Kalit so‘zlar:** to‘garak va ilm, ijodkor, ustoz,tarbiya, axloq, ma’naviyat, qadriyat


O‘zbekiston Respublikasi o‘zining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy rivojlanishining porloq yo‘liga qadam tashlaganiga ham 33 yil bo‘ldi. Mustaqillikning ana shu yillari ichida iqtidorli yoshlarni izlash, ularni tabiyalash va iste’dodini oshirish davlatimiz oldidagi eng dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib keladi.

Shunday ekan, maktabda ishlaydigan har bir o‘qutuvchining eng asosiy vazifasi-ijodiy izlunuvchan, mustaqil fikr yuritish qobiliyatiga ega yoshlarni aniqlash, ular bilan alohida shug‘ullanishi va iste’dodlarni oshirish yuzasidan tadbirlar ishlab chiqishdan iborat.

Ilmiy tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, 1-sinfga qadam qo‘ygan jajji bolajonlarning 60 foizida turli qobiliyat nishonalari namayon bo‘lar ekan. Ho‘sh iqtidorli o‘quvchi kim? Uni boshqa tengdoshlaridan qanday ajratish mumkin?

Quyida e’tiboringizga maktab o‘quvchisi shaxsining iste’dodini shakllanganlik darajasini ko‘rsatuvchi xislatlari keltiriladi.

O‘quvchining yangiliklarni amaldiyotga qo‘llashdagi idoraviylik xislatlari:

-o‘quvchi shaxsining maktabdagi faoliyati ko‘p qirralari;

-ilm olish, o‘qish jarayonida sabr toqatli bo‘lish; to‘garak va ilmiy jamiyattning faol ishtirokchisi bo‘lish, fan yangiliklari haqida ma’lumot berish;

-mutaqil fikrini baralla bildira olish;

-egallagan bilimlarni o‘z ishida, turmushida ongli ravishda qo‘llay bilish;

-darslikdan tashqari adabiyotlar bilan mustaqil shug‘ullanish, bu adabiyotlardagi ilmiy tushuncha va g‘oyalarning mahiyatini tushuna bilishlik;

-o‘qigan matndagi g‘oyalarni erkin va tez bayon qila olishlik;

-o‘z fikriga tanqidi yondasha olishlik;

O‘quvchining ma’naviy barkamollik va mehnatsevarlik xislatlari:

-mutaqil ravishda ishlash va o‘ylash qobiliyatga, o‘z ishini rejalay olish va tashkil qila bilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

-o‘quvchi shaxsidagi poklik, to‘g‘rilik;

-o‘z ijodiy faoliyatini rejalashtira olishlik;

-javobgarlik hissi o‘ta rivojlangan bo‘lishi;

-adolatparvar bo‘lishi;

-sinf va maktab uchun zarur bo‘lgan topshiriqlarni bajonidil bajarilishi;

O‘quvchining individual shaxsiy xislatlari:

-o‘qishdan tashqari tashkil qilinadigan tadbirlarda faol qatnashish;

-diqqatni talab qiluvchi o‘yinlardagi qiziqishi;

-xorijiy tilni o‘rganishga intiluvchanlik;

-kompyuter texnikasi bilan erkin va muntazam shug‘ullanishlik, zamonaviy axborot texnologiyachi haqida tushunchaga ega bo‘lishi;

-kitobni jondan sevish;

-o‘quvchi shaxsida so‘z boyligi miqdori katta bo‘lishi;

-o‘quvchi shaxsidagi o‘ziga ishonch va ijodiyatning o‘sish sur’ati;

Ijodkor o‘quvchini aniqlash bosqichlari

1- bosqich tahliliy bosqich-ta’limning boshlang‘ich pog‘onasi (1-4 sinf)

2- bosqich-diognastika tashxis qo‘yish va iste’dodni aniqlash (5-9 sinf)

3- bosqich-yuqori sinflarda (10-11 sinf) o‘quvchilardagi aniqlanilgan ijodkorlik qobiliyatlarini yanada chuqurroq va to‘laroq o‘rganish.

Avvalo o‘quvchining dunyoqarashi keng bo‘lishi uchun gumanitar yo‘nalishdagi fanlarni chuqur o‘rganishi, shuningdek, estetik yo‘nalishdagi, jumladan, tarix adabiyot, musiqa, rasm, qo‘shimcha ta’lim singari fanlar integrasiyasidan foydalanish yo‘li bilan ko‘p axborotga ega bo‘lishi, uni to‘g‘ri va to‘liq, har tomonlama tahlil qila bilish zarur. Buning natijasida o‘quvchida o‘z dunyoqarash nuqtai nazarini to‘g‘ri va puxta asoslay bilishi ham suhbatni tinglay olish namoyon bo‘ladi. Kamida ikki tilni

bilishi. Bu o‘quvchining umumiy tafakuri oshadi, boshqa halqlar va davlatlarning tili, madaniyati, urf-odatlari an’analari haqida tushunchalar oshadi, umumiy dunyoqarashi kengayadi.

Iqtidorli o‘quvchilar bilan shug‘ullanuvchi har bir o‘qituvchi quyidagilarga e’tibor bermog‘i lozim:

-o‘quv dasturini o‘quvchilarning iste’dod darajasiga qarab chuqurlashtirish, ya’ni ta’lim mazmunini yangilash va kengaytirish;

-o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan doimo o‘sib boruvchi ihtiyoj-talablarini to‘liq ta’minlay olish;

-maxsus o‘quv reja bilan ishlash;

-o‘quvchilar bilan alohida ishlash;

-yakka tartibda shug‘ullanishni tashkil eta bilish;

-o‘z ta’lim-tarbiya faoliyati bilan sinfning o‘zlashtirish faoliyatini taqqoslab, holisona xulosa chiqara bilish;

-turli xil kelishmovchiliklarni bartaraf eta bili shva tinch olish;

Tavsiyalar:

-o‘quvchining tashabbusini bug‘mang, ular mustaqil bajara oladigan ishlarga siz aralashmang;

-o‘quvchilami fanlararo bog‘lanish imkoniyatlaridan ya’ni bir fandan olgan bilimlarni boshqa fanni o‘rganishda foydalanishga o‘rgating;

-o‘quvchilardan muammo va muhim masalalami mustaqil hal etish ko‘nikmasini hosil qiling;

-maktab yoki uy sharoitida vujudga kelgan murakkab vaziyatlami o‘quvchilarda ilgari hosil qilingan ko‘nikmalardan foydalangan holda hal etishga harakat qiling;

-o‘quvchilami bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini boshqarishga o‘rgating;

-o‘quvchilar bilan bo‘ladigan muloqotga doimo ijodiy yondashing.

Maktab ta’limining turli bosqichlarida iqtidorli o‘quvchi shaxsini aniqlash mezoni sifatida quyida e’tiboringizga havola qilinayotgan va maktab sharoitida bir necha yildan beri sinovdan o‘tib, ijobiy natija berayotgan o‘quvchi reytingini aniqlash va ijodkor o‘quvchini aniqlashning diagnostik dasturidan foydalanish mumkin.

Ijodkor yoshlarga-ijodkor ustoz. Ijodiy izlanuvchan, iste’dodi jo‘sh urgan o‘quvchi ilm-fanda, ijtimoiy hayotda doimo yangilik sari intiladi, uni egallash bilan birgalikda yanada yuqori pog‘onada fikr yuritishini, ilm-fan, texnik san’atning eng so‘nggi yangiliklarini bilishni, zamonaviy texnologik vositalar yordamida ukmi tahlil qilishni hohlaydi. Haqiqiy iste’dod egasi qaysi jabhada bo‘lmasin, fandami, adabiyot va san’atdami, sportdami, biribir doimo hayot bilan qadam

Xullas. Hozirgi kun talabi asosida yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash biz musiqa o‘qituvchilarining asosiy vazifasi sanaladi. Respublikamizda ayniqsa qishloq joylarida iqtidorli iste’dodli o‘quvchilarni aniqlash va ular bilan hamkorlikda ishlash jarayoniga alohida e’tibor berilmoqda. Iqtidorli yoshlar bilan ishlash jarayonida ularda bor iste’dodni yanada rivojlantirish kerak buladi. Buning uchun har bir o‘qituvchidan bilim va malaka talab etiladi. Shunday ekan biz o‘qituvchilar o‘z bilim saviyamizni nazariy va amaliy jihatdan oshirib borishimiz kerak buladi va barkamol inson tarbiyasi uchun mas’ulligimizni his qilgan holda tinimsiz mehnat talab qilinadi. Shunday ekan doimo o‘z bilmimizni oshirib, boyitib borishimiz kerakdir.

# SUN’IY INTELLEKT VOSITALARI YORDAMIDA CHET TILINI O‘QITISH: MAKTAB VA OLIY TA’LIM TIZIMI HAMKORLIGI

**N.A.Nematova-**
Navoiy davlat universiteti Fakultetlararo chet tillar kafedrasi o‘qituvchisi,
**Z.N.Pirmatova-**
Zarafshon shahridagi 13-IDUM ingliz tili o‘qituvchisi

**Annotasiya.** Mazkur maqolada sun’iy intellekt vositalari yordamida chet tilini o‘qitishning afzalliklari, maktab va oliy ta’lim tizimi o‘rtasidagi hamkorlikning zamonaviy modeli, shuningdek, bu jarayonda duch kelinayotgan muammo va ularning yechimlari, ilmiy yangilik va istiqbollar atroflicha tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar**: sun’iy intellekt, chet tilini o‘qitish, ta’lim texnologiyalari, raqamli ta’lim, maktab va universitet hamkorligi AI vositalari, til o‘rgatish innovatsiyalari, lingvodidaktika, onlayn ta’lim Interaktiv o‘qitish

**Kirish.** So‘nggi yillarda ta’lim tizimida ro‘y berayotgan tub islohotlar, global integratsiya jarayonlari va texnologik taraqqiyot butun dunyoda, jumladan O‘zbekistonda ham zamonaviy yondashuvlarga asoslangan, innovatsion ta’lim modelini shakllantirish zaruratini tug‘dirmoqda. Chet tillarini o‘rganish va o‘rgatish masalasi esa bu o‘zgarishlarning markazida turibdi, chunki zamonaviy jamiyatda til bilimlari nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat, balki milliy taraqqiyot va xalqaro aloqalar uchun ham muhim omilga aylanmoqda. Shu boisdan, til o‘rgatishda ilg‘or texnologiyalarni, xususan sun’iy intellekt (SI) vositalarini jalb etish masalasi bugungi kunda dolzarb va ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Sun’iy intellekt – bu mashina va dasturiy ta’minotga inson aqliga xos funksiyalarni: tushunish, o‘rganish, fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatini beruvchi texnologiyadir. Chet tillarini o‘qitishda SI vositalari talabalarning ehtiyojlariga moslashgan shaxsiy o‘quv yo‘llarini yaratish, avtomatik baholash, talaffuzni tahlil qilish, interaktiv mashqlarni taqdim etish va boshqa ko‘plab imkoniyatlarni taqdim etadi. Ayniqsa, ta’lim jarayonining ilk bosqichi — maktab ta’limida bu vositalardan foydalanish til o‘rganish jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi.

Biroq, O‘zbekiston ta’lim tizimida maktab va oliy ta’lim bosqichlari orasida metodik uzviylik, raqamli platformalar integratsiyasi va malakali kadrlar bilan ta’minlash kabi jihatlar hali to‘liq shakllanmagan. Maktablarda boshlangan chet tili o‘rganish jarayoni ko‘pincha oliy ta’lim muassasalarida samarali davom ettirilmaydi, bu esa umumiy til kompetensiyasining pasayishiga olib kelmoqda. Shu sababli, maktab va universitet o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ushbu hamkorlikda SI texnologiyalaridan foydalanish orqali ta’lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqish imkoniyati mavjud.

Bugungi kunda chet tillarini o‘rganish global taraqqiyotning ajralmas omiliga aylangan. Ayniqsa, ingliz tili xalqaro aloqa, ilm-fan, biznes va texnologiyalar tili sifatida muhim o‘rinda turadi. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda xorijiy tillarni o‘rganishga katta e’tibor qaratilmoqda. Prezident qarorlari asosida umumta’lim maktablaridan boshlab oliy ta’lim muassasalarigacha chet tillarini o‘rganish majburiy va tizimli shaklga keltirilmoqda. Shunga qaramasdan, real ta’lim amaliyotida quyidagi jiddiy muammolar saqlanib qolmoqda:

1. Bosqichlararo uzilish: maktab va universitet o‘rtasida chet tillarini o‘qitish jarayonida uzviylik yo‘q. O‘quvchilar maktabni tugatganida yetarli til bilimiga ega emasligi sababli, oliy ta’lim bosqichida tilni deyarli yangidan o‘rganishga to‘g‘ri keladi. Bu esa vaqt, resurs va motivatsiya yo‘qotilishiga olib keladi.

2. An’anaviy metodikaga bog‘lanib qolish: ko‘plab maktab va universitet o‘qituvchilari hali-hanuz interaktiv va zamonaviy yondashuvlardan ko‘ra, gramatika-asosli, kitob markazli o‘qitish uslublariga tayanishadi. Bu usullar o‘quvchining faolligini va tilga bo‘lgan ishtiyoqini pasaytiradi.

3. Texnologik integratsiyaning yetishmasligi: bugungi raqamli asrda sun’iy intellekt vositalari orqali ta’lim samaradorligini oshirish mumkin bo‘lsa-da, bu vositalarning cheklanganligi yoki ular bilan ishlash bo‘yicha malaka yetishmasligi muammo bo‘lib qolmoqda. AI vositalari yordamida shaxsga yo‘naltirilgan, differensial yondashuvlar ishlab chiqilishi mumkin, biroq bu imkoniyatlar maktablarda deyarli foydalanilmayapti.

4. Ta’lim resurslarining nomutanosibligi: poytaxt va markaziy shaharlarda mavjud bo‘lgan texnik imkoniyatlar, darsliklar va o‘qituvchi sifati viloyat va chekka hududlarda sezilarli darajada past. Bu esa o‘quvchilarning teng ta’lim olish huquqini cheklaydi.

5. Hamkorlik mexanizmining yo‘qligi: maktab va universitetlar o‘rtasida ilmiy-metodik va texnologik hamkorlik yo‘lga qo‘yilmagan. O‘qituvchilar o‘rtasida tajriba almashinuvi kam, o‘quv dasturlar esa bir-biridan uzilgan. Natijada til o‘rganishning uzluksizligi buziladi.

6. O‘quvchilar motivatsiyasining pastligi: o‘quvchilarning ko‘pchiligi chet tilini faqat imtihondan o‘tish uchun o‘rganadi. AI vositalarining yo‘qligi, qiziqarli interaktiv uslublarning kamligi o‘quvchilarni til o‘rganishga undamaydi.

7. AI kontentining mahalliylashtirilmaganligi: sun’iy intellekt texnologiyalari bo‘yicha mavjud dasturlarning ko‘pchiligi xorijiy tillarda bo‘lib, ularni to‘liq tushunish va amalda qo‘llash maktab darajasidagi o‘qituvchilar uchun murakkab bo‘lib qolmoqda.

Shunday qilib, mavjud muammolar tizimli va ko‘p qirrali bo‘lib, ularni faqat bitta darajadagi islohotlar bilan hal qilib bo‘lmaydi. Barcha ta’lim bosqichlari va mutasaddi tashkilotlar o‘rtasida muvofiqlashtirilgan, zamonaviy texnologiyalar asosidagi hamkorlik zarur.

Chet tilini o‘qitishdagi mavjud muammolarni samarali hal etish uchun, maktab va oliy ta’lim tizimi o‘rtasida chuqur integratsiyalashgan hamkorlik hamda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalaridan oqilona foydalanish zarur.

1. Ta’lim bosqichlari o‘rtasida uzviylikni ta’minlash

Maktab va universitet o‘quv dasturlari bir-biri bilan bog‘liq, uzviy ravishda davom etadigan tarzda ishlab chiqilishi kerak. Maktablarda o‘qitilayotgan til kurslari universitetdagi til fanlari uchun tayanch vazifasini bajarishi lozim. Bu maqsadda:

umumiy “Til kompetensiyasining milliy standarti” ishlab chiqilishi;

-maktab o‘qituvchilari va universitet professor-o‘qituvchilari o‘rtasida muntazam seminar va tajriba almashinuvi o‘tkazilishi lozim;

-bitiruvchi sinflar uchun universitet darajasiga tayyorlovchi maxsus til modullari (bridging programs) joriy etilishi maqsadga muvofiq.

2. Sun’iy intellekt vositalarini joriy etish

-AI yordamida til o‘rgatishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni ta’minlash mumkin. Masalan:

-AI platformalar (ChatGPT, Duolingo Max, ELSA Speak, Grammarly AI) orqali talaffuzni avtomatik tuzatish, matn tahlili, yozma topshiriqlarga fikr-mulohaza berish kabilar amalga oshiriladi;

-maktab va OTMlar uchun mahalliylashtirilgan AI modullar ishlab chiqilishi lozim. Ular o‘quvchilar yoshiga, til darajasiga va madaniy kontekstga moslashtirilgan bo‘lishi kerak;

-o‘qituvchilar uchun AI vositalari bilan ishlash bo‘yicha malaka oshirish kurslari yo‘lga qo‘yilishi muhim.

3. Resurslar va infratuzilmani tenglashtirish

-Mintaqalar o‘rtasida ta’lim resurslari teng emasligi sababli, quyidagi choralar ko‘rilishi lozim:

-har bir hududdagi maktablar raqamli ta’lim markazlari bilan ta’minlanadi;

-bulutli platformalar orqali til materiallari va AI asosidagi dars resurslari umumiy tarmoqda ochiq foydalanishga taqdim etiladi;

-onlayn monitoring tizimi orqali til o‘rganishdagi natijalar tahlil qilinadi va real vaqtda qayta aloqa ta’minlanadi.

4. O‘quv motivatsiyasini oshirish

-Til o‘rganishni faqat imtihon uchun emas, balki haqiqiy kommunikatsiya vositasi sifatida targ‘ib qilish uchun:

-interaktiv AI-assistentlar yordamida o‘quvchilar bilan jonli muloqotga asoslangan darslar tashkil etish;

-AI yaratuvchanlik vositalari orqali ingliz tilida video, podkast, hikoya yaratish orqali o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish;

-xalqaro AI-assosiylangan tanlovlar, viktorinalar, til loyihalarida ishtirok etish imkonini beruvchi platformalarga ulanish.

5. Maktab va universitetlar o‘rtasida strategik hamkorlik

-OTMlar maktablar uchun resurs markazlariga aylanishi kerak. Universitet laboratoriyalari, AI texnologiyalari va metodika tajribalari maktablar bilan bo‘lishilishi zarur;

-har ikki ta’lim bosqichi o‘rtasida Qo‘shma til loyihalari, konferensiyalar, tadqiqotlar tashkil etilishi tavsiya etiladi;

-universitetlarning filologiya va lingvistika yo‘nalishlari talabalariga maktablarda amaliyot o‘tash orqali ko‘mak berish tizimini rivojlantirish mumkin.

Shunday yechimlar tizimli ravishda joriy etilsa, AI vositalari yordamida til o‘rganish nafaqat samarador, balki o‘quvchi uchun qiziqarli va motivatsion jarayonga aylanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Alekseeva, L. M. (2022). Ispol’zovanie iskusstvennogo intellekta v obuchenii inostrannym yazykam. Moskva: Nauka.

2. Kukushkina, O. A. (2021). Innovatsionnye podkhody v yazyikovom obrazovanii: rol’ AI-tekhnologiy. // Vestnik lingvistiki i pedagogiki. №3(45), 34–40.

3. Reinders, H., & Benson, P. (2020). Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Language Teaching, 53(4), 428–445. https://doi.org/10.1017/S0261444820000216

4. Li, Z., & Zhang, Y. (2021). AI-Powered Language Learning: Challenges and Opportunities. Journal of Educational Technology Development and Exchange, 14(1), 23–35.

5. Uzbek Ministry of Higher and Secondary Specialized Education. (2023). Chet tillarini o‘qitishda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish bo‘yicha metodik tavsiyalar. Toshkent: Innovatsion ta’lim nashriyoti.

6. Warschauer, M. (2019). Learning in the Cloud: How (and Why) to Transform Schools with Digital Media and Artificial Intelligence. Teachers College Press.

7. Nematova, N.A. (2024). Assotsiativ aloqalar va konnotativ ma’no: nominatsiya jarayonida madaniy omillar roli. Navoiy: NDU ilmiy to‘plami.

8. Oxford, R. L. (2017). Teaching and Researching Language Learning Strategies: Self-Regulation in Context. Routledge.

9. Ahunov, M. & Bobojonov, S. (2023). Maktab va oliy ta’lim o‘rtasidagi hamkorlikda AI texnologiyalarining roli. // Pedagogik innovatsiyalar jurnali, 5(2), 44–50

10. Brown, H. D. (2015). Principles of Language Learning and Teaching. 6th ed. New York: Pearson Education.

# MILLIY MUSIQANING INSON MA’NAVIY TARBIYASIDAGI ROLI VA AHAMIYATI

**Tursunov Kamoliddin Mirza o‘g‘li-**
Navoiy DU Musiqiy ta’lim kafedrasi talabasi
Ilmiy rahbar: **Nosirov Laziz Nematulloyevich-**
Navoiy DU Musiqiy ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotasiya: Maqola mazmunida milliy musiqa san’atining yoshlar ma’naviy-madaniyatini shakllantirishda tutgan o‘rni haqidagi fikr-mulohazalar bildiriladi.

Kalitli so‘zlar: musiqa, madaniyat, san’at, ma’naviy-tarbiya, axloqiy-estetik, musiqa madaniyati.

Musiqa ulkan ta’sirchan kuchga ega bo‘lgan tarbiya vositasidir. Musiqa o‘zining jozibasi bilan inson qalbini rom etadi. U kishi ruhiyatiga hayotbaxsh kuch bag‘ishlaydi. Musiqa kishilarning zavqlanishi, xuzo‘rlanishi, rohatlanishi, marokli dam olishi, taskin topishi, fikrlashi va mushoxada qilishiga ko‘makdosh bo‘ladi. Ayni bir paytda, musiqa kishylarning ulug‘ ishlarga safarbar etuvchi qudratli kuchga ham ega. Shu bois bo‘lsa kerak, Sharqning buyuk mutafakkirlari Farobiy, ibn Sino, Beruniy, Axmad Yassaviy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiylar o‘z ijodlarida musiqa san’atiga alohida e’tibor qaratganlar, uni ulug‘laganlar. San’atni inson qalbi va ruhiyatining jon ozig‘i deb bilganlar. San’at va san’atkorni doimo qadrlaganlar. Ularning ta’kidlashlaricha chinakam san’atga oshno bo‘lgan madaniyatli va ma’naviyatli kishilar yurt obro‘sini ko‘taradilar, o‘zlari esa xalq xurmatida bo‘ladilar.

Dono xalkimiz qadim-qadimdanoq musiqa va qo‘shiqni o‘z ijtimoiy va madaniy hayotlarini muhim bo‘lagi deb bilganlar. Farzandni qo‘shiq aytishga, soz chalishga o‘rgatish oila orzusi sanalgan, xonadonda yaxshi niyat bilan biron-bir cholg‘u sozi saqlanishi odat qilingan. Dunyoga kelgan farzand birinchi bor yo‘rgaklanishdayoq kuylanadigan ma’yus ona allasi, ism qo‘yilishida go‘dak qulog‘iga qiroatli azon aytilishi, surnayning mungli sadolari ostida bolaning xatna qilinishi aslo bej iz bo‘lmagan. Kuy va ohangni go‘dak qalbiga tez yo‘l topa olishi, qalbi va hissiyot olamiga ij obiy ta’ sir ko‘rsatib, ezgulik tomon yetaklay olishi buyuk donishmand avlodlarimiz tomonidan chuqur anglab yetilgan.

Yoshlik - inson umrining bahori. Barcha go‘zal fazilatlar ham, xunuk odatlar ham yoshlikdan shakllana boshlaydi. Inson yoshligidan nafosat olamiga jalb etilmasa, eng ezgu fazilatlar ruhida tarbiyalanmasa, keyinchalik turmush chorrahalarida dovdirab qoladi. Shuning uchun ham ma’naviy tarbiyaning muhim qismi -musiqa saboqlari berishni yoshliqdan boshlash lozim.

Sharqning ibn Sino, Farobiy, Beruniy, Kavkabiy, xazrat Navoiy, Umar Hayyom, Jomiy kabi jahonga nom taratgan buyuk allomalari ham musiqa ilmiga katta e’tibor berganliklarini ko‘ramiz, musiqa san’ati inson tarbiyasida muhim o‘rin tutishligini, kishi madaniyati va umuman ma’naviyatida ustivor o‘rinda turishligini baralla ta’kidlaganliklarini bilamiz.

San’at - ijtimoiy ongning bir turi, kengroq mushoxada etsak, asl san’at ideal mafkura demakdir. Xatto yuksak taraqqiy etgan fan va texnika vositalari ham yechimini topa olmayotgan muammolarni san’at vositasida ijobiy hal etish, insoniyat taqqirida muhim o‘zgarishlarga erishish mumkinligi mubolag‘a emas. Ayniqsa, musiqa ko‘hna san’atlar sirasida insonga tabiatan xos, ta’sir quvvati beqyyos san’at sifatida aloxida mavqyega ega. Musiqaning yuksak badiiy-estetik qimmati, kuchli ruhiy-ma’naviy ta’siri, tarbiyaviy axamiyati xususida o‘rta asrlarga mansub ilmiy va badiiy adabiyotlarda talaygina e’tiborga loyiq fikrlar mavjud. Aj dodlarimiz musiqani ilohiy go‘zallik, latif san’ at sifatida asrlar osha e’zozlab kelganlar. Qolaversa, biz ham kundalik hayotimizni musiqasiz tasavvur eta olmaymiz.

G‘urur - umuman ma’naviyatda ustivor o‘rinda turishligini baralla ta’kidlaganliklarini bilamiz.

*Aristotel* ta’biri bilan aytganda, «Musiqa qalbning axloqiy-estetik jihatlariga ta’sir ko‘rsata olish layoqatiga qodir. Modomiki, musiqa shunday xususiyatlarga ega ekan, demak u yoshlarni tarbiyalash vositalari qatoriga kiritilmog‘i lozim».

*«Avitsenna»* nomi bilan butun dunyoda mashxur bo‘lgan Abu Ali ibn Sino faqatgina shifokor emas, taniqli musiqashunos ham edi. Xatto g‘ijjakning yaratilishi bilan bog‘liq rivoyat ham ibn Sinoga bag‘ishlangan: go‘yoki bu cholg‘u asbobini ixtiro qilgan va unda kuy chalgan odam ulug‘ hakim emish. «Kitob ash-Shifo» asarida yozilishicha, musiqa kishi ruhini davolovchi, inson qalbiga kuchli ta’ sir etuvchi estetik vositalardan biridir.

*Alisher Navoiy* nozik ta’b, yuksak zakovat egasi sifatida musiqani sevib tinglar, dil-dildan zavqlanardi. Shoir talantli san’atkorlarga hamisha g‘amxo‘rlik qildi, yoshlarning kamoloti uchun tinmay qayg‘urdi. Insonning kamolotga yetishuvida asosiy rol o‘ynovchi vositalardan biri - musiqa san’atidan bahramand bo‘lish deb bildi. Musiqani sevmagan shoir qalbi xuvillagan charbog‘, xazon bo‘lgan bahordir. «Musiqani idrok etmagan shoir, nim shoirdir», - deydi Navoiy.

*Arastu* yozgan ediki: «Musiqa ko‘ngilga axloqan ta’sir ko‘rsatish qudratiga ega ekan, u albatta yoshlarni tarbiyalash qo‘llanmalari qatoriga qo‘yilmog‘i lozim». Musiqa va musiqashunoslik ilmini chuqur tadqiq qilgan buyuk alloma Farobiy ham musiqani axloq bilan bog‘liqligiga chuqur ishonch hosil qilgan edi: «Bu ilm o‘z muvozanatini yo‘qotgan odamlar xulkini muvozanatga keltiradi, mukammallikka yetmagan xulqni mukammal qiladi, muvozanatda bo‘lgan kishilar xulqini esa muvozanatda saklab turadi. Musiqani inson qalbidan o‘t-olov chiqarishi lozimligini istagan Betxoven esa uni», - deb baholagan.

*Abduraxmon Jomiy* o‘zining «Musiqa haqida risola»sida maqomlar haqida fikr yuritib: «Bilki, kishiga lazzatbaxsh etishdan iborat umumiy xususiyatlardan tashqari 12 maqomdan har biri, har bir ovoza va sho‘ba maxsus ta’sir kuchiga ega. Masalan: Ushshoq, Navo, Bo‘saliq tinglovchida qudrat va jasurlik uyg‘otadi, vaholangki, ovoz bunday ta’sir kuchga ega emas», - deya xayratlangan.

So‘z mulkining sultoni, yuksak madaniyat soxibi Alisher Navoiyning o‘lmas asarlari, u haqida yozilgan ilmiy-tadqiqotlar uni o‘z zamonasining yuksak aql-zakovatli, qomusiy olimligi bilan bir qatorda, san’atni chuqur tushunuvchi, musiqiy ohanglar sehridan qattiq ta’sirlanuvchi nozik qalb soxibi ekanligidan ham dalolat beradi. A.Navoiy o‘z davrining musiqashunosi, bastakori ham bo‘lgan bo‘lsa ajab emas, zero u o‘z zamonasidagi musiqa san’ati taraqqiyoti darajasidan to‘la xabardor bo‘lgan, san’atkorlarga raxnamolik qilgan, xatto musiqaga bag‘ishlab maxsus «Risolai musiqa» asarini yozganligi ma’lum. Yozgan she’r va g‘azallarini nihoyatda musiqiy yangrashiga intilgan. Shu bois Ogahiyning ta’biri bilan aytganda «Navoiyning navosidan ortiqcha bahra yo‘q». Navoiyning fikricha har bir shoir bir oz bo‘lsa-da, kuy bastalay bilishi lozim, soz chala bilgan shoir esa ravon musiqiy she’rlar yozishi mumkin, biron-bir cholg‘uda sado tarata olmaslik esa shoirlikning nuqsonidir. Binobarin, she’r va musiqa doimo hamohang va o‘zaro mushtarak bo‘lmog‘i lozim.

Musiqa bilan shug‘ullangan kishi «Noo‘rin harakatlar bilan o‘ziga dog‘ tushirmaydi, balki undan olam-jahon bahra va foyda olib o‘ziga ham, Vatanga ham foydali ishlar»ni bajaradi.

*Farobiy* ensiklopedist olim bo‘lish bilan birga buyuk musiqashunos ham edi. Uning musiqa ilmi sohasidagi faoliyati faqat nazariy qarashlari bilan chegaralanib qolmasdan, amaliy faoliyatida ham o‘z ifodasini topgan. Farobiyning o‘z davri uchun yangilik bo‘lgan musiqa asbobi yaratgani, mohir sozanda va bastakor sifatida tanilgani hakida rivoyatlari ko‘p.

Farobiy musiqa ilmini keltirib chiqargan sabablarni bilish xususida yozar ekan, umuman, musiqaning axloqiy-tarbiyaviy jihatlariga diqqatni jalb etadi. «Bu ilm shu ma’noda foydaliki, deb yozadi Farobiy «Ixso ul ulum» asarida, - u o‘z muvozanatini yo‘qotgan (odamlar) xulqini tartibga keltiradi, mukammallikka yetmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo‘lgan (odamlar) xulqining muvozanatini saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir, chunki, tana kasal bo‘lsa, ruh ham so‘ladi, tana to‘siqqa uchrasa, ruh ham to‘siqqa uchraydi. Shuning uchun

ovozlarning ta’siri bilan ruhni sog‘aytirish yordamida tana pasaytiriladi, ruh esa o‘z kuchlarining tartibiga solinishi va o‘z abstanqiyasiga moslashtirilishi orqali sog‘ayadi».

Aytishlaricha, al-Farobiyning o‘zi mohir ijrochi-qonun, bastakor bo‘lgan. Rivoyatlarga qaraganda u yangi asbob ixtiro qilgan.

O‘zining musiqiy pedagogik qarashlari bo‘yicha al-Farobiy qadimiy yunon olimlari bilan hamfikr bo‘lgan. Ular musiqani ta’lim va tarbiyaning zaruriy predmeti deb hisoblaganlar. Qadimiy yunon olimlarining fikricha gimnastika odamlarning tanasi va qaddini shakllantirgani kabi, musiqa inson qalbini shakllantirishga qodir bo‘lgan vosita hisoblanadi.

*Abu Ali ibn Sino* qadimgi yunon faylasuflari hamda Farobiyning musiqa to‘g‘risidagi ta’limotlarini chuqurlashtirgan holda musiqaning inson ma’naviyati bilan bog‘liq jixatlariga ham katta e’tibor beradi. Olimning fikricha, «Musiqa hayotbaxsh, olijanob axloqiy kelinni kuyov xonadoniga kelishi bilan yuzaga kelib, kuyovning ota-onasi, qarindosh-urug‘lari kelin nomidan ma’lum ohanglarda salom aytib turiladi. Ijrochi ijro jarayonida she’r mazmuniga o‘zgartirish kiritadi, ya’ni ushbu xonadonga qarashli insonlarga murojaat etgan holda badiha (tayyorgarliksiz ijro etilgan kuy yoki qo‘shiq) ijro etadi».

*Ch.Darvin* san’atning zaruriyati hamda uning kishi ongi va axloqiga ta’siri to‘g‘risida bunday degan edi: «Agar menga qaytadan umr ko‘rish nasib bo‘lganda edi, men har kuni oz- ozdan she’riy asarlar o‘qib borishni va ozroq musiqa tinglashni o‘zimga odat qilib olgan bo‘lardim». Agar juda yopglik chog‘idanoq bola qalbiga musiqa asarining go‘zalligi ta’sir ettirilsa, agar bola tovushlarda inson his-tuyg‘ularining ko‘p qirrali ma’nolarini sezsa, u hyech qanday boshqa vositalar bilan erishib bo‘lmaydigan madaniyat cho‘qqisiga ko‘tariladi. Musiqa ohanggi go‘zalligini his etish, bola qarshisida o‘z go‘zalligini yaratadi - kichik inson o‘z obro‘- e’tiborini anglaydi.

«Sharq musiqasi, - degan edi birinchi Prezidentimiz *I.A.Karimov* «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivalining ochilish marosimidagi tadbir so‘zida, - Sharq falsafasi, Sharq dunyosining uzviy bir kismidir. Sharq musiqasining jahon marosimida tutgan o‘rni benihoya buyuk... Bu musiqa ming-ming yillardan beri odamlar dilini poklab, ularni ruhan yuksaltirib kelmoqda.

O‘zining nozik jozibasi bilan dunyo madaniyatiga ozuqa berib, umumbashariy qadriyatlarga munosib hissa qo‘shmoqda».

Musiqa ulkan ta’birchan kuchga ega bo‘lgan tarbiya vositasidir. Musiqa inson ruhiyatiga hayotbaxsh kuch bera oladigan jon ozig‘idir. U kishilarning zavkdanishi, huzurlanishi, rohatlanishi, maroqli dam olishi, taskin topishi, fikrlashi, falsafiy mushohada qilishi uchun yordam beradi.

Demak, musiqa faqat badiiy ijod, san’at turi bo‘lib qolmasdan, balki ma’naviy madaniyatning muhim bir qismi sifatida ham o‘rganilishi lozim.

Buyuk bastakor *Lyudvig van Betxoven* kuy to‘g‘risida gapirib, shunday deydi: «Musiqa - donishmandlik va falsafadan ham yuksakroq dil izxoridir». Kuylarimiz, navo-yu, xonishlarimiz bizning tilimizni bilmagan xalqlarga qanchalik ta’sir qilganini, kuy-g‘azallarimiz o‘zga yurt odamlari qalbiga singib ketishini ko‘rib, xayratda qolganmiz, - mashxur sozanda Abduxoshim Ismoilov.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining «Musiqa madaniyati» darslariga kiritilgan qo‘shiqlar dasturida ham istiqlolni, mustaqilligimizni, o‘zligimizni, bayram va an’analarimizni, ona Vatanimizga bo‘lgan cheksiz tuyg‘ularni ifodalovchi o‘nlab asarlarni uchratish mumkin va bu asarlar o‘quvchilarda ma’naviyatni o‘stirishga xizmat qiladi.

Musiqiy ta’limning eng asosiy vazifasi, o‘quvchilarni san’atning ajoyib va g‘aroyib olamiga yetaklash orqali ularni go‘zallik va nafosat tuyg‘ularini o‘stirish, olam haqidagi tushuncha va tasavvurlarini boyitish, badiiy didlarini to‘g‘ri shakllanib borishiga yordamlashish, ularda axloqiy sifatlarni shakllantirish va eng asosiysi, san’at vositasida yosh o‘quvchilarda Vatanga muhabbat hislarini tarbiyalash, ma’naviyatini o‘stirib, borishdan iboratdir.

Bu vazifalar musiqa o‘qituvchisiga yuklatiladi. Bu jiddiy, pedagogik va psixologik jixatdan birmuncha murakkab bo‘lgan vazifalar qanday yo‘llar bilan bajariladi? Buning yo‘l va vositalari ko‘p.

Shulardan biri o‘quvchilarning ma’naviyatini o‘stirishni ta’minlash. Bu ham bir qarashda murakkab ko‘rinadi. Lekin, musiqa o‘qituvchisi yetarli bilimli bo‘lsa, o‘z ishini sevsa, bolalar bilan ishlash unga bahra bersa albatta maqsadga erishish mumkin.

Bolalarda musiqa darslari jarayonida ma’naviyatni o‘stirishda quyidagi yo‘l va vositalardan faol foydalanish yaxshi natijalar berishi isbotlangan:

- har bir darsni yaxshi kayfiyat bilan boshlash. Sinfda va o‘quvchilarda jonli holat sodir etish, kiziqish hosil qilish;
- har bir dars uchun mantiqiy jixatdan asoslangan repertuar tanlash (dasturda o‘qituvchi dars repertuarini erkin tanlashi, darsliqqan tashqari qo‘shimcha manbaalardan ham foydalanish mumkinligi ko‘rsatilgan);
- darsda bolalarni jonlantiradigan, ularda qiziqish uyg‘otadigan yangi pedagogik texnologiyalarni oqilona qo‘llash;
- o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgani holda ko‘proq ijodiy o‘yinlar, musiqali topishmoq, musiqali rebus kabi harakatli usullardan foydalanish; darsdan-darsga o‘quvchilarning musiqiy tasavvur va taassurotlarini boyitishga qaratilgan rang-barang amallarni qo‘llab borish;
- darsda ko‘proq jonli ijrodan foydalanish. Har bir qo‘shiq va musiqa asarini o‘qituvchi jajji tinglovchilarga jonli, yorqin, ifodali ijro etib berishi;
- sinf konqyertlarini tashkil qilib borish (har chorakda bir marta). Bunda o‘quvchilar musiqa darslarida o‘rgangan qo‘shiqlarni yakka, duet, kichik xor shaklida ijro etib beradilar va bu konqyertlarga parallel sinf o‘quvchilarini ham taklif etib boradilar. (Ijodiy musiqali hisobot konqyertlari);
- o‘quvchilarni faqatgina dars bilan chegaralamay, balki sinfdan va maktabdan tashqari turli to‘garaklarga, konsertlarga, uchrashuvlarga olib chiqish ishlarini amalga oshirish kabi tadbirlar nafaqat dars mazmunini boyitadi, balki o‘quvchilarning ijodiy faolliklarini o‘stirib borishga ham xizmat qiladi;
- ko‘plab ma’naviy-tarbiyali tadbirlar o‘tkazib borish (suxbatlar, uchrashuvlar, baxs-munozaralar, savol-javoblar).

Xulosa shuki, biz ustoz-murabbiylar yosh avlodga ota-bobolarimizdan meros bo‘lib qolgan milliy musiqaning oxirini to‘kmay, yoshlarga yetkazishimiz lozim. Shunday qilaylikki, mustaqil O‘zbekiston manfaatlariga xizmat qiluvchi, tilini, dinini, tarixiy madaniyatini, adabiyoti va san’atini yuksak darajada biluvchi, uning quvonchi va tashvishi bilan hamnafas yashashga qodir musiqa o‘qituvchilari voyaga yetishsin.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. Fayziyev K., Nishonov S. “Pedagogika tarixi” (o‘quv qo‘llanma) T.1996 yil.
2. Xoshimov O. “Maktabda musiqaviy tarbiya”.-T., 1992 yil.
3. D.Omanullayev va boshqalar. “Davlat ta’lim standartlari”. Dastur, 1992 yil.


## ANSAMBLDA JAMOAGA BO‘LIB KUYLASH VA RAHBARLIKNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI


JDPU “Musiqa ta’limi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, p.f.n. **Fayzullayev Ermat Majidovich,**
Musiqa ta’limi yo‘nalishi 1-kurs talabasi **Tursunova Maftuna Bahodir qizi**



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jamoa bo‘lib kuylash jarayonida ansambllik ustida qanday ishlash, nimalarga e’tibor berishimiz kerakligi haqida qisqacha ma’lumotlar berilgan.
Shuningdek xor ansambllik jarayonida ovozni shakllantirish uchun vokal-xor malakalariga alohida e’tibor berib kuylash haqida qisqacha fikr mulohazalar yoritib berilgan.



**Kalit so‘zlar:** xor, ansambl, dinamik, ritmik, tembr, su’rat, garmonik, diksiyali, intonatsiyali.

Hozirgi kunda keng tarqalgan asl xalq san’at turlaridan biri-jamoa bo‘lib kuylash ya’ni xor ijrochiligi. Jamoa bo‘lib kuylash ijrochiligi odamlarda faqatgina chuqur estetik zavq uyg‘otibgina qolmasdan, ularni birlashtiradi, jamoa bo‘lib kuylashga olib keladi. Hamda xor bo‘lib kuylash ma’naviy saviyasini, badiiy didini oshirishga yordam beradi. Jamoa bo‘lib ijro qilish bir maqsad atrofida birlashib, bir guruh odam tomonidan yetkazdirib berish degani hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda xor ijrochiligi faqatgina o‘zlarining emas, balki tinglovchilarning ham badiiy,g‘oyaviy tarbiyalash, hayratga solish, tinglovchilarning his- tuyg‘ularini uyg‘otib, hayajonlantirib, qiziqtirib, estetik zavq olishdagi ahamiyati juda katta va bunga yordam beradi.

Jamoa bo‘lib kuylash tarbiya vositasida juda katta ahamiyatga ega. Jamoa bo‘lib ijro qilyotganda ularda do‘stlik, mehr-muhabbat,insonparvarlik, vatanparparlik va boshqa iliq hissiyotlar paydo bo‘ladi. Biz shuni bilishimiz mumkinki, bir ovozli ijroga nisbatan, jamoa bo‘lib ijro etilgan kuy ta’sirliroq, ifodaliroq bo‘ladi.Xor san’ati o‘ziga xos xarakterga ega san’at turlaridan biri hisoblanadi. Kuylash usuli, xor rahbarining qobiliyati, repertuari, kuylash usuli ijrochilik mahorati kabi o‘ziga xos individual xarakterga ega san’at turi.

Xor san’ati- musiqa san’atining janrlari orasida o‘zining ommaviyligi va demokratik xususiyatlarga egaligi bilan qolgan san’at turlaridan ajralib turadi.Bu san’at turi insonlarni musiqiy tarbiyalashda, estetik qarashlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Insonlarning bir biriga chambarchas bog‘liq bo‘lgan ma’naviy ongi,didiga, bir yagona g‘oya, yagona ijroni maqsad qilib, so‘z va musiqadagi tuyg‘uni jamoa bo‘lib ijro etish ularni birlashtiradi.

Xor -yunoncha “choros”-yig‘ilish,to‘da ma’nosini bildirib, birlashgan jamoa sifatida turli inson ovozlaridan tashkil topadi. Xorlar asosan ikki turga bo‘linadi:

-Bir turdagi xorlar;

-Aralash xorlar.

Bir turdagi xorlarga -bolalar xori(soprano yoki diskant va alt ovozlar), ayollar xori(soprano va alt ovozlar), erkaklar xori(tenor va bas ovozlar) kiradi.

Aralash xorga esa - ayollar va erkaklardan tuzilgan xorlar (soprano,alt,tenor va bas) kiradi. Aralash xor - boshqa xor turlariga nisbatan kengroq tarqalgan. O‘zining rang-barang tembriga, katta ovoz diapazoniga va keng ijro imkoniyatlariga boy bo‘lganligi tufayli eng takomillashgan badiiy jamoalar safidan o‘rin olgandir.

“Ansambl” so‘zi fransuzcha “ensemble” tushunchasidan olingan bo‘lib, ma’nosi-birgalikda,ya’ni hamohang bo‘ishni anglatadi. Xor san’atida ansambl eng qiyin kuylash turlariga kirib, aniq temp,ritm, ovozlar tembrining hamohangligi, yakkaxon, xor va fortepiano(orkestr) ishtirokchilarning (turli ovoz partiyalarining) uyg‘unlashuviga aytiladi.

Xor ansambli asosan ikki turda- xususiy va umumiy ansambl ko‘rinishida bo‘ladi. Xususiy deb- alohida har bir kuylash partiyasi(ovozlar) tovushlari uyg‘unligiga erishis; umumiy deb- xordagi barcha kuylovchi partiyalar (ovozlar) tovushl arming uyg‘unligiga aytiladi.

Professor G.A.Dmitriyevskiy o‘zining “Xor ansambli” uslubiy qo‘llanmasida xor ansamblining quyidagi turlarga bo‘linishi haqida izoh bergan,bularga:

intonatsion ansambl-tovush balandligini aniq sadolantirish; 2) ritmik ansambl-ijroning ritmik birligi;

- tembr ansambli-ovozlarning tembriga qarb qo‘shilishi;
- dinamik ansambli-sadolanish kuchiga qarab ovozlarning qo‘shilishi;
- diksiya ansambli-adabiy matnni krlishib talaffuz etish;
- sur’at ansambl-ijroning sur’at birligi;
- garmonik ansambl-ovozlarning akkord ,hamohanglikdagi muvozanatli sadosi kiradi. Xor ansamblida o‘z vaqtida tessitura masalasi ham katta hamiyatga ega.

O‘z shart-sharoitidan kelib chiqqan holda ansambl tabiiy yoki sun’iyligini ajratish mumkin. Barcha xor qatnashchilari ovozni zo‘r bermasdan, normal holatda birday, past yoki yuqori kuylanib, o‘rta registrlarda bo‘lsa, tabiiy ansambl hosil bo‘ladi. Sun’iy ansambl esa ovozlar turli tessitura sharoitida bo‘lganda qo‘llaniladi. Bu vaqtda sadolanishni me’yoriga yetkazish uchun ovoz kuchi sun’iy bo‘rttirilgan yoki aksincha susaytirilgan bo‘ladi.

Xor ansambliga bo‘lgan talab ijro etilyotgan asarning barcha tomonlariga tegishli, ayniqsa, uning tuzilish fakturalariga ham bog‘liqdir. Har bir xor ijrochisi yaxshi rivojlangan ansambl hissiga ega bo‘lib, yuksak natijalarga erishish mumkin.

Xor jamoasining ijrochilik malakasi vokal -xor ijrochilik mahoratlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib-hamohanglik,soz,talaffuz,badiiy ifoda vositalari,nafas olish, tovush hosil qilish va uni shakllantirishdan iboratdir. Buning uchun jamoa ijro paytida albatta tik turgan holatda bo‘lishlari lozim. Repetitsiyalar paytida esa o‘tirib mashg‘ulotlar o‘tkazilsa ham bo‘laveradi. Bunday paytda xonandalardan gavdani to‘g‘ri tutish, yuz,bo‘yin yelka mushaklari erkin bo‘lib, kuylayotgan paytda xalqum va pastki jag‘ tomoqni siqmasligi, boshini erkin tutishi tavsiya etiladi.

Ma’lumki inson nafas olish organlari orqali nafas olib tovush hosil qiladi. Kuylaganda nafas olish oddiy nafas olishdan farq qiladi va nafas tez olinib, sekin chiqariladi. Nafas olish bir nechta turga bo‘linadi.:

-pastki qovurg‘alar kengayishi orqali nafas olish;

-yelka kengayishi orqali nafas olish;

-qorin bilan nafas olish;

-ko‘krak bilan nafas olish;

-zanjir uslubida nafas olish;

Tovush nafas va ovoz apparatlarining harakati natijasida hosil bo‘ladi. Hosil bo‘lgan tovushni rezonatorlar kuchlantirib turli tembr beradi. Rezonatorlar: bosh rezonator-yuqoriga; ko‘krak rezonatori-pastga bo‘lib, o‘zining hajmini artikulyatsiya orqali o‘zgartirib turadi.

Xor ijrochiligida legato, ya’ni ohangning bir tekis bog‘lanishi; nonlegato-alohida bog‘lanmasdan ijro etish(tovushlar orasida nafasni ushlash orqali hosil qilish); stakkato- tovushlarni uzib,qisqa ujro etish (tovushlar orasida nafas olmasdan) kabi ijro uslublari uchraydi.

Xor jamoasini mashg‘ulotlardan oldin ijrochilar ovozini qo‘shiq aytishga tayyorlash- ovoz qo‘yish jarayonidan boshlanadi. Ovoz apparatini qizdirish, har bir ishtirokchining eshitish qobiliyatini sozlash 15-20 daqiqa davom etishi lozim. Bu ovoz mashqlari davomida xorning tekis hamohangligi(ansambli)ga va jarangdorligiga erishiladi. Mashqlar xor jamoasining o‘zining ma’lum bir o‘rta registrida, qulay tessiturada soda,oddiy mashqlar bilan avval biro ovozda, asta sekin mashqlar ikki-uch ovozli bo‘lib va polifonik (ko‘pmovozli) tuzilishdagi murakkab mashqlar bilan yakunlanishi lozim. Bu bajarilayotgan mashqlarning mukammalligiga:

-artikulatsiya appartining aktivlashtirilishi;

-ovozning tayyorlab qizdirilishi;

-ovoz diapazonining kengayib borilishi;

-diksiya, so‘z talaffuzining yanada aniqligiga olib keladi.

Vokal-xor musiqasida so‘z va ohang bir birini to‘ldirib badiiy obraz yaratadi. Adabiy matnni aniq va ravshan talaffuz qilish xor ijrochiligining zarur elemtlari bo‘lib keladi.

Diksiya-lotincha “dictio‘’-nutq, aniq so‘z talaffuzi ma’nosini anglatadi. Diksiyaning aniq yoki noaniq bo‘lishi o‘z navbatida artikulyatsiya apparatining aktiv yoki passivligiga bog‘liq. Artkulatsiya apparati-til, lab, yumshoq tanglay, pastki jag‘dan iboratdir. Bularning kamchiliklari maxsus mashqlar orqali bartaraf etilishi mumkin.

Unli tovushlarni o‘zlashtirishda undosh tovushlarning aniq talaffuzi muhim tol o‘ynaydi. Shuning uchun ham xor rahbari doimo undosh tovushlarning aniq eshtitilishi ustida ish olib borishi

lozim. So‘z oxirida keladigan undoshlarni to‘g‘ri va aniq talaffuz qilmaslik, so‘zning ma’nosini anglshga halaqit beradi. Shuning uchun xor rahbari aniq yetkazdirib berishga harakat qilishi lozim.

Shunday qilib, xor ijrosida asarning poetik mazmunini tinglovchilarga yetkazdirib berishda diksiya muhim rol o‘ynar ekan., xor qatnashchilarining so‘z talaffuzi mahorati bilan bir qatorda nutq madaniyatini ham o‘stirib borishi lozim.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tishimiz lozimki, jamoa bo‘lib kuylash jarayonida ansambllik ustida ishlash juda katta ahamiyatga ega. Biz ansamblda hamohang, birgalikda kuylashga e’tibor qatashimiz kerak. Chunki ansambl xor san’atida eng qiyin kuylash turi hisoblanib, temp, ritm, ovozlar tembrining hamohangligi, yakkaxon, xor va fortepiano uyg‘unlashuvidir. Xor ansambliga talab ijro etilyotgan asarning barcha tomonlarga tegishli, ayniqsa uning tuzilish fakturalariga juda katta bog‘liqdir. Har bir xor ijrochisi yaxshi rivojlangan ansambl hissiga ega bo‘lishi shart. Xor ansamblda vokal-xor malaklarining shakllanishi ahamiyatga ega. Buni rivojlantirishda har xil usullar, o‘yinlar katta ahamiyat kasb etadi.Bu mashqlar turlichadir. Masalan, ovozni rivojlantirish, diapazonini kengaytirish, sof intonatsiyani yuzaga keltish, garmonik uquvni o‘stirish, diskiya aniqligiga erishish, va nafasni mustahkamlash va boshqa mashqlardir. Bularning barchasi bitta maqsad yo‘lida jamoa bo‘lib kuylash jarayonida ansambllik ustida ishlashga yordam beradi. Yaratilgan ijroni tinglovchiga ta’sirli, ifodali yetkazdirib bera oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mansurova G. Xorshunoslik va xor jamoalari bilan ishlash uslubiyati. O‘quv metodik qo‘llanma-Toshkent.2008

2. Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 29, No. 8, (2020) https://t.me/joinchat/ - Music teacher, https://infourok.ru - music lessons

3. Urinova S.Sh. Musiqiy fanlarda pedagog kreativligi. “Yangilanayotgan O‘zbekistonda fan, ta’lim va innovatsiya uyg‘unligi” mavzusidagi 6-son 2-qism Respublika ko‘p tarmoqli ilmiy konferensiyasi VIII bo‘lim Toshkent 2021. 677 bet. Udk. 001.895 (575.1).

## PEDAGOGIK JARAYONDA MULOQOTNING O‘RNI VA AHAMIYATINING PSIXOLOGIK TAHLILI

**Kazakbayeva Mariya Alimkulovna -**
NavDU Tarix fakulteti “Psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi
**Жалғасова Ұлбала-**
NavDU Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo‘nalishi 2-kurs talabasi

**Annotatsiya.** Maskur maqolada pedagogik muloqotning o‘ziga xos jihatlariga e’tibor qaratar ekanmiz, shaxslararo muloqotning boshqa shakllariga nisbatan pedagogning o‘quvchilar bilan muloqoti va hamkorligidagi o‘ziga xoslik o‘quvchilarning rivojlanishlariga xizmat qilishi o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** Muloqot, shaxs, seminar, munozara, xulq-atvor, ta’lim-tarbiya, pedagog.

Muloqot insonlar faoliyatlari jarayonidagi ta’sir shaklidir. U yakka shaxsga taalluqli bo‘lmay, balki ijtimoiy xarakterga ega. Pedagogik muloqot o‘qituvchining o‘quvchilar bilan ijtimoiy psixologik munosabatidir. Ammo, haligacha fanda muloqotning ahamiyati haqida aniq tushuncha yetishmaydi. Shunday bo‘lsada, ayrimlar o‘z fikr mulohazalarini bildirganlar. Masalan kishilarning bir – birlariga bo‘lgan munosabatlari, bir-birlariga ko‘rsatadigan ta’sirlari yoki ularning o‘zaro bir.

Haqiqatdan ham muloqotda ikki tushuncha – munosabat va o‘zaro ta’sir kelib chiqadi. Ularning biri o‘zaro so‘zlashuv va muloqotda o‘chiq ko‘rinsa ikkinchisi ichki, ko‘rinas (ta’sir ko‘rsatish) maqsadlar asosida yuzaga keladi. Eng asosiysi muloqot – jamoa fikrini bayon etuvchi vosita hamdir.

Pedagogik muloqotda o‘qituvchi ijtimoiy maqsadlarida o‘qituvchilar pedagogik jamoa, ota-onalar va fuqarolar bilan munosabatda bo‘ladi. (ma’ruza, hikoya, suhbat va h.k.)

Muloqot ijtimoiy psixologik jarayon bo‘lib,u:

-Insonlarni bir – birlarini bilishlari;

-ularning o‘zaro ma’lumot almashinuvlari;

-umumiy faoliyatni tashkil etishlari;

-faoliyatllarini almashtirishlari kabi maqsadlarda foydalaniladi.

Pedagogik muloqot – o‘qituvchining o‘quvchilar bilan o‘zaro kasbiy muloqoti bo‘lib, u aniq belgilangan maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. O‘qituchining o‘quvchilar bilan muloqotida ayrim vaqtlar emosional holatlar ham yuz beradi.

O‘qituvchining o‘quvchi bilan bo‘ladigan ijtimoiy psixologik muloqoti asosida pedagogik tasir o‘tkazish amalga oshiriladi.

Pedagogik muloqotning tuzilishi, ayniqsa uning psixologik strukturasi juda murakkab.

O‘qituvchi tomonidan o‘quvchining ichki dunyosini yetarli darajada o‘rganmaslik oqibatida ayrim vaqtlar o‘zaro muloqot nizolari ham kelib chiqishi mumkin.

Pedagogik muloqot to‘g‘risida o‘z zamonasida Ya.A.Komenskiy o‘quvchi va o‘qituvchining o‘zaro muloqotini chin insoniy samimiy munosabatlarida tashkil etilishi zarurligini ta’kidlagan. A.V.Lunacharskiy, P.P.Blonskiylar o‘quvchi va o‘qituvchining o‘zaro muloqoti – jamoa hamkorligida bo‘lishini ko‘rsatgan bo‘lsalar, A.S. Makarenko va V.A. Suxomlinskiylar o‘quvchi va o‘qituvchi muloqotida eng asosiysi – o‘zaro hurmat va bir – biriga bo‘lgan talabchanlik deb bilganlar.

O‘quvchi ichki dunyosini aniq ko‘rolmaslik, uni behuda jazolash, unga nisbatan dag‘al muomalada bo‘lish yoki qo‘rqitish, muloqotdagi eng noxush hollar hisoblanadi. O‘qituvchining o‘quvchi ustidan hukmronlik quroli – uning shirinso‘zligi, samimiyligi va odamiyligidadir.

**O‘qituvchining o‘quvchilar bilan muloqotida quyidagi didaktik talablar:**

1.Bayon qilinayotgan materiallarning g‘oyaviy jihatdan mazmunli, ilmiy hamda nazariyani hayot bilan bog‘langanligiga:

2. Bayon qilinayotgan materialning tarbiyaviy ahamiyatini to‘g‘ri belgilash orqali o‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishga:

3. O‘z bayonida o‘quvchi nutqi yagona manba hisoblanib, uni ravon va tushunarli bo‘lishi hal qiluvchi omil sifatida foydalanuvchiga:

4. O‘qituvchi o‘z nutqini bayon etayotgan mavzuda ishlatilgan ta’riflar, qoida va qonunlar kitobida bayon etilganidan farqli holda o‘quvchining yozib olishi uchun mos bo‘lishiga amal qilishi kerak.

O‘quvchilarga bevosita emosional – irodaviy ta’sir ko‘rsatish va shu asosda tegishli obru – e’tiborga ega bo‘lish har bir pedagogdan o‘z ustida tinmay ishlashni talab etadi.

**Pedagogik muloqotda quyidagi psixologik talablar qo‘yilgan:**

O‘qituvchi o‘zining kasbiy faoliyatida ta’limning didaktik talablari bilan birga psixologik talablarni ham mukammal bilishi talab etiladi. Har bir o‘quvchi shaxsiga qarab uning ichki dunyosi va xarakteriga mos ravishda muloqotda bo‘lishi bilan birga, butun sinf jamoasi bilan taqqoslaganda avtoritar rahbarlik elementlariga ehtiyotkorlik bilan yondoshmog‘I lozim.

O‘qituvchining o‘quvchilar bilan muloqoti jarayonida uning rahbarlik munosabati ham katta ahamiyatga ega.

O‘qituvchining o‘quvchilarga kommunikativ ta’siri tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchi rahbar sifatida o‘z muloqoti bilan farq qiladi va quyidagicha ifodalandi:

a) Avtoritar – o‘ziga qarashli masalalarga asosiy e’tibor beradi, o‘zicha ish tutadi, hech kimning fikrini inobatga olmaydi va o‘zicha qaror chiqarib harakat qiladi.

b) Demokratik rahbarlik – avtoritar rahbarlikning aksi, atrofdagilarga quloq solidi, ular fikri bilan ishlaydi, hammaga bir ko‘z bilan qaraydi, o‘zini ular o‘rniga qo‘yib ish tutadi.

v) Liberal rahbarlik – hech kimning ishi bilan qiziqmaydi, har bir masalaga yuzaki qaraydi, jamoa faoliyatida passiv qatnashadi.

Yuqorida bayon etilgan holatlar ta’lim muassasasida olib boriladigan ta’lim – tarbiya jarayoniga, pedagogik jamoa faoliyatiga, qolaversa o‘quvchilarga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Masalan avtoritar rahbarlik ayrim vaqtlarda yuqori reyting ko‘rsatgichi berishi mumkin, ammo, nohush psixologik muhitga olib keladi. Rahbarlikning eng qulay va samarali usuli demokratik muloqot munosabatidir.Chunki unda bir – biriga ishonch, o‘zaro samimiylik, maqsad birligi, o‘zaro tenglik va hurmat-izzat o‘z aksini topadi.

Avtoritar usulidagi munosabat muloqotida past saviyali madaniyat, o‘quvchilar xususiyatlarini inobatga olmasdan yuqori natijalarni ko‘zlash, haddan tashqari talablar, ko‘zbo‘yamachilik, shaxsga sig‘inish kabi illatlar namoyon bo‘ladi. Eng yomoni bunday rahbar o‘zining fuqarolik burchini esdan chiqarganida ko‘rinadi.

O‘qituvchining o‘quvchilar bilan muloqoti eng avvalo uning o‘quv materiallarini o‘quvchilarga tushuntira olish qobiliyati bilan belgilanadi. Ular bilan muloqotda ularning ruhiy kayfiyatlari qobiliyatlari, nimalarga qodir ekanliklari, umumiy muammo va tashvishlari, tilak va nimani bilish istaklari o‘qituvchi uchun yaqqol ayon bo‘lmog‘I kerak.

Tajribali, qobiliyatli o‘qituvchi dars jarayonida o‘quvchilarning o‘zlashtirish qobiliyatlariga qarab o‘z uslublarini tanlaydi, ularning materialni o‘zlashtirishlari uchun zamin tayyorlaydi va zerikishlari oldini oladi.

O‘qituvchining pedagogik muloqotda kattalardan farqli o‘laroq bolalarning ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o‘quvchi shaxsini uning vaqtinchalik ruhiy holatini doimiy nazorat qilib borishi alohida ahamiyatga ega. Muloqot jarayonida o‘qituvchilarning nutqi aniq, jonli, talaffuzi yorqin, ifodali, his-hayajonli bo‘lishi lozim. Tajribali o‘qituvchilarmavzuni bayon etish jarayonida o‘zining shaxsiy nutqini nazorat qilib boradi. O‘qituvchilar o‘z ustoz va tarbiyachilariga qat’iylik, kamtarlik, mehnatsevarlik, ishonchlilik xislatlarini aniq ko‘radilar.

O‘qituvchining pedagogik muloqoti uning e’tiqodliligi, axloq, odobliligi, kasbiga va Vataniga sodiqligidir. Bolalarga mehr-muhabbat, ular uchun qayg‘urish, ular tashvishiga sherik bo‘lish pedagogik muloqotda yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘qituvchining pedagogik etikasi va dunyoqarashi uning dars berish jarayonida yoki tarbiyaviy ishlarida, o‘quvchilar va boshqa kishilar bilan munosabatida aniq seziladi.

Shunday qilib o‘qituvchining o‘quvchi bilan bo‘ladigan muloqoti uning dunyoqarashiga va insoniylik xulq- atvoriga bog‘liq. U har doim samimiy bo‘lishi kerak.

**Adabiyotlar**


1. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. -T. YAngi asr avlodi, 2006. - 204b. 16.
2. Alimjonova Z., To‘laganov A.N., Nutq san’ati / – T., Fan, 2005.
3. Bobonazarova B. Nutq san’ati. –T., O‘zDSI, 2004 18.
4. Karimova V.M. Psixologiya. T.: Sharq, 2000. -256 b. 19.
5. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2010. - 488b.

# SOHIBQIRON AMIR TEMUR – ADOLAT VA QUDRAT TIMSOLI

**Sariyev Nasraddin Turdibayevich-**
NavDKTU Ijtimoiy-gumanitar va jismoniy tarbiya kafedrasi katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada Sohibqiron Amir Temurning adolatli boshqaruv tamoyillari, harbiy strategiyasi va davlatni mustahkamlashdagi roli keng yoritilgan. Maqolada uning harbiy yurishlari, diplomatik aloqalari va ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasi tahlil etilgan. Shuningdek, Temuriylar davlati madaniy merosi va uning bugungi kunga ta’siri haqida ham fikr yuritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Amir Temurning davlat boshqaruvi va harbiy strategiyasi nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham ahamiyatli bo‘lib qolmoqda.

**Kalit so‘zlar:** Amir Temur, Sohibqiron, harbiy yurishlar, adolatli boshqaruv, Temur tuzuklari, ilm-fan, madaniyat, diplomatiya, tarixiy meros, Temuriylar davlati.

**Kirish.** Amir Temur – jahon tarixida o‘zining adolatparvarligi, harbiy iqtidori va davlat boshqarishdagi yuksak mahorati bilan tanilgan buyuk sarkarda va davlat arbobi hisoblanadi. Uning yurishlari nafaqat harbiy muvaffaqiyatlar, balki ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishdagi hissasi bilan ham ajralib turadi. Ushbu maqolada Amir Temurning adolatparvar siyosati va qudratli hukmdor sifatidagi faoliyati tahlil etiladi.

Sohibqiron Amir Temur-tarixda eng buyuk va kuchli hukmdorlardan biri sifatida tanilgan. U 1336-yilda Markaziy Osiyoda tug‘ilgan va 1405-yilda vafot etgan. Temuriylar sulolasining asoschisi bo‘lgan Amir Temur, tarixda o‘zining yuksak strategik va harbiy mahorati, adolatli hukmronligi va yirik imperiya qurishdagi muvaffaqiyatlari bilan mashhur. Amir Temur, asli Barlos turkman qabilasidan bo‘lgan. U yoshligidan boshlab, harbiy janglarda qatnashib, o‘zining ajoyib strategik fikrlash va jangovar qobiliyatlarini namoyish etdi. U tezda o‘z qabilasining eng kuchli liderlaridan biriga aylandi. Amir Temur Samarqandni o‘zining imperiyasining poytaxti qilib tanladi. Samarqand uning hukmronligi ostida dunyoning eng go‘zal va yirik ilmiy, madaniy markazlaridan biriga aylandi. Bu yerda ko‘plab buyuk olimlar va san’atkorlar yig‘ildi.Amir Temur o‘zining yurishlari bilan Markaziy Osiyo, Kavkaz, Hindiston, va Yaqin Sharqning katta qismlarini zabt etdi. U o‘zining harbiy yurishlarida katta strategik mahorat ko‘rsatdi va raqiblarini ko‘pincha katta janglarda yengdi. Amir Temurning hukmronligi davomida adolatga katta e’tibor berilgan. U har doim hukumati ostidagi xalqlarni himoya qilish, yaxshi boshqaruv tizimini o‘rnatish va soliq tizimini tartibga solish uchun ko‘p mehnat qildi. Shuningdek, uning siyosati kuchli va samarali davlat qurilishiga olib keldi.Amir Temur va uning farzandlari, ayniqsa Shohrux Mirzo, ilm-fan va san’atga katta homiylik ko‘rsatgan. Samarqandda ilm-fan, arxitektura, san’at rivojlandi. Amir Temur o‘z davrining eng yirik kutubxonalarini tashkil etgan va mashhur olimlar, shoirlar va san’atkorlarni qo‘llab-quvvatlagan. Amir Temurning merosi nafaqat harbiy g‘alabalar, balki uning davlatni boshqarishdagi adolatli va samarali uslubi hamdir. Uning nomi butun dunyoda, ayniqsa, Markaziy Osiyo, Hindiston va Yaqin Sharqda katta hurmatga sazovor. U, shuningdek, harbiy strategiyaning mohir vakili sifatida ko‘plab kitoblarda va tarixiy manbalarda yodga olinadi.

Ilmiy adabiyotlarda "Amir Temur" shaxsiga turli qarashlar shakllangan bo‘lib, ba’zi tadqiqotchilar unga buyuk davlat arbobi sifatida yondashsa, ba’zilari Amir Temurni harbiy sarkarda sifatida talqin qiladilar. Albatta, "Amir Temur" haqidagi turlicha qarashlarning mavjudligi tabiiy holat, chunki u ko‘p qirrali shaxs bo‘lib, tarixchilar uning turli jihatlarini o‘z ilmiy nuqtai nazarlari asosida o‘rganadilar. Shu bilan birga, Amir Temurning siyosiy va harbiy faoliyatining uzoq muddatli ta’siri hali ham to‘liq o‘rganilmagan bo‘lib, hozircha uning ayrim jihatlarigina ilmiy izlanish mavzusiga aylangan, xolos.Bir tomondan, Temuriylar davrida yuksalgan madaniyat va ilm-fan Markaziy Osiyoni

dunyoning eng ilg‘or sivilizatsiyalaridan biriga aylantirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, u bosib olgan hududlarda bevosita ta’sir o‘tkazib, yangi siyosiy tizimlarni shakllantirgan. Ayniqsa, bu jarayon hukmdorlik boshqaruvi, huquqiy tizim va harbiy strategiya rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. U o‘z davrining siyosiy va ijtimoiy tuzilishini tubdan o‘zgartirgan bo‘lib, uning harbiy yurishlari va siyosiy islohotlari keyingi davrlarga ham muhim ta’sir o‘tkazgan. Ushbu jihatlar, ayniqsa, "Amir Temur va uning davlatchilik siyosati" bo‘limining "Temuriylar imperiyasining tuzilishi" qismida tadqiqotchilar P. Qodirov, Sharafuddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh va boshqalarning fikrlari asosida tahlil qilingan."Amir Temur" shaxsi yevropalik olimlar tomonidan XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ilmiy jihatdan o‘rganila boshlangan. O‘zbekistonda esa bu jarayon mustaqillikdan keyin jiddiy tadqiqot mavzusiga aylangan bo‘lib, keyingi yillarda tarixchi va adabiyotshunoslar tomonidan ilmiy asarlar va maqolalar e’lon qilinmoqda. Shunga qaramay, bu murakkab tarixiy shaxs va uning imperiyasining ta’siri hamon chuqur tadqiq etilishi zarur bo‘lgan mavzular sirasiga kiradi. Ayniqsa, Amir Temurning geosiyosiy strategiyasi va uning O‘rta Osiyo hamda jahon tarixiga ta’siri haqida ilmiy-nazariy yondashuvlar hali ham yetarlicha rivojlanmagan.So‘nggi yillarda, Amir Temur hayoti va siyosiy faoliyatiga bag‘ishlangan ilmiy monografiyalar, maxsus maqolalar va tadqiqotlar e’lon qilindi. Ushbu tadqiqotlar, ayniqsa, uning harbiy yurishlari, diplomatik aloqalari va davlat boshqaruvidagi ilg‘or islohotlariga bag‘ishlangan bo‘lib, kelajakda bu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarning davom ettirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Amir Temurning siyosiy va harbiy faoliyati, uning davlat boshqaruvidagi yondashuvlari turli ilmiy va adabiy manbalarda chuqur tahlil qilingan. Xususan, uning adolatli boshqaruv tamoyillarini o‘z ichiga olgan “Temur tuzuklar” asari bu borada muhim manba hisoblanadi. Temur davlatining barqarorligi va qudratining asosiy omillaridan biri sifatida u yaratgan qat’iy qonunlar tizimi hamda harbiy islohotlar e’tirof etiladi.Amir Temurning harbiy yurishlari va tashqi siyosati tufayli Markaziy Osiyo mintaqasining xalqaro maydondagi o‘rni mustahkamlangan. Uning G‘arb va Sharq bilan olib borgan diplomatik aloqalari savdo yo‘llarining rivojlanishiga va madaniy almashinuvga xizmat qilgan. Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat yuksak rivojlangan bo‘lib, bu jarayonda Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod kabi allomalar katta hissa qo‘shgan. Bu holat Amir Temurning nafaqat harbiy-siyosiy, balki madaniy islohotlari ham o‘z samarasini berganidan dalolat beradi.Bugungi kunda Temuriylar merosi xalqaro miqyosda keng o‘rganilmoqda. Uning boshqaruv tizimi, harbiy strategiyasi va diplomatik faoliyatiga oid ilmiy tadqiqotlar davom etmoqda. Xususan, Temur tuzuklarining zamonaviy boshqaruv va siyosatshunoslik nuqtai nazaridan qayta talqin qilinishi, uning davlat arbobi sifatidagi tajribasidan saboq chiqarish zarurati ko‘p tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilmoqda.Shunday qilib, Amir Temurning faoliyati nafaqat tarixiy, balki zamonaviy dolzarb mavzular qatoriga kiradi. Uning siyosiy va harbiy merosi bugungi kunda ham tahlil qilinib, undan saboq olinmoqda. Buning uchun esa ilmiy tadqiqotlar davom etib, Amir Temurning davlat boshqaruvidagi tamoyillari, strategiyasi va qadriyatlari chuqur o‘rganilishi lozim bo‘ladi.

**Xulosa.**

Sohibqiron Amir Temur o‘zining adolat va qudrat tamoyillariga asoslangan boshqaruv tizimi bilan nafaqat Movarounnahr, balki butun dunyo tarixida muhim o‘rin tutadi. U kuch-qudratni adolat bilan uyg‘unlashtirgan holda yurt obodligi, xalq farovonligi va davlat mustahkamligini ta’minlashga intildi. Uning “Kuch – adolatda” degan shiori davlat siyosatining tamal toshi bo‘lib, bu fikr bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.Amir Temur yaratgan qudratli saltanat nafaqat harbiy muvaffaqiyatlar, balki ilm-fan, madaniyat va me’morchilik sohalarida ham yuksak taraqqiyotga erishdi. Uning hukmronligi davrida Samarqand va boshqa shaharlarda yuksak madaniy markazlar shakllandi, ulug‘ olimlar, san’atkorlar va hunarmandlar qo‘llab-quvvatlandi. Sohibqironning ma’naviy merosi va davlat boshqaruvidagi tajribasi bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, har bir avlod uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda.Xulosa qilib aytganda, Amir Temurning adolatli boshqaruvi, jasorati

va davlatni mustahkamlash yo‘lidagi harakatlari nafaqat o‘z davri, balki kelajak avlodlar uchun ham buyuk ibrat manbai bo‘lib qolmoqda. Uning yurti va xalqining ravnaqi uchun qilgan ishlari, g‘oyaviy merosi bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolgan bo‘lib, tarix sahifalarida abadiy qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma – Toshkent: Fan, 1991.
2. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. Qodirov P. Amir Temur – Toshkent: Sharq, 1996.
4. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma – Toshkent: Fan, 2008.
5. Bartold V.V. Turkiston Tarixi – Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
6. Xayrullaev M. Amir Temur va Temuriylar davri ilm-fani – Toshkent: Fan, 1995.
7. Mirzo Ulug‘bek. Tarixi arba’ ulus – Toshkent: O‘zbekiston, 1994.
8. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
9. Marozzi, Justin. Tamerlane: Sword of Islam, Conqueror of the World – HarperCollins, 2004.
10. Manz, Beatrice Forbes. The Rise and Rule of Tamerlane – Cambridge University Press, 1989.
11. Soucek, Svat. A History of Inner Asia – Cambridge University Press, 2000.
12. Subtelny, Maria Eva. Timurids in Transition: Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Iran – Brill, 2007.
13. Grousset, René. The Empire of the Steppes: A History of Central Asia – Rutgers University Press, 1970.
14. Dale, Stephen Frederic. The Muslim Empires of the Ottomans, Safavids, and Mughals – Cambridge University Press, 2010.


## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQIY DARSLARNI TASHKIL ETISHDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI


**Usmonova Shaxrizoda Xusen qizi-**
**NavDU 2 -bosqich magistranti**



**Annotatsiya:** Maqolada pedagogika oliygohlarida musiqa ta’limi fanlarini zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalangan holda o‘qkitilishini samaradorligi haqida fikr yuritiladi. Xususan, Sibelius nota muharririning o‘qituvchi va talabalar faoliyatidagi o‘rni va atroflicha ko‘rib chiqilgan.



**Kalit so‘zlar:** musiqa ta’limidagi axborot texnologiyalar, Sibelius, ahamiyati nota muharrir, kompyuter dasturi.


Ta’lim jarayoniga ilg‘or axborot texnologiyalarini joriy etish davlat miqyosida amalga oshirilib, ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida qaralmoqda. Axborot texnologiyalaridan foydalanish musiqa ta’limi sohasidagi ko‘plab muammolarni hal yetishni o‘z ichiga oladi. Hozirgi kunda musiqa bulimlari talabalari tomonidan o‘quv jarayonini intensivlashtirish, o‘qitishni individuallashtirish, qayta aloqa o‘rnatish, talabalar tomonidan o‘zlashtirilayotgan materiallani optimallashtirish uchun AKTdan yetarli foydalanilmayotganligi kuzatilmokda. [3] Kompyuter bilan jixozlangan sinf xonalar nafaqat axborot texnologiyalarini urganish, balki ularni mutaxassislik fanlari, xususan, musiqiy ta’lim yunalishi predmetlarini o‘rganishda qo‘llash uchun ham zarur. Musiqa fanlari o‘qituvchilari dasturchilar bilan doimiy muloqotida bo‘lishlari kerak. Musiqa bo‘limi talabalari va o‘qituvchilari uchun "Encore", "Final", "Sibelius" kabi kuchli va ommabop musiqa dasturlarini o‘rganish alohida ahamiyatga ega. Sibelius musiqa nota muharriri 1986 yilda Ben va Jonatan Finnlar tomonidan ixtiro

qilingan va birinchi marta 1998 yilda ishlab chiqarilgan. Dasturning va uni ishlab chiqargan kompaniyaning nomi finlyandiyalik bastakor YAn Sibelius nomiga to‘g‘ri keladi. Bu nom kompaniya asoschilarining familiyasi - Finn bulgani uchun xam tanlangan degan fikrlar mavjud. Sibelius nota muxarriri - eng kuchli zamonaviy nota yozuvi tizimlaridan biridir. Unda 450 dan ortik turli ish asboblari mavjudki, ularning xar biri bilan turli kalitlarda yoza olish maxsus tizimlari kuzda tutilgan.[1]

Sibelius nota muxaririni musiqiy ta’lim mutaxassisligi buyicha tahsil olayotgan institut talabalari tomonidan o‘rganish tizimli, ilmiy, yaxlitlilik, kup funksionallik, shuningdek, shaxsga yunaltirilgan yondashuv tamoyillariga asoslangan. Sibelius nota muxarriri belgisi.Ushbu dasturdan foydalanish usuli murakkablikni oshirish borish prinsipi va har bir talabaning individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda bir necha ketma-ket bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- to‘g‘ridan-to‘g‘ri dasturning texnik elementlarini urgatish;
- maxsus musiqiy fanlarni o‘rganishda dasturdan foydalanish;
- kasbga yunaltiruvchi musiqa fanlarini urganish jarayonida dastur elementlarini joriy kilish;
- talabalarning kasbiy darajasini oshirish uchun dasturdan foydalanish;
- maktabda va bolalar bogchasida pedagogik amaliyotni muvaffakiyatli utkazish uchun dastur elementlariga tayanish;
- musiqa talimi fanlarini pedagogika, psixologiya va boshqalar kabi umumtalim fanlari bilan bog‘lash uchun dastur elementlaridan foydalanish. [1,5]

Musiqa muharriri bilan tanishganidan so‘ng talaba musiqa-kasbiy faoliyat sohasidagi vazifalarni hal qilish uchun undan foydalanish tajribasini oladi, musiqiy kompyuter savodxonligi asoslarini o‘rganadi, pedagogik va ijodiy faoliyatda innovatsion ko`nikmalarni qo‘ullashni, bolalar musiqa ijodiyotini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalarini urganadi. Sibelius kompyuter dasturining imkoniyatlaridan foydalanib, maxsus musiqiy fan darslarini o‘qitish uchun mamlakatimizda yangi yondashuv ishlab chikish va joriy etish maksadga muvofiq bular edi. Rossiyaning Sankt-Piterburg shaxrida individual ta’lim darslariga nisbatan turli xil tembr, temp, aranjirovka ishlarini bajarish bilan kompyuter dasturlarini kullashning yangi usuli sinovdan utkazilgan. "Jurnavozlik", "Qushimcha cholgu", "CHolgu ijrochiligi va ansambl" fanlaridan kompyuter dasturidan foydalangan xolda talabaning musiqiy materiallaridan birgalikda foydalanish buyicha muvaffakiyatli tadqiqotlar utkazilgan. [2] Ushbu dasturdan foydalanish talabalarning "Garmoniya", "Solfedjio", "Musiqa elementar nazariyasi" kabi fanlarni urganishda bilim va ko`nikmalari yukori darajada namoyon kiladi. CHunki talabalar barcha vazifalarni kompyuter texnologiyasidan foydalangan xolda bajaradilar va bu vaktni tejash imkonini beradi. Tovushlar va akkordlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tinglab xatolarni to‘g‘rilash imkonini beradi. Sibelius talabalarga dars yoki musiqa mashgulotlariga tayyorgarlik kurayotganda maktabda yoki maktabgacha ta’lim tashkilotida amaliyot utashida bebaxo yordam berishi mumkin. Darsning xulosalarini ishlab chikish, musiqiy materiallarni tanlash va kayta ishlash, amaliyot kundaligini loyixalash - bularning barchasi "Sibelius" yordamida imkon kadar kiska vakt ichida bajarishga imkon beradi.[3]

Ushbu dasturning yangiligi talabalar va o`qituvchilar ukuv va kasbiy faoliyatni an’anaviy ukuv kullanmalarisiz amalga oshirishi mumkinligidadir. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanib, bir necha dakikada istalgan didaktik material yoki musiqiy asarni, xox u qo`shiq, yoki kichik etyud bulsin, garmoniya fanidan topshiriklar yoki solfedjio amaliy mashqlari bulsin, tayyorlash mumkin. Shu bilan

birga axborot texnologiyalarini kullayotgan ijodkor "kompyuter inson uchun, inson kompyuter uchun emas" degan goyani esdan chikarmasligi lozim.[4] Ushbu fikr asosan ba'zi talaba va yosh mutaxassislarga tegishli. CHunki ular uz faoliyatlarida fakat axborot texnologiyalari va zamonaviy kompyuter dasturlariga boglanib kolib, ularsiz mexnat kilishga kiynaladilar. Musiqani yozib olishda "qogoz-qalam" amaliyotini uzlashtirish, shubxasiz, birlamchi. O'quvchi-talaba musiqa savodi ko`nikmasini nota daftariga uz kuli bilan notalarni yozishdan boshlab shakllantirmogi lozim. Mutaxassis musiqa o`qituvchisi yoki ijrochining mazkur nota muxarrirlari kabi kompyuter daturlaridan noto'g'ri foydalanishi salbiy natijalarga olib kelishi mumkin. Xulosa kilib shuni aytish mumkinki, xozirgi kunda, ayniksa musiqa ta'limida, mamlakatimiz ta'lim tizimining barcha buginlarida zamonaviy kompyuter dasturlardan foydalanish zarur va muxim. Birok, kompyuter talaba, o`qituvchi, kolaversa insonning yordamchisi bulib kolishi yanada muxim. Uning ijodkor inson urniga ish bajaruvchi vositaga aylanishiga yul kuymaslik lozim. Zamonaviy axborot texnologiyalari ko`nikmalarini va ularni kullash usullarini muvozanatini saqlash, o'qituvchilarning muhim vazifalaridan biridir. Ushbu muammoning to'g'ri yechimini topish o'qituvchining tajribasi, mahorati va shaxsiy insoniylik dunyokarashlariga boglik.[6]

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. Гетьман В.В. Психолого-педагогический аспект в становлении личности музыканта-педагога // Среднее профессиональное образование. 2008 № 9.
2. Hasanova Navbahor Hamraqulovna. (2020). Bo'lajak o'qituvchilarning o'zbek mumtoz musiqasida kasbiy malakasini oshirish muammolari. Xalqaro ilg'or fan va texnologiyalar jurnali, 29 (08), 3489-34953495.
3. Http://sersc.org/j ournals/index.php/DAST/article/ view/25558
4. Hasanova, Navbahor. (2020). METHODS AND WAYS TO DEVELOP THE MUSICAL FEELINGS OF STUDENTS IN TTTE LESSONS OF MUSIC EUITURE. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(42). извлечено от https://science.i- edu.uz/i ndex .php/archivejspi/article/view/5579
5. Khasanova, Navbakhor (2020) "The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students"Mental Enlightemment Scientific-Methodological Journal.Vol.2020 :Iss.2. Article 15. :https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2020/iss2/15
6. Одинокова Е.В. Информационно-коммуникационные технологии В образовательной среде технического вуза // Среднее профессиональное образование. 2009. № 8.


## BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINING KASBIY SALOHIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI


**Bekboyev Zafar Zavqiddin o'g'li-**
NavDU, Musiqa ta'limi Magistranti
Ilmiy rahbar: **Mustafayev Shomurod Normo'minovich-**



**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bo'lajak musiqa o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish asoslari yoritilgan bo'lib, sohaga doir bir qator muammolar ko'rib chiqilgan.



**Kalit so'zlar:** musiqa, ta'lim, texnologiya, xorijiy tajriba, axborot-kommunikatsiya, o'qituvchi, tizim.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq ma’naviyat, yoshlar tarbiyasi, barkamol avlod, komil insonni shakllantirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari qilib belgilandi. Chunki har qanday davlatning, har qanday jamiyatning kelajagi, uning taraqqiyoti, jahonda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi masalalari uning yoshlarining bilimi, ta`lim tizimi, salohiyati, dunyoqarashi, ma’naviyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir.

Bugungi kunda jahonda ta’limga har tomonlama yondashuv asosida bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, pedagog kadrlarning kasbiy kompetentliligini rivojlantirish orqali ijodiy ta’lim jarayonini loyihalashtirishning zamonaviy metodik ta’minotini yaratish, bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarida kasbiy faoliyat sohalariga yo‘naltirilgan kasbiy kompetentliligini takomillashtirish, shuningdek oliy ta’limning ta’lim sifatini ta’minlash jarayonidagi ijtimoiy rolini oshirish masalalari dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida tadqiq etilmoqda. Shu ma’noda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida zamonaviy kasbiy ta’lim mazmunini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirilgan o‘qitish ta’lim muhitini shakllantirish, hamda uni amaliyotga keng tatbiq etish asosida bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini takomillashtirish muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitlarda musiqa o‘qituvchisining kasbiy faoliyati ijtimoiy va ta’lim funksiyalarining murakkabligi tufayli yangi mazmun bilan to‘ldirilmoqda.

Bugungi kunda tor doiradagi yangi mutaxassis emas, balki malakali, pedagogik madaniyati, boy shaxsiy va ijodiy salohiyatiga ega bo‘lgan o‘qituvchini sifat jihatidan yangi shakllangan musiqa ta’limi o‘qituvchisini tayyorlash muammosi ayniqsa dolzarbdir. Uning faoliyati samaradorligini faqat yuqori darajadagi kasbiy va pedagogik mahorat bilan ta’minlash mumkin.

Bugungi kunda musiqa ta’limiga kompyuter texnologiyalarini jadal joriy etish, turli madaniyatlar va ijod turlarining o‘zaro aloqasi musiqiy-ilmiy izlanishga tayyor va kasbiy kompetentliligi yuqori bo‘lgan bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini, san’at va ta’limning turli sohalarida bilimlarini rivojlantirish, o‘zlarining professional faoliyatida fanlararo aloqalarni o‘rnatish, ayniqsa muhim. Shu ma’noda, bugungi kunda pedagogik madaniyati va mahoratiga ega bo‘lgan bo‘lajak musiqa o‘qituvchilariga talab katta. Mamlakatimizda bugungi kunda oliy pedagogik ta’limda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirish mazmuni va shakllari zamon talablariga to‘liq mos emas.

Oliy pedagogik ta’limda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini maktab musiqa o‘qituvchisi amaliy faoliyatiga tayyorlash musiqa san’atining bir necha yo‘nalishlari bo‘yicha bo‘lajak kadrlarda zarur kompetensiyalarni egallashlarini taqazo etadi. Bir soatlik dars jarayonidagi musiqa mashg‘uloti o‘qituvchidan musiqa nazariyasi, musiqa tarixi, cholg‘u ijrochiligi, vokal ijrochiligi, dirijorlik va xor bilan ishlash bo‘yicha malakaviy tayyorgarlikni talab qiladi. Tabiiyki, bu san’at yo‘nalishlari bo‘yicha yetarli darajada zarur nazariy va amaliy (cholg‘u
asbobida chalish, dirijorlik qilish, vokal – xor malakalari, xor bilan ishlash) bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishlari bir xil darajada bo‘lmaydi.

Respublikamizning bir qator OTMlarida bakalavriatning pedagogika sohasi 60311100- “Musiqa ta’limi” ta’lim yo‘nalishida umumta’lim maktablarining “Musiqa madaniyati” fani bo‘yicha, shuningdek, pedagogika kasb-hunar kollejlari, musiqa va san’at akademik-liseylari, bolalar musiqa va san’at maktablari uchun “Musiqa ta’limi” kasbi beruvchi kadrlar tayyorlanib kelinmoqda va ularga Davlat namunasidagi diplomga “Musiqa ta’limi yo‘nalishi” kasbi berilmoqda.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, musiqa o‘qituvchisini bugungi kun talabi darajasida tayyorlashda, o‘quv rejasidagi fanlarni o‘qitishda, ta’lim yo‘nalishi nomida bir qator muammolar borki, ularni bartaraf etmay turib, sifatli kadrlar tayyorlab bo‘lmaydi, qolaversa, quyi ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni o‘qitish uchun tayyorlayotgan o‘qituvchilarimiz sinflarga kirib dars o‘tishda yetarlicha bilimga ega bo‘lmaydilar.

Zamonaviy jamiyatda, oliy ta’lim inson faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy, yetakchi omili sifatida qabul qilindi. Bunday e’tiborning

sababi zamonaviy jamiyatning eng muhim qiymati va asosiy kapitali yangi bilimlarni qidirish va o‘zlashtirishga, nostandart qarorlar qabul qilishga qodir mutaxassisni tayyorlash ekanligini tushunishdir. Zamonaviy pedagogik fanning muhim yo‘nalishi o‘qituvchini o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirishni ta’minlaydigan vositalar va sharoitlarni izlashdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Begimqulov U. Sh. Oliy pedagogik ta’lim tizimiga zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning ilmiy pedagogik asoslari: Avtoref.-T., 2007, -37 b
2. Bahar Gudek. Computer Self-Efficacy Perceptions of Music Teacher Candidates and Their Attitudes towards Digital Technology. Ondokuz Mayis University, TURKEY. European Journal of Educational Research.
3. Ibragimova G. Pedagog kadrlarning kasbiy kompetentliligini uzluksiz rivojlantirish yo’nalishlari. Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi materiallari. – T., 2015. – B. 75-77.
4. Kenjaeva D.T. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida barkamol shaxsni shakllantirishning nazariy-amaliy asoslari: Ped. fan. nomz. diss. – T., 2005. -241 b.

## ЛЮБОВЬ И УВАЖЕНИЕ КАК ОСНОВА СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ В ТВОРЧЕСТВЕ АБАЯ КУНАНБАЕВА

**Рахматова Мамура Шахридиновна-**
преподаватель кафедры русского языка и литературы Навоийского государственного университета.

**Annotation: In this country, the theme of family, love, morality and family values in the works of Abai Kunanbaev is examined.**

Key words: family, family relationships, respect for traditions, morality, education, wisdom.

В произведениях Абая Кунанбаева важное место занимают такие ценности, как семья, мораль, воспитание, уважение к традициям и культуре своего народа. Его творчество отражает стремление к совершенствованию личности, развитию нравственных устоев и важности крепких семейных отношений.

Абай подчеркивает важность воспитания детей, особенно в духе любви к родной культуре, честности и труда. Семья является основой общественной жизни, и от качества отношений внутри нее зависит будущее человека. В одном из стихотворений Абай говорит о том, что родители должны дать своим детям правильное воспитание и передать им высокие нравственные ценности. В его произведениях часто встречается критика тех, кто пренебрегает традициями, духовной культурой и семейными ценностями ради временных удовольствий и материальных благ. Абай в своих произведениях выражает стремление к моральному совершенствованию и поиску идеала среди народа, который уважает свои традиции и основывается на любви и взаимопонимании в семье.

Абай акцентирует внимание на семейных отношениях как на важнейшей части жизни человека. Семья должна быть местом, где царят любовь, забота, поддержка и понимание. Мудрость старших и уважение к ним — ключевые аспекты, которые он подчеркивает. В его стихах можно найти образы, напоминающие о значении семейных уз и обязанностей перед родителями. В произведениях Абая также звучит мысль о важности соблюдения своей роли в семье. Это касается и родителей, и детей. Абай подчеркивает ответственность и за собой, и за благополучие всей семьи, выражая идею, что каждый член семьи должен вносить вклад в ее развитие и гармонию.

В произведениях Абая Кунанбаева семья является одной из ключевых ценностей, в центре которой стоит уважение, любовь и ответственность. Это как моральный, так и социальный

идеал, который важен для каждого человека, чтобы построить здоровое и гармоничное общество.

Абай Кунанбаев (1845–1904) – выдающийся казахский поэт, философ и мыслитель, чье наследие занимает важное место в культурной и литературной истории Казахстана. В своих произведениях он поднимал различные вопросы человеческой жизни, в том числе и важнейшие моральные принципы, такие как семейные ценности. Для Абая семья была не только социальной ячейкой, но и основой для формирования нравственности, гармонии и счастья в жизни человека.

В философии Абая семья занимала особое место. Он воспринимал ее как первую и важнейшую школу для воспитания нравственных и духовных качеств. В своем творчестве поэт акцентировал внимание на значении любви, уважения, взаимопомощи и честности внутри семейных отношений. Семья, по мнению Абая, должна быть местом, где человек учится нравственным основам, таким как честность, трудолюбие и забота о других.

Абай утверждал, что истинное счастье можно найти лишь в гармонии между человеком и его близкими. Он осознавал важность поддержания семейных отношений и признавал, что моральная стойкость и любовь в семье – это те ценности, которые помогают человеку преодолевать жизненные трудности. Систематическое внимание к вопросам морали и нравственности в семье является важной темой в его произведениях.

Одним из ключевых аспектов в отношении к семье у Абая является ценность любви и уважения между супругами, детьми и родителями. В его произведениях часто прослеживаются мысли о том, что семья должна быть местом, где царят взаимопонимание и забота, а не эгоизм и жестокость. Прекрасным примером этого является его стихотворение "Любовь и уважение". Здесь Абай раскрывает идею о том, что только через уважение и искреннюю любовь к родным можно достичь истинного счастья и гармонии. Он особенно подчеркивает, что истинная любовь не заключается в внешних проявлениях привязанности, а в глубоком уважении к личному пространству и чувствам других людей. Важно не только проявлять заботу, но и ценить достоинства друг друга, понимать и поддерживать в трудных ситуациях. Семья должна быть местом, где каждый чувствует себя ценным и любимым.

Абай много внимания уделял роли отца в семье, считая его главным наставником и примером для подражания. В его произведениях часто затрагиваются вопросы воспитания детей, формирования их мировоззрения, жизненных целей и ценностей. Абай видел в отце не только кормильца, но и учителя, чье влияние на детей должно быть положительным и вдохновляющим. Он также подчеркивал важность духовного воспитания. В его поэзии встречаются размышления о том, что дети должны быть воспитаны в духе честности, уважения к старшим и стремления к знанию. Абай был уверен, что только воспитав гармоничных и высоконравственных детей, можно создать сильное и здоровое общество.

В произведениях Абая важную роль играют не только личные отношения в семье, но и более широкие моральные принципы, которые семья должна прививать своим членам. Одним из основополагающих моральных принципов является честность. Абай говорил, что человек, который живет честно и не обманывает своих близких, будет жить в согласии с собой и с окружающим миром. Он подчеркивал, что в семейных отношениях важно не только любить, но и быть честным и открытым друг с другом.

Также Абай часто рассматривал в своих произведениях ценность труда и ответственности. Он призывал не лениться, быть трудолюбивыми и ответственными в своих поступках, что, по его мнению, должно передаваться от родителей к детям. Он считал, что труд и честность являются основой стабильности и благополучия не только в семье, но и в обществе в целом. Семейные ценности, такие как любовь, уважение, честность, трудолюбие и ответственность, занимают центральное место в творчестве Абая Кунанбаева. Для поэта семья

была основой человеческой жизни, тем местом, где человек учится нравственности и гармонии. Его произведения отражают глубокую веру в силу семейных отношений, как важнейшего элемента для формирования духовного и морального состояния человека и общества.

**Список использованной литературы**

1.Рамазанов Н. Абай Кунанбаев (1841—1904) : биография. В кн.: Восточный сборник в честь А. Н. Веселовского. — М. — 1914. — С. 224—230.

2.Саади А. [Статья в «Ак-Юл» (на казахском языке)]. Ташкент, 1923. № 355, 356, 359, 363, 369, 372.

3.Кабулов Ильяс. [Статья в газете «Советская степь»], Кзыл-Орда, 1928. № 174.

4.Мустамбаев, [Статья в газете «Советская степь»], Кзыл-Орда, 1928. № 191.

5.Аршаруни А. Заметки о национальной литературе. — «Новый Восток». — № 23—24

## MUSTAQIL TA’LIM OLISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

**Xurshid Suyarov-**
**NavDU Jismoniy madaniyat kafedrasi dotsenti**

**Annotatsiya**. Ushbu ilmiy ishda mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilingan. Mustaqil ta’lim, o‘quvchilarning shaxsiy mas'uliyatini, tanqidiy fikrlash qobiliyatini va o‘z-o‘zini rivojlantirishni oshiruvchi muhim jarayon sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirishda ta’lim texnologiyalari, interaktiv metodlar va o‘quvchilarga individual yondashuvning ahamiyati o‘rganilgan. Shuningdek, mustaqil ta’limni samarali tashkil etish uchun pedagogik strategiyalar, o‘quv materiallarini tanlash va motivatsiya tizimlarini takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mustaqil ta’lim o‘quvchilarga o‘z bilimlarini kengaytirish, amaliyotga tadbiq etish va shaxsiy rivojlanish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Mustaqil ta’limning samaradorligi, shuningdek, ta’lim jarayonidagi o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikka bog‘liqdir.

**Kalit so‘zlar**: Mustaqil ta’lim, ta’lim ko‘nikmalari, o‘z-o‘zini o‘rganish, tanqidiy fikrlash, o‘quvchi faolligi, motivatsiya, shaxsiy rivojlanish, o‘quv metodikasi, o‘rganish strategiyalari, ta’lim samaradorligi.

**Аннотация.** В данной научной работе проанализированы теоретические и практические основы развития навыков самостоятельного обучения. Самостоятельное обучение рассматривается как важный процесс, повышающий личную ответственность учащихся, навыки критического мышления и саморазвитие. В исследовании изучалось значение образовательных технологий, интерактивных методов и индивидуального подхода к учащимся в формировании навыков самостоятельного обучения. Также были рассмотрены педагогические стратегии эффективной организации самостоятельного обучения, подбор учебного материала и совершенствование систем мотивации. Результаты исследования показали, что независимое обучение предоставляет учащимся важные возможности для расширения своих знаний, применения их на практике и личностного развития. Эффективность самостоятельного обучения также зависит от взаимодействия ученика и учителя в образовательном процессе.

**Ключевые слова**: самостоятельное обучение, образовательные навыки, самообучение, критическое мышление, вовлеченность учащихся, мотивация, личностное развитие, методология обучения, стратегии обучения, эффективность обучения**.**

**Annotation.** This scientific work analyzes the theoretical and practical foundations for the development of skills of Independent Education. Independent education is viewed as an important process that increases students ' personal responsibility, critical thinking ability, and self-development. The study explored the importance of educational technologies, interactive techniques, and an individual approach to students in shaping independent learning skills. Issues of pedagogical strategies, selection of educational materials and improvement of motivation systems for the effective organization of Independent Education were also considered. The results of the study showed that independent education provides students with important opportunities for expanding their knowledge, practicing and personal development. The effectiveness of Independent Education also depends on the interaction between the student and the teacher in the educational process**.**
**Keywords:** Independent Education, Educational Skills, self-study, critical thinking, student activism, motivation, personal development, teaching methodology, learning strategies, educational effectiveness.

## Kirish

Mustaqil ta’lim olish koʻnikmalarini rivojlantirish — oʻquvchilarning oʻz bilimlarini oʻzlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Bu koʻnikmalarni rivojlantirish oʻquvchilarga oʻz-oʻzini boshqarish, maqsadga erishish va oʻrganish jarayonida samarali ishlash imkoniyatini beradi. Quyida mustaqil ta’lim olish koʻnikmalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun amaliy tavsiyalar keltirilgan:

**1. Oʻquvchilarning Oʻrganish Usullarini Shaxsiylashtirish**

- **Shaxsiy oʻrganish rejasi**: Oʻquvchilarga oʻz shaxsiy oʻrganish rejasini tuzishni oʻrgatish. Ular oʻzining kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, oʻrganish uslubini belgilashlari kerak. Reja orqali oʻquvchilar oʻz vaqtlarini yaxshiroq boshqarish va oʻrganishni samarali amalga oshirish imkoniyatiga ega boʻladilar.
- **Varkey (VARK) modelini qoʻllash**: Oʻquvchilarga turli oʻrganish uslublarini (vizual, audial, kinestetik) oʻrgatish va ularga mos materiallarni tanlash. Shaxsiy oʻrganish uslublarini tushunish va ulardan samarali foydalanish mustaqil ta’limning samaradorligini oshiradi.

**2. Metakognitsiya (Oʻzini Tahlil qilish) Va Refleksiya**

- **Oʻzini baholash**: Oʻquvchilarga oʻrganish jarayonini oʻzlari baholashni oʻrgatish. Oʻquvchilar oʻz oʻrganish metodlarini tahlil qilib, qaysi uslub va metodlar ularning uchun samarali ekanligini aniqlashlari kerak.
- **Refleksiya sessiyalarini tashkil etish**: Darsdan keyin oʻquvchilarni oʻrgangan materiallarini tahlil qilish va ularni amaliyotda qanday qoʻllash mumkinligini muhokama qilishga undash. Bu usul oʻquvchilarning bilimlarini chuqurlashtiradi va oʻzlashtirish jarayonini yaxshilaydi.

**3. Oʻrganishning Aktiv Yondashuvlari**

- **Guruh ishlari va diskussiya**: Oʻquvchilarni guruhlarga boʻlib, oʻrganish materiallarini muhokama qilishga undash. Bu metod oʻquvchilarning jamoada ishlash koʻnikmalarini rivojlantiradi va ular oʻrganish jarayonida yanada faol boʻlishadi.
- **Simulyatsiya va roʻl oʻynash**: Oʻquvchilarga amaliy vazifalarni bajarayotganda, simulyatsiya va roʻl oʻynash metodlarini qoʻllash. Bu metod oʻquvchilarning analitik fikrlashini rivojlantiradi va ularga oʻrganish materiallarini amaliyotda sinab koʻrish imkonini beradi.

**4. Tezkor Oʻrganish (Speed Learning) Va Vaqtni Boshqarish**

- **Mikro-darslar va tezkor oʻrganish**: Oʻquvchilarga qisqa vaqt ichida ma’lumotni oʻzlashtirishni oʻrgatish. Mikro-darslar va qisqa muddatli oʻrganish metodlari oʻquvchilarga konsentratsiya va vaqtni samarali boshqarish imkonini yaratadi.

- **Pomodoro texnikasidan foydalanish**: O‘quvchilarga 25 daqiqalik intensiv o‘rganish va 5 daqiqalik tanaffuslardan foydalanishni tavsiya etish. Bu metod diqqatni jamlash va o‘rganish jarayonini boshqarishda yordam beradi.

**5. Muammolarni Hal Qilish (Problem-Based Learning)**

- **Case-study (holat tahlili)**: O‘quvchilarga amaliy muammolarni yechish uchun holat tahlilini berish. Bu metod o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
- **Proyekt asosidagi o‘rganish**: O‘quvchilarni proyektlar ustida ishlashga undash, shu bilan birga o‘rganish materiallarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatini yaratish. Bu o‘quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishda yordam beradi.

**6. O‘zini O‘rgatish Va Raqamli Resurslardan Foydalanish**

- **Onlayn ta’lim platformalaridan foydalanish**: O‘quvchilarga onlayn ta’lim platformalaridan (masalan, Coursera, edX, Udemy) samarali foydalanishni o‘rgatish. Bu platformalar o‘quvchilarga o‘ziga mos kurslarni tanlash va mustaqil ravishda o‘rganishni davom ettirish imkonini beradi.
- **Raqamli kutubxonalar va ilmiy maqolalar**: O‘quvchilarga onlayn kutubxonalardan va ilmiy resurslardan foydalanishni o‘rgatish. Bu ularga o‘rganish jarayonini kengaytirishga yordam beradi.

**7. Motivatsiyani Oshirish**

- **Maqsad qo‘yish va natijalarni kuzatish**: O‘quvchilarga o‘rganish jarayonida aniq maqsadlar qo‘yishni o‘rgatish. Maqsadlar belgilash va ularni kuzatish orqali o‘quvchilar motivatsiyani oshirishlari mumkin.
- **Mukofotlar va rag‘batlantirish**: O‘quvchilarni o‘rganishdagi yutuqlari uchun rag‘batlantirish, shu jumladan kichik mukofotlar yoki tan olish. Bu motivatsiyani oshirish va o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi.

**Xulosa**

Mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish va o‘rganish jarayonini samarali amalga oshirishiga yordam beradi. Yuqoridagi amaliy tavsiyalar yordamida o‘quvchilar o‘z bilimlarini chuqurroq o‘zlashtiradi va mustaqil o‘rganish jarayonida yuqori natijalarga erishishlari mumkin. Bu metodlar o‘quvchilarning diqqatini, xotirasini, tahlil qilish ko‘nikmalarini va umumiy o‘rganish samaradorligini yaxshilaydi.

**Foydalangan adabiyotlar**

**1.Vygotsky, L. S. (1978).** ***Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.***

**2. Siemens, G. (2005).** ***Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age.***

**3. Anderson, T. (2008).** ***The Theory and Practice of Online Learning.***

**4. Palloff, R. M., & Pratt, K. (2007).** ***Building Online Learning Communities: Effective Strategies for the Virtual Classroom.***

**5. Horton, W. (2000).** ***Designing Web-Based Training.***

# ПЕДАГОГИКАЛЫҚ ШЕБЕРЛІК – ТАБЫСТЫ ОҚЫТУДЫҢ КІЛТІ

**Мамирова Зулхумар Нарбаевна -**
NavDU Tarix fakulteti Psixologiya kafedrasi o‘qituvchi
**Орынбаева Айгерім-**
NavDU San’at va sport fakulteti 3-kurs talabasi

**Аннотация:** Мақала педагогикалық шеберліктің табысты оқытудағы маңызын сипаттайды. Шеберлік ұғымы түрлі аспектілерде талданып, тиімді оқыту мен тәрбиелеудің негізгі шарты ретінде қарастырылады.

**Кілт сөздер:** Педагогикалық шеберлік, оқыту, тәрбие, кәсіби даму, мұғалім, білім сапасы

**Kalit so‘zlar:** Pedagogik mahorat, o‘qitish, tarbiya, kasbiy rivojlanish, o‘qituvchi, ta’lim sifati

**Ключевые слова:** Педагогическое мастерство, обучение, воспитание, профессиональное развитие, учитель, качество образования

**Keywords:** Pedagogical mastery, teaching, upbringing, professional development, teacher, quality of education

Қазіргі заманғы білім беру жүйесі мұғалімдерден тек пәнді меңгеруді ғана емес, сонымен қатар жоғары деңгейдегі педагогикалық шеберлікті талап етеді. Білім алушылардың белсенділігі мен жетістігі көбіне мұғалімнің өз ісіне деген қатынасы мен кәсіби деңгейіне байланысты. Осы орайда педагогикалық шеберлік табысты оқытудың басты алғышарты ретінде көрініс табады. Педагогикалық шеберлік – бұл мұғалімнің тек білім көзі ғана емес, сонымен қатар тәрбиеші, ұйымдастырушы, бағыттаушы ретіндегі кешенді рөлі. Ол – оқыту мазмұнын меңгерту мен тәрбиелік әсер етуді біріктіретін біртұтас жүйе. Мұғалімнің бойындағы шеберлік – білім берудің нәтижелі болуының басты шарты. Педагогикалық шеберлік оқушылармен тиімді қарым-қатынас орната білу, олардың психологиялық ерекшеліктерін ескеру, оқу үдерісін жүйелі ұйымдастыру сынды дағдылардан тұрады. Бұл – тек әдіс-тәсілдерді меңгеру ғана емес, шынайы кәсіби шеберліктің көрінісі. Осыған байланысты мынадай ой айтылады:«Педагогикалық шеберлік – бұл мұғалімнің кәсіби қызметінде нәтижеге қол жеткізу, оқушылармен тиімді қарым-қатынас орнату және білім мен тәрбие беру үдерісін жүйелі ұйымдастыру дағдыларының жиынтығы»[1].

Сапалы білім беру үдерісінде теория мен тәжірибе тығыз байланыста болуы қажет. Мұғалім тек оқыту құралдарын пайдаланып қоймай, жеке тұлғалық қасиеттері арқылы да оқушыға ықпал етеді. Педагогикалық шеберлік – бұл мұғалімнің теориялық білімі, практикалық дағдылары және тұлғалық қасиеттерінің үйлесуі нәтижесінде қалыптасады[2]. Сабақтың тиімділігі, оқушылардың белсенділігі мен қызығушылығы мұғалімнің шеберлігіне тікелей байланысты. Ол тек тақырыпты түсіндіріп қоймай, әрбір оқушының ішкі мүмкіндіктерін ашуға көмектеседі. Мұндай шеберлік күрделі педагогикалық жағдайларды дұрыс бағалап, соған сәйкес әрекет ете білуді қажет етеді. Бұл ретте педагогикалық шеберлік – бұл мұғалімнің педагогикалық жағдайды дұрыс бағалау, дұрыс шешім қабылдау және оны тәжірибеде тиімді қолдану қабілеті[3] деген анықтама орынды. Шебер мұғалім – оқушыны шабыттандыратын, оның тұлғалық дамуына жол ашатын жетекші. Ол тек білім беріп қана қоймай, тәрбие мен қолдауды да қатар жүргізеді. Мұндай маман болу үшін үздіксіз кәсіби даму, өзін-өзі жетілдіру және оқыту үдерісіне жаңашыл көзқарас қажет. Осы бағытта айтылған мынадай тұжырым назар аудартады:«Педагогикалық шеберлік – бұл мұғалімнің кәсіби

қызметінде нәтижеге қол жеткізу, оқушылармен тиімді қарым-қатынас орнату және білім мен тәрбие беру үдерісін жүйелі ұйымдастыру дағдыларының жиынтығы»[1].

Педагогикалық шеберлік тек кәсіби білік пен дағдыны ғана емес, сонымен қатар тұлғалық ұстаным мен адами қасиеттерді де қамтиды. Бұл шеберлік тек оқыту процесінде ғана емес, оқушының рухани әлеміне әсер етуде де көрініс табады. Осы тұрғыдан алғанда, А.С. Макаренконың педагог тұлғасы туралы пікірі бүгінгі күнге дейін өзектілігін жоғалтпаған:«Тәрбиелеуші – бұл тек түсіндіруші емес, ол өз өмірі мен іс-әрекеті арқылы үлгі көрсетіп, жеке тұлға ретінде тәрбиелейді»[4]. Осы айтылғандардың негізінде педагогикалық шеберлікті дамыту – табысты оқытудың, сапалы білім берудің және адамгершілігі жоғары тұлға тәрбиелеудің басты шарты екені айқындалады. Ол – үздіксіз ізденіс пен өзін-өзі жетілдіру нәтижесінде ғана қалыптасатын қасиет. Мұғалім өз тәжірибесінде жаңа әдістерді қолданып, әрбір оқушыға жеке жол таба алса, оның кәсіби деңгейі де арта түседі.

Қорытындылай келе, педагогикалық шеберлік – табысты білім беру жүйесінің өзегі. Мұғалім шеберлігі арқылы білім ғана емес, өмірлік бағдар, тәрбие мен құндылықтар жүйесі де беріледі. Сондықтан әрбір педагог өз кәсіби шеберлігін жетілдіруді өмірлік мақсат етіп алуы тиіс. Тек сонда ғана шынайы нәтижеге, табысты оқытуға қол жеткізуге болады.

Пайдаланылған әдебиеттер

1. Комилжонова, Х.Н.Қ. (2023). Pedagogik mahorat haqida tushuncha, uning o‘qituvchi faoliyatidagi o‘rni va ahamiyati. Education and Research.

2. Макаренко, А.С. (2023). Педагогическая поэма. Москва: АСТ, серия «Классика в школе».

3. Мирзакаримова, М.М., & Узоқжонова, М.Д.Қ. (2023). Pedagogik mahoratning shakllanishi va rivojlanishi. Science and Education (Open Science Uzbekistan).

4. Отамирзаева, Қ.И. (2023). Pedagogik mahorat – o‘qituvchining kasbiy rivojlanishidagi muhim omil sifatida. Kokand State Pedagogical Institute Scientific Bulletin.

## LOOK AT THE VIEWS OF ALISHER NAVOI AND FRANCIS BACON

**Olimov Husniddin Jobirovich-**
Master’s student,1st year Bukhara Institute of Psychology and Foreign Languages

## EXPLANATION

In this article, the significance of the life and creative work of these two thinkers is shown to the minds of young people studying in our country and worldwide, for the future perfect study of students studying in our country.

**Keywords:** creativity, thinkers, learning, creative activity.

In today’s complex and contradictory era, preserving and developing our national and religious values, educating the younger generation in the spirit of noble universal ideas, and strengthening their ideological immunity against harmful influences that are foreign to our spiritual and intellectual outlook are among the most important tasks.From this point of view, studying the life and activities of the great thinker and poet Alisher Navoi, who dedicated himself to the service of noble ideals such as kindness, goodness, selflessness, tolerance, and humanism, is of particular importance.Our great ancestor, Mir Alisher Navoi, held poetry and the art of being a poet above all else. Even while holding the high position of vizier, he never stopped writing poetry. Those around him viewed his work with admiration and respect. Even Sultan Husayn Bayqara himself supported him. The poet’s first poetry collection, *Badoye’ ul-Bidoya* ("The Beginning of Beauty"), was compiled

between 1472 and 1476 at the order and request of the king. Later, in 1485–1486, he compiled his second collection, *Navodir un-Nihoya* ("Endless Rarities").In 1481–1482, Alisher Navoi wrote *Vaqfiya*, a work dedicated to the concept of *waqf*, which refers to an endowed property or land set aside to finance charitable works. Navoi's greatest dream was to write an epic poem and, most importantly, to create a *Khamsa* (Quintet) following in the footsteps of the great 12th-century poet Nizami Ganjavi (1141–1209), whose *Panj Ganj* (Five Treasures) had become a benchmark of poetic excellence.Nizami's *Khamsa* consisted of five narrative poems:

1. *Makhzan ul-Asrar* ("The Treasury of Mysteries")
2. *Khosrow and Shirin*
3. *Layla and Majnun*
4. *Haft Paykar* ("Seven Beauties")
5. *Iskandarnama* ("The Book of Alexander")

A hundred years later, Amir Khusrow Dehlavi (1253–1325) responded to this tradition with his own *Khamsa*, which included:

1. *Matla' ul-Anvor* ("The Rising of Lights")
2. *Shirin and Khosrow*
3. *Majnun and Layla*
4. *Hasht Behesht* ("Eight Paradises")
5. *Aina-yi Iskandari* ("The Mirror of Alexander")

However, all these works were written in Persian, which meant only those who knew the language could appreciate them. The fact that his own people were deprived of such a treasure deeply troubled Navoi.Similarly, in Europe, a great thinker, philosopher, timeless essayist, lawyer, and statesman, Francis Bacon, played a significant role. Born in 1561 in London to Sir Nicholas Bacon, the Lord Keeper of the Great Seal of England under Queen Elizabeth I, Bacon became one of the most influential intellectuals of his time.Francis Bacon occupies an extremely important place in the history of world culture and philosophy. He gained prominence during the late Renaissance and the Enlightenment, and he remains one of the most widely read authors of the late 16th and early 17th centuries. There is no doubt that Bacon was one of the most knowledgeable individuals of his time. Every era has found relevant aspects of his work that resonate with its values and ideologies. Whether during the Renaissance, when human dignity and consciousness were elevated, during the Enlightenment, or even during the French Revolution, Bacon's emphasis on civic virtue remained relevant.Throughout his lifetime, he was recognized as a wise politician, a keen psychologist, and a skilled educator. His Essays, covering a comprehensive system of thought, were considered worthy of study and practical application.Both of these great thinkers did not simply promote universal human values; throughout their lives and careers, they embodied the true image of goodness, unparalleled generosity, and outstanding state leadership. Even today, the moral and ethical insights found in Bacon's Essays continue to capture the interest of readers, drawing them toward his wisdom and literary legacy.Francis Bacon's complete works were published in a classical 14-volume edition between 1857 and 1874 by James Spedding, R. L. Ellis, and D. D. Heath. The first seven volumes focused on Bacon's philosophical, literary, and professional works, while the remaining volumes consisted of personal writings, essays, and notebooks.His The Advancement of Learning (Oxford, 1974) and New Atlantis (1624) remain key references in the study of Renaissance logic and educational theory. Arthur Johnson (1974) and William Armstrong (1975) edited these works, with Armstrong writing an excellent introduction for those entering the world of science, explaining the logic of the Renaissance and its educational doctrine. Johnson's edition also included Bacon's New Atlantis, which is an example of utopian literature. Each publication of Bacon's works contains lists of books that analyze his intellectual and scientific contributions.Benjamin Farrington's book *Francis*

*Bacon's Philosophy* (Liverpool, 1964) also includes numerous translations that are invaluable for understanding this great philosopher.

**References**

1. Decree No. PQ-4802 of the President of the Republic of Uzbekistan dated August 11, 2020, *"On measures to establish the International Scientific Research Center of Imam Maturidi"*. // Electronic resource: https://lex.uz/docs/4945427 (03.09.2020)

2. Sh. Sirojiddinov. *Alisher Navoi: A Comparative-Typological and Textological Analysis of Sources.* – Tashkent: Akademnashr, 2011.

3. Q. Shodmonov. *Francis Bacon and the Ontological and Epistemological Foundations of Wisdom and Truth in His "Essays or Counsels Civil and Moral."* Monograph. Bukhara, 2022.

**Author: Olimov Husniddin Jobirovich** Master's student,1st year Bukhara Institute of Psychology and Foreign Languages

## JADID MA'RIFATPARVARLARINING O'QUVCHILARDA TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHGA DOIR PEDAGOGIK QARASHLARI

**Ismatillayeva Mahliyo Muzaffar qizi-**
NDU "Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi"
yo'nalishi tayanch doktoranti
"Profi University" nodavlat oliy ta'lim muassasasi Navoiy filiali o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda paydo bo'lgan jamiyatni yangilashga intilgan jadidchilik harakati namoyondalarining davlatni rivojlantirishga, kishilar ongini o'stirishga qaratilgan harakatlaridagi iqtisodiyotga oid qarashlari bugungi Yangi O'zbekistonning Uchinchi Renessans sharoitiga naqadar mos kelishi tadqiq qilingan.

**Kalit so'zlar:** Jadidchilik harakati, jadidlar, yangi usul maktablari, "Turkiy Guliston yoxud axloq", axloqiy tarbiya, amaliy tarbiya

Yangi O'zbekiston Uchinchi Renessans poydevorini yaratish vazifasini strategik maqsad sifatida belgiladi. Ushbu strategik maqsad g'oyasi birdaniga paydo bo'lib qolgani yo'q. G'oyaning ildizi xalqimiz mustaqillikni Chor Rossiyasiga boy bergandan keyin, millatning ilg'or o'qimishli ziyolilari chiqargan achchiq tarixiy xulosasi, taraqqiyot va ozodlik to'g'risidagi orzu- istaklariga borib taqaladi. Tarixga jadid ma'rifatparvarlari nomi bilan kirgan erksevar bobolarimiz istiqlolga, milliy taraqqiyotga, mustaqillik va erkga erishish uchun avvalo ta'lim – tarbiya tizimini, odamlarning hayotga, rivojlanishga bo'lgan munosabatini o'zgartirishni, bekorchilikdan choyxonalarda oshxo'rlik va bedanabozlik qilishdan voz kechib, yaratuvchilikka, bunyodkorlikga g'aflat uyqusidan uyg'onishga, yoshlarga zamonaviy ilmlarni, kasblarni o'rgatishga chorladilar. Ta'lim-tarbiya islohotlaridan boshlangan jadidchilik harakati tezda butun madaniy hayotni, adabiyot va san'atni, maishiy turmushni, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy qarashlarni qamrab oldi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O'rta Osiyoda shakllangan jadidchilik harakati o'z zamonasi uchun ilg'or ijtimoiy-ma'rifiy oqim sifatida maydonga chiqqan. Ushbu harakat vakillari, ya'ni jadidlar, murakkab siyosiy va iqtisodiy sharoitda xalqni ma'rifatga yetaklash, zamonaviy ilm-fan asoslarini joriy etish orqali jamiyatni yangilashga, davlatni rivojlantirishga intildilar. Ular an'anaviy ta'lim tizimini zamon talablari asosida takomillashtirish, xalq ongida yangicha fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratganlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 20 dan ortiq davlatlar vakillari ishtirok etgan "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigida jadid bobolarimizga yuksak baho berib quyidagilarni izhor etdi: "Barchamizga ayonki, "Tilda, fikrda, ishda birlik" degan ezgu g'oya bilan

maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g'aflat botqog'idan qutqarishning asosiy yo'li – bilim va ma'rifatda, dunyoviy tarraqiyotni egallashda, deb bildilar. Ular shu yo'lda fidoyilik ko'rsatib, yangi usul maktablari, teatr va kutubxonalar, nashriyotlar ochdilar. Jamiyat a'zolarining dunyoqarashi va turmush tarzini o'zgartirish maqsadida gazeta va jurnallar nashr etdilar. Yoshlarni ilg'or davlatlarga o'qishga yubordilar"[1]

Jadidlarning asosiy maqsadi – Turkiston xalqlarini birlashtirish, milliy uyg'onish g'oyalarini ilgari surish va taraqqiyot sari olg'a qadam bosish edi. Ular ta'lim-tarbiyani isloh qilish orqali jamiyat hayotiga yangicha qarash olib kirishga harakat qildilar. Shu ma'noda, jadidlar o'z mablag'lari hisobiga yangi uslubdagi maktablar, sahna san'ati bilan shug'ullanuvchi teatrlar, matbaa, kutubxonalar hamda gazeta-jurnallar tashkil etdilar. Shu bilan birga, iqtidorli yoshlarni xorijga yuborib, ularni ilg'or bilimlarga ega bo'lishlariga ko'maklashdilar.

Ularning faoliyati nafaqat ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, balki jamiyatda tadbirkorlik, tashabbuskorlik va fuqarolik mas'uliyatini kuchaytirish kabi dolzarb yo'nalishlarga ham xizmat qilgan. Jadidlar Turkiston jamiyatini o'rta asrlardagi tarqoqlikdan ozod qilish, mustaqil va zamonaviy boshqaruvga asoslangan milliy davlat qurish g'oyasini ilgari surdilar. Ularning faoliyati yosh avlodni g'oyaviy, ma'naviy va milliy jipslik asosida tarbiyalashga qaratilgan edi.

Jadidlar yangi usuldagi maktablarni (usuli jadid) ochish orqali ta'lim tizimiga amaliy fanlarni, jumladan, iqtisodiyot, savdo, geometrik hisob-kitob kabi sohalarni kiritdilar. Bu esa o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish bilan birga, ularga kichik biznes yuritish, o'z mahsulotini hisob-kitob qilish, foyda va zarar tahlilini o'rganish imkonini yaratgan. Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida shunday deydi: "Tarbiyada ikki tomon bo'lur: biri axloqiy, biri amaliy. Farzandlarimizga axloq bilan birga kasb va hunar ham o'rgatilsa, ular hech qachon xor bo'lmas."[2] Bu so'zlar bizga tarbiyaning ikki muhim yo'nalishini ko'rsatadi: axloqiy va amaliy tarbiya. Axloqiy tarbiya - bu insonning to'g'ri, halol, odobli bo'lib voyaga yetishini ta'minlaydi. Amaliy tarbiya esa - unga kasb-hunar, mehnat qilish, o'ziga to'q bo'lish yo'lini o'rgatadi. Jadidlarning yangi usuldagi maktablar orqali ta'limga amaliy fanlarni joriy etgani — yosh avlodni faqat bilimli emas, balki hayotda mustaqil yashashga qodir, kasb-hunarli, tadbirkor shaxs sifatida voyaga yetkazishga xizmat qilgan. Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, axloqiy va amaliy tarbiyaning uyg'unligi insonning to'laqonli shakllanishini ta'minlaydi. Bugungi kunda ham bu ikki tomonlama tarbiya — halollik va kasb egallash — yoshlarga mustahkam hayotiy poydevor yaratib, ularni kelajakda o'z yo'lini topadigan, jamiyatga foydali shaxs sifatida shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Bugungi kunda, ayniqsa yoshlarimiz uchun, aynan shu ikki tomonlama tarbiya juda muhim. Chunki halol, axloqli bo'lgan, ustiga-ustak biror hunar yoki kasb egasi bo'lgan yosh hech qachon boshqalarga muhtoj bo'lib qolmaydi. U har qanday sharoitda o'z yo'lini topadi, o'z biznesini yo'lga qo'yadi, tadbirkor bo'lish sari dadil qadam tashlaydi.

Bugungi kunda O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash, huquqiy-demokratik jamiyat barpo etish va erkin fikrli avlodni tarbiyalash jarayonlarida jadidlar merosi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, "Uchinchi Renessans" g'oyasi doirasida yoshlarni ilmga, kasb-hunarga, vatanparvarlikka yo'naltirishda jadidlar boshlab bergan yo'l bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ularning gumanistik qarashlari va xalq manfaati yo'lida qilgan fidokorona sa'y-harakatlari bugungi taraqqiyotimizda mustahkam ma'naviy tayanch bo'lib xizmat qilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.Mirziyoyev: "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya 2023-yil 11-dekabr

2. Sh.Mirziyoyev: Jadidlar merosini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigidan. 2023 yil 6-mart

3. Karimov N. XX asr boshlaridagi tarixiy vaziyat va jadidchilik harakatining vujudga kelishi. //O‘zbekistonning yangi tarixi. Konseptual-metodologik muammolar mavzuidagi ilmiy anjuman materiallari. -T., 1995. -B.38.

4. Qosimov B. Milliy uyg’onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. Toshkent: Ma’naviyat, 2002

5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi”, 2004 yil 96-bet

## METAFORIK NOMINATSIYANING LINGVOMADANIY TAHLILI (ingliz va o‘zbek tillari misolida)

**Dildora Yadullayevna Xalikova,**
**o‘qituvchi**

**Annotatsiya.** Metafora dastlab adabiyotshunoslik, so‘z san’atining obyekti sifatida baholanib kelingan. Uning lingvistik mohiyatini belgilashga doir dastlabki tadqiqotlar esa, uslubshunoslikka doir ilmiy izlanishlarda shakllana boshlagan. O‘tgan asrning ikkinchi yarmidan keyin so‘z semantik strukturasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar, so‘z va ma’no yasalishga oid tadqiqotlar metaforaning lisoniy mohiyatiga bo‘lgan e’tiborning o‘zgarishiga sabab bo‘lgan.

**Kalit so‘zlar.** metafora, leksik-semantik usul, sistem-struktur nazariya, kognitiv va konseptual faza, badiiy metafora.

Xususan, so‘z yasalishiga oid izlanishlarda metaforaning leksik-semantik usul doirasida talqin qilinishi, keyinchalik semantik derivatsiya tarkibida o‘rganilishi shundan darak beradi.

Mazkur davrlarda yetakchilik qilgan sistem-struktur nazariya talabiga mos holda metafora ham til va nutq dixatomiyasiga monand holda tavsiflandi. M.Mirtojiyevning “nutq hodisasi bo‘lgan metafora nazariy tilshunoslik uchun tegishli obyekt bo‘lmaydi. U tilshunoslikning uslubiyat bilan shug‘ullanuvchi sohasiga oiddir”, - degan mulohazasi shundan darak beradi. B.Umurqulov esa mazkur dixatomik tafovutni lisoniy va badiiy metaforalar o‘rtasidagi farqni belgilash orqali qayd etadi. Unga ko‘ra, “Til metaforasi badiiy metaforadan o‘xshashlikning formasiga ko‘ra farqlanadi. Til metaforasi ikki predmet orasidagi bevosita yoki ochiq o‘xshashlikka asoslangan ko‘chimdir. Masalan: bosh so‘zining asosiy leksik ma’nosi «bosh qism» bo‘lib, tog‘ning boshi, yo‘lning boshi, ishboshi, jo‘raboshi kabi ko‘chma ma’nolarga ega. Badiiy metaforada predmetlar orasidagi o‘xshashlik asosida badiiy bo‘yoq, obrazlilik yotadi. Demak, badiiy metafora til metaforasidan, dastlab, fikrni obrazli ifodalashi bilan ajralib turadi. Badiiy metaforada o‘xshashlik yashiringan holda bo‘ladi”.

Metafora bo‘yicha maxsus izlanish olib borgan G.N. Sklyarevskayaning fikriga ko‘ra, “bu turlarni ajratishning o‘zi o‘ta shartilidir. Bunday shartlilik badiiy deb qaralgan metaforalarning ko‘pchiligi til metaforasiga xos xususiyatlarini ham o‘zida aks ettirishi orqali ko‘zga tashlanadi. Har ikkala holda metafora nutqda shakllanib, ijtimoiy tasdiq bosqichidan o‘tgan holda, o‘z lisoniy barqarorligiga ega bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Shu bois, metaforani bilvosita nominatsiya deb umumlashtirish maqsadga muvofiq”.

Ishning avvalgi qismlarida qayd etilganidek, nominatsiya kognitiv va konseptual fazalar uzviyligidan iborat faoliyat bo‘lib, uning kognitivlikdan konseptuallikni keltirib chiqarishga asoslangan birlamchi fazasi nominantlar strukturasida keyingi nominativ va kommunikativ izchilliklar uchun zamin yaratadigan analogik izlarni qoldirishi bilan xarakterlanadi. Metafora so‘z strukturasida ana shunday analogik imkoniyatlarning mujassamlanishida va ularning ikkilamchi tatbig‘ida ishtirok etishi bilan xarakterlanadigan semantik vositalardandir. Uning lisoniy uzual va nutqiy okkazional holda namoyon bo‘ladigan turlari individual tashabbus tufayli hosil qilinadigan metaforik hosilalarning ijtimoiy tasdiqdan o‘tish va o‘ta olmasligi bilan bog‘liqdir. Bunday tasnifiy talqin

metafora tadqiqini uning dinamik mohiyatidan emas, balki mavjud mahsullaridan kelib chiqib amalga oshirishga asoslanadi.

J.Lakoff va M. Jonsonlar tomonidan e'lon qilingan "Metaphors We Live by" (Biz yashayotgan metafora) nomli ishida mazkur vosita tadqiqini antropotsentrik tamoyillarga asoslangan dinamik aspektda qayta ko'rib chiqish taklifi ilgari surilishi bejiz emas. Unda qayd etilganidek, "metafora ko'p yillar mobaynida kundalik nutqqa daxlsiz hodisa sifatida statik nuqtayi nazardan talqin qilib kelindi. Aslida esa, metafora kundalik nutqqa daxldor hodisagina emas, balki inson konseptual tizimidan darak beruvchi tafakkur mexanizmidir. Garchi bu kognitiv asoslarni bevosita kuzatish va tasvirlash qiyin bo'lsa ham, konseptual tizimga xos metaforik sxemalar orqali ular haqida tasavvur hosil qilish mumkin".

"Metafora bevosita inson fikrlash faoliyati bilan bog'liq hodisa ekani uning "manba" (source domain) va maqsad (target domain) kabi ikki kognitiv strukturani bitta "metaforik proeksiya" (metaphorical mapping) doirasida uyg'unlashtirgan holda, borliqning "kognitiv manzara" (cognitive mapping)si yaratilishiga xizmat qiladigan invariant (Invarce Hypothesis) tuzilma misolida ko'zga tashlanadi. Bu uzviylikdagi "metaforik proeksiya semantik mohiyatli ichki matnni shakllantirish bilan bog'liq kognitiv jarayon bo'lib, u "xalq/jamiyat (maqsad) – bu poda (manba)" metaforasi singari so'zlovchining tinglovchiga "biz davlat boshqaruvi tepasida turganlar o'yinining chorasiz to'dasimiz", degan fikrni uqtirish imkonini yaratadi".

Metaforaning antropotsentrik asoslari uning kognitiv va konseptual fazalarga monand tarmoqlanishi misolida ko'zga tashlanadi. Keyingi lingvokognitiv izlanishlarda metaforani ushbu turlar asosida talqin qilish ommalashib borayotgan bo'lsa ham, ularning mohiyati masalasida yakdillikka kelingan deb bo'lmaydi. Xususan, N.D. Arutyunova lisoniy metaforaning "nominativ (glaznoe yabloko, nos lodki), obrazli (martьishka), kognitiv (lyubov potuxla, ugasla, smolkla, umerla), generalizatsiyalashgan (yarkie chuvstva, blestyaщie rezultatы) kabi turlarini farqlagani holda, kognitiv metaforani "borliqning ko'rinmas qirralarini ko'rish imkoniyatini taqdim etadigan vosita" sifatida ajratadi [Arutyunova. 1978: 333-334]. V.N. Teliya ham kognitiv metaforani "moddiy asosga ega bo'lmagan mavhum xarakterli voqea va hodisalarning metaforik ko'chimiga asoslanadigan tur" sifatida.

Ye.O. Oparina esa metaforaning "nominativ, obrazli, ekspressiv-baho" kabi turlaridan farqllanuvchi bu turni "konseptual metafora" deb nomlaydi. Uning qayd etishicha, konseptual metafora mavhum xususiyatli obyektlar bilan bog'liq voqelanuvchi tur bo'lib, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, maishiy turmushga oid asos konseptlar bazasida yangisini vujud keltirish orqali ko'zga tashlanadi. Masalan, zerno istinы, krug poniy, pole deyatelnosti, cleft-sentences, way of life, generation gap kabi birikmalardagi ko'chimlar orqali konseptual metafora o'z aksini topadi.

Keltirilganlardan ma'lum bo'ladiki, metaforaning "nominativ, obrazli, ekspressiv-baho" kabi turlaridan farqli holda, abstrakt tushunchalar asosida shakllanadigan turi "kognitiv yoki konseptual metafora" sifatida izohlanadi. Kognitiv va konseptual metafora terminlarini abstrakt tushunchalar bilan bog'liq metaforik jarayonga nisbatan qo'llanishi bu ikki ko'rsatkichning mohiyatini cheklashga olib keladi. Shuningdek, mazkur tavsiflardagi yana bir izohtalablik metaforaning nominativ, obrazli, ekspressiv-baho va konseptual turlarga ajratilishi misolida ham ko'zga tashlanadi. Zero, ushbu ko'rsatkichlar muayyan nominativ maqsad bilan birga ro'yobga chiqadigan ko'rsatkichlar bo'lib, ularni nominativ funksiyadan ajratish maqsadga muvofiq emas.

Metaforaning kognitiv ildizlari ancha chuqur bo'lib, L.V. Kulchiskaya qayd etganidek, qiyosiy mushohadani tashkil qilish va boshqarishning birlamchi mexanizmi bo'lgan neyrofiziologik jarayonlarga borib taqaladi. U boshqa nominativ vositalar singari borliqni sabab-oqibat munosabatiga asoslangan qat'iy mezonlar asosida tasavvur qilish imkonini yaratadigan mantiqiy-ratsional ildizli bo'lishi bilan birga, insonga o'z orzu-istaklari, xayoliy-fantastik olamini yaratish imkonini taqdim etishi bilan ham xarakterlanadi.

Ushbu o‘ziga xoslik tufayli inson “kategorial mezonlarga xilof ravishda, ya’ni aslida hech qanday bog‘lanish mavjud bo‘lmagan obyektlarni “X ga o‘xshash Y” invariant modelida metaforik munosabatga kiritish” asosida o‘z nominativ maqsadini ro‘yobga chiqarish imkoniga ega bo‘ladi. Bunday qiyosiy munosabatlar cho‘lg‘amining tashkil topishida “simulyativ implikatsiya” (lotincha “implikatio-to‘qima” va simulatio-uydirma so‘zidan olingan kognitiv analogni vujudga keltiruvchi vosita sifatida ishtirok etadi.

Ushbu implikatsion jarayon J.Lakoff va M. Jonsonlar qayd etishganidek “manba” (source domain) va maqsad (target domain) maqomidagi kognitiv strukturalarni bitta “metaforik proeksiya” (metaphorical mapping) doirasida uyg‘unlashtirishga asoslanadi. Mazkur integrativ jarayonda esa obyekt bilan hissiy bog‘lanish asosida obrazli konseptlar birga vujudga keladigan nominativ maqsaddan kelib chiqib manba bilan bog‘langan holda propozitiv mohiyatli kognitiv-diskursiv qurilma shakllanadi.

Nominativ faoliyatning fazalari uchun umumiy bo‘lgan va bir paytning o‘zida ikki tomonga, ya’ni tafakkur va tilga intiluvchi ushbu qurilma mutlaq abstrakt bo‘lmay, bir tomondan obrazli sxema, metonimiya, metafora, propozitsiya va freym kabi vositalar konfiguratsiyasidan iborat idrokiy kognitiv model sifatida, ikkinchi tomondan, so‘z strukturasida o‘zidan oldingi va keyingi lisoniy birlikka ishora qiluvchi konstruktiv vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ikki mental maydonga mansub konseptlarning simulyativ implikatsiyasiga asoslanadigan kognitiv metafora ana shu idrokiy va lisoniy tuzilmalarga xos analogik andozaviylikning lingvokognitiv faoliyatda izchil tatbiq etilishini ta’minlovchi umumiy vositadir.

Uning umumiy mohiyati V. fon Gumboldtning “tildan foydalanish unda mavjud bo‘lgan formalardan foydalanishdir” degan tezisida nazarda tutilgan analogik tamoyillar tizimida mujassamlangan bo‘lsa, nominativ faoliyatdagi tatbiqlari bolalar tilida itning tovushiga taqlidan “wau-wau, waf-waf” tarzida nomlanishi, o‘z ozuqa manbaini emish harakati hissiyotiga qiyosan “mama” deb nomlashi misolida ko‘zga tashlanadi. Ushbu dalillar kognitiv metaforaning tatbig‘i kognitivlikdan konseptualikka intilish asosida amalga oshishidan darak beradi. Buning natijasida esa, O.V.Dexnich qayd etganidek, “har bir shaxs faoliyatida qiyosiy anglash imkonini yaratadigan kognitiv universaliyalar va ularning submodellarini taqozo etuvchi kognitiv va konseptual metaforalar izchilligi yuzaga keladi”.

Kognitiv va konseptual metaforalar lingvokognitiv faoliyatda alohida ahamiyatga ega bo‘lsa ham, M.V. Nikitin obrazli qilib izohlaganidek, ularning vazifasi “bevosita konseptni dunyoga keltirish emas, balki uning tug‘ilishida ko‘maklashuvchi (povivalnaya babka) doya vazifasida ishtirok etishdir”. Tovush paychalari ovoz hosil qilib berishga mas’ul bo‘lganidek, konseptni dunyoga keltirish ham kognitiv qobiliyatning empirik va ratsional vositalari zimmasidagi vazifadir. O‘z navbatida, hosil qilingan ovozni unli va undosh, jarangli va jarangsiz ohang kasb etishiga og‘iz bo‘shlig‘ida joylashgan nutq a’zolari mas’ul bo‘lganidek, kognitiv va konseptual metaforalarning vazifasi konseptlarga konstruktiv ishlov berishdir.

Yuqorida qayd etilganidek, kognitiv metafora vazifasi turli hissiy jarayonlar natijasida vujudga keladigan obrazli konseptlarni formal-semantik qoliplagan holda, propozitiv mohiyatli obrazsiz konseptlarda mujassamlantirishdan iborat bo‘lsa, konseptual metaforaning vazifasi obyekt bilan bevosita yoki bilvosita bog‘lanish natijasida vujudga keladigan ushbu empirik tuzilmalarning tildagi mavjud konseptual imkoniyatlarga tayangan holda, nominativ maqsad va manba maqomidagi konseptlarning simulyativ integratsiyasiga asoslangan propozitiv muqobillarini vujudga keltirishdir.

Shuningdek, ushbu konseptual vosita so‘z strukturasiga singdirilgan analogik imkoniyatlarni o‘zlashtirish va ikkilamchi nominativ faoliyatning leksik va semantik vositalarida o‘z diskursiv-sinergetik izchiligini kasb etishida muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Uning bilvosita nomlash jarayonida ishtiroki esa aslida kategoriya jihatdan aloqador bo‘lmagan ikki mental maydonga mansub

konseptlarni simulyativ implikatsiya vositasida kognitiv-diskursiv qurilmada mujassamlantirgan holda nomlashdir.

Mazkur semantik hosilalarga xos ushbu kognitiv-diskursiv asos ular zamirida yotadigan “kognitiv, pragmatik va diskursiv” uyg‘unlik orqali ko‘zga tashlanadi. Bulardan birinchisi hissiy obraz, tasavvur va nominativ maqsaddan kelib chiqib manbani belgilash imkonini yaratsa, ikkinchisi nominativ maqsadning pragmatik mohiyatini muloqot vaziyati bilan bog‘laydi, uchinchisi esa har ikki asosni o‘zida birlashtiradigan metaforik propozitsiyani shakllantirish orqali namoyon bo‘ladi.

Konseptual metaforaga xos ushbu kognitiv-diskursiv mohiyatni shakllantirishda ikki mental maydonga mansub konseptlarning simulyativ aloqadorligidan kelib chiqadigan “o‘xshash” konseptining atomar predikat maqomida ishtirok etishiga asoslanadi. Masalan, “*To my two sons I am still just the old crow [ABBYY. 2008] / Men o‘g‘llarim nazarida qari qarg‘aman”* jumlasidagi “*old crow*” so‘ziga xos metaforik ma’no nominativ maqsadning vakili bo‘lgan “shaxs” konsepti hissiyotidan kelib chiqadigan “keksalik va sergaplik” belgilarini qiyoslagan holda, “old crow” simulyativ manbasi bilan bog‘lash va “o‘xshash” atomar predikati vositasida “qari qarg‘aga o‘xshash kishi” propozitiv strukturasini shakllantirish va ushbu tuzilmani “old crow” tarzida kompressiv-integratsiyalash asosida hosil qilingan.

## ADABIYOTLAR


1. Аль-Фараби Абу Наср Мухаммед. О разуме и науке. - Алма-Ата: Наука, 1975. - 136 с.
2. Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. - М.: Просвещение. 1990. - С. 98.
3. Арутюнова Н.Д. Функциональные типы языковой метафоры. Статья. Опубликована в сборнике: Известия Академии наук СССР. Серия литературы и языка. — М.: Наука, 1978. — Т. 37. — №4. — С. 333—343.
4. Evans V., Melanie G. Cognitive Linguistics: An Introduction. - Edinburgh University Press, 2006 – 830 p.
5. Гумбольдт В. Язык и философия культуры. М.: Прогресс, 1985. - 452 с.
6. Kovecses Z., Radden G. Metonymy: Developing a cognitive linguistic view; Cognitive Linguistics 9-1. 1998. – 37-77 p.
7. Lakoff, G., Johnson, M. Metaphors we live by. 2-nd edition - The University of Chicago Press, 2003 - P. 247.
8. Лурия А. Р. Язык и сознание./ Под редакцией Е. Д. Хомской. – М: Изд-во Моск. ун-та, 1979 - 320 с.
9. Миртожиев М.М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2010. —Б. 100-103.


## AKSIOLOGIK YONDOSHUV ORQALI BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARINI KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH


**Bekboyev Zafar Zavqiddin o‘g‘li, NavDU**
**Ilmiy rahbar: Mustafayev Shomurod Normo‘minovich, NavDU**



Annotatsiya. Bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini takomillashtirishda modulli o‘qitish texnologiyalarining samarali ekanligi mazkur maqolaning mazmunini tashkil etishadi. Bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchisini o‘qitish uchun modulli yondashuvning dolzarbligi mehnat bozorini tahlil qilish imkoniyatidan foydalanish, ilgari amaliy o‘qitish bilan ta’minlanmagan amaliyotning keskin kasbiy ehtiyojlarini aniqlashdir. Kalit so‘zlar: modulli o‘qitish texnologiya, kompetensiya, musiqa ta’limi o‘qituvchisi, oliy ta’lim. Zamonaviy jamiyatda, oliy ta’lim inson faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bunday e’tiborning sababi zamonaviy jamiyatning eng muhim qiymati va asosiy kapitali yangi bilimlarni qidirish va

o‘zlashtirishga, nostandart qarorlar qabul qilishga qodir mutaxassisni tayyorlash ekanligini tushunishdir. Zamonaviy pedagogik fanning muhim yo‘nalishi o‘qituvchini o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirishni ta’minlaydigan vositalar va sharoitlarni izlashdir. Bu borada Prezidentimiz Sh. Mirziyoevning “Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz” degan fikrlari ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan oliy ta’limning pedagog xodimlari zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Ijtimoiy hayot taraqqiyoti O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi oldiga bir qator o‘ta muhim va dolzarb vazifalarni amalga oshirish masalasini ko‘ndalang qilib qo‘ymoqda. Bulardan ayrimlari sifatida ta’lim sifatini tubdan yaxshilash, fanlar, mavzulararo, ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi aloqadorlik va uzviylik muammolarini hal qilish, ta’limning barcha uchun ochiqligini ta’minlash, dunyoning rivojlangan ilmiyta’limiy muhiti bilan integratsiyalashuv jarayonlarini tezlatish kabilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Bunday muammolarni hal qilish maqsadida o‘quv-tarbiya jarayoniga modulli o‘qitish texnologiyalarini

Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini shakllantirishning asosiy poydevori kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishni ta’minlaydigan qadriyat sifatida bilimlarni o‘zlashtirish jarayoniga ularni faol jalb etishdir. Bundan tashqari atrof-muhitni ma’naviy-nazariy o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik qadriyat sifatida bilish faoliyatining o‘ziga nisbatan faol munosabatni shakllantirish muhim hisoblanadi. Umuman olganda, kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlik jarayonida bo‘lajak o‘qituvchining aksiologik nuqtai nazardan shakllanishi – bu bilish orqali maqsadli, tizimli harakatlanish, bilimlarni ijodiylik bilan uyg‘unlashuvini qadriyatli anglash va baholash, muntazam o‘z-o‘zini rivojlantirish va takomillashtirish qobiliyatini shakllantirish, shakllangan qadriyatli yo‘nalishlar shaxsning bo‘lajak pedagogik faoliyatga qadriyatli munosabatini aniqlab beradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirishga aksiologik yondashuv shaxs qiziqishlari va intilishlariga yo‘nalganlik, individual foyda (pramatiklik) ierarxiyasi, faoliyatning motivatsion dasturini taqdim etadigan talabalarda qadriyatli yo‘nalganlik tizimini shakllantirishga xizmat qilib, uning hayotiy va kasbiy rejalarini amalga oshirishga tayyorlik darajasini aniqlab beradi.

Aksiologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirish funksional-maqsadli (maqsad va funksiyalar), metodologik (yondashuvlar va tamoyillar), mazmunli-jarayonli (pedagogik aksiologiya elektiv kursi va “Pedagogik aksiologiya” ijodiy to‘garak dasturini bosqichma-bosqich amalga oshirish), tashkiliy (ta’lim jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari, metodlari va vositalari), natijaviy (mezonlari, darajalari, faoliyat natijasi) bloklardan iborat pedagogik modelni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, zamonaviy pedagogika ta’limning asosiy maqsadi sifatida olamga qadriyatli munosabatni shakllantirishga yo‘naltirilganlik bilan tavsiflanadi. Qadriyatli munosabat – shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatli aloqalarni ifoda etadigan shaxsning ichki pozitsiyasidir. Bo‘lajak pedagoglarda ijtimoiy voqelikdagi narsa-buyum va hodisalarga aksiologik munosabatni shakllantirish uchun shaxsning u yoki bu qadriyatyalarga yo‘nalganligi sifatida unda qadriyatli munosabatni tarkib toptirish zarur. V.Slastyoninning fikricha, o‘qituvchining qadriyatli munosabatlar tizimi uning shaxsiy va kasbiy o‘z-o‘zini anglash tuzilmasining tarkibiy asoslarilan biri hisoblanadi. Olim o‘qituvchining kasbiy pedagogik madaniyat tuzilmasiga xos quyidagi pedagogik qadriyatlarni aniqlashtirgan: maqsadli (shaxsiy va kasbiy “Men”); vositali (pedagogik muloqot konsepsiyasi, innovatika texnikasi va texnologiyasi va boshqalar), munosabatli (kasbiy-pedagogik faoliyatga munosabat pozitsiyasi), sifat (xulq-atvor sifatlari), bilimga doir (shaxsiy va kasbiy kompetentlik).

O‘quvchi shaxsiga ta’lim-tarbiya beradigan umumta’lim maktablari oldiga qo‘yilgan vazifalarning bajarilishi, avvalo, oliy ta’lim muassasalarida pedagog kadrlarni sifatli tayyorlashga bog‘liq. Mutaxassislarning kompetentlilik darajasi, kasbiy mahorati, pedagogik jarayonlarni to‘g‘ri va maqsadli boshqara olishi o‘quvchi shaxsini tarkib toptirish muvaffaqiyatini belgilab beradi. Bu oliy

pedagogik ta’lim tizimi, umuman ta’lim va kadrlar tayyorlash uchun mas’ul bo‘lgan barcha tashkilotlar oldiga bo‘lajak pedagoglarning barkamol shaxsni tarbiyalash jarayonlarini tashkil qilish va boshqarishga kasbiy tayyorgarligi masalalarini yanada mukammal tadqiq qilishdek dolzarb vazifani qo‘yadi. Bunday maqsadlarga erishish yo‘lida oliy ta’lim tizimi o‘quv-metodik bazasini yanada mustahkamlash, talabalarni har tomonlama intellektual bilim olishlari uchun sharoitlarni yanada yaxshilash, kadrlarning ilmiy salohiyatini, kasbiy kompitentligini oshirish lozim bo‘lmoqda. “Kompetensiya” so‘zi fanda ilk bor XX asrning 50-60-yillarida qo‘llangan va insonning biror faoliyatni amalga oshirish layoqatini bildirgan. “Kompetensiya” bilim, ko‘nikma va malakalarning samarali qo‘llanishi; “kompetentlilik” esa muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun mavjud hamda yuzaga chiqishi mumkin bo‘lgan layoqatdir. Shu bois har bir fanni o‘qitish jarayonida uning mazmuni hamda xususiyatlaridan kelib chiqqan holda unga doir kompetensiyalar shakllantiriladi. Kasbiy kompetentlilik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishidir. Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish muammosining dolzarbligi musiqa o‘quv yurtlarini tugatgan bitiruvchilarning ko‘pincha mustaqil kasbiy faoliyatga layoqatsizligi bilan bog‘liq.

Kamchiliklar orasida musiqiy madaniyat va san’at sohasidagi bilimlarning cheklanganligi, musiqa ta’limi metodologiyasi, mutaxassis tayyorlash va ijrochilik amaliyotining yetarli emasligi alohida ahamiyatga ega. Ko‘pincha yosh mutaxassisning to‘liq ijodiy qobiliyatsizligi mavjud. Shunday qilib, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining ijodiy faoliyatini, o‘zini o‘zi anglashga hissa qo‘shadigan, bitiruvchining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishga ta’sir qiluvchi omillarni ajratib ko‘rsatish kerak. San’at – o‘z mohiyati va ijtimoiy mazmuniga ko‘ra har qanday milliy madaniyatning uzviy qismi sifatida muayyan davlat, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyoti darajasini belgilovchi eng muhim va ustuvor mezonlardan biridir. San’at yo‘nalishidagi ta’lim, u qanday bo‘lishi kerak? So‘nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan ijodkorlarga qaratilayotgan e’tibor va ehtirom soha vakillarining mehnatini rag‘batlantirishi bilan birga har bir ijodkorning ijtimoiy mas’uliyatini ham oshirib, o‘z faoliyatiga yangicha nuqtai nazar bilan qarashga da’vat etdi. Xususan, Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan “Milliy madaniyatni yanada chuqurlashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorda madaniyat va san’at yo‘nalishida malakali kadrlar tayyorlash tizimida ta’limtarbiya va maxsus ijodiy-kasbiy dasturlar o‘rtasida uzviylik va vorislik tamoyillarining yo‘qligi, talabayoshlarni o‘qitishda yakka tartibdagi o‘quv uslubidan samarali foydalanilmayotgani alohida qayd etilgan edi.

Zamonaviy musiqa ta’limi o‘qituvchisi duch keladigan birinchi umumiy muammo tavsiya etilayotgan dasturning o‘zgaruvchanligi va uning cheklanganligi bilan bog‘liq. Pedagogik muammoli vaziyatlar ko‘pincha o‘qituvchi ega bo‘lishi kerak bo‘lgan barcha o‘quv majmuasidan, masalan, ishchi rejalaridan foydalanish kerak bo‘lganda ularni qanday amalga oshirishni tushunmasligidan yuzaga keladi. Bu, ayniqsa, mintaqaviy o‘quv muassasalaridagi va oliy ta’limda yetarlicha kasbiy ko‘nikmmalarga ega bo‘lmagan musiqa o‘qituvchilariga tegishli. Ularning bunday vaziyatga tushishi ishchi rejadagi o‘qitilishi kerak bo‘lgan mavzular, ko‘rsatmalar, qo‘shimcha didaktik materiallarni elektron shaklda taqdim etish uchun texnik vositalar (videoproektor, elektron doska va boshqalar) maktabda bo‘lsa ham ko‘pincha o‘qituvchiga berilmaydi, berilganda ham o‘qituvchi ishlatish layoqatiga ega emasligidan kelib chiqadi. Agar biz tuman hududlari haqida gapiradigan bo‘lsak, bunday vositalarni mustaqil ravishda izlash juda qiyin bo‘lib ko‘rinadi, aksariyat hollarda hech qanday urinish ham bo‘lmaydi. Tavsiya etilgan dasturlarning mualliflari o‘qituvchilar uchun zarur bo‘lgan materiallarni ochiq elektron nusxada nashr ettirmaydilar, kitob do‘konlarida yangi to‘plamlar har doim ham mavjud emas, ammo kutubxonalarda faqat eskirgan nusxalarni topish mumkin ammo, yangi ijod etilgan musiqiy asarlarni har doim ham topa olmasligini aytib o‘tishdi. Ushbu muammo musiqa o‘qituvchilariga taklif etilayotgan kompetensyaviy talablar sababli dolzarb bo‘lib bormoqda.

Yuqorida keltirilganlarning hammasi ta’lim oluvchilarni fikrlash darajasini kengaytirish, yuz beradigan voqea-hodisalarning sababini anglash, izlanishni o‘rgatishga qaratilgan. Modul tizimining mohiyati shundan iboratki, ta’lim oluvchilar ta’limning alohida birlik modullarini izchil holda ketma-ket o‘zlashtiradilar. 1. Modulli o‘qitishdagi dastlabki shart-sharoitlarni tahlil etish. Musiqa fanida modul tizimini qo‘llash eski modul birligi o‘rniga tezda yangisini ishlab chiqish va amalda qo‘llash imkoniyatini beradi. Musiqa fanida modul tizimi asosida ta’lim berishning afzalligi shundaki, e’tibor ko‘proq ta’lim oluvchiga, uning o‘z ustida mustaqil ishlashi, hamda o‘z-o‘zini nazorat qilishiga qaratiladi. Modul tizimi asosida o‘qitishning davomiyligi ta’lim oluvchining tayyorgarligiga va kasbiy malakani qay darajada egallash istagiga bog‘liq. O‘qitishni ta’limning istagan modelidan keyin to‘xtatish mumkin. Musiqa fanini modul texnologiyasi asosida o‘qitishga tayyorgarlik ko‘rish, ya’ni nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish uchun dastlab uch yo‘nalishda ish olib boriladi. Birinchidan, talabalarning tayyorgarlik holati tahlil qilinib, ularning bilimi, o‘quv materiallarini o‘zlashtirish darajasi va qobiliyati aniqlanadi. Chunki ularning ta’lim olishida o‘ziga ishonchi, qobiliyati, shaxsiy holati, va yoshi muayyan darajada ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchi-talabalarning qobiliyatiga ko‘ra tabaqalashtirish asosida ularga fanni mustaqil o‘zlashtirish tavsiya etiladi Ikkinchidan, mavjud shartsharoitlar tahlil etiladi. U o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: huquiy shart-sharoitlar; Bunda ta’lim jarayoniga taaluquli o‘quv rejasi va dasturlar o‘rganiladi. O‘quv jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq shart-sharoitlar; Bunda modul tarkibiga kirgan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar tashkil qilinadigan joy va boshqa sharoitlar o‘rganiladi. Texnikaviy shart-sharoitlar; Bunda texnik jihoz va moslamalar, o‘quv va yordamchi audiovizual vositalarining mavjudligi, holati o‘rganiladi.

**Foyfalanilgan adabiyotlar**

1. Умарова, А. И., Мискинова, С. З., Кимсанов, О. (2022). Таълим технологиялардан фойдаланишнинг ўзига хос хусусиятлари ва аҳамияти. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar, 2(9), 207-210.

2. Кодирова, Ф. У. (2021). Педагогический инновационный кластер в инклюзивном образовании. Academic research in educational sciences,

3. Кодирова, Ф. У. (2020). Значение методического кластера в практики высшего и общеобразовательного образования. Актуальные научные исследования, 1(1),

## TALABALARNING O‘Z-O‘ZINI IDORA QILISHI – PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

**Xidirova Maftuna-**
Samarqand Davlat Universiteti
Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti Psixologiya yo‘nalishi talabasi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zini o‘zi idora qilish ijtimoiy-psixologik fenomenini, refleksiv mexanizm, o‘zini o‘zi idora qilish motivatsiyasi shakllanishi, o‘zini o‘zi boshqarish va takomillashtirish, o‘zini o‘zi qo‘lga olish, o‘zini o‘zi tarbiyalashning ijtimoiy psixologik xususiyatlari xususidagi nazariy hamda amaliy masalalari yoritilgan.

**Tayanch so‘zlar:** o‘zini o‘zi idora qilish, refleksiv mexanizm, motivatsiyasi, reflektor, ruhiy holatlar, ruhiy jarayonlar, xulq-atvor, transformatsiya, ijtimoiy munosabatlar.

**Kirish.**

Hozirgi vaqtda rivojlanib borayotgan ijtimoiy- iqtisodiy sharoitlar, hayotning yuqori sur’at bilan o‘sib borishi, shaharlarda aholi sonining ko‘payishi, shaxsga ta’sir etayotgan turli informatsiyalar hissiy zo‘riqishlarning oshishiga olib keladi, bu insonda tashvish-xavotir va salbiy ruhiy holatlarining

ortishi bilan birga keladi, bu esa inson harakatlarini boshqarish, ularning rivojlanishini idora qilish, tashqi ta’sir, ichki holat va xulq-atvor shakllari o‘rtasida muvozanatni o‘rnatishda o‘z aksini topadi. Bu jarayon, ayniqsa, talaba- yoshlarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, qo‘zg‘aluvchanlik, impulsivlik, o‘z xatti-harakatlarini idora qilaolmaslik bilan ajralib turadigan va tajovuzkor harakatlarni sodir etadigan talaba-yoshlar uchun taaluqlidir. Demak, talaba- yoshlardagi psixik holatlarni idora qilish va shakllantirish uchun tashkiliy maqsadli psixologik - pedagogik faoliyatga extiyoj bor, chunki insonning o‘z holatini nazorat qilaolishi, turli vaziyatlarda o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati shaxsiy yetuklikning muhim ko‘rsatkichi bo‘lib, u asosan hayot jarayonidagi muvaffaqiyatni belgilaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).**

Talaba-yoshlarning psixik holatlarini o‘zini o‘zi idora qilishni shakllantirishni amalga oshirish uchun avvalo "shakllanish" tushunchasini ochib berish kerak. Psixologiyada "shakllanish"ni, odatda, uning tarkibida muayyan ijtimoiy-psixologik fazilatlar va xulq-atvor shakllari tizimini yaratish maqsadida, o‘z vaqtida joylashtirilgan insonga ijtimoiy ta’sir etish texnikasi va usullaridan foydalanish deb tushuniladi [1].

Shuni ta’kidlash kerakki, har qanday mexanizmning harakati uning mohiyatini va asosiy xususiyatlarini ifodalovchi u yoki bu prinsipga asoslanadi. Ong va faoliyat birligi prinsipiga asoslanib, faoliyatni idora qilish bir qator mexanizmlarini aniqlagan. Psixologik adabiyotlarni tahlil qilish asosida biz psixologik mexanizmning quyidagi ta’rifini asos qilib olamiz: psixologik mexanizmning bu faoliyatni o‘zgartirish va shakllantirishga mo‘ljallangan usullar to‘plami, natijasidir.

**Tahlil va natijalar.**

Shunday qilib, psixik holatni o‘zini o‘zi idora qilishning fiziologik mexanizmi deganda, biz psixik holatlarni o‘zgartirish bilan bog‘liq kelajakdagi faoliyat uchun organizmni va uning barcha tizimlarini (nafas olish, yurak-qon tomir, mushak, endokrin va boshqalarni) sozlashni ta’minlaydigan tayyorlik mexanizmini tushunamiz.

Demak, talaba-yoshlarning psixik holatlarini o‘zini o‘zi idora qilish tuzilishining fiziologik darajasi, shu jumladan neyrofiziologik xususiyatlar, morfologik va biokimyoviy o‘zgarishlar, fiziologik funksiyalarning siljishi, o‘smir tanasining hayotning o‘ziga xos sharoitlarini har tomonlama tahlil qilish asosida keyingi harakatlar va xatti-harakatlarni yetarlicha bashorat qilish ichki qobiliyati shaklida ifodalanishi mumkin.

Talaba-yoshlarning psixik holatlarini o‘zini o‘zi idora qilish biologik shartli fiziologik mexanizmi o‘zini o‘zi boshqarishning yuqori, ijtimoiy shartli, ongli shakllari tizimiga "qo‘shilib", xulq-atvor motivlariga ta’sir o‘tkazish qobiliyatini rivojlantirish, jismoniy kuchaytirishga qaratilgan tadbirlar va aqliy salomatlik, bilim jarayonlarini tuzatish va rivojlantirishdan iboratdir.

Relaksatsiya (lot. relaxatio — kuchsizlanish) — termodinamik muvozanat holatidan chiqarilgan makroskopik tizimning o‘z-o‘zidan avvalgi holatiga qaytish jarayoni. Tizimning muvozanat holatiga ovtish jarayoni ma’lum tezlikda sodir bo‘lib, bu tezlik faqat termodinamik parametrlar (bosim, tembr va b.) gagi na emas, tizimning mikroskopik xarakteristikalariga, xususan, tizimni tashkil etuvchi zarralarning o‘zaro ta’sirlashishlariga ham bog‘liqdir. O‘zaro ta’sirlashish ko‘p jihatdan zarralarning erkin yugurish yo‘li va erkin yugurish vaqtiga bog‘liq. Hamma Relaksatsiya jarayonlari muvozanatsiz jarayonlardan iborat bo‘lib, entropiyaning ortib borishi kuzatiladi va kinetika bu jarayonlarni to‘la o‘rganadi.

Ixtiyoriy mexanizmning samaradorligi xulq-atvor reaksiyalarining kuchli va kuchsiz stimullarga yetarliligi, faoliyatning sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlari va ish qobiliyatini optimallashtirish, shaxsning faoliyatga va boshqalarga ijobiy munosabatida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, irodaviy mexanizm tufayli talaba- yoshlarda g‘azab, bezovtalik, xijolat, norozilik, qayg‘u, umidsizlik, u yoki bu faoliyatni to‘g‘ri amalga oshirish qobiliyatidagi noaniqlik va hokazo holatlarini yengib o‘tish mumkin. SHunday qilib, adabiyotlarning nazariy tahliliga asoslanib, talaba-yoshlarning psixik holatini o‘zini o‘zi idora qilishning asosiy mexanizmlari relaksiya mexanizmi, fiziologik mexanizm (bu

mexanizmlar tashxis qo‘yish murakkabligi sababli eksperimental ravishda o‘rganilmaydi), motivatsion, irodali va refleksiv mexanizmlarga bo‘linadi.

**Xulosa va takliflar**

Talaba-yoshlarning psixik holatini o‘zini o‘zi idora qilishning psixologik mexanizmlari to‘g‘risida barcha yuqorida aytib o‘tilganlarni umumlashtirib, ikkinchi bobda quyidagi xulosalarni shakllantirishimiz mumkin:

Talaba-yoshlarning psixik holatlarini o‘zini o‘zi idora qilish - bu ruhiy holatlarni ongli ravishda o‘zini o‘zi idora qilish tizimining shakllanmaganligi, egiluvchanlikka qodir emasligi bilan namoyon bo‘ladigan, psixik holatlarini ataylab o‘zgartirish, maqsadida o‘zini ongli ravishda ta’sir qilish jarayoni hisoblanadi.

Talaba-yoshlarning psixik holatlarini o‘zini o‘zi idora qilishni tashkil etish to‘rtta asosiy psixologik mexanizmlar darajasida amalga oshiriladi: fiziologik, psixofiziologik, psixologik, ijtimoiy-psixologik, bu psixik hodisalar, ruhiy holatlarning o‘zini o‘zi idora qilish va o‘zgarishini ta’minlaydigan funksional usullardir. Talaba-yoshlarda psixik holatlarning o‘zini o‘zi idora qilishini shakllantirishning asosiy mexanizmlari fiziologik, relaksatsiya, refleksiv, motivatsion, iroda mexanizmlaridir. Ushbu mexanizmlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ular birlashtirilganda samaradorligi oshadi. Biz aniqlagan barcha mexanizmlar bilan bog‘liq bo‘lgan refleksiv mexanizm o‘zini o‘zi idora qilishning asosiy, umumlashtirilgan mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi.

Talaba-yoshlarning psixik holatlarini o‘zini o‘zi idora qilish konsepsiyasiga asoslanib, o‘zini o‘zi idora qilishning har bir darajasida o‘ziga xos asosiy mexanizm funksiyalari mavjud. Fiziologik darajada bu psixik holatni o‘zgartirish bilan bog‘liq kelajakdagi faoliyat uchun tanani va uning barcha tizimlarini (nafas olish, yurak-qon tomir, mushak, endokrin va boshqalarni) sozlashni ta’minlashga qaratilgan mexanizmdir. Psixofiziologik darajada - relaksatsiya mexanizmi, bu holatni o‘zgartirishga qaratilgan neyro-emotsional stressning pasayishi bilan birga, mushaklarning ixtiyoriy bo‘shashishi jarayonida psixik holatni optimallashtirish jarayoni hisoblanadi. Ijtimoiy-psixologik darajada irodaviy mexanizm asosiy mexanizm vazifasini bajaradi (psixik holatlarni idora qilish va o‘zgartirishga qaratilgan harakatlarning qo‘shimcha ma’nosini o‘zgartirish va yaratish sifatida). Barcha hosilalar mexanizmlari bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy refleksiv mexanizm (talaba-yoshlarning aqliy harakatlari va holatlarini o‘z-o‘zini bilishi, ularni qayta ko‘rib chiqish va idora qilish, shuningdek, ushbu holatlarni o‘zgartirishga qaratilgan aqliy hodisalar majmui sifatida qaraladi.

**Adabiyotlar:**

1. Денисовская, Т.М. К проблеме развития личности [Текст] / Т.М.
2. Денисовская И Психологический журнал. -1981.- Т. 2. - № 6. - С. 37 -43.
3. Ожегов, С.И. Словарь русского языка [Текст] / С.И. Ожегов. - М.: Издво «Русский язык», 1987. - 944 с.

## TALABALARNI MA’NAVIY RUHDA TARBIYALASHDA INNOVATSIYALAR VA AN’ANALAR INTEGRATSIYASINING AHAMIYATI

**Usmonova Dilafruz Umirzoqovna-**
Navoiy davlat universiteti Tarix fakulteti
“Psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Bugungi kunda pedagogik innovatsiya, integratsiya, texnologiya haqidagi bilimlar talabalar uchun nihoyatda muhim hisoblanadi. Chunki, pedagogika yo‘nalishidagi har bir talaba oliy o‘quv yurtini bitirgach faoliyatini o‘qituvchi sifatida davom ettiradi, shu bois dars jarayonlarida innovatsion texnologiyalar va metodlardan foydalanish muhim hisoblanadi

Globallashuv davrida ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — zamonaviy texnologiyalarni samarali qo‘llagan holda, milliy qadriyatlarimizni asrash va yoshlarga sog‘lom ma’naviy-axloqiy dunyoqarashni singdirishdan iborat. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida talabalarni nafaqat bilimli, balki komil inson sifatida voyaga yetkazish uchun innovatsiyalar va an’anaviy tarbiya usullarining uyg‘unligini ta’minlash dolzarb masaladir.

An’anaviy qadriyatlar – mustahkam ma’naviy asos O‘zbek xalqining boy tarixiy-madaniy merosi, odob-axloq me’yorlari, oilaviy tarbiya tamoyillari va milliy urf-odatlari yosh avlodni ma’naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. An’anaviy tarbiya vositalari orqali yoshlar hayotning asl ma’nosi, insoniylik, vatanparvarlik, halollik va mehnatsevarlik kabi yuksak fazilatlarni o‘zlashtiradi. Innovatsiyalar – ta’lim samaradorligini oshirish vositasi Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv metodlar, raqamli resurslar, virtual treninglar va multimedia vositalari yoshlarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, bilimni chuqurroq egallash va dunyoqarashini kengaytirishda katta rol o‘ynaydi. Ayniqsa, ta’lim jarayonida innovatsion metodlarni qo‘llash orqali talabalarga mustaqil fikrlash, muammolarni tahlil qilish, jamoada ishlash va yetakchilik ko‘nikmalari shakllantiriladi.Integratsiya – zamon va qadriyatlar uyg‘unligi Talabalarni ma’naviy ruhda tarbiyalashda an’anaviy va innovatsion yondashuvlar bir-birini to‘ldirishi zarur. Masalan, milliy bayramlar, tarixiy shaxslar hayoti, xalq og‘zaki ijodi namunalarini interaktiv darslar, virtual ekskursiyalar, multimedia taqdimotlari orqali o‘rgatish samaradorlikni oshiradi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalarda ma’naviy-tarbiyaviy kontentlar tayyorlash ham talabalarning e’tiborini jalb etadi.

Xulosa talabalarni komil inson sifatida tarbiyalashda an’anaviy qadriyatlarni zamonaviy vositalar bilan uyg‘unlashtirish, ularni bir maqsad sari yo‘naltirish — ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bu boradagi sa’y-harakatlar yoshlar ongida milliy g‘urur, mas’uliyat, vatanparvarlik va ma’naviy yetuklikni shakllantiradi. Innovatsiya va an’analar uyg‘unligi esa barkamol avlod tarbiyasining kafolatidir.

## MAKTABGACHA TAL’IM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR: TARIX, BUGUN, ISTIQBOL (Samarqand viloyati misolida)

**Pulatov Erkin Begmuratovich-**
Mustaqil tadqiqotchi

**Annotatsiya:** Uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g’ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta’lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog’ini kengaytirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha sezilarli islohotlar amalga oshirilmoqda.

**Kalit so‘zlar:** uzluksiz ta’lim, strategiya, ijtimoiy soha, yuksak salohiyat, konstitutsiya, yuksak intellekt.

## REFORMS IN THE PRE-SCHOOL EDUCATION SYSTEM: HISTORY, PRESENTATION, FUTURE (on the example of Samarkand region)

**Abstract:** Significant reforms are being carried out to further improve the preschool education system, which is an important link of the continuous education system, to create an effective state management system, to expand the state and non-state network of preschool educational institutions, and to strengthen the material and technical base.

**Key words:** continuous education, strategy, social sphere, high potential, constitution, high intelligence.

# РЕФОРМЫ В СИСТЕМЕ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ИСТОРИЯ, ПРЕДСТАВЛЕНИЕ, БУДУЩЕЕ (на примере Самаркандской области)

**Аннотация:** Существенные реформы проводятся в целях дальнейшего совершенствования системы дошкольного образования, которая является важным звеном системы непрерывного образования, создания эффективной системы государственного управления, расширения государственной и негосударственной сети дошкольных образовательных учреждений, укрепить материально-техническую базу.

**Ключевые слова:** непрерывное образование, стратегия, социальная сфера, высокий потенциал, конституция, высокий интеллект.

Har bir mamlakatning ertangi taraqqiyoti o‘sha yurtda kamol topayotgan yoshlarning bilimi va ularga yaratilayotgan imkoniyatlar bilan bevosita bog’liq. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta’lim tizimini rivojlantirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan va bu sohani tubdan isloh qilish bo‘yicha Samarqand viloyatida bir qator tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta’lim sohasi uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo‘g’ini hisoblanib, u har tomonlama sog’lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalashda g’oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g’ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta’lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog’ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, maktabgacha ta’lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta’lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadida Samarqand viloyatida maktabgacha ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha tizimli mexanizmlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda.

Mamlakatimizda 2023 yil 30 aprelь kuni o‘tkazilgan referendumda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinib, u Yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir qator moddalarida bolalar huquqlarining kafolatlari qat’iy belgilab qo‘yilgan. Xususan, konstitutsiyamizning X bob, 44 moddasiga asosan: “Bolalar mehnatining bolaning sog’lig’iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan ta’lim olishga to‘sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlandi”. Bosh qomusimizning 50 moddasida “Davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlaydi”. “Davlat maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi”. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta’lim davlat nazoratidadir”, deya qayd etilgan 78 moddada esa bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyati ekanligi alohida ko‘rsatilgan. Bu esa bolalarni huquqiy himoya qilish uchun mamlakatimizda mustahkam qonuniy asos yaratilganligidan dalolat beradi[1. https://www.lex.uz/uz/docs/-6445145].

Bugun mamlakatimizda, xususan Samarqand viloyatida “Yangi O‘zbekiston – yangi Renessans sari” shiori ostida ta’lim sohasida ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim to‘g’risidagi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi, Maktabgacha ta’lim tizimida 6-7 yoshli bolalar uchun standart joriy etildi, umumiy o‘rta ta’lim 11 yil etib belgilandi, o‘rta maxsus ta’lim uch yildan ikki yilga tushirildi, ikki yillik kasb-hunar maktablari tashkil etildi. Oliy ta’lim tizimida sirtqi, kechki, masofaviy ta’lim shakllari, kredit modul tizimi joriy etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884-son qarori ilovasining 4-bandida “Maktabgacha, umumiy o‘rta, professional va

oliy ta’lim o‘quv dasturlarining uzviyligini ta’minlash” topshirig’i belgilangan [2.https://www.lex.uz/uz/docs/5085887]. Unga ko‘ra Ta’lim inspektsiyasi hamda mas’ul vazirliklari tomonidan fan dasturlarining mazmun mohiyati, mavzularning mantiqiy ketma-ketligi va uzviyligini ta’minlash hamda ta’lim oluvchilarda shakllanishi zarur bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va kompetentliklar darajasini belgilash vazifalari muhim o‘rin tutmoqda. O‘zbekistonda so‘nggi yillar davomida “Harakatlar strategiyasi” va uning mantiqiy davomi sanalmish “Taraqqiyot strategiyasi” doirasida, rivojlangan davlatlar kabi uzluksiz ta’lim tizimini muntazam takomillashtirib borish, sifatli ta’lim-tarbiya berish, malakali kadrlarni tayyorlash bo‘yicha sezilarli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu islohotlar natijasida maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni 2016 yilda 5211 ta bo‘lsa, 2024 yilga kelib 33 942 taga oshirildi. Bugungi kunda ularning 6 780 tasi davlat bog’chalari, 27 162 tasi esa nodavlat tashkilot hisoblanadi. Ta’lim sohasidagi islohotlar natijasida maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasi 27,7 foizdan 67 foizga yetkazildi.

Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyani amalga oshirishni ko‘zlovchi “Yo‘l xaritasi”da 2019-2024 va 2025-2030 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadli va istiqbolli reja va ko‘rsatkichlari belgilab berilgan. Bunda asosan, 2030 yilgacha maktabgacha ta’lim bilan qamrab olingan bolalar miqdorini 38,1 foizdan 80,8 foizga yetkazish vazifasi qo‘yilgan.Sohada islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida 2026 yilga qadar Taraqqiyot strategiyasi doirasida maktabgacha ta’limda qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan 80 foizga yetkazish, 7 mingdan ziyod yangi nodavlat MTTlarni tashkil etish rejalashtirlgan.

2024 yilning 2 iyulida PF-98 sonli “Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi Prezident Farmoni qabul qilindi[3. https://www.lex.uz/uz/docs/6994138]. Mazkur Farmonga ko‘ra, Maktabgacha ta’lim agentligi faoliyati tugatildi hamda Agentlikning tashkiliy tuzilmasidagi tashkilotlar Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tasarrufiga o‘tkazildi. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi zimmasiga quyidagi qo‘shimcha funktsiyalar yuklatildi, jumladan:

-ilg’or xorijiy tajribani hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

-maktabgacha ta’lim va tarbiya jarayoniga zamonaviy innovasion pedagogik texnologiyalarni, ta’lim va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini joriy etish;

-maktabgacha ta’limning o‘quv reja, dastur va o‘quv-metodik majmualarini takomillashtirish, ularning umumiy o‘rta ta’lim dasturlari bilan uzviyligini ta’minlash;

-davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari orasida sog’lom raqobat muhitini yaratish hisobiga barcha bolalarning maktabgacha ta’lim bilan bosqichma-bosqich qamrab olinishini ta’minlash bo‘yicha muhim vazifalar belgilab qo‘yildi.

2024 yilning 30 sentyabrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-152 sonli “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida”gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonga ko‘ra:

2025 yil 1 yanvardan:

maktabgacha ta’lim tashkilotining direktori o‘rinbosari lavozimi joriy etiladi;

respublikaning barcha tuman (shahar)larida kamida bittadan tayanch maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyati yo‘lga qo‘yiladi;

barcha maktabgacha ta’lim tashkilotlarida malaka oshirishning “Metodik mahorat soati”, tayanch maktabgacha ta’lim tashkilotlarida esa “Metodik mahorat kuni” kabi shakllari bosqichma-bosqich joriy etiladi;

trener sifatida faoliyat yuritayotgan direktor o‘rinbosarlariga lavozim maoshining 20 foizi miqdorida qo‘shimcha har oylik ustama haq to‘lanadi.

2025-yil 1-martdan tajriba-sinov tariqasida respublikaning uzoq va chekka hududlarida joylashgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun mobil malaka oshirish xizmatlari joriy etiladi. Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri jamg’armasi hisobidan maktabgacha ta’lim

tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini ham rag’batlantirishga ruxsat etiladi. 2025 yil 1 yanvardan tajriba-sinov tariqasida har bir tuman (shahar)dagi bittadan umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim guruhlari ochiladi.

Farmonga muvofiq, 2025/2026 o‘quv yilidan:

davlat oliy ta’lim tashkilotlarida maktabgacha ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha dual ta’lim shakli joriy etiladi;

maktabgacha ta’lim yo‘nalishining sirtqi va kechki ta’lim shakllari bo‘yicha har yili kamida 200 ta maqsadli qabul kvotalari ajratiladi.

2018−2022 yillarda davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat bog’chalarni tashkil etish uchun ajratilgan imtiyozli kreditlarni qaytarish muddati 5 yilga uzaytiriladi.

2024-yil 1 oktyabrdan jismoniy shaxs bir paytning o‘zida bir nechta oilaviy nodavlat bog’chada mehnat faoliyatini yuritayotgan bo‘lsa, ijtimoiy soliq summasi uning bitta (asosiy) ish joyi bo‘yicha to‘lanadi. 2025 yil 1 sentyabrdan davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat bog’chalarni tashkil etish to‘g’risidagi bitimlar Maktabgacha ta’limni boshqarish axborot tizimida elektron shaklda tuziladi. 2025 yil 1 yanvardan qamrov darajasi past bo‘lgan davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining bo‘sh turgan yer uchastkalarida davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat bog’chalar faoliyatini yo‘lga qo‘yishga ruxsat etiladi. Taraqqiyot strategiyasi loyihasiga ko‘ra, kelgusi 5 yilda maktabgacha ta’limdagi qamrov darajasini 62 foizdan 80 foizga yetkazish rejalashtirilgandi. 2026 yilga kelib esa 6 yoshli bolalarni 100 foiz maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish kutilmoqda. Buning uchun esa 7 mingdan ortiq nodavlat muassasalarni qurish, 160 mingdan ko‘proq kadrlar malakasini oshirish maqsad qilingan.

Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo‘lsak, Samarqand viloyatida ta’lim sohasidagi islohotlar ham bugungi kunda o‘zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko‘lamda davom ettirish davr talabidir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://www.lex.uz/uz/docs/-6445145
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida” gi Qarori. https://www.lex.uz/uz/docs/5085887
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi Farmoni. https://www.lex.uz/uz/docs/6994138

## O‘ZGA TILLI SINFLARDA GAPIRISH KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHGA DOIR TAVSIYALAR

**Tangatarova Sohibjamol Abdullayevna,**
Toshkent amaliy fanlar universiteti tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** maqolada ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda davlat tili o‘qitish metodikasini takomillashtirish masalasi muhokama qilingan bo‘lib, unda asosan, mamlakatimiz va jahon olimlarining til o‘qitishga doir o‘ziga xos yondashuvlari muhokamaga tortilgan, munosabat bildirilgan. Shu bilan bir qatorda o‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuvning afzalliklari ta’kidlab o‘tilgan, davlat tili ta’limida grammatizmdan chekinib, o‘quvchilarda nutqiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish haqida xulosaviy fikr-mulohazalar o‘rtaga tashlangan.

***Kalit so‘zlar:*** *davlat tili, til o‘qitish, ikkinchi til ta’limi, grammatizm, nutqiy kompetensiya, nutqiy ko‘nikma va malakalar, qiyoslab o‘qitish metodi*

Ma’lumki, har bir tilning davlat miqyosidagi maqomi uning mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘rni, jug‘rofiy-siyosiy holati kabi qator omillardan kelib chiqadi. Jumladan, O‘zbekistonda umumiy o‘rta ta’lim 7 tilda olib borilishi, bular orasida qozoq, qirg‘iz, turkman, qoraqalpoq tillari bir oilaga mansub qardosh tillar ekanligi e'tiborga olinsa, ularga nisbatan o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish atamasini qo‘llash nojoizligi ko‘rinadi.

Professor X.Muxitdinovaning ta’kidlashicha, ayni paytda, ta’lim rus tilida olib boriladigan sinflarda turli Millatlar vakillari, hatto o‘zbeklar ham ta’lim olayotgani va, eng asosiysi, ushbu turli millat vakillarining O‘zbekistonda tug‘ilib, respublikamizda muqim yashayotganligi ham nazarda tutilsa, o‘zbek tilini ikkinchi til yoki xorijiy til sifatida emas, aynan davlat tili sifatida o‘qitish maqsadga muvofiqligi yaqqol ko‘rinadi[3, 45].

Grammatik bilimlarni o‘ziga xos izchillik bilan berib borilishi borasida A.Kitaygorodskayaning quyidagi fikrlariga qo‘shilish mumkin: "Ayrim grammatik hodisalar darsdan darsga markazlashgan holda kengaytirib va tizimlashtirib berib borilishi kerak. Bu grammatik hodisalarning mohiyatidan kelib chiqadi. Masalan, fe'lning muayyan zamon shakli bir darsda berilsa, keyingi darsda ular umumlashtiriladi, undan keyin esa boshqa zamon shakllari bilan qiyoslab tushuntiriladi. Ayrim grammatik ma'lumotlarni esa, masalan, sifat va ravishlarning daraja ma'nolarini bir darsda bir yo‘la tushuntirish mumkin, biroq ularning to‘liq o‘zlashtirilishi davomiylikni talab etadi. Grammatikaning bu tarzda taqsimlanishi o‘quvchilarga ayrim til hodisalarini o‘zaro osonlik bilan bog‘lab borish va tilni butun bir tizim shaklida tushunish imkoniyatini beradi" [6, 10].

Ikkinchi tilni o‘rgatishda grammatik ma'lumotlar o‘zaro aloqadorligi saqlangan va til o‘rganuvchilarning ona tilidagi bilimlariga tayangan holda tushuntirilsa hamda tarjima mashqlari bilan mustahkamlab borilsa, o‘quvchining o‘z xatosini tushunishi osonlashadi. Shu bois rusiyzabon o‘quvchi-talabalarga o‘zbek tilini o‘qitishda grammatik shakllarni ularning ona tiliga qiyoslab o‘rgatish, o‘xshash va noo‘xshash grammatik shakllarni ajratish, tafovutli hodisalarning mohiyat-mazmunini yaxshilab tushuntirib borish va ularni nutqda to‘g‘ri qo‘llash malakalarini hosil qildirib borish o‘ta muhim. J.Jalolovning ta'kidlashicha, grammatik malakalarni hosil qildirishga qaratilgan mashqlarni tuzishda reproduktiv ko‘nikmalarni rivojlantirish va ona tilining salbiy ta'sirini bartaraf etish "ona tili tufayli sodir bo‘ladigan grammatik amallar va fikrlash operasiyalarini almashtirish, o‘zgartirish sistemalari va tanlash usullarini ishlatish orqali erishiladi"[2, 45]

Umumiy o‘rta ta’lim bosqichining ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablari uchun o‘zbek tili fanidan tuzilgan o‘quv dasturlarida har bir mavzu bo‘yicha o‘quv materialining quyidagi tartibda berilishi qayd qilib o‘tilgan:

- nutqiy mavzular;
- nutqiy qurilmalar yoki modellar;
- grammatik, fonetik, so‘z yasash va imloviy vositalar;
- adabiy o‘qish materiallari (quyi sinflarda muomala odobi) [8, 264].

R. Yo‘ldoshev ta'kidlashicha, aksariyat rusiyzabon o‘quvchilar O‘zbekcha jumlalar tuzish jarayonida nutq jarayonining boshidanoq so‘zlarni sintagmalarga birlashtirmaydilar, balki dastlab har bir so‘z shaklini alohida-alohida shakllantirib "gapira boshlaydilar". Keyinroq gap tuzish malakasining shakllanishiga qarab, ma'noli qismlarga amal qilib so‘zlashga o‘tib boriladi" [1, 46-47].

A.A.Reformatskiy qiyoslash metodining amaliy ahamiyati haqida yozar ekan, Chex tilshunosi Z.Oliveriusning quyidagi fikrlariga qo‘shilishini bildirgan edi: "Xorijiy tilga o‘rgatish hamisha ona tili bilan o‘rganilayotgan til o‘rtasidagi o‘xshash, bir-biriga yaqin unsurlarni tushuntirishdan boshlanadi" (7, 40-52). Ularning ta'kidicha, qiyoslashdan asosiy maqsad ona tilining ijobiy ta'siridan foydalanish va uning salbiy ta'siri natijasida yuzaga keladigan interferentsiya miqdorini iloji boricha kamaytirish

bo‘lib, buni tillararo sistemaviy nomutanosibliklarni maqsadli ravishda o‘rganish vositasidagina yo‘qotish mumkin.

Shu o‘rinda, G‘. Hamroyevning ona tili mashg‘ulotlarida qiyoslash metodining afzalliklari haqidagi mulohazalari ham e'tiborga loyiq. Shuningdek, tillararo urg‘u masalasini ham qiyoslash usulida o‘qitishni taklif qiladi[4, 103].

X.Muxitdinovaning ta'kidlashicha, rusiyzabon o‘quvchilarning o‘zbek tiliga xos hodisalarni o‘z ona tillariga qiyoslab borishi tabiiy holat bo‘lib, mazkur tillardagi o‘xshash va noo‘xshash hodisalarni aniqlash ularga o‘zbek tili vositalarini nutqda to‘g‘ri va tushunib qo‘llashga yordam beradi. Shu bois o‘qituvchi dars jarayonida o‘rni bilan o‘zbek va rus tillarini qiyoslab borishi va har ikki tildagi mutanosib va nomutanosib til vositalarini imkon qadar kengroq tushuntirib borishi kerak bo‘ladi. Biroq bunda imkon qadar rus tilida tushuntirishdan qochish kerak, chunki o‘zbek tili darslarining rus tilida o‘tilishi o‘zbek tilini egallashga intilishni kamaytiradi[3, 102].

Olim to‘g‘ri ta’kidlagan, chunki davlat tilini yoki ikkinchi tilni o‘quvchi asosan, darsda mashg‘ulot davomida o‘rganadi. Asosiy talaffuz malakalarini o‘qituvchidan o‘zlashtiradi.

Bugungi kunga qadar respublika miqyosida o‘zbek tili davlat tili sifatida o‘qitilib kelar ekan, sinfning aksariyat bitiruvchi o‘quvchisi o‘z fikrimi og‘zaki va yozma bayon qilib bera olmaydi. Chunki o‘quvchlar mashg‘ulotlar davomida mashq qilmagan. “O‘zbek tili” darsliklarida ham fonetik mashqlar yetarli emas.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda davlat tili o‘qitish metodikasini takomillashtirish masalasi dolzarb bo‘lib, davlat tili ta’limini rivojlantirish uchun mamlakatimiz va jahon olimlarining til o‘qitishga doir o‘ziga xos yondashuvlarini muvofiqlashtirish lozim. Shu bilan bir qatorda o‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuvning afzalliklarini ko‘rsatib, amaliyotda isbotlab berish zarur. Davlat tili ta’limida ham ona tili o‘qitishda bo‘lgani kabi grammatizmdan chekinib, o‘quvchilarda nutqiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish yo‘lidan borish maqsadga muvofiq.

O‘zga tilli sinflarda o‘zbek tili o‘qitishda matn ustida ishlash, o‘zbek milliy qadriyatlari va urf-odatlari, madaniyati bilan yaqindan tanishtiruvchi maxsus matnlardan, o‘lkashunoslik materiallaridan unumli foydalanish zarur. Albatta, mashg‘ulotlarda milliy rasm, musiqa, adabiyotning eng sara namunalaridan foydalanib o‘quvchilarni qiziqtirib qo‘yish, dars samaradorligini oshiradi. Sayohat darslari, tabiat yoki tarixiy obidalar haqida, muzey va boshqa osori atiqalar haqidagi mazmunli matnlarni tanlash va o‘quvchilarga taqdim etish, eshitganlari va ko‘rganlari haqida qisqa jumlalarda yozib berish, gapirib berish mashqlarini jamoaviay va yakka tartibda ishkil etish yaxshi samara beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Йўлдошев Р. Гап тузиш жараён сифатида // Тил ва адабиёт таълимида янги педагогик технологиялар. II қисм. –Тошкент, 2006. –Б. 46–47.

2. Жалолов Ж. Лингводидактик адаптация хусусида // Замонавий тилшунослик ва хорижий тилларга ўргатиш методлари. – Самарқанд, 1999. –Б. 43-47.

3. Мухитдинова Х. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш Пед. фан. док. … дис. – Тошкент, 2011. –347 б

4. Hamroyev G‘., Umumiy o‘rta ta’lim tizimida fonetikaga doir o‘quv materiallarining metodik ta’minotini takomillashtirish, Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati, Samarqand–2019. –B. 11.

5. Hamroyev G‘. The role of the question in the Methodology of teaching the native language as an aducational task.T.: Edaucation and annovative reaserch 2020-y, NO-1. B. 1-4

6. Китайгородская Г.А. Методика интенсивного краткосрочного обучения иностраннымязыкам. – Москва: Высшая школа, 1986. –С. 101.

7. Реформатский А. А. О сопоставительном методе. –Москва, 1987. – С. 40–52.

8. Усмонова М. Машқлар тўплами (ўқишлар рус тилида олиб бориладиган мактабларнинг 4–9-синфлари учун). – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. –80 б.

## TALABALARDA TAJOVUZKORLIK HISSI SHAKLLANISHINING YOSH DINAMIKASI

**R.Begmatov -**
Navoiy DPI Psixologiya kafedrasi dotsenti v.b., p.f.f.d (PhD)

Tajovuzkorlik hissini nazariy amaliy jihatlarini tahlil qilishdan shu narsa ma’lum bo’ladiki, bugungi kunda talaba yoshlar orasida keng tarqalgan tajovuzkor xatti-harakatlarning aksariyatini, o’quv faoliyatining samaradorligiga ta’sir etuvchi salbiy omillardan biri deb qarash odatga aylanmoqda. Misol uchun, T.M.Urutinaning fikricha, oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining 90 foizi vaqti-vaqti bilan talabalar tajovuzkorligining namoyon bo‘lishiga duch kelishadi, ammo ko‘pchilik o‘qituvchilar bunday talabalar bilan muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Talabala yoshlar orasida tajovuzkorlik hissining shakllanishini oldini olish va ularni bartaraf etuvchi psixologik tuzatish usullari o’z mazmunida, yoshlarga xos bo‘lgan tajovuzkorlikning sabablarini keng qamrovli o‘rganishni nazarda tutadi. S.V.Mixeykinaning aniqlashicha, mazku murakkab xulq turining sabablarini tahlil qilishga o‘tishdan oldin, avvalambor, tajovuzkorlik hissi va tajovuzkor xulq-atvorga ta’rif berish va ikkinchidan, talabalik davridagi tajovuzkor xatti-harakatlarning mumkin bo‘lgan sabablarini ko‘rib chiqish kerak.

H.K.Alvarez o’z tadqiqotlarida talabalarda tajovuzkorlik hissi va tajovuzkor xulq-atvor shakllanishining murakkabligi va ko‘p qirraliligini hisobga olgan holda, mazkur masalada olimlar ko‘plab ta’riflarni tavsiya qilishlariga qaramay, hozirgi vaqtda ularning hech biri to‘liq va umumiy qo‘llanilmasligini ta’kidlaydi. P.Goldshteynga ko‘ra, “tajovuzkorlik” deganda shaxsning harakat yoki harakatsizligi tushuniladi, uning maqsadi atrofdagi dunyoga (odamlarga, hayvonlarga, narsalarga) qasddan zarar yetkazish, ochiq (tajovuzkor xatti-harakatlarda tashqi ifodalangan) yoki yashirin (agressiv kayfiyat, tajovuzkor niyatlar, fantaziyalar) ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. F.Rayning fikricha, agressiv xulq-atvor tajovuzkorlikning ochiq tashqi ko‘rinishi bo‘lib, u atrof-muhit sharoitlariga reaksiya bo‘lib, yetarlicha uzoq yoki davriy ravishda namoyon bo‘ladi va tashqi dunyoga zarar yetkazishga qaratilgan bo‘ladi. Shuning uchun ham xulq-atvor tajovuzkor harakatlar majmuasidan, shuningdek, tajovuzni ifodalovchi yagona xulq-atvor harakatlaridan tashkil topgan.

Ko’plab ilmiy-pedagogik va ilmiy-psixologik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, tajovuzkor xulq, tajovuzkorlikka moyillik va nizoli xatti-harakatlarga bag‘ishlangan ko‘plab darsliklarga qaramay, ushbu asarlarning aksariyati maktab yoshidagi bolalar yoki o‘smirlik yoshidagi buzilishlarga bag‘ishlangan. Psixologlardan E.R.Anenkova, M.A.Isayeva, I.E.Kondrakova, L.V.Malikov, Y.B.Mojginskiy, A.VNikitina, E.V.Olshanskaya, E.I.Oseyeva, A.K.Osnitskiy, A.M.Prixojan, L.M.Semenyuk, I.A.Furmanov, Y.V.Shcherbinina va boshqalarning izlanishlarni fikrimizga misol bo‘ladi. Tadqiqotchi A.S.Titovalar mazkur muammoga yaqin ko‘plab ilmiy ishlar izlanishlarni amalga oshirishgan. Psixolog A.S.Titova o’z asarlarida tajovuzkor xatti-harakatlarni eng murakkab psixologik hodisa deb qayd etadi. Bundan tashqari, yoshlik davri qoidaga muvofiq emotsional va intellektual jihatdan beqaror rivojlanish davri deb ta’rifalanadi. Biroq, so‘nggi o‘n yillikda o‘spirinlik (talabalik) davrida tajovuzkorlik hissi va tajovuzkor xatti-harakatlarning shakllanish muammosining dolzarbligi haqida bir qator ishlar (F.Rays, A.A.Rean, M.S.Kalistratova, S.V.Mikxeikina va boshqalar) paydo bo‘la boshladi.

L.Berkovisning qarashlariga ko‘ra, talabalik davridagi tajovuzkorlikning xususiyatlarini ko‘rib chiqishda, birinchidan “tajovuzkorlik” fenomenini distruktiv xulqning bir turi sifatida tadqiq etish o’ta ahamiyatli sanalishini uqtirib o’tadi. Turli yosh davrida namoyon bo’luvchi agressiv xulq shakllanishining ba’zi jihatlarini alohida ajratib bo‘lmaydi, chunki u bir muddatda paydo bo‘lmaydi,

balki shaxsning ijtimoiylashuvi bilan uzviy bog'liqdir. Mutaxassis S.Groffning izlanishlariga ko'ra, tajovuzkorlik perenatal xarakterga ega bo'lib, u insonning tug'ilishidan avval ham o'z genetik asosiga ega sanaladi. Homiladorlikning borishi, bolaning ota-onalari, ayniqsa ona uchun istalmaganligi - bularning barchasi, perinatal psixologlarning fikriga ko'ra, kelajakda bolada qanday shaxsiy xususiyatlar (shu jumladan tajovuzkorlik) rivojlanishi bilan bog'liq iz qoldiradi. Shuningdek, muallif shaxsning tajovuzkorlik darajasini tug'ilish jarayoni qanday sodir bo'lganligi bilan bevosita bog'laydi. Shaxsda tajovuzkorlik hissining shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlash ontogenzning har bir davrini tahlil qilishni taqozo etadi. Xorijlik olim J.Hudziakning xulosalariga ko'ra, inson hayotining dastlabki davrida (uch yoshdan) agressivlik biologik belgi sifatida namoyon bo'ladi. Ya'ni, ijtimoiylashuvning mazkur davriga xos bo'lgan turli xil holatlar frustratsiyali holatlar bilan motivlanadi – mehr ko'rsatishning kamligi, e'tiborsizlik, ota-ona bilan aloqaning pastligi, kuchsiz himoya mexanizmi, bolaning biologik ehtiyojlariga ahamiyat bermaslik (bir yoshda) va alohida harakatlarga intilish, "o'zini o'zi boshqarishga harakat qilish" (ikki yoshda) Shuningdek, tajovuzkorlik xususiyati, "istak" va "kerak" o'rtasidagi shaxsiy ziddiyat tufayli ham paydo bo'lishi mumkin. Neofreydezm asoschilaridan biri E.Eriksonning yozishicha, dushmanlik hissi bolada bir yoshga to'lganidayoq yuzaga chiqa boshlaydi. Ya'ni, bir yoshdan uch yoshgacha bo'lgan davrda agressiv xulq bolaning sodda ko'rinishdagi harakatlarida namoyon bo'ladi va u to'g'ridan-to'g'ri verbal shaklda kechadi. Psixolog A.L.Trifonovning so'zlariga ko'ra, uch yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarda agressivlik kam ijtimoiy ahamiyatga ega sanaladi. Bundan tashqari, rivojlanishning mazkur sharoitida agressiya obyektlari sifatida quyidagilar ajratiladi:

– Noto'liq yoki begona oilalar;
– Salbiy munosabatlarga (nosog'lom muhitga) moyil oilalar turi;
– Yosh bolalarning o'z tengdoshlariga qo'shila olmaslik holati;
– Oilalarda farzandlarga ijtimoiy-psixologik rag'batning yetishmasligi va boshqalar.

Tajovuzkorlik, shuningdek, ma'lum bir yoshga xos bo'lgan frustratorlardan kelib chiqishi mumkin: mustaqillik, erkinlik, sevgi va boshqalarni tan olish ehtiyojidan umidsizlik ta'sir etishi mumkin. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, o'smirlar davriga xos tajovuzkorlik muammosiga doir tadqiqotlar zamonaviy rus psixologiyasida (V.A.Averin, B.N.Almazov, S.YA.Belicheva, S.N. Enikolopov, P.A.Kovalev, A.A., D.I.Feldshteyn, I.A.Furmanov va boshqalar) va xorijiy mualliflarning (A. Bandura, R. Jenkins, R. Valters, A. Freyd, E. Erikson va boshqalar) ishlarida uchratish mumkin. Aksariyat ilmiy adabiyotlarda o'smirlik davri "inqiroz davri", "inqirozli holat yoshi" "burilish davri", "murakkab yosh", "agressiya davri" kabi tushunchalar bilan izohlanadi.

K.K.Repperning qayd etishicha, assimilatsyia jarayoni barcha tana tizimlarining tez qayta tuzilishi, balog'atga yetishishning boshlanishi agressiv xulqning fiziologik asoslariga aylanishi mumkin. Ammo, bunda ijtimoiy omillar o'ta muhim sanaladi. Rus olimi L.S.Vigotskiyning qarashlariga ko'ra, mazkur o'tish holatining "inqirozlari" ikki asosiy omil bilan bog'liqdir: o'smirning ongidagi o'zgarishlarning paydo bo'lishi, insonning tashqi olam bilan aloqasining qayta tuzilishidir: ushbu qayta tuzilish "inqiroz" larning asosiy sababchisidir. Mazkur davridagi tajovuzkor xulq asosan ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, uning paydo bo'lishida do'stlar bilan munosabat asosiy sanaladi. O'smir yoshlarning ijtimoiy faollikka, yetakchilikka bo'lgan istaklari ko'pincha maktab sharoitida kuchli ustunlik va agressivlikning tashqi xususiyati sifatida namoyon bo'ladi. Tashqi himoya va o'z-o'zini namoyon qilishga intilayotgan yoshlarning tashqi ko'rinishi, ichki xulqni ko'rsatmasdan, boshqalar uning xatti-harakatlarini bu holatda noto'g'ri qabul qilishi mumkin. Demak, mazkur yosh davri boshqa davrlardan farqli ravishda tajovuzkorlikka bo'lgan xohishning yuqoriligi bilan ajralib turar ekan. Psixologlardan S.H.Merkerning so'zlariga ko'ra, o'spirinlik yoshida agressivlikni namoyon bo'lish kuchi va xususiyatlari ichki va tashqi holatlarga ko'proq bog'liq sanalib, ba'zan u ichki omillar natijasida ham rivojlanib boradi, ya'ni, rivojlanishning oldingi bosqichlarida agressivlik va nizoli harakatlarning shakllari qanday rivojlanganligi bilan tavsiflanadi. Bundan tashqari, ayrim

olimlar tajovuzkor xulqni o'spirinlik davri, ya'ni talabalikka o'tish davri bilan bog'lab o'rganishga harakat qiladilar. Katta o'spirinlik yoshi haqida gap ketganda, hanuzga qadar uning yosh chegaralari haqida aniq davrlashtirishlarning yo'qligini hisobga olish lozim. Mazkur masalada psixolog olmlardan G.S.Abramova, L.S.Vigotskiy, P.YA.Galperin, A.V.Zaporojets, I.S.Kohnlar tomonidan ko'proq fundamental izlanishlar amalga oshirishgan. Masalan G.S.Abramova, o'spirinlik davrini 18 - 22 yosh oralig'i deb deb ta'riflaydi. Boshqa bir olim O.Koropetskaning yozishicha, o'g'il bolalarda bu davr 16-18 yoshdan 22-24 yoshgacha bo'ladi, qiz bolalarda esa bu- 15-16 yoshdan 18-20 yoshgacha kechadi. Tadqiqodchi J.Xenryning xulosalariga ko'ra, erta o'spirinlik bu 17-20 yoshdan, kech o'spirinlik esa 20-25 yosh oralig'ini qamrab oladi. Keltirilgan yondashuvlar yoki qarashlar turli xil bo'lmasin, olimlar tomonidan aniqlangan yosh davrlari jamiyatimiz yoshlarining aksariyati uchun oliy ta'limda o'qish vaqtiga, ya'ni talabalik davriga to'g'ri keladi.

Qoidaga ko'ra, o'spirinlik davri - bu inson uchun kechadigan eng qiyin davrdir. Aynan bu yosh 17 yoshdagi inqiroz bosqichi bilan tavsiflanib, D.B.Elkonin ta'biri bilan aytganda, bu jarayonni insonning 3 va 11 yoshdagi inqirozli holatlari bilan bog'lab tushuntirish mumkin. Universitetning birinchi kurs talabalarining aksariyati yuqorida keltirib o'tilgan inqirozli holatlarni boshdan kechirayotgan ta'lim subyektlaridir.

**Adabiyotlar.**


1. Фурманов И.А. Детская агрессивность: психодиагностика и коррекция: учебное пособие / И.А. Фурманов. – М.: Наука, 2016. – 69 с.
2. Хлыстова Н.М. Социально-психологическая причинность агрессивности личности: Дис. ...канд. психол. наук.Новосибирск, 2003. – 63 с.
3. Чекина Л.Ф. Психология развития: Учебное пособие / Л.Ф. Чекина. - СПб.: Лань, 2018. – С.42.
4. Титова А. С. Психологическая коррекция агрессивного поведения детей и подростков в условиях современного мира //Актуальные проблемы современной когнитивной науки. – 2021. – С. 286-290.


## ЎЗБЕКИСТОНДА УЙ-ЖОЙ ВА КОММУНАЛ ХЎЖАЛИГИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР (1945-1955 ЙИЛЛАР МИСОЛИДА)


**Джунаев Фарход Абдухамидович-**
Навоий давлат университети таянч докторанти



**Аннотация.** Ушбу мақолада Иккинчи жаҳон урушидан кейинги йилларда ва XX аср 50 йиллари ўрталаригача бўлган даврда Ўзбекистон ССРда уй-жойларнинг қурилиши, мавжудларининг капитал таъмирланиши ва коммунал хўжалик соҳасидаги ўзгаришлар таҳлил этилган.



**Калит сўзлар:** советлар, кўп қаватли уйлар, янги турар-жойлар, канализациялар, Тошкент, Самарқанд, Бухоро, Андижон, Наманган, Фарғона, Қарши, Қўқон, Урганч, сув қувурлари, электр энергияси.



**Аннотация.** В статье анализируются изменения в жилищном строительстве, капитальном ремонте существующего жилья и коммунальном хозяйстве в Узбекской ССР в годы после Великой Отечественной войны и до середины 1950-х годов.



**Ключевые слова:** Советы, многоэтажные дома, новое жилье, канализация, Ташкент, Самарканд, Бухара, Андижан, Наманган, Фергана, Карши, Коканд, Ургенч, водопровод, электричество.

**Abstract.** This article analyzes the construction of housing, capital repairs of existing ones, and changes in the field of communal services in the Uzbek SSR in the years after World War II and until the mid-1950s.

**Keywords:** Soviets, multi-storey buildings, new housing, sewerage, Tashkent, Samarkand, Bukhara, Andijan, Namangan, Fergana, Karshi, Kokand, Urgench, water pipes, electricity.

**КИРИШ.** Советлар ҳукмронлиги даврида давлат режасига кўра, уйларнинг бир ёки икки деразасининг кўчага каратилиши шарт бўлишига карамай, ўзбекларнинг кўпчилиги ўз уйларини анъанавий тарзда деразасини ҳовлига қаратиб қуришди. Айрим янгиликка берилган кишиларгина ўз уйлари деразасини кўчага қаратиб қуришган холос. Аммо улар ҳам бу ҳолатда деразани пардалар билан тўсиб ташлади[229].

Вақт ўтиши билан шаҳарларда кўп қаватли уйлар қурила бошлади. Аввалambор кўп қаватли уйлар бепул маиший хизмат кўрсатувчи коммунал уйларининг бир кўриниши бўлиб, бу ғоя совет ҳокимиятининг дастлабки йилларидаги лойиҳаларидан бири сифатида қимматлиги ҳамда одамларнинг «ноқулай» маиший шароитда яшашдан воз кечганликлари боис амалга ошмай қолган эди. Қурилган янги турар жойлар илк босқичдаёк кўп қаватли уйларнинг иссиқ ва қуруқ иқлим шароитига жавоб бермаслиги ва шаҳарсозликнинг тарихий тажрибага беписандлик билан қаралганлиги аён бўлиб қолди. Совет давридаги стандартлаштириш бир хилдаги уйлардан бошлаб то жихозларнинг майда икир-чикирларигача, яъни инсонни ўраб турган муҳитгача бир хилликни вужудга келтирди.

**АСОСИЙ ҚИСМ.** Урушдан кейинги дастлабки йилларда аҳолининг уй-жойга бўлган эҳтиёжи ҳам анча катта эди. Уруш натижасида аҳолининг уй-жой ва маиший муаммолари ниҳоятда кескинлашди. Уруш давридаги машаққат ва танқислик туфайли кўплаб турар-жойлар, мактаблар, маданият муассасалари таъмирга муҳтож бўлиб, ярим харобага айланди. Урушдан кейинги йилларда ёқилғи ва қурилиш материаллари етишмаслиги яққол кўзга ташланди.

Бу боисдан 1945 йил сентябрда СССР Халқ Комиссарлари Советининг «Ўзбекистон ССРда уй-жой ва коммунал хўжалигини яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори қабул қилинди. Бу қарорга асосан, 1946 йилда Ўзбекистон ССРда тахминан 12 минг км$^2$ ҳудудда уй-жой қурилиши белгиланган. Шундан 6 минг км$^2$ ҳудудда Тошкент шаҳрида уй-жой қуриш режалаштирилган[230].

1946 йилда фақат уй-жойларни қуриш учун Секомбанк томонидан 4 млн рубл, 1947 йилда эса 6 млн рубл пул ажратилиши белгиланган. 1946 йилда уй-жойларни капитал таъмирлаш ҳамда авария ҳолатидаги уйларни қайта тиклаш ишларига 10 млн рубл пул ажратилиши белгиланган. Бу ишларнинг барчасининг бажарилишини назорат қилиб бориш Давлат режалаштириш қўмитаси (ГосПлан) зиммасига юклатилган.

Тўртинчи беш йиллик (1946-1950 йиллар) даврида Давлат режалаштириш қўмитаси (ГосПлан)га Тошкент, Самарқанд, Бухоро, Андижон, Наманган, Фарғона, Қарши, Қўқон, Марғилон, Нукус, Бекобод, Чирчиқ, Урганч шаҳарларида мавжуд 47 минг км$^3$ сув-қувурлари ўрнига 1950 йилга келиб 245 минг км$^3$гача сув-қувурларини кенгаштириш ва янгидан барпо этиш топшириғи берилади.

1945 йил уруш якунига етгандан сўнг, Ўзбекистон ССРда уй-жой ва коммунал хўжалик бўйича ишлар анча орқада қолганди. Буни биз Ўзбекистон ССР Марказий Комитети раҳбари Абдураҳмонов ҳамда Ўзбекистон ССР Компартияси биринчи секретари У.Юсуповларнинг СССР Халқ Комиссарлари Совети раисининг ўринбосари В.М.Молотовга йўллаган қўшма хатига асосан, урушдан кейинги дастлабки йилларда умумий Республиканинг барча

[229] Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккита китоб. Иккинчи китоб. 1939-1991 йиллар. Масъул муҳаррирлар: Р.Абуллаев, М.Рахимов, Қ.Ражабов. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2019. – Б.302.

[230] Ўзбекистон Миллий архиви. Ф-2182-фонд, 1-рўйхат, 859-иш, 2-3 варақлар.

шаҳарларидаги уй-жойларнинг умумий фонди 7.850 минг квадрат метрни ташкил этган. Шундан коммунал хўжалик билан боғлиқ уй-жойларнинг фонди 1270 минг, идоравий ташкилотларнинг фонди 1380 квадрат метр бўлган[231].

Ишлаб чиқариш билан банд бўлган аҳолининг уй-жойларга бўлган талаби катта бўлган. Айниқса Тошкент шаҳрида уй-жойларнинг етишмаслиги жуда сезилди. Инженер-техник ишчилар ва ишчи-хизматчиларнинг аҳволи оғир эди. Бир ишчига 2 метр квадрат яшаш жойи тўғри келган.

1945 йил охирига келиб Республикадаги жами 4721 та уй-жой таъмир талаб ва авария ҳолатида бўлган. Шулардан 2900 та уй-жой Тошкент шаҳрига тўғри келган. Республика шаҳарларидаги 16200 та уй-жой капитал ремонт ҳолатида бўлган, шундан 12900 таси Тошкент шаҳрида жойлашган[232].

Республика шаҳарларидаги аҳолига 4.5 метр квадрат яшаш жойи тўғри келган бўлса, бу кўрсаткич Тошкент шаҳрида 2.8 метр квадратга тенг бўлган.

Урушдан кейинги дастлабки йилларда Ўзбекистон ССР бўйича уй-жойларнинг авария ҳолатига тушиб қолишига асосий сабаблардан бири Марказ томонидан капитал ремонт қилиш учун маблағларнинг берилмаслиги, зарурий қурилиш молларининг йўқлиги ҳисобланган.

Республика аҳолиси урушдан кейинги йилларда ҳам тоза ичимлик суви билан тўлиқ таъминланмаган. Мисол учун 1945 йил охирларида Республикадаги жами 22 шаҳарларнинг 6 тасидагина водопровод суви билан таъминланган холос. Қолган шаҳарларда аҳоли сувни қудуқлардан олган[233]. 1945 йил охирларида Тошкент шаҳрининг аҳолисининг кўпайиши ҳамда ҳудудининг кенгайиши оқибатида аҳолини тоза ичимлик суви билан таъминлаш ишлари ёмонлашади ва мавжуд сув қувурлари аҳоли эҳтиёжларини қондира олмайди. 1945 йилда Тошкент шаҳрида сув қувурларининг ўртача суткалик истеъмоли 80 минг метр кубни ташкил қилган бўлса, 1946 йилда 92 минг метр куб, 1947 йилда 110 минг метр кубни ташкил этди[234]. Тошкент шаҳри аҳолисини тоза ичимлик суви билан таъминлаш учун биринчи навбатда Қибрай водопроводини ишга туширган. 1945 йилга келиб Самарқанд, Бухоро, Қарши шаҳарларидаги мавжуд сув қувурлари ҳам яроқсиз ҳолатга келиб қолган эди. Республика аҳолисининг тоза ичимлик суви билан таъминланмаганлиги боис аҳоли орасида ошқозон-ичак касалликлари кўпайган.

1945 йилгача Ўзбекистон ССРнинг барча шаҳарларида канализация тизими бўлмаган. Фақатгина Тошкент шаҳрида 1944 йилдаги қурилиш режасига асосан канализация тизими йўлга қўйилган. Лекин бу қирилиш ҳам ўз якунига етмаган. 1946 йил бошларида белгиланган 144 километрнинг 30 километри қурилган холос[235].

Урушдан кейинги йилларда Ўзбекистон ССР шаҳарларидаги йўлларнинг кўпчилигида ҳеч қандай қоплама бўлмаган. Барча кўча ва йўлларнинг умумий узунлиги 1141 километрдан 857,8 километри ёки 66 фоизи асфальтланмаган йўлларга тўғри келади. Асфальтланган йўллардан қуйидаги рақамлар эътиборга молик: Тошкент шаҳрида 179 километр тош йўл, 23 километр асфальт йўл, 85 километр шағал йўл бор эди[236]. Республика бўйича Тошкент шаҳридан бошқа шаҳарларда асфальт йўллар бўлмаган. Тошкент шаҳри йўлларининг атига 3 фоизини асфальт йўллар ташкил этган[237].

---

[231] Ўзбекистон МА. 2182-фонд, 1-рўйхат, 859-иш, 16 варақ.
[232] Ўзбекистон МА. 2182-фонд, 1-рўйхат, 859-иш, 16 варақ.
[233] Ўзбекистон МА. 2182-фонд, 1-рўйхат, 859-иш, 17 варақ.
[234] Ўзбекистон МА. 2182-фонд, 1-рўйхат, 859-иш, 17 варақ.
[235] Ўзбекистон МА. 2182-фонд, 1-рўйхат, 859-иш, 18 варақ.
[236] Ўзбекистон МА. 2182-фонд, 1-рўйхат, 859-иш, 21 варақ.
[237] Ўзбекистон МА. 2182-фонд, 1-рўйхат, 859-иш, 21 варақ.

Урушдан кейинги йилларда Ўзбекистонда коммунал ишларни ташкил этиш, шаҳарда санитар тозалик ишларини олиб бориш жуда ёмон аҳволда бўлган ва бу ишларни бажариш учун транспортларнинг урушга сафарбар этилганлиги сабабли етишмаслиги оқибатида Ўзбекистон ССР Коммунал хўжалиги халқ комиссарлиги раҳбари Шамуратов 1945 йил 14 июлдаги Ўзбекистон ССР Давлат режалаштириш қўмитаси (ГосПлан) раҳбари Т.Алиев номига хат йўллайди ва урушдан кейинги йилларда халқ хўжалигини тиклаш, қурилиш трестларини барпо этиш ҳамда мавжудларини таъмирлаш ишлари учун 100 та ва шаҳар санитар-транспорт ишлари учун 150 та от ажратиб беришни сўрайди[238].

XX асрнинг 50-йилларида ҳам коммунал хўжаликларда меҳнат қилаётган ишчиларнинг иш вақти жуда узоқ давом этган. Бунинг натижасида иш самарадорли пасайган. Баъзи корхоналарда эса ишчи кадрларнинг қўнимсизлигини кўп учратиш мумкин эди. Иш самарадорлиги ошириш, аҳолига сифатли коммунал хизматни амалга ошириш ҳамда янги заводлар қуриш орқали ишчилар сони ошириш ўрнига ЎзССР Министрлар Совети ва Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитетининг 1950 йил 31 январда 114-сонли “Ўзбекистон ССРда давлат бюджети ва хўжалик ташкилотлари ҳамда муассасалари аппарати тузилмасини соддалаштириш тўғрисида” қарори[239]га асосан, барча коммунал хўжалик ташкилотларида кадрларни қисқартириш амалга оширилади.

Урушдан кейинги йилларда Ўзбекистон ССРдаги барча туман ва шаҳарларда аҳоли учун янги уй-жойларни қуриш, мавжудларини таъмирлаш ва коммунал хўжалигини яхшилаш ишлари навбатма-навбат олиб борилади. Масалан, Ўзбекистон Министрлар Советининг 1950 йил 25 июндаги қарорига асосан, Андижон вилояти Избосган туманида қурилиш таъмирлаш ишлари амалга оширилади[240].

ЎзССР Министрлар Совети ва Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитетининг 1949 йил 12 августдаги 1403-сонли қарорига билан тоза ичимлик сувидан фойдаланадиган саноат ва ишлаб чиқариш корхонларида фойдаланилган 1 куб сув учун 0.75 тийин, тузли, шўр сувлардан фойдаланилган ҳар бир 1 куб учун 0.35 тийин[241] тўланиши белгиланган.

XX аср 40-йиллари охири 50-йилларнинг бошларида республикада мавжуд колхоз ва совхозларда кенг кўламли қурилиш ва ободонлаштириш ишлари амалга оширилди. Хусусан, Ўзбекистон ССР Коммунистик Партияси Марказий Кенгашининг 1949 йил 12 августдаги “Колхоз посёлкаларини қуриш ва ободонлаштириш тўғрисида”ги 1406-сон қарорига асосан колхозларда қурилиш ишлари авж олдирилди. Лекин бу ишлар бажарилишида на сонга ва на сифатга эътибор берилди. Чунончи, Самарқанд, Андижон, Бухоро, Қашқадарё ва Хоразм вилоятларида колхоз посёлкаларини қуриш ва ободонлаштириш ҳолати қониқарсиз олиб борилди.

1950 йилнинг 9 ойи давомида колхозларда фуқаролик бинолари, турар-жой бинолари ва чорвачилик иншоотларини қуриш режаси бажарилди жуда суст амалга оширилди[242]. (2.3 иловага қаранг)

| **Ташкилотлар** | **Бажарилган иш фоизда (%)** |
|---|---|
| Мактаблар | 55,1% |
| Клублар | 43,3% |
| Болалар боғчалари | 6,0% |
| Болалар яслилари | 13,0% |

[238] Ўзбекистон МА. 2182-фонд, 1-рўйхат, 861-иш, 8 варақ.
[239] Ўзбекистон МА. 2182-фонд, 1-рўйхат, 1341-иш, 1-20 варақлар.
[240] Ўзбекистон МА. 2182-фонд, 1-рўйхат, 1341-иш, 37-варақ.
[241] Ўзбекистон МА. 2182-фонд, 1-рўйхат, 1341-иш, 60-варақ.
[242] Ўзбекистон МА. 2182-фонд, 1-рўйхат, 1342-иш, 239-варақ.

| | |
|---|---|
| Касалхоналар ва амбулаториялар | 6,1% |
| Колхозчилар учун уй-жойлар | 9,7 % |
| Қорамолларни жой билан таъминлаш | 28,6 % |
| Отларни жой билан таъминлаш | 33,6 % |
| Қўй-эчкиларни жой билан таъминлаш | 23,0% |

Ипак қуртини етиштириш фермалари, гўнг сақлаш жойлари қурилиши ҳали бошланмаган. 500 та сунъий уруғлантириш пункти қуриш режалаштирилган бўлса, атиги 13 таси қурилган эди[243].

1945-1955 йилларда Ўзбекистон ССР раҳбарияти аҳолини уй-жой билан таъминлаш, мавжудларини капитал таъмирлаш, коммунал хўжалик ишларини яхшилаш борасида айтарлик ишларни амалга оширмаганлиги гувоҳи бўласиз. Мисол учун, республика аҳолиси томонидан уй-жой масаласида ЎзССР Министрлар Советига 1950 йил 9 ойи мобайнида 1776 шикоят ва аризалар келиб тушган ва уларнинг 340 таси (19.1%) ҳал этилмаган[244].

1954 йилда ЎзССР Олий Совет Президиумига 10 минг 907 та шикоят ва аризалар келиб тушган. Бу шикоят ва аризаларнинг 2.7 фоизи қишлоқ хўжалик артеллари устави нормаларининг бузилиши бўйича, 7.3 фоизи ер-жойлар ўртасидаги баҳслар бўйича, 18.4 фоизи яшаш уйларидаги муаммолари бўйича, 11.3 фоизи пенсия ва давлат моддий ёрдамлари бўйича, 11.7 фоизи давлат солиқ режаси бўйича, 11.2 фоизи ҳар хил суд ишлари бўйича, 3.1 фоизи ишга жойлаштириш масалалари бўйича бўлган. Бу шикоят ва аризаларнинг 23.7 фоизи қаноатлантирилмаган[245].

**ХУЛОСА.** Тадқиқот йиллари мобайнида республикада уй-жойлар ва кўп қаватли уйларни қуришнинг белгиланган режасини кўр-кўрона бажариш асносида қурилиш жараёнида керакли буюмларнинг етишмаслиги оқибатида сифатсиз уйлар кўплаб қурилади.

Тўғри Коммунистик партия ва Совет ҳукумати тўртинчи беш йиллик даврида Ўзбекистон ССРда давлат корхоналари, муассасалар ва маҳаллий Советлар кучи билан, шунингдек айрим ишчи ва хизматчилар давлат кредити ёрдами билан жами фойдали майдони 1,7 миллион квадрат метрдан кўпроқ бўлган уй-жойларни қурди. Шу вақтнинг ўзида қишлоқ жойларида 180 минг уй-жойлар қурилди.

Бироқ, уй-жой масаласи ҳануз жуда кескин бўлиб қолмоқда эди. Қўпгина корхоналарнинг раҳбарлари уй-жой қурилишига етарли эътибор бермадилар. Масалан, «Ўзбексельмаш», «Ўзбектекстильмаш» ва бошқа баъзи заводларда ишчиларнинг уй-жой ва маиший шароити қониқарсиз бўлиб қолаверди[246].

1955 йилга келиб аҳолини электр энергияси билан тўлиқ таъминлаш борасида Ўзбекистон ССР Коммунистик партияси ва Коммунал хўжалик вазирлиги томонидан сезиларли ишлар амалга оширилди. 1955 йил 9 декабрда Ўзбекистон ССР Коммунал хўжалик вазирлигининг 169-сон буйруғи билан Нукус шаҳрида локомотив электростанцияси ишга туширилди[247]. 1955 йил 15 июлда Қарши шаҳридаги дизел электр станциясини кенгайтириш билан боғлиқ объектларни доимий фойдаланишга қабул қилиш ишлари амалга оширилди[248]. 1955 йил 6 июлдан бошлаб «Хишрау гидроэлектр станциясидан электр энергиясини олиш учун Самарқанд шаҳар электр тармоғи қисман реконструкция қилинди[249].

---

[243] Ўзбекистон МА. 2182-фонд, 1-рўйхат, 1342-иш, 239-варақ.
[244] Ўзбекистон МА. 2182-фонд, 1-рўйхат, 1342-иш, 265-варақ
[245] Ўзбекистон МА. 2182-фонд, 1-рўйхат, 2180-иш, 22-варақ.
[246] Ўзбекистон ССР тарихи. –Тошкент: “Фан” 1971. I-жилд. –Б.241.
[247] Ўзбекистон МА. 2182-фонд, 1-рўйхат, 2186-иш, 48-варақ.
[248] Ўзбекистон МА. 2182-фонд, 1-рўйхат, 2186-иш, 179-варақ.
[249] Ўзбекистон МА. 2182-фонд, 1-рўйхат, 2186-иш, 193-варақ.

# TA’LIM JARAYONIDA MANTIQIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

**Rasulov Jasur -**
**NavDU Umumiy pedagogika va psixologiya kafedrasi**
**katta o‘qituvchisi**

Ta’lim-tarbiya jarayoni inson kamoloti uchun eng muhim pedagogik shart-sharoitlardan biri bo‘lib, unda insonning aql-idrok ko‘lami, fikrlash qobiliyati, tafakkur qilish uslubi, shuningdek, dunyoni anglashning kognitiv o‘ziga xosligi kabilar amalga oshishi tabiiydir. Aynan, maktab davri bolaning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning asosiy bosqichi hisoblanadi. Chunki, keyinchalik vizual tafakkur asosida shakllanadigan mantiqiy tafakkur, yanada kengroq muammolarni hal qilish hamda ilmiy bilimlarni kengroq egallash imkonini beradi. Shu boisdan, zamonaviy pedagogika fanida insonning mantiqiy fikrlashi, masalalarni oqilona hal etishi hamda mantiqiy tafakkur rivojlanishining o‘ziga xos jihatlari, bo‘lajak soha egalarini mantiqiy fikrlashga o‘rgatish texnologiyalari kabi masalalar o‘ta dolzarb mavzulardan biri sanaladi. Shu boisdan ham, hozirda har bir o‘qituvchilar jamoasi o‘quvchilarga imkon qadar chuqurroq bilim berishga harakat qiladilar. Qolaversa, maktablarda o‘qitiladigan fanlarning mazmuni zamon talabiga mos ravishda murakkablashib bormoqda.

Ushbu masalaning dolzarbligini L.M.Perminova shunday ta’riflaydi: “Zamonaviy jamiyatda o‘quvchilar qisqa vaqt ichida, dunyo va atrof muhit o‘zgarishlari haqida umumlashtirilgan bilimlarni puxta o‘zlashtirishlari lozim. Binobarin, o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, avvalambor, ularda samarali fikrlash operatsiyalarini shakllantirish va muammoli vaziyatlarda masalalarning oqilona yo‘llarini topish kabi kompetensiyalarni tarkib toptirish, bugungi kun bo‘lajak pedagoglari oldida turgan asosiy vazifalardan biridir” [1]. Haqiqatdan ham, o‘quvchilarning o‘quv motivlarini oshirish, ularning bilimlarga bo‘lgan ehtiyojlarini saqlab qolish va fan asoslarini o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan kognitiv vositalar bilan ta’minlash kabi vazifalar dolzarb sanaladi. Bu vazifalarni hal qilish uchun o‘qituvchi, avvalambor, bilish faoliyatining kechishi, uning tabiati va didaktik asoslari hamda o‘quvchilarda mazkur faoliyatning darajasini bilishi lozim.

Tadqiqotchi E.A.Alyabeva o‘zining “5-8 yoshli bolalarda o‘yin orqali mantiqiy fikrlash va nutqni rivojlantirish” mavzusidagi ilmiy maqolasida yozishicha, mantiqiy fikrlash usullarini shakllantirish o‘quvchilar kognitiv faoliyatining bir turi hisoblanadi. Shuningdek, mantiqiy fikrlashning rivojlanishi juda spontan (to‘satdan) tarzda sodir bo‘ladi. Aksariyat o‘quvchilar tafakkurning asosiy xususiyatlarini nafaqat o‘rta maktabda, balki oliy o‘quv yurtlarida ham o‘rganmaydilar [2]. Muallifning bunday qarashlari o‘z-o‘zidan, o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish masalalarini o‘z vaqtida tezkor hal etish hamda uni didaktik jihatdan takomillashtirish zaruratini yanada oshiradi.

Boshqalar qatorida pedagog Ye.V.Veselovskayaning so‘zlariga ko‘ra, o‘quvchilarning fikrlashidagi xatolikni payqash, ushbu xatolarning sababini aniqlay olish, fikrlashdagi ketma-ketlikni to‘g‘ri shakllantirish, fikrlash tizimidagi maxsus operatsiyalar kabi masalalar, hozirgi kunda yangi pedagogik bilimlarga muhtoj sanaladi [3]. Darhaqiqat, ushbu ta’rifga ko‘ra, o‘qitish amaliyoti alohida didaktik muammo hisoblanadi. Ammo hozirda jahon pedagogik amaliyotida, mazkur muammoni hal qilishning ayrim tendensiyalari paydo bo‘ldi. Ulardan biri bu – o‘qitish jarayonida rasmiy jihatga ko‘proq e’tibor berishdir. Ta’lim tizimi shu yo‘nalishda ilg‘or rivojlanayotgan mamlakatlar (Yaponiya,

Janubiy Koreya, Singapur, Angliya) o‘z taraqqiyotida sezilarli yutuqlarga erishib, so‘nggi o‘n yil ichida ta’lim sifati yuqori bo‘lgan yetakchi mamlakatlar qatoridan joy oldi.

Ye.V.Orlovaning so‘zlariga ko‘ra, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish ishlari, quyidagi muhim vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi [4]:

– barcha mantiqiy fikrlash operatsiyalari: tahlil, yig‘ish, taqqoslash, umumlashtirish, farqlash, maxsus sistematik farqlashni shakllantirishni;

– fikrlash faolligini, individuallikni rivojlantirishni;

– obyektlarni o‘zgartirish qobiliyatini takomillashtirishni. Yuqoridagi qayd etilgan tasnifga muvofiq, mantiqiy fikrlashni rivojlanitirish, tafakkur operatsiyalarini rivojlantirish ham sanalib, ayrim holatlarda ko‘plab tadqiqotchilar mantiqiy tafakkurni takomillashtirish ishlariga ham alohida urg‘u beradilar.

Pedagog olimlardan L.S.Timashova “Matematika fani orqali o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish” nomli ilmiy maqolasida yozishicha, o‘quvchilarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish tizimi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat [5]:

1. Mantiqiy fikrlash operatsiyalarini shakllantirish:

– tahlil;

– umumlashtirish;

– solishtirish;

– farqlash.

2. Tafakkur faoliyatining mustaqilligini rivojlantirish:

– turli xil farazlar va fikrlar bildira olish;

– muammoni hal qilishning bir necha usullarini taklif qilish;

3. Transformatsiya (qayta hosil qilish, o‘zgartirish) faoliyatini takomillashtirish:

– predmetlarni qismlar bo‘yicha yig‘ish;

– obyektlar guruhi o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlay olish va hokazo.

I.P.Podlasiy o‘zining pedagogika oliy o‘quv yurti talabalari uchun mo‘ljallangan “O‘qitish jarayoni” nomli qo‘llanmasida yozishicha, mantiqiy fikrlashga o‘rgatish bu – o‘z fikrlash operatsiyalarining to‘g‘ri va noto‘g‘riligini tekshirish, ularni doimiy ravishda masalalarni turli yo‘llar bilan yechishga yo‘naltirish, mantiqiy fikrlashni talab qiluvchi misollarni yarata olish, hisob-kitoblarni amalga oshirish kabi operatsiyalarni bajarishda o‘z aksini topadi. Mazkur ta’rifdan shuni anglash mumkinki, mantiqiy fikrlash shunchaki idrok qilish, tayyor ma’lumotlarni egallash jarayoni emas, balki masalalarni turli ijodiy yo‘llar bilan yechish va unga yechimlar qidirish jarayonidir.

T.M.Sadovskayaning xulosalariga ko‘ra, o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash faoliyatini rivojlantiruvchi vazifalardan yana biri o‘yindir. O‘yin bolalar faoliyatining asosiy turlaridan bo‘lib, ularning aqliy taraqqiyoti ko‘proq, o‘yinga bog‘liq hisoblanadi. Bola o‘yinsiz o‘sishi mumkin emas. Bu hayotiy qonunlardan biridir. Mehnat jarayonida insonning ko‘plab xususiyatlari faol rivojlanadi, hayot davomida u takomillashib boradi. Masalan, kattalar o‘zlarining xususiyatlarini ish paytida, maktab o‘quvchilari esa, darslar va o‘yinlar paytida ko‘rsatadilar. Yuqorida qayd etilgandek, o‘yin o‘quvchilarni tetiklashtiradi, tafakkurini o‘stiradi, izlanuvchanligini oshiradi. O‘yin bolalar uchun murakkab faoliyatdir. Bolalar o‘yin orqali bilim olishlari va kattalardan o‘rganishlari mumkin. Shuning uchun, guruhiy faoliyatda bolalar o‘yinlar orqali o‘z bilimlarini rivojlantirib, kengaytira boradilar.

Mantiqiy fikrlash – bu meta mazmundagi fanlararo tushuncha sanalib, uning tabiati, rivojlanish qonunlarini asoslovchi nazariyalar ko‘proq pedagogika va psixologiya sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. Mantiqiy fikrlash – bu shaxsning mavjud bilimlar bilan aniq

xulosa chiqarish uchun harakat qiladigan hamda asoslilik, izchillik kabi xususiyatlari bilan ajralib turadigan aqliy jarayondir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

**1.** Перминова Л.М. Логико-дидактический подход к обучению // Педагогика, 2004
2. Алябьева Е.А. Игры для детей 5-8 лет: развитие логического мышления и речи / Е.А. Алябьева. – М.: Сфера, 2010. – 112 с.
3. Веселовская.Е.В. Педагогическая диагностика логического мышления учащихся: Автореф.дис...канд.пед.наук
4.Орлова.Е.В., Гладин.Н.В., Воровщиков.С.Г. Как эффективно развивать логическое мышление младших школьников.– М.:«5 за знания»,2008. – С. 58.
5.Тимашова.Л.С. Развитие логического мышления школьников на уроках математики: Опыт учителя сред. шк. № 5 г. Борисоглебска Воронеж, обл. // Начальная школа, 2000. – № 10. – С. 69-73.

## BAXSHICHILIK SAN’ATIGA BIR NAZAR

**Uzakov Satbay Erejepbaevich-**
**O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti,**
**Nukus filiali “Folklor va etnografiya” kafedrasi o‘qituvchisi**

O‘zbek milliy baxshichilik va dostonchilik san’atining noyob namunalarini asrab-avaylash va rivojlantirish, uni keng targ‘ib qilish, yosh avlod qalbida ushbu san’at turiga hurmat va e’tibor tuyg‘ularini kuchaytirish, turli xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va birodarlik rishtalarini mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniyma’naviy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda yanada kengaytirish maqsadida muhtaram Prezidentimiz SH.Mirziyoyevning 2018-yil 1-noyabrdagi “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq Surxondaryo viloyatining Termiz shahrida har ikki yilda bir marta baxshichilik san’ati festivali tashkil etilmoqda [1]. Mazkur festivalning birinchisi 2019-yil 5-10-aprel kunlari o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Miramonovich 2019-yil 14-may,PQ-4320-sonida YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi bilan birgalikda o‘zbek xalqining ko‘hna va betakror san’ati namunasi bo‘lgan baxshichilik san’atini YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosining reprezentativ ro‘yxatiga kiritish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirsin belgilangan edi, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm viloyatlarida baxshichilik san’ati davlat ansambllarini, ushbu san’at turi rivojlangan boshqa hududlarda esa viloyat ansambllarini tashkil etsin, shuningdek, tegishli hududlarda bolalar musiqa va san’at maktablari qoshida baxshichilik san’ati sinflarini tashkil deydi yurtboshimiz.

Shu tariqa YuNESKOning bu ro‘yxatiga kirgan nomoddiy madaniy merosimiz ob’yektlari soni 10 taga yetdi. «Boysun tumani madaniy makoni», «Shashmaqom» mumtoz musiqasi, «Katta ashula», «Askiya san’ati», «Navro‘z», «Palov madaniyati va an’analari», Marg‘ilon hunarmandchilikni rivojlantirish markazi: (adras – atlas), Xorazm raqsi – «Lazgi», «Miniatyura san’ati» qatoridan «Baxshichilik san’ati» ham o‘rin oldi.

Qadimiy va qadrli san’at turi hisoblanmish baxshichilik san’ati avloddan avlodga, otadan bolaga, ustozdan shogirdga o‘tib xalqning tarixi, o‘zligi va dardini

kuyladi. Bu borada atoqli dostonchilar va baxshilar Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Islom shoir Nazar o‘g‘li, Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan, Umir shoir Safar o‘g‘li, Bola baxshi-Qurbonnazar Abdullayev, Zohir baxshi Qo‘chqorov, Qodir baxshi Rahimov, Chori baxshi Xo‘jamberdi o‘g‘li, Shomurod baxshi Mahmanov, Boborahim Mamatmurodov, Qalandar baxshi Normatov, Qora va Chori baxshi Umirov, Xo‘shboq baxshi Mardonaqul o‘g‘li, Shoberdi baxshi Boltayev, Abdunazar baxshi Poyonov, Abdumurod va Qahhor baxshi Rahimov kabilar ana shular jumlasidandir.

Xalq baxshilari yurtimizning barcha hududlaridan yetishib chiqqan. Keyingi avlod baxshilari bergan og‘zaki ma’lumotlarga qaraganda, XIX-asr va XX-asr boshlari dostonchilikning eng gullagan, ijro usullari g‘oyatda takomiliga yetgan davri hisoblanadi.

Xulosa sifatida qayd etish lozimki baxshichilik san’ati festivali avvalo Prezident va hukumat qarorlari asosida tashkil etilib, jahon madaniy maydonida o‘ziga xos yangi o‘zbek bayramlarini vujudga keltirdi. Mazkur bayram tomoshalarini tashkil etish va o‘tkazishda innovatsion texnika va texnologiyalardan keng foydalanildi. Bu jarayon nafaqat festival o‘tkaziladigan maxsus badiiy maydonda balki, maydon atrofida tashkil etilgan turli ko‘rgazma, xalq o‘yinlari va dor osti o‘yinlari namoyishida, mahalliy ishlab chiqarish mahsulotlari namoyishlarida ham asosiy badiiy vosita sifatida qo‘llanildi

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-noyabrdagi «Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida»gi PQ-3990-son qarori. www.lex.uz

2.Mirziyoyev Sh.M. Xalqaro baxshichilik san’ati festivali ochilish marosimidagi nutqi. Xalq so‘zi gazetasi. 2019-yil, 6-aprel soni. - Toshkent: 2019.

3.Mirziyoyev Sh.M. Baxshichilik san’ati namoyandalari va muxlislariga. Xalq so‘zi gazetasi. 2021-yil, 17-dekabr soni. - Toshkent: 2021.

4. Husan Mirpo‘latov. Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini tashkil etishning milliy va zamonaviy uslublari. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal / ISSN 2181-063X Volume 4 Issue 1 / February 2023.949.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA BERILADIGAN TA’LIM MAZMUNI

**Diyora Rahmonova O‘tkir qizi-**
NavDU Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1-kurs magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha ta’limda ta’lim mazmunini samarali tashkil etishning psixologik va pedagogik jihatlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** rivojlanish, ta’lim, hissiy bilish, tasviriy faoliyat.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается психологических и педагогических вопросы эффективной организации уроков в дошкольном образовании.

**Ключевые слова.** Развивать, образование, интуиция, изобразительная деятельность.

**Annotation.** In this article discusses the psychological and pedagogical issues of the effective organization of lessons in preschool education.

**Keywords.** Develop, education, intuition, visual activity

Bolaning o‘sishi, uning jamiyatimizga kerakli bo‘lgan yetuk shaxs sifatida voyaga yetishi muayyan qonunlarga bo‘ysunadi va bu qonunlar Prezidentimiz boshchiligida ishlab chiqilib izchil ta’riflab berilgan.

Psixologlar bolaning rivojlanishi nazariyasini, bola irsiy tabiiy moyillik qobiliyatiga, tug‘ma qobiliyatning dastlabki kurtaklariga egadir, bu tug‘ma qobiliyat kurtaklari bola tug‘ilmasdanoq uning organizmiga joylashgan bo‘ladi deb ta’riflaydilar. Bu tabiiy qobiliyatlarini o‘zgartirish ancha murakkab, unga faqat tarbiyaviy omillar yuzasidan yondashib turish lozim bo‘ladi.

Bolaning psixologik xususiyatlari tez yoki sekin namayon bo‘lib boradi.

Bolani tabiatini o‘zgartirish qiyin, bu sohada muvaffaqiyat qozonish mushkuldir. Tug‘ma biologik imkoniyatlar bola shaxsining tarkib topishida asosiy, hal qiluvchi axamiyatga egadir va bu psixik xususiyatlarning rivojlanishi, bu imkoniyatlarning pishib yetilishi o‘z-o‘ziga takomillashuvi demakdir. Buning uchun tegishli tashqi shart-sharoitlar bo‘lsa bas. Chunonchi, ta’lim tarbiya tug‘ma imkoniyatlarni namayon qilish va amalga oshirishning zaruriy shartlaridan hisoblanadi. Shuning uchun bolalarnig psixik xususiyatlaridan farq tarbiyaning turlicha ta’sir qilishi kuchiga bog‘liq.

Binobarin,.ta’lim va tarbiya, jamiyat talablariga javob beradigan muayyan shaxsiy sifatlarni tarkib toptirish maqsadida katta avlodning yosh avlodga ongli maqsadga muvofiq ta’sir ko‘rsatish jarayoni sifatida hal etuvchi muhim omil hisoblanadi. Ma‘lumki, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning o‘yinlari taqlid qilish tabiatida bo‘ladi. Bola tevarak atrofidagi borliqni boshqalardan o‘zgacharoq fahmlaydi, kuzatadi. Undagi ba‘zi narsalarni o‘yiniga kiritadi va shu o‘yin vositasida o‘zini qurshab turgan olam haqida muayyan axborotga ega bo‘ladi. Shuning barobarida, unda hodisalarga nisbatan muayyan munosabat paydo bo‘ladi.

Bolalar tabiat hodisalari, jonivorlar hayoti va harakatlariga taqlid qilib o‘ynar ekan, shu qatorda ularning ma‘nosini anglay boradi. Asta-sekin hayotiy tajriba orttiradi, qiyinchiliklarni yengishga, bu esa irodasini tarbiyalaydi. Ularda.harakat ko‘nikmalari hosil bo‘ladi va tasavvur tobora boyib boradi.

Bundan tashqari, o‘yinlar bolalarning jismoniy barkamol bo‘lishi uchungina emas, balki ularni aqliy, ma’naviy va axloqiy jihatdan tarbiyalashda ham muhum ahamiyat kasb etadi. Ko‘plashib bajariladigan faoliyat turlarida bolalar maqsadga.erishish uchun farosati va tadbirkorligini, qatiyatini ko‘rsatishi, jamoat oldida faqat o‘zining emas, balki o‘rtoqlarining hatti-harakatlari uchun ham javobgarlik hissini sezsa olishini shakillantirib borish zarur.

Rivojlanish deganda odatda bir- biriga bog‘liq ikki faktor

1. Miyaning o‘z biologik, organik yetilish, uning anatomik-biologik tuzlishining takomillashuvi;
2. Psixik (aqliy) rivojlanishining ma’lum dinamik darajalarining ortib borishi tushuniladi.

O‘z-o‘zidan ma’lumki, aqliy rivojlanish miya tuzilishining biologik tuzilishining biologik yetilishi bilan bog‘liq. Ta’lim miyaning organik tuzilishini inkor eta olmaydi. Ta’lim bilan rivojlanish o‘zaro bog‘liqdir. Rivojlanish bilan ta’lim bir- biriga mustahkam bog‘liq bir butun jarayondir. Chunki ta’limsiz to‘la aqliy rivojlanish bo‘lmaydi. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar shaxsining kamol topishida bolalarga ma’lum darajada ta’lim berish katta ahamiyatga egadir. Bolalarga ta’lim berish bog‘cha yoshidanoq va undan oldinroq boshlanadi, chunki odam ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlanishi uchun juda ko‘p va murakkab bilimga ega bo‘lishi kerak.

Bundan tashqari, ta’lim bolalarni har tomonlama rivojlantirishning eng zaruriy shartlaridandir. Bolalar qisqa davr ichida insoniyat jamiyat tomonidan yaratilgan juda ko‘p bilimlarni o‘zlashtirishlari kerak bo‘ladi.Sruning uchun bizning Respublikamiz tarbiyaning maqsadlariga.ko‘ra bolalarga ularning har bir yosh davrlarida, ya’ni oilada, yaslida, bog‘chada, maktab va oliygorlarda ta’lim beriladi. Bolalarga beriladigan ta’limning mazmuni har bir yosh davrida bir-biridan keskin farq qiladi.

Masalan: oilada va yaslida yasli yoshidagi bolalarga majburiy (bilim) ta’lim berilmaydi. Ular uchun kundalik hayotining.o‘zi ta’limdan iborat bo‘lib, bu yoshdagi bolalar kundalik hayotlarida atrof-muhitdagi narsa va hodisalar bilan tanishadilar, xilma- xil narsalarni qollari bilan ushlab ko‘rib sinchiklab tekshiradilar. Bu yoshdagi bolalar kuchli hissiyotli va juda qiziquvchan bo‘ladilar.Ularning ana shu qiziquvchanligidan keng foydalanish lozim, ta’lim berishda ularni atrof –muhitdagi narsalar bilan bevosita tanishtirishdan ko‘rsatma material yaxshi natija beradi.

Bog‘cha yoshdagi bolalarga beriladigan ta’lim xarakteri esa tubdan farqli o‘zgarib, ta’lim jarayoni maxsus tuzilgan dastur asosida olib boriladi. Bu yoshdagi bolalarga beriladigan bilim darajasi yasli yoshdagi bolalarga beriladigan bilimlarga nisbatan juda kengaytirib boriladi. Bu bilimlarni o‘zlashtirish tarbiyachi tomonidan maxsus tashkil etilgan mashg‘ulotlar orqali amalga oshadi.

Masalan: Elementlar matematika mashg‘uloti, ona tili mashg‘uloti, jismoniy tarbiya mashg‘uloti, rasm, loy, aplekatsiya konstruktivlash, kompyuter mashg‘uloti va boshqa shunga o‘xshash mashg‘ulotlar jumlasidandir. Bog‘chadagi ta’lim jarayoni mumkin qadar aniq, to‘liq.holda va ko‘rsatmali vositalar bilan o‘tkazilishi kerak. Muntazam ravishda o‘tkaziladigan ana shunday mashg‘ulotlar natijisida bog‘cha yoshidagi bolalarda bilimlarni o‘zlashtirishga ishtiyoq, qiziqish, bilimlarga havas ortib boradi. Biroq ta’limiy mashg‘ulotlarda bolalar ishini doim kuzatib turilsa, ular oldiga aniq maqsad va vazifalar belgilab berilsa, bu mashg‘ulotlar ham o‘yin faoliyatlari kabi g‘oyat qiziqarli va jozibali o‘tadi, bolalar mashg‘ulotlarda zerikmay, diqqat bilan ishtirok etishadi..

Undan tashqari bog‘cha yoshidagi bolalar shaxsiy xislatlarining kamol topishida tasvirlash faoliyatining roli kattadir. Ma’lumki bog‘cha yoshidagi bolalarga rasm solish, loydan turli narsalar yasash, kubuklardan uychalar , ko‘priklar qurish singari mashg‘ulotlar juda yoqadi. Ular o‘z tasviriy faoliyatlarida tashqi muhitni, undagi narsalarni, tabiatni, hayvonlar dunyosini, aks ettirishni juda xohlaydilar va shunga intiladilar. Bog‘cha yoshdagi bolalar tasvirlash faoliyatining psixologik afzalligi mazkur faoliyatida ijodkorlik, yaratuvchanlik elementlarining mavjudligidan iboratdir. Bolalar o‘zlari istak, hohish, intilishlari ana shunday tasvirlash, rasm solish, loy, guldan biror narsa yasash, aplekatsiya ishlari orqali ifodalashga intiladilar. Shuning uchun bog‘cha yoshdagi bolalarning tasvirlash faoliyatlari juda sodda bo‘lsa ham ular o‘zlarining bunday faoliyatlarida.atrofdagi narsa hodisalarni shunchaki tasvirlab qolmay, balki o‘zlaridan nimalarnidir qo‘shib, yangilik yaratishga harakat qiladilar. Bolalardagi ayrim qobilyatlar ularning tasvirlash faoliyatida juda erta namoyon bo‘la boshlaydi.

Bog‘cha yoshidagi bolalarning tasvirlash faoliyati juda sodda bo‘lib, ular o‘zlari tushunganiga va o‘z fikri bo‘yicha ish olib boradi, chunki ular hali yoshi katta kishilar kabi kuzatish qobiliyati o‘z tasavvurlari asosida amalga oshadi. Bu yoshdagi bolalarda tasvirlash faoliyati real voqelik emas balki o‘yin tarzida o‘tkaziladi.

Agar tarbiyachi bolalarning tasvirlash faoliyatini muntazam.ravishda pedagogik jihatdan to‘g‘ri yo‘lga qo‘ysa va tashkil etib borsa, bolalarning tasvirlash faoliyatiga munosabatlari o‘zgaradi.

Bog‘cha yoshidagi bolalarning tasvirlash faoliyatlarini takomillashtirishda narsalardan nusxa ko‘chirish juda katta ahamiyatga egadir. Nusxa ko‘chirish orqali bolalarning kuzatuv qobiliyatlari, fantaziyasi, fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha ta’limda ta’limni samarali tashkil qilish uchun avvalo bolaning psixologik holatini, uning ijodiy qolbiliyatlarini hamda aqliy jihatlarini inobatga olish muhim ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablari, T:, 2013y

## XVI ASRDA OKEANORTIDA TIBBIYOT FANINING RIVOJLANISHI TARIXI

**Buronova Sidiqa Tuxtayevna-**
NavDU “Umumiy tibbiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Yangi Ispaniya (hozirgi Meksika davlati) 1521 yildan to 1821 yilgacha Ispaniya hukumati tomonidan tayinlanadigan vitse-qiroli tomonidan boshqarilgan hudud edi. Ushbu uch asr davomida bu

yerda tibbiyotning rivojlanishi asosan islom olimlarining ta’siri ostida bo‘ladi. Natijada, Abu Ali ibn Sino va uning tibbiyotga oid qarashlari dastlab Meksika, so‘ngra butun Lotin Amerikasiga tarqaladi.

1521 yilda Hernan Kortes Asteklar qirolligini zabt etganidan so‘ng, YAngi Ispaniyada tibbiyotni o‘rganish boshlangan. CHunki o‘sha davrdagi Yevropa tibbiyoti turli xurofotlarga asoslangan edi. Jarrohlik va farmakologiya amaliyotlari esa SHimoliy yevropada hali unchalik rivojlanmagandi. Ispaniyadan YAngi Ispaniyaga kelgan har bir shifokor o‘zi bilan birga Abu Ali ibn Sinoning asarlarini ham olib kelar edi. Bu davrda Meksikada nashriyotlar tomonidan chop etilgan kitoblar orqali ibn Sinoning aynan qaysi asarlaridan foydalanilganini aniqlash mumkin. XVI asrda Ispaniyaning Alkala de Enares va Osuna universitetlarida tahsil olgan shifokor Fransisko Bravo o‘zining “Opera medicinalia” asarini (Amerikada chop etilgan birinchi tibbiyot kitobi) yozadi. U bu kitobida Abu Ali ibn Sinoning asarlaridan keng foydalanganini qayd etib o‘tgan.

Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asari XVI asrda ispan shifokorlari tomonidan keng qo‘llangan. Bu davrda ushbu kitob o‘nlab marta nashr qilinib, nafaqat ispan, balki boshqa yevropa tillariga ham tarjima qilinadi. 1523 yilda Venetsiyada “Praesens maximus codex est totius scientiae medicine principis Alboali Abinsene” nomi bilan “Tib qonunlari” asari chop etiladi. Aynan mana shu nashr YAngi Ispaniyaning tibbiyot markazlariga ham yetib borgan edi. XVI asrda Ispaniyada Abu Ali Ibn Sinonining “Epitome” yoki “Compendium” asarlari tayyorlangan. SHuningdek, bu davrda ibn Sinoning hayoti va tibbiyoti haqida Miguyel Jeronimo de Ledesma tomonidan yozilgan “Prima primi canonis Avicena” asari ham katta muvaffaqiyat qozongan edi. Bu asarlar keyinchalik YAngi Ispaniyaga ham yetib borib, 1553 yilda tashkil etilgan Qirollik va Pontifik universitetining Tibbiyot fakultetida darslik sifatida o‘qitilgan.

XX asrning o‘rtalarida taniqli meksikalik shifokor Xose Xoaquin Izquiyerdo Meksika Milliy kutubxonasida Abu Ali Ibn Sinoning 1556 yilda Joan Hervagios tomonidan nashr etilgan “Liber canonis de medicines cordialibus et cantica” kitobini topadi. Bu XVI asrda YAngi Ispaniya shifokorlari tomonidan ibn Sino asarlari ishlatilganini tasdiqlovchi dalildir.

SHuningdek, 1611 yilda Alkala de Enares shahrida nashr etilgan ibn Sinoning “Disputatione medicae” kitobi ham Meksika Milliy kutubxonasidan topilgan. Juan de Cardenas 1591 yilda yozgan “Primera parte de los problemas y secretos maravillosos de las Indias” kitobida ham ibn Sino nomi keltirilgan. Agustin Farfan o‘zining 1592 yilda nashr etilgan “Tractado Brebe de Medicina” asarida qayd etishicha, u o‘z asarini ibn Sinoning tibbiyotga oid qarashlariga tayanib yozgan. Bu davrda YAngi Ispaniyadagi tibbiyot talabalari Ibn Sinoning anatomiya bo‘yicha asarlarini Galenning sharhlari bilan birgalikda o‘rganishgan. Natijada talabalar o‘sha davrda uchrovchi bir qancha kasalliklarni davolashda ibn Sino usullaridan (qon olish, gijjalarni tozalash, plastirlar, qizdirish va turli o‘simlik damlamalarini tayyorlash) keng foydalanishni o‘rganib olishgan. Enriko Martines 1606 yilda nashr etilgan “Repertorio de los tiempos, y historia natural desta Nueva España” asarida “Tib qonunlari” haqida so‘z yuritgan. Shuningdek, Juan de Barriosning “Verdadera medicina, cirugía y astrología”si 1607 yilda chop etilib, bu asar keyinchalik butun Lotin va Shimoliy Amerikada tarqalib katta shuhrat qozongan, – shu asarda ham ibn Sino qarashlarining ta’siri sezilib turadi.

Xulosa qilib aytganda, islom tibbiyoti va Abu Ali ibn Sinoning g’oyalari mustamlaka Meksikasida katta ahamiyat kasb etgan. Yangi Ispaniyaning shifokorlari Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari”ni asosiy qo‘llanma sifatida ishlatishgan va bu asarlar keyinchalik Lotin Amerikasida tibbiyot ta’limida muhim rol o‘ynagan.

# MUAMMOLI TA’LIMNING MOHIYATI VA TARIX FANINI O‘QITISHDA MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

**Jo‘raqulova Farangiz Temur qizi-**
**Navoiy viloyat Qiziltepa 2-son politexnikumi tarix fani o‘qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekistonda bugungi kunda barcha sohalar kabi ta’lim tizimi, ayniqsa, o‘rta maxsus ta’limiga oid bo‘lgan tarix fanining o‘qitilishiga, yoshlar ta’lim-tarbiyasiga, o‘tilayotgan zamonaviy darslarning sifatiga berilayotgan e’tibor, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati, muammoli ta’lim va undan foydalanish jihatlari xususida fikrlar bildirilgan.

**Tayanch so‘zlar:** ta’lim, tarbiya, tizim, tarix, istiqlol, fan, o‘quvchi, o‘qituvchi, hujjat, pedagogik texnologiya, muammoli ta’lim.

Hozirgi kunda ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy, mafkuraviy sohalarda tub islohatlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek ta’limni texnologiyalashtirish masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ta’limni isloh qilinishi tarix fanini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlarni yaratdi.

O‘zbekistonda istiqlol sharofati tufayli barcha fan sohalarini rivojlangan davlatlarda to‘plangan tajribalar asosida tahlil qilish va yanada takomillashtirish imkoniyatlari yaratildi. Umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o‘rganish va hayotga tadbiq etish davr talabiga aylandi. Huquqiy-me’yoriy hujjatlarda ta’kidlanganidek, kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlikning xalqaro huquqiy bazasi yaratildi, xalqaro hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari ro‘yobga chiqarildi, xalqaro ta’lim tizimlari tajribasidan keng foydalanish yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 29- dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida ta’lim sohasiga alohida e’tibor qaratilib, “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug’ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Mirzo Ulug’beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog’lom turmush tarzini qaror toptirish lozim,”[250] – degan fikrlarni bildirib, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lidan jadal va samarali ilgarilab borishning negizida ta’lim-tarbiya yotganligini asoslab berdi.

Bugun rivojlanayotgan O‘zbekistonda ta’lim tizimida jahon andozalariga mos va rivojlangan xorijiy davlatlar talablariga javob bera oladigan yoshlarni tarbiyalay oladigan tizimni yaratish asosiy maqsad sifatida qaralmoqda. Shu bois Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qurilayotgan Yangi O‘zbekistonda, yangicha jamiyatimizda ta’limni birinchi o‘ringa qo‘yganligida ham katta ma’no yotibdi. Buning uchun ta’lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin.

Hozirda ta’lim tizimida pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish maqsadida uning nazariy asosini yaratish va amaliyotga tadbiq etish zarurati paydo bo‘ldiki, birinchidan an’anaviy o‘qitish tizimidagi kamchiliklarni tuzatish yozma va og’zaki so‘zlarga tayanib ish ko‘rishdan tashqari o‘quv faoliyatini, o‘quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylantirishga yo‘naltirishdir. Ikkinchidan, ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanayotgan bosqichida axborotlarning keskin ko‘payib borayotganligi va ulardan o‘qitish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi, shuningdek yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talablari ta’lim tizimiga yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda.

O‘rta maxsus ta’lim tizimida tarix fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyalarning o‘rnini aniqlash ham ana shunday dolzarb muammolardan hisoblanadi. Yomon o‘qituvchi o‘quvchilarga

[250] Sh.Mirziyoyev. Oliy Majlisga Murojaatnoma. 2020 yil 29 dekabr. O’zbekiston “Milliy tiklanish ” demokratik partiyasining rasmiy veb sayti. https://mt.uz

materialni tayyor holda beradi, yaxshi o‘qituvchi esa uni izlab topishni o‘rgatadi. Shunday ekan, tarix darslarida muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning metod va usullarini o‘rganish muhimdir. Bugungi kunda tarix darslarida muammoli ta’lim metodlaridan foydalanishga doir umumiy o‘rta maxsus ta’lim tizimi uchun aynan yaratilgan birorta maxsus metodik adabiyotni ko‘rsatish mushkul. Ta’lim tizimida esa, jumladan tarix darslarida muammoli ta’limni qo‘llash va samaradorlikka erishishni davr taqozo etmoqda. Chunki o‘rta maxsus ta’lim tizimi tarix darslarida o‘tiladigan mavzularda insoniyat tarixiy taraqqiyotida jahon xalqlari va o‘zbek xalqi hayotida ro‘y bergan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlarni va voqea-hodisalarni o‘quvchilarga o‘rgatishda darslar jarayonida o‘qituvchi tomonidan muammoli vaziyatlarning yaratilishi o‘quvchilarda inson hayotida bo‘ladigan muammolarning yechimini topib, muammodan chiqib ketish yo‘llarini, mustaqil mushohadani va aniq xulosaga kelish yo‘llarini, atrofdagilarning fikr-mulohazalarini hurmat qilish, muammoli vaziyatdan chiqishda optimal yo‘lni to‘g’ri tanlay olish kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Hozirgi kunning vazifasi – o‘quv jarayonini o‘quvchilarda faqat reproduktiv fikrlashni emas, balki ijodiy fikrlashni ham shakllantiradigan yo‘sinda tashkil qilishdir. Psixologlarning ta’kidlashicha, fikrlash, doimo muammo yoki savoldan, ajablanish yoki tushuncha olmaslikdan va ziddiyatdan boshlanadi.

Ta’limga muammoli yondashish pedagogikaga faol kirib kela boshladi. Ta’limdagi muammolilik an’anaviy didaktikaning prinsiplarini va qoidalarini inkor qilmaydi, balki ularga tayanadi. Muammoli yondoshishdan maqsad, ta’lim jarayonini o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini faol rivojlantiradigan metodlar va usullar bilan to‘ldirishdan iboratdir.

Muammoli ta’limdan foydalanishdan maqsad zamonaviy ta’lim jarayonini takomillashtirib, uni bir pog’ona yuqoriga ko‘tarishdir. Bunda eng avvalo o‘qituvchi materialni shunchaki bayon qilmasligi va o‘quvchilarga tayyor xulosalar hamda umumlashmalarni aytib bermasligi kerak. Balki ularning fikrini o‘rganilayotgan ob’yektga jalb etishi shart. Demak, zamonaviy o‘qituvchi o‘zining o‘quvchilariga olgan bilmilarini kuzatilgan hayotiy faktlar va voqealar bilan qiyoslashi, shu asosda to‘g’ri xulosalar va umumlashmalar chiqarishni o‘rgatishi lozim. Ta’limda muammoli yondoshish o‘quv dasturlarida ham, o‘qituvchi ma’ruzasida hamda o‘quvchilarning mustaqil ishida o‘z ifodasini topishi kerak. M.Skatkin muammoli ta’limning quyidagi 3 ta asosiy turini alohida ifodalaydi.

*1. Bilimlarni muammoli bayon qilish.* Bunday bayon qilishda o‘qituvchi o‘quvchilarga u yoki bu qoidalarni faqat gapirib bermaydi, balki og’zaki fikr yuritib, muammoni ham aytadi va uni hal qilish jarayonini ko‘rsatadi.

*2. Bayonning ayrim bosqichlarida o‘quvchilarni izlanishga jalb etish*. Bunda o‘qituvchi muammoni qo‘yadi, o‘quv materialini tushuntiradi, lekin ana shu jarayonda o‘quvchilarga ulardan izlanish jarayoniga qo‘shilishni va u yoki bu bilish vazifasini mustaqil holda hal etishni talab qiladigan savollarni beradi.

*3. Ta’limning tadqiqiy metodi.* O‘quvchilar darsdagi o‘quv muammosini anglab, o‘zlari izlanish rejasini belgilaydilar, taxminni tuzadilar, uni tekshirish yo‘lini muhokama qiladilar, kuzatish va tajribalarni va faktlarni taqqoslaydilar, umumlashtiradilar.

Muammoli bayon qilish jarayonida izlanishni o‘qituvchi olib boradi, o‘quvchilarga ilmiy isbotlash bo‘yicha fikrlash namunasini ko‘rsatadi, o‘quvchilar faqat uning mulohazasini kuzatadilar, muammoni hal qilishga qaratilgan qiziqishni o‘rganadilar. Muammoli ta’limning maqsadi – o‘quv materialini o‘quvchilar ongida ilmiy izlanishga o‘xshash bilish vazifalari va muammolarini vujudga keltiradigan yo‘sinda o‘rgatish tushuniladi. O‘quvchining fikrlash faoliyatida muammoli vaziyatlar vujudga keladi va ular bolani ob’ektiv ravishda ilanishga va mantiqan to‘g’ri ilmiy xulosalar chiqarishga o‘rgatishga da’vat etadi. Mualliflarning fikricha, o‘quvchilarning fikrlash faoliyatida

muammoli vaziyatlarning shakllanishi ularning shaxsida qiziquvchanlik, o‘tkir zehnlilik, mustaqillik, o‘qishga qiziqish va ijodga intilish kabi fazilatlarni tarbiyalaydi[251].

Muammoli vaziyatning har xil turlari bo‘lishi mumkin. O‘quvchilarning qiziqishlariga qarab topshitriqlarni o‘qituvchilar ko‘pincha qo‘llab kelmoqdalar.

**Muammo** – ilmiy bilishni rivojlantirish zarurligini ifodalashning sub’yektiv shaklidir. U muammoli vaziyatning, ya’ni jamiyat rivojlanishi jarayonida bilish va bilmaslik o‘rtasida ob’yektiv ravishda vujudga keladigan ziddiyat.

Ilmiy muammo shaxsdan bilimlarning mazkur sohadagi noma’lum narsalarni yoritishni talab qiladi. Shuningdek, o‘zining hal qilinishi uchun fanda ma’lum bo‘lmagan anchagina yangi bilimlarning o‘zlashtirilishini taqozo etadi. Muammoni hal qilish uchun o‘quvchilar avvalgi bilimlaridan foydalanishi lozim. O‘quv muammosida juda katta yangilik bo‘lmaydi. Demak, o‘qituvchi o‘quvchilar oldiga har qanday muammoni emas, balki ular tushuna oladigan muammolarni qo‘yishi kerak.

**Muammoli vaziyat** – o‘quvchining ma’lum psixik holatidir. Bunday holat ma’lum topshiriqni bajarish (savolga javob topish) jarayonida ziddiyatni anglash o‘quvchilarda fan to‘g’risidagi yangi bilimlarni izlash ehtiyojini uyg’otadi.

**Muammoli vaziyatlarni yaratish va hal qilishning yo‘llari.** Muammoli vaziyat muammodan farqli ravishda unga o‘quvchini jalb etishdan iboratdir.

Muammoli ta’lim jarayonida uchraydigan vaziyatlarning ikkinchi ko‘rinishi o‘quvchilar o‘zlariga ma’lum ishni bajarish uchun bartaraf etishlari zarur bo‘ladigan ba’zi “aqliy” to‘siqlarga duch keladilar.

*Muammoli ta’limning quyidagi metodlari bor:*

1. Tadqiqot metodi.
2. Qisman izlanish yoki evristika metodi.
3. Tushuntirish, namoyish etish metodi.
4. Muammoli bayon qilish metodi.
5. Reproduktiv metod.
6. Muammoli boshlash bilan bayon qilish metodi.

Xullas, muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o‘ziga xos o‘qitish sharoitida yuzaga keladi hamda o‘rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. O‘qitishda muammoli vaziyatlar shunchaki “fikr yo‘lidagi kutilmagan to‘siq” bilan bog’langan aqliy mashaqqat holati emas, balki u bilish maqsadlari maxsus taqozo qilgan aqliy taranglik holatidir. Bunday vaziyat negizida avval o‘zlashtirilgan bilim izlari va yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi. Shunday qilib, tarix darslarida muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanilganda:

1. O‘quvchilarda hayotning real voqea va hodisalardan iborat ekanligiga ishonch uyg’onadi; 2. O‘quvchilar muammoni har doim yechimi bo‘lishini va uni yechish kerakligini tushunib yetadilar; 3. O‘quvchilarda atrofdagilarga nisbatan hurmat uyg’onadi; 4. Guruhda ishlaganda guruhdagilarning fikrini hurmat qilishi lozimligini tushunib yetadilar; 5. O‘quvchilarda har xil kasblarga nisbatan qiziqish uyg’onadi va yuqori sinflarda kasb tanlay olish ko‘nikmasi shakllanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g’risida”gi Qonuni. Toshkent. 2020.

2. Sh.Mirziyoyev. Oliy Majlisga Murojaatnoma. 2020 yil 29 dekabr. O‘zbekiston “Milliy tiklanish ” demokratik partiyasining rasmiy veb sayti. https://mt.uz

3. Og`ayev S. Yangi pedagogik texnologiya-hayotiy ehtiyoj. Xalq ta’limi jurnali, 2001, №3, 69-71 b.

[251] Mavlonova M., To’rayeva O, Holiqberdiyev K. Pedagogika. – Toshkent:. “O’qituvchi”. – 2001. B. 281.

4. Pedagogika. Pedagogicheskie teorii sistemi, texnologi. Pod.red. S.A.Smirnova. – M.: Akademiya, 2004.

5. Roziqov O., Og`ayev S., Mahmudov M., Adizov B. Ta'lim texnologiyasi. – T.: O`qituvchi, 1999.

## XIX ASRDA QO‘QON XONLIGI TARIXSHUNOSLIGIGA BIR NAZAR

**Valiyev Olimjon-**
Mirzo Ulug‘bek nomidagi Milliy universiteti magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XIX asrda Qo‘qon xonligi tarix fanining taraqqiyoti aks etgan. Bundan tashqari maqolada bu davrda Qo‘qon xonligida yaratilgan tarixiy asarlar va ularda xonlikda yuz bergan tarixiy jarayonlar tahlil etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Qo‘qon xonligi, tarix fani, tarixchi olimlar, Umarxon, “Qo‘qon tarixnavislik maktabi”, nazmiy, nasriy shakllar.

**Аннотация.** В статье отражено развитие истории Кокандского ханства в XIX веке. Кроме того, в статье анализируются исторические произведения, созданные в Кокандском ханстве в этот период, и отраженные в них исторические процессы, происходившие в ханстве.

**Ключевые слова:** Кокандское ханство, история, историки, Умар-хан, «Кокандская школа историографии», поэтические и прозаические формы.

**Abstract.** This article reflects the development of the history of the Kokand Khanate in the 19th century. In addition, the article analyzes the historical works created in the Kokand Khanate during this period and the historical processes that took place in the khanate in them.

**Keywords:** Kokand Khanate, history, historical scholars, Umarkhan, “Kokand School of Historiography”, poetic and prose forms.

**KIRISH.** Buxoro, Samarqand va Xiva (Xorazm) kabi qadimiy madaniy markazlarga nisbatan, Qo`qonda tarix fani va tarixnavislik (istoriografiya) birmuncha keyinroq paydo bo`ldi. Buning sababi, Qo`qon xonligi XVIII asrda tashkil topgan edi. Xuddi shu yillarda SHohruhbiy Buxorodan mustaqil bo`lgan Qo`qon xonligi asos soldi.

Avvalgi Qo`qon hukmdorlari o`zlarini «beklar» yoki «biylar» deb atar edilar. Ular ichida Olim (1798-1810) birinchi bo`lib o`zini «xon» deb atadi. Muhammad Alixon (1822-1842) davrida esa qozoqlar, qirg`izlar va tojiklar yashaydigan hududlarni ham egallagach, Qo`qon xonligi juda keng va kuchli davlatga aylandi.

**ASOSIY QISM.** Shunga qaramay, Qo`qon tarixnavislik maktabi xonlik tashkil topganidan ancha keyin shakllana boshladi. Tarixiy adabiyot ham nazmiy, ham nasriy shaklda yozilardi[252].

Umuman olganda, XVIII-XIX asrlarda Qo‘qon xonligida ilm-fan va madaniyat Umarxon hamda uning rafiqasi, shoira Nodirabegim homiyligi tufayli rivojlana boshlagan. Ular Qo‘qonda o‘sha davming mashhur shoirlari Maxmur, Amiriy, Gulxaniy, Zavqiy, Nizomiy, Dilshodi Bamo, Uvaysiy va Fazliy Namangoniy kabi ajoyib adabiy muhit vakillarini to‘play olgan. O‘sha vaqtda Qo‘qonda adabiyot bilan bir qatorda o‘ziga xos tarixshunoslik maktabi ham rivojlangan edi.

Mazmuniga nisbatan esa ularni voqeanavislik (bayoniy), xotira, jo`g`rofiy asarlarga ajratish mumkin bo`lib, ular umumdunyo yoki umumiy tarixni ham qamrab olardi. Ya`ni, bunday asarda muallif o`z so`zini olamning yaratilishidan, Odam alayhissalomning dunyoga kelishidan boshlaydi. Shu bilan bir qatorda, ko`plab mamlakatlarning tarixini ham tasvirga oladi. Boshqa bir asarlar esa yaxlit bir tarixga bag`ishlanib, muayyan bir xon yoki sulolaning hayoti yoritilgan bo`ladi.

[252] Ergashev B. Tarixshunoslik. O‘quv qo’llanma. Samarqand 2019. 110-bet.

Ilmiy adabiyotlar va manbalarni o ‘rganish davomida Qo‘qon tarixchilar maktabi vakillarining 40 dan ortiq asarlari mavjudligini aniqlangan[253]. Ushbu asarlar janr jihatidan xilma-xil: she’rlar, insholar, badiiy va tarixiy asarlar, xotiralar va biografik asarlardan iborat. Ular o‘zbek, fors va arab tillarida yozilgan bo‘lib, hozirda ularning qo‘lyozmalari Rossiya Fanlar akademiyasining Sankt-Peterburgdagi Sharqshunoslik instituti filiali, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondlari va shaxsiy kutubxonalarda saqlanmoqda.

Ular orasida Dilshodi Bamoning “Тарихи мухожирон”, Muhammad Hakimxonning “Мунтахаб ат-таворих”, Mirzo Olim Mushrifhing “Ансоб ас-салотин ва таворих ал-хавок*ш”, Abu Ubaydullohning “Хулосат ул-ахвол”, Muhammad Solihning “Тарихи жадидайи Тошканд”, Muhammad Yunusning “Тарихи Алимкул амирлашкар”, Muhammad Azizning “Тарихи Азизий”, Is’hoqxon Ibratning “Тарихи Фарғона”, Mulla Olim Maxdumning “Тарихи Туркистон”, Mahmud Hakim Yayfoniyning “Хуллас ат-таворих”, Po‘lat Qayyumiyning “Ҳуқанд тарихи ва унинг адабиёти” kabilarni qayd etish mumkin[254].

Ilk tarixiy asar Qo`qonda 1237/1823 yilda bitildi. Muallifi – Mirzo Qalandar Isfaragiy. U Umarxon (1810-1822) saroyida muarrix va shoir Mushrif nomi bilan ham tanilgan. Asar «SHohnomai Umarxoniy», «SHohnoma», shuningdek, «Tarixi amir Umarxoniy», «SHohnomai Nusrat payom» kabi bir necha nomlar bilan atalgan.

Mushrifning mazkur asari «Umarnoma» manzumasining nasriy bayonidan iborat bo`lib, «Umarnoma»ning o`zi «Fazliy» taxallusi bilan mashhur bo`lgan shoir Abdulkarim Namangoniy qalamiga mansubdir.

Fazliyning ushbu asari ham 1237/1823 yilda bitilgan. Boshqacha aytganda, Fazliy o`z manzumasini tugatgan zahotiyoq, Umarxon manzumaning nasriy bayonini tayyorlash uchun Mushrifga ko`rsatma bergan.

Qo`qon xonligida yaratilgan navbatdagi asar – «Muntaxob at-tavorix»dir. Muallifi Muhammad Haqimxonto`ra bo`lib, asar 1259-1843 yilda yozilgan. Bu kitob umumdunyo tarixi bayon etilgan asarlar sirasiga kiradi, undagi voqealar dunyoning yaratilishidan boshlanib, 1845-yil voqealariga qadar davom etib keladi. Asarning qurama (kompilyativ) qismi ko`plab boshqa kitoblarga asoslanib yozilgan lavhalardan iborat.

Qo`qon xonligida yaratilgan tarix asarlari ichida «Mirot ul- futuh», «Tuhfat at-tavorixi xoni», «Tarixi SHohruhiy» kabi asarlarni ham ko`rsatib o`tish mumkin. SHulardan «Mirot ul-futuh» To`raxo`ja qalamiga mansub bo`lib, asar 1281/1865 yilda yozilgan. «Tuhfat at-tavorixi xoni» asari 1286/1869-yil yozilgan bo`lib, muallifi Avazmuhammad Attordir. 1288/1871-yilda yozilgan «Tarixi SHohruhiy»ning muallifi Mullo Niyoz Muhammad Ho`qandiydir. Umumiy aytganda, Qo`qon tarixnavislik maktabiga oid o`ttizga yaqin tarixiy- adabiy, solnoma va boshqalarni sanay olamiz.

Qolaversa, Qo`qon xonligi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinganidan so`ng bitilgan «Ansob as-salotin tavorix al-xavoqin» (XIX asrning 80-yillari), «Mufassali tarixi Farg`ona» (yozilgan yili noma`lum, muallifi Qozi Otabek Andijoniy), yana o`zbek tilida bitilgan «Mukammali tarixi Farg`ona» (muallifi – Qozi Otabekning o`g`li Muhammad Fozilbek) kabi asarlarni ham aytib o`tish kerak. Ammo, ular hozirgacha ilmiy jihatdan chuqur tahlil etilmagan, sababi, ularda avval bitilgan asarlardagi voqealar takrorlanadi[255].

**XULOSA**. Qo‘qon tarixchilar maktabi vakillarining asarlarini o‘rganishga qiziqish Sovet davrida kuzatilgan bo‘lsa-da, bu davrda yaratilgan tadqiqotlardagi ma’lumotlar asosan, qisqa shaklda

[253] Вохидов Ш. Кўқон хонлигида XIX-XX асрнинг бошларида тарихнависликиинг ривожланиши. Тарих фан. док. ... дисс. Тошкент, 1988. 315 б.

[254] Doniyorov A. X. Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi / Darslik. Toshkent: NIF MSH, 2020. 231-bet.

[255] Kamoliddin Sh.S.Markaziy Osiyo tarixi zamonaviy tarixshunosligidagi yondashuvlar//Darslik. Toshkent: 2019. 108-bet.

keltirilgan. Ushbu xonlik tarixnavisligi bo‘yicha tadqiqotlar rivoji nisbatan XX asming 60-80-yillarida kuzatilgan.

Mazkur davrda V.Romodin, A.Qayumov, R.Nabiyev, H.Bobobekov, T.Beysimbiyev, A. O‘rinboyev, E.Xurshut va Sh.Vohidov kabi tadqiqotchilar Qo‘qon xonligi davri mualliflarining ayrim asarlarini ilmiy muomalaga kiritdilar.

Qo‘qon tarixchilar maktabi vakillarining asarlari faqatgina mustaqillik yillarida maxsus ilmiy tadqiqot ob’yektiga aylandi. Jumladan, D.Sangirova, B.Tursunov, O‘.Sultonov, Sh.Mahmudov, T.Xudoyqulov va boshqa tadqiqotchilaming ilmiy izlanishlarida Qo‘qon tarixchilar maktabining shakllanish bosqichlari, ushbu maktab vakillari faoliyati hamda asarlaming mazmunini chuqur o‘rgandilar.

## NAVOIY VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI VA OMILLARI

**NavDU tarix fakulteti**
**Tarix kafedrasi o‘qituvchsi**
**Xo‘jayeva L.Sh.**

Turizm respublikamiz iqtisodini yuksaltirish, milliy va madaniy qadriyatlarimizni dunyoga targ’ib qilishda muhim omil hisoblanadi. Viloyat turizmi ham xalq xo‘jaligining o‘ziga xos tarmog’i sifatida viloyatimiz daromadiga hissa qo‘shmoqda.

2008 yilda xorijiy sayyohlar uchun 95 million 300 ming so‘mlik turistik va 163 million 643 ming so‘mlik mehmonxona xizmatlari ko‘rsatilib, jami 261 million 26 ming so‘m servis xizmatlari bajarilgan. 2009 yilning to‘qqiz oyi mobaynida esa jami 295025.0 so‘mlik turistik faoliyat uchun servis xizmatlari ko‘rsatilgan. Bu 2008 yil to‘qqiz oyiga nisbatan 68601.7 so‘m ko‘pdir va o‘sish sur’ati 130 foizni tashkil etadi. 2008 yilda mehmonxonalar bilan birga yotog’i bilan birga 6000 nafardan ortiq sayyoh qabul qabul qilgan bo‘lsa, 2009 yil 9 oyi davomida yotog’i bilan 6800 nafar xorijlik turistlarga sayyohlik xizmati, ya’ni asosan avtotransport, yotoqxona, ovqatlanish, tarjimonlik, yekskursovodlik xizmatlari ko‘rsatildi[256]. Viloyatga tashrif buyurayotgan sayyohlar asosan Belgiya, Isroil, Germaniya, Franiya, YAponiya, Shvetsiya kabi mamlakatlaridan bo‘lib, viloyatimzdagi Qosim SHayx, Raboti Malik, Sarmish, Nurota chashmasi kabi tarixiy joylarda va go‘zal Qizilqum sahrosidagi Aydarko‘l yoqasidagi turistik bazalarda bo‘lishgan.

Navoiy viloyatida turizm rivojlanayotgan sohaga aylanmoqda. Respublika «O‘zbekturizm» kompaniyasining viloyat filiali 2006 yil davomida 3074 ta mijozlarga tashkil yetilgan sayyohlik xizmatining umumiy hajmi 37.4 mln. so‘mni tashkil qilib, 2005 yilning mos davriga nisbatan 17.8 foizga ko‘paygan[257].

2007 yilda bir kunlik yekskursiyalarni qo‘shib hisoblaganda 8000 nafar xorijiy sayyohlar viloyatimizga qabul qilingan bo‘lsa, 2008 yilda jami 11000 nafar xorijlik sayyohlar tashrif buyurdi. 2009 yil to‘qqiz oyi davomida esa bu raqam 12500 nafarni tashkil yetdi[258]. Bu sayyohlik xizmatini rivojlanib borayotganligini ko‘rsatadi.

Viloyatda mahalliy turizmni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. 2009 yilning to‘qqiz oyi davomida Respublikamizning Xiva, Buxoro, Samarqand, Toshkent, SHahrisabz kabi shaharlariga

[256] «Ўзбектуризим» миллий компанияси Навоий вилояти саёҳат ва экскурциялар буюроси жорий архив материаллари.
[257] Халқ депутатлари Навоий вилоят Кенгашининг 9 сессия материаллари. 2007 йил 6 апрель.
[258] «Ўзбектуризим» миллий компанияси Навоий вилояти саёҳат ва экскурциялар буюроси жорий архив материаллари.

2720 nafar viloyat mehnatkashlar sayohatga yuborilgan. Bu borada 2008 yilda 42 million so‘mlik, joriy yilning 9 oyi davomida esa 47 million so‘mlik ish (xizmatlar) bajarilgan[259].

2006 yilda viloyatda 2 ta sayyohlik firmasi faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 2009 yilda bunday firmalar 5 taga yetdi. Yangidan tashkil yetilgan sayyohlik firmalarida 35 ta ish o‘rinlari yaratishga yerishildi.

Bundan tashqari, 2006-2009 yillarda Aydarko‘l yoqasida bir yo‘la 100 nafardan ortiq sayyohlarni qabul qiladigan 2 ta turistik baza barpo yetilishi natijasida 28 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi[260]. Ushbu turistik bazalar Aydarko‘l yaqinidagi Yangig’azg’on va Do‘ngalak qishloqlarida turistik faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu yerda sayyohlar uchun hamma shart-sharoitlaryaratilgan. Qizilqum sahrosidagi betakror go‘zallik, hayvonot olami, tuyalarda sayr qilish, Aydarko‘l kabi noyob tabiat mo‘jizalari yildan-yilga ko‘proq chet yellik sayyohlarni o‘ziga jalb etmoqda.

Zarafshon shahrida viloyat sayyohat va yekskursiyalar byurosining filiali tashkil yetilishi viloyatning chekka hududlarida ham sayyohlik va turizmni rivojlantirishga e’tibor qaratilayotganidan dalolat beradi. Mazkur filialning ochilishi 3 ta yangi ish o‘rnini yaratdi. Shuningdek, viloyatda keyingi 3 yil davomida 4 ta mehmonxona va 1 ta «Milliy uy» mehmonxonasi tashkil yetildi. Buning natijasida 45 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi[261]. Viloyatga tashrif buyuradigan sayyohlarga xizmatlarni yaxshilash maqsadida Konimex tumanidagi «Sarbel» shirkat xo‘jaligida qozoq va qoraqalpoq milliy kiyimlarini ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan sex ishga tushirildi va bu sexda 10 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi. Uchquduq tumanidagi «Ayaqquduq» shirkat xo‘jaligida o‘tov jihozlari va bezaklarini tayyorlaydigan kichik korxona ishga tushirilib, 11 ta yangi ish o‘rinlari tashkil yetildi.

«O‘zbekturizim» milliy kompaniyasi Navoiy viloyati sayohat va yekskursiyalar buyurosi viloyatda turizmni rivojlantirish borasida samarali ishlarni amalga oshirayapti. 20 xil turistik mashrutlar 3 xil ingliz, nemis va rus tillarida ishlab chiqilib, respublikadagi barcha turistik tashkilotlarga tarqatilgan. Viloyat turistik kartasi ishlab chiqilgan. Turistik mashrutlar, tarixiy obidalar internetga kiritilgan. 2009 yil sentabr oyida internet portalida O‘zbekturizim» milliy kompaniyasi Navoiy viloyati sayohat va yekskursiyalar buyurosining veb-sayti (www.navoiy-turizm.uz) ochildi.

Har yili oktabr kunlari Toshkent shahrida o‘tkazilgan «Buyuk ipak yo‘li» xalqaro turistik yarmarkasida Navoiy viloyati vakillari ham qatnashib, viloyatning turistik imkoniyatlarini namoyish yetildi. Yarmarkada 40 dan ortiq turistik firmalar bilan hamkorlik shartnomalarini imzolandi. Viloyatda keyingi yillarda bu sohani rvojlantirish borasida bir qator dasturlar ishlab chiqish rejalashtirilgan. Lekin viloyatda mavjud resurslardan har doim ham samarali foydalanishga yerishilmayapti.

Bizning fikrimizcha viloyatning sayyohlik salohiyatini inobatga olib, tegishli infratuzilmani barpo etish masalasiga jiddiy yondashish taqozo yetiladi. Chunki Navoiy viloyati turizm uchun haqqiy manba. Butun dunyo hamjamiyati e’tiboriga tushgan viloyatimizda bundan keyin chet yellik turistlar, tadbirkor, ishbilarmonlari tashrif buyuradigan manzilga aylanishi tabiiy. Bugun viloyatimizning ayeroport hududi erkin iqtisodiy sanoat zonasiga aylantirilganligi ko‘plab turistlarning tashrif buyurishlariga yo‘l ochdi. Shu ma’noda Bugun Navoiy viloyatida turistik xizmatlarni rivojlanish resurslari yetarlicha ekanligini hisobga olib, uning imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish uchun chora-tadbirlar belgilash zarur. Bular quyidagilardan iborat:

- Navoiy shahri sharqning eng go‘zal shaharlari Samarqand va Buxoro oralig’ida joylashagan. Bugun Navoiy ayeroporti jahon talablariga to‘la javoberadigan holga

[259] «Ўзбектуризим» миллий компанияси Навоий вилояти саёҳат ва экскурциялар буюроси жорий архив материаллари.

[260] «Ўзбектуризим» миллий компанияси Навоий вилояти саёҳат ва экскурциялар буюроси жорий архив материаллари.

[261] «Ўзбектуризим» миллий компанияси Навоий вилояти саёҳат ва экскурциялар буюроси жорий архив материаллари.

keltirildi. Bu turistlar uchun Navoiy orqali bu ikki tarixiy shaharga Samarqand-Navoiy-Buxoro turistik mashrutlar ishlab chiqishlishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi;

- Viloyatda ayniqsa ekologik turizmni rivojlantirish bo‘yicha juda katta turistik salohiyat mavjud. Bu salohiyatdan samarali foydalanish zarur;
- Turizmning jahon talablariga javob bera oladigan moddiy-texnik, axborot-tahliliy bazasini yaratish, xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirish zarur;
- Mehmonxonalar sharoitini tubdan o‘zgartirib, xorijliklar talabiga javob beradigan darajaga yetkazish kerak;
- Sayyohlarni ko‘proq jalb etishning yana bir muhim omili reklama va targ’ibot-tashviqot ishlaridir. Viloyatimizning tarixiy yodgorliklari, go‘zal va betakror tabiati, o‘simlik va hayvonot dunyosi haqida bukletlar, turistik atlas va xaritalar yordamida turizm bozorida targ’ibot ishlarini amalga oshirish lozim. Bu tadbirni, zamonaviy atama bilan aytganda piar-kompaniyani kuchaytirish zarur;
- O‘zbekiston turizmini dunyoga tarannum qiladigan reklama roliklarini ishlab chiqish, jahonning turli tillarida vatanimiz tabiati, landshafti, hayvonot va o‘simlik dunyosi, yekoturizmning salohiyati va uning rivolanishi konsepsiyalari haqida internetda saytlar ochish va uning imkonyatlaridan yanada samaraliroq foydalnish;
- Turizm sohasida xizmat qiluvchi jahon talablariga javob bera oladigan yuqori malakali mutaxassislarning yetarli emasligini hisobga olgan holda, yosh mutaxassislarni turizm rivojlangan mamlakatlarga malakalarini oshirish uchun o‘qishga, ishga yuborish lozim. Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda sohaga kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni taqazo etadi;
- Turizm sohasi bilan bog’liq tashkilotlarga ko‘proq xuquqlar, imtiyozlar berish, chet yel sayyohlariga viza olishni soddalashtirish;
- Viloyatdagi tarixiy obidalar joylashgan tumanlarda, ekoturizm uchun ahamiyatga ega bo‘lgan hududlarda zamonaviy kempinglar barpo etish maqsadga muvofiqdir;
- Turizmni yanada rivojlantirish uchun xalq amaliy san’atini, milliy hunarmandchilikni rivojlantirish ham talab yetiladi.

Respublikamizda, jumladan viloyatimizda yuqorida ta’kidlab o‘tilagan sohaga oid tadbirlaning amalga oshirilishi so‘zsiz sayyohlik salohiyatining rivojlanishiga, malakatimizning turizmi rivojlangan davlatlar qatorida bo‘lishiga imkon yaratadi.

## XULOSA

Vatanimizda turizm sohasi qadim tarixiy ildizlariga ega. Tarixning turli davrlarida vatanimiz hududlariga tashrif buyurgan sayyohlar va ularning faoliyati haqida ko‘plab ma’lumotlar mavjud. Eng qadimgi davrlardan vatanimizga tashrif buyurgan va shu yerda yashagan halqlarning madaniyati, urf-odatlari, marosimlari haqida antik davr olimlaridan Gerodot o‘zining ‘Tarix” asarida, Strabon o‘zining “Tarixiy geografiya” asarida va bosqa Yunon va Rim tarixchilari o‘zlarining ko‘rgan- bilganlari va yeshitganlari asosida ilmiy jihatdan qimmatli ma’lumotlarni yozib qoldirganlar. O‘rta asrlarda jumladan Temur va Temuriylar davrida Sharq va yevropa davlatlari bilan o‘zaro manfaatli diplomatik munosabatlar keng yo‘lga qo‘yilgan.Sohibqiron Amir Temur yelchilari dunyoning ko‘plab mamlakatlarida, jumladan yevropa mamlakatlarida bo‘lgan. O‘z navbatida yevropa va Sharq mamlakatlari halqlari vatanimiz hududiga tashrif buyurishgan va o‘zaro madaniyatlar almashinuvida muhim ahamiyat kasb yetgan. Xonliklar davrida ham xorijiy mamlakatlar bilan o‘zaro aloqalar va madaniyatlar almashinuvi birmuncha rivojlanganligiga bir talay dalillar mavjud. Bunga Amir Abdulahadxonning Russiyaga sayohati yohud ruslarning O‘rta Osiyo yerlariga sayohatini aytishimiz mumkin. Sho‘rolar davrida O‘zbekistonda turizm sohasiga deyarli e’tibor berilmadi. Har bir ittifoqdosh respublika ma’lum bir sohalarga ixtisoslashtirildi. Masalan, O‘zbekiston paxta, Qozog’iston bug’doy, Gruziya choy, Ukraina shaker va hk. Yurtimizdagi

ko‘plab turizm bilan bog’liq madaniyat yodgorliklari buzib tashlandi yoki halq xo‘jaligi maqsadlarida foydalanildi. Mustaqilligimiz sharofati bilan qator yillarda turizm sohasida tub islohotlar amalga oshirildi. Yurtboshimiz rahnamoligida xalqaro turizmni rivojlantirish, xizmat ko‘rsatish va servis sohasini yanada yuksaltirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Sayyohlik infratuzilmasi yil sayin takomillashib, sport, madaniyat, yekologiya va tarix bilan bog’liq turizm kabi yangi tarmoqlar rivojlanmoqda. Yurtimizda yangi sayyohlik marshrutlari ishlab chiqilib, ko‘plab zamonaviy mehmonxonalar qurilgani, mavjud yo‘llar ta’mirlanib, kengaytirilgani, yangilari barpo yetilgani soha rivojidagi bir yangilikdir.Vatanimiz hududi tarixiyligi jihatidan qo‘plab sharq va yevropa halqlarining diqqat e’tiborini o‘ziga tortib qelmoqda va bu turizm sohasi rivoji uchun qo‘layliq tug’diradi. Turizm sohasi davlat siyosati darajasiga qo‘tarildi. Bu borada bugungi kunda turizm sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

turizm va turistik industriyani rivojlantirish;

fuqarolarning sayohat qilish paytidagi dam olish, yerqin harakatlanish va boshqa huquqlarini ta’minlash;

Respublikada turizm sohasi va unuig infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha ko‘pgina tadbirlar bilan bir qator muammolar yechimlarini ham kuzda tutadi. Turzim sohasining raqobatbardoshligini oshirishni ta]minlaydigan shart-sharoitlarni yaratishda davlatning rolini oshirish, turizmni rivojlantirishning jahon amaliyotida jamlangan ilg’or tajribasini, usullari va vositalarini milliy iqtisodiyotimizga joriy qilish shular jumlasidandir.

Hozirgi davrda respublikamizda milliy turizmning barqaror rivojlanish muammolarini hal qilishning nazariy, uslubiy va amaliy yondashuvlarni ishlab chiqish, turistik mahsulotlar bozorini shakillantirish, mazkur soha faoliyatini tartibga solishning iqtisodiy usullari va ularni boshqarishning tashkiliy tuzulmalarini, turizmni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Navoiy viloyati turizmni rivojlantirish va kengaytirish borasida katta imkoniyatlar, tabiat boyliklari va yodgorliklari mavjud. Jumladan, To‘dako‘l, Sho‘rko‘l, Aydarko‘l kabi suv havzalarida, Zarafshon daryosi, «Sarmish» va Nurota tog’lari bag’rida, «Nurota - Qizilqum» qo‘riqxonasi ochilishi rejalashtirilgan zaxira biosferasi, Uchquduq va Tomdi hududlaridagi markaziy «Qizilqum» qo‘riqxonasi hududlarida ekoturizmni rivojlantirib, ovchilik, baliqchilik, sayyohlik va boshqa ko‘plab dam olish maskanlari va xizmatlarini tashkil etish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1.Shavkat Mirziyoyev.Yangi O‘zbekiston Strategiyasi.Toshkent.O‘zbekiston nashriyoti.2021.211-bet.
2.Navoiy viloyati statistika boshqarmasi.2020-yil yanvar oyi
3.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Yangi O‘zbekiston nashri.18.03.2022
4.NavoiyVTRK_Rasmiy kanali
5.Navstat.uz/uz/48-rasmiy statistika
6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-iyun. PQ-3071-sonli qarori
7.Xatirchi tarixi: kecha va bugun. X.Qurbonov, J.Mustafoyev, Sh.Toshturov, va boshq. Sahhof, 2021, 350-bet.
8.Navbahor tarixi: kecha va bugun. U.Narzullayev, J.Mustafoyev, va boshq. Sahhof, 2020, 367-bet.
9.Konimex tarixi: kecha va bugun. J.Mustafayev, U.Narzullayev, L.Berdimuratova, Z.Safarov, Sahhof, 2020, 318-bet.
10.Qiziltepa tarixi. Qahramon Rajabov. Rahim Maqsudov.168-bet
11.Navstat.uz/uz.rasmiy statistika
12.NKMK.AJ.Matbuot xizmati
13.https://dunyo.info/uz/site/inner/o‘zbekiston_respublikasi_prezidenti_shavkat_mirziyoyevning_sog‘liqni_saqlash_sohasi_vakillari_bilan_ochiq_muloqot_shaklidagi_uchrashuvda_so‘zlagan_nutqi-aPh

14.https://xs.uz/uz/post/navoij-viloyat-kop-tarmoqli-tibbiyot-markazida
15.NavoiyVTRK_Rasmiy kanali
16.https://kun.uz/uz/95412978 Navoiyda tibbiyot xodimlari bayrami nishonlandi
17https://uza.uz/oz/posts/o-zbekiston-respublikasi-aholisiga-2017-2021-yillarda-ixtiso-20-06-2017
18.NavoiyVTRK_Rasmiy kanali
19.https://darakchi.uz/index.php/oz/131980
20.http://daryo.uz/2022/11/12/shavkat-mirziyoyev-bir-guruh-tibbiyot-xodimlarini-mukofotladi/?id=1120268
21.https://navoi.kasaba.uz/index.php?newsid=427

## TA'LIM TURIZMINING XALQARO XIZMATLAR BOZORIDAGI AHAMIYATI VA SALOHIYATI

**Fattoyev Islom Ilg'orovich-**
Navoiy davlat universiteti doktoranti

**Annotasiya.** Ushbu maqolada muallif ta'lim xizmatlari bozorining integratsion jarayonlari natijasi sifatida ta'lim turizmining rivojlanish, ta'sir etuvchi omillar hamda xalqaro ta'lim dasturlari xususiyatlari haqida ma'lumot keltirgan.

**Аннотация.** В данной статье автор предоставляет информацию о развитии и факторах влияния образовательного туризма в результате интеграционных процессов рынка образовательных услуг и особенностях международных образовательных программ.

**Annotation.** In this article, the author provides information about the development of educational tourism, influencing factors and features of international educational programs as a result of the integration processes of the educational services market.

Globallashuv va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimidagi integratsion jarayonlar ta'lim xizmatlari bozorining shakllanishiga, ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, ayirboshlash va almashinuvi masalalari bo'yicha o'zaro hamkorlik faoliyatlarining intensiv rivojlanishiga sabab bo'ldi. Mos ravishda, ta'lim turizmi bozorining xalqaro ko'lamda dinamik o'sishini kuzatish mumkin.

Ta'lim turizmi bozorining 30%i oliy ta'lim muassasalari bituvchilari hamda kasbiy ish faoliyati bilan band bo'lganlar, 26-45yoshdagilar segmentiga to'g'ri kelmoqda. Ushbu yoshdagi iste'molchilar xorijda istiqbolli faoliyat yuritishni, tajribalarini diversifikatsiya qilishni, yangi madaniyatni o'rganishni va yangi ko'nikmalarni o'zlashtirishni xohlashadi.


Fikrimizcha, dunyoda ro'y berayotgan texnologik va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar ko'proq insonlarni butun hayoti davomida ilm olishga, o'rganishga da'vat etmoqda. Yuqoridagi yosh bo'yicha guruhlashda keyingi segment

"56 yosh va undan yuqorilar" kiritishni lozim deb topdik. Jumladan, XXRning 56 yoshdan yuqori 5mln aholisi dunyo bo'yicha madaniy hamda ta'lim turizmini amalga oshirmoqda.

Fikrimizcha, ta'lim olish maqsadida chiqish turizmini amalga oshirishda ta'sir etuvchi omillar quyidagilardan iborat(1-rasm).

- *Qabul qiluvchi davlatning qulay immigrasiya siyosati* – bir nechta immigratsiya dasturlari tobora ko'proq talabalarni doimiy yashash joyini tanlashga va mamlakat ishchi kuchining faol qismiga aylanishga jalb qilishga yo'naltirilgan. Kanadaning Express Entry immigratsiya dasturi Kanada universitetlarini tamomlagan xalqaro talabalarni mamlakatda vaqtinchalik yashash yoki doimiy yashash joyini tanlashga tegishli qulaylik yaratgan.

- *Qabul qiluvchi davlatlardagi ta’lim muassasalari yuqori akademik standartlarga egaligi* hamda sifatni saqlab qolish uchun qat’iy talablarga amal qiladi, shuningdek, o‘z talabalariga yuqori darajadagi ta’limni taklif qilish uchun yaxshi qo‘llab-quvvatlanadi. QS World Ranking 2023 ma’lumotlariga ko‘ra, eng yaxshi 50 ta universitetning 27 tasi AQShda, 17tasi Buyuk Britaniyada joylashgan.[262]




**1-chizma. Xalqaro ta’lim turizmini amalga oshirishda ta’sir etuvchi omillar**

–Talabalarga qabul qiluvchi davlat yoki OTM tomonidan turli stipendiya, imtiyozli kredit kabi iqtisofiy- ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlovchi siyosati: o‘qish xarajatlarini ma’lum qismini yoki to‘liq qoplashi, transport xarajatlari va tadqiqot o‘tkazish, tehsil olish jarayonidagi ma’lum xarajatlarni qoplashi kabilar shular jumlasidandir.

– Ta’lim uchun sayohat, shuningdek, talabalarni turli madaniyatlar va ma’naviy dunyoqarashini oshirishga, xilma-xillikka yo‘naltirilgan faoliyatlar taklifi mavjud bo‘lishi.

–Qulay transport infrastukturasining mavjudligi- tegishli davlatga yetib olishda mavjud transport xizmatlarining qulayligi, vaqti va narxi bo‘yicha iste’molchiga, jumladan talaba uchun tariflar taklifi mos talabni shakllantiradi.

–Qabul qiluvchi mamlakatdagi siyosiy, iqtisodiy barqarorlik va diniy bag‘rikenglik mavjudligi birlamchi ta’sir etuvchi omildir. Siyosiy beqaror bo‘lgan davlatda ta’lim xizmatlarini eksport yoki import munosabatlarini amalga oshirib bo‘lmaydi.


Iqtisodiy barqarorlik esa ta’lim turizmiga bevosita ta’sir etuvchi omil hisoblanadi.

Chunki shu omil aholi o‘rtacha daromadi sayohat qilish singari ikkilamchi ehtiyojini qoplash qurbiga egaligini xarakterlaydi;

–Turli global to‘siqlar : Covid-19 pandemiyasi, Rossiya va Ukraina o‘rtasidagi urush, iqlim o‘zgarishi, neft narxi hamda logistika xizmatlaridagi beqarorlik xalqaro turizm bozoriga sezilarli ta’sir etmoqda (2-chizma).

Quyida BTT global pandemiyadan so‘ng uning ta’sirini o‘rganish maqsadida so‘rovnoma o‘tkazib, natijani quyidagicha ifodalagan:

[262]https://www.qs.com/rankings-released-qs-international-trade-rankings-2023




**2-chizma. Pandemiyaning turizmga ta’siri[263]**

Butunjahon turizm tashkiloti (BTT) o‘tkazgan xalqaro so‘rovnomada global turizmni tiklanishida ta’sir etuvchi omillar sifatida 82% respondent iqtisodiy muhit(valyuta kurslari barqarorligi, bank-moliya xizmatlari…) birlamchi ta’sirga egaligini qayd etgan. Transport va joylashtirish xizmatlari uchun qilinadigan xarajatlar ham bevosita ta’sir etuvchi omil sanaladi., deb 60% respondent fikr bildirgan. Keyingi o‘rinlarda sayohat qilish uchun cheklovlar(33%), Rossiya-Ukraina mojarosi (31%) kabi omillar qayd etilgan.

Ayni vaqtda turizm bozorining xalqaro ko‘lamida mavjud to‘siq, kamchiliklarni bartaraf etishga, turizmni tiklashga e’tibor qaratilgan.

Global turizm sektori bozor hajmi 2022-yilda 2021-yilga nisbatan qariyb 41 foizga o‘sdi. Keskin o‘sishga qaramay, jahon turizm bozori hajmi pandemiyadan oldingi darajadan past bo‘lib qoldi va 2022 yilda jami ikki trillion AQSh dollarini tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2023 yilda qariyb 2,29 trillion AQSH dollariga ko‘tarilib, 2019-yilda qayd etilgan cho‘qqidan(2,20trln $) oshib ketishi kutilmoqda.

– OTMlarning turli xalqaro loyihalarda ishtiroki (ERASMUS+, Kamenius…), turli grant va stipendiyalarni taklif etadigan dasturlari bilan xorijiy talabalar auditoriyasini kengaytirish imkoniyati kafolatlanadi. Xalqaro loyihalar g‘olibi bo‘lgan talaba turli qulay imtiyozlarga ega bo‘ladi.

Aksariyat Yevropa davlatlarida ta’lim turizmining ijtimoiy shakli sezilarli ahamiyatga ega, ya’ni ular turli grant va stipendiya dasturlari orqali amalga oshiriladi. Shu o‘rinda Erasmus hamda Komenius ta’lim dasturlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Erasmus – European Region Action Scheme for the Mobility of University Students, ya’ni Universitetlar talabalari mobilligi bo‘yicha Yevropa hududiy chora-tadbirlar sxemasiga asoslangan ta’lim dasturi bo‘lib, 1987 yilda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari uchun mo‘ljallangan talabalar almashish notijorat dasturi sanaladi. U talabalar va o‘qituvchilarning Yevropa Ittifoqiga kiradigan davlatlar hamda Islandiya, Norvegiya, Makedoniya, Turkiya vaqtincha o‘qishlari, tajriba almashishlari uchun shakllantirilgan. Erasmus ta’lim grantining nomi 16-asrda yashagan, insoniyat tarixidagi birinchi globalist, Niderlandiya gumanisti Erazm Rotterdamskiy sharafiga qo‘yilgan.

Butun Yevropa mintaqasini qamrab olgan bu dasturning moddiy ta’minotini Yevropa Ittifoqi va mahalliy universitetlar amalga oshiradi. Xorijiy talabalar ularning chet elda yashash bilan bog‘liq xarajatlarini qoplaydigan stipendiya olish imkoniyatiga ega .

Dastur o‘qituvchilarga keng imkoniyatlar ochib berdi, endi ular chet el oliy o‘quv yurtlarida pedagogik faoliyat yuritishlari mumkin bo‘ldi, abituriyentlarga chet el oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga

[263]UNWTO Panel of Experts Survey (September 2022)

kirishlarida yordam berdi, amaliyotchilar uchun Yevropa Ittifoqiga a’zo mamlakatlarga safar tashkil etdi. Erasmus ta’lim dasturi 2007-2013 yillarga mo‘ljallangan bo‘lib, uning faoliyati Erasmus+(Erasmus plyus) 2014-2020 yillarga mo‘ljallangan hamda kengroq ko‘lamni qamragan dastur bilan davom etdi[264]. Unda deyarli barcha davlatlardan talabalar, o‘qituvchilar, yoshlar, volontyorlar va sport sohasi vakillari ta’lim olish, malaka oshirish, qayta tayyorlash kurslarida ishtirok etishi mumkin. Umuman olganda, Erasmus+ dasturi ungacha bo‘lgan deyarli barcha ta’lim dasturlari (Erasmus, Erasmus Mundus, Tempus, Alfa) oldingi dasturlarning tajribasi va barcha muvaffaqiyatli yechimlarini jamlangan integrasiyalashgan shakli hisoblanadi. 2021-2027 yil dasturi ijtimoiy qamrov, yashil va raqamli transformatsiya shuningdek demografik hayotda yoshlarning ishtirokini ta’minlashga kuchli e’tibor qaratadi

2021-2027 yillarga mo‘ljallangan dasturda inklyuziv ta’lim asosida ijtimoiy qamrov, yashil va raqamli transformasiya va yoshlarning demokratik hayotdagi ishtirokini rag‘batlantirishga katta e’tibor qaratilgan. U Yevropa ta’lim hududi, Raqamli ta’lim bo‘yicha harakatlar rejasi va Yevropa ko‘nikmalari rejasi asosida belgilangan faoliyatlarni qo‘llab-quvvatlaydi.[265]

*Komenius* – o‘rta ta’limga o‘quvchi va o‘qituvchilar tarkibiga Yevropa madaniyati, tillari va qadriyatlarini o‘rganish[266]ga yo‘naltirilgan ta’lim dasturidir.

Ushbu ta’lim dasturi nomi 17asrda yashagan chex pedagogi Ionn Amos Komenskiy sharafiga qo‘yilgan. Komenskiy dasturining asosiy maqsadi tillar, madaniy meros va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha “Yevropa ta’lim loyihalari” doirasida turli mamlakatlardagi ta’lim muassasalari o‘rtasida ko‘p tomonlama hamkorlikni kengaytirishdan iborat. Shuningdek, milliy ta’lim tizimini takomillashtirish uchun axborot va tajriba almashishga ko‘maklashish ham nazarda tutilgan.

Umuman olganda, yuqorida sanab o‘tilgan barcha ta’lim dasturlari auditoriyasi o‘suvchi xarakterga ega bo‘lib, hozirga qadar 4,5 mln ishtirokchiga yetgan. Bu esa Yevropa Ittifoqi hamda boshqa davlatlarda o‘quvchi, talaba va o‘qituvchilar mobilligini oshirish orqali ta’lim turizmi xizmatlari takomillashishi va oshishiga xizmat qiladi.

*Boloniya ta’lim tizimi* ham ta’lim turizmi auditoriyasini kengaytirishda ahamiyat ega. Uning mohiyati – davlatlararo yagona ta’lim standartlarini yaratishdan iborat. Bu talabalar, bitiruvchilar va xodimlarning mamlakatlar va universitetlararo “harakatlanish”iga yordam beradi.[267] Shunday qilib, ular bilimlarni kengaytirish, yangi tajriba orttirish, o‘qitish va tadqiqot olib borish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Bolonya jarayoni 1999 yilda Italiyaning Bolonya shahrida imzolangan deklaratsiyani amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarning umumiy nomidir. Shu yili Yevropaning 29 ta davlati Bolonya deklaratsiyasini imzolash orqali ushbu jarayonni boshlab berishgan. Bugungi kunda ushbu deklaratsiyani Yevropaning 49 ta mamlakat imzolagan. Markaziy Osiyodan faqat Qozog‘iston 2010 yildan beri Bolonya jarayonlarning a’zosi hisoblanadi. Rossiya Federatsiyasi 2022 yilda jarayondan chiqishini e’lon qildi (48 ta mamlakat qoldi).

A’zo mamlakatlardan tashqari Yevropa Komissiyasi ham jarayonga a’zo. YUNESKO, Yevropa universitetlar assotsiatsiyasi (EUA), Yevropa oliy ta’lim hududi ta’lim sifatini ta’minlash agentliklari assotsiatsiyasi (ENQA) va boshqa ko‘plab tashkilotlar maslahatchi a’zo sifatida ishtirok etishadi. Bolonya jarayonining asosiy maqsadlari sifatida quyidagilar belgilangan:

– Yevropa oliy ta’lim hududini shakllantirish (European Higher Education Area). Bu hudud bitiruvchilarni ish bilan ta’minlash imkoniyatlari hamda talabalarning mobilligini rivojlantirish uchun zaruriy sharoitlarni yaratadi deb hisoblanadi. Yevropa oliy ta’lim hududi 2010 yildan boshlab shakllangan deb hisoblanadi.

[264] tsautb.uz
[265] https://erasmus-plus.ec.europa.eu
[266] https://wiki5.ru
[267] https://www.econ.msu.ru

– Ta’lim sifatini oshirish. Jarayonga a’zo mamlakatlar ushbu yo‘nalishda Yevropa oliy ta’lim hududida ta’lim sifatini ta’minlash standartlari va yo‘riqnomasini (Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area (ESG) ishlab chiqib, muomalaga kiritishgan.

– Global ta’lim bozorida talabalar uchun kurashish va ta’lim faoliyatini turli resurlar bilan boyitish maqsadida Yevropa oliy ta’lim muassasalarining boshqa mamlakatlar ta’lim tizimlariga nisbatan raqobatbardoshligini ta’minlash;

– Milliy oliy ta’lim tizimlarining bir-biriga muvofiqligi va taqqoslana bilinishiga erishish;

– Yevropa mamlakatlarining intellektual, madaniy, ijtimoiy va ilmiy-texnik salohiyatini mustahkamlash;

– Yevropa oliy ta’lim tizimi nufuzini oshirish;

– Yevropa madaniy qadriyatlarini rivojlantirishda universitetlarning rolini oshirish.

Bolonya jarayoniga qo‘shilish davlatlar uchun ixtiyoriydir. Jarayonga qo‘shilish uchun tegishli deklaratsiyani imzolash zarur bo‘ladi. Imzolash bilan birga, davlatlar bir qator majburiyatlarni ham o‘z zimmalariga olishadi.

Demak, bugungi kunda ta’lim turizmi global turizm bozorida quyidagi rivojlanish tendensiyalarda ifodalash mumkin( 3-chizma):




**3- chizma. Global turizm bozorining rivojlanish tendensiyalari[268]**

[268] Ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi

Fikrimizcha, zamonaviy jahon ta’lim turizmi bozoriga xalqaro ta’limga talabning oshish fenomeni alohida ta’sirga ega. Ya’ni, talabalarning xalqaro mobillikka talabning o‘sishi ta’lim turizmi bozoriga to‘g‘ri proporsoinal ta’sir etadi, mos iqtisodiy tushumlarni oshiradi. Ta’lim, turizm hamda zarur infrastrukturalar integrasiyasi global ta’lim turizmi bozorining rivojiga va mos ravishda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarda sezilarli ijobiy hissaga ega bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. N.Makhmudova. (2023). International educational tourism services: global trends and the impact of regional development. РЫСКУЛОВСКИЕ ЧТЕНИЯ – 2023.«The 1st International Conference on Sustainable Regional Development in Central Asia», www.narxoz.edu.kz, 168
2. https://www.qs.com/rankings-released-qs-international-trade-rankings-2023
3. https://www.econ.msu.ru
4. tsautb.uz
5. https://erasmus-plus.ec.europa.eu
6. https://wiki5.ru


## JADIDCHILIK HARAKATINING O‘ZBEK TARIXSHUNOSLIGIDAGI O‘RNI


**Zokirov Umrbek Shokirovich-**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti



**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XIX asrda Markaziy Osiyoda paydo bo‘lgan jadidchilik harakatining o‘zbek tarixshunosligiga qo‘shgan hissasi, jadid ma’rifatparvarlari tomonidan yaratilgan tarixiy asarlar tahlil etilgan.



**Kalit so‘zlar:** Markaziy Osiyo, Turkiton, Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Ismoil G‘aspirali, tarix fani, tarixchi olimlar.



**Аннотация.** В статье анализируется вклад джадидского движения, возникшего в Средней Азии в XIX веке, в узбекскую историографию, а также исторические труды, созданные просветителями-джадидами.



**Ключевые слова:** Средняя Азия, Туркитон, Бухарский эмират, Хивинское ханство, Исмаил Гаспирали, историческая наука, учёные-историки.



**Abstract.** This article analyzes the contribution of the Jadid movement, which emerged in Central Asia in the 19th century, to Uzbek historiography, and the historical works created by Jadid enlighteners.



**Keywords:** Central Asia, Turkiton, Bukhara Emirate, Khiva Khanate, Ismail Gaspirali, historical science, historical scholars.


**KIRISH.** Mustaqillik sharofati bilan milliy tariximizga bo‘lgan e’tibor kuchaydi.

Ayniqsa, istiqlol tufayli qaror topgan, hurfikrlik sharoitida haqqoniy tariximizni tiklash va uni xolisona tahlil etish davr talabiga aylangan, bugungi kunda oshkoralik yuzini ko‘rishga va tuxmat tamg’alaridan xalos bo‘lishga musharraf bo‘lgan yaqin o‘tmish - XIX asr oxiri va XX – asrdagi milliy taraqqiyparvarlik harakati bo‘lgan.

Zero, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek – “Fidoyi jadidlarimiz hayoti biz uchun o‘rnak, yoshlarni istiqlol, vatanparvarlik, millatparvarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega, ularning bosib o‘tgan kurash yo‘lini o‘rganish zarur”[269]. O‘zbekiston mustaqilligi sharoitida Turkiston jadidchilik harakati tarixi o‘ta dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etadi.

[269] I.A.Karimov.Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. T. “Sharq” 1998 y.24-bet.

Turkistonda jadidchilik milliy-ozodlik kurashi jarayonida yuzaga kelgan, o‘zbek xalqi tarixida yangi sahifani ocha boshlagan ijtimoiy harakat bo‘lganligi bilan ajralib turadi. Ularning dunyoqarashida vatanparvarlik, millatparvarlik, marifatparvarlik, taraqqiyparvarlik kabi g’oyalar yetakchilik qilgan. O‘lkani zulmdan ozod qilishni hamma narsadan ustun qo‘ydilar. Jadid ziyolilari erk, istiqlolga erishish uchun milliy ongni o‘stirish zarurligini payqadilar. Shu orqali milliy uyg’onish yasamoqchi bo‘lganlar. Buni esa ta’lim va tarbiyada-marifatda deb bildilar. Shuning uchun ham jadidlar yangicha ta’lim va tarbiya tizimini qaror toptirish yo‘lida xormay tolmay ishladilar.

**ASOSIY QISM.** Turkistondagi jadidchilik XIX asrning 80-yillarida Rossiya musulmonlari, xususan, Kavkaz va Volga bo‘yida yoyilgan shu nomdagi taraqqiyparvarlik harakatining bevosita ta’siri va samarasi sifatida dunyoga keldi. «Jadidchilik»ning asosida «jadid» so‘zi yotadi. «Jadid»ning ma’nosi «yangi» demakdir. Yani «Yangi tafakkur», «yangi inson», «yangi avlod» singari keng ma’nolarni o‘zida mujassam etgan. Harakatning kirib kelishi Ismoilbek G‘aspirali (Gasprinskiy) ochgan yangi maktab nomi bilan bog’liq. U yozadi: «...1884 sanasi Bog‘chasaroyda bir maktabni «usuli jadid»ga qo‘ymish edim»[270]. Bu boshlanishi edi. Harakatning mazmuni maktab doirasida qolmadi, albatta. Bunda yuqorida nomini zikr etganimiz Ismoilbek Gaspralining «Tarjimon» gazetasi (1883) va u asos solgan «Usuli jadid» (ikkinchi nomi «usuli savtiya») maktabi (1884) xal qiluvchi rol o‘ynadi. Shuningdek, Turkistondagi XIX asrning boshlaridagi eski maktab-madrasa tizimidan noroziliklar, taraqqiyotga to‘siq bo‘la boshlagan.

Abdulla Avloniyning «Tarjimai hol»idan: «Shul zamonda (1894—1904 yillar ko‘zda tutiladi) yerli xalqlar orasida eskilik-yangilik qadim-jadid janjali boshlandi. Yangi fikrli o‘qituvchilarni mullalar «jadidchi» nomi bilan atar edilar»[271]. Jadidlar Usmonli Turkiyadagi «Ganch (yosh) turk», «Ganch usmonli» ta’siri bilan «Yosh buxoroliklar», «Yosh xivaliklar», «Yosh turkistonliklar» deb ham nomlandilar. Birinchi ikki nom rasmiy tashkilot darajasiga ko‘tarildi. Demak, jadidchilik hurlik, ozodlik uchun kurash jamiyatning bosh maqsadlaridan qilib belgilangani ma’lum bo‘ldi. «Jadid» atamasi Turkiyada XX asr boshidagi adabiyotga, uning ham birgina yo‘nalishiga nisbatan ishlatiladi. Shuningdek, «Rossiya jadidchiligi» o‘zimizda esa, «Buxoro jadidchiligi», «Xiva jadidchiligi», «Turkiston jadidchiligi» degan atamalarni uchratamiz. Bu turli joyda turlicha shaklda namoyon bo‘ldi. Masalan, Turkiyada 1839-yildagi mashhur Mustafo Rashit Posho tomonidan yozilib, Gulxona maydonida e’lon etilgan va tarixga «Gulxonai xatti Humoyun» nomi bilan kirib, «Tanzimot»ni boshlab bergan davr ham, yangilanishdir — jadidchilikdir.

To‘g‘ri, u asosan, g‘arblashishni tamal qilib olgan edi. Shuning uchun ham ko‘p o‘tmay, bunga qarama-qarshi ravishda «turkchilik», «usmonchilik», «islomchilik», «turonchilik» kabi milliy g‘oyalar o‘rtaga tashlandi. Yevropalashish tariximizning shu davrida jadidchilikning muhim xususiyatlaridan bo‘lgan. Chor hukumati bundan mahalliy xalqni ruslashtirish yo‘lida foydalandi ham. Lekin mezon mahalliy xalqning o‘z dini va e’tiqodini dahlsiz qoldirish, Yevropa ilm-fanini shularning muhofazasiga xizmat qildirish uchun bu yerda ham kurash ketdi.

Turkchilik, islomchilik, mahalliy o‘zbekchilik kabilarning bu yerda ham maydonga kelishi bejiz emas. Aslida, bizning jadidlarda fikr va g’oya juda kuchli.

Mana, masalan, Dukchi Eshonni oling. U kuch, zo‘rlik bilan mustaqillikka erishish tarafdori. U ham jadid din islohotchisi, siyosiy kurashchi. Bir qator jadidlarimiz ongli suratda sovetlar bilan hamkorlik qildilar, kommunist bo‘ldilar. Bu bilan ham hisoblashmoq kerak. Bu hol, ayniqsa, mustaqillik uchun olib borilgan kurashda yaqqol ko‘rindi. Bu borada 3 yo‘lni kuzatish mumkin:

1. Rossiyaga tobelikdan zo‘rlik bilan qutulish, kuch bilan istiqlolga erishish (Dukchi Eshon qo‘zg‘oloni, 1916-yil mardikorlikka qarshilik harakati, istiqlolchilik harakatlari).

2. Murosa yo‘li. Ruslar yordamida ma’rifatga erishish. Ma’rifat masalasida haq-huquq olish, milliy xususiyatlarni tiklash (I. Gaspirali, M.Behbudiy va boshqalar).

[270] И. Гаспрали. Раҳбари муаллимин ёки муаллимларга йўлдош.. 1998 й. 4-бет.
[271] Абдулла Авлоний. Танланган асарлар, 2-жилд. Т., "Маънавият». 1998 й, 288-бет.

3. Hamkorlik yo‘li. Chor ma’murlari, so‘ng esa sho‘ro hukumati bilan birga ularning dasturlarida qatnashish va imkon bo‘lishi bilan mustaqillikni qo‘lga olish. Buning uchun ma’lum tayyorgarlik ko‘rib borish (Munavvar Qori. Hamza, Avloniy va boshqalar).[272]

Jadidchilik Kavkaz, Volga bo‘yi, Turkiyadagi jadidchilikka nisbatan an’analarga ko‘proq bog‘lanib qolgan, umumyevropa ijtimoiy-madaniy jarayoniga tortilish darajasi qiyinroq kechgan. Vatanimiz tarixida har bir yangilikning kirib kelish jarayoni g‘oyat og‘ir kechgan. Mana shu xil asliy xususiyatlarimizni anglash va anglatishda ziyolilar zimmasiga juda katta mas’uliyat yuklatilgan edi. Tarix shunchaki xabardor bo‘lish uchun o‘rganib qo‘yilmaydi. U oyna, ibrat, tarbiya vositasi bo‘lmog‘i kerak edi.

Ikkinchidan, birgina tarix bilan cheklanib bo‘lmasdi, undan kelib chiqqan holda zamon ehtiyojiga javob bermoq lozim edi. Milliy mafkura konsepsiyasi millatning asliy xususiyatlaridan kelib chiqmog‘i va uning tabiati, aql-u tafakkuri, ehtiyoj-zarurati, imkoniyati kabilarga mutanosib g‘oyalar asosiga qurilmog‘i lozim edi. Milliy ideallarimizni belgilash lozim edi. Unutilgan milliy qahramonlarimizni, fan dohiylari, din dohiylari, harb dohiylarini, mashhuri jahon shoirlarimiz, ijodkorlarimizni tanish va tanitish kerak edi. Ular millatga xos aql-u zakovatini, sabr-u toqatni, g‘ayrat-shijoatni, zavq-shavqini o‘zlarida namoyon etgan edilar.

Qadriyatlar (din-diyonat, urf-udum, marosimlar), tarix va tarixiy shaxslar. Ular ko‘targan adolat bayrog‘i millatni bir va bor qiladigan asosiy omillar edi. Jadidchilik, shunchaki bir ma’rifiy, madaniy harakatigina emas edi[273].

Buni sovet siyosatchilari yaxshi bilar edilar. Shunchaki harakat bo‘lganida ular qatag‘on qilinmas edilar. Ularga «xalq dushmani», «Vatan xoini» degan tavqi la’natlar yopishtirilmas edi. Darvoqe, «haqqoniylik»ni da’vo qilib kelgan tarixchilarda ham buni payqash qiyin emas. A.V.Pyaskovskiy yozadi: «Shu vaqtdan (1905—1917-yillar ko‘zda tutilmoqda ) e’tiboran Turkistonda «jadidchilik» deb tanilgan burjua-liberal, millatchilik harakati keng yoyila boshladi va usuli jadid maktablari ochish va targ‘ib etish, madaniyatparvarlik singari dastlabki tor doirasidan chiqib, aniq ko‘zga tashlanib turuvchi siyosiy ahamiyat kasb etdi»[274]. Darhaqiqat, jadidchilik siyosiy harakatlar bilan bog‘lanmasligi mumkin emas edi. Masalani yaxshiroq tushunib olish uchun uning tarixiga yana bir bor ko‘z tashlash ehtiyoji tug‘iladi. Umuman, Rossiya istilosidan so‘ng o‘lkada ko‘plab xalq g‘alayonlari yuz berdi. Ularning aksariyati mustaqillik yo‘lidagi urinishlar edi. Biroq tashkiliy jihati nochor bo‘lib, ko‘pincha diniy motivda kechdi.

Umuman, o‘z ko‘lami va oqibatlari bilan butun Turkistonni larzaga solgan bu harakat va uning adabiyotdagi talqini tarixchilarimiz hamda adabiyotshunoslarimiz hamkorligida o‘rganilishi zarur bo‘lgan masalalardan. Asr boshidagi voqealar, rus-yapon urushidagi mag‘lubiyat Rossiyani bo‘hronga olib keldi. Ichki milliy nizolar, noroziliklar kuchaya boshladi. Lekin tobe millatlar o‘z haq-huquqlari uchun endi ilgarigiday kurashish to‘g’ri emasligini anglab yeta boshladilar.

Turkistonda ham sekin-asta uyg’onish boshlandi. Rossiyada, xususan Kavkaz, Volgabo‘yida yashovchi turkiy millatlar bilan yaqinlashishga, hamkorlikka intilish kuchaydi. Yangi g‘oyalar kirib kela boshladi. Turkchilik Turkiyada muayyan tashkiliy qurilishga ham ega edi.

Jumladan, 1889-yil 21-mayda «Ittihod va taraqqiy» jamiyati tuzildi. Jamiyatning Turkiston siyosiy-madaniy hayotiga ham sezilarli ta’siri bo‘lgan. Jamiyat yashirin, inqilobiy harakterda bo‘lib, Sulton Abdulhamidning feodal mustabid siyosatiga qarshi turgan, G‘arbda «Yosh turklar» deb nom olgan taraqqiyparvar yoshlarni o‘z atrofiga uyushtirgan edi. Uning tartib-nizomida, ish usulida Yevropaning ta’siri sezilib turardi.

Abdulla Avloniyning tarjimai holiga etibor qilinsa, uning 1904-yillardan qandaydir uyushmalarda ishtirok etganligi ma’lum bo‘ladi. «1904-yildan jadidchilar to‘dasida ishlay boshladim,

[272] Бегали Қосимов «Миллий уйғониш” Т, “Шарқ” 2000 й, 22-бет.
[273] Бегали Қосимов «Миллий уйғониш” Т, “Шарқ” 2000 й, 25-бет.
[274] Бегали Қосимов «Миллий уйғониш” Т, “Шарқ” 2000 й, 25-бет.

— deb yozadi u — ... o‘z oramizdan mullalarga qarshi uyushmamiz ham vujudga chiqdi... rus-yapon urushi chiqib, bizning ham ko‘zimiz ochildi...[275]

Jadidlar sotsializm g‘oyalaridan bexabar edilar yoxud uni ko‘r- ko‘rona rad etadilar deyish mumkin emas. Ismoilbekning 1885-yilda Turkiyada chop etilgan «Ovrupo madaniyatiga bir nazari muvozanat (betarafona nazar)» nomli risolasi, ayniqsa, «Tarjimon» gazetasining 1906-yilning iyun-iyul oylarida bosilib chiqqan «Mazhabi ishtirokiyun» («Sotsializm ta’limoti») turkum maqolalari bunga dalil.

Jadidlar fan-texnikasi bilan dunyoni hayratga solgan kapitalistik Yevropani ham, jannat va’da etuvchi sotsialistik Yevropani ham rad etadi. Har ikkisida ham axloqsizlik ko‘radi. Buni atroflicha asoslaydi. Muallifning fikrlash mantig’i quyidagicha: XIX asr Yevropa madaniyati qadim Rim madaniyati ustiga qurilgan, uning bevosita davomidir. Rim madaniyati esa g‘ayri ahloqiyligi sababli qulagan edi. Ularning o‘rniga kelgan «kapitalist»-chi? Bu haqda M.Behbudiy fikrlari quyidagicha, Masalan, «Turkiston obod bo‘ldi. Ilgari boy kam edi, millioner yo‘q edi...» deydilar. 6 mln turkistonliklar orasida 3 millioner bor. Ularni ham millioner deb bo‘larmikin?! Katta imoratlar hammasi yaxudiylarniki, ovrupolilarniki. Turkistonliklar sinmoqda... vaqflar ketgan, madrasalar harob... Kelajagi yo‘q[276].

Behbudiy, millat orasida chuqur tomir otgan «g‘araz, nafsoniy hasad, bahs va munozarai shaxsiyatlarni tark etmoq»qa, «shu maslak va shu jamiyatga tobe’ va xodim bo‘lmoq»qa chaqiradi[277]. Din va davlatga, Vatan va millatga xizmat etmoqni sharaf hisoblaydi. 1917-yilda esa, biz Abdurauf Fitratnnng Oktyabr voqeasi munosabati bilan, «Rusiyada yangi bir balo bosh ko‘tardi. Bolshevik balosi!...» degan keskin fikrini bilamiz. So‘ng 1919-yilda «kommunist» Abdulla Avloniy butun Turkistonni «fano va ayanch hol»ga solgan, «har yerda ish boshinda o‘lturg‘on», «o‘zlari oshalab, biz musulmonlarga yalatuv» bilangina kifoyalangan «rus tovarishlarimiz»[278] haqida yozdi... ularni keskin qoralaydi.

Xullas, jadidlarning ma’rifatparvar ziyolilari, fidoiylari millatni ilmli, siyosiy sergak bo‘lishga, milliy jihatdan uyg‘onishga chorlaydi. Turkistonda bu harakatning ko‘zga ko‘ringan vakillaridan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Ubaydulla, Asadullaxo‘jayev, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Toshpo‘latbek Norbutayev, Hoji Muin, Abduqodir Shakuriy, Nosirxonto‘ra Kamolxonto‘rayev, Obidjon Mahmudov, Ashurali Zohiriy, Eshonxo‘ja Xonxo‘jayev, Is’hoqxon to‘ra Ibrat; Buxoroda - Sadriddin Ayniy, Fayzullo Xo‘jayev, Abdurauf Fitrat, Muso Saidjonov, Abdulvohid Burxonov, Usmon Xo‘jayev, Mirkomil Burxonov, Muhitdin Mansurov, Muxtor Saidjonov, Abduqodir Muhitdinov va boshqalar; Xivada - Bobooxun Salimov, Polvonniyoz Hoji Yusupov, Avaz O‘tar, Husayn Matmurodov, Nazir Sholiqorov, Otajon Abdalov, Xudoybergan Devonov, Muhammad Rasul Mirzo, Otajon Sadayev, Bekjon Rahimov, Muhammad Devonzoda va boshqalar nomlarini alohida tilga olish zarur. Bular nafaqat xalq ommasining ma’rifatli qilishga balki, mustaqillik g‘oyalarini shakllantirishda ham katta hissa qo‘shdilar.

Jadidchilik asta-sekin rivojlanib borgan. Ma’rifatparvarlik g‘oyasidan boshlangan bu harakat, keng quloch yozib borgan. Ma’rifatparvarlik bilan birgalikda, jadidlar eski ijtimoiy va siyosiy tizim taraqqiyotning ilg‘or shaklini o‘zgartirishga intilganlar. Ma’rifatparvarlik bosqichida, jadidlar o‘zlarining asosiy vazifasi sifatida yangi tizimdagi ta’limni yaratishni ko‘rdilar va bor kuchlarini shu islohotni amalga oshirishga sarfladilar.

---

[275] Абдулла Авлоний. Танланган асарлар, 2-жнлд. Т**.,** "Маънавият». 1998 й,

[276] Алимова Д. Жадидчилик Ҳаракатининг ижтимоий-сиёсий мохияти ва жадидлар тафаккури. // Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. - Т., 1999. Б. 36.

[277] Алимова Д. Жадидчилик Ҳаракатининг ижтимоий-сиёсий мохияти ва жадидлар тафаккури. // Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. - Т., 1999. Б. 36.

[278] Абдулла Авлоний. Танланган асарлар, 2-жнлд. Т**.,** "Маънавият». 1998 й,

Markaziy Osiyoda jadidchilik serqirra bo‘lib, uning Turkiston, Buxoro, Xiva jadidchiligiga bo‘lish lozim. Xususan Buxoro va Xiva jadidchilik o‘ziga xos rivojlanib bu shu hudud aholisining (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy holati bilan bog‘liq edi). Jadidchilikning asosiy yo‘nalishi bo‘lgan oqimlaridan biri - Buxoro jadidchiligidir. Buxoro jadidchiligi o‘z xususiyatlari va jamiyatning ahloqiy ahvoli bilan bog‘liq edi. O‘ziga xos tarzda ajralib turadigan va murakkab shaxs bo‘lgan Fayzulla Xo‘jayev, uning maslakdoshlari Buxoro jadidchiligida markaziy o‘rin tutdilar.

F.Xo‘jayevning Buxoroda jadidchilikning yuzaga kelishiga xonlikning iqtisodiy negizi, jamiyat taraqqiyotiga to‘siq bo‘lib turgan «g‘ayri tabiiy va dahshatli tartibsizliklar» sabab bo‘lgan, degan fikrni inkor yetish qiyin. Ayni paytda, muallif Buxoro O‘rta Osiyoning qoq o‘rtasi, qadimiy savdo yo‘llarining markazida joylashganligini, aholining asosiy qismi savodsiz bo‘lsa-da yuksak arab-fors madaniyatining izlari har qadamda uchrab turganini yaxshi tushunib yetgan. Ana shu sharoit va qadimdan zulm asosida hukm surib kelgan, siyosiy maqsadlarni ko‘zlab rus nayzalari bilan qo‘riqlangan Buxoro amirligi - jadidchilik Vatani bo‘ldi. F.Xo‘jayevning fikricha «O‘rta Osiyoni banklar, dehqonlardan xom ashyo sotib oluvchi savdo idoralari bilan qoplab olgan va O‘rta Osiyoga o‘z manufakturasi, boshqa fabrikantlarni keltirayotgan rus kapitalizmi «tobora kuchayib, jamiyatning ilg‘or qismini o‘ylantirib qo‘ydi, jadidchilikka sabab bo‘ldi». Buxorodagi mavjud boshqaruv tizimi va iqtisodda yuz bergan o‘zgarishlar jamiyatning tadbirkor savdogar qismini og‘ir ahvolga solib qo‘ydi. Shu tufayli, «jadidchilik savdogarlar sinfining ilg‘or qismi manfaatini ifoda etgan».

F.Xo‘jayevning fikricha, jadidchilik Turkistonga qaraganda, Buxoroda kechroq yuzaga kelgan bo‘lsa-da, jamoat hayotidagi og‘ir muhit uning taraqqiyotini tezlashtirdi va bu harakat 1915-yildan boshlab madaniyatdan siyosatga qarab yo‘l tutdi. Shunday qilib, «jadidlarning eng ilg‘or qismining dasturiy g‘oyalarida asosiy o‘rin tutgan g‘oya, Buxoroda g‘arb namunasidagi kapitalizm va demokratiyani rivojlantirish edi».

Buxoro amirligida jadidlar ikki oqimga - eskicha fikrlaydiganlar va Fitrat boshchiligidagi yoshlarga ajraldi. Natijada, o‘zaro kelishmovchiliklar mavjud bo‘lgan birlik yuzaga keldi. Bu holat esa kelishib olinmagan harakatlarga sabab bo‘ldi.

Xiva xonligida ham jadidchilik XX asr boshlarida bir muncha tarixiy sharoitlarda yuzaga keldi. Xonlikda jadidchilik harakati ikki yo‘nalishda mavjud edi. Uning o‘ng oqimi o‘ziga savdo - sanoat korxonalari egalari va yirik mulkdorlarni birlashtirdi. Bu oqimni Asfandiyorxonning bosh vaziri bo‘lgan – Islomxo‘ja boshqargan. Ularning maqsadi, xonlik hokimiyatini saqlagan holda, ijtimoiy - iqtisodiy islohotlar o‘tkazgan holda bozor munosabatlarini rivojlantirish edi. Xiva jadidchiligining chap oqimiga mayda burjuaziya vakillari, hunarmandlar, ulamolar va aholining o‘rta qatlami kirgan. Bu oqimning rahbari Xiva xonligi shayxul - islomi, qozi kalon Boboxun Salimov edi. Lekin Birinchi jahon urushiga qadar Xiva jadidlarining yagona markazi va dasturiy hujjatlari bo‘lmagan.

Buxorodagi jadidchilik harakati natijasida «yosh buxoroliklar» partiyasi tuzilgan bo‘lsa, o‘z navbatida Xivada jadidchilikning chap oqimidan «yosh xivaliklar» partiyasi tuzilib, uni Polvonniyoz Hoji Yusupov boshqaradi. Partiya o‘z dasturiga ega bo‘lib, unga ko‘ra Xivada konstitutsion monarxiyani o‘rnatib, va unda demokratik o‘zgarishlarni amalga oshirish lozim edi.

**XULOSA.** Jadidchilik harakatining eng muhim tomonlaridan biri ma’rifatparvarlik g’oyalari bilan bog’liq bo‘lib, bu g’oyalar o‘qish va o‘qitish usullariga isloh kiritish – yangi usul maktablarini tashkil etish, o‘quvchilarga zamonaviy bilimlar berish, Sharq va G’arb tillarini o‘rgatish, darsliklar yaratishda, ayniqsa, yorqin ko‘rinadi. Ular yangi tashkil etilgan maorif tizimi orqali shakllanib kelayotgan yoshlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga intilganlar. Yangi usul maktablari

Turkistonda jadid ma’rifatchiligining dastlabki qadami bo‘lishi bilan birga to bu harakat siyosiy tus olguncha, ahamiyatini yo‘qotmadi.

# AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI TARIXSHUNOSLIGI

**Baxtiyorova Ruxshona Sodiqjon qizi**
Navoiy davlat universiteti “Tarix” ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: **Djunayev Farxod Abduxamidovich**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Amir Temur va temuriylar davri tarixining o‘rganilishi, bu davrga oid tarixiy manbalar, ularning ilmiy tahlili hamda turli davrlarda tarixshunoslar tomonidan tadqiqot davriga berilgan baholar tahlil qilinadi. Xususan, maqolada temuriylar sulolasi davrida shakllangan ilmiy va madaniy muhit, tarixiy voqealarning zamonaviy yondashuvlar asosida o‘rganilishi va bu boradagi tarixshunoslik yo‘nalishlarining rivoji haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, o‘zbek va xorijiy tarixchilar tomonidan Amir Temur shaxsi va faoliyatiga berilgan baholar solishtirma tarzda ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** Amir Temur, temuriylar sulolasi, tarixshunoslik, manbashunoslik, o‘zbek tarixchiligi, tarixiy meros.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается изучение истории эпохе Амира Темура и Тимуридов, анализируютя исторические источники, относящиеся к данному периоду, и оценки, данные историками в разные времена. Особое внимание уделяется научной и культурной среде, сформировавшейся во времена Тимуридов, а также современным подходам к исследованию исторических событий. Также сравниваются оценки личности и деятелъности Амира Темура, данные узбекскими и зазубежными историками.

**Ключевые слова:** Амир Темур, династия Тимуридов, историография, источниковедение, узбекская истография, историческое наследие.

**Abstract:** This article explores the historiography of Amir Temur and the Timurid era, analyzing historical sources related to the period and the perspectives offered by historians over time. Special attention is given to the scientific and cultural environment of the Timurid dynasty, as well as modern approaches to studying historical events. The article also compares the evaluations of Amir Temurs personality and achivements made by both Uzbek and foreign historians.

**Keywords:** Amir Temur, Timutid dynasty, historiography, source studies, Uzbek historiography, historical heritage.

**KIRISH.** Amir Temur va temuriylar davri tarixshunosligi o‘zining boy manba asoslari va tarixiy yondashuvlari bilan ajralib turadi. Bu davrda tarixiy yozuvi an'anaga aylangan bo‘lib, davlat arboblari va tarixchilarning o‘zaro hamkorligi natijasida muhim asarlar yuzaga kelgan. Ushbu maqolada ana shu tarixshunoslik merosi va asosiy yozma manbalar tahlil etiladi.

XIV asr ikkinchi yarmida, Movaunnahrda siyosiy tarqoqlik yanada kuchaydi. Bunday og'ir vaziyatda feodal tarqoqlikdan barlos amirzodalaridan Amir Temur ustalik bilan foydalanib qoldi va 1370-yili oliy hokimiyatni qo‘lga oldi. U 1370-1379 yillar davomida mamlakatdagi tarqoqlikni tugatib, Movaunnahr va Xorazmni o‘ziga bo‘ysundirdi. 1381-1402 yillarda Amir Temur qo‘shni mamlakatlar ustiga yurish qilib, Eron, Kavkazorti, Iroq, Kichik Osiyo va Hindistonni istilo qildi. Oltin O‘rda xoni To‘xtamishga qaxshatqich zarba berib, uni poytaxti Saroy Berkani egalladi. Sohibqiron nafaqat O‘zbekiston tarixida, balki, jahon xalqlari tarixida katta iz qoldirgan buyuk siymodir. Amir Temur va Temuriylar tarixshunosligi va manbashunosligi tarix faning nafaqat hozirgi davrdagi dolzarb masalasi, balki, o‘rta asrlardayoq o‘rganilishi boshlangan muhim jarayon hisoblanadi.[1]

Markaziy Osiyoda ilk bor yangi tipdagi yirik markazlashgan davlat tuzishga erishgan Amir Temur fenomeni, avlodlarning tarixi tadqiqotchilar faoliyatida muhim o‘rin tutgan mavzu bo‘lib, turli tarixiy shart-sharoitlarda uni o‘rganishdagi yondashuvlar ham turlicha bo‘ldi. Mazkur mavzu tarixshunosligi nihoyatta katta hajmdagi ilmiy asarlarga ega bo‘lib, ularning yaratilish tarixi va tahlili

ham alohida e'tiborga sazovor.

**ASOSIY QISM.** Sharafiddin Ali Yazdiyning (XIVasr 1419-1425-y) "Zafarnoma"si Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga doir nodir asarlardan bo‘lib, u nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun Sharq mamlakatlari tarixini o‘rganishda ham muhim manba hisoblanadi. "Zafarnoma"ning asosiy qismi esa, muallifning dastlabki rejasiga ko‘ra, uchta qismdan iborat bo‘lmog'i lozim edi. Birinchi qism Amir Temur, ikkinchisi qismi uning o‘g'li Shohruhga va uchunchi qismi Shohruhning o‘g'li Ibrohim Sultonga bag'ishlanishi ko‘zda tutilgan edi. Biroq, hozir fanda ma'lum bo‘lgan qo‘lyozma nusxalarida keyingi ikki qism topilmagan. Asardagi ma'lumotlar, sanalar va geografik nomlar Ibrohim Sultonning farmoniga ko‘ra, har tomonlama tekshiruvdan o‘tkazilib, so‘ngra Sharafiddin Ali Yazdiyga beriladi. Kitob tushunarli tilda, aniq va tekshirilgan ma'lumotlarga asoslanib yozilgan. Shu yo‘sinda Amir Temurning rasmiy tarixi yaratildi.

Markaziy Osiyo tarixshunosligining durdona asarlaridan biri bo‘lgan "Zafarnoma" jahon tarixchilarining tadqiqot manbai bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Chunonchi, 1887-1888-yillarda hind sharqshunosi Mavlaviy Ilohdomning tashabbusi bilan olti nusxada "Zafarnoma"ning ikki jildi Kalkuttada nashr etilgan bo‘lsa, uning fransuz tilidagi tarjimasi esa ilk marotaba Fransua Peti de Krua tomonidan 1722-yilda chop qilindi[5] Rus tiliga ba'zi qismlari 1941-yilda va Ye.A.Polyakov tomonidan 1988-yilda tarjima qilingan.Rus tilidagi to‘liq tarjimasi 2008-yilda Toshkentda chop etilgan.[6]

Ma'lumki XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda o‘zining mustamlakachilik maqsadlarini amalga oshirishga muvaffaq bo‘lgan Rossiya imperiyasi o‘z manfatlari yo‘lida o‘lkani o‘rganish uchun tadqiqotchilarni safarbar qildi. Rossiyalik sharqshunos, tarixchi olimlar buyuk sarkarda, o‘rta asrlarda yirik markazlashgan imperiya tuzib uni mahorat bilan boshqargan Amir Temur shaxsi va davriga doir tadqiqotlar olib bordilar va buning natijasi ular qoldirgan ilmiy merosda mujassamlashdi[2]

Temurshunoslik yo‘nalishi rivojida akademik V.V.Bartold faoliyati salmoqli o‘rin tutadi. XX asr boshida V.V.Bartold tomonidan yozilgan Amir Temur va Temuriylar[3] haqidagi ma'lumot 1901-yilda ensiklopediyaga kiritilgan bo‘lib, ushbu hodisa ilmiy tadqiqot muhitida Amir Temur shaxsiga bo‘lgan qiziqishini yanada ortirdi.V.V.Bartoldning tadqiqotlari Amir Temur va Temuriylar davri tarixshunosligida muhim o‘rin egallagani mavzuning turli jihatlariga doir yaratilgan, masalan "Samarqanddagi 1365-yildagi xalq harakati" nomli Sarbadorlar qo‘zg'aloni va bu harakatni bostirishda Amir Temurning ishtiroki yoritilgan maqolada,"Мовароуннахрнинг географик очерки", "Бибихоним масжиди", "Урта Осие туркий халклари хакида ун икки маьруза", "Тимур" kabi asarlarida ham ko‘rish mumkin.[4].

XX asr boshlarida tadqiqotlarning asosiy mavzularidan biri Amir Temur vafoti va uning dafn etilishi masalasi bo‘ldi. Masalan, A.Ryabin, N.I.Veselovskiy va V.L.Vyatkiyning maqolalarida Amir Temur vafoti tafsilotlari, qabrtoshi va undagi matn, maqbarasining qurilishi tarixi yoritildi. XX asr boshlarida Temuriylar sulola vakillari hayoti va merosi mavzusi tadqiqotchilar faoliyatida o‘rin oldi. Masalan,D.N.Logofetning maqolasida Amir Temur kutubxonasi, uning ilm-fan va madaniyatga qo‘shgan hissasi haqida fikr yuritilgan. Boshqa tadqiqotlardan farqli ravishda, ushbu maqolada Amir Temur shaxsi asosan, ijobiy jihatdan yoritilgan.

